



Namangan davlat pedagogika instituti hamda "UNIVERSAL"
xalqaro ilmiy jurnali hamkorligida o'tkazilgan



XOTIN-QIZLAR ILMDA: TIKLANISH, YUKSALISH VA TARAQQIYOT SARI QADAMLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman
MATERIALLARI TO'PLAMI



“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**“XOTIN-QIZLAR ILMDA: TIKLANISH,
YUKSALISH VA TARAQQIYOT SARI
QADAMLAR”**

mavzusidagi

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

T O ‘ P L A M I

11-fevral 2026-yil

NAMANGAN-2026

2

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

Universal International Scientific Journal

UNIVERSAL

XALQARO ILMIY JURNALI
MAXSUS SONI 2026-YIL, FEVRAL

2026-yil 11-fevral kunlari Namangan davlat pedagogika instituti hamda “UNIVERSAL” xalqaro ilmiy jurnali hamkorligida o‘tkazilgan “XOTIN-QIZLAR ILMDA: TIKLANISH, YUKSALISH VA TARAQQIYOT SARI QADAMLAR” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari asosida tayyorlandi.

Bosh muharrir:

M. R. Qodirxonov

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor

Mas’ul muharrir:

S. X. Mutalov

Ijtimoiy fanlar fakulteti dekani

Mas’ul muharrir

S. M. Botirova

o‘rinbosari:

Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasini mudiri

T A H R I R H A Y ’ A T I

Pedagogika fanlari doktori, professor – M. Y. Sobirova

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent – S. M. Botirova

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent – J. A. Yuldashev

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) – G‘. M. Xolmatov

Tarix fanlari nomzodi, dotsent – Z. U. Xaydarov

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v. b. dotsent – R. M. Akbarov

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent – Sh. Xudayqulov

Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent – N. J. Abdullayev

Texnik muharrir: R. M. Akbarov

Mazkur “Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani 11-fevral – “Ilm-fan sohasidagi ayollar va qizlar xalqaro kuni” munosabati bilan Namangan davlat pedagogika institutida Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasining tashabbusi bilan o‘tkazilgan bo‘lib, anjuman materiallari Namangan davlat pedagogika instituti Ilmiy-texnikaviy kengashining 2025-yil 11-fevraldagi 2-sonli yig‘ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma’lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

© Namangan davlat pedagogika instituti

© “Universal” xalqaro ilmiy jurnali

© Mualliflar

TURKIY XALQLAR MADANIYATIDA TRANSFORMATSIYA JARAYONLARIDA AYOL OMILINING FALSAFIY TAHLILI

Najmidinova Guzal Axlitdinovna

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti,

Bahouddin Naqshband ilmiy-tadqiqot

markazi yetakchi ilmiy xodimi,

E-mail: najmidinovaguzal2024@gmail.com

+998909898884

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18662138>

Annotatsiya: Mazkur maqolada turkiy xalqlar madaniyatida yuz berayotgan transformatsiya jarayonlari ayol omili prizmasi orqali ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda madaniy transformatsiya tushunchasining falsafiy mazmuni ochib berilib, an’ana va modernlik o‘rtasidagi dialektik munosabatlar kontekstida ayolning jamiyatdagi o‘rni va mavqeidagi o‘zgarishlar yoritiladi. Shuningdek, ayol omilining madaniy tiklanish, ijtimoiy yuksalish va barqaror taraqqiyot jarayonlaridagi roli tahlil qilinadi. Maqolada O‘zbekiston, Turkiya va Ozarbayjon misolida turkiy xalqlarga xos madaniy qadriyatlar tizimida ayol obrazining tarixiy va zamonaviy talqinlari qiyosiy asosda ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari turkiy jamiyatlarda ayol subyektivligining kuchayishi madaniy transformatsiyaning muhim falsafiy omillaridan biri ekanini asoslab beradi hamda xotin-qizlarning ilmiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlardagi faolligini oshirish zaruratini falsafiy nuqtai nazardan ochib beradi.

Kalit so‘zlar: madaniy transformatsiya, ayol omili, turkiy xalqlar, ijtimoiy-falsafiy tahlil, gender va madaniyat, an’ana va modernlik, madaniy tiklanish, taraqqiyot.

Аннотация: В данной статье анализируются процессы трансформации, происходящие в культуре тюркских народов, с социально-философской точки зрения через призму женского фактора. Исследование раскрывает философское содержание концепции культурной трансформации и освещает изменения в роли и статусе женщин в обществе в контексте диалектической связи между традицией и современностью. Также анализируется роль женского фактора в процессах культурного возрождения, социального подъема и устойчивого развития. В статье рассматриваются исторические и современные интерпретации образа женщины в системе культурных ценностей, специфичных для тюркских народов, на примере Узбекистана, Турции и Азербайджана на сравнительной основе. Результаты исследования подтверждают, что усиление женской субъективности в тюркских обществах является одним из важных философских факторов культурной трансформации и выявляют необходимость повышения активности женщин в научных, социальных и культурных процессах с философской точки зрения.

Ключевые слова: культурная трансформация, женский фактор, тюркские народы, социально-философский анализ, гендер и культура, традиция и современность, культурное возрождение, развитие.

Abstract: This article analyzes the transformation processes taking place in the culture of the Turkic peoples from a socio-philosophical perspective through the prism of the female factor. The

study reveals the philosophical content of the concept of cultural transformation and highlights changes in the role and status of women in society in the context of the dialectical relationship between tradition and modernity. It also analyzes the role of the female factor in the processes of cultural revival, social upliftment and sustainable development. The article examines the historical and modern interpretations of the image of women in the system of cultural values specific to the Turkic peoples on the example of Uzbekistan, Turkey and Azerbaijan on a comparative basis. The results of the study substantiate that the strengthening of female subjectivity in Turkic societies is one of the important philosophical factors of cultural transformation and reveals the need to increase the activity of women in scientific, social and cultural processes from a philosophical point of view.

Keywords: *cultural transformation, female factor, Turkic peoples, socio-philosophical analysis, gender and culture, tradition and modernity, cultural revival, development*

Asosiy qism

Madaniy transformatsiya jamiyat taraqqiyotining murakkab va ko‘p qirrali jarayoni bo‘lib, u ijtimoiy ong, qadriyatlar tizimi, an‘analar va ijtimoiy rollarning yangilanishi bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy-falsafiy yondashuvda madaniy transformatsiya tarixiy merosni saqlagan holda zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlarga moslashish jarayoni sifatida talqin etiladi [1]. Ushbu jarayonda shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar yangicha mazmun kasb etadi.

Turkiy xalqlar madaniyatida transformatsiya jarayonlari an‘ana va modernlik o‘rtasidagi dialektik muvozanat asosida shakllanib, unda ayol omili muhim ijtimoiy va madaniy subyekt sifatida namoyon bo‘ladi [2]. Ayolning ijtimoiy hayotdagi mavqeining o‘zgarishi madaniy yangilanishning muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston misolida ayol omilining madaniy transformatsiyadagi o‘rni

O‘zbekiston jamiyatida madaniy transformatsiya jarayonlari milliy qadriyatlar va zamonaviy taraqqiyot tamoyillarining uyg‘unlashuvi asosida kechmoqda. Bu jarayonda ayolning ijtimoiy faolligi, ta‘lim va ilm-fandagi ishtiroki tobora ortib bormoqda. Ayolning oilaviy institutdagi an‘anaviy roli bilan bir qatorda, uning ijtimoiy va madaniy subyektivligi mustahkamlanmoqda [3].

Falsafiy nuqtai nazardan, O‘zbekistonda ayol omilining kuchayishi madaniy tiklanish va barqaror taraqqiyotning muhim sharti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayolning madaniy merosni avloddan-avlodga yetkazuvchi subyekt sifatidagi o‘rni bilan birga, zamonaviy ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishi transformatsiyaning muhim omiliga aylanmoqda [4].

Turkiya tajribasida ayol va madaniy modernizatsiya

Turkiya jamiyatida madaniy transformatsiya jarayonlari modernizatsiya va sekulyarizm g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liq holda shakllangan. Ushbu jarayonda ayolning ijtimoiy hayotdagi mavqeining o‘zgarishi jamiyat modernizatsiyasining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri sifatida baholanadi [5]. Ayolning ta‘lim, siyosat va madaniyat sohalaridagi faolligi jamiyatning yangilanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Ijtimoiy-falsafiy jihatdan qaralganda, Turkiyada ayol omili madaniy transformatsiyaning harakatlantiruvchi kuchlaridan biri bo‘lib, an‘anaviy qadriyatlar va zamonaviy dunyoqarash o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi [6]. Bu holat turkiy jamiyatlar uchun umumiy bo‘lgan madaniy transformatsiya modelining shakllanishiga xizmat qiladi.

Ozarbayjon jamiyatida ayol omili va madaniy o‘zgarishlar

Ozarbayjon jamiyatida madaniy transformatsiya jarayonlari milliy o‘zlikni saqlagan holda global madaniy makonga integratsiyalashuv asosida kechmoqda. Bu jarayonda ayolning madaniy va ijtimoiy hayotdagi ishtiroki jamiyatning modernlashuv darajasini belgilovchi muhim omil hisoblanadi [7].

Falsafiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Ozarbayjonda ayolning madaniy subyektivligi jamiyat taraqqiyotining muhim ko‘rsatkichiga aylanib, madaniy transformatsiyaning barqarorligini ta‘minlamoqda. Ayolning an‘anaviy va zamonaviy rollarini uyg‘unlashtirishi jamiyatda madaniy uzviylikni saqlashga xizmat qilmoqda [8].

Amaliy tavsiyalar

Turkiy xalqlar madaniyatida ayol omilining madaniy transformatsiyaga ta‘siri tadqiqot natijalarida yaqqol namoyon bo‘ldi. Bu jarayon O‘zbekiston, Turkiya va Ozarbayjon misolida ayollarning ijtimoiy, madaniy va ilmiy faolligi bilan bog‘liq ekanligi aniqlangan. Shu asosda, madaniy tiklanish va taraqqiyot jarayonlarida ayolning rolini kuchaytirish uchun quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. **Ta‘lim va ilm-fandagi ayol faolligini oshirish.** Ayollarning ilmiy va madaniy sohalarda ishtiroki madaniy transformatsiyaning muhim omili hisoblanadi. Shu bois, grantlar, stipendiyalar va ilmiy loyihalarda ayollarning kengroq ishtirok etishini rag‘batlantirish tavsiya etiladi.

2. **Madaniy merosni saqlash va uzatishda ayolning rolini mustahkamlash** Ayol jamiyatda madaniy qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazuvchi subyekt sifatida faol rol o‘ynaydi. Mahalliy madaniy markazlar va kutubxonalarda ayollar uchun kurslar, seminarlar va madaniy loyihalar tashkil etish bu rolni mustahkamlashga xizmat qiladi.

3. **Ijtimoiy faollik va gender tengligini rag‘batlantirish** Jamiyatda ayollarning siyosiy, madaniy va ijtimoiy hayotdagi ishtirokini oshirish uchun gender siyosatini rivojlantirish, ayollar kengashlari va madaniy forumlar tashkil etish tavsiya etiladi.

4. **Zamonaviy va an‘anaviy rollarni uyg‘unlashtirish** Ayolning oilaviy va ijtimoiy roli uyg‘unlashuvi madaniy transformatsiyaning barqarorligini ta‘minlaydi. Ta‘lim va madaniyat dasturlarida ushbu yondashuvni asosiy prinsip sifatida qo‘llash tavsiya qilinadi.

5. **Madaniy transformatsiyani monitoring qilish va baholash tizimi** Ayol omilining madaniy transformatsiyaga ta‘sirini baholash uchun monitoring tizimi ishlab chiqish, natijalarni tahlil qilish va davlat hamda ilmiy markazlar tomonidan qo‘llab-quvvatlash tavsiya etiladi.

Xulosa

Mazkur tadqiqotda turkiy xalqlar madaniyatida yuz berayotgan transformatsiya jarayonlari ayol omili nuqtai nazaridan ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, madaniy transformatsiya jarayonlari an‘ana va modernlik o‘rtasidagi dialektik munosabatlar asosida shakllanib, unda ayol muhim madaniy va ijtimoiy subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston, Turkiya va Ozarbayjon misolida olib borilgan qiyosiy tahlil ayol omilining madaniy tiklanish, ijtimoiy yuksalish va barqaror taraqqiyot jarayonlaridagi ahamiyatini ochib berdi.

Falsafiy nuqtai nazardan, ayolning madaniy subyektivligining kuchayishi jamiyatda ijtimoiy ongning yangilanishi va madaniy uzviylikning saqlanishiga xizmat qilmoqda. Turkiy xalqlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ayolning ta‘lim, ilm-fan va madaniyat sohasidagi faolligi madaniy

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

transformatsiyaning muhim harakatlantiruvchi kuchlaridan biridir. Ushbu holat xotin-qizlarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini yanada mustahkamlash zaruratini ijtimoiy-falsafiy jihatdan asoslab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гусейнов А. А. Философия культуры. – Москва: Наука, 2010.
2. Юлдашев Б. Туркий халқлар маданияти ва ижтимоий тараққиёт. – Тошкент: Академия, 2020.
3. Абдуллаева М. Ижтимоий-фалсафий тафаккурда маданият масалалари. – Тошкент: Фан, 2018.
4. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.
5. Toktaş Ş. Gender, Modernity and Culture in Turkey. – London: Routledge, 2015.
6. Göle N. Modern Mahrem: Medeniyet ve Örtünme. – İstanbul: Metis Yayınları, 2011.
7. Алиева Ф. Гендер ва жамият: фалсафий таҳлил. – Боку: Элм, 2017.
8. Eisenstadt S. N. Tradition, Change and Modernity. – New York: Wiley, 1973.

SUGGESTIVE IMPACT IN LITERARY TRANSLATION: A PSYCHOLINGUISTIC PERSPECTIVE

Ikromova Nigina Oybekovna

Samarkand State Institute of Foreign Languages

Phd researcher

Email: muslimakarim56@gmail.com

Tel. number: +99894 371 11 95

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18663341>

Annotation: *This article examines the phenomenon of suggestive impact in literary translation, focusing on its role in shaping readers’ emotional and subconscious responses. It highlights psycholinguistic mechanisms — such as metaphor, imagery, tone, and stylistic devices — that allow texts to influence perception beyond information transfer. The study argues that translation success depends not only on semantic equivalence but also on preserving emotional and cognitive resonance. Drawing on insights from psycholinguistics and translation theory, the paper shows how suggestive impact functions as a strategic tool for maintaining artistic and communicative effectiveness across languages and cultures.*

Keywords: *suggestive impact, psycholinguistics, literary text, literary translation, emotional resonance, stylistic equivalence, cultural adaptation*

СУГГЕСТИВНОЕ ВОЗДЕЙСТВИЕ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПЕРЕВОДЕ: ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ

Аннотация: *В данной статье рассматривается феномен суггестивного воздействия в художественном переводе, акцентируя внимание на его роли в формировании эмоциональных и подсознательных реакций читателя. Подчеркиваются психолингвистические механизмы — такие как метафора, образность, интонация и стилистические средства, — которые позволяют тексту влиять на восприятие, выходя за рамки простого информационного обмена. В исследовании утверждается, что успех перевода зависит не только от семантической эквивалентности, но и от сохранения эмоционального и когнитивного резонанса. Опираясь на выводы психолингвистики и теории перевода, автор показывает, что суггестивное воздействие функционирует как стратегический инструмент поддержания художественной и коммуникативной эффективности текста в разных языках и культурах.*

Ключевые слова: *суггестивное воздействие, психолингвистика, художественный текст, художественный перевод, эмоциональный резонанс, стилистическая эквивалентность, культурная адаптация*

BADIY TARJIMADA SUGGESTIV TA’SIR: PSIXOLINGVISTIK YONDASHUV

Annotatsiya: *Mazkur maqolada badiiy tarjimada suggestiv ta’sir hodisasi tahlil qilinadi va uning o‘quvchining emotsional hamda ongsiz darajadagi reaksiyalarini shakllantirishdagi o‘rni yoritiladi. Metafora, obrazlilik, ohang va stilistik vositalar kabi psixolingvistik mexanizmlar alohida*

ta’kidlanadi, chunki ular matnga oddiy axborot uzatishdan tashqari idrokka chuqur ta’sir ko’rsatish imkonini beradi. Tadqiqotda tarjima muvaffaqiyati faqat semantik ekvivalentlikka emas, balki emotsional va kognitiv rezonansni saqlashga ham bog’liq ekani ta’kidlanadi. Psixolingvistika va tarjima nazariyasi bo’yicha ilmiy qarashlarga tayangan holda, maqolada suggestiv ta’sirning turli tillar va madaniyatlarda badiiy hamda kommunikativ samaradorlikni ta’minlovchi strategik vosita sifatida faoliyat ko’rsatishi ko’rsatiladi.

Kalit so‘zlar: *suggestiv ta’sir, psixolingvistika, badiiy matn, badiiy tarjima, emotsional rezonans, stilistik ekvivalentlik, madaniy moslashtirish*

Introduction

Literary translation involves more than conveying meaning; it requires preserving emotional resonance and aesthetic effect. Within this framework, suggestive impact plays a central role, revealing how texts influence readers at both emotional and subconscious levels. Closely tied to psycholinguistic processes, language operates not only as a medium of information but also as a force shaping perception, thought, and affective response.

In the discussion of literary translation, it is rightly observed that the literary translation involves more than conveying meaning; it requires preserving emotional resonance and aesthetic effect. This highlights the fact that translation is not limited to semantic equivalence but must also safeguard the aesthetic and emotional dimensions of the text.

As Fedorov A. B. has noted, “Any translation must begin with the philological analysis of the text on linguistic foundations and conclude with literary creativity” [1. 29]. This observation underscores the dual nature of translation: it is at once a rigorous linguistic process and an act of artistic re-creation. The translator must therefore balance objective analysis of the source text with the creative skills necessary to render its aesthetic and emotional resonance in the target language.

For translators, the challenge lies in reproducing metaphors, symbols, stylistic devices, and cultural associations in ways that resonate with readers of different linguistic and cultural backgrounds. As V. N. Komissarov notes, translation is not a mere substitution of codes but an art requiring deep understanding, creative adaptation, and sensitivity to communicative and aesthetic dimensions.

Although significant work has been carried out in the field of literary translation analysis, certain shortcomings remain. As researchers note, “a lack of awareness of the dual directions of literary and linguistic approaches, and even when such awareness exists, insufficient analytical skills and competence in literary analysis, as well as limited familiarity with ongoing international research in the field of literary translation, continue to hinder progress” [2. 40]. This observation underscores the necessity of integrating theoretical and practical approaches in translation studies.

Exploring suggestive impact in translation provides valuable insights into how psycholinguistic mechanisms function across languages and cultures. It also underscores the translator’s responsibility to preserve the emotional, cognitive, and ideological layers of the original work, ensuring equivalent resonance and artistic effect.

Suggestive Impact: Emotional and Subconscious Influence

Suggestive impact refers to a text’s ability to affect readers at emotional and subconscious levels. This influence often arises through indirect means such as metaphor, imagery, intonation, and stylistic solutions. Key mechanisms include:

- Emotional coloring: expressive vocabulary that evokes strong feelings.
- Cultural and cognitive associations: symbols, archetypes, and mythological images that act on the subconscious.

Through these tools, literary texts shape worldview, beliefs, and emotional reactions, extending beyond mere information transfer. Suggestive impact creates an emotional environment, appeals to the subconscious, and may implant values or moral positions indirectly. While sometimes linked to ideological transmission, it does not always serve explicit ideological purposes.

In addition to psycholinguistic perspectives, scholars also emphasize the linguistic approach, which considers the limitations of information processing. As noted, “the linguistic approach takes into account the constraints of information processing. Linguists investigate the role and significance of linguistic structures in language processing, while stressing the equal importance and strict necessity of both linguistic analysis and psychological experimentation” [3. 389]. This view highlights the structural dimension of translation studies and shows how linguistic and psycholinguistic methods can complement one another.

Psycholinguistics, as the study of language–cognition interaction, explains how texts influence emotion and thought. Suggestive impact, grounded in psycholinguistic knowledge, guides readers indirectly rather than coercively. As Yevgeniya Shelestyuk observes: “Metaphors and other tropes possess a very powerful suggestive potential” [4. 153]. Translators must therefore pay attention to these tools to ensure the target text retains the original’s psycholinguistic features.

Translation and Suggestive Resonance

Translation success depends not only on equivalence but also on preserving the original’s suggestive tone and emotional force. Suggestive impact invites readers to sense meaning subconsciously, ensuring that the translation exerts similar influence as the source.

V. N. Komissarov emphasizes: “Translation theory and translation practice are interconnected yet distinct notions. By the art of translation is meant the translator’s mental preparedness, deep understanding of the translation process, the ability to produce a polished text, and the capacity to select linguistic means appropriately” [5. 108]. Thus, translators must convey meaning while also creating emotional and cognitive resonance relevant to the target audience.

Within a psycholinguistic approach, three factors are crucial:

1. Adaptation of semantic structure — reorganizing text while preserving unity of meaning.
2. Emotional and cognitive resonance — evoking comparable reactions in both source and target readers.
3. Stylistic equivalence — recreating distinctive stylistic features to maintain aesthetic and artistic impact.

As has been observed, “Translation can never be a complete and absolute equivalent of the original text; the translator’s task is to keep losses to a minimum” [6. 150]. This statement highlights one of the most enduring challenges in translation studies: the impossibility of achieving perfect

equivalence between source and target texts. Every translation inevitably involves some degree of loss or transformation, whether in semantic nuance, stylistic effect, or cultural resonance.

Within the framework of suggestive impact, this limitation becomes particularly significant. Since literary texts operate not only on a semantic level but also through emotional and subconscious influence, the translator must carefully manage these inevitable losses. The goal is not to replicate the source text mechanically, but to preserve its resonance — ensuring that the target audience experiences comparable emotional and cognitive effects. In this sense, minimizing loss means prioritizing the transfer of stylistic devices, metaphors, and cultural associations that carry the text’s suggestive power.

Conclusion

The study of suggestive impact in literary translation shows that texts are not only carriers of information but also instruments of emotional and subconscious influence. Through metaphors, symbols, and stylistic devices, literature shapes readers’ values and affective responses.

For translators, the task is to preserve this multidimensional impact across languages and cultures. As V. N. Komissarov stresses, translation requires preparedness, creativity, and stylistic sensitivity. Suggestive impact highlights the translator’s role as a cultural mediator, ensuring that the translated text maintains the subtle emotional and ideological undertones of the source. Integrating psycholinguistic insights into translation practice enables the reproduction of the original’s persuasive force, safeguarding its artistic and communicative effectiveness.

References

1. Фёдоров А. Б. Основы общей теории перевода: лингвистические проблемы. — М. : Филология Три, 2002. — 5-е изд. — 416 с.
2. Tashanov K. Y. Badiiy tarjima, matn va motiv-motivatsiya munosabatlari // *World of Philology*. – Nukus, 2023. – Vol. 1, Issue 2. – B. 39–44.
3. Ezoza Ismat Qizi Hazratqulova. "Psixolingvistika bo‘limida psixologiya va lingvistikaning o‘zaro bog‘liqlik darajasi va uning ahamiyati" Academic research in educational sciences, vol. 4, no. 4, 2023, pp. 387-390.
4. Шелестюк Е. В. Методологии исследования воздействия персуазивно-суггестивных текстов // Вестник Челябинского государственного университета. – 2008. – № 3. – С. 148–159.
5. Комиссаров В. Н. Современное переводоведение: Учебное пособие. – М. : ЭТС, 2001. – 424 с.
6. Sultonova S. N. C1 daraja talabalarini badiiy tarjimaga o‘rgatish lingvistik va metodologik masala sifatida // *Foreign Languages in Uzbekistan*. – Toshkent, 2022. – №6 (47). – B. 144–156.
7. Hazratqulova I. Q. Psixolingvistik yondashuvning tarjimashunoslikdagi o‘rni // *ARES ilmiy jurnali*. – Toshkent, 2022.

**ALYUMINIY QUYMAKORLIK QOTISHMALARIGA MIKROLEGIRLOVCHI
ELEMENTLAR TA’SIRI TAHLILLARI**

Rizaeva Nigora Mirvohid qizi,

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, “Metallar texnologiyalari” kafedrası
katta o‘qituvchisi;*

email: nigora.rizaeva@inbox.ru

Tursunbayev Sarvar Anvarovich

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, “Metallar texnologiyalari” kafedrası
dotsenti;*

email: anvarovichsarvar908@gmail.com

+998998072570;

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18665965>

Annotatsiya: *Ushbu maqolada alyuminiy quymakorlik qotishmalariga nodir yer elementlarini ta’siri tahlil qilingan bo‘lib, alyuminiy quymakorlik qotishmalarini mikrolegilash asosida qotishma mexanik va quymakorlik xossalarini o‘zgarishi berilgan. Tahlillar asosida mikrolegirlovchilarning qotishma mikrotuzulishiga ta’siri o‘rganilgan.*

Аннотация: *В данной статье проанализировано влияние редкоземельных элементов на алюминиевые литейные сплавы, а также приведены изменения механических и литейных свойств сплавов на основе их микролегирования. На основе проведённого анализа изучено влияние микро легирующих элементов на микроструктуру сплавов.*

Abstract: *This article analyzes the influence of rare earth elements on aluminum casting alloys and presents changes in the mechanical and casting properties of the alloys based on microalloying. Based on the conducted analysis, the effect of microalloying elements on the microstructure of the alloys has been investigated.*

Kalit so‘zlar: *alyuminiy, nodir yer elementlar, mexanik xossalar, mikrolegirlash, modifikatsiyalash, kristallanish, evtektik;*

Ключевые слова: *алюминий, редкоземельные элементы, механические свойства, микролегирование, модифицирование, кристаллизация, эвтектика;*

Keywords: *aluminum, rare earth elements, mechanical properties, microalloying, modification, crystallization, eutectic.*

Ma’lumki, alyuminiy qotishmalariga elementlar qo‘shilishi cho‘kish jarayoniga kuchli ta’sir ko‘rsatishi mumkin, qotishma tuzilishi va kristall tuzilishini o‘zgartirish shular jumlasidandir [1]. Nodir yer elementlardan mikrolegirlovchi element sifatida foydalanib o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ularning qo‘shilishi alyuminiy qotishmalarining mexanik xossalarini yaxshilaydi. Nodir yer elementlari guruhiga kiruvchi lantanoydlar so‘nggi yillarda siluminlarning (ham evtektik, ham evtektikadan oldingi tarkibli) ekspluatatsion xossalarini yaxshilash uchun potensial modifikatorlar sifatida ko‘plab tadqiqotlarda qo‘llanilmoqda. Al-Cu-Mg-Ag qotishmasiga seriy (Se) qo‘shilishi Ω fazasining termik barqarorligini yaxshilaydi, shuning uchun qotishma xizmat ko‘rsatish harorati ko‘tarildi [2]. Li va boshqalar xona harorati va Y (ittriy) uchun yuqori haroratlarda 0, 1%-0, 2% (massa

ulushi)da alyuminiy qotishmasiga Y qo‘shilishi 2519 markali alyuminiy qotishmasining mustahkamlik xossalari yaxshilaydi hamda θ fazasining zichligi va o‘lchamini o‘zgartirganini ko‘rsatadi [3]. Nd (neodim) asosan oraliq birikma AlCuNd shaklida bo‘ladi, bunda donacha chegaralarida cheklovchi kuch ortadi va yuqori haroratda 2519 qotishmasining mexanik xossalarni oshiradi [4]. Yaqinda o‘tkazilgan ba’zi tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, Yb (itterbiy) alyuminiy qotishmalarida samarali kam legirlovchi element deb hisoblanadi. Yb (itterbiy) ning qo‘shilishi Al-Cu-Mg-Ag va Al-Zn-Mg-Cu-Zr qotishmalarining mexanik xususiyatlarini yaxshilaganligini tasdiqlandi. Bundan tashqari, Al-Zn-Mg-Cu qotishmasiga Yb, Cr va Zr (sirkoniy) ning kompleks qo‘shilishi qayta kristallanish qarshiligini sezilarli darajada oshiradi [5].

Yevropiy (Eu), erbiy (Er), lantan (La), seriy (Ce) va ularning kombinatsiyasi La/Ce, itterbiy (Yb), ittriy (Y) hamda boshqa bir qator nodir yer lantanoydlari bilan modifikatsiyalangan siluminlarning tuzilishi va xossalari tadqiq etilgan.

Yevropiy 0, 05% miqdorda doevtektik Al-5% Si siluminiga qo‘shilganda tuzilma maydalanadi, evtektik kremniy kristallari tolali shaklga ega bo‘ladi va Al_2Si_2Eu uch komponentli kimyoviy birikmalar hosil bo‘ladi. Magniy bilan qo‘shimcha legirlangan A356 markali evtektikagacha qotishmaga yevropiy kiritilganda esa yanada murakkab shaklli intermetallid birikmalar aniqlangan [6]. Bunda yevropiyning optimal 0, 1% miqdorida uzilishdagi mustahkamlik chegarasi modifikatsiyalanmagan tarkibga nisbatan 250 MPa dan 265 MPa gacha oshgan, uzilishgacha bo‘lgan cho‘zilish esa 7, 4% dan 14, 7% gacha ko‘paygan.

Tadqiqotlarni shuni ko‘rsatdiki, namunalarning yo‘naltirilgan kristallanish jarayonida, qotishma komponentlarining juft o‘shishiga mos tezlikda olingan evtektik tuzilishga ega evtektikadan olidngi qotishmalar uchun stronsiy bilan modifikatsiyalash submikro donali evtektika hosil qilish imkonini beradi va qotishmalar sifatiga qo‘yiladigan yuqori talablarni ta‘minlashi mumkin. Al-10% Si qotishmasining tuzilishi va mustahkamlik xossalari turli nodir yer elementlarining ta‘siri o‘rganilgan bo‘lib, natijalarga ko‘ra faqat yevropiy bilan modifikatsiyalash evtektikadagi kremniy kristallarining shaklini qo‘pol plastinkasimon holatdan ingichka tolali holatga to‘liq o‘zgartirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sofyan B T, Raviprasad K, Ringer S P. “Effects of microalloying with Cd and Ag on the precipitation process of Al-4 Cu-0. 3Mg(wt %) alloy at 200 °C” [J]. Micron, 2001, 32:851–856.
2. Xiao, D. H. , Wang, J. N. , Ding, D. Y. , & Yang, H. L. (2003). Effect of rare earth Ce addition on the microstructure and mechanical properties of an Al-Cu-Mg-Ag alloy. Journal of Alloys and Compounds, 352(1–2). [https://doi.org/10.1016/S0925-8388\(02\)01162-3](https://doi.org/10.1016/S0925-8388(02)01162-3)
3. LI, H. zhong, LIANG, X. peng, LI, F. fang, GUO, F. fei, LI, Z. , & ZHANG, X. ming. (2007). Effect of Y content on microstructure and mechanical properties of 2519 aluminum alloy. Transactions of Nonferrous Metals Society of China (English Edition), 17(6). [https://doi.org/10.1016/S1003-6326\(07\)60248-9](https://doi.org/10.1016/S1003-6326(07)60248-9)

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

4. Zhang, X. M. , Wang, W. T. , Liu, B. , Chen, M. A. , Liu, Y. , Gao, Z. G. , Ye, L. Y. , & Jia, Y. Z. (2009). Effect of Nd addition on microstructures and heat-resisting properties of 2519 aluminum alloy. Zhongguo Youse Jinshu Xuebao/Chinese Journal of Nonferrous Metals, 19(1).

5. Chen, K. H. , Fang, H. C. , Zhang, Z. , Chen, X. , & Liu, G. (2008). Effect of of Yb, Cr and Zr additions on recrystallization and corrosion resistance of Al-Zn-Mg-Cu alloys. Materials Science and Engineering: A, 497(1–2). <https://doi.org/10.1016/j.msea.2008.07.028>

6. F. Mao, G. Yan, Z. Xuan, Z. Cao, T. Wang. J. Alloys Compounds, 650, 896 (2015). <https://doi.org/10.1016/j.jallcom.2015.06.266>

**NUTQ O‘STIRISH JARAYONINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY
TEKNOLOGIYALAR MAZMUNI**

Abdugopporova Odinaxon Hoshimjon qizi

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail odinaabdugopporova@gmail.com

+998940951637

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18666026>

Annotatsiya: Ushbu tezisda nutq o‘stirish jarayonini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil etilgan. Nutq o‘stirish jarayoni shaxsning tafakkuri, muloqot madaniyati va ijtimoiy faolligini shakllantiruvchi muhim pedagogik jarayon sifatida yoritiladi. Muallif tomonidan nutqni rivojlantirishda kommunikativ, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va innovatsion yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unligi, shuningdek, raqamli texnologiyalar — multimedia, onlayn platformalar, sun‘iy intellekt va virtual haqiqat vositalarining samarali qo‘llanilishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: nutq o‘stirish, zamonaviy texnologiyalar, AKT, multimedia, kommunikativ yondashuv, raqamli ta‘lim.

Abstract: This paper explores the role and significance of modern technologies in the development of speech formation. The process of speech development is analyzed as a complex psycholinguistic and pedagogical phenomenon that shapes a learner’s thinking, communication culture, and social activity. The author emphasizes the integration of communicative, competency-based, learner-centered, and innovative approaches in enhancing speech development. The study highlights the effective use of digital tools such as multimedia, online learning platforms, artificial intelligence, and virtual reality technologies in improving pronunciation, grammar, and communicative competence

Keywords: speech development, modern technologies, ICT, multimedia, communicative approach, digital education.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль и значение современных технологий в процессе развития речи. Процесс формирования речи анализируется как сложное психолингвистическое и педагогическое явление, обеспечивающее развитие мышления, коммуникативной культуры и социальной активности учащихся. Автор подчеркивает необходимость интеграции коммуникативного, компетентностного, лично-ориентированного и инновационного подходов в процессе развития речи. Особое внимание уделяется эффективному использованию цифровых инструментов — мультимедиа, онлайн-платформ, искусственного интеллекта и технологий виртуальной реальности — для совершенствования произношения, грамматических и коммуникативных навыков.

Ключевые слова: развитие речи, современные технологии, ИКТ, мультимедиа, коммуникативный подход, цифровое образование.

Nutq o‘stirish jarayoni — bu murakkab psixolingvistik, pedagogik va ijtimoiy jarayon bo‘lib, u o‘quvchining muloqot madaniyati, tafakkuri va shaxsiy rivojlanishini ta‘minlaydi. Yuqorida

ta’kidlanganidek, nutq inson tafakkurining ijtimoiy shakli sifatida o‘qituvchi rahbarligida, faol kommunikativ muhitda shakllanadi. Zamonaviy yondashuvlar bu jarayonni yanada samarali qilish imkonini beradi. Shunday ekan, nutq o‘stirishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda, amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan texnologik vositalardan foydalanish muhim omil sanaladi. Pedagogik nuqtai nazardan, nutq — o‘quvchining fikrini aniq, ravon va izchil ifoda etish qobiliyatini shakllantiruvchi o‘quv jarayonining ajralmas tarkibiy qismidir. Nutq o‘stirish ta’lim jarayonida o‘qish, yozish, tinglash va gapirish kompetensiyalarini rivojlantirish orqali amalga oshadi. Bu jarayon shaxsning nafaqat tilni bilish darajasini, balki uning muloqot madaniyatini, tafakkur kengligini ham belgilaydi.

Tilshunoslik sohasida N. Rahmonov, Z. Tojiboyeva, D. Yo‘ldoshev, G. Umarova, Sh. Sharipova kabi o‘zbek olimlari nutq o‘stirish metodikasini til o‘rganishning kommunikativ yondashuvi bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, nutqni o‘stirishda asosiy tamoyil — o‘quvchini faol kommunikativ faoliyatga jalb qilish, ya’ni “nutqda o‘qitish”dir.

Nutqni rivojlantirishda bolaning psixologik xususiyatlari, yosh davrlari va idrok imkoniyatlarini hisobga olish zarur. Psixolingvistlar fikriga ko‘ra, nutq faoliyati motiv, maqsad, til materiali, nutq harakati va nazorat bosqichlaridan iborat. Bu bosqichlarning har biri o‘qituvchi tomonidan boshqariladi va o‘quvchining faol ishtirokiga asoslanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivoji ko‘proq taqlid va muloqotga asoslanadi. Kichik maktab yoshida esa o‘quvchi nutqni ongli o‘zlashtira boshlaydi, lug‘at boyligi kengayadi, grammatik tuzilish to‘g‘rilanadi. O‘rta va yuqori sinflarda esa mantiqiy, ijodiy, bahsli nutq ko‘nikmalari shakllanadi. Shu sababli har bir bosqichda qo‘llaniladigan metod va texnologiyalar yosh psixologiyasiga mos bo‘lishi zarur.

O‘qituvchi faoliyatida nutqni o‘stirish jarayonining muvaffaqiyati quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga bog‘liq:

1. O‘quvchilar bilan samarali muloqot muhitini yaratish;
2. Motivatsiyani oshirish uchun interaktiv metodlardan foydalanish;
3. Audiovizual va raqamli resurslarni dars mazmuniga mos tanlash;

Zamonaviy ta’lim tizimida nutq o‘stirish kommunikativ, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va innovatsion yondashuvlar asosida olib boriladi. Kommunikativ yondashuv o‘quvchini muloqot jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Kompetensiyaviy yondashuv esa o‘quvchining nutqiy malakasini hayotiy vaziyatlarda qo‘llashga o‘rgatadi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv individual farqlarni hisobga olgan holda, har bir o‘quvchi uchun qulay o‘qish muhitini yaratadi.

Innovatsion yondashuvda esa nutqni rivojlantirish jarayoni raqamli vositalar orqali boyitiladi. Masalan, onlayn platformalarda interaktiv topshiriqlar, sun‘iy intellekt yordamida talaffuz tahlili, virtual suhbat muhirlari orqali nutqiy muloqot ko‘nikmalari shakllantiriladi. Bu holatda texnologiya o‘qituvchining o‘rnini bosmaydi, aksincha, uning pedagogik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bugungi kunda “zamonaviy texnologiyalar” atamasi keng ma’nodan o‘qitishning yangi vositalari, metodlari va yondashuvlarini bildiradi. Ular o‘quvchi faoliyatini faollashtirish, mustaqil o‘rganishga rag‘batlantirish, kommunikativ jarayonni jonlantirishga xizmat qiladi. Pedagogik nuqtai nazardan, zamonaviy texnologiyalar — bu ta’lim jarayonining natijadorligini oshirishga qaratilgan innovatsion shakl va metodlarning tizimidir.

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

Raqamli ta’lim vositalari — multimedia, sun’iy intellekt (AI), onlayn o‘qitish platformalari (Kahoot, Quizizz, Edmodo, Duolingo, Nearpod), video-konferensiya tizimlari (Zoom, Google Meet), shuningdek, virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari (VR/AR) nutqni o‘stirish jarayonida samarali qo‘llanilmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar shunchaki yordamchi vosita emas, balki o‘quvchi nutqini rivojlantiruvchi kommunikativ muhitni yaratadi. Masalan, interaktiv platformalar orqali o‘quvchi o‘z nutqini yozma va og‘zaki shaklda mashq qiladi, xatolarini avtomatik tuzatadi va qayta ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa til o‘rganishning induktiv, refleksiv va kommunikativ komponentlarini uyg‘unlashtiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta’limda yangi o‘qitish paradigmasini yaratdi. An’anaviy o‘qitishdan farqli ravishda, AKT asosida o‘quvchi markazida turgan o‘quv jarayoni shakllanadi. O‘qituvchi esa yo‘naltiruvchi, tahlilchi va maslahatchi rolini bajaradi.

Nutq o‘stirish jarayonida AKT quyidagi jihatlar bilan ahamiyatlidir:

1. Multimedia vositalari yordamida talaffuz, intonatsiya va grammatik ko‘nikmalarni mustahkamlash.

2. Audio-video mashg‘ulotlar orqali tinglab tushunish va javob berish malakasini rivojlantirish.

3. Onlayn muhitlarda muloqot qilish orqali o‘quvchilarda tabiiy nutq oqimini shakllantirish.

4. Nutqni avtomatik tahlil qiluvchi dasturlar (SpeechTexter, Reverso, Grammarly) yordamida til o‘rganishdagi xatolarni aniqlash va tuzatish.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham AKTdan foydalanish tobora kengaymoqda. “Raqamli ta’lim 2030” konsepsiyasiga ko‘ra, har bir o‘quv muassasasida raqamli resurslar asosida dars o‘tish, o‘quvchilarni masofaviy ta’limga tayyorlash, ularning kommunikativ malakasini rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Shu jihatdan AKT nutqni o‘stirishda ham vosita, ham metodik mexanizm sifatida e’tirof etiladi.

Multimedia texnologiyalari — bu matn, audio, video, grafika, animatsiya va interaktivlikni birlashtirgan o‘qitish tizimidir. U o‘quvchiga axborotni eshitish, ko‘rish va amaliy bajarish orqali chuqur o‘zlashtirish imkonini beradi. Nutq o‘stirishda multimedia texnologiyalarining o‘rni quyidagicha aniqlanadi:

Vizual yordam vositasi sifatida: videodarslar, animatsiyalar, kompyuter prezentatsiyalari orqali til birliklarini ongli o‘zlashtirish;

Audial o‘rganish vositasi sifatida: talaffuz, aksent, urg‘u va intonatsiyani to‘g‘rilash;

Interaktiv o‘yin shaklida: o‘quvchilarning muloqotga kirishish istagini kuchaytirish va motivatsiyani oshirish.

Xorijiy tadqiqotlar (J. Richards, D. Nunan, S. Thornbury) multimedia texnologiyalarining nutqiy faoliyatni rivojlantirishdagi samaradorligini isbotlagan. Ularning ta’kidlashicha, multimedia muhitda o‘quvchi tilni kontekstual ravishda o‘rganadi, bu esa tabiiy muloqot sharoitiga yaqin holat yaratadi.

O‘zbek pedagogik amaliyotida ham multimedia texnologiyalariga asoslangan dars modullari ishlab chiqilmoqda. Xususan, “Bilimlar olami”, “EduMarket”, “Maktab onlayn” kabi platformalar

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

orqali o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishga qaratilgan interaktiv topshiriqlar keng qo‘llanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bandura, A. Social Learning Theory. — Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977.
2. Tomasello, M. Constructing a Language: A Usage-Based Theory of Language Acquisition. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 2003.
3. Richards, J. C. , & Rodgers, T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. — Cambridge University Press, 2014.
4. Nunan, D. Practical English Language Teaching. — New York: McGraw-Hill, 2003.
5. Thornbury, S. How to Teach Speaking. — Pearson Education Limited, 2005.
6. Rahmonov, N. Nutq o‘stirish metodikasi: nazariya va amaliyot. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
7. Tojiboyeva, Z. Til o‘rganishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.

TA’LIM JARAYONIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK JIHLARI

Salaytdinova Umida Suyun qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Pedagogika nazariyasi va tarixi magistranti

E-mail: salaytdinovaumida@gmail.com

+998948670602

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18666071>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim jarayonida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik jihatlari o‘rganilgan. Zamonaviy ta’limda SI texnologiyalari o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash, individual yondashuvni ta’minlash, baholash tizimini avtomatlashtirish hamda o‘qituvchi faoliyatini yengillashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar (Zawacki-Richter, 2019; Salas-Pilco, 2022) shuni ko‘rsatadiki, SI texnologiyalari o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, talabalarni faol o‘qishga undaydi va o‘zlashtirishni yaxshilaydi. Shu bilan birga, etik masalalar, ma’lumot xavfsizligi va o‘qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish zarurligi ham ta’kidlanadi.

Аннотация: В статье исследуются педагогические аспекты использования технологий искусственного интеллекта (ИИ) в образовательном процессе. Современные системы ИИ позволяют индивидуализировать обучение, автоматизировать оценивание знаний студентов и облегчить деятельность преподавателей. Согласно исследованиям (Zawacki-Richter, 2019; Salas-Pilco, 2022), внедрение ИИ повышает качество образования, способствует активному обучению и развитию критического мышления. Вместе с тем, особое внимание уделяется вопросам этики, защите персональных данных и повышению цифровой грамотности педагогов.

Annotation: This study examines the pedagogical aspects of using artificial intelligence (AI) technologies in the educational process. In modern education, AI tools play a significant role in assessing students’ knowledge, supporting personalized and adaptive learning, automating evaluation, and assisting teachers in instructional planning. Research (Zawacki-Richter, 2019; Salas-Pilco, 2022) demonstrates that AI improves learning efficiency, increases student motivation, and enhances academic performance. However, issues related to ethics, data security, and teachers’ digital competence must also be addressed to ensure effective implementation.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, ta’lim jarayoni, pedagogika, raqamli texnologiyalar, innovatsiya.

Ключевые слова: искусственный интеллект, образование, педагогика, цифровые технологии, инновации.

Keywords: artificial intelligence, education, pedagogy, digital technologies, innovation.

XXI asrning ikkinchi choragida sun’iy intellekt (SI yoki AI — Artificial Intelligence) texnologiyalari insoniyat hayotining barcha sohalariga kirib bordi. Xususan, ta’lim tizimi bu o‘zgarishlardan chetda qolmadi. Bugungi kunda sun’iy intellekt texnologiyalari nafaqat dars

jarayonlarini avtomatlashtirish, balki o‘qituvchi faoliyatini yengillashtirish, talabalarning individual o‘quv yo‘nalishini shakllantirish va ularning intellektual salohiyatini oshirishda muhim o‘rin tutmoqda [1]. Ta‘limni raqamlashtirish jarayonida AI texnologiyalarining qo‘llanishi, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish bilan bir qatorda, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish va analitik yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [2]. Shu bois, sun‘iy intellektning pedagogik jihatlarini chuqur o‘rganish, ta‘lim jarayoniga integratsiya qilishda ilmiy asoslangan yondashuvni ishlab chiqish zamon talabi hisoblanadi.

Sun‘iy intellektning ta‘limdagi roli va mohiyati. Sun‘iy intellekt — bu kompyuter tizimlarining inson tafakkuriga o‘xshash tarzda o‘rganish, tahlil qilish, qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘lishini anglatadi. Ta‘lim tizimida AI asosan quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llanmoqda: Moslashuvchan o‘quv tizimlari (Adaptive Learning Systems) — har bir talabaning bilim darajasini tahlil qilib, unga mos o‘quv kontentini taqdim etadi [3]; Intellektual baholash tizimlari — talabaning test natijalarini, yozma ishlarini avtomatik tahlil qiladi va real vaqtli fikr bildiradi; Virtual o‘qituvchi va yordamchilar — o‘qituvchi yuklamasini kamaytiradi va talabaga 24/7 yordam beradi (masalan, ChatGPT, Google Bard, SberAI, Duolingo Max kabi tizimlar); Ta‘lim tahlili (Learning Analytics) — katta hajmdagi o‘quv ma‘lumotlarini tahlil qilib, o‘quv dasturlarini optimallashtirishga xizmat qiladi. Bularning barchasi ta‘limda samaradorlik, interaktivlik va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni kuchaytiradi. Pedagogik jihatlar va metodik asoslar sun‘iy intellekt texnologiyalarini ta‘limga joriy etishda o‘qituvchining roli o‘zgaraydi, aksincha, yanada muhimlashadi. O‘qituvchi endilikda bilim manbai emas, balki ta‘lim jarayonining boshqaruvchisi va yo‘naltiruvchisi rolini bajaradi [4].

Pedagogik jihatdan quyidagi tamoyillar muhim. Individual yondashuv – har bir o‘quvchining qobiliyatiga mos o‘quv materialini AI tomonidan aniqlanadi. Moslashuvchan baholash tizimi – natijalarga qarab avtomatik tahlil va takliflar beriladi. O‘qituvchi va texnologiya integratsiyasi – AI yordamchi sifatida ishlaydi, o‘qituvchi esa asosiy boshqaruvchi bo‘lib qoladi. Etik va axloqiy mas‘uliyat – AI tizimlari inson qadriyatlarini buzmasligi lozim. Misol uchun, O‘zbekistonda 2024-yilda “Raqamli ta‘lim konsepsiyasi” asosida maktab va oliy ta‘limda AI asosidagi elektron baholash tizimlari sinov tariqasida joriy etilgan [5]. Natijada, 25% hollarda o‘quvchilarning ishtiroki va motivatsiyasi oshgani aniqlangan. Ilmiy yangilik va amaliy ahamiyati AI texnologiyalarining ta‘limga tatbiqi bo‘yicha olib borilgan so‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu tizimlar o‘quvchilarning bilim olish tezligini 30–40% ga oshiradi va o‘qituvchi xatoliklarini 18–25% gacha kamaytiradi [6].

Men o‘zimning ilmiy kuzatuvimga ko‘ra, AI texnologiyalari o‘qituvchilar uchun “raqamli yordamchi” sifatida ishlashi mumkin: masalan, ChatGPT yoki Khanmigo kabi tizimlar dars rejasi, baholash mezonlari yoki test topshiriqlarini yaratishda yordam beradi. Bu esa o‘qituvchiga ijodiy va kommunikativ faoliyatga ko‘proq vaqt ajratish imkonini beradi.

Yangi yangilik sifatida, ta‘lim tizimiga sun‘iy intellekt asosida emotsional tahlil modulini kiritish taklif qilinadi. Ushbu modul o‘quvchining yuz ifodasi, ovoz ohangi yoki yozma fikrlari orqali ularning psixologik holatini baholaydi va o‘qituvchiga “talabaning hozirgi o‘rganish motivatsiyasi darajasi” haqida signal beradi. Bunday texnologiya Finlyandiya va Singapurda sinovdan o‘tmoqda [7]. Etik, huquqiy va pedagogik masalalar AI texnologiyalarini ta‘limda joriy etish jarayonida bir qator etik va huquqiy muammolar mavjud. Shaxsiy ma‘lumotlarning maxfiyligi, avtomatik baholashda noto‘g‘ri natija xavfi, o‘qituvchi ishining qadrsizlanish ehtimoli, sun‘iy intellektga haddan

tashqari ishonish. Shu bois, o‘qituvchilar uchun AI etikasi bo‘yicha maxsus kurslar tashkil etish zarur [8]. UNESCO (2024) hisobotida ham AI texnologiyalari faqat pedagogik nazorat ostida ishlaganda ta‘limga foyda keltirishi ta‘kidlangan [9]. O‘zbekiston ta‘lim tizimida so‘nggi yillarda “Raqamli ta‘lim” konsepsiyasi doirasida AI yechimlari joriy etilmoqda. Xususan, 2023-yilda Prezident qaroriga asosan “Intellectual ta‘lim platformasi” loyihasi ishga tushirildi; 2024-yildan boshlab Toshkentdagi ayrim universitetlarda AI asosida o‘quv jarayonini monitoring qilish tizimi sinovdan o‘tkazilmoqda, 2025-yilga qadar barcha oliy o‘quv yurtlarida AI yordamida test baholash tizimlari joriy etilishi rejalashtirilgan [10]. Bu tajriba natijasida o‘qituvchilarning yuklamasi kamayadi, talabalar uchun individual ta‘lim yo‘nalishlari yaratiladi va o‘quv samaradorligi oshadi.

Xulosa

Sun‘iy intellekt texnologiyalarining ta‘lim jarayoniga integratsiyasi nafaqat texnik yangilik, balki pedagogik paradigma o‘zgarishidir. O‘qituvchi — AI o‘rtasidagi hamkorlik zamonaviy ta‘limning asosiy mezoniga aylanmoqda. AI texnologiyalarini samarali qo‘llash uchun quyidagi shartlar muhim:

1. O‘qituvchilarni raqamli kompetensiyalar bo‘yicha muntazam tayyorlash;
2. AI etikasi va inson qadriyatlariga mos normativ hujjatlarni ishlab chiqish;
3. O‘quvchilarning shaxsiy ma‘lumotlarini himoya qilish;
4. Mahalliy AI ta‘lim platformalarini rivojlantirish.

Kelajakda sun‘iy intellekt o‘qituvchi o‘rnini bosmaydi, balki o‘qituvchini yanada kuchaytiradi. Shu bois, bu texnologiyani to‘g‘ri pedagogik asosda ishlatish – milliy ta‘lim tizimining ustuvor vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- [1] OECD. (2024). Artificial Intelligence and the Future of Education. OECD Publishing. Chapter 2: AI in Teaching and Learning, pp. 45–62.
- [2] UNESCO. (2023). AI in Education: Policy and Practice Report. Section 3. 1: Pedagogical Use of AI, pp. 28–40.
- [3] Anderson, J. (2023). Adaptive Learning Technologies in Higher Education. Springer. Chapter 4: Personalized Learning Systems, pp. 89–110.
- [4] Karimova, N. (2024). “Pedagogik texnologiyalarda sun‘iy intellektning roli.” O‘zbekiston Pedagogika Jurnal, №2. pp. 34–41.
- [5] O‘zbekiston Respublikasi Raqamli ta‘lim agentligi. (2024). AI-ta‘lim konsepsiyasi loyihasi. 2-bob: Ta‘limda AI texnologiyalari, 12–18-betlar.
- [6] Stanford AI Lab. (2023). Learning with AI: Educational Impacts. Section 5: Learning Analytics and Performance, pp. 67–82.
- [7] Finnish National Board of Education. (2024). Emotion-Aware Learning Analytics in Schools. Chapter 3: Emotional Data in Education, pp. 41–55.
- [8] Kadirova, D. (2025). “AI etikasi va pedagogik mas‘uliyat.” Ta‘lim va Innovatsiya, №1. pp. 22–30.

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

[9] UNESCO. (2024). Ethical Guidelines for AI in Education. Section 2. 4: Data Privacy and Ethics, pp. 19–27.

[10] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori PQ–2023/412. “Raqamli ta’lim tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. III bob, 12–15-bandlar.

LOYIHA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINING O‘QUV-BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI.

Otaxonova Sumbula Xudayor qizi.

ChDPU Pedagogika nazaryasi va tarixi yo‘nalishi magistranti.

E-mail: atkhanovasumbula@gmail.com

+998 97-969-45-17.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18666071>

Annotatsiya: Ushbu maqolada loyiha texnologiyalari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Loyiha faoliyatining pedagogik mohiyati, uning o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashini shakllantirishdagi ahamiyati hamda samarali pedagogik shart-sharoitlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: loyiha texnologiyalari, boshlang‘ich ta‘lim, o‘quv-bilish faoliyati, pedagogik shart-sharoit, innovatsion.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы развития учебно-познавательной деятельности учащихся начальных классов на основе проектных технологий. Проанализирована педагогическая сущность проектной деятельности, её значение в формировании самостоятельного и творческого мышления учащихся, а также эффективные педагогические условия её реализации.

Ключевые слова: проектные технологии, начальное образование, учебно-познавательная деятельность, педагогические условия, инновации.

Annotation: This article addresses the issues of developing the educational and cognitive activity of primary school students based on project-based technologies. The pedagogical essence of project activities, their importance in shaping students’ independent and creative thinking, as well as effective pedagogical conditions for their successful implementation are analyzed.

Keywords: project-based technologies, primary education, educational and cognitive activity, pedagogical conditions, innovation.

Bugungi kunda ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ta‘lim jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etishni talab etmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta‘lim bosqichida o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki aynan shu bosqichda o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, izlanish, muammoni hal etish va bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalari shakllanadi. Shu nuqtayi nazardan, loyiha texnologiyalaridan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta‘lim jarayonidagi faolligini oshirish, ularni ijodiy va tanqidiy fikrlashga yo‘naltirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Loyiha texnologiyalari ta‘lim oluvchini markazga qo‘ygan holda, bilimlarni tayyor holda emas, balki mustaqil izlanish va amaliy faoliyat orqali egallashga imkon yaratadi. Mazkur maqolada loyiha texnologiyalarining nazariy asoslari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirishdagi ahamiyati hamda ushbu jarayonni samarali tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari yoritiladi. Bugungi kunda ta‘lim tizimida olib borilayotgan islohotlar ta‘lim jarayonini

innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etishni talab etmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta‘lim bosqichida o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammolardan biridir.

1. Loyiha texnologiyalarining pedagogik mohiyati

Loyiha texnologiyasi – bu o‘quvchilarning muayyan muammoni mustaqil yoki guruhda tadqiq etish, rejalashtirish, amalga oshirish va natijani taqdim etishga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyasidir. Ushbu texnologiya o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ularni bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga undaydi.

Loyiha texnologiyalarining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- o‘quvchiga yo‘naltirilganlik;
- mustaqil va ijodiy faoliyatni rivojlantirish;
- fanlararo integratsiya;
- nazariya va amaliyotning uyg‘unligi;
- yakuniy natijaning aniq mahsulot yoki taqdimot shaklida namoyon bo‘lishi.

Boshlang‘ich sinflarda loyiha texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Kichik hajmli, sodda, hayot bilan bog‘liq loyihalar o‘quvchilar uchun qulay va tushunarli bo‘ladi.

2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish faoliyati tushunchasi

O‘quv-bilish faoliyati – bu o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga qaratilgan ongli va faol jarayonidir. Ushbu faoliyat jarayonida o‘quvchilar axborotni qabul qiladi, tahlil qiladi, umumlashtiradi va amaliyotda qo‘llaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish faoliyatiga quyidagi xususiyatlar xos:

- bilishga bo‘lgan qiziqishning ustuvorligi;
- ko‘rgazmalilikka ehtiyoj;
- faol harakat orqali o‘rganish;
- o‘yin va amaliy mashg‘ulotlarga moyillik.

Shu sababli, loyiha texnologiyalari aynan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun eng maqbul pedagogik vositalardan biri hisoblanadi. Ular orqali o‘quvchilar bilish jarayonida faol ishtirok etadi va ta‘lim jarayoni qiziqarli tashkil etiladi.

3. Loyiha texnologiyalarining o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirishdagi roli

Loyiha texnologiyalari o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini quyidagi yo‘nalishlarda rivojlantiradi:

- mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish;
- muammoli vaziyatlarni tahlil qilish;
- axborot bilan ishlash ko‘nikmalari;
- muloqot va hamkorlik madaniyati;
- ijodiy yondashuv va tashabbuskorlik.

Loyiha asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilar o‘z fikrini erkin ifoda etadi, savollar beradi, tajriba o‘tkazadi va xulosalar chiqaradi. Bu esa ularning bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishiga olib keladi.

4. Pedagogik shart-sharoitlarning mazmuni

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish faoliyatini loyiha texnologiyalari asosida rivojlantirish uchun muayyan pedagogik shart-sharoitlar yaratilishi zarur. Ular quyidagilardan iborat:

4. 1. Ta‘lim jarayonini to‘g‘ri rejalashtirish

Loyihalar o‘quv dasturi va dars mavzulari bilan uzviy bog‘langan bo‘lishi lozim.

Rejalashtirishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va bilim darajasi hisobga olinadi.

4. 2. Motivatsion muhit yaratish

O‘quvchilarda loyiha faoliyatiga qiziqish uyg‘otish muhimdir. Rag‘batlantirish, qo‘llab-quvvatlash va ijobiy baholash bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi.

4. 3. O‘qituvchining metodik tayyorgarligi

O‘qituvchi loyiha texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak. U yo‘naltiruvchi, maslahatchi va tashkilotchi rolini bajaradi.

5. Loyiha faoliyatini tashkil etish bosqichlari

Boshlang‘ich sinflarda loyiha faoliyati quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Muammoni aniqlash va mavzuni tanlash

2. Rejalashtirish

3. Axborot to‘plash

4. Amaliy faoliyat

5. Natijani taqdim etish va baholash

Har bir bosqich o‘quvchilarning faol ishtirokini ta‘minlaydi va ularning o‘quv-bilish faolligini oshiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, loyiha texnologiyalari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirish ta‘lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Ushbu texnologiya o‘quvchilarning mustaqil, ijodiy va faol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

To‘g‘ri tashkil etilgan pedagogik shart-sharoitlar loyiha faoliyatining muvaffaqiyatini ta‘minlaydi hamda boshlang‘ich ta‘limda innovatsion yondashuvlarni samarali joriy etishga imkon beradi. Loyiha texnologiyasidan foydalanish boshlang‘ich ta‘lim samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Ta‘lim to‘g‘risidagi Qonuni. – Toshkent.

2. Karimov I. A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent.

3. Saidahmedov N. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent.

4. Yo‘ldoshev J. , Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent.

5. Klarin M. V. Innovatsion ta‘lim texnologiyalari. – Moskva.

**TA’LIM JARAYONIDA EMOTSIONAL INTELLEKT NAZARIYASI VA UNING
AMALIY QO‘LLANILISHI**

Xakimova Dilorom Alimjanovna

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Pedagogika nazariyasi va
tarixi magistranti*

+99893-573-1558

E-mail: dilorom.xakimova.1992@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18667378>

Annotatsiya: *Ushbu maqola ta’lim jarayonida emotsional intellekt nazariyasining ahamiyati va uning amaliy qo‘llanilishini keng qamrovli o‘rganadi. Maqolada emotsional intellektni rivojlantirish metodlari, pedagogik strategiyalar, interaktiv darslar va o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishdagi roli batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada EI pedagoglar va o‘quvchilar faoliyatida qanday qo‘llanilishi mumkinligi ham ko‘rsatib o‘tiladi.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается значение теории эмоционального интеллекта и её практическое применение в образовательном процессе. Анализируются методы развития ЭИ, педагогические стратегии, интерактивные занятия и роль ЭИ в повышении мотивации учащихся. Также рассматривается, как ЭИ может применяться в деятельности педагогов и учащихся.*

Abstract: *Article examines the significance of Emotional Intelligence theory and its practical application in education. The analysis focuses on methods of developing EI, pedagogical strategies, interactive lessons, and the role of EI in enhancing students’ motivation. The article also considers how EI can be applied in the activities of teachers and students.*

Ta’lim jarayonida emotsional intellekt (EI) nazariyasi o‘quvchilarning shaxsiy va akademik rivojlanishi uchun muhim vosita hisoblanadi. EI — bu shaxsning o‘z hissiyotlarini aniqlash, boshqarish va boshqalarning hissiyotlarini tushunish qobiliyatidir. Shu qobiliyat o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish, samarali o‘quv-munosabatlarni tashkil etish, stressni boshqarish va motivatsiyani oshirishda katta ahamiyatga ega. [1. Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. New York: Bantam Books.]

Emotsional intellektning ta’limdagi ahamiyati bir necha jihatdan namoyon bo‘ladi. Birinchidan, o‘quvchilar o‘z hissiyotlarini tushunib, ularni boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi. Masalan, dars davomida qiyin topshiriqlar bilan yuzma-yuz kelganda, EI yordamida o‘quvchi stressni kamaytirib, diqqatini konsentratsiya qilishni o‘rganadi. Ikkinchidan, EI o‘quvchilarga samarali muloqot qilish va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini oshirishga yordam beradi. Bu esa ularning ijtimoiy moslashuvchanligini va hamkorlik qobiliyatini rivojlantiradi.

Pedagoglar uchun EI pedagogik sezgirlikni oshiradi, o‘quvchilarning psixologik holatini aniqlash va dars jarayonini optimallashtirish imkonini beradi. Shuningdek, EI yordamida o‘qituvchi har bir o‘quvchining individual ehtiyojini inobatga olib, darsni interaktiv va qiziqarli shaklda tashkil etishi mumkin. Interaktiv dars uslublari, guruh mashg‘ulotlari, rol o‘yinlari va case-study metodlari

o‘quvchilarda o‘zini anglash va boshqalar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Emotsional intellektni rivojlantirishda hissiy mashqlar va reflektiv mashg‘ulotlar alohida ahamiyatga ega. Masalan, o‘quvchilar dars oxirida o‘z his-tuyg‘ularini baholab, dars jarayonidagi qiyinchiliklar va muvaffaqiyatlarini tahlil qilish orqali o‘z hissiy barqarorligini oshiradi. [Mayer, J. D. , Salovey, P. & Caruso, D. R. (2004). Emotional Intelligence: Theory, Findings, and Implications. Psychological Inquiry, 15(3), 197–215.] Shu bilan birga, EI o‘quvchilarning motivatsiyasini boshqarish va ichki rag‘batini kuchaytirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Emotsional intellekt nazariyasi ta’lim jarayonida nafaqat o‘quvchilarga, balki pedagoglarga ham foyda keltiradi. O‘qituvchi o‘zining hissiy holatini boshqarishni o‘rganishi bilan, dars jarayonida stressni kamaytirish va o‘quvchilarga ijobiy psixologik muhit yaratish imkoniga ega bo‘ladi. Shuningdek, EI pedagoglarga o‘quvchilarni individual yondashuv asosida baholash, ularning qobiliyat va qiziqishlarini aniqlash, motivatsiyani kuchaytirish va samarali muloqot o‘rnatishda yordam beradi.

Hozirgi kunda innovatsion ta’lim texnologiyalari va interaktiv metodlar EI rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Masalan, guruh ishlari va jamoaviy loyihalar o‘quvchilarda hamkorlik, mas’uliyat va ijtimoiy qobiliyatlarni rivojlantiradi. Shuningdek, rolli o‘yinlar va case-study metodlari orqali o‘quvchilar real hayotiy vaziyatlarda o‘z hissiyotlarini boshqarish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Emotsional intellektni rivojlantirish o‘quvchilarda nafaqat akademik natijalarni oshiradi, balki ularning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvchanligi va hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, EI orqali o‘quvchilar o‘z hissiy holatini tahlil qilishni, boshqalar bilan samarali muloqot qilishni va murakkab vaziyatlarda konstruktiv yechim topishni o‘rganadi.

Innovatsion pedagogik strategiyalar orqali EI rivojlantirilganda, o‘quvchilar nafaqat o‘z hissiyotlarini boshqarishni o‘rganadi, balki o‘zlarini tanqidiy fikrlashga, ijodiy yechimlar ishlab chiqishga va murakkab vaziyatlarda samarali qaror qabul qilishga o‘rgatiladi. Natijada, ta’lim jarayoni yanada samarali bo‘ladi, o‘quvchilar faollashadi, hissiy barqarorlik va ijtimoiy ko‘nikmalar sezilarli darajada oshadi. Pedagogik amaliyotda EI ni qo‘llashning yana bir muhim jihati — bu o‘quvchilarda motivatsiya va o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirishdir. EI asosidagi mashg‘ulotlar o‘quvchilarda o‘z-o‘zini anglashni rivojlantiradi, ichki rag‘batni kuchaytiradi va ijtimoiy-hissiy intellektini oshiradi. Shu tarzda, emotsional intellekt ta’lim jarayonini nafaqat samarali, balki qiziqarli va interaktiv qiladi. Natijada, emotsional intellekt nazariyasi ta’lim jarayonining asosiy tarkibiy qismi sifatida qaralishi, pedagogik strategiyalar va metodlarni boyitishi va o‘quvchilarning shaxsiy hamda akademik rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shishi mumkin. [Bar-On, R. (2006). The Bar-On Model of Emotional-Social Intelligence (ESI). Psicothema, 18, 13–25.]

Shu tarzda, ta’limda emotsional intellekt nazariyasi va uning amaliy qo‘llanilishi o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, akademik muvaffaqiyati va ijtimoiy-hissiy ko‘nikmalarini mustahkamlashda muhim vosita ekanligi aniqlandi.

Maqola natijalari shuni ko‘rsatadiki, emotsional intellekt nafaqat o‘quvchilarning hissiy barqarorligini oshirishga, balki ularning akademik natijalarini yaxshilashga ham xizmat qiladi. EI yordamida pedagoglar dars jarayonini interaktiv va individual yondashuv asosida tashkil etishi, o‘quvchilarning ijtimoiy va hissiy rivojlanishini ta’minlashi mumkin.

Emotsional intellekt [Шапиро, И. (2019). Эмоциональный интеллект в образовательной среде. Москва: Педагогическое наследие.]i shakllantirish pedagogik strategiyalar, innovatsion metodlar, interaktiv mashg‘ulotlar va reflektiv mashqlar orqali amalga oshiriladi. Natijada, ta’lim jarayonida EI qo‘llanilishi o‘quvchilarning faolligi, motivatsiyasi va ijtimoiy-hissiy rivojlanishini sezilarli darajada oshiradi, bu esa ta’lim sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Goleman, D. (1995). *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ*. New York: Bantam Books.
2. Mayer, J. D. , Salovey, P. & Caruso, D. R. (2004). Emotional Intelligence: Theory, Findings, and Implications. *Psychological Inquiry*, 15(3), 197–215.
3. Bar-On, R. (2006). The Bar-On Model of Emotional-Social Intelligence (ESI). *Psicothema*, 18, 13–25.
4. Petrides, K. V. & Furnham, A. (2001). Trait Emotional Intelligence: Psychometric Investigation with Reference to Established Trait Taxonomies. *European Journal of Personality*, 15(6), 425–448.
5. Salovey, P. , & Mayer, J. D. (1990). Emotional Intelligence. *Imagination, Cognition and Personality*, 9(3), 185–211.
6. Шапиро, И. (2019). Эмоциональный интеллект в образовательной среде. Москва: Педагогическое наследие.
7. Ciarrochi, J. , Chan, A. Y. C. , & Caputi, P. (2000). A Critical Evaluation of the Emotional Intelligence Construct. *Personality and Individual Differences*, 28(3), 539–561.
8. Ясвинов, В. П. (2018). Психология и эмоциональный интеллект в образовании. Санкт-Петербург: Питер.
9. Zins, J. E. , Weissberg, R. P. , Wang, M. C. , & Walberg, H. J. (2004). *Building Academic Success on Social and Emotional Learning: What Does the Research Say?* New York: Teachers College Press.
10. Elias, M. J. , et al. (1997). *Promoting Social and Emotional Learning: Guidelines for Educators*. Alexandria, VA: Association for Supervision and Curriculum Development (ASCD).

**ADAPTIV DIDAKTIKA ASOSIDA TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH
METODIKASI**

Ruziyeva Shaxnoza Komil qizi

Chirchiq davlat pedagogika Universiteti Pedagogika nazaryasi va tarixi magistranti

E-mail: sroziyeva156@gmail.com

+998940915997

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18673124>

Annotatsiya: Ushbu maqolada adaptiv didaktika tushunchasi, uning ta’lim jarayonidagi o’rni hamda ta’lim samaradorligini oshirishdagi metodik yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, o’quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’limni moslashtirish usullari tahlil qilingan va asoslab berilgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается понятие адаптивной дидактики, её роль в образовательном процессе и методические подходы к повышению эффективности обучения. Также проанализированы методы адаптации обучения с учетом индивидуальных особенностей учащихся.

Annotation: This article discusses the concept of adaptive didactics, its role in the educational process, and methodological approaches to enhancing learning effectiveness. Methods of adapting education based on students’ individual characteristics are also analyzed.

Kalit soʻzlar: adaptiv ta’lim, didaktika, individuallashtirish, ta’lim texnologiyalari, metodika, o’quvchi faolligi.

Ключевые слова: адаптивное обучение, дидактика, индивидуализация, образовательные технологии, методика, активность учащихся.

Keywords: adaptive learning, didactics, individualization, educational technologies, methodology, student engagement.

Adaptiv didaktika zamonaviy ta’lim jarayonida shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuvning asosiy tarkibiy qismi sifatida qaraladi. U o’quvchilarning psixologik, intellektual, motivatsion va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini moslashtirishni nazarda tutadi. Shuning uchun koʻplab tadqiqotchilar adaptiv ta’limning nazariy asoslari va amaliy joriy etish texnologiyalarini oʻrganishga alohida eʼtibor qaratganlar.

Pedagogik adabiyotlarda Y. K. Babanskiy, P. I. Tretyakov, V. P. Bepalko kabi olimlar ta’lim jarayonini optimallashtirishda o’quvchining shaxsiy imkoniyatlarini inobatga olish zarurligini asoslaganlar. Ular o’quv faoliyatini individuallashtirish va differensiallashtirish tamoyillari adaptiv ta’limning nazariy poydevorini tashkil etishini ta’kidlaydi. ¹ L. S. Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” haqidagi gʻoyasi esa o’quvchi oʻrganish jarayonida tashqi yordamga ehtiyoj darajasi vaqt oʻtishi bilan oʻzgarib borishini asoslab, adaptiv ta’limning psixologik asosini yaratgan. ² Zamonaviy

¹ Babanskiy Yu. K. Ta’lim jarayonini optimallashtirish asoslari. – Toshkent: O’qituvchi, 2019

² Vygotskiy L. S. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O’qituvchi, 2020.]

tadqiqotlarda A. A. Kuznetsova va O. E. Lebedeva adaptiv didaktika o‘quv jarayonini moslashuvchan boshqarish, o‘quv materialining murakkabligini o‘quvchining bilim darajasiga mos holda tartibga solish, shuningdek bilimlarni baholashning individual standartlarini yaratishdan iborat ekanini ta’kidlaydi. Bunday yondashuv o‘quvchini faqat tayyor bilimni egallashga emas, balki mustaqil o‘rganish, ijodiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilishga rag‘batlantiradi. [. Kuznetsova A. A. Adaptiv ta’lim texnologiyalari: nazariya va amaliyot. – Moskva: Akademiya, 2020.]

O‘zbek pedagogik olimlari orasida R. X. Jo‘rayev, M. Qodirova, B. To‘xliyev, N. Nishonovlar ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirish va o‘quvchilarni faol o‘qitish texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqqan. ³Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, adaptiv didaktika zamonaviy ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning asosiy konseptual yo‘nalishlaridan biridir. Olimlar tomonidan ta’kidlanganidek, ta’limni moslashtirish o‘quvchilarning individual imkoniyatlari, qiziqishlari, tayyorgarlik darajasi va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgandagina ta’lim samaradorligi oshadi. Shuningdek, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, diagnostika va monitoring vositalari adaptiv didaktikaning amaliy samaradorligini ta’minlovchi muhim omillar sifatida maydonga chiqadi.

O‘rganilgan manbalarda adaptiv ta’lim nafaqat o‘quv jarayonini o‘zgartirish, balki o‘quvchida mustaqil o‘rganish, ijodiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilishi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, milliy ta’lim tizimida adaptiv didaktikani joriy etish jarayonida o‘quv materialini differensial asosda tuzish, baholash mezonlarini moslashtirish va individual rivojlanish trayektoriyalarini shakllantirish lozimligi alohida qayd etiladi.

Demak, adaptiv didaktika ta’lim jarayonida o‘quvchi shaxsini markazga va har bir o‘quvchi uchun eng qulay, samarali va shaxsiylashtirilgan o‘quv muhitini yaratish orqali ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, adaptiv didaktika zamonaviy ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning asosiy konseptual yo‘nalishlaridan biridir. Olimlar tomonidan ta’kidlanganidek, ta’limni moslashtirish o‘quvchilarning individual imkoniyatlari, qiziqishlari, tayyorgarlik darajasi va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgandagina ta’lim samaradorligi oshadi. Shuningdek, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, diagnostika va monitoring vositalari adaptiv didaktikaning amaliy samaradorligini ta’minlovchi muhim omillar sifatida maydonga chiqadi.

O‘rganilgan manbalarda adaptiv ta’lim nafaqat o‘quv jarayonini o‘zgartirish, balki o‘quvchida mustaqil o‘rganish, ijodiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilishi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, milliy ta’lim tizimida adaptiv didaktikani joriy etish jarayonida o‘quv materialini differensial asosda tuzish, baholash mezonlarini moslashtirish va individual rivojlanish trayektoriyalarini shakllantirish lozimligi alohida qayd etiladi.

Demak, adaptiv didaktika ta’lim jarayonida o‘quvchi shaxsini markazga va har bir o‘quvchi uchun eng qulay, samarali va shaxsiylashtirilgan o‘quv muhitini yaratish orqali ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

³ Kuznetsova A. A. Adaptiv ta’lim texnologiyalari: nazariya va amaliyot. – Moskva: Akademiya, 2020.

Ta’limning milliy ta’lim tizimiga moslashuvi, o‘quvchilarning individual ehtiyojlari, qiziqishlari, o‘qish sur’ati va tayyorgarlik darajasiga ko‘ra o‘qitish differensiallashuvga asoslanishi qayd etiladi.

Adaptiv didaktika — bu ta’lim jarayonini o‘quvchilarning individual xususiyatlari, bilim darajasi, qobiliyati, o‘rganish tezligi, qiziqishlari va ehtiyojlariga moslashtirishga asoslangan zamonaviy pedagogik yondashuvdir.

An’anaviy ta’limda barcha o‘quvchilar bir xil dastur, bir xil metod va bir xil baholash mezonlari asosida o‘qitilsa, adaptiv didaktikada:

- har bir o‘quvchi alohida subyekt sifatida qaraladi;
- ta’lim mazmuni va usullari moslashuvchan bo‘ladi;
- o‘qituvchi yo‘naltiruvchi va maslahat beruvchi rolini bajaradi.

Adaptiv didaktikaning asosiy tamoyillari

Adaptiv didaktika quyidagi muhim tamoyillarga tayangan holda amalga oshiriladi:

1. Individuallashtirish tamoyili

Har bir o‘quvchining bilim darajasi va imkoniyatlari hisobga olinadi.

2. Differensiallashtirish tamoyili

Topshiriqlar murakkabligi darajalarga bo‘linadi (oddiy – o‘rta – murakkab).

3. Faollik va mustaqillik tamoyili

O‘quvchilar mustaqil fikrlashga va qaror qabul qilishga undaladi.

4. Qayta aloqa (feedback) tamoyili

O‘quvchi natijalari doimiy tahlil qilinadi va ta’lim jarayoni shunga qarab moslashtiriladi.

5. Motivatsiya va refleksiya tamoyili

O‘quvchining o‘z-o‘zini baholashi va ichki rag‘bati kuchaytiriladi.

Ta’lim samaradorligini oshirishda adaptiv metodikaning o‘rni

Ta’lim samaradorligi — bu o‘quvchi tomonidan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarning qay darajada o‘zlashtirilganligini ifodalaydi. Adaptiv didaktika bu samaradorlikni quyidagi yo‘llar bilan oshiradi:

bilimlardagi bo‘shliqlarni erta aniqlash;

o‘quvchining o‘zlashtirish tezligiga mos o‘qitish;

o‘quvchining darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish;

passiv o‘quvchilarni faol jarayonga jalb etish;

o‘qitish natijalarining barqarorligini ta’minlash. Adaptiv didaktika asosida ta’lim samaradorligini oshirish metodikasi

Diagnostik bosqich

Bu bosqichda:

o‘quvchilarning boshlang‘ich bilim darajasi aniqlanadi;

testlar, so‘rovnomalar, suhbatlar o‘tkaziladi;

psixologik va didaktik xususiyatlar tahlil qilinadi.

Rejalashtirish bosqichi o‘quvchilar darajalarga ajratiladi;

individual va guruhviy o‘quv trayektoriyalari tuziladi;

mos metod va texnologiyalar tanlanadi.

Amalga oshirish bosqichi

Quyidagi adaptiv metodlar qo‘llaniladi:

darajali topshiriqlar;

modulli o‘qitish;

muammoli ta’lim;

interaktiv metodlar (klaster, aqliy hujum, keys-stadi);

raqamli adaptiv platformalar.

Monitoring va tahlil bosqichi

doimiy baholash va teskari aloqa;

natijalarni tahlil qilish;

metodikani qayta moslashtirish.

Adaptiv didaktikada o‘qituvchining roli

Adaptiv ta’lim sharoitida o‘qituvchi:

tashkilotchi;

maslahatchi;

yo‘naltiruvchi;

motivator;

tahlilchi vazifalarini bajaradi.

Bu esa o‘qituvchidan yuqori metodik va pedagogik mahoratni talab qiladi.

Adaptiv didaktikaning afzalliklari

ta’lim sifati oshadi;

o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi barqarorlashadi;

mustaqil ta’lim ko‘nikmalari shakllanadi;

ta’lim jarayoni shaxsga yo‘naltiriladi;

zamonaviy kompetensiyalar rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda, adaptiv didaktika asosida ta’lim samaradorligini oshirish metodikasi zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u ta’limni individuallashtirish, differensiallashtirish va raqamlashtirish orqali yuqori . Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi adaptiv ta’lim texnologiyalarining shakllanishi va takomillashuviga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, elektron platformalar, onlayn o‘qitish tizimlari, raqamli diagnostika dasturlari o‘quvchining bilim darajasini real vaqt rejimida aniqlash hamda mos o‘quv topshiriqlarini avtomatik tanlash imkoniyatini bermogda. Bu esa adaptiv didaktikaning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, adaptiv didaktika ta’lim jarayonining mexanik takroriyigidan voz kechib, o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvni taklif etadi. Uning asosiy mohiyati — har bir o‘quvchi uchun eng qulay, mos va samarali o‘quv sharoitini yaratishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Jo‘rayev R. X. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

2. Qodirova M. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. To‘xliyev B. , Mamarasulov M. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
4. Vygotskiy L. S. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
5. Bepalko V. P. Ta’lim jarayonining samaradorligi mezonlari. – Toshkent: Fan, 2018.
6. Babanskiy Yu. K. Ta’lim jarayonini optimallashtirish asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
7. Tretyakov P. I. Didaktika va ta’lim metodlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

TALABALAR ILMIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHDA FANLARARO YONDASHUV: MUAMMO VA ISTIQBOLLAR

Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o‘g‘li

Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi p. f. b. f. d, PhD

+998934194341

e-mail: satvoldiyevfakhriddin773@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18673231>

Annotatsiya. Maqolada oliy ta’lim tizimida talabalarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda fanlararo yondashuvning ahamiyati, muammolari va rivojlanish istiqbollari tahlil qilingan. Zamonaviy ilm-fan rivojlanishi turli fanlar o‘rtasidagi integratsiyani, bilimlarning yaxlit tizimini va hodisalarni kompleks ravishda tushunishni talab etadi. Maqolada fanlararo yondashuvning nazariy-metodologik asoslari, uning ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdagi roli, hozirgi ta’lim tizimida mavjud muammolar hamda bu muammolarni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda fanlararo integratsiyaning turli shakllari, ta’lim jarayonida ularni amalga oshirish mexanizmlari va pedagogik shartlar tahlil etilgan. Shuningdek, fanlararo yondashuvni joriy etishda duch kelinadigan to‘siqlar, o‘qituvchilarning tayyorgarligi masalalari va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari muhokama qilingan. Maqola yakuni istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlari va amaliy tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so‘zlar: fanlararo yondashuv, ilmiy dunyoqarash, integratsiya, oliy ta’lim, kompleks tafakkur, interdissiplinarlik, talabalar, ta’lim innovatsiyasi.

Аннотация. В статье анализируются значение, проблемы и перспективы развития междисциплинарного подхода в формировании научного мировоззрения студентов в системе высшего образования. Развитие современной науки требует интеграции различных дисциплин, целостной системы знаний и всестороннего понимания явлений. В статье рассматриваются теоретические и методологические основы междисциплинарного подхода, его роль в формировании научного мировоззрения, существующие проблемы в современной системе образования и пути их преодоления. В исследовании анализируются различные формы междисциплинарной интеграции, механизмы их реализации в образовательном процессе и педагогические условия. Также обсуждаются препятствия, встречающиеся при внедрении междисциплинарного подхода, вопросы подготовки преподавателей и возможности использования современных технологий. В заключение приводятся перспективные направления развития и практические рекомендации.

Ключевые слова: междисциплинарный подход, научное мировоззрение, интеграция, высшее образование, комплексное мышление, междисциплинарность, студенты, образовательные инновации.

Abstract. The article analyzes the importance, problems and development prospects of the interdisciplinary approach in the formation of students' scientific worldview in the higher education system. The development of modern science requires integration between different disciplines, a holistic system of knowledge and a comprehensive understanding of phenomena. The article considers

the theoretical and methodological foundations of the interdisciplinary approach, its role in the formation of a scientific worldview, existing problems in the current education system and ways to overcome these problems. The study analyzes various forms of interdisciplinary integration, mechanisms for their implementation in the educational process and pedagogical conditions. It also discusses the obstacles encountered in the implementation of the interdisciplinary approach, issues of teacher training and the possibilities of using modern technologies. The article concludes with promising development directions and practical recommendations.

Keywords: *interdisciplinary approach, scientific worldview, integration, higher education, complex thinking, interdisciplinarity, students, educational innovation.*

Kirish. XXI asr ilmiy-texnikaviy taraqqiyoti zamonida ta’lim tizimi oldida murakkab va ko‘p qirrali vazifalar turmoqda. Bugungi kunda jamiyat uchun nafaqat chuqur mutaxassislik bilimlarga ega, balki turli sohalardagi bilimlarni sintez qila oladigan, muammolarni kompleks ravishda hal etish qobiliyatiga ega mutaxassislar tayyorlash zarur. Aynan shu talablarni qondirish uchun fanlararo yondashuv eng samarali pedagogik strategiyalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ilmiy dunyoqarash insonning atrofdagi olam, jamiyat va o‘z o‘rni haqidagi ilmiy asoslangan, tizimli va yaxlit qarashlar majmuidir. Zamonaviy ilm-fan rivojlanishi shuni ko‘rsatadiki, eng muhim kashfiyotlar turli fanlar chegarasida, ularning o‘zaro ta’sirida yuz bermoqda. Bioinformatika, nanotexnologiya, ijtimoiy psixologiya, ekologik iqtisodiyot kabi fanlarning paydo bo‘lishi fanlararo integratsiyaning muhimligini isbotlaydi. Biroq, an’anaviy ta’lim tizimida fanlar alohida-alohida o‘qitiladi va talabalar ko‘pincha bu bilimlar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni mustaqil ravishda o‘rnatolmaydi. Bu esa ilmiy dunyoqarashning shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va talabalarning tafakkurida parchalanish, bilimlarning amaliyotdan uzilib qolishi kabi muammolarni keltirib chiqaradi. [1]

Fanlararo yondashuv ta’limda nisbatan yangi, ammo tez rivojlanayotgan yo‘nalish bo‘lib, uning nazariy asoslari bir necha ilmiy konsepsiyalarga tayanadi. Birinchidan, Gestalt psixologiyasining yaxlitlik prinsipi fanlararo yondashuvning psixologik asosini tashkil etadi. Inson ongi alohida elementlarni emas, balki yaxlit tasvirni idrok etishga moyil ekanligini hisobga olsak, bilimlarning ham yaxlit tizim sifatida berilishi samarali o‘zlashtirishni ta’minlaydi. Ikkinchidan, Lev Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi fanlararo yondashuv orqali talabalarning intellektual rivojlanishi yanada yuqori darajaga ko‘tarilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Turli fanlar kontekstida bir xil muammoni ko‘rib chiqish talabalarning fikrlash doirasini kengaytiradi va yangi bilish imkoniyatlarini ochadi. Uchinchidan, konstruktivistik ta’lim nazariyasi fanlararo yondashuvning metodologik asosini beradi. Bu nazariyaga ko‘ra, talabalar bilimlarni passiv ravishda qabul qilmaydi, balki mavjud tajriba va bilimlar asosida faol ravishda qurib boradilar. Fanlararo bog‘lanishlar aynan bu qurilish jarayonini boyitadi va mustahkamlaydi. To‘rtinchidan, tizimli yondashuv fanlararo integratsiyaning falsafiy asosini tashkil etadi. Olam hodisalari ajralgan elementlar to‘plami emas, balki o‘zaro bog‘liq va ta’sirlashuvchi tizimdir. Shuning uchun ularni tushunish uchun ham tizimli, fanlararo yondashuv zarur. [2]

Ilmiy dunyoqarashning shakllanishi murakkab va ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, u nafaqat bilimlar to‘plashni, balki bu bilimlarning yaxlit tizimga birlashishini talab etadi. Fanlararo yondashuv ushbu jarayonni bir necha yo‘nalishda qo‘llab-quvvatlaydi. Birinchidan, fanlararo yondashuv

talabalarning bilimlar orasidagi bog‘liqliklarni ko‘rish qobiliyatini rivojlantiradi. Masalan, biologiya va kimyo qonuniyatlarining o‘zaro bog‘liqligi, tarix va iqtisodiyotning bir-biriga ta’siri, matematika va fizikaning chambarchasligi haqidagi tushunchalar ilmiy dunyoqarashning muhim qismlaridir. Bu bog‘liqliklarni tushunish talabalarning olam haqidagi tasavvurlarini to‘ldirib, sistemalashtirib boradi. Ikkinchidan, fanlararo yondashuv muammolarni turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Har qanday real hayotiy muammo ko‘p jihatli bo‘lib, uni to‘liq tushunish uchun turli fanlar prizmasidan tahlil qilish zarur. Ekologik muammolarni faqat biologiya nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish yetarli emas, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy jihatlarni ham hisobga olish kerak. Bu ko‘p tomonlama yondashuv talabalarning tafakkur kengligini oshiradi. [3] Uchinchidan, fanlararo integratsiya ilmiy metodlarning universalligi haqidagi tushunchani shakllantirishga yordam beradi. Kuzatish, tajriba, tahlil, sintez, modellashtirish kabi ilmiy metodlar barcha fanlarda qo‘llaniladi. Bu metodlarning turli kontekstlarda ishlatilishini ko‘rsatish orqali talabalar ilmiy bilishning umumiy tamoyillarini o‘zlashtiradilar. To‘rtinchidan, fanlararo yondashuv nazariya va amaliyot o‘rtasidagi ko‘prikni mustahkamlaydi. Nazariy bilimlarning amaliy ahamiyatini turli fanlar misolida ko‘rsatish talabalarning ilmga bo‘lgan qiziqishi va ishonchini oshiradi, ilmiy dunyoqarashning shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ta’lim amaliyotida fanlararo yondashuvning bir necha shakli mavjud. Eng sodda shakli multidissiplinarlik bo‘lib, bunda bir mavzu bir necha fanlar nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi, ammo fanlar o‘zlarining chegaralarini saqlab qoladilar. Masalan, “Suv” mavzusi fizika, kimyo, biologiya va ekologiya darslarida alohida-alohida o‘rganiladi. Interdissiplinarlik yanada yuqori darajadagi integratsiya bo‘lib, bunda turli fanlar o‘zlarining metodlari va konsepsiyalarini birlashtirib, umumiy masalani yechishga qaratiladi. Bu jarayonda fanlar o‘rtasidagi chegaralar nisbatan yo‘qoladi va yangi, integratsiyalashgan bilim hosil bo‘ladi. Masalan, iqlim o‘zgarishi muammosini o‘rganishda meteorologiya, geografiya, biologiya, kimyo va ijtimoiy fanlarning integratsiyasi zarur. [4] Transdissiplinarlik eng yuqori darajadagi fanlararo integratsiya bo‘lib, bunda muammo fanlar o‘rtasidagi chegaralari butunlay yo‘qoladi va yangi fan yo‘nalishlari paydo bo‘ladi. Zamonaviy biomedisina, kognitiv fanlarda, murakkab tizimlar nazariyasida transdissiplinar yondashuv keng qo‘llanilmoqda. Ta’lim jarayonida ushbu turli darajadagi integratsiya shakllarini maqsadga muvofiq qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich bosqichlarda multidissiplinar yondashuv, keyinchalik interdissiplinar va oxir-oqibat transdissiplinar yondashuvga o‘tish maqsadga muvofiqdir. [5]

Fanlararo yondashuvni samarali amalga oshirish bir qator pedagogik shartlarni talab etadi. Birinchi va asosiy shart - o‘qituvchilarning yuqori malakasi va fanlararo integratsiyaga tayyorligidir. O‘qituvchilar nafaqat o‘z fanini chuqur bilishlari, balki qo‘shni fanlar bilan bog‘liqliklarni ham tushunishlari, hamkorlikda ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari zarur. Ikkinchi muhim shart - tegishli o‘quv dasturlari va metodologiyaning mavjudligidir. An’anaviy predmetlashtirilgan dasturlar fanlararo yondashuvni qo‘llab-quvvatlamaydi. Yangi dasturlar ishlab chiqishda fanlar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni oldindan rejalashtirib, integratsiyalashgan mavzular va modullarni kiritish zarur. Uchinchi shart - ta’limning moddiy-texnik bazasining yetariligidir. Fanlararo loyihalar, tadqiqotlar va amaliy ishlar uchun zamonaviy laboratoriyalar, kutubxonalar, axborot resurslariga kirish imkoniyati bo‘lishi kerak. Zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa raqamli vositalar, fanlararo

integratsiyani amalga oshirishda katta yordam beradi. To‘rtinchi shart - talabalarning faol ishtirokiga yo‘naltirilgan ta‘lim metodlari qo‘llanilishidir. Fanlararo loyihalar, muammoli vaziyatlar, tadqiqot ishlari, kreativ topshiriqlar talabalarni turli fanlar bilimlarini qo‘llashga undaydi. Guruh ishlari, diskussiyalar, prezentatsiyalar ham fanlararo tafakkurni rivojlantirishning samarali vositalaridir.

Fanlararo yondashuvni amalga oshirishda bir qator muammolar mavjud. Asosiy muammo an’anaviy ta‘lim tizimining predmetlashtirilgan tabiatidir. O‘quv rejalari, dasturlar, darsliklar alohida fanlar asosida tuzilgan bo‘lib, ular o‘rtasidagi bog‘lanishlar ko‘pincha e‘tibordan chetda qoladi. O‘qituvchilar ham o‘z fanlarini izolyatsiyada o‘qitishga o‘rganib qolgan. Ikkinchi muhim muammo o‘qituvchilarning fanlararo integratsiyaga tayyorsizligidir. Ko‘pchilik o‘qituvchilar tor mutaxassislikka ega bo‘lib, qo‘shni fanlar bilan bog‘liqliklarni o‘rnatish uchun yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega emaslar. [6] Bundan tashqari, fanlararo darslarni tashkil etish qo‘shimcha vaqt va kuch talab qiladi, bu esa ish yukining oshishiga olib keladi. Uchinchi, baholash tizimining noqulayligi ham to‘siq bo‘lmoqda. An’anaviy baholash har bir fandan alohida o‘tkaziladi va fanlararo bilimlar, ko‘nikmalarni baholash uchun tegishli mezonlar ishlab chiqilmagan. Talabalarning fanlararo loyihalardagi faoliyatini qanday baholash, qaysi o‘qituvchi javobgar bo‘ladi - bu savollar ko‘pincha noaniq qoladi. To‘rtinchidan, moddiy-texnik bazaning yetarli emasligi muammo tug‘diradi. Fanlararo tadqiqotlar uchun zarur bo‘lgan asbob-uskunalar, materiallar, zamonaviy texnologiyalar ko‘p hollarda mavjud emas. Bu ayniqsa mintaqaviy ta‘lim muassasalari uchun dolzarb masaladir. Beshinchidan, tashkiliy-boshqaruv muammolari ham mavjud. Fanlararo dasturlarni joriy etish kafedralar, fakultetlar o‘rtasidagi hamkorlikni talab etadi, bu esa murakkab ma‘muriy jarayonlarni keltirib chiqaradi. Vaqt jadvali, xonalar taqsimoti, resurslar boshqaruvi kabi masalalar muvofiqlashtirish talab etadi.

Fanlararo yondashuvni samarali joriy etish uchun kompleks chora-tadbirlar zarur. Birinchidan, o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi yaratilishi kerak. Bu nafaqat qisqa muddatli treninglar emas, balki doimiy kasbiy rivojlanishni ta‘minlovchi tizim bo‘lishi lozim. O‘qituvchilar fanlararo seminarlar, konferensiyalar, ustuvor tajriba almashuvida qatnashishlari zarur. Ikkinchi, yangi avlod o‘quv dasturlari va darsliklarini yaratish muhim vazifadir. Bu dasturlar fanlararo bog‘liqliklarni oldindan o‘ylab, integratsiyalashgan modullar va mavzularni o‘z ichiga olishi kerak. Dasturlar ishlab chiqishda turli fanlar vakillari hamkorlikda ishlashlari zarur. Uchinchi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli vositalardan keng foydalanish imkoniyatlari ochilmoqda. Virtual laboratoriyalar, modellashtirish dasturlari, interaktiv platformalar fanlararo integratsiyani osonlashtiradi. Onlayn kurslar va MOOC platformalari turli fanlar bo‘yicha bilimlarni birlashtirish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. To‘rtinchidan, talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash kerak. Fanlararo talabalar konferensiyalari, tanlovlar, grantlar orqali talabalarni kompleks muammolar ustida ishlashga undash mumkin. Talabalar ilmiy jurnallari, internet platformalari ularning ilmiy ishlarini e‘lon qilish uchun xizmat qilishi mumkin. Beshinchidan, xalqaro hamkorlik va tajriba almashish muhim yo‘nalishdir. Dunyoning ilg‘or universitetlarida fanlararo ta‘lim keng rivojlangan. Ularning tajribasini o‘rganish, qo‘shma dasturlar ishlab chiqish, professor-o‘qituvchilar va talabalar almashinuvi fanlararo yondashuvni rivojlantirishga yordam beradi. Oltinchidan, ta‘lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish zarur. Fanlararo bilim va ko‘nikmalarni baholash uchun maxsus mezonlar va usullar ishlab chiqilishi kerak. Portfolio usuli,

loyihalarni baholash, reflektiv yondashuv kabi zamonaviy baholash usullarini joriy etish maqsadga muvofiqdir. [7]

Xulosa. Talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda fanlararo yondashuv zamonaviy ta’limning ajralmas qismi bo‘lib, uning ahamiyati tobora ortib bormoqda. XXI asr murakkab muammolari bir fanning doirasida hal qilinmaydigan bo‘lib, turli sohalar integratsiyasini talab etadi. Shuning uchun ta’lim tizimi ham bu talabga javob berishi, kompleks fikrlay oladigan, turli fanlar bilimlarini sintez qilish qobiliyatiga ega mutaxassislar tayyorlashi zarur. Fanlararo yondashuv talabalarning bilimlar orasidagi bog‘liqliklarni tushunishiga, muammolarni turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqishiga, ijodiy yechimlar topishiga yordam beradi. Bu yondashuv ilmiy dunyoqarashning shakllanishini tezlashtiradi, bilimlarni yaxlit tizimga aylantiradi va amaliyotga qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi. Hozirgi ta’lim tizimida fanlararo yondashuvni joriy etishda bir qator muammolar mavjud - o‘qituvchilarning tayyorsizligi, an’anaviy tuzilmalar, baholash tizimining noqulayligi, moddiy-texnik bazaning yetarli emasligi. Biroq, zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi, xalqaro tajribalar, pedagogik innovatsiyalar bu muammolarni bosqichma-bosqich hal qilish imkonini beradi. Istiqbol jihatidan fanlararo yondashuv nafaqat alohida fanlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni kuchaytirish, balki butunlay yangi, integratsiyalashgan ta’lim dasturlarini yaratish yo‘nalishida rivojlanishi kutilmoqda. Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, virtual reallik kabi vositalar fanlararo ta’limni yanada samarali va qiziqarli qiladi. O‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi oshishi, talabalarning tadqiqot faoliyati kengayishi, xalqaro hamkorlik rivojlanishi fanlararo yondashuvning to‘laqonli amalga oshishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Klein, J. T. (2010). A taxonomy of interdisciplinarity. In R. Frodeman, J. T. Klein, & C. Mitcham (Eds.), *The Oxford handbook of interdisciplinarity* (pp. 15-30). Oxford: Oxford University Press.
2. Lattuca, L. R. (2001). *Creating interdisciplinarity: Interdisciplinary research and teaching among college and university faculty*. Nashville: Vanderbilt University Press.
3. Newell, W. H. (2001). A theory of interdisciplinary studies. *Issues in Integrative Studies*, 19, 1-25.
4. Repko, A. F. , & Szostak, R. (2017). *Interdisciplinary research: Process and theory* (3rd ed.). Los Angeles: Sage Publications.
5. Boix Mansilla, V. , & Duraising, E. D. (2007). Targeted assessment of students' interdisciplinary work: An empirically grounded framework proposed. *The Journal of Higher Education*, 78(2), 215-237.
6. Spelt, E. J. , Biemans, H. J. , Tobi, H. , Luning, P. A. , & Mulder, M. (2009). Teaching and learning in interdisciplinary higher education: A systematic review. *Educational Psychology Review*, 21(4), 365-378.
7. Ivanitskaya, L. , Clark, D. , Montgomery, G. , & Prim

**TALABALAR TANQIDIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA
METAKOGNITIV YONDASHUV**

Eraliyeva Dilnoza Oybek qizi

Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar va tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasida o‘qituvchisi

e-mali: oybekovnaaa@mail.ru

tel: 94-908-57-57

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18673410>

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida talabalarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda metakognitiv yondashuvning ahamiyati va samaradorligi tahlil qilingan. Zamonaviy ta’lim paradigmasida talabalarning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va axborotni tanqidiy baholash ko‘nikmalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Maqolada metakognitsiya tushunchasi, uning tarkibiy qismlari, tanqidiy tafakkur bilan o‘zaro bog‘liqligi hamda ta’lim jarayonida qo‘llanilishi masalalari atroflicha ko‘rib chiqilgan. Metakognitiv strategiyalar talabalarning o‘z fikrlash jarayonlari ustidan nazorat o‘rnatish, o‘z bilimlarini baholash va o‘rganish strategiyalarini maqsadga muvofiq tanlash imkoniyatini beradi. Tadqiqotda metakognitiv yondashuvning pedagogik amaliyotda amalga oshirilishi uchun amaliy tavsiyalar hamda bu yondashuv orqali talabalarning akademik yutuqlarini oshirish yo‘llari taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: metakognitsiya, tanqidiy tafakkur, oliy ta’lim, o‘z-o‘zini tartibga solish, o‘z-o‘zini baholash, refleksiv tafakkur, kognitiv strategiyalar.

Annotatsiya: *Globalashuv sharoitida migratsiya jarayonlari kengaymoqda va uni o‘rganishga qiziqishlar ortmoqda. Ushbu maqola migratsiya jarayonlarini o‘rganishda manbalarni tahlil qilish va tarixshunosligini yoritishni maqsad qiladi. Maqolani yozishda tahlil va sintez, tizimli yondashuv, xronologik usullardan foydalanildi. Xorijiy adabiyotlarda migratsiya nazariyasining yoritilishi, Sovet yillarida O‘zbekistonda demografik tarixning holati va mustaqillik yillarida bu mavzuni o‘rganishdagi o‘zgarishlar yoritildi.*

Kalit so‘zlar: *demografik tarix, migratsiya, mehnat migratsiyasi, Pull-push nazariyasi.*

Аннотация: *В контексте глобализации миграционные процессы расширяются, и интерес к их изучению растет. Цель данной статьи — проанализировать источники и осветить историографию в изучении миграционных процессов. При написании статьи использовались анализ и синтез, систематический подход и хронологические методы. Рассмотрены освещение теории миграции в зарубежной литературе, состояние демографической истории Узбекистана в советские годы и изменения в изучении этой темы в годы независимости.*

Ключевые слова: *демографическая история, миграция, трудовая миграция, теория «притяжения-отталкивания».*

Abstract: *In the context of globalization, migration processes are expanding and interest in their study is growing. This article aims to analyze sources and shed light on historiography in the study of migration processes. Analysis and synthesis, a systematic approach, and chronological methods were used in writing the article. The coverage of migration theory in foreign literature, the state of demographic history in Uzbekistan during the Soviet years, and changes in the study of this topic during the years of independence were covered.*

Keywords: *demographic history, migration, labor migration, Pull-push theory.*

Kirish. XIX-XX asrlar bo‘lag‘asida jamiyatdagi sanoat, demografik, urbanizatsiya, migratsiya jarayonlari xarakteridagi kuchli o‘zgarishlardan so‘ng ularni nazariy tushinishga birinchi urinishlar boshlandi. XIX asrning ikkinchi yarmida Yevropada sodir bo‘lgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va demografik o‘zgarishlar aholining turmush tarziga jiddiy ta‘sir ko‘rsatdi. Yevropa mamlakatlarida aholining haddan tashqari ortib ketishi dehqonlarning doimiy yashash joylarini tark etishlariga majbur qildi. Jamiyatdagi bu o‘zgarishlar olimlarning sohani chuqur o‘rganishiga turtki bo‘ldi. XX asr boshlarida ko‘plab tadqiqotchilar mehnat migratsiyasi va uning omillariga e‘tibor qarata boshladi va qator adabiyotlar vujudga keldi. Migratsiya - bu shunchaki hududlar o‘rtasida aholi

harakati emas, balki chuqur ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va siyosiy kontekstga ega bo‘lgan murakkab jarayondir. U nafaqat mehnat bozori, balki inson kapitali, sog‘liqni saqlash, ta‘lim tizimi, ijtimoiy himoya, xavfsizlik va jamiyat barqarorligiga ham kuchli ta‘sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. Migratsiya jarayonlari tarixining nazariy-metodologik asoslari xorijiy tadqiqotchilar tomonidan keng yoritilgan. Bugungi kungacha turli davlatlardagi demografik va migratsion holatni tavsiflovchi ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan va davom etmoqda. Sobiq Sovet Ittifoqi yillarida O‘zbekistonda demografik va migratsion tarix jarayonlari bilan bog‘liq statistiklarni ochiqlash cheklangan edi. Mavjud tadqiqotlar ko‘pincha bir yoqlamalilik asosida olib borilgan, shu nuqtayi nazardan, mavzuga ilmiy xolislik nuqtai-nazaridan yondashish muhim hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida esa O‘zbekistonda demografik va migratsion jarayonlarni aks ettiruvchi statistik ma‘lumotlar to‘plandi va bir qator arxiv ma‘lumotlari maxfiylikdan chiqarildi. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida demografik tarix va migratsion jarayonlar tarixi muammolarini o‘rganish zamonaviy bosqichga qadam qo‘ydi. Demografik rivojlanishni tarixiy omillarga bog‘liq holda o‘rganishda ahamiyatli bo‘lgan ilmiy tadqiqotlar paydo bo‘ldiki, ularda mutlaqo yangicha nazariy-metodologik yondashuvlar, ilmiy tafakkurning zamonaviy tamoyillari ko‘zga tashlanadi. Bunday ishlar qatorida “O‘zbekistonning yangi tarixi”, “O‘zbekistan davlatchiligi tarixidan lavhalar” singari mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan yirik tadqiqotlarni, D. A. Alimova, A. A. Golovanova R. X. Murtazayeva, I. R. Mullajonov D. Bobojonova, kabilarning asarlari va ilmiy tadqiqotlarini keltirish mumkin.

Materiallar va usullar. Demografik va migratsion jarayonlarni o‘rganish faqat statistik miqdoriy tahlil bilan cheklanmay, balki chuqur nazariy va metodologik yondashuvlarni ham talab qiladi. Migratsiya jarayonlarini tahlil qilishda klassik iqtisodiy nazariyalardan tortib, zamonaviy sotsiologik va geografik modellar, tizimli yondashuvlar, xalqaro tajribalarga asoslangan ko‘p fanli metodologiyalar keng qo‘llaniladi.

Natijalar. Tadqiqotchi olimlardan A. Smit XVIII asrda migratsiya to‘g‘risida o‘zining “Xalqlar boyligining tabiati va sabablari” («An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of nations») [1] asarida mehnat bozorida muttanosiblik va tengsizlik oqibati migratsiya jarayoni shakllanishiga sabab bo‘ladi deb ko‘rsatgan. Migratsiya natijasida etnik o‘ziga xoslikning shakllanishi va o‘zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarga moslashishning yangi shakllari Chikago maktabining sotsiologlari V. Tomas va F. Znanetskiy tomonidan sifat metodlari yordamida tahlil qilindi. V. Tomas va F. Znanetskiyning asarida tadqiqotning yangi “Biografik” usuli qo‘llangan, tadqiqotda polshalik dehqonlarning shaxsiy maktublari, kundaliklari va ma‘lumotnomalarini (avtobiografiya) to‘plash orqali qiyosiy tahlil qilishga erishganlar. Ular mahalliy shahar jamoalaridagi millatlararo munosabatlar muammosiga e‘tibor qaratgan edilar. [2, B. 278-289] Klassik demografik yondashuvlar XIX asrda Ravenshteyn tomonidan ilgari surilgan migratsiya qonunlari asosida shakllangan. Mashhur ingliz statistik, epidemiolog va demograf olimi V. Farr XIX asr oxirida migratsiyani Braun harakati kabi tartibsiz, hech qanday holatda ma‘lum naqshlarda paydo bo‘lmaydi degan fikrni bildirdi. Bu da‘voga qarshi ravishda uning zamondoshi E. G. Ravenshteyn migratsiya jarayonlaridagi umumiy jihatlar mavjudligiga ishongan va unga e‘tiroz bildirgan. V. Farrga javob sifatida 1885-yilda Ravenshteyn o‘zining migratsiya qonunlarini nashr etdi. Bu migratsiya konsepsiyasi bo‘yicha birinchi urinishlardan biri edi. U o‘zining migratsiyaning mohiyatini ochib beruvchi 11 ta qonunini yaratdi.

Keyinchalik Yevropada E. G. Ravenshteynning migratsiya haqidagi maqolasiga asoslanib ko‘plab ilmiy maqolalar yaratildi. 1940-yilda Samuel Staufferning maqolasi nashr etildi, unda migratsiya oqimiga halaqit beradigan faktlar tahlil qilindi. Muallif qonunchilikdagi to‘siqlar, axborot yetishmasligi va boshqa omillarni migrtasiyaning cheklovchilari deb ta’riflaydi. Migratsiya oqimlarini o‘rganishdagi navbatdagi qadam amerikaliklarning ishi bo‘ldi. Filolog va tilshunos Jorj Kingsli Zipf 1949-yilda nashr etilgan “Hayotiy model” migratsiya oqimlarining turli nuqtalar o‘rtasida intensivligini aniqlash imkonini berdi, bu nuqtalar orasidagi masofa va harakatlanuvchi aholiga bog‘liq deb ko‘rsatdi. [3] Everet Lee 1966-yilda Pull-Push (surish-tortish) nazariyasiga asos soldi. U migratsiyaga sabab bo‘ladigan omillarni itaruvchi va tortuvchi kabi turlarga ajratdi, unga ko‘ra ma’lum sabablar insonlarni migratsiya qilishga rag‘batlantirsa, ba’zi sabablar migratsiyani cheklashga xizmat qiladi. [4, B. 43] 1970-yillarda amerikalik geograf V. Zelinskiy demografik o‘tish nazariyasini ilgari surgan. U o‘z nazariyasini quyidagicha shakllantirgan edi. Yaqin tarixda kosmosda shaxsiy harakatchanlikning o‘shishini belgilovchi ma’lum qonuniyatlar mavjud va bu qonuniyatlar modernizatsiya jarayonining muhim qismini tashkil qiladi. Uning konsepsiyasi ko‘ra, jamiyatning migratsiya rivojlanishi demografik o‘tish fazalariga taxminan mos keladigan bosqichlardan iborat. Dastlab ahamiyatsiz migrtasiya, keyingi bosqichda qishloqdan shaharga migratsiya va o‘zlashtirilmagan qishloq yerlariga ko‘chish, keyingi bosqich mustamlaka hududlariga ko‘chishlar, keyingi bosqichda aholining mustamlaka qilingan hududlariga ko‘chishining to‘xtashi va hatto u yerdan chiqib ketishi bilan tavsiflanadi. Xaqaro migratsiyada ayniqsa, kam rivojlangan mamlakatlardagi malakasiz va yarim malakali ishchilarning mehnat migratsiyasi kuchayishi va ba’zi sharoitlarda malakali ishchi kuchi ortib borishi, Keyingi rivojlangan bosqichda transportning rivojlanishi va migratsiyaning yangi shakllari rivojlanishi tufayli migratsiyaning past darajasi bilan ajralib turadigan kelajak jamiyati. Deyarli barcha ko‘chishlar shaharlar ichida yoki shaharlar o‘rtasida sodir bo‘ladi. Kam rivojlangan mamlakatlardan malakasiz ishchilarning immigratsiyasi davom etadi va siyosiy kuchayishi ham mumkin degan fikrlarni bildirgan. R. Park va E. Burgess migratsiya jarayonlari natijasida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklar va nizolarni aniqlash uchun muhojirlar jamoalarini tahlil qildi. M. I. Kulisher va A. M. Kulischerning tadqiqotlari nafaqat o‘tmish migratsiyalarini tavsiflashda yordam berishi mumkin balki, bugungi kunda aholining portlashi ya’ni jadal o‘shishi kuzatilayotgan rivojlanayotgan mamlakatlardagi jarayonlarni tavsiflash uchun ham foydalanish mumkin. Migratsiya jarayonining uch bosqichliligi konsepsiyasi T. I. Zaslavskaya va L. L. Ribakovskiy tomonidan 1970-1980 yillarda ishlab chiqilgan bo‘lib, undan kelib chiqadiki, aholi migratsiyasi (qaytarilmaydigan) makon bo‘yicha qayd qilingan bir qator migratsiya hodisalarini ifodalaydigan jarayon hisoblanadi va quyidagi bosqichlardan iborat deb ko‘rsatiladi:

- boshlang‘ich bosqich (potensial migratsiya);
- asosiy bosqich (aholining ko‘payib ketishi);
- yakuniy bosqich (ko‘chib kelgan joyda yashab ketish). [5, B. 28-29]

Migratsiya sabablarini o‘rganishda XX asrning 80-yillariga kelib, neoklassik iqtisodiy yondashuv yuzaga keldi. Uning natijasida migratsiyani mikro va makro darajada o‘rganish boshlandi. Neoklassik nazariyaga qarshi yangi ishchi kuchi nazariyasi ham vujudga keldi unga ko‘ra mukammal bo‘lmagan bozor sharoitlarida migratsiya faqat ishchi kuchi bozorining shartlari bilan aniqlanmaydi.

Bunda migratsiya bir kishining qaroriga bog‘liq emas, balki oila daromadida “tavakkalchilik” eng past darajasiga tushirishga uringan va turli bozor sharoitlarida oilaning ishlab chiqarish faoliyatidagi sarmoya cheklovlarini bartaraf etishga harakat qilgan oila va xonadonlar qarori hisoblanadi deb tushiniladi. A. I. Kuzmin ilmiy qarashlarida ko‘plab fanlar kesimida demografik, sotsiologik, tarixiy, huquqiy, psixologik, falsafiy va iqtisodiy sohalar bilan migratsion jarayon bog‘lig‘ligini tadqiq qildi. Unda asosan muhojirlarning yangi ijtimoiy, madaniy va etnik muhitga moslashishi bilan bog‘liq muammolarga e‘tibor qaratilgan. Tarixiy yondashuv barcha davlatlar, mintaqalar va butun dunyoda migratsiya harakati tarixiga oid manbalar, shuningdek, mehnat migratsiyasi sohasidagi ilmiy tadqiqotlarda migratsion harakatning rivojlanish tarixiga oid nazariyalar D. S. Shelestov, V. M. Kabuzan, V. A. Ionsev [6, B. 4-18] kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Rossiyalik olim V. A. Ionsev o‘z qarashlarida “Migratsiya aholining takror ko‘payishiga sabab bo‘ladi, uni demografik jarayon sifatida aholining doimiyga ko‘chib ketishi migratsiya shaklida namoyon bo‘ladi va ushbu shaklda u demografiya predmetiga aloqadordir” deb ta’kidlaydi. [7]

O‘zbekistonda 1970-yillar o‘rtalari va 1980-yillar oxiridan boshlab demografik va migratsion jarayonlar mavzusini o‘rganish rivojlana boshladi. R. X. Aminovanning asarlarida jamiyatning ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotida ayollar ishtiroki masalalari tadqiq qilindi. R. X. Aminovanning izlanishlarida ayollarning jamiyatda tutgan muhim roli, tarixiy demografiya nuqtai nazariga yaqin holda, tarixiylikka xos omillar asosida ochib berildi. Aynan shu paytdan boshlab, O‘zbekiston tarixshunosligida tarix, iqtisod va demografiya fanlari vakillarining o‘zaro ilmiy hamkorligi shakllana boshlagan edi. S. Mullajonova, H. Tursunov, Q. Fozilxo‘jaev hammualliflikda e‘lon qilingan “Oktyabr o‘zgartirgan o‘lka” nomli asarda, tarixiy-iqtisodiy va demografik ko‘rsatkichlar ilk bor keltirilgan edi.

Munozara. Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, mustaqillik yillarida O‘zbekiston aholisining demografik taraqqiyoti va migratsion jarayonlarning tarixiy tahlilini ochib beruvchi tarixiy adabiyotlar yaratilgan bo‘lsada, ular kamchilikni tashkil qiladi. Demografik tarix ma’lumotlarini ishonchli manbalar, arxiv hujjatlari asosida o‘rganish, demografik va migratsion jarayonlar tarixini yorituvchi ilmiy tadqiqotlar qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/falsafa/adam-smitning-korinmas-qoli/>
2. Я. В. Екатерина. тема диссертации/ Флориан Знанецкий и его интерпретация модернизационных процессов конца XIX - начала XX в. в среде польского крестьянства Царства Польского/Россия. 2006. С. 278-289.
3. Яковлева Е. История и теории миграционных процессов. <https://doi.org/10.24158/tipor.2017.3.2>.
4. Ahmedova Sh. Migratsiya oqimiga tortuvchi va itaruvchi faktorlarning ta’siri “Zamonaviy dunyoning ijtimoiy manzarasi va jamiyat tuzilmalari transformatsiyasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to‘plami. T. : 25-may 2023. / mas’ul muh. A. J. Kholbekov – T. : O‘zMU, 2023. – 200 b. -b 43.
5. Ионцев В. А. Миграция населения: экономика и политика // Международная миграция населения: Россия и современный мир / под ред. – Вып. 18. – М. : ТЕИС, 2006. – С. 28–29.

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

6. Ионцев В. А. , Субботин А. А. Современные сценарии демографического будущего мира (на примере России и Германии) // Балтийский регион. 2018. Т. 10, № 3. С. 4–18.

7. <https://demografiya.uz/uz/wiki/>

**РОЛЬ ОРГАНИЗАЦИЙ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА В ДОСТИЖЕНИИ
ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА**

Таирова Юлия Рафаэльевна

Базовый докторант Государственной академии хореографии Узбекистана

julie3395sa@gmail.com

ORCID : <https://orcid.org/0009-0007-2902-622X>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18673642>

Annotatsiya. Ushbu maqolada madaniyat va san'at tashkilotlari O'zbekiston tajribasidan foydalangan holda gender tengligini qanday targ'ib qilishi mumkinligi tahlil qilinadi. Unda madaniy muassasalar ijtimoiy munosabatlarni o'zgartirishi va ayollar va zaif guruhlarni san'at, ta'lim va ommaviy tadbirlar orqali qo'llab-quvvatlashi mumkin bo'lgan aniq mexanizmlar o'rganiladi. Unda san'at ijtimoiy muloqotni rivojlantirish va zo'ravonliksiz ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun qimmatli vosita ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar. Gender tengligi, madaniyat, san'at, madaniy tashkilotlar, ijtimoiy o'zgarish, barqaror rivojlanish.

Аннотация. В статье представлен анализ того, как организации культуры и искусства могут содействовать продвижению гендерного равенства, используя опыт Узбекистана. Исследуются конкретные механизмы, посредством которых культурные институты способны трансформировать общественные установки, расширять права и возможности женщин и уязвимых групп через искусство, образование и публичные мероприятия. Подчеркивается, что искусство является ценным инструментом для налаживания социального диалога и осуществления ненасильственных социальных преобразований.

Ключевые слова. гендерное равенство, культура, искусство, культурные организации, социальные трансформации, устойчивое развитие.

Abstract. This article presents an analysis of how cultural and arts organizations can promote gender equality, drawing on the experience of Uzbekistan. It explores the specific mechanisms through which cultural institutions can transform social attitudes and empower women and vulnerable groups through art, education, and public events. It emphasizes that art is a valuable tool for fostering social dialogue and implementing non-violent social change.

Keywords. Gender equality, culture, art, cultural organizations, social transformation, sustainable development.

Достижение гендерного равенства, безусловно, представляет собой одну из ключевых и наиболее значимых целей, направленных на устойчивое развитие нашего общего мира. Это равенство выступает важным маркером социального прогресса, которое, в свою очередь, определяет уровень развития общества и его готовность к изменениям. В контексте Узбекистана, можно с уверенностью сказать, что, предпринимаемые законодательные и институциональные шаги, имеют цель поддержки женщин и молодежи, однако, проблемы гендерной интеграции остаются в значительной степени актуальными и требуют дальнейшего.

Следует отметить, что культурные и художественные организации в Узбекистане занимают стратегически важное место в этом процессе. Они не только создают платформы для обмена мнениями и дискуссий на тему гендерного равенства, но и активно способствуют формированию идентичности, одновременно расширяя возможности женщин, которые являются неотъемлемой частью культурного ландшафта страны. Это выражается, в частности, через художественные произведения, которые могут передавать идеи гендерного равенства и вдохновлять на актуализацию через образовательные проекты, направленные на повышение осведомленности и знаний по вопросам гендера. К тому же, масштабные культурные акции и мероприятия становятся отличным инструментом для привлечения общественного внимания к важным темам, связанным с правами женщин и их ролью в обществе. Таким образом, мы можем наблюдать, как искусство и культура становятся мощными средствами равноправных форм взаимодействия.

Современные культурологические и гендерные подходы трактуют культуру как активное пространство формирования смыслов. Символические формы и репрезентативные практики оказываются центральными механизмами в процессе как воспроизводства, так и деконструкции гендерных иерархий. Искусство, будучи неотъемлемой частью символического поля, обладает потенциалом как для закрепления традиционных гендерных нарративов, так и для выполнения функции критического осмысления и трансформации. Культурные институции – музеи, театры, центры, фестивали, образовательные платформы – выступают в роли медиаторов, обеспечивая трансляцию художественных высказываний в социум. Их программная политика и кураторские стратегии определяют степень видимости и легитимности различных голосов в публичном пространстве.

В Узбекистане ряд культурных инициатив служит успешным примером продвижения гендерного равенства:

- Театры и хореографические коллективы в Ташкенте и других регионах активно вовлекают женщин в роли режиссёров, постановщиков и ведущих исполнительниц. Так, Государственный театры реализуют проекты, направленные на сохранение как традиционного, так и современного наследия, одновременно расширяя профессиональные перспективы для женщин-деятелей искусства.

- Образовательные программы и фестивали: Центр современного искусства в Ташкенте вместе с несколькими культурными фондами организуют мастер-классы, арт-резиденции и образовательные программы для молодых женщин и девушек, способствуя их вовлечению в творческие индустрии и развитию лидерских навыков и умений в области проектного менеджмента.

- Государственные инициативы и социальные проекты: Министерство культуры Узбекистана в сотрудничестве с международными организациями, такими как ЮНЕСКО и UN Women, реализует проекты, повышающие видимость женского творчества — включая выставки и семинары, посвящённые роли женщин в культурном развитии страны. Это способствует формированию новой общественной дискуссии вокруг гендерных ролей.

Все эти примеры свидетельствуют о том, что культурные организации в Узбекистане становятся не только площадками для творчества, но и активными участниками социальных преобразований, влияя на восприятие гендера в обществе и создавая условия для равного участия женщин в культурной жизни. Если формальные инструменты действуют через лабиринты предписанных правил, то искусство проникает в самые глубины человеческой души, апеллируя к эмоциям и символам. Искусство не просто транслирует идеи, оно зажигает искру размышлений и побуждает к действию. В Узбекистане, где культурное пространство расцветает, фестивали искусства и национальные театральные постановки становятся маяками, освещающими путь к равенству и инклюзии.

Таким образом, культурные организации становятся неотъемлемой частью мозаики социальной и гуманитарной политики, выступая в роли мощных союзников в создании общества, где царят справедливость и равенство. Они не просто подкрепляют законы, но и запускают волны культурных преобразований, неустанно поднимая важные вопросы, разжигая общественные дебаты и вдохновляя на активные шаги. Это плодотворное взаимодействие культуры и политики особенно ценно, поскольку оно позволяет комплексно решать социальные вызовы, находя отклик в сердцах и умах людей, и тем самым меняя их взгляд на мир и свое место в нем. Искусство обладает исключительной силой воздействия, охватывая эмоциональный, интеллектуальный и символический аспекты восприятия. Это делает его поистине мощным средством формирования общественного мнения. В отличие от формальных образовательных и правовых инструментов, художественные практики обладают способностью глубже и эффективнее воздействовать на сознание зрителей. Они достигают этого благодаря использованию богатого спектра образов, историй, метафор и переживаний, которые способны пробудить в людях эмоции и вызвать осознание значимых социальных проблем. Театр, музыка, танец, кинематограф, изобразительное искусство обладают мощным потенциалом для пробуждения эмоционального отклика и сопереживания по поводу социальных проблем, в том числе гендерного неравенства. Они позволяют представить идею гендерного равенства не как отвлеченную концепцию, недоступную для обыденного восприятия, а как живой опыт, который можно испытать, проанализировать и даже глубоко почувствовать. Художественные тексты и визуальные образы знакомят зрителей с многообразием социальных контекстов, расширяя границы их понимания. Такой опыт не только разрушает устаревшие стереотипы и мифы, сформировавшиеся на протяжении многих лет, но и побуждает к личному переосмыслению существующих норм и ценностей.

Через эстетический опыт идеи равенства усваиваются более естественным образом, не вызывая ощущения навязывания. Люди начинают осознавать и принимать эти идеи просто через взаимодействие с искусством, что делает процесс более органичным и менее конфликтным.

Пример Узбекистана убедительно демонстрирует, что организации культуры и искусства выполняют важную миссию в продвижении и гендерного равенства. Они не только обеспечивают представительство женщин в разнообразных сферах, но и активно способствуют их образованию, а также инициируют открытый общественный диалог. Их деятельность направлена на создание более справедливого общества, где каждый человек, независимо от

пола, обладает равными правами и возможностями для самовыражения и реализации своего потенциала.

Действительно, работа культурных и художественных учреждений активно способствует разрушению укоренившихся стереотипов, которые долгое время сдерживали развитие женщин. Эстетика, поддержка творческих процессов и освещение гендерных тем расширяют участие женщин в культурной сфере, от сценических выступлений до художественных выставок. Это, в свою очередь, открывает новые горизонты для самореализации и является важным шагом к утверждению принципов равенства. Более того, культурные инициативы формируют ценности равенства на уровне общественного сознания. Они пробуждают интерес и вовлекают людей в обсуждение вопросов гендерного равноправия, побуждая задуматься о личной ответственности каждого в построении справедливого общества. Своей способностью затрагивать чувства, вызывать эмоции и мотивировать к действию, культура играет ключевую роль в трансформации менталитета и создании более инклюзивного и равноправного будущего.

Использованная литература

1. Таирова Ю. Р. Научный вклад женщин в осмыслении узбекского танца как инструмента культурной устойчивости // «Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, jamiyat barqarorligini ta'minlashda ayollarning o'rni va roli» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materillari to‘plami. — Ташкент, 2025.
2. Муллагалиева Ф. , Румянцева Е. Опыт женщин в науке Узбекистана. Журнал социальных исследований. Том 8 № 3, 2025.
3. Комилова Х. Социологический анализ деятельности женщин в развитии науки в Узбекистане. Общество и инновации, 5(3), 2024.
4. Нурмухамедова Д. Р. Продвижение научно-технического развития в Узбекистане: меры по укреплению гендерного равенства в области науки и инноваций // ОС. 2024. №1.
5. Toshboboeva M. Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlarning o‘rniga doir o‘zgarishlarning nazariy masalalari // Философия и право. 2025. №1.
6. Саттарова Г. , Собиров Ш. Социальные ориентиры Нового Узбекистана: курс на народное благосостояние // ОИИ. 2025. №6.

**AXBOROT GLOBALLASHUV JARAYONIDA O‘SMIRLARNING
O‘Z-O‘ZINI ANGLASH I JARAYONLARINI SHAKLLANTIRUVCHI TRENING
DASTURI**

Umirbekova Nasiba Kenesbaevna

*Innovatsion texnologiyalar universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasida assistent
o‘qituvchisi*

E-mail: umirbekovanasiba@gmail.com

+99890 595-85-50

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18673662>

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot globallashuv jarayonida o‘smirlarning o‘z-o‘zini anglash transformatsiyasi jarayonlarini shakllantiruvchi trening dasturi – bu zamonaviy psixologik va pedagogik yondashuvlarga asoslangan, o‘smir shaxsining reflektiv, emotsional va ijtimoiy o‘zlikni anglash jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks tizimdir. Mazkur dastur orqali ishtirokchilar o‘z “men”ini aniqlash, ichki his-tuyg‘ularini boshqarish, jamiyatdagi o‘rnini anglash va o‘zini ijtimoiy jihatdan baholash ko‘nikmalarini mustahkamlaydilar.

Kalit so‘zlar: O‘smir, trening dastur, men konsepsiyasi, diagnostika, jamiyat, o‘z-o‘zini anhlash.

Аннотация: В данной статье программа тренинга, формирующая процессы трансформации самосознания подростков в процессе информационной глобализации, представляет собой комплексную систему, основанную на современных психолого-педагогических подходах, направленную на развитие рефлексивных, эмоциональных и социальных процессов самосознания личности подростка. Посредством данной программы участники укрепляют навыки определения своего “Я”, управления внутренними эмоциями, осознания своего места в обществе и социальной самооценки.

Ключевые слова: Подросток, программа тренинга, концепция “Я”, диагностика, общество, самосознание.

Abstract: In this article, the training program that forms the processes of transformation of adolescents' self-awareness in the process of information globalization is a complex system based on modern psychological and pedagogical approaches, aimed at developing the processes of reflexive, emotional, and social self-awareness of the adolescent personality. Through this program, participants will strengthen their skills in identifying their "self," managing their inner feelings, understanding their place in society, and social self-esteem.

Keywords: Adolescent, training program, self-concept, diagnostics, society, self-awareness.

Trening dasturining dastlabki bosqichida ishtirokchilarga o‘zini anglashning nazariy asoslari, axborot globallashuvi sharoitida shaxs transformatsiyasi jarayonlari va raqamli muhitda identitetning shakllanish mexanizmlari haqida bilim beriladi. Ushbu bosqichda “Men kimman?”, “Axborotdagi men va haqiqiy men”, “Virtual ta’sir” kabi interaktiv mashqlar, shuningdek, reflektiv suhbatlar, videorolik tahlillari va metaforik kartalar orqali o‘smirlarning ichki “men”ini tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Amaliy mashg‘ulotlar davomida “Axborot oqimlarini baholash”, “Ijtimoiy rollarni

anglash”, “Raqamli muhitda hissiy nazorat” kabi topshiriqlar bajariladi. Bu usullar o‘smirlarning muloqot madaniyatini rivojlantiradi, raqamli stressni kamaytiradi va o‘z fikrini ifodalashda ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytiradi. Har bir mashg‘ulot o‘smirning yosh xususiyatlari va psixologik ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi, bunda har bir ishtirokchining reflektiv fikrlash darajasi, emotsional barqarorligi va ijtimoiy moslashuvchanligi alohida nazorat qilinadi.

Trening dasturining markaziy bosqichi — o‘smirlarning reflektiv tafakkurini rivojlantirish va o‘z-o‘zini idrok etish mexanizmlarini shakllantirishga bag‘ishlanadi. Bu bosqichda o‘smirlar o‘z tajribalarini tahlil qilish, fikrlarini mantiqan asoslash, baho berish va xatti-harakatlarini qayta ko‘rib chiqish orqali o‘zini anglash ko‘nikmalarini mustahkamlaydilar. Mashg‘ulotlar “Refleksiya doirasi”, “Men va boshqalar”, “O‘zgarayotgan men” kabi mashqlar orqali olib boriladi. O‘smirlar o‘zini turli ijtimoiy vaziyatlarda sinab ko‘radi, ularning har biri shaxsiy rivojlanish uchun turtki vazifasini bajaradi. Guruhli tahlillar, psixologik rolli o‘yinlar va suhbat texnikalari o‘smirlarning ijtimoiy empatiyasini kuchaytiradi, kommunikativ kompetensiyasini oshiradi. Shu bilan birga, o‘smirlar axborot bosimiga qarshi psixologik immunitetni shakllantiradilar, bu esa ularning o‘zini anglash jarayonini yanada barqaror qiladi.

Treningning alohida moduli milliy va global qadriyatlar uyg‘unligiga bag‘ishlanadi. O‘smirlar xalq donishmandligi, tarixiy shaxslarning hayoti, milliy urf-odatlar va zamonaviy ijtimoiy qadriyatlar misolida o‘z “men”ining madaniy ildizlarini o‘rganadilar. Bu bosqichda ular milliy o‘zlikni saqlagan holda global tafakkur darajasiga chiqish, turli madaniyatlar bilan o‘zaro muloqotda to‘g‘ri yo‘l tutish, bag‘rikenglik va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashni o‘rganadilar. “Men va mening xalqim”, “Madaniyatlararo muloqot” va “Milliy qadriyatlar orqali o‘zini anglash” mashg‘ulotlari orqali o‘smirlar o‘z madaniy identitetini anglab, global jamiyatda o‘z o‘rnini topishga o‘rganadilar.

Trening dasturining yakuniy bosqichi — refleksiya, baholash va mustahkamlash jarayonlaridan iborat. Har bir ishtirokchi o‘zini anglashdagi o‘zgarishlarni tahlil qiladi, yangi hosil bo‘lgan psixologik ko‘nikmalarni kundalik hayotda qo‘llash rejasini ishlab chiqadi. “Shaxsiy rivojlanish kundaligi”, “O‘zini anglash portfeli” va “Reflektiv intervyu” kabi usullar orqali o‘smirlar o‘z tajribalari, his-tuyg‘ulari va g‘oyalarini baholaydilar. Shu jarayonda ular o‘zini tahlil qilish, xulqni boshqarish, fikrni mantiqan asoslash va o‘z ustida ishlashga ichki ehtiyoj shakllanadi. Trening yakunida o‘smirlar o‘zini anglashning uch asosiy ko‘rsatkichi — reflektiv tafakkur, emotsional barqarorlik va ijtimoiy mas’uliyat bo‘yicha sezilarli o‘sishga erishadilar.

Ushbu trening dasturi o‘smirlarning axborot globallashuvi sharoitida o‘zini anglashini rivojlantiruvchi, ularni ijtimoiy jihatdan faol, emotsional jihatdan barqaror va intellektual jihatdan mustaqil shaxsga aylantiruvchi psixologik-pedagogik model sifatida xizmat qiladi. Dastur orqali o‘smirlar nafaqat o‘z “men”ini anglaydilar, balki raqamli dunyoda ongli yashash, ijtimoiy muhitga moslashish va insoniy qadriyatlarga sodiq qolish ko‘nikmalarini egallaydilar. Shu tariqa trening nafaqat o‘zini anglashni rivojlantiradi, balki o‘smirning shaxsiy o‘sishini, tafakkur mustaqilligini va ijtimoiy faolligini ham ta’minlaydi.

Trening dasturida emotsional intellektni rivojlantirish asosiy psixologik yo‘nalish sifatida ajratilgan. Chunki o‘smirlarning o‘zini anglash transformatsiyasi hissiy barqarorlik, o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish va boshqalar hissiyotini tushunish qobiliyatiga bevosita bog‘liq. “Hissiy tahlil kartalari”, “emotsional rezonans”, “kayfiyatni boshqarish” kabi texnikalar yordamida o‘smirlar o‘z

emotsiyalarini aniqlash, tahlil qilish va moslashtirishni o‘rganadilar. Bu jarayon ularning o‘ziga ishonchini oshiradi, stressga bardoshlilikini kuchaytiradi va ijtimoiy muloqotda muvozanatni saqlashni ta‘minlaydi. Shu bilan birga, treningda raqamli muhitda emotsional o‘zini nazorat qilish mashqlari, masalan “virtual konfliktni tahlil qilish” yoki “axborot ziddiyatlariga hissiy javob” kabi topshiriqlar orqali o‘smirlarning hissiy mustaqilligi va psixologik himoyasi shakllantiriladi.

Motivatsion-aks ettiruvchi mashg‘ulotlar dasturda alohida o‘rin egallaydi, chunki o‘smirlik davrida o‘zini anglash jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchi — ichki turtki va o‘zini kashf etishga bo‘lgan ehtiyojdir. “Hayotiy qadriyatlar piramidasi”, “shaxsiy o‘zgarish xaritasi” va “mening maqsadim” kabi topshiriqlar orqali o‘smirlar o‘zlari uchun muhim bo‘lgan yo‘nalishlarni aniqlaydilar va ularni amalga oshirish rejasini ishlab chiqadilar. Shu bosqichda refleksiya mashg‘ulotlari o‘tkazilib, ishtirokchilar o‘z tafakkuri, hissiy holati va ijtimoiy munosabatlaridagi o‘zgarishlarni kuzatadilar. Bu o‘zgarishlarni tahlil qilish ularda irodaviy barqarorlikni oshirib, o‘zini anglashning ichki dinamikasini chuqurlashtiradi.

Treningda milliy qadriyatlarga asoslangan refleksiv yondashuv ham markaziy o‘rin tutadi. O‘smirlar milliy madaniyat, xalq donishmandligi, tarixiy shaxslarning hayoti va qadimiy urf-odatlardan ilhomlanib, shaxsiy identitetini shakllantiradilar. “Milliy qadriyatlar asosida o‘zini anglash”, “madaniy metafora” va “xalq og‘zaki ijodida shaxsiy o‘zlik” kabi mashqlar orqali o‘smirlar o‘z milliy ildizlarini tushunadi va ularni global tafakkur bilan uyg‘unlashtirishni o‘rganadilar. Bu yondashuv o‘smirda o‘z millatiga faxr hissini uyg‘otib, global dunyoda ham madaniy jihatdan barqaror shaxs bo‘lib qolish imkonini beradi.

Xulosa. Mazkur trening dastur o‘smirlarning shaxsiy o‘zgarishlarini axborot muhitining ijtimoiy-psixologik omillari bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. U kognitiv, hissiy, motivatsion va xulqiy yo‘nalishlarni bir butun tizimda birlashtirib, o‘smirning o‘zini anglash, ijtimoiy moslashuv va madaniy refleksiyasini rivojlantiradi. Shu orqali axborot globallasuvi jarayonida o‘smir o‘zligini yo‘qotmagan, ammo global tafakkur bilan harakatlanuvchi ongli shaxs sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Андреева Г. М. — Социальная психология образования: личность и информационная среда, издательство «Академия», Москва, 2013. 250 с.
2. Z. T. Nishanova, N. G. Kamilova, D. U. Abdullaeva, M. X. Xolnazarova “Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya” darslik Toshkent-2018
3. Савина О. О. — Психология развития подростков в информационном обществе, издательство Академический проект, Москва, 2017. 224 с.
4. Солдатова Е. Л. — Цифровая социализация подростков: риски и возможности, издательство Смысл, Москва, 2018. 304 с.

O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLARINING MA’NAVIY QIYOFASI

Isoqova Gulhida Murodjon qizi

Guliston davlat universiteti Psixologiya yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

E-mail: isoqovagulxida@gmail.com

Ravshanov Sobir Abdimalik o‘g‘li

Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi

E-mail: sobirravshanov3@gmail.com

+998999144472

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18673697>

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekiston xotin-qizlarining ma’naviy qiyofasini zamonaviy ijtimoiy va madaniy jarayonlar kontekstida tahlil qiladi. Tadqiqotda ayol shaxsining ma’naviy yetukligi, oilaviy tarbiyada tutgan o‘rni, globallashuv jarayonlarining ta’siri va ijtimoiy faolligi yoritilgan. Maqola tarixiy manbalar, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va milliy qadriyatlar asosida tayyorlangan bo‘lib, xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi ma’naviy rolini chuqur ochib beradi. Shuningdek, maqolada xotin-qizlarning ma’naviy qiyofasini rivojlantirish, milliy qadriyatlarni saqlash va zamonaviy jamiyat sharoitida ijtimoiy faollikni oshirish yo‘llari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston xotin-qizlari, ma’naviy qiyofa, oilaviy tarbiya jarayoni, globallashuv ta’siri, ijtimoiy faollik, milliy qadriyatlar tizimi, ayol tarbiyasi, axloqiy qadriyatlar, shaxsiy mas’uliyat, jamiyatdagi roli, ma’naviy yetuklik, madaniy meros, qadriyatlar va an’analar.

Аннотация: В данной статье анализируется духовный образ узбекской женщины в контексте современных социальных и культурных процессов. В исследовании освещается духовная зрелость женщины, ее роль в семейном воспитании, влияние процессов глобализации, ее социальная активность. Статья подготовлена на основе исторических источников, современных научных исследований и национальных ценностей и глубоко раскрывает духовную роль женщины в жизни общества. В статье также анализируются пути развития духовного образа женщины, сохранения национальных ценностей, повышения социальной активности в условиях современного общества.

Ключевые слова: женщины Узбекистана, духовный образ, процесс семейного воспитания, влияние глобализации, социальная активность, национальная система ценностей, женское образование, моральные ценности, личная ответственность, роль в обществе, духовная зрелость, культурное наследие, ценности и традиции.

Annotation: This article analyzes the spiritual image of Uzbek women in the context of modern social and cultural processes. The research highlights the spiritual maturity of a woman, her role in family education, the impact of globalization processes, and her social activity. The article was prepared on the basis of historical sources, modern scientific research and national values, and deeply reveals the spiritual role of women in the life of society. The article also analyzes ways to develop the spiritual image of women, preserve national values, and increase social activity in the conditions of modern society.

Key words: *women of Uzbekistan, spiritual image, family education process, impact of globalization, social activity, national value system, female education, moral values, personal responsibility, role in society, spiritual maturity, cultural heritage, values and traditions.*

Jamiyatning ma’naviy darajasi undagi ayol shaxsinmbarchas bog‘liq. Xotin-qizlar nafaqat oila, balki jamiyatning ma’naviy tayanchi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli ayol ma’naviy qiyofasini o‘rganish ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy taraqqiyot nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’naviyat jamiyatni birlashtiruvchi kuch sifatida baholangan ilmiy qarashlar ushbu masalaning dolzarbligini ko‘rsatadi [1].

Ma’naviy qiyofa tushunchasi ijtimoiy-falsafiy adabiyotlarda shaxsning axloqiy mezonlari, qadriyatlar tizimi, ruhiy holati va jamiyatga munosabatini ifodalovchi murakkab ijtimoiy hodisa sifatida talqin etiladi. Ushbu tushuncha insonning ichki dunyosi bilan tashqi ijtimoiy xatti-harakatlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ifodalaydi. Ma’naviy qiyofa shaxsning jamiyatda qanday yashashi, qarorlar qabul qilishi va mas’uliyatni his etishi bilan bevosita bog‘liq. Ma’naviyat jamiyat hayotida hal qiluvchi omil sifatida baholanib, u shaxsning ongli faoliyatini boshqaruvchi ichki kuch sifatida ko‘riladi [1]. Shu nuqtayi nazardan, ma’naviy qiyofa inson xulq-atvorini tartibga soluvchi ichki mezonlar majmui sifatida namoyon bo‘ladi. Bu mezonlar axloq, vijdon, mas’uliyat, adolat va ijtimoiy burch kabi tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Ilmiy adabiyotlarda ma’naviy qiyofa shaxsning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’siri jarayonida shakllanishi ta’kidlanadi. Shaxs yashayotgan jamiyat, madaniyat va an’analar uning ma’naviy qiyofasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [2]. Shu sababli ma’naviy qiyofa doimiy rivojlanib boruvchi, ijtimoiy sharoitga moslashuvchi hodisa hisoblanadi. Xotin-qizlar ma’naviy qiyofasi umumiy ma’naviy qiyofa tushunchasining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u jamiyat axloqiy muhitining shakllanishida alohida o‘rin tutadi. Ayol shaxsida mujassam bo‘lgan mehr-oqibat, sabr-toqat, mas’uliyat va sadoqat kabi ma’naviy sifatlar jamiyatning axloqiy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bois ayol ma’naviy qiyofasi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi [1]. Ma’naviy qiyofa masalasini ilmiy jihatdan o‘rganish jamiyatda sog‘lom axloqiy muhitni shakllantirish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va kelajak avlod tarbiyasini ta’minlash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, zamonaviy sharoitda ma’naviy qiyofa tushunchasining mazmuni yanada kengayib, unda milliy qadriyatlar bilan bir qatorda zamonaviy ijtimoiy mas’uliyat masalalari ham muhim o‘rin egallamoqda [2].

O‘zbek ayoli ma’naviy qiyofasining shakllanishi uzoq tarixiy taraqqiyot jarayoni bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu jarayon jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, madaniy rivoji va axloqiy qarashlari bilan uzviy aloqada rivojlangan. Tarixiy manbalarda ayol shaxsi oilaning ma’naviy tayanchi, axloqiy qadriyatlarning saqlovchisi va avlodlar o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlovchi asosiy bo‘g‘in sifatida tasvirlanadi. Bu holat o‘zbek ayoli ma’naviy qiyofasining barqaror va uzluksiz shakllanganini ko‘rsatadi. Qadimgi va o‘rta asr manbalarida ayollarning tarbiya, xayriya va madaniy hayotdagi ishtiroki jamiyat ma’naviy muhitiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgani qayd etilgan. Tarixiy tadqiqotlarda o‘zbek ayoli faqat oilaviy doirada emas, balki jamoat hayotida ham ma’naviy mas’uliyatni zimmasiga olgan shaxs sifatida ko‘rsatiladi [3]. Bu davrda ayolning ma’naviy qiyofasi sabr, sadoqat, vijdon va jamiyat manfaatlariga xizmat qilish kabi sifatlar bilan belgilangani kuzatiladi. Temuriylar davri madaniy hayoti tahlil qilinganda, ayollarning ilm-ma’rifat va xayriya faoliyatidagi ishtiroki alohida e’tiborga loyiq ekanligi aniqlanadi. Tarixiy manbalarda ushbu davr ayollari madrasa

va masjidlar qurilishiga homiylik qilgani, ilm-fan va madaniyat rivojiga hissa qo‘shgani qayd etilgan [4]. Bu holat o‘zbek ayoli ma’naviy qiyofasining faqat an’anaviy emas, balki ijtimoiy faol bo‘lganini ko‘rsatadi. Keyingi tarixiy bosqichlarda ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar ayol ma’naviy qiyofasiga yangi unsurlarni olib kirdi. XX asrda ta’lim tizimining kengayishi, ayollarning jamoat ishlarida ishtiroki ortishi natijasida ayol ma’naviy qiyofasi yanada boyidi. Tarixiy tahlillarda ushbu davr ayoli ma’naviy jihatdan ongli, ijtimoiy mas’uliyatni his qiluvchi shaxs sifatida shakllangani ta’kidlanadi [5]. Mustaqillik davrida esa o‘zbek ayoli ma’naviy qiyofasini qayta tiklash va milliy qadriyatlarga asoslangan holda rivojlantirish jarayoni kuchaydi. Tarixiy-madaniy merosga murojaat qilish, milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy tiklanish jarayonlari ayol ma’naviy qiyofasining mazmunini yanada chuqurlashtirdi. Bu davrda ayol shaxsi jamiyatda ma’naviy barqarorlikni ta’minlovchi muhim ijtimoiy kuch sifatida namoyon bo‘la boshladi [1].

Oila – shaxs ma’naviyatini shakllantirishda eng muhim ijtimoiy institut hisoblanadi. Ayol oilada nafaqat farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanish, balki ma’naviy qadriyatlarni uzatish, axloqiy me’yorlarni mustahkamlash va oilaviy barqarorlikni ta’minlash vazifasini bajaradi. Shu sababli ayol ma’naviy qiyofasi jamiyatning barqaror rivojlanishida markaziy o‘rin tutadi [6]. Oilaviy tarbiyaning ayol ma’naviy qiyofasiga ta’siri ko‘p qirralidir. Avvalo, ona tarbiyasi orqali farzandlar axloqiy qadriyatlar, mehr-oqibat, sadoqat va mas’uliyat kabi fazilatlarni egallaydi. Bu jarayon nafaqat shaxsning ma’naviy rivojlanishini ta’minlaydi, balki jamiyatda sog‘lom ijtimoiy muhitni yaratishga xizmat qiladi [7]. Shuningdek, ayol oilada ruhiy barqarorlik va tarbiya markazi sifatida faoliyat yuritadi. Ota-onaning, xususan onaning, ma’naviy saviyasi va qarashlari farzandlarning ijtimoiy va axloqiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, onaning ma’naviy darajasi bolalarning axloqiy qarorlar qabul qilish, jamiyatga moslashish va mas’uliyatni his qilish qobiliyatini shakllantiradi [8]. Ayolning oiladagi roli faqat bolalarni tarbiyalash bilan cheklanmaydi; u oilaning umumiy ijtimoiy muhitini barqarorlashtiruvchi kuch sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ona va xotin oilaviy qadriyatlarni himoya qilib, avlodlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni saqlash orqali jamiyatning ma’naviy poydevorini mustahkamlaydi [6]. Shuningdek, ayol oilada o‘zini jamiyatning ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishida faol subyekt sifatida his qilganda, uning qarashlari va faoliyati yanada kengroq ijtimoiy maydonga ta’sir qiladi. Bu esa ayol ma’naviy qiyofasining jamiyat taraqqiyotida naqadar muhim ekanligini ko‘rsatadi [7]. Natijada ayol oilada shakllangan ma’naviy qiyofa orqali jamiyatda barqaror axloqiy muhitni yaratishga hissa qo‘shadi. Shu tariqa, oilaviy tarbiya ayolning ma’naviy yetukligini rivojlantiruvchi eng asosiy vositalardan biri sifatida qaraladi [8].

Zamonaviy dunyo globallashuv jarayoni bilan yuzma-yuz kelmoqda, bu jarayon xotin-qizlarning ma’naviy qiyofasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Axborot texnologiyalari va internetning keng tarqalishi ayollarning dunyoqarashini kengaytirib, turli madaniyatlar, qadriyatlar va hayotiy tajribalar bilan bevosita tanishish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, ushbu jarayon milliy qadriyat va an’anaviy axloqiy me’yorlarga nisbatan bosim ham keltiradi. Globallashuv sharoitida ayollarning ma’naviy qiyofasi bir qator yangi xususiyatlar bilan boyitiladi. Ularda tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyatni anglash kabi sifatlar rivojlanadi [5]. Shu bilan birga, global axborot oqimining tezligi va turlicha g‘oyalar tarqalishi milliy ma’naviyatni saqlash va axborot madaniyatini rivojlantirish zaruratini kuchaytiradi. Xotin-qizlar ma’naviy qiyofasidagi globallashuvning yana bir jihati – axborot makonidagi faollikdir. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda

tarqaladigan g‘oyalar, qadriyatlar va hayotiy tajribalar ayollarning axloqiy qarashlari va hayotiy pozitsiyasiga ta’sir qiladi. Shu sababli axborot madaniyati va ma’naviy immunitetni rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi [6]. Shuningdek, global jarayonlar xotin-qizlarning ijtimoiy va professional faolligini oshirishga imkon yaratadi. Globallashuv sharoitida ayolning o‘zini jamiyatning faol subyekti sifatida anglashi, turli jamiyatlarda muvaffaqiyatga erishgan ayol tajribasini kuzatishi uning ma’naviy qiyofasini boyitadi. Bu jarayon ayolning ichki dunyosini mustahkamlash va milliy qadriyatlarni saqlash bilan birga, zamonaviy ijtimoiy rolini yanada kuchaytiradi [5]. Shuningdek, globallashuv jarayoni xotin-qizlarga ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy maydonda yangi imkoniyatlar yaratadi, bu esa ma’naviy qiyofaning yanada multifunksional shakllanishiga olib keladi. Shu bilan birga, globallashuvning salbiy jihatlari, masalan, madaniyatlararo ziddiyat, axborot oqimining chalkashligi va qadriyatlarning nisbiylashuvi, ayol ma’naviy qiyofasiga sinov sifatida ta’sir qiladi [6]. Natijada, globallashuv sharoitida O‘zbekiston xotin-qizlarining ma’naviy qiyofasi nafaqat milliy qadriyatlar, balki global tajribalarni ham hisobga olgan holda shakllanadi. Shu jarayon ma’naviy yetuklik, ijtimoiy faollik va shaxsiy qaror qabul qilish qobiliyatining uyg‘un rivojlanishini ta’minlaydi. Bu esa xotin-qizlarni jamiyatning nafaqat ijtimoiy, balki ma’naviy yetakchi kuchiga aylantiradi [5].

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston xotin-qizlarining ma’naviy qiyofasi jamiyat taraqqiyoti va barqarorligida markaziy o‘rin tutadi. Ma’naviy qiyofa shaxsning axloqiy qadriyatlari, dunyoqarashi va ijtimoiy mas’uliyati bilan belgilanadi, shu bilan birga u oilaviy tarbiya, milliy an’analar va tarixiy tajribalar orqali shakllanadi. Tarixiy jarayonlarni o‘rganish ayol ma’naviy qiyofasining faqat oilaviy yoki shaxsiy xususiyat emas, balki jamiyatning axloqiy va madaniy barqarorligini ta’minlovchi ijtimoiy kuch ekanligini ko‘rsatadi. Zamonaviy globallashuv sharoitida xotin-qizlar ma’naviy qiyofasi yangicha xususiyatlar bilan boyitiladi. Axborot texnologiyalari, turli madaniy tajribalar va ijtimoiy kommunikatsiya vositalari ayollarning dunyoqarashini kengaytiradi, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantiradi, shu bilan birga milliy qadriyatlarni saqlash va axborot madaniyatini rivojlantirish vazifasini kuchaytiradi. Bu jarayon xotin-qizlarni jamiyatning ijtimoiy va ma’naviy yetuk subyekti sifatida shakllantiradi. Oilaviy tarbiya ayol ma’naviy qiyofasining shakllanishida eng muhim omil bo‘lib, ona va xotin shaxsida mujassam bo‘lgan sabr, sadoqat, mehr-oqibat va mas’uliyat fazilatlarini avlodlarga uzatiladi. Shu bilan birga ayolning ijtimoiy faolligi uning ma’naviy qiyofasini yanada boyitadi, jamiyatda fuqarolik ongini mustahkamlaydi va axloqiy barqarorlikni ta’minlaydi. Natijada, xotin-qizlar ma’naviy qiyofasi nafaqat shaxsiy rivojlanish va oilaviy muhit bilan, balki butun jamiyatning madaniy va axloqiy muhitini barqarorlashtirish bilan bog‘liq hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, xotin-qizlarning ma’naviy yetukligi va faolligi jamiyat taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi. Jamiyat, davlat va ta’lim tizimi ushbu jarayonni qo‘llab-quvvatlashi, milliy qadriyatlarni asrab-avaylashi va globallashuvning ijobiy jihatlarni shakllantirishi lozim. Shu tarzda, O‘zbekiston xotin-qizlarining ma’naviy qiyofasi tarixiy tajriba, oilaviy tarbiya, zamonaviy ijtimoiy jarayonlar va globallashuv ta’sirida shakllanib, jamiyatning ma’naviy barqarorligi va taraqqiyotiga bevosita hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. — Toshkent: Ma’naviyat nashri-2008 [1].

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

2. Jo‘raev N. *Ma’naviyat asoslari*. — Toshkent: O‘zbekiston nashri- 2019 [2].
3. Ahmedov B. *O‘zbekiston tarixi*. — Toshkent nashri-2017 [3].
4. Saidova G. *Temuriylar davrida ayollar*. — Samarqand nashri- 2016 [4].
5. Baxtiyorov J. *Globalashuv va madaniyat*. — Toshkent nashri- 2022 [5].
6. Zokirova F. *Ma’naviy immunitet masalalari*. — Toshkent nashri- 2023 [6].
7. Karimova L. *Ayollarning ijtimoiy faolligi*. — Toshkent nashri- 2020 [7].
8. Tursunov O. *Fuqarolik jamiyati va ma’naviyat*. — Buxoro nashri-2019 [8].

OLIV TA'LIM TIZIMIDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIV FAOLLIGINI RIVOJLANTISH

Sobitova Muxlisa Ulug‘bek qizi

NAMDPI maktabgacha ta'lim yo'nalishi

1-bosqich talabasi

gmail.com sobitovamuxlisa07@gmail.com

+99850 522-52-07

Ilmiy rahbar: Ismailova Nilufar Isroildjanovna

NAMDPI dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18673738>

Annotatsiya: *Ushbu maqola oliy ta'lim tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish masalalarini chuqur o'rganadi, ularning jamoaviy ishlash, liderlik ko'nikmalari, ijtimoiy loyihalar ishtiroki va jamiyatdagi faol rolini oshirish yo'llarini tahlil etadi. Maqolada gender tengligi, STEM yo'nalishlarida ishtirok, talabalar o'zini o'zi boshqarish organlari, xalqaro almashinuv dasturlari va ijtimoiy startaplar orqali xotin-qizlarning ijtimoiy potensialini ochish strategiyalari ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *xotin-qizlar ijtimoiy faolligi, oliy ta'lim, gender tengligi, liderlik rivoji, STEM ta'limi, talabalar o'zini o'zi boshqarish, ijtimoiy loyihalar, xotin-qizlar empowermenti.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы развития социальной активности женщин в системе высшего образования, анализируются способы повышения их навыков работы в команде, лидерских качеств, участия в социальных проектах и активной роли в обществе. Рассматриваются стратегии раскрытия социального потенциала женщин посредством гендерного равенства, участия в научно-технических областях, студенческих органов самоуправления, международных программ обмена и социальных стартапов.*

Ключевые слова: *женский социальный активизм, высшее образование, гендерное равенство, развитие лидерских качеств, STEM-образование, студенческое самоуправление, социальные проекты, расширение прав и возможностей женщин.*

Abstract: *This article examines the issues of developing women's social activism in the higher education system, analyzing ways to enhance their teamwork, leadership skills, participation in social projects, and active role in society. The article examines strategies for unlocking women's social potential through gender equality, participation in STEM areas, student self-government bodies, international exchange programs, and social startups.*

Keywords: *women's social activism, higher education, gender equality, leadership development, STEM education, student self-governance, social projects, women's empowerment.*

Kirish

Oliy ta'lim tizimi xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishning markaziy platformasi hisoblanadi chunki aynan universitet yoshida yosh ayollar o'z identikligini shakllantiradi, kasbiy maqsadlarini aniqlaydi va jamiyatdagi o'z o'rnini topadi. O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarida talabalar sonining 60 foizdan ortig'ini xotin-qizlar tashkil etadi ammo ularning ijtimoiy faolligi,

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

liderlik lavozimlarida ishtiroki va jamoaviy loyihalardagi rolini oshirish dolzarb masaladir. Ijtimoiy faollik xotin-qizlarda mas’uliyat, tashabbuskorlik, jamoaviy ish ko‘nikmalari, muammolarni hal qilish qobiliyati va jamiyat oldidagi o‘zini namoyon etish imkoniyatlarini rivojlantiradi.

Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini pasaytiruvchi asosiy to‘siqlar oilaviy qadriyatlar, an’anaviy gender rollari, o‘ziga ishonchsizlik, jamiyatdagi stereotiplar va kasbiy imkoniyatlardan xabardor emaslikdir. Ko‘p xotin-qizlar "ayollar uchun bu soha mos emas", "erkaklar rahbarlik qilishi kerak" kabi noto‘g‘ri qarashlarga duch keladi. STEM yo‘nalishlarida (fan, texnologiya, injiniring, matematika) xotin-qizlar ishtiroki jahon miqyosida 28 foizni tashkil etadi ammo ularning liderlik lavozimlarida ulushi undan ham kam. Bu holat iqtisodiyot va jamiyat rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi chunki xotin-qizlarning potentsiali to‘liq ishlatilmayapti.

Talabalar o‘zini o‘zi boshqarish organlari xotin-qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishning birinchi platformasidir. Universitetlar Kengashi, fakultet maslahat organlari, talabalar ittifoqlari va fan klublarida xotin-qizlarning ishtiroki faol rag‘batlantirilishi kerak. Liderlik kurslari, public speaking mashg‘ulotlari va jamoaviy loyiha boshqaruvi darslari o‘ziga ishonchni oshiradi. "Women in Leadership" klublari, "STEM for Girls" dasturlari va mentorlik tizimi xotin-qizlarni faol ishtirok etishga undaydi. Natijada ular o‘z fikrlarini himoya qilishni, jamoani boshqarishni va qaror qabul qilishni o‘rganadi.

Ijtimoiy loyihalar va volontyorlik xotin-qizlarning jamiyatga foydali ishlarni boshlash imkoniyatini beradi. Ekologik tozalash aksiyalari, ijtimoiy startaplar, mahallaviy muammolarni hal qilish loyihalari xotin-qizlarga o‘z qobiliyatlarini namoyon etish sahnasini yaratadi. Universitetlar tomonidan tashkil etilgan "Social Impact Award", "Youth for Change" kabi tanlovlar xotin-qizlarning ijodiy loyihalarini qo‘llab-quvvatlaydi. Bu jarayonda ular loyiha menejmenti, byudjet boshqaruvi, jamoa ishlashi va natijalarni taqdim etish ko‘nikmalarini egallaydi.

Xalqaro almashinuv dasturlari xotin-qizlarning global dunyoga ochiq bo‘lishini ta’minlaydi. Erasmus+, Fulbright, Chevening stipendiyalari va xalqaro konferensiyalar xotin-qizlarga turli madaniyatlar bilan tanishish, xorijiy tajribani o‘rganish va global tarmoqlar qurish imkonini beradi. Xalqaro loyihalarda ishtirok etgan xotin-qizlar o‘zbek ayollarining salohiyatini dunyoga namoyon etadi va vataniga qaytib kelganda tajriba almashadi. Bu jarayon ularning o‘ziga ishonchini keskin oshiradi va milliy iftixor tuyg‘usini mustahkamlaydi.

STEM yo‘nalishlarida xotin-qizlar ishtirokini oshirish iqtisodiyot rivoji uchun strategik ahamiyatga ega. "Girls in Tech" dasturlari, IT hackathonlar, injiniring musobaqalari va fan loyihalari xotin-qizlarni texnologik sohalarga jalb qiladi. Mashhur ayol dasturchilar, injinerlar va olimlar haqida ma’lumot berish stereotiplarni buzadi. Mentorlik dasturlari orqali tajribali ayollar yosh xotin-qizlarga yo‘l ko‘rsatadi. Natijada STEM sohasida xotin-qizlar ulushi 40 foizga yetishi mumkin.

Universitet infratuzilmasi xotin-qizlar faolligini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilishi kerak. Gender tengligi bo‘yicha seminarlar, xotin-qizlar uchun inkubatorlar, psixologik qo‘llab-quvvatlash markazlari va karera konsultatsiyalari tashkil etiladi. Kampusda xavfsizlik choralari, bolalar bog‘chasi va sport inshootlari xotin-qizlarning to‘liq ishtirokini ta’minlaydi. O‘zbekiston Oliy ta’lim vazirligi "Women in Higher Education" strategiyasini ishlab chiqishi kerak.

Oliy ta’lim dasturlari ijtimoiy faollikni rivojlantirishni hisobga olishi lozim. "Ijtimoiy psixologiya", "Liderlik va menejment", "Jamoaviy ish psixologiyasi" kabi fanlar ixtiyoriy ravishda

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

o‘tkaziladi. Kurs amaliyotlari loyiha asosida tashkil etilib, talabalar real vazifalarni bajaradi. Baholash tizimi faqat nazariy bilimlarni emas, balki ijtimoiy ko‘nikmalarni ham hisobga oladi.

Ota-onalar va jamiyatning roli ham muhimdir. Oilalar qizlarni faol hayotga undashi, "qiz bolasi uy ishlari bilan shug‘ullanishi kerak" degan noto‘g‘ri qarashlardan voz kechishi kerak. Jamiyat ayol liderlarni qo‘llab-quvvatlashi, ularning muvaffaqiyatlarini e‘tirof etishi zarur. Media va ijtimoiy tarmoqlarda xotin-qizlarning ijobiy imidjini shakllantirish muhimdir.

Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi O‘zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi uchun strategik resurs hisoblanadi. ularning faolligi ortishi YaIM ga 12 foizga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. BMT Maqsad 5 (Gender tengligi) doirasida xotin-qizlarning oliy ta‘limdagi faol ishtiroki milliy va xalqaro sifat ko‘rsatkichlaridan biridir. Xotin-qizlarning liderlik pozitsiyalariga chiqishi jamiyatdagi tenglikni ta‘minlaydi va yangi g‘oyalarni kengaytiradi.

Oliy ta‘lim tizimi xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish uchun to‘liq tayyor. Talabalar o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ijtimoiy loyihalar, xalqaro dasturlar, STEM tashabbuslari va karera markazlari mavjud infratuzilmani faol ishlatish kerak. Har bir xotin-qiz talaba o‘z potentsialini ochishi, jamiyatga foydali ishlarni boshlashi va kelajak avlod uchun namuna bo‘lishi mumkin. Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi O‘zbekistonning zamonaviy rivojlanishining ajralmas qismidir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Oliy ta‘lim tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish gender tengligi, liderlik ko‘nikmalari, STEM yo‘nalishlari, talabalar o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ijtimoiy loyihalar va xalqaro almashinuv dasturlari orqali amalga oshiriladi. O‘zbekistonda talabalarning 60% xotin-qizlar bo‘lib ularning liderlik lavozimlarida ishtiroki 28% dan past, STEM sohasida ulushi 25% atrofida.

Oilaviy stereotiplar, o‘ziga ishonchsizlik, jamiyat qarashlari va kasbiy imkoniyatlardan xabardor emaslik asosiy to‘siqlardir. Talabalar kengashlari, fakultet maslahat organlari, "Women in Leadership" klublari, public speaking kurslari, jamoaviy loyiha boshqaruvi darslari o‘ziga ishonchni oshiradi. Ijtimoiy loyihalar, volontyorlik, ekologik aksiyalar, "Social Impact Award" tanlovlari loyiha menejmenti, byudjet boshqaruvi, natija taqdim etish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Erasmus+, Fulbright stipendiyalari xalqaro tajriba, global tarmoqlar va milliy iftixorni mustahkamlaydi. "Girls in Tech" dasturlari, IT hackathonlar, injiniring musobaqalari STEM da xotin-qizlar ulushini 40% ga oshirishi mumkin. Gender tengligi seminarlari, psixologik markazlar, karera konsultatsiyalari, kampus xavfsizligi infratuzilmasi faollikni qo‘llab-quvvatlaydi. "Ijtimoiy psixologiya", "Liderlik menejmenti" kurslari ixtiyoriy dasturlarga kiritiladi, baholash ijtimoiy ko‘nikmalarni ham hisobga oladi.

Ota-onalar qizlarni faol hayotga undashi, jamiyat ayol liderlarni qo‘llab-quvvatlashi kerak. Xotin-qizlar faolligi YaIM ga 12% ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi, BMT Maqsad 5 ni amalga oshiradi, iqtisodiyot rivojiga hissa qo‘shadi. Oliy ta‘lim infratuzilmasi to‘liq tayyor, xotin-qizlar o‘z potentsialini ochishi, jamiyatga foydali loyihalar boshlashi, kelajak avlod uchun namuna bo‘lishi mumkin. Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi O‘zbekistonning zamonaviy rivojlanishining strategik resursi va global raqobatbardoshlik kalitidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekistonda oliy ta’limda gender tengligi masalalari. Oliy ta’lim vazirligi, 2025.
2. Xotin-qizlarning STEM yo‘nalishlaridagi ishtiroki. IT-Park analitik hisoboti, 2024.
3. Talabalar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining faoliyati. Universitetlar statistikasi, 2025.
4. Gender tengligi va iqtisodiy rivojlanish. Jahon banki O‘zbekiston bo‘yicha hisobot, 2023.
5. BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari. Maqsad 5: Gender tengligi, 2022.
6. Xotin-qizlar liderligi bo‘yicha xalqaro tajriba. Erasmus+ dasturi hisoboti, 2024.
7. O‘zbekiston oliy ta’limida ijtimoiy loyihalar tizimi. Yoshlar ishlari agentligi, 2025.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR TAYYORLASH JARAYONIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH ZARURATI.

Abdullayev Javohir Ismoil o‘g‘li

Jizzax davlat pedagogika universiteti III-bosqich tayanch doktoranti

E-mail javohirabdullayev8@gmail.com

+998915943393

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18673823>

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ta’lim jarayonida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish masalalari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim tizimida shaxsning mustaqil, analitik va refleksiv fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish ta’lim sifatini oshirishning muhim sharti sifatida e’tirof etiladi. Maqolada tanqidiy fikrlash kompetensiyasining mohiyati, uning pedagogik ahamiyati hamda ta’lim jarayonida samarali rivojlantirish yo‘llari ilmiy manbalar asosida yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *tanqidiy fikrlash, kompetensiya, ta’lim jarayoni, pedagogik texnologiya, innovatsion yondashuv.*

Аннотация: *В данной статье с теоретической и практической точек зрения анализируются вопросы развития компетенции критического мышления в образовательном процессе. В современной системе образования формирование у личности способности к самостоятельному, аналитическому и рефлексивному мышлению признаётся важным условием повышения качества образования. В статье раскрываются сущность компетенции критического мышления, её педагогическая значимость, а также пути её эффективного развития в образовательном процессе на основе научных источников.*

Ключевые слова: *критическое мышление, компетенция, образовательный процесс, педагогическая технология, инновационный подход.*

Abstract: *This article analyzes the issues of developing critical thinking competence in the educational process from both theoretical and practical perspectives. In the modern education system, the formation of independent, analytical, and reflective thinking abilities of individuals is recognized as an important condition for improving the quality of education. The article highlights the essence of critical thinking competence, its pedagogical significance, and effective ways of its development in the educational process based on scientific sources.*

Keywords: *critical thinking, competence, educational process, pedagogical technology, innovative approach.*

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarimoqda. Endilikda ta’lim muassasalari nafaqat bilim beruvchi, balki mustaqil fikrlaydigan, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qila oladigan, yangilikka ochiq shaxslarni tarbiyalashi lozim. Bu jarayonda o‘qituvchi shaxsining kasbiy va intellektual salohiyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois bo‘ljak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

Tanqidiy fikrlash zamonaviy pedagogikada shaxsning axborotni tahlil qilish, baholash, asosli xulosa chiqarish va o‘z pozitsiyasini mantiqiy himoya qilish qobiliyati sifatida talqin etiladi [1]. Bo‘lajak o‘qituvchida ushbu sifatlarning shakllanishi kelajakda ta‘lim jarayonining samaradorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Tanqidiy fikrlash tushunchasi falsafa, psixologiya va pedagogika fanlari kesishgan nuqtada shakllangan bo‘lib, u shaxsning ongli, mantiqiy va reflektiv tafakkur faoliyatini ifodalaydi. R. Pol va L. Elderlarning fikricha, tanqidiy fikrlash — bu fikrlash jarayonini ongli ravishda boshqarish, tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyatidir [2].

Pedagogik nuqtayi nazardan qaralganda, tanqidiy fikrlash o‘qituvchining faqat tayyor bilimlarni uzatish bilan cheklanmasdan, balki ta‘lim oluvchilarda mustaqil izlanish, savol berish va baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarning tanqidiy fikrlash darajasi ularning kasbiy tayyorgarligining muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bir nechta muhim vazifalarni hal etadi. Avvalo, u pedagogik faoliyatga ijodiy yondashuvni ta‘minlaydi. Tanqidiy fikrlovchi o‘qituvchi ta‘lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni an‘anaviy emas, balki innovatsion yo‘llar bilan hal qila oladi.

Ikkinchidan, tanqidiy fikrlash o‘qituvchining reflektiv faoliyatini kuchaytiradi. Refleksiya orqali pedagog o‘z faoliyatini tahlil qiladi, xatolarini anglaydi va kasbiy o‘shishga erishadi [3]. Uchinchidan, tanqidiy fikrlash bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiradi, chunki u muloqot jarayonida asosli dalillar keltirish va qarama-qarshi fikrlarni hurmat qilishni talab etadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda tanqidiy fikrlashni samarali rivojlantirish uchun ma‘lum pedagogik shart-sharoitlar yaratilishi zarur. Jumladan, ta‘lim jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish, interfaol metodlardan foydalanish, mustaqil ta‘lim ulushini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Muammoli ta‘lim texnologiyasi talabalarni faol fikrlashga undaydi, chunki unda tayyor javoblar berilmaydi, balki muammoni mustaqil hal qilish talab etiladi. Shuningdek, “aqliy hujum”, “debat”, “case-study” kabi metodlar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi [4].

Bugungi kunda pedagogik ta‘limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodlar keng qo‘llanilmoqda. Xususan, loyihaviy ta‘lim, reflektiv kundaliklar yuritish, tahliliy esse yozish kabi usullar bo‘lajak o‘qituvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtiradi.

Loyihaviy faoliyat jarayonida talabalar muammoni aniqlash, ma‘lumotlarni tahlil qilish va natijani baholash bosqichlaridan o‘tadi. Bu esa ularning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini kompleks ravishda rivojlantiradi [5].

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zamonaviy ta‘limning ustuvor vazifalaridan biridir. Tanqidiy fikrlashga ega bo‘lgan pedagog ta‘lim jarayonini samarali tashkil etadi, o‘quvchilarning intellektual rivojiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi va o‘z kasbiy faoliyatida doimiy o‘shishga intiladi. Shu sababli pedagogik ta‘lim dasturlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metod va texnologiyalarni keng joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dewey J. How We Think. Boston: D. C. Heath, 1993, 35–48-betlar.

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

2. Paul R. , Elder L. Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning. Pearson, 2014, 30–55-betlar.
3. Brookfield S. Becoming a Critically Reflective Teacher. Jossey-Bass, 2017, 62–80-betlar.
4. Fisher A. Critical Thinking: An Introduction. Cambridge University Press, 2011, 90–112-betlar.
5. Facione P. Critical Thinking: What It Is and Why It Counts. Insight Assessment, 2020, 15–29-betlar.

ТРАНСПОЗИЦИЯ ЗНАМЕНАТЕЛЬНЫХ СЛОВ В АНГЛИЙСКОМ И КИТАЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Иномжонова Мадина Илхомжоновна

Докторант Ташкентский государственный университет Востоковедения

inomjonova.madina@yandex.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18673863>

***Аннотация.** В статье рассматривается семантический подход к определению части речи знаменательных слов. На материале английского и китайского языков показано различие между реальной транспозицией со сменой значения и формальным употреблением без семантического сдвига. Особое внимание уделено лексическому расщеплению в китайском языке и его влиянию на интерпретацию предложений с номинативным сказуемым.*

***Ключевые слова:** семантика, транспозиция, знаменательные слова, номинативный глагол, английский язык, китайский язык.*

***Annotatsiya.** Maqolada mustaqil so‘zlarning semantik yondashuv asosida so‘z turkumini aniqlash masalasi ko‘rib chiqilgan. Ingliz va xitoy tillari materiallari asosida leksik ma‘nodagi o‘zgarish bilan kechadigan haqiqiy transpozitsiya va semantik siljishsiz formal qo‘llanish holatlari farqlanadi. Xitoy tilidagi leksik ajralish va uning nominativ kesimli gaplarni talqin qilishdagi ro‘liga alohida e‘tibor qaratiladi.*

***Kalit so‘zlar:** semantika, transpozitsiya, mustaqil so‘zlar, nominativ fe‘l, ingliz tili, xitoy tili.*

***Abstract.** The article examines a semantic approach to determining the part of speech of content words. Using English and Chinese data, it distinguishes between genuine transposition involving a change in lexical meaning and formal use without semantic shift. Special attention is given to lexical splitting in Chinese and its role in interpreting sentences with nominal predicates.*

***Keywords:** semantics, transposition, content words, nominal predicate, English, Chinese.*

Языковая деятельность предполагает организацию словесных единиц по определённым правилам с целью выражения смысла. В нормативных условиях функционирования языка каждый знаменательный компонент предложения должен обладать чётко определённым, общепризнанным и однозначным значением, что обеспечивает успешную коммуникацию между говорящим и адресатом. Иными словами, семантика знаменательных слов в обычных предложениях поддаётся однозначному наблюдению, что позволяет классифицировать их на основании значения. При этом значение слова в предложении не определяется его структурной позицией, то есть не зависит от выполняемой им синтаксической функции. В строгом смысле одно и то же знаменательное слово не может обладать различными значениями в разных предложениях; следовательно, языковые единицы, выражающие различные значения, как правило, не являются одним и тем же словом.

Классификация знаменательных слов на основе их семантики не является новым подходом и широко применяется в грамматическом анализе различных языков. Вследствие риторических или иных коммуникативных потребностей временное функционирование

существительных в роли прилагательных или глаголов представляет собой распространённое явление во многих языках.

В языках с относительно развитой морфологической системой, таких как английский язык, изменение частеречной принадлежности знаменательного слова нередко маркируется словообразовательными аффиксами. Однако и в этих языках, при отсутствии формальных показателей, решающим критерием остаётся вопрос о том, претерпело ли слово изменение лексического значения [2]. Так, в примере (1a) глагол *palinize* («пэйлинизировать») образован от собственного имени Пэйлин и обозначает новое действие — «уподоблять кого-либо (Саре Пэйлин)»; суффикс *-ize* выступает здесь в качестве явного формального маркера транспозиции. В примере (1b), напротив, слово *text* формально сохраняет морфологию существительного, однако выражает значение «отправить текстовое сообщение» и, следовательно, функционирует как глагол. Оба случая демонстрируют, что решающим фактором является именно семантический сдвиг, а не наличие или отсутствие морфологической маркировки.

(1) a. *Don't Palinize me. – Не делай из меня Пэйлин / Не пэйлинизируй меня.*

b. *I will text you when the package arrives. – Я напишу тебе сообщение, когда посылка придёт.*

Дополнительным подтверждением данного положения служат примеры (2), в которых используются выражения, связанные с сетью ресторанов «Kentucky Fried Chicken». Одно из них содержит словообразовательный суффикс *-like*, тогда как другое лишено каких-либо формальных показателей. Тем не менее оба выражения обозначают признак «похожий на KFC» и функционируют как прилагательные, что свидетельствует о том, что наличие аффикса не является определяющим условием для изменения частеречной принадлежности.

(2) a. *This is really KFC-like. – Это действительно похоже на KFC.*

b. *It's too KFC. – Это слишком по-KFC / Слишком в стиле KFC.*

Аналогичные явления наблюдаются и в китайском языке. Как правило, существительные обозначают предметы или субстанции, тогда как прилагательные выражают свойства и качественные характеристики объектов. Вместе с тем некоторые знаменательные слова охватывают обе семантические сферы, что при опоре исключительно на семантический критерий позволяет говорить о лексическом расщеплении. В научной литературе к таким единицам относят 自然 «природа / естественный», 热情 «энтузиазм / энтузиастичный», 油 «масло / жирный», 面 «мука, лапша / мучнистый» и др. [3].

Так, слово *мянь* в своих исходных значениях обозначает порошкообразное вещество и продукты, изготовленные из него, и в этих случаях функционирует как существительное. Однако в предложении (3) оно выражает признак, связанный с ощущением текстуры, и тем самым реализует адъективное значение.

(3) *这红薯很面. – Этот батат очень мучнистый.*

Именно по этой причине данное значение фиксируется в современных словарях китайского языка как диалектное прилагательное, что свидетельствует не о ситуативной синтаксической переинтерпретации, а о лексикализованном семантическом расщеплении.

Проведённый анализ позволяет чётко разграничить случаи реальной транспозиции, сопровождающейся изменением лексического значения, и случаи формального «неглагольного» употребления, не затрагивающего семантической природы слова. Данное разграничение имеет принципиальное значение для интерпретации так называемых предложений с именным (номинальным) сказуемым.

Во многих работах утверждается, что предложения с именным сказуемым являются специфической, уникальной для китайского языка конструкцией либо что их доля в китайском языке значительно выше, чем в других языках [3, 4, 5]. Основным аргументом при этом служит положение о якобы обязательном наличии глагола в предложениях индоевропейских языков. Однако данные английского языка показывают, что отсутствие эксплицитного глагольного сказуемого само по себе не является типологически уникальным.

(4) a. *Why no mail today?* – Почему сегодня нет почты?

b. *Two days a week.* – Два дня в неделю.

c. *Sarah Louise Heath Palin, Governor of Alaska and Republican vice-presidential nominee for the 2008 election.* – Сара Луиза Хит Пэйлин, губернатор штата Аляска и кандидат в вице-президенты США от Республиканской партии на выборах 2008 года.

Разумеется, подобные конструкции в английском языке ограничены в употреблении и преимущественно характерны для разговорной речи и неофициальных жанров [1]. В этом отношении их распределение во многом сопоставимо с распределением предложений с именным сказуемым в китайском языке, хотя их функциональная нагрузка и прагматические условия реализации не являются полностью тождественными.

Таким образом, сопоставительный анализ примеров из английского языка показал, что даже при отсутствии явных словообразовательных показателей знаменательное слово способно функционировать в иной частеречной роли, если оно приобретает новое значение. Аналогичные процессы наблюдаются и в китайском языке, где отсутствие развитой морфологической системы делает семантический критерий особенно значимым. Рассмотренные случаи лексического расщепления в китайском языке свидетельствуют о том, что адъективные и субстантивные значения отдельных единиц представляют собой не результат ситуативной синтаксической интерпретации, а следствие лексикализации различных семантических компонентов.

Список использованной литературы

[1] Biber D. , Johansson S. , Leech G. , Conrad S. , Finegan E. Longman Grammar of Spoken and Written English. — New York: Pearson Education Ltd, 1999.

[2] Quirk R. , Greenbaum S. , Leech G. , Svartvik, J. A Grammar of Contemporary English. — London: Longman World Publishing Corp, 1972. — 876 p.

[3] Li Audrey. Order and Constituency in Mandarin Chinese. — Dordrecht: Kluwer Academic Publishers, 1990.

[4] 石毓智. 乔姆斯基语言学的哲学基础及其缺陷——兼论语言能力的合成观. 外国语, 第3期, 2005年.

[5] 陈勇. 名词谓语句研究综述. 安徽广播电视大学学报, 第2期, 2005年.

DAVLAT BOSHQARUVIDA AYOLLAR ISHTIROKINING IJTIMOIIY-FALSAFIY ASOSLARI

Jabborova Sayyoraxon Muxammadkobilovna

Andijon davlat pedagogika instituti Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasida o‘qituvchisi

E-mail: sayyoraxonjabborova754@gmail.com

Tel: +998934133402

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18673908>

Annotatsiya: *Maqolada davlat boshqaruvi tizimida ayollarning ishtiroki ijtimoiy-falsafiy tahlil obyekti sifatida o‘rganilgan. Ayol rahbarlar faoliyatining gender tengligi, ijtimoiy adolat, insonparvarlik va fuqarolik jamiyati rivoji bilan bog‘liq jihatlari ochib berilgan. Yangi O‘zbekiston sharoitida davlat siyosatida ayollar ishtirokini kengaytirishning falsafiy asoslari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *davlat boshqaruvi, ayol rahbarlar, gender tengligi, ijtimoiy adolat, ijtimoiy falsafa, Yangi O‘zbekiston.*

Annotatsiya: *В статье рассматриваются социально-философские основы участия женщин в системе государственного управления. Анализируются вопросы гендерного равенства, социальной справедливости, гуманизма и роли женщин-руководителей в развитии гражданского общества. Обосновано философское значение расширения участия женщин в управлении государством в условиях Нового Узбекистана.*

Ключевые слова: *государственное управление, женщины-руководители, гендерное равенство, социальная философия, социальная справедливость.*

Annotation: *The article examines the socio-philosophical foundations of women's participation in public administration. It analyzes issues of gender equality, social justice, humanism, and the role of women leaders in the development of civil society. The philosophical significance of expanding women's participation in governance in the context of New Uzbekistan is substantiated.*

Keywords: *public administration, women leaders, gender equality, social philosophy, social justice.*

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, mazkur samaradorlik rahbar kadrlarning kasbiy, ma’naviy va ijtimoiy salohiyatiga tayanadi. Shu nuqtai nazardan, ayollarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki faqat gender masalasi sifatida emas, balki ijtimoiy adolat, inson huquqlari va demokratik rivojlanishning muhim mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar mazkur yo‘nalishda yangi ijtimoiy-falsafiy mazmun kasb etmoqda. Ayollarning davlat boshqaruvida ishtirok etishining falsafiy mohiyatini ijtimoiy falsafada davlat boshqaruvi jamiyat manfaatlarini muvofiqlashtiruvchi ijtimoiy institut sifatida talqin qilinadi. “Ayollarning boshqaruv jarayonlarida ishtirok etishi ijtimoiy muvozanat, tenglik va adolat tamoyillarini ta’minlashga xizmat qiladi. Falsafiy nuqtai nazardan, ayol rahbarlarda mas’uliyat, bag‘rikenglik, ijtimoiy hamdardlik va insonparvarlik kabi qadriyatlar ustuvor

bo‘lib, ular boshqaruv qarorlarining ijtimoiy yo‘naltirilganligini ta‘minlaydi.”⁴ “Gender tengligi va davlat siyosatini davlat boshqaruvida gender tengligini ta‘minlash demokratik jamiyat taraqqiyotining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Yangi O‘zbekistonda qabul qilingan qonunlar va davlat dasturlari ayollarning rahbarlik lavozimlaridagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan. Bu jarayon ijtimoiy falsafada inson qadri, teng imkoniyatlar va ijtimoiy adolat g‘oyalari bilan uyg‘unlikda amalga oshirilmoqda.”⁵

Ayol rahbarlar faoliyatining ijtimoiy ahamiyati shundaki ayol rahbarlar davlat boshqaruvida ijtimoiy muammolarga nisbatan yuqori sezgirlik, muloqot madaniyati va jamoatchilik bilan hamkorlikka tayangan faoliyat yuritadi. Bu holat fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishiga va aholining davlat organlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. “Ijtimoiy-falsafiy jihatdan, ayol rahbarlar jamiyatda barqaror taraqqiyotni ta‘minlovchi muhim ijtimoiy sub‘ekt sifatida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy falsafada davlat boshqaruvi jamiyat hayotini tartibga soluvchi, ijtimoiy manfaatlarni muvofiqlashtiruvchi va barqaror taraqqiyotni ta‘minlovchi muhim ijtimoiy institut sifatida talqin qilinadi. Mazkur tizimda ayollarning ishtiroki ijtimoiy sub‘ekt sifatida insonning jamiyatdagi roli, qadri va imkoniyatlarini kengaytirish bilan bog‘liq murakkab ijtimoiy-falsafiy jarayon hisoblanadi.”⁶ Ayol rahbarlarning boshqaruv faoliyati jamiyatda ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillarining amaliy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Falsafiy nuqtai nazardan, ayol rahbarlik fenomeni jamiyatda insonparvarlik, bag‘rikenglik va ijtimoiy hamdardlik kabi qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayollarning boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida ijtimoiy oqibatlarga nisbatan mas‘uliyatli yondashuvi davlat siyosatining inson manfaatlariga yo‘naltirilganligini ta‘minlaydi. Bu esa ijtimoiy barqarorlik va jamiyat a‘zolari o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat boshqaruvida gender tengligini ta‘minlash zamonaviy demokratik jamiyat taraqqiyotining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Gender tengligi faqat ayollar huquqlarini himoya qilish bilan cheklanmay, balki jamiyatning barcha a‘zolari uchun teng imkoniyatlar yaratishni nazarda tutadi. Ijtimoiy falsafada mazkur tamoyil inson qadri, ijtimoiy adolat va tenglik g‘oyalari bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilinadi.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida ayollarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini oshirishga qaratilgan qonunchilik va institutsional mexanizmlar shakllantirilmoqda. Bu jarayon jamiyatda ijtimoiy rollarni qayta ko‘rib chiqish, an‘anaviy stereotiplarni bartaraf etish hamda ayollarning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Falsafiy jihatdan, mazkur holat ijtimoiy ongning yangilanishi va jamiyatda gender madaniyatining rivojlanishini anglatadi.

Ayol rahbar shaxsiyati ijtimoiy falsafada ijtimoiy sub‘ekt sifatida qaraladi. U nafaqat boshqaruv funksiyalarini amalga oshiradi, balki jamiyatda ijtimoiy qadriyatlar tashuvchisi sifatida ham muhim rol o‘ynaydi. Ayol rahbarlarda muloqot madaniyati, jamoaviy fikrlash, ijtimoiy

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – T. , 2022.

⁵ Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — T. : O‘zbekiston, 2021.

⁶ Abdullaeva M. Gender tengligi va ijtimoiy taraqqiyot masalalari. — T. : Fan, 2020.

mas’uliyat va ma’naviy barkamollik kabi sifatlar ustuvor bo‘lib, bu holat boshqaruv qarorlarining ijtimoiy samaradorligini oshiradi.

Ijtimoiy-falsafiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ayol rahbarlar faoliyatida ijtimoiy muammolarga nisbatan kompleks yondashuv ustuvor bo‘ladi. Ular ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya va ma’naviy-ma’rifiy sohalarida inson manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu esa davlat boshqaruvida ijtimoiy yo‘naltirilgan siyosatni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik darajasi bilan bevosita bog‘liq. Ayol rahbarlar mazkur jarayonda jamoat tashkilotlari, fuqarolar yig‘inlari va nodavlat institutlar bilan samarali muloqot o‘rnatishda muhim rol o‘ynaydi. Ularning ijtimoiy faolligi fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan, ayol rahbarlarning fuqarolik jamiyati rivojidadagi ishtiroki ijtimoiy sheriklik va ijtimoiy mas’uliyat g‘oyalarining amalda ro‘yobga chiqishini anglatadi. Bu jarayon jamiyatda ochiqlik, shaffoflik va ijtimoiy nazorat mexanizmlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida inson kapitali va ijtimoiy faollikka alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayollarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki mazkur strategiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu holat jamiyatda innovatsion tafakkur, ijtimoiy mas’uliyat va barqaror rivojlanish tamoyillarini qaror toptirishga xizmat qiladi.

Falsafiy jihatdan, ayol rahbarlar faoliyati davlat boshqaruvida an’anaviy ma’muriy yondashuvlardan insonparvar va ijtimoiy yo‘naltirilgan boshqaruv modellariga o‘tish jarayonini tezlashtiradi. Bu esa jamiyatning ma’naviy va ijtimoiy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Davlat boshqaruvida ayollar ishtirokining ijtimoiy-falsafiy asoslari ijtimoiy adolat, insonparvarlik va demokratik qadriyatlar tizimi bilan chambarchas bog‘liq. Yangi O‘zbekiston sharoitida ayol rahbarlarning faolligi jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ularning boshqaruv jarayonlaridagi ishtiroki jamiyatning ijtimoiy va ma’naviy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, davlat boshqaruvida ayollar ishtirokini kengaytirish zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim ijtimoiy-falsafiy shartlaridan biri hisoblanadi. Ayol rahbarlarning boshqaruv tizimida faol ishtirok etishi jamiyatda ijtimoiy adolat, teng imkoniyatlar va insonparvarlik tamoyillarining amaliy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayon faqat gender muvozanatini ta’minlash bilan cheklanib qolmay, balki davlat boshqaruvining sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qiladi.

Ijtimoiy-falsafiy tahlillar shuni tasdiqlaydiki, ayol rahbarlar faoliyatida ijtimoiy mas’uliyat, muloqot madaniyati, jamoatchilik manfaatlariga yo‘naltirilgan qarorlar qabul qilishga intilish kabi xususiyatlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Mazkur sifatlar davlat va jamiyat o‘rtasida o‘zaro ishonchni mustahkamlash, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish hamda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida davlat siyosatida ayollarning rahbarlik lavozimlaridagi ishtirokini oshirishga qaratilgan islohotlar ijtimoiy adolat va inson qadrini ulug‘lash g‘oyalariga tayanadi. Bu esa davlat boshqaruvida gender tengligi tamoyilining faqat huquqiy me’yor sifatida emas, balki ijtimoiy-falsafiy qadriyat sifatida qaror topayotganini ko‘rsatadi. Ayollarning

boshqaruvdagi ishtiroki jamiyatda innovatsion tafakkur, ijtimoiy hamjihatlik va barqaror taraqqiyot uchun mustahkam zamin yaratadi.

Shu bilan birga, davlat boshqaruvida ayollar ishtirokini yanada samarali tashkil etish uchun ta’lim, kadrlar tayyorlash va ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayol rahbarlarning kasbiy va intellektual salohiyatini oshirish, ularning falsafiy tafakkuri va strategik fikrlash qobiliyatini rivojlantirish davlat boshqaruvining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayon ijtimoiy falsafada inson kapitali va ijtimoiy sub’ektlik konsepsiyalari bilan uzviy bog‘liqdir.

Xulosa sifatida ta’kidlash mumkinki, davlat boshqaruvida ayollar ishtirokining ijtimoiy-falsafiy asoslari jamiyatning demokratik rivoji, ma’naviy yuksalishi va ijtimoiy barqarorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Yangi O‘zbekiston sharoitida ayol rahbarlarning faolligi nafaqat davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilishga, balki jamiyatda ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimining yangilanishiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar kelgusida ham ijtimoiy falsafa fanining dolzarb ilmiy masalalaridan biri sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — T. : O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. — T. , 2022.
3. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — T. : O‘zbekiston, 2021.
4. Abdullaeva M. Gender tengligi va ijtimoiy taraqqiyot masalalari. — T. : Fan, 2020.
5. Rahimov Q. Ijtimoiy falsafa: nazariya va amaliyot. — T. : Universitet, 2019.
6. Saidov A. Inson huquqlari va demokratik jamiyat. — T. : Adolat, 2018.
7. Qodirova D. Ayollar va davlat boshqaruvi: ijtimoiy tahlil. — T. : Falsafa va huquq, 2021.
8. Giddens E. Sotsiologiya. — M. : Nauka, 2017.
9. Xabermas Yu. Falsafiy diskurs va jamiyat. — M. : Ves mir, 2016.
10. Bekmurodov M. Fuqarolik jamiyati nazariyasi. — T. : Akademiya, 2020.
11. Norboeva S. Ayol rahbarlik madaniyatining ijtimoiy asoslari // Ijtimoiy fanlar jurnali. — 2022. — №3.
12. UNDP. Gender Equality and Governance. — New York, 2020.
13. World Bank. Women, Business and the Law. — Washington, 2021.
15. Oakley A. Gender and Society. — London: Routledge, 2019.
16. Phillips A. Democracy and Gender Equality. — Oxford University Press, 2018

ПЕРВАЯ ЖЕНЩИНА-ДИПЛОМАТ ТУРЦИИ: АДИЛЕ АЙДА

Рахимова Ирода Халимовна

2 курс докторант

Исторического факультета НУУз

E-mail: riroda793@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18673943>

Annotsiya: Turkiya Respublikasining dastlabki yillarida siyosiy hayotda ko‘plab o‘zgarishlar yuz berdi. Bu jarayon davomida turk diplomatiyasi ham ayollar uchun eshiklarini ochdi. Adile Ayda 1932-yilda Tashqi ishlar vazirligiga martaba ofitseri etib tayinlanganida Turkiyaning birinchi ayol diplomatiga aylandi. Biroq, Adile Aydaning diplomatik faoliyati notinch yo‘ldan bordi. O‘z so‘zlari bilan aytganda, u “ayol bo‘lgani uchun duch kelgan ba’zi to‘siqlar tufayli” bir muddat diplomatiya olamidan uzoqlashdi va bir muddatdan so‘ng diplomatik kasbga qaytdi.

Kalit so‘zlar: Adile Ayda, Turkiya diplomatiyasi, Tashqi ishlar vazirligi, Ayol diplomatlar.

Аннотация: В первые годы существования Турецкой Республики в политической жизни страны произошло множество изменений. В этот период турецкая дипломатия открыла свои двери для женщин. В 1932 году Адиле Айда была назначена кадровым офицером Министерства иностранных дел и стала первой женщиной-дипломатом Турции. Однако дипломатическая деятельность Адиле Айды проходила непросто. По её собственным словам, она на некоторое время отошла от дипломатической службы из-за «некоторых препятствий, с которыми столкнулась как женщина», а затем вернулась к своей дипломатической карьере.

Ключевые слова: Адиле Айда; турецкая дипломатия; Министерство иностранных дел; женщины-дипломаты.

Abstract: In the early years of the Republic of Turkey, significant changes took place in the political life of the country. During this period, Turkish diplomacy opened its doors to women. In 1932, Adile Ayda was appointed as a career officer in the Ministry of Foreign Affairs and became the first female diplomat of Turkey. However, her diplomatic career was not without challenges. In her own words, she temporarily stepped away from diplomacy due to “certain obstacles faced as a woman,” but later returned to continue her diplomatic profession.

Keywords: Adile Ayda; Turkish diplomacy; Ministry of Foreign Affairs; women diplomats.

Введение

В истории международных отношений XX века особое место занимает процесс вовлечения женщин в дипломатическую службу. Долгое время дипломатия рассматривалась как исключительно мужская сфера деятельности, что было обусловлено социальными, политическими и культурными факторами. Однако в условиях модернизационных процессов и реформ, охвативших многие государства в начале XX века, роль женщин в системе государственного управления и внешней политики стала постепенно возрастать [4, 71].

В Турецкой Республике данный процесс был тесно связан с кемалистскими реформами, направленными на секуляризацию общества, расширение гражданских прав и формирование

современного государства. В этом контексте особого внимания заслуживает фигура Адиле Айды - первой женщины-дипломата Турции, чья деятельность стала важной вехой в истории турецкой дипломатии[1, 21-23].

Адиле Айда родилась в начале XX века в образованной семье, что позволило ей получить качественное образование. Она окончила престижные учебные заведения, свободно владела несколькими иностранными языками и рано проявила интерес к международным отношениям[4, 92-93]. Полученное ею образование соответствовало высоким стандартам, предъявляемым к дипломатическим кадрам того времени.

Её интеллектуальная подготовка и профессиональные качества позволили Адиле Айде преодолеть существующие гендерные барьеры и поступить на службу в Министерство иностранных дел Турции, что стало беспрецедентным событием для страны[3, 79-80].

Начало дипломатической карьеры Адиле Айды совпало с периодом активного формирования внешнеполитического курса Турецкой Республики. Она принимала участие в работе дипломатических миссий, представляя интересы государства за рубежом и участвуя в международных переговорах[5, 56].

Особое значение имела её деятельность в сфере культурной и гуманитарной дипломатии, где она способствовала формированию позитивного имиджа Турции на международной арене. Адиле Айда демонстрировала высокий уровень профессионализма, что способствовало постепенному изменению отношения к женщинам в дипломатической службе[2, 51-54].

Адиле Ханым родилась в Санкт-Петербурге в 1913 году, начальное образование получила в Париже. Живя в Европе с семьей, она благодаря полученному там образованию довела иностранные языки до продвинутого уровня. Можно сказать, что на нее глубоко повлияли взгляды отца, имевшего политическое прошлое и писавшего о турецкой идентичности и турецком языке, и это заложило интеллектуальную основу, которая привела ее к профессии тюрколога. Знания Адиле Ханым в области иностранных языков, а также ее интерес к литературе и истории особенно развились в годы обучения в Германии. Вернувшись в Турцию, как женщина, получившая выгоду от равных возможностей в образовании, предоставленных Республикой, она завершила обучение во французской средней школе Нотр-Дам-де-Сион в Стамбуле и окончила юридический факультет в Анкаре в 1932 году [4, 83-85]. Кроме того, весьма важны наблюдения Халила Иналджика, который долгое время был её соседом и называл её «Адиле Абла», относительно интеллектуальных способностей Адиле Айды. Эти наблюдения ясно показывают, что Адиле Ханым была чрезвычайно одарённой женщиной в молодости [2, 33-35].

В 1930-х годах Министерство иностранных дел в значительной степени считалось мужской сферой деятельности [4, 53-56].

Действительно, Англия не допускала женщин в дипломатическую сферу до 1946 года, Италия - до 1963 года, а Испания - до 1971 года. В Турции Адиле Айда сдала экзамены в Министерство иностранных дел в 1932 году и в том же году была назначена профессиональным сотрудником. Таким образом, она вошла в историю как первая женщина-дипломат Турции. Дипломатическая карьера Адиле Ханым, которая продлилась десятилетия,

началась именно так, и с ней дипломатическая сфера открылась для женщин. До 1933 года число стран мира, в которых работали женщины-дипломаты, составляло всего 13, и Турция стала одной из этих стран [3, 34].

Высокий уровень образования Адиле Айды, знание трех иностранных языков и обучение за рубежом сыграли важную роль в ее успешной сдаче этого экзамена. Кроме того, в процессе построения современной турецкой дипломатии существовала значительная потребность в квалифицированных кадрах, и необходимо было привлекать в дипломатическую сферу людей, приверженных принципам и ценностям Республики. В связи с особенностями периода национальной борьбы предпочтение отдавалось лицам, чья надежность была подтверждена руководством [1, 61-63]. Таким образом, доверие Ататюрка к Садри Максуди Арсалу стало еще одним фактором, способствовавшим этому процессу. В результате Адиле Ханым, как член семьи, разделяющей эти принципы и ценности, была назначена на должность в Министерстве иностранных дел [5, 24]. Адиле Ханым, которая также вышла замуж в этот период, покинула Министерство иностранных дел, внезапно подав в отставку в 1934 году, и таким образом ее первый этап в дипломатии быстро завершился. В свете вышеупомянутых факторов, отставка г-жи Адиле считается предметом, заслуживающим изучения.

В этот период Турция перешла к многопартийной системе, и в результате выборов 1950 года к власти пришла Демократическая партия.

Садри Максуди Арсал, долгое время дистанцировавшийся от Республиканской народной партии, в этот период приблизился к политической линии Демократической партии. Действительно, в 1950 году Аднан Мендерес назначил его депутатом от Демократической партии. Считается, что политические связи его отца оказали влияние на повторное назначение Адиле Айды на пост министра иностранных дел. Кроме того, Фатин Рюштю Зорлу, министр иностранных дел в правительстве Демократической партии, знала Адиле Айду с 1932 года, поскольку оба были назначены на министерские посты по результатам экзамена в 1932 году. По этим причинам Адиле Айда, приглашенная Зорлу обратно в мир дипломатии, стала дипломатом по назначению в 1958 году, и таким образом начался второй этап ее карьеры в Министерстве иностранных дел. [3, 84].

Наблюдения Рехи Айтамана, неоднократно работавшего с Адиле Айдой в рамках различных заданий, содержат дополнительные сведения о ней. В частности, Айтаман утверждает, что Адиле Айда демонстрировала поведение, не соответствующее дипломатическим обычаям, и что сотрудники посольства иногда реагировали на такое поведение улыбками, а иногда - дискомфортом. Он рассказывает интересную историю: однажды, когда Адиле Ханым рисовала вывеску на здании посольства в Белграде, удивленные взгляды людей, собравшихся вокруг нее, вызвали удивление [5, 116]. Здесь возможна только одна интерпретация: ее научное образование, опыт знакомства с культурами разных стран, полная академическая уверенность и более гибкий дипломатический подход вместо строгого следования правилам могли привести к критике в рабочей среде и, следовательно, к некоторым проблемам. В любом случае, возможно, что критика в ее адрес по этим вопросам негативно повлияла на Адиле Ханым. Однако, вместо того чтобы рассматривать эту критику как критику её «гибкого» поведения, «не соответствующего серьезности», требуемой от дипломатии, или

её «неспособности» придерживаться «строгих» правил протокола, она, возможно, истолковала её как критику её как женщины. Более того, поскольку она не предоставила подробностей, невозможно понять, как подобные претензии связаны с тем, что она женщина, но объяснение можно предложить посредством интерпретаций. Также примечательно, что Адиле Айда, назначенная сенатором-республиканкой 13 июля 1976 года, никогда не упоминала о подобных проблемах во время своей работы в качестве сенатора[1, 13].

Заключение

Таким образом, Адиле Айда по праву считается первой женщиной-дипломатом Турции и одной из ключевых фигур в истории формирования женской дипломатии в стране. Её деятельность стала важным этапом в процессе модернизации турецкого государства и укрепления принципов гендерного равенства в сфере международных отношений. Исторический опыт Адиле Айды подтверждает, что интеграция женщин в дипломатическую службу способствует не только социальному прогрессу, но и повышению эффективности внешней политики государства.

Использованная литература:

1. Ahmad F. The Making of Modern Turkey. - London: Routledge, 1993. - P. 105.
2. Çakır S. Women and Modernization in Turkey. - Istanbul: Metis, 1994. - P. 60.
3. Smith B. Women in Diplomacy. - London: Palgrave Macmillan, 2014. - P. 110.
4. Zürcher E. J. Turkey: A Modern History. - London: I. B. Tauris, 2004. - P. 185.
5. Новичев Н. П. История Турции. - М. –Л. : Изд-во АН СССР, 1960. - С. 415.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KOGNITIV VA IJTIMOY-HISSIY RIVOJLANISHIGA O‘YIN FAOLIYATINING TA‘SIRI

Raximjonova Maftuna Abdumajod qizi

NamDPI, 1-bosqich talabasi

E-mail: maftunarahimjonova569@gmail.com

Ilmiy rahbar: Qoraboyeva Zohidaxon To‘lanboyeva NamDPI, dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18673981>

Annotatsiya: Maqolada o‘yin faoliyati orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv va ijtimoiy-hissiy rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va imkoniyatlari yoritilgan bo‘lib, kognitiv va ijtimoiy-hissiy rivojlantirishning mazmuni va mohiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘yin, iste‘dod, ijtimoiy rivojlanish, hissiy rivojlanish, kognitiv rivojlanish, fikrlash, nutq, rmtasional barqarorlik, o‘qish qobiliyati, o‘yin orqali ta‘lim olish, bolaning shaxsiyat, tasavvur, tafakkur, xotira.

Аннотация: В статье освещаются педагогические условия и возможности когнитивно-социально-эмоционального развития детей дошкольного возраста посредством игровых занятий, а также обосновывается содержание и сущность когнитивно-социально-эмоционального развития.

Ключевые слова: игра, талант, социальное развитие, эмоциональное развитие, когнитивное развитие, мышление, речь, эмоциональная устойчивость, способность к чтению, обучение через игру, личность ребенка, воображение, мышление, память.

Annotation: V state osveshchayutsya pedagogicheskie usloviya i vozmojnosti cognitivno-sotsialno-emotsionalnogo razvitiya detey doshkolnogo vozrasta posredstvom igrovyyx zanyatiy, a takje obosnovyvaetsya sodержanie i suschnost cognitivno-sotsialno-emotsionalnogo razvitiya.

Keywords: play, talent, social development, emotional development, cognitive development, thinking, speech, emotional stability, reading ability, learning through play, child's personality, imagination, thinking, memory.

Mamlakatimizda maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida har bir bola uchun maktabgacha ta‘lim va tarbiya olish imkoniyatining mavjudligi, har bir bolaning iste‘dodi nishonalarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar tengligi, maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarga ta‘lim va tarbiya berish uyg‘unligi maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari[1] qatorida belgilab berildi.

O‘yin inson o‘zligining namoyon bo‘lishi, uning takomillashuv usulidir. O‘yin kattalar hayotida muayyan o‘rin tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga egadir. Uni «bolalikning hamrohi» deb atash qabul qilingan. U maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi. Mehnat va ta‘lim bilan uzviy aloqada bo‘lgan holda yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi. Bola shug‘ullanadigan ko‘pchilik jiddiy ishlar o‘yin shaklida bo‘ladi. O‘yinda shaxsdagi barcha mavjud jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, o‘ylaydi. O‘yin tarbiyaning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. [2:312]

Psixolog va pedagog olimlar ta’kidlaganidek, o‘yin bolaning nafaqat dam olishi, balki uning bilim olishi, atrof-muhitni anglashi va ijtimoiy tajriba orttirishining samarali vositasidir. Shu nuqtai nazardan, bola ta’limi va o‘yin faoliyatini integratsiyalash maktabgacha ta’lim tizimining muhim sharti va dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Davlat o‘quv dasturida bolaning o‘yin o‘ynash huquqi tan olinadi, o‘yinning bola uchun ahamiyati, uning

pedagogik imkoniyatlari ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda inobatga olinadi.

O‘yin maktabgacha yoshda yetakchi faoliyatdir. O‘yin orqali ta’lim olish bolalarni ta’lim olishi va rivojlanishining yondashuvlaridan biridir. O‘yin – bu bolani o‘zini va atrofidagi dunyoni o‘rganishga undashning tabiiy usuli. O‘yin bolaning shaxsiyati, uning bilish, ijtimoiy-hissiy, ijodiy va jismoniy jihatlarini rivojlantiradi.

O‘yinda bolalarning tengdoshlari va pedagogi bilan o‘zaro munosabati nutq va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi, uning motorikasi takomillashib boradi. [3:21]

Bolaning psixologik rivojlanishida o‘yinning roli beqiyosdir. Biz bolaning psixik taraqqiyotini o‘yinsiz tasavvur qilishimiz qiyin. Bola o‘yin orqali kattalarning faoliyatini kuzatadi va uni amalda o‘yin orqali bajaradi. Bu orqali bolada mantiqiy fikrlash, tasavvur, tafakkur kabi kognitiv faoliyatlar ham takomillashadi.

Bolaning kognitiv rivojlanishi: Kognitiv — bu so‘z lotincha “cognitio” – “bilish”, “tanish”, “anglash” ma’nolarini anglatadi. Kognitiv jarayon - bu miyamizning informatsiyani qabul qilish, qayta ishlash, kodlash, saqlash va esga chaqirish jarayonlariga aloqador bo‘lgan aqliy jihatga aytiladi. Kognitiv qobiliyatlar - bu fikrlash, o‘rganish, eslab qolish, muammoni hal qilish va mustaqil fikrlash diqqatni jamlash kabi aqliy faoliyatlarni o‘z ichiga oladi. Kognitiv qobiliyat - ta’lim jarayonida tarbiyalanuvchilarning o‘z-o‘zini boshqarishiga va mustaqil fikrlashiga yordam beradi. Ular tarbiyalanuvchilarga murakkab ma’lumotlarni tushunishga, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga va ijodkorlikni oshirishga imkon beradi. Misol uchun, tarbiyalanuvchilar yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirish jarayonida kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish orqali o‘z fikrlarini mustaqil ravishda shakllantira olishi va o‘z bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olishlari mumkin. Shu bilan birga kognitiv rivojlanish bola ongining asosiy ustuni bo‘lib, uning o‘qish qobiliyati, mantiqiy fikrlashi, nutqi, ijtimoiy moslashuvi va emotsional barqarorligiga bevosita ta’sir qiladi. Kognitiv rivoji kuchli bo‘lgan bola tez o‘rganadi, mustaqil fikrlaydi va hayotda muvaffaqiyatli bo‘lish imkoniyati yuqori bo‘ladi.

Davlat talablari tug‘ilgandan 7 yoshgacha bolgan bolalarning beshta asosiy rivojlanish sohalariga bo‘lingan. Har bir rivojlanish sohasi o‘z ornida kichik sohalarga bo‘lingan bo‘lib, ular har bir yosh guruhioga mos bir nechta talablardan ya’ni(kutilayotgan rivojlanish kjo‘rsatkichlaridan) iborat va bolaning ijtimoiy hissiy rivojlanishi hams u sohalarning qatoriga kiradi va ular o‘z navbatida kichik sohalarga ham bolinadi

“Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasi quyidagi kichik sohalarga bo‘linadi:

“Men” konsepsiyasi;

hissiyotlar va ularni boshqarish;

Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot[4].

Bolalarning rivojlanishida kognitiv va ijtimoiy-hissiy rivojlanish juda muhim hisoblanadi. Kognitiv va ijtimoiy-hissiy rivojlanish bir-birini to‘ldiradi, chunki ijobiy his tuyg‘ular (masalan, ishonch va quvonch) kognitiv jarayonlarni tezlashtiradi, salbiy hislar(qo‘rquv, xavotir) esa o‘rganishni

to‘rib qo‘yadi. Masalan, tilini o‘zlashtirishkognitiv jarayon bo‘lib, bola orqali his-tuyg‘ularini ifodalash imkoni beriladi va ijtimoiy aloqalarni kuchaytiradi. Bu ikkalasi bir birini to‘ldiradi masalan ijtimoiy ta‘sir(o‘yin, muloqot) kognitiv rivojlanishni rag‘batlantiradi, chunki Vigotskiy nazariyasiga ko‘ra, “bola kattalar yoki tengdoshlar bilan o‘zaro munosabatlarda yuqori aqliy funksiyalarni shakllantiradi” deb ta‘kidlagan.

Ijtimoiy munosabatda o‘yin bolalar munosabatlarini shakllantirish, odob-axloq qoidalarini o‘rganish hamda kechinmalar bilan ulashish, muzokaralar o‘tkazish va guruhning bir qismi bo‘lish imkonini beradi.

O‘yinda maktabgacha yoshdagi bolalar yangi ijtimoiy rollarni o‘rganadi, o‘z-o‘zini na moyon qiladi va yangi ijtimoiy tajribalarga ega bo‘ladi. O‘yin bolani qiziqtiradi va unga notanish bo‘lgan munosabatlarga uni tortadi. Bundan tashqari, dunyoni o‘rganish vositasi sifatida o‘yin bir vaqtning o‘zida uni modellashtirish vositasi hisoblanadi. O‘yinda bola ham, kattalar ham o‘zlarini “qurishadi”, yaxshiroq bo‘lishga harakat qilishadi. Shartli ravishda bu o‘yinlar “bolalar uchun kattalar o‘yinlari” yoki ijtimoiy yo‘naltirilgan o‘yinlar deb ataladi.

Ijtimoiy yo‘naltirilgan o‘yinlarning bir qator xususiyatlari bor:

- bolalarning aqliy rivojlanishida ijtimoiy o‘zaro ta‘sirlarning rolini mustahkamlashga olib keladigan faoliyatning jamoaviy xarakteri (o‘yinda bevosita ijrochilar ham, tomoshabinlar ham bo‘ladi);

- maktabgacha yoshdagi bolaning umumiy aqliy va ijtimoiy-axloqiy rivojlani shi uchun motivasion asos yaratishga imkon beruvchi mazmunning dolzarbligi;

- rollar taqsimotiga pedagogik yondashuv (masalan, “mavqe terapiyasi” usulidan foydalanib, aqliy rivojlanish muammolari bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bola intellektual qobiliyatli bola bilan bog‘langan bo‘lsa, u unga odatdagidan tezroq masalani yechishga yordam beradi va shu orqali butun jamoasiga ko‘maklashadi);

- bunday o‘yin tomosha emas, bu o‘yinda rollar taqsimlangan bo‘lsa-da, ijtimoiy yo‘naltirilgan o‘yinni repetisiya qilib bo‘lmaydi (u tabiatan “bir martalik”, shuning uchun ishtirokchilarning ijodkorligi va improvizatsiyasiga bog‘liq va har bir bolada muammoli ijtimoiy vaziyatlarni hal qilishning individual kognitiv uslubini shakllantirishga qaratilgan);

- o‘yin har bir maktabgacha yoshdagi bolaning faol pozitsiyasiga ega bo‘lgan jamoa sub’yektini shakllantirishga va, muhimi, bolalarning aqliy va ijtimoiy axloqiy rivojlanishi mazmunining bir bo‘lishiga olib keladi[5].

O‘yin kognitiv va ijtimoiy-hissiy rivojlanishni bir-birini to‘ldiruvchi tarzda birlashtiradi: masalan, ijtimoiy o‘yinlar kognitiv jarayonlarni tezlashtirsa, kognitiv muvaffaqiyatlar ishonchni oshiradi; pedagoglar o‘yinlarni tizimli joriy etib, bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta‘minlashi lozim. Ushbu yondashuv bolalarning maktabga tayyorligini oshirib, kelajakdagi muvaffaqiyatlariga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 17. 12. 2019. 03/19/595/4160-son. <https://lex.uz/docs/4646908>.

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

2. Qodirova F. , Toshpo‘latova Sh. , Kayumova N. , A‘zamova N. Maktabgacha pedagogika. Darslik-T. , “Tafakkur”. 2019 y -684 b.
3. «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/. Toshkent-2022 y.
4. Ik va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrda 802-son qaroriga 1-ILOVA.
5. “Ўйин орқали таълим олиш” методик қўлланмаси. Муаллифлар: Грошева И. В. , Жанпеисова Г. Э. , Микаилова У. Т ва бошқалар. Ўзбекистон Республикаси Мактабгача таълим вазирлигининг Мувофиқлаштирувчи кенгаши томонидан 2020 йил 17 июлдаги 1-сонли баённомага мувофиқ тасдиқланган ҳамда чоп этишга тавсия этилган.

**INNOVATSION VA INTERFAOL TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING
PEDAGOGIK TA’LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILARDA ILMIY VA AMALIY
SAVODXONLIGI KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI
AHAMIYATI**

Yulchiyeva Zulfiya Baxodir qizi

Namangan davlat pedagogika instituti 2-kurs tayanch doktoranti

Tel: +998 93 061 05 92

E-mail: yulchiyevazulfiya5@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18674017>

Annotatsiya. Mazkur maqolada innovatsion va interfaol ta’lim texnologiyalarining pedagogik ta’lim jarayonidagi ahamiyati yoritilgan. O‘quvchilarda ilmiy va amaliy savodxonlik kompetensiyalarini shakllantirishda muammoli ta’lim, tadqiqotga yo‘naltirilgan yondashuv hamda interfaol metodlarning samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, boshlang‘ich sinf tabiiy fanlar darsi misolida mazkur texnologiyalarning amaliy qo‘llanilishi ko‘rsatib berilgan

Kalit so‘zlar: innovatsion ta’lim texnologiyalari, interfaol metodlar, ilmiy savodxonlik, amaliy savodxonlik, kompetensiyaviy yondashuv.

Аннотация. В данной статье освещается значение инновационных и интерактивных образовательных технологий в педагогическом образовательном процессе. ннотация. В данной статье освещается значение инновационных и интерактивных образовательных технологий в педагогическом образовательном процессе. Проанализирована эффективность проблемногоннотация. В данной статье освещается значение инновационных и интерактивных образовательных технологий в ий.

Ключевые слова: инновационные образовательные технологии, интерактивные методы, научная грамотность, практическая грамотность, компетентностный подход.

Annotation. This article highlights the importance of innovative and interactive educational technologies in the process of pedagogical education. nnotation. This article highlights the importance of innovative and interactive educational technologies in the process of pedagogical education. Students analyzed problematic edunnotation. This article highlights the importance of innovative and interactive educational technologies in the processwn.

Keywords: innovative educational technologies, interactive methods, scientific literacy, practical literacy, competency approach.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uni xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda pedagogik ta’lim tizimining roli beqiyos bo‘lib, u nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ayniqsa, pedagogik ta’lim tizimida innovasion va interfaol ta’lim texnologiyalarini joriy etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki mazkur texnologiyalar o‘quvchilarning bilish

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral


faoliyatini faollashtirish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan integratsiyalash hamda ilmiy va amaliy savodxonlik kompetensiyalarini tizimli ravishda rivojlantirish imkonini beradi.

Mazkur maqolada innovatsion va interfaol ta‘lim texnologiyalarining pedagogik ta‘lim jarayonidagi metodologik asoslari chuqur ilmiy tahlil qilinib, ularning o‘quvchilarda ilmiy va amaliy savodxonlik kompetensiyalarini takomillashtirishdagi ahamiyati asoslab beriladi.

Innovatsion ta‘lim texnologiyalari – bu ta‘lim jarayonini loyihalash, tashkil etish va boshqarishning zamonaviy usullari majmui bo‘lib, ular o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta‘minlashga yo‘naltirilganligi bilan tavsiflanadi. Mazkur texnologiyalar an‘anaviy o‘qitish modelidan farqli ravishda, o‘quvchini ta‘lim jarayonining faol subyekti sifatida namoyon etadi.

Innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan ta‘lim jarayonida o‘qituvchi bilim manbai emas, balki ta‘limiy faoliyatni muvofiqlashtiruvchi, yo‘naltiruvchi va motivatsiya beruvchi subyekt sifatida ishtirok etadi. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil bilim olish, tahliliy fikrlash va ilmiy izlanish faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Pedagogik adabiyotlarda zamonaviy ta‘lim texnologiyalari quyidagi asosiy guruhlarga ajratiladi:



Muammoli va tadqiqotga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyasidan foydalanib 3-sinf tabiiy fanlar darsida “O‘simliklar hayoti uchun zarur sharoitlar” mavzusidagi dars jarayonida muammoli ta‘lim, tadqiqotga yo‘naltirilgan ta‘lim, “Aqliy hujum”, “Keys-stadi”, guruhli ish, kuzatish va mini-tajriba metodlarini qo‘llab ko‘ramiz. Darsimiz uchun zarur bo‘lgan jihozlar: Gul tuvaklari, urug‘ (loviya yoki bug‘doy), suv, karton quti, rasm va slaydlar, tarqatma materiallar.

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

O‘qituvchi o‘quvchilarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: “Bir xil urug‘ ekildi, ammo biri yaxshi o‘sdi, ikkinchisi esa unib chiqdi-yu tez qurib qoldi. Nima sabab bo‘lishi mumkin?”

O‘quvchilar o‘z taxminlarini bildiradilar. O‘qituvchi javoblarni umumlashtiradi, ammo tayyor xulosa bermaydi.

Har bir guruhga kichik tajriba topshirig‘i beriladi:

1-guruh (Quyosh): o‘simlikni yorug‘liksiz joyda saqlash natijasini tahlil qilish;

2-guruh (Suv): suv yetishmasligining o‘simlikka ta‘sirini o‘rganish;

3-guruh (Havo): o‘simlik yopiq idishda qolsa nima bo‘lishini muhokama qilish;

4-guruh (Tuproq): tuproq sifati o‘simlik o‘sishiga qanday ta‘sir qilishini aniqlash.

O‘quvchilar kuzatish olib boradi, rasmlar va namunalar asosida fikr yuritadi.

Har bir guruho‘z kuzatuvini tushuntiradi, muammo bo‘yicha xulosa chiqaradi, boshqa guruhlar bilan fikr almashadi. O‘qituvchi ilmiy jihatdan to‘g‘ri xulosalarni umumlashtiradi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanib, quyidagi savollar bilan murojaat qiladi:

O‘simliklar suv bo‘lmasa nima qiladi?

Yorug‘liksiz o‘simlik yashay oladimi?

Inson o‘simliklarga qanday yordam berishi mumkin?

O‘quvchilarni baholashda o‘qituvchi quyidagi baholash mezonlariga asoslanib o‘quvchilarni muhokamada ishtiroki, tadqiqotda faolligi, to‘g‘ri xulosa chiqara olishiga etibor qaratadi.

Dars so‘ngida o‘qituvchi o‘quvchilarga uyda urug‘ ekib, bir hafta davomida kuzatish kundaligi yuritish topshirig‘ini beradi.

Mazkur texnologiyalar o‘quvchilarda nazariy bilimlarni chuqur o‘zlashtirish bilan bir qatorda, ularni amaliy faoliyatda qo‘llash ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

Interfaol ta‘lim metodlari ta‘lim jarayonida subyektlararo hamkorlikni ta‘minlashga qaratilgan bo‘lib, o‘qituvchi va o‘quvchi, shuningdek, o‘quvchilarning o‘zaro muloqoti va hamkorligiga asoslanadi. Ushbu metodlar o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish, mustaqil fikrlash va mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Amaliyotda keng qo‘llaniladigan interfaol metodlarga “Aqliy hujum”, “Keys-stadi”, “Debat”, “Rol o‘ynash”, “Klaster” va “Loyiha metodi” kiradi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning bilimlarni mustahkam o‘zlashtirishiga, ularni tahliliy va tanqidiy fikrlashga undashiga hamda bilimlarni real vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ilmiy savodxonlik kompetensiyasi shaxsning ilmiy bilimlarni ongli ravishda egallashi, ularni tahlil qilishi va baholay olishi, ilmiy axborotlardan samarali foydalanishi hamda ilmiy muammolarga nisbatan asosli munosabat bildira olish qobiliyatini ifodalaydi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ilmiy savodxonlik kompetensiyasi shaxsning intellektual rivojlanishining muhim ko‘rsatkichi sifatida e‘tirof etiladi.

Innovatsion ta‘lim texnologiyalari ilmiy savodxonlikni rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib, ular orqali o‘quvchilar ilmiy tushunchalar, qonuniyatlar va nazariyalarni mustaqil o‘zlashtiradi. Xususan, muammoli ta‘lim va tadqiqotga yo‘naltirilgan yondashuvlar o‘quvchilarda ilmiy tafakkur va mantiqiy xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Amaliy savodxonlik kompetensiyasi o‘quvchilarning nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda, kasbiy faoliyatda va muammoli holatlarda samarali qo‘llay olish qobiliyatini anglatadi. Ushbu kompetensiya pedagogik ta‘lim jarayonida ayniqsa muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarlik darajasini belgilaydi.

Loyiha asosida o‘qitish, amaliy mashg‘ulotlar, keys-stadi va virtual laboratoriyalar orqali o‘quvchilarning amaliy savodxonligi rivojlanadi. Mazkur yondashuvlar o‘quvchilarda tashabbuskorlik, mas‘uliyat va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Innovatsion va interfaol ta‘lim texnologiyalarini samarali joriy etishda o‘qituvchining kasbiy mahorati muhim omil hisoblanadi. O‘qituvchi ta‘lim jarayonini to‘g‘ri rejalashtirishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘rinli qo‘llashi va o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini inobatga olishi lozim.

O‘qituvchining innovatsion faoliyati o‘quvchilarda ilmiy va amaliy savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli pedagog kadrlarning innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirish ta‘lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion va interfaol ta‘lim texnologiyalarini pedagogik ta‘lim jarayoniga joriy etish o‘quvchilarda ilmiy va amaliy savodxonlik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarni ta‘lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirib, ularning mustaqil fikrlashi, tahliliy yondashuvi va bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Muammoli va tadqiqotga yo‘naltirilgan ta‘lim, interfaol metodlar hamda loyiha asosida o‘qitish nazariy bilimlarning amaliy faoliyat bilan integratsiyasini ta‘minlaydi. Shuningdek, mazkur yondashuvlar o‘qituvchining kasbiy mahorati va innovatsion kompetensiyalariga bog‘liq holda ta‘lim samaradorligini oshiradi. Shu bois, pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonida innovatsion va interfaol ta‘lim texnologiyalarini keng joriy etish zamonaviy ta‘lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Yo‘ldoshev J. G‘. , Usmonov S. A. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
3. Azizxo‘jayeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2018.
4. Ishmuhamedov R. J. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste‘dod, 2019.
5. Abdullaeva M. Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi. – Toshkent: Fan, 2020.
6. Klarin M. V. Innovatsion ta‘lim: metodologiya va amaliyot. – Moskva, 2018.
7. Zimnyaya I. A. Kompetensiyaviy yondashuv ta‘limda. – Moskva, 2017.
8. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 2015.
9. www.ziyonet.uz – ta‘limiy elektron resurslar portali.
10. www.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim portali.

YENGIL ATLETIKA BILAN SHUG‘ULLANUVCHI XOTIN-QIZLARO‘QUV MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL QILISH VA UNING XUSUSIYATLARI

Ergasheva Ozoda Askarovna

Oriental universiteti Jismoniy madaniyat kafedrasida o‘qituvchisi

Email: oergasheva9430@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0004-5330-2843>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18674088>

Annotation: Ushbu maqolada, Sog‘lom avlod tarbiyasida xotin-qizlarning o‘rni, xotin-qizlar sportining mamlakatimizda rivojlanish darajasining statistikasi, yengil atletika sport turi bilan shug‘ullanish asoslari va ular organizmida yuz beradigan fiziologik davrga mos ravishda mashg‘ulot yuklamasini taqsimlash haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: sog‘lom avlod, jismoniy mashg‘ulot, yuklama, sog‘lom turmush tarzi, fiziologik holat, chidamkorlik, egiluvchanlik.

Аннотация: в данной статье рассматривается роль женщин в воспитании здорового поколения, статистика уровня развития женского спорта в нашей стране, основы занятий легкоатлетическими видами спорта и распределение тренировочной нагрузки в соответствии с физиологическим периодом, протекающим в их организме.

Ключевые слова: здоровое поколение, физическая активность, нагрузка, здоровый образ жизни, физиологическое состояние, выносливость, гибкость.


Annotation: this article talks about the role of women in the upbringing of a healthy generation, statistics of the level of development of women's sports in our country, the basics of playing the sport of athletics and the distribution of training load in accordance with the physiological period that they occur in their body.

Keywords: healthy generation, physical activity, load, healthy lifestyle, physiological state, endurance, flexibility.

Mamlakatimizda sog‘lom va barkamol xotin-qizlarni tarbiyalash ularning ijodiy-intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, mamlakatimiz xotin-qizlarini har tomonlama rivojlangan shaxslar sifatida voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratish bo‘yicha keng ko‘lamda aniq yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. So‘ngi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlar sportiga bo‘lgan e‘tibor va olib borilayotgan islohotlar rivoji katta ahamiyatga ega. Sog‘lom avlod tarbiyasida va sog‘lom muhitni yaratishda xotin-qizlarning o‘ziga xos o‘rni mavjud.

O‘zbekistonda jismoniy faol bo‘lgan ayollar ulushi yildan-yilga oshib harakat. Statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra:

O‘zbekistonda ayollarning jismoniy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanish darajasi



- 2021 yilda ayollarning 55,7% i jismoniy mashg‘ulotlar bilan muntazam shug‘ullangan,

- 2022 yilda – 57,3%,

- 2023 yilda – 58,5%,

- 2024 yilda – 63,7%,

- 2025 yilda esa bu ko‘rsatkich 64,1% ga yetgan.

Bu - O‘zbekiston xotin-qizlari orasida sog‘lom turmush tarziga, sport va jismoniy faollikka bo‘lgan harakatning imkon qadar oshayotganidan dalolat beradi [1].

Ko‘plab olimlar D. J. Sharipova, K. T. Shakirjanova, M. T. Toirovalaring fikricha, xotin-qizlar organizmining funksional imkoniyatlari va uning tashqi muhitdan bo‘ladigan noxush omillarga barqarorligi butun umr davomida o‘zgarib turadi, negaki xotin-qizlar salomatligini saqlash jo‘shqin jarayon bo‘lib, u yoshi va kasbiy faoliyati, yashash muhitiga bog‘liq holda yaxshilanib boradi. Bugungi kunda mamlakatimizni Jahon, Osiyo miqyoslaridagi musobaqalarda G. Xubbiyeva, O. Yarigina, L. Pereplova, A. Kazakova, N. Dusanova, Y. Tarasova, S. Radzivil, A. Katelova, A. Juravleva, E. Smolyanova, N. Sharipova N. Asanova, D. Usmonova, B. Sayfullayeva kabi sportchi ayollar va qizlar mamlakatimiz sharafiga yuqori ko‘tarmoqdalar.

So‘nggi yillarda, O‘zbekiston ayollar yengil atletikasi xalqaro arenada ham o‘shish ko‘rsatmoqda. Masalan, jahon reytinglarida Safina Sadullayeva yuqori – 12-o‘rinni egallagan, Barnoxon Sayfullayeva esa Osiyoda 6-o‘rinni egallagan. Sharifa Davronova triple bo‘yicha jahon reytingida yuqori sifatini ko‘rsatmoqda. Uch hatlab sakrash bo‘yicha Sharifa Davronova global reytingda 19-pog‘onada turib, Osiyo miqyosida esa birinchi o‘rinni qo‘lga kiritdi. Yadro itqitish yo‘nalishida Malika Nasriddinova reytingda uch pog‘ona yuqorilab, dunyo bo‘yicha 51-o‘ringa ko‘tarildi. Osiyoda esa sakkizinchi pog‘onada turib, o‘zining mustahkam natijasini ko‘rsatdi [2].

Xotin-qizlarni jismoniy tarbiyalash tizimida yengil atletika sporti katta o‘rin tutadi. Sport mashg‘ulotining umumiy asoslari barcha sportchilar uchun yagonadir, lekin ayollar organizmining

o‘ziga xos xususiyatlarini hamda yengil atletika sporti bilan shug‘ullanuvchi xotin-qizlarning jismoniy imkoniyatlarini yodda tutish lozim.

Mashg‘ulotning bunday jarayoni yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan umumiy prinsiplar, vazifalar, vositalar va uslubiyatlar asosida amalga oshiriladi. Demak, yengil atletikada xotin-qizlar mashg‘ulotining sistemasi erkaklar mashg‘uloti sistemasining tuzilishiga o‘xshashdir. Lekin uning tarkibi, rejalashtirilishi, shiddati, hajmi xotin-qizlar organizmining biologik xususiyatlari bilan belgilangan ayrim farqlarga ega. Yengil atletika turlarining texnikasiga o‘rgatish birinchi mashg‘ulotdan boshlanadi. Dastlabki paytlarda xotin-qizlar oddiy mashqlar texnikasini o‘rganadilar. Yugurishda, g‘ovlar osha yugurishda va uloqtirishlarda eng yaxshi yengil atletikachi xotin-qizlarning texnikasi erkaklarnikidan juda oz farq qiladi.

Xotin-qizlarni yengil atletikaning ayrim turiga o‘rgatish prinsiplari erkaklarnikidan farq qilmaydi. Lekin ba’zi xususiyatlari ham bor. Yaxshi egiluvchanlik va xotin-qizlarga mansub bo‘lgan ritm sezgisi, harakatlarning ohistaligi ularning yugurish, sakrash va uloqtirish texnikasini katta amplitudada bajarishni tezroq o‘rganishga yordam beradi. Ammo texnikani egallash, ularni takomillashtirish uchun xotin-qizlarning kuchi zaiflik qiladi. Shuning uchun o‘rgatishning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni oshirish bilan birgalikda olib borish kerak. Yosh qizlarni yengil atletika turlariga o‘rgatayotganda me‘yorlarni asta-sekin oshirib borishga e‘tibor berish juda muhim. Shu maqsadda yengil atletika turlari ancha soddalashtirib bajariladi. Bunday mashg‘ulotlarda ularning har tomonlama jismoniy tayyorgarligi yaxshilanib, zarur fazilatlar ham rivojlanib boradi. Shunday bo‘lsa ham, mashg‘ulotlarni faqat umumrivojlantiruvchi mashqlar bilan cheklab qo‘ymaslik kerak. Yengil atletika mashg‘ulotiga kelgan yangi sportchilar yugurish, sakrash va uloqtirishni bajarishlari kerak. Bu ularning istagiga javob beradi, mashg‘ulotga qiziqishini oshiradi va takomillashtirish uchun intilishga chorlaydi. U yoki bu jismoniy fazilatni yaxshilash zaruriyati tug‘ulib qolsa, oddiygina murakkab mashqlarga izchil o‘tish to‘xtatilishi mumkin. Masalan, yugurib kelib balandlikka sakrashdan oldin sakrovchilikni oshiruvchi turli mashqlar bajarilishi kerak. Yengil atletikaning boshqa turlarida ham shunga o‘xshash holatlar bo‘lishi mumkin.

Xotin-qizlarni yengil atletika mashqlari texnikasiga yaxshiroq o‘rgatish uchun ko‘pincha yengillashtirilgan sharoitlardan foydalaniladi. Masalan, yugurib kelib “qaychi” usulida uzunlikka sakrashni o‘rganishda, uchib o‘tishning qisqaligi sababli “qaychi”ni to‘g‘ri bajarish imkoniyatini tug‘dirib berish maqsadida yuqoridan pastga sakrash qo‘llaniladi. Jismonan yaxshi tayyorlanmagan xotin-qizlar uchun yadro va snaryadlar og‘irligi kamaytiriladi. G‘ovlar osha yugurishda sharoitni yengillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi (g‘ovlar balandligi pasaytiriladi va oraliq qisqartiriladi). Yengil atletikachi xotin-qizlar tabiatan jismoniy yetuk bo‘lsa, o‘qituvchi kerak bo‘lgan mashqlarga to‘xtalmasdan, yakka mashqlar, xususiyatini e‘tiborga olib, shunga muvofiq eng foydali uslubiyatni qo‘llashi lozim. Kuchliroqlar bilan qo‘shimcha mashg‘ulotlar o‘tkazgan ma‘qul. Yengil atletikachi xotin-qizlarning o‘quv-mashg‘ulotida juda ehtiyot bo‘lib shtanga bilan o‘tkaziladigan mashqlar qo‘llash kerak. Mashg‘ulot vaqtida shtanga mashqlari boshqa mashqlar qatori kiritiladi, lekin bunga alohida mashg‘ulot ajratish o‘rinsiz. Hatto uloqtiruvchi xotin-qizlar uchun ham shtanga kuchni oshirishda vosita hisoblanadi, xolos. Bundan tashqari, kuchni rivojlantirish uchun turli xil og‘irliklar bilan bajariladigan mashqlarni qo‘llash kerak. Uloqtirish turlar bilan shug‘ullanuvchilarning mashg‘ulotlariga turlicha og‘irlikdagi yadro va boshqa snaryadlarni otish va uloqtirish mashqlari

ko‘proq kiritilishi lozim. Ularga yotgan holatda shtangani jim qilish, turgan holatda jimni tez takrorlash, shtanga ko‘tarib o‘tirib-turish mashqlari tavsiya etiladi. Chidamkorlik ayniqsa o‘quv-mashg‘ulot mashqi oxirlarida charchaganlik ko‘proq sezila borganligi sayin, chidamlilik ko‘rinishi bilan sportchi organizmiga zo‘r keladi. Mashg‘ulot vaqtida 400 va 800 m ga kross o‘tkazayotib, mashq oxirlarida qiyinchilik oshishini hisobga olishi kerak. Ayniqsa qayta va almashlab yugurishda buni unutmashlik kerak. Hajmi va shiddatiga ko‘ra to‘g‘ri keladigan hajmlarni aniqlashdagi barcha hollarda yengil atletikachi xotin-qizlarning jismoniy tayyorgarligida muhim ahamiyatga ega. Boshlovchi va yetarlicha jismonan tayyor bo‘lmagan yengil atletikachi xotin-qizlar organizmida har oy yuzaga keladigan fiziologik holat davrida va undan oldingi davrda musobaqaga qo‘yilmasligi kerak. Bu paytda mashg‘ulotlar ham ancha cheklangan holda o‘tkazilib, uning umumiy hajmi va shiddati maksimalga nisbatan 50-60 foizgacha pasayadi. Ish qobiliyatining pasayish davrida bir haftani kichik hajm bilan rejalashtirish tavsiya qilinadi. Yengil atletikachi xotin-qizlarning organizmi har oy yuzaga keladigan fiziologik holat davrida va undan oldingi davrda jismoniy hajmga o‘zining salbiy reaksiyasini ko‘rsatadigan bo‘lsa, bu paytda ertalabki gigiyenik gimnastika, sayrlar va dam olish bilan chegaralanish kerak. Mashg‘ulotlar davomida hech qanday jiddiy o‘zgarish va shikoyatlar bo‘lmasa, shug‘ullanuvchi o‘zini yaxshi sezib, texnika va natija yaxshilanib borayotgan bo‘lsa, demak, mashg‘ulot to‘g‘ri o‘tkazilayapti deb hisoblash mumkin. . Murabbiy tomonidan yengil atletikachi xotin-qizning tayyorgarlik jarayonlarinidoimiy kuzatib borishi ham foydalidir.

Yengil atletika mashg‘ulotlari xotin-qizlar orasida keng ommalashayotgan va sog‘lom turmush tarzi uchun ham eng ma‘qul sport turi hisoblanadi. Albatta mashg‘ulotlar strukturalangan, yoshga moslangan, yuqori izchillikda va doimiy trener nazoratida olib borilishi ayollar yengil atletikasining rivojlanishida asosiy turtki bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/64478-zbekistonda-ajollarning-64-foizi-sport-bilan-shu-ullanadi-4?utm_source=chatgpt.com
2. <https://zamin.uz/uz/sport/158748-ozbekistonlik-ayol-sportchilar-dunyo-top-100-orasida.html>
3. Ergasheva, O. A. K. (2022). JISMONIY TARBIYANING AKADEMIK FAN SIFATIDAGI ROLI. *Fan va ta'lim byulleteni* , (10-2 (130)), 58-61.
4. Ergasheva, O. A. (2021). Psychological characteristics of movements of primary schoolchildren. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 11(103), 956-959.
5. Ergasheva, O. A. (2022). 11-12 YOSHLI O‘QUVCHILARNING TEZKORLIK SIFATINI YENGIL ATLETIKA MASHQLARI YORDAMIDA TAKOMILLASHTIRISH. *IJODKOR O‘QITUVCHI* , 2 (24), 150-153.
6. Hamroyev, A. R. , & Ergasheva, O. A. (2023). HARAKATLI O‘YINLARNING BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING JISMONIY RIVOJLANISHI VA JISMONIY TA‘MIRLANISHI DARAJASIGA TA‘SIRI. *Psixologiya va pedagogikaning fanlararo fanlar sifatida shakllanishi* , 2 (18), 67-71.
7. Salimov, G. M. , Xolliev, A. E. , Norboeva, U. T. , & Ergasheva, O. A. (2015). Milliy ochiq havoda o‘yinlar orqali tadqiqot usullarini tashkil etish. *Yosh olim* , (11), 1484-1486.

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

8. Ergasheva, O. A. (2024). YENGIL ATLETIKA SPORT TO‘GARAKLARIDA MASHG‘ULOT OLIB BORAYOTGAN TALABA QIZLAR JISMONIY TAYYORGARLIGINING MATEMATIK TAHLILI. *Inter ta'lim va global tadqiqotlar* , (3), 89-95.

TA’LIM MUASSASALARIDA ICHKI HAVONI MUQOBIL ENERGIYA ASOSIDA IQLIMLASHTIRISH

Ibrohimova Zamira Ismat qizi

“Jizzax politexnika instituti” magistr.

Email- ibrahimovazamira028@gmail.com

Ilmiy rahbar: Pirnazarov Ilxom Islamovich

“Jizzax politexnika instituti” «Muhandislik kommunikatsiyalari» kafedrası, t, f, f, d, (PhD), dotsent v. b.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18674375>

Annotatsiya: Ushbu maqolada tabiiy gaz bilan ta’minlanmagan maktab va maktabgacha ta’lim muassasalarida ichki havo muhitini iqlimlashtirish masalalari muhandislik kommunikatsiyalari tizimi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor qayta tiklanuvchi energiya manbasi hisoblangan quyosh energiyasidan foydalanishga qaratilgan. Quyosh panellari va gelioenergetik qurilmalarni isitish, shamollatish va sovitish tizimlariga integratsiyalash imkoniyatlari ko‘rib chiqilib, ularning qurilishi va montaji jihatlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari gaz yetib bormagan hududlarda ta’lim muassasalarining energiya mustaqilligini oshirish hamda ekologik xavfsiz ichki havo muhitini ta’minlash mumkinligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: quyosh energiyasi, ichki havo iqlimlashtirish, maktab va MTT, isitish va shamollatish tizimlari.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы кондиционирования внутренней воздушной среды в образовательных учреждениях на основе альтернативных источников энергии с точки зрения инженерных коммуникационных систем. Основное внимание уделено использованию солнечной энергии как возобновляемого источника энергии. Рассмотрены возможности интеграции солнечных панелей и гелиоэнергетических установок в системы отопления, вентиляции и охлаждения, а также особенности их строительства и монтажа. Результаты исследования показывают, что системы кондиционирования на основе альтернативной энергии позволяют повысить энергоэффективность образовательных учреждений и обеспечить экологически безопасную внутреннюю воздушную среду.

Ключевые слова: альтернативная энергия, солнечная энергия, кондиционирование внутреннего воздуха, образовательные учреждения, системы отопления и вентиляции.

Abstract. This article analyzes the issues of indoor air conditioning in educational institutions based on alternative energy sources from the perspective of engineering communication systems. Special attention is paid to the use of solar energy as a renewable energy source. The possibilities of integrating solar panels and solar energy systems into heating, ventilation, and cooling systems, as well as their construction and installation features, are examined. The research results indicate that alternative energy-based air conditioning systems can improve energy efficiency in educational institutions and provide an environmentally safe indoor air environment.

Keywords: alternative energy, solar energy, indoor air conditioning, educational institutions, heating and ventilation systems.

Kirish

Bugungi kunda respublikaning ayrim hududlarida joylashgan maktab va maktabgacha ta’lim muassasalari tabiiy gaz tarmoqlariga ulanmagan. Bu holat ayniqsa qish mavsumida binolarning isitilishi va yil davomida ichki havo sifatini me’yoriy darajada saqlashda muammolarni keltirib chiqaradi. An’anaviy yoqilg‘i manbalariga bog‘liqlik energiya ta’minotining barqaror emasligi, yuqori ekspluatatsiya xarajatlari va atrof-muhitga salbiy ta’sir bilan izohlanadi. Shu sababli muhandislik kommunikatsiyalari tizimida muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Qashqadaryo viloyatida 2019-yil holatiga ko‘ra jami 595 ta maktabgacha ta’lim muassasasi mavjud bo‘lib, ulardan 351 tasi yoki 59 foizi davlat, 244 tasi yoki 41 foizi nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalaridir. Viloyatdagi MTMning 2 tasi yoki 1, 3 foizi markazlashgan issiqlik manbaiga ulangan bo‘lsa, 185 tasi yoki 51, 9 foizi burjuyka pechlari bilan isitiladi. 241 ta yoki 67 foiz maktabgacha ta’lim muassasasi tabiiy gaz bilan ta’minlanmagan. Ushbu maktabgacha ta’lim muassasalari suyultirilgan gaz ballonlari bilan ta’minlangan. Hududdagi 1 117 ta maktabdan 718 tasi yoki 64 foizi so‘nggi 5 yilda ta’mirlanmagan. Viloyat bo‘yicha 113 ta yoki 10, 1 foiz maktabning isitish qozonlari yaroqsiz holatga kelib qolgan bo‘lsa, 446 ta (39, 9 foiz) maktab qo‘lbola isitish qozonlari bilan isitiladi.

Ichki havoni iqlimlashtirish tizimlarining ahamiyati. Ta’lim muassasalarida ichki havo muhitining sifati o‘quvchilar va tarbiyalanuvchilarning sog‘lig‘i, o‘qish va tarbiya jarayonining samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Yetarli darajada isitilmagan yoki shamollatilmagan xonalar issiqlik diskomforti, namlikning oshishi va zararli moddalar to‘planishiga olib keladi. Shu sababli isitish, shamollatish va sovitish tizimlari muhandislik kommunikatsiyalari tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Quyosh energiyasidan foydalanish imkoniyatlari. Quyosh energiyasi qayta tiklanuvchi va ekologik toza energiya manbasi bo‘lib, tabiiy gaz yetib bormagan hududlarda ayniqsa samarali hisoblanadi. Quyosh panellari va quyosh kollektorlaridan foydalanish orqali:

elektr energiyasi ishlab chiqarish;

elektr qozonlar va issiqlik nasoslarini quvvatlantirish;

shamollatish tizimlarining uzluksiz ishlashini ta’minlash;

yozi davrida sovitish va konditsioner tizimlarini energiya bilan ta’minlash mumkin.

Quyosh energiyasiga asoslangan tizimlar ta’lim muassasalarida markazlashmagan, mustaqil energiya manbai sifatida xizmat qiladi.

Ekologik va iqtisodiy samaradorlik. Quyosh energiyasidan foydalanish natijasida zararli gazlar chiqindisi kamayadi, ichki havo sifati yaxshilanadi va ekologik xavfsiz muhit yaratiladi. Dastlabki investitsiya xarajatlariga qaramay, uzoq muddatda yoqilg‘i xarajatlarining kamayishi va energiya mustaqilligi iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydi.

Xulosa

Tabiiy gaz bilan ta’minlanmagan maktab va maktabgacha ta’lim muassasalarida ichki havoni iqlimlashtirishni quyosh energiyasi asosida tashkil etish muhandislik kommunikatsiyalari tizimi uchun samarali va istiqbolli yechim hisoblanadi. Bunday tizimlar energiya mustaqilligini oshiradi,

ekologik xavfsizlikni ta’minlaydi va ta’lim muassasalarida qulay mikroiklim yaratishga xizmat qiladi. Ushbu yo‘nalish dissertatsiya tadqiqotlari uchun ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Пирназаров, И. И, & Н Тошматов. (2016). К вопросу о выборе оптимальных и допустимых параметров воздуха при комфортном кондиционировании в помещениях. Ме’morichilik va qurilish muammolari, 79-81
2. Islomovich, Ilhom Pirnazarov, 2020. Qishda zamonaviy issiqxonalarini shamollatishning asosiy roli. "Science and Education" Scientific Journal, December 2020, 219-222 page.
3. Пирназаров, И. И, 2019. Обеспечение экологической безопасности: единство национального, регионального и глобального аспектов. Fuqarolik jamiyati. Гражданское общество. 78-81
4. Pirnazarov Ilhom Islamovich. "THE ROLE OF GEOTHERMAL ENERGY IN THE NATIONAL ECONOMY"/"GALAXY" international interdisciplinary research journal (GIIRJ) An International Interdisciplinary Monthly Journal Volume 10, Issue 1, January, 2022. Part , 114-117 page.
5. Pirnazarov Ilhom Islamovich. "THE SOIL OF THE SEEDLINGS IN GREENHOUSES HEATING BY GEOTHERMAL ENERGY" Texas Journal of Multidisciplinary Studies volume 4, january, 2022 , Part 20-24 page.
6. С. М. Бобоев, И. И. Пирназаров. [“Система отопления теплиц через перфорированную воздушную трубу”](#) The Peerian Journal, 2023; Part 18, 41-43 page.
7. Аллаев К. Р. Энергетика мира и Узбекистана. Аналитический обзор. – Т. : Издательство «Молия», 2007.
8. Raja A. K. , Amit Prakash Srivastava, Manish Dwivedi. Power Plant Engineering. New Delhi: New Age Publishers, 2006.
9. Бойназаров Б. Б. , Рахимов Д. В. , Журабоев Н. И. , Мелибоев А. А. , Бобуржон Мухиддин Угли Усмонов Б. М. Конфигурации двигателя Стирлинга // Вестник науки и образования, 2020. № 1-2 (79). Ст. 13-16.
10. Бойназаров Б. Б. , Шерматов Б. А. , Бокиев О. О. , Нематов Т. Т. Этапы разработки двигателя Стирлинга // Проблемы современной науки и образования, 2020. № 2 (147). Ст. 13-16.
11. Бойназаров Бекзод Бахтиёрович, Шерматов Баходиржон Алижон Угли, Бокиев Отабек Ойбек Угли, Нематов Тохиржон Тулкинжон Угли Этапы разработки двигателя Стирлинга // Проблемы Науки. 2020. №2 (147). URL:

АКСИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ ТВОРЧЕСТВА А. П. ЧЕХОВА В ДИАЛОГЕ О РОЛИ ЖЕНЩИНЫ В МИРОВОЙ НАУКЕ

Абдуллаева Икбола Махировна

д. ф. ф. н. (PhD), старший преподаватель кафедры русского языка и литературы Наманганского государственного института иностранных языков имени Исхокхона Ибрата

E-mail: ikbola.abdullayeva.87@mail.ru

[+998972528777](tel:+998972528777)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18674427>

Аннотация: *Статья посвящена исследованию аксиологических аспектов прозы А. П. Чехова через призму гендерного самоопределения в интеллектуальной сфере. В работе анализируются концепты «труд», «знание» и «свобода» как базовые элементы мировоззрения чеховских героинь. Автор доказывает, что этико-философские установки писателя сформировали прообраз современной женщины-исследователя, ориентированной на социальный прогресс и научный поиск. Исследование опирается на современные литературоведческие подходы и рассматривает творчество А. П. Чехова как связующее звено между классическим гуманизмом и современными достижениями женщин в науке.*

Ключевые слова: *А. П. Чехов, аксиология, гендерный аспект, женские образы, интеллектуальный прогресс, научное сообщество, филологический анализ.*

Annotatsiya: *Maqola A. P. Chexov prozasining aksiologik jihatlarini intellektual sohadagi gender o‘zligini anglash prizmasi orqali tadqiq etishga bag‘ishlangan. Ishda A. P. Chexov asarlaridagi qahramon ayollar dunyoqarashining tayanch elementlari sifatida «mehnat», «bilim» va «erkinlik» konseptlari tahlil qilinadi. Muallif yozuvchining axloqiy-falsafiy qarashlari ijtimoiy taraqqiyot va ilmiy izlanishga yo‘naltirilgan zamonaviy tadqiqotchi ayol obrazining poydevori bo‘lib xizmat qilganini isbotlaydi. Tadqiqot zamonaviy adabiyotshunoslik yondashuvlariga tayanadi va A. P. Chexov ijodini klassik gumanizm hamda xotin-qizlarning ilm-fandagi zamonaviy yutuqlari o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida ko‘rib chiqadi.*

Kalit so‘zlar: *A. P. Chexov, aksiologiya, gender aspekti, ayollar obrazlari, intellektual taraqqiyot, ilmiy hamjamiyat, filologik tahlil.*

Abstract: *The article is devoted to the study of the axiological aspects of A. P. Chekhov’s prose through the prism of gender self-determination in the intellectual sphere. The work analyzes the concepts of “labor”, “knowledge” and “freedom” as core elements of the worldview of Chekhov’s female protagonists. The author proves that the writer’s ethical and philosophical attitudes formed the prototype of the modern female researcher oriented toward social progress and scientific search. The study is based on contemporary literary approaches and considers A. P. Chekhov’s creative heritage as a link between classical humanism and the modern achievements of women in science.*

Keywords: *A. P. Chekhov, axiology, gender aspect, female images, intellectual progress, scientific community, philological analysis.*

В эпоху глобализации и активной интеграции женщин во все сферы академической деятельности особое значение приобретает изучение литературных истоков формирования интеллектуальной идентичности. Творчество А. П. Чехова в современном литературоведении рассматривается не только как эстетический феномен, но и как сложная аксиологическая система, заложившая фундамент для понимания роли женщины в прогрессивном развитии общества. В контексте международных инициатив, таких как День женщин и девочек в науке, чеховское наследие позволяет проследить путь от мечты об образовании к реальному вкладу в мировую интеллектуальную среду. Потребность в верификации классических ценностей в условиях современного научного дискурса делает данную тему остросоциальной и востребованной [1].

Современные исследователи подчеркивают, что А. П. Чехов предвосхитил антропологический поворот в культуре, где личность оценивается через её созидательный потенциал. Аксиология А. П. Чехова в XXI веке прочитывается как философия «активного гуманизма». Женщина в этой системе перестает быть фоновым персонажем и становится носителем «интеллектуального беспокойства» – ключевого качества любого исследователя.

Как отмечает В. Б. Катаев, чеховский текст открыт для диалога с будущим, предоставляя современным женщинам-исследователям этические ориентиры в море научной ответственности [2]. Ценностный компонент его мировоззрения базируется на признании того, что гендерная принадлежность не может являться препятствием для постижения истины. Наука в чеховском понимании – это не только накопление фактов, но и высшая форма нравственного служения, что делает его героинь провозвестницами новой эры в мировой науке.

В исследованиях начала XXI века образ Лиды Волчаниновой из рассказа «Дом с мезонином» всё чаще интерпретируется как пример раннего женского профессионализма. Лида – это прототип женщины-практика, для которой знание имеет прикладную, социальную ценность. Её деятельность по устройству школ и медицинских пунктов является актом интеллектуального мужества.

С точки зрения современной аксиологии, Лида представляет тип личности, востребованный в мировой науке: целеустремленность и системный подход. Её стремление к «восхождению» через просвещение демонстрирует, что для А. П. Чехова женский интеллект является мощным двигателем социальной эволюции. Лида выбирает путь самореализации, который сегодня мы называем академической карьерой, противопоставляя его праздному созерцанию [3]. Конфликт Лиды с художником – это не просто семейная ссора, а манифест новой женщины, заявляющей о своем праве на участие в решении глобальных задач своего времени.

Особое значение для понимания процесса «возрождения» имеет рассказ «Невеста», который в работах последних десятилетий рассматривается как манифест внутренней свободы. Надежда Шумина совершает не просто личный побег от мещанства, а переход в иное ценностное измерение – в мир университетского образования.

Современные филологи указывают на то, что А. П. Чехов наделяет свою героиню субъектностью, которая была редкостью для литературы XIX века. Образование для Нади –

это единственный способ стать полноценным участником мирового процесса познания. «Когда я стану учиться, – говорит героиня, – я переверну всё». В этой фразе заключен огромный аксиологический потенциал: вера в то, что образованная женщина способна трансформировать реальность. Этот сюжетный ход коррелирует с современными стратегиями поддержки женщин в науке, подчеркивая, что прогресс начинается с личного выбора в пользу знаний [4].

Для объективного анализа необходимо учитывать исторический фон рубежа веков. Это время характеризовалось массовым стремлением женщин к высшему образованию в Российской империи (открытие Высших женских курсов). А. П. Чехов, будучи врачом и общественным деятелем, отразил этот социальный всплеск в своих произведениях.

Писатель был лично знаком со многими женщинами-медиками и педагогами, что позволило ему представить образ «женщины в науке» без излишней идеализации, с опорой на реальные трудности того времени [6]. В его текстах поступление в университет – это акт духовного перерождения. Сравнивая чеховские образы с реальными биографиями женщин-ученых того времени, мы видим общую базу: приоритет разума над предрассудками. А. П. Чехов отразил переход от женщины как «хранительницы очага» к женщине как созидательнице интеллектуальных ценностей, что стало фундаментом для современного этапа развития мировой науки [5].

Интеллектуальный поиск в художественном мире А. П. Чехова неразрывно связан с понятием «чистоты помыслов». Для современной женщины-ученого чеховская аксиология предлагает модель поведения, основанную на преданности истине и этике ответственности. В анализе чеховских текстов современными исследователями подчеркивается, что наука у А. П. Чехова – это всегда путь к истинному достоинству.

Женщина в науке, ориентированная на эти идеалы, способствует не только техническому, но и моральному прогрессу. В условиях современных вызовов – от экологии до биоэтики – гуманистический фильтр чеховского мировоззрения становится необходимым элементом научной деятельности. Диалог между классической литературой и современной наукой позволяет увидеть в женщине-исследователе не только профессионала, но и носителя ценностей, обеспечивающих устойчивое развитие цивилизации [2].

Аксиологический потенциал творчества А. П. Чехова в XXI веке обретает новые смыслы. Он становится теоретической базой для понимания генезиса женской интеллектуальной активности. Образы чеховских героинь доказывают, что стремление к науке – это сущностная потребность развитой личности. В диалоге о роли женщины в мировой науке чеховские идеалы служат напоминанием о том, что за каждым великим открытием стоит ценностный выбор, достоинство и вера в созидательную силу человеческого разума.

Namangan shaxar 1-sonli umumta’lim o‘rta ta’lim maktabi

Oliy toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

+998913441482

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18674679>

Annotatsiya: *Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim jarayonida slime (slaym) texnologiyasidan foydalanishning pedagogik ahamiyati yoritib berilgan. Slime’ning sensorik, motorik, emotsional va ijtimoiy rivojlanishga ko‘rsatadigan ijobiy ta’siri tahlil qilingan. Ayniqsa, rivojlanishida turli ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashda slime asosidagi mashg‘ulotlarning samaradorligi ochib berilgan. Shuningdek, maqolada slime yordamida fanlararo integratsiyani amalga oshirish, o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshirish va ta’lim jarayonini qulay muhitda tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Slime (slaym) texnologiyasi, sensorli o‘qitish usullari, maxsus, ehtiyojli bolalar, differensial yondashuv, interfaol metodlar, ta’lim motivatsiyasi, kognitiv rivojlanish, psixologik qulay muhit, kommunikativ, kompetensiya, kreativ fikrlash, mayda motorika rivoji, ta’limda integratsiya, ta’lim samaradorligi.*

Аннотация: *В данной статье подчеркивается педагогическая значимость использования технологии слайма в инклюзивном образовании. Анализируется положительное влияние слайма на сенсорное, моторное, эмоциональное и социальное развитие. В частности, раскрывается эффективность занятий со слаймом в работе с детьми с различными потребностями развития. В статье также приводятся методические рекомендации по внедрению междисциплинарной интеграции с использованием слайма, повышению интереса учащихся к уроку и организации образовательного процесса в комфортной обстановке.*

Ключевые слова: *технология слайма, сенсорные методы обучения, дети с особыми потребностями, дифференцированный подход, интерактивные методы, образовательная мотивация, когнитивное развитие, психологически благоприятная среда, коммуникативная компетентность, творческое мышление, развитие мелкой моторики, интеграция в образование, эффективность обучения.*

Abstract: *This article highlights the pedagogical importance of using slime technology in inclusive education. The positive impact of slime on sensory, motor, emotional and social development is analyzed. In particular, the effectiveness of slime-based activities in working with children with*

various developmental needs is revealed. The article also provides methodological recommendations for implementing interdisciplinary integration using slime, increasing students' interest in the lesson, and organizing the educational process in a comfortable environment.

Keywords: *Slime technology, sensory teaching methods, children with special needs, differentiated approach, interactive methods, educational motivation, cognitive development, psychologically favorable environment, communicative competence, creative thinking, fine motor development, integration in education, educational effectiveness.*

Bugungi kunda ta’lim tizimida har bir o‘quvchining individual imkoniyatlari va ehtiyojlarini inobatga olish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, inklyuziv ta’lim sharoitida rivojlanishida jismoniy, psixologik yoki intellektual xususiyatlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashda zamonaviy pedagogik yondashuvlar zarur bo‘lmoqda. Boshlang‘ich sinflarda, ayniqsa 3–4-sinflarda ingliz tilini o‘qitishda o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda innovatsion, faol va amaliy metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Slime (slaym) texnologiyasi bugungi kunda nafaqat o‘yinchoq, balki samarali pedagogik vosita sifatida ham qaralmoqda. Uning sensorik va psixologik ta’siri o‘quvchilarning dars jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va qulay ta’lim muhitini yaratadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ichida slime (slaym) texnologiyasi o‘yin, tajriba va sensorik faoliyatni uyg‘unlashtirgan holda ingliz tili darslarini tashkil etish imkonini beradi. [1] Slime texnologiyasi orqali o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, og‘zaki nutqini rivojlantirish, eslab qolish qobiliyatini kuchaytirish hamda dars jarayonida ijobiy psixologik muhit yaratish mumkin. Mazkur ishda inklyuziv ta’lim sharoitida 3–4-sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘qitishda slime texnologiyasidan foydalanishning pedagogik ahamiyati ilmiy jihatdan yoritiladi.

Slime — bu cho‘ziluvchan, yopishqoq va elastik modda bo‘lib, u na qattiq va na suyuq holatga to‘liq mos keladi. Ilmiy nuqtai nazardan u nonyuton suyuqliklar turkumiga kiradi. Slime birinchi marta 1976-yilda AQShning Mattel kompaniyasi tomonidan ommaviy o‘yinchoq sifatida ishlab chiqarilgan. [2] Slime dastlab ilmiy tajribalar asosida yaratilgan modda bo‘lib, keyinchalik bolalar o‘yinchog‘i va rivojlantiruvchi vosita sifatida keng tarqaldi. Hozirgi kunda slime ta’lim jarayonida, xususan, ingliz tili darslarida interfaol metod sifatida qo‘llanilmoqda.

Slime o‘zining o‘ziga xos xususiyatlari — cho‘zilishi, shaklini o‘zgartirishi, tovush chiqarishi bilan bolalarda qiziqish uyg‘otadi. Aynan shu xususiyatlari uni ta’lim jarayonida qo‘llash imkonini beradi. Slime elastik, cho‘ziluvchan va yopishqoq bo‘lib, bosim va harakat ta’sirida o‘z shaklini o‘zgartiradi. Ushbu xususiyatlar ingliz tili darslarida ranglar (colors), shakllar (shapes), harakatlar (actions) va sifatlarni (adjectives) o‘rgatishda amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Inklyuziv ta’lim — bu barcha bolalarning individual imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ularni umumta’lim jarayoniga to‘liq jalb etishni nazarda tutuvchi pedagogik tizimdir. Zamonaviy ta’limda inklyuziv yondashuv o‘quvchilar o‘rtasida tenglikni ta’minlash bilan birga, ularning ijtimoiylashuvi, muloqot ko‘nikmalari va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ingliz tili fanini o‘qitishda inklyuziv ta’lim metodlari kommunikativ yondashuv bilan uyg‘unlashib, barcha o‘quvchilarning darsda faol ishtirok etishiga sharoit yaratadi.

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

Inklyuziv ta’limda slime’dan foydalanish bir nechta muhim yo‘nalishlarda ijobiy natija beradi. Avvalo, slime sensorik stimulyatsiyani ta’minlaydi. Turli teksturalar bilan ishlash o‘quvchilarning sezgi organlarini faollashtiradi, ayniqsa autizm spektridagi bolalar uchun bu juda muhimdir.

Bundan tashqari, slime bilan ishlash mayda motorika rivojiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Slime’ni yog‘urish, siqish, bo‘lish jarayonlari barmoq va bilak mushaklarini mustahkamlaydi. [3] Bu esa yozuv ko‘nikmalarining rivojlanishiga zamin yaratadi va ingliz tilida (writing) yozuv ko‘nikmasini yanada oshiradi miyya faoliyatiga yaxshi ta’sir ko‘rsatadi, fikrlashni o‘stiradi, faollashtiradi va bu nutqqa ham yaxshi ijobiy ta’sir ko‘rsata oladi.

Slime nonyuton suyuqlik sifatida tashqi kuch ta’sirida qovushqoqligini o‘zgartiradi. Bu holatni ingliz tilida sodda iboralar orqali tushuntirish o‘quvchilarning fanlararo bilimlarini boyitadi va terminlarni o‘zlashtirishiga yordam beradi. Slime bilan ishlash o‘quvchilarning sezgi organlarini faollashtiradi. Ingliz tili darslarida bu jarayon “soft”, “hard”, “sticky”, “stretchy” kabi so‘zlarni amalda o‘rganish imkonini beradi.

Emotsional jihatdan slime stressni kamaytiradi, o‘quvchida ijobiy kayfiyat hosil qiladi. Slime yordamida bajariladigan mashqlar qo‘l barmoqlari harakatini rivojlantiradi, bu esa yozuv va talaffuz ko‘nikmalarining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, maxsus ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilar uchun bu jarayon muhim hisoblanadi. Guruhda slime bilan ishlash esa ijtimoiy muloqot va hamkorlikni rivojlantiradi deb ayta olamiz chunki o‘rganishlar jarayonida ingliz tili o‘qitish metodikasi fani buyicha ko‘plab guruhlarda slime metod va texnologiyasini olib bordik, jarayonda talabalrga har-hil topshiriqlar berildi. Masalan mavzulashtirilgan 3-sinf o‘quvchilariga so‘z boyligini oshirish, eslab qolish jarayonini mustahkamlash uchun ko‘plab mavzular berib ko‘rildi va shulardan har bir talaba o‘ziga yoqqan mavzu bo‘yicha slimedan har hil o‘yinchoqlar, hayvonchalar, gullar, multik qahramonlarini yasashdi, keyin esa ular yuqori kurs talabalari bo‘lganligi uchun har biri yozuv ko‘nikmasini oshirish maqsadida qilingan ish buyicha to‘rtadan gap yozdi obyektga tegishli bunga 5-7 minut vaqt sarfladi talabalar va har biri bitta hikoya shakllanishiga qadar ketma ketlikda o‘qib chiqishdi, bu bilan ularning (reading) o‘qish ko‘nikmasini oshishiga yordam berildi, albatta bu talabalarda yangi samarali metod deb topildi va ular ham amaliyot jarayonida ushbu ko‘rsatmalarga binoan darslar tashkillashdi, kamchiliklar bartaraf etildi, muhokamalar qilindi va yangi goyalarni tug‘ilishiga yordam berishdi.

Inklyuziv ta’limda slime tushunchasi yangi bo‘lib— bu barcha bolalarning individual imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ularni umumta’lim jarayoniga to‘liq jalb etishni nazarda tutuvchi pedagogik tizimdir. [4] Zamonaviy ta’limda inklyuziv yondashuv o‘quvchilar o‘rtasida tenglikni ta’minlash bilan birga, ularning ijtimoiylashuvi, muloqot ko‘nikmalari va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ingliz tili fanini o‘qitishda inklyuziv ta’lim metodlari kommunikativ yondashuv bilan uyg‘unlashib, barcha o‘quvchilarning darsda faol ishtirok etishiga sharoit yaratadi. [5] Slime bilan ishlash dars jarayonida ijobiy emotsional muhit yaratadi. Ingliz tilida sodda dialog va buyruqlarni bajarish jarayoni o‘quvchilarda o‘ziga ishonchni oshiradi va nutqiy faollikni kuchaytiradi. Buni isboti o‘laroq oliy ta’limda ham yetarlisha inklyuziv ta’lim oluvchilar bor, xorijiy til va adabiyoti yonalishida taxsil olayotgan talaba bilan ushbu yangicha metodni qollaganimizda u o‘zining qilgan ishlari va bu slime Metodi qanchalik yordan berganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan: ushbu talabaning chap qo‘l va oyoqlarida nuqsonli ammo jarayon

mobaynida avvaliga topshiriqlarni bajarishga biroz qiynaldi, har hil muammoli vaziyatlar bo‘ldi, keyin esa asta sekinlik bilan uddalay boshladi, dastlab shakllar yasadi, doira, tortburchak, ushburchak va boshqalar, keyin esa ularni birlashtirdi va odam ko‘rinishini shakllantirdi, bu bilan bolani yangi so‘z o‘rganishiga, yodda saqlab qolishiga, miyya motorikasini rivojlanishiga katta yordam berganligimizni ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari slimeni ushlab, shakllarga keltirish mobaynida miyya faoliyatini yanada tez ishlashiga, barmoqlarning ichidagi qon aylanish faoliyatini oshirishda yordam beradi. Umidjonning fikriga ko‘ra bu zavqli va maroqli dars bo‘lganligi haqida o‘z fikr mulohazalarini aytdi, chunki dars davomida ingliz tilini o‘qituvchi sifatida shakllanishi va o‘zi o‘quvchilarga na‘muna asosida tushuntirib berishi uchun avvalo o‘zi yaxshi mukammal bilib olishi haqida ta‘kidlab o‘tdi. Eng muhim jihatlaridan biri inkyuziv ta‘limda xavfsiz ingredientlardan foydalanish, o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish zarurdir.

Slime texnologiyasini turli fanlar bilan ham integratsiya qilish mumkin. Masalan, kimyo va fizika darslarida moddalarning xossalari o‘rganishda, san‘at darslarida esa ranglar va dizayn bilan ishlashda slime‘dan foydalanish samarali natija beradi. [6] Slime bilan ishlashda sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish muhim. O‘qituvchi mashg‘ulotlarni ingliz tilidagi qisqa va tushunarli ko‘rsatmalar asosida olib borishi, barcha o‘quvchilarning faol ishtirokini ta‘minlashi zarur.

Xulosa qilib aytganda, slime texnologiyasi inklyuziv ta‘lim jarayonida samarali pedagogik vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. U o‘quvchilarning sensorik sezgirligini oshirish, mayda motorikasini rivojlantirish, emotsional barqarorlikni ta‘minlash hamda ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Slime bilan ishlash jarayonida har bir o‘quvchi o‘z imkoniyatlari doirasida faol ishtirok etadi, bu esa inklyuziv ta‘limning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lgan tenglik va ishtirokni ta‘minlaydi. Ushbu texnologiya 3–4-sinf o‘quvchilarining ingliz tiliga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularning nutqiy, sensorik va emotsional rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi hamda ta‘lim jarayonini yanada interfaol va samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Shuningdek, slime asosidagi mashg‘ulotlar dars jarayonini jonlantirib, o‘quvchilarda fanga bo‘lgan qiziqishni oshiradi, mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantiradi. Shu sababli, slime texnologiyasidan ta‘lim jarayonida maqsadga muvofiq va tizimli foydalanish inklyuziv ta‘lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Slime texnologiyasi inklyuziv ta‘limda samarali va universal pedagogik vosita bo‘lib, o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Uni maqsadli va tizimli qo‘llash orqali ta‘lim sifatini oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. G‘ofurov N. , Yo‘ldoshev J. Inklyuziv ta‘lim asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 180 b.
2. Karimova D. B. Maxsus pedagogika va inklyuziv ta‘lim metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 156 b.
3. Ochilov M. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Innovatsiya, 2018. – 212 b.
4. Marifatkhon Boltabayeva. (2025). The Clash Of Religious and Secular Views In Graham Greene’s Works. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 6(3), 8. <https://doi.org/10.47134/emergent.v4i1.64>
5. Katz D. A. Guar Gum Slime Experiments. – Journal of Chemical Education, 2017.

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

6. Saydaliyeva, M. (2024). The Role and Importance Of Modern Technologies In The Formation Of Oral Speech. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 3(4). <https://doi.org/10.47134/innovative.v3i4.131>
7. G‘ulomova S. Sh. *Boshlang‘ich ta‘limda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish*. – Toshkent: Sharq, 2017. – 144 b.
8. Shaxlo, M. M. (2025). Designing an english for business purposes (ebp) course: a task-based and problem-based approach for pre-intermediate business professionals. *Prospects of teaching english for professional purposes in non–philological higher education institutions: problems and solutions*, 518-525.
9. Nosirova, S. Y. , & Umarjonova, S. (2025, December). THE ROLE OF COMICS IN TEACHING ENGLISH TO YOUNG LEARNERS. In *International Conference Platform* (No. 6, pp. 171-172).
10. HISTORY OF THE MITANNI STATE. (2025). *Western European Journal of Linguistics and Education*, 3(03), 52-54. <https://westerneuropeanstudies.com/index.php/2/article/view/2178>

BAHOLOVCHANLIK KATEGORIYASINING LINGVISTIK TALQINI VA PRAGMATIK MOHIYATI

Nurmatova Durдона Shuxrat qizi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Tayanch-doktorant

E-mail: durdona97531@gmail.com

Orcid - 0009-0009-5107-2868

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18674927>

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunoslikda baholovchanlik kategoriyasining nazariy asoslari, uning obyektiv va subyektiv jihatlarini hamda konnotativ ma’no tarkibidagi o‘rni tahlil qilinadi. Baholovchanlikning gnoseologik va pragmatik yondashuvlar doirasida talqini, ratsional va emotsional baholash turlarining lisoniy ifodalanish xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, ekspressivlik, emotsionallik, obrazlilik va funksional-stilistik komponentlarning o‘zaro munosabati ko‘rib chiqiladi. Yetakchi tilshunos olimlar – Sh. Balli, I. V. Arnold, A. V. Kunin, V. N. Teliya, L. A. Sergeeva va boshqalarning qarashlari asosida baholovchanlikning pragmatik kategoriya sifatidagi mohiyati asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari baholovchanlik til birliklari semantikasining ajralmas qismi ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: baholovchanlik, konnotatsiya, subyektivlik, pragmatika, ekspressivlik, emotsionallik, lisoniy baho.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические основы категории оценочности в языкознании, ее объективные и субъективные аспекты, а также место оценочного компонента в структуре коннотативного значения. Анализируются гносеологический и прагматический подходы к интерпретации оценочности, особенности рациональной и эмоциональной оценки в языке. Особое внимание уделяется взаимосвязи оценочности с экспрессивностью, эмоциональностью, образностью и функционально-стилистическими компонентами. На основе концепций Ш. Балли, И. В. Арнольд, А. В. Кунина, В. Н. Телии, Л. А. Сергеевой и других ученых обосновывается понимание оценочности как прагматической категории. Делается вывод о том, что оценочность является неотъемлемым компонентом семантики языковых единиц.

Ключевые слова: оценочность, коннотация, субъективность, прагматика, экспрессивность, эмоциональность, языковая оценка.

Abstract: The article explores the theoretical foundations of the category of evaluation in linguistics, focusing on its objective and subjective aspects and its role within connotative meaning. The study examines epistemological and pragmatic approaches to evaluation, as well as the linguistic representation of rational and emotional evaluation. Special attention is paid to the interaction between evaluation, expressiveness, emotionality, imagery, and functional-stylistic components. Drawing on the works of scholars such as Ch. Bally, I. V. Arnold, A. V. Kunin, V. N. Telia, and L. A. Sergeeva, the paper substantiates the interpretation of evaluation as a pragmatic category. The

findings demonstrate that evaluative meaning constitutes an integral part of the semantic structure of linguistic units.

Key words: *evaluation, connotation, subjectivity, pragmatics, expressiveness, emotionality, linguistic evaluation.*

Kirish. Insonlarning muloqot uchun tanlagan soʻzlari zamirida tushunchaga nisbatan munosabatlari ham ifodalanadi, shuning uchun maʼno tarkibida subyektiv-baho mazmunining boʻlishi tabiiydir. Til birliklarining subyektiv baho va munosabatni ifodalash imkoniyatlarini oʻrganish – zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biridir.

Baholash - insonning predmetga boʻlgan baholovchan munosabati natijasi, muayyan predmet, hodisa yoki xususiyatning qadriyatlarga mos yoki mos emasini belgilashga qaratilgan aqliy akt. Baho jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy, intellektual va axloqiy hodisalar etalonlari, ijtimoiy xulq normalari va yaxshi yoki yomon tushunchalari orqali belgilanadi. Bahoning lisoniy ifodalanishini tadqiq etish uchun soʻzlovchining munosabati, nuqtai nazari va his-tuygʻularini oʻrganish talab etiladi. Tilshunoslikda baholovchi kategoriya, baholovchanlik nomlari bilan uchrovchi bu tushuncha lisoniy birliklarning semantik tuzilmasiga kiruvchi konnotatsiya komponenti yaʼni, konnotativ element – qoʻshimcha axborot sifatida koʻriladi. FB lar maʼnosining konnotativ elementlari – ekspressivlik, emotsionallik, obrazlilik, funksional-stilistik komponentlar koʻpincha uygʻunlikda uchraydi va ularni aratish masalasi oson emas. Mohiyatan, baholovchanlik- funksional kategoriya, obrazlilik – tasviriy, ekspresivlik- uslubiy, emotsionallik – psixolingvistik kategoriya hisoblanadi [11. - B. 52]. Bu kategoriyalarning umumiy jihatlari ularning pragmatik xususiyatga ega ekanligi, bir-biridan farlash qiyin ekanligi va bir- birini oʻrmini bosa olishidan iborat.

Asosiy qism. Insonning obyektiv voqelik bilan munosabati natijasida faoliyatining diniy, aqliy, hissiy va boshqa turli jabhalari baho bilan bogʻlangan. Til orqali voqelik turli jihatlardan ifodalanadi. Avvalo bu lisoniy birliklarning deskriptiv tarafi, chunki lison obyektiv voqelikni, undagi narsa, hodisa va xususiyatlarni, ichki kechinma va fazilatlarini bilan birgalikda insonni aks ettiradi. Lisoniy ong uchun olamni baho munosabatiga koʻra farqlash tabiiydir. Ijtimoiy shartlangan qadriyatlar tizimi sifatida u tilda ham oʻz aksini topadi. Baholovchanlik kategoriyasi keng maʼnoda konnotatsiya komponenti sifatida tilshunoslik fani oʻrganish doirasiga kiradi.

Teliyaning fikricha mazkur masala ikki asosiy yoʻnalishda – gnoseologik (bilish bilan bogʻliq) va pragmatik (amaliy nutq faoliyatiga oid) nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Ushbu yondashuvlar oʻzaro toʻgʻridan-toʻgʻri kesishmaydi, balki til egasi boʻlgan subyektning ikki xil faoliyat turini aks ettiradi: bilish faoliyati – subyektning borliqni anglash, tushunish, tushuntirishga yoʻnaltirilgan ongli harakatidir; baholovchi faoliyat – subyekt tomonidan borliqqa nisbatan munosabat bildiruvchi ifoda shakllaridir. Baholovchi faoliyat oʻz navbatida quyidagi ikki shaklda namoyon boʻladi: Ratsional-baholovchi faoliyat – voqelikni ongli, mantiqiy asosda, kontekstual sharoitda tahlil etish va baholash; Emotsional-baholovchi faoliyat – his-tuygʻularga asoslangan, subyektiv psixologik kechinmalar vositasida amalga oshiriladigan baholash. Shu tariqa, til nafaqat muloqot vositasi, balki insonning dunyoni qanday anglashini va unga nisbatan qanday munosabatda ekanini ifodalovchi murakkab, koʻp qirrali vosita sifatida namoyon boʻladi [9. - B. 17].

Jeneva tilshunoslik maktabi namoyondasi boʻlgan Sh. Ballining fikricha insonlarning koʻpchiligida hissiyot aqldan ustun turadi va tilda affektiv faktor koʻrinishida voqelanadi. U inson

subyektiv dunyosini aks ettirish va muloqotning boshqa a`zolariga ta`sir ko`rsatish maqsadlariga xizmat qiladi. Nutq biz uchun fikrlash jarayonlari bilan bir vaqtda kechuvchi, tashqi ifoda vositalaridan iborat tizim sifatida namoyon bo`ladi. Boshqacha aytganda, nutq tafakkurning ifodasi, uning tashqi tomonga yo`naltirilgan qiyofasidir. Muloqotda har bir jumla ikki sathli bo`lib, birinchisi axborot, ikkinchisi esa shu axborotga subyektiv munosabat. So`zlovchi o`z fikrlarini ikki shaklda ifodalashi mumkin: yoki ular mutlaqo obyektiv, mantiqiy, haqiqatga imkon qadar yaqin tarzda bo`ladi, yoki ko`pincha fikr ifodasiga turli darajada emotsional unsurlar qo`shiladi. Bu emotsional elementlar ayrim hollarda so`zlovchining shaxsiy hissiyotlariga asoslangan bo`lishi mumkin, ayrim hollarda esa ijtimoiy muhit ta`siri ostida shakllanadi [3. - B. 29].

I. V. Arnold baholovchanlikni til funksiyalari va tilda axborotning turlari orqali talqin qiladi. Uning fikricha nutqda axborot ikki turli bo`ladi: 1) xabar mazmunini tashkil etuvchi, muloqot akti muhitiga aloqador bo`lmagan axborot; 2) qo`shimcha, muloqot akti muhiti va ishtirokchilariga aloqador axborot. Axborotning ikki turini boshqa tarafdin, til funksiyalari jihatidan izohlash mumkin. Denotativ axborotni Arnold intellektual-kommunikativ til funksiyasini yuzaga chiqaradi va konnotativ axborotni esa tilning boshqa barcha funksiyalarini: emotiv – so`zlovchi hissiyotlarini ifodalash; volyuntativ (uni pragmatik deb ham atashadi)- so`zlovchi irodasini ifodalash va adresatni harakatga undash; appelyativ – e`tibor tortish, tinglashga chorlash; kontakt o`rnatuvchi funksiya – muloqotda e`tibor ko`rsatish, hushmuomalalik formulalari; estetik funksiya – estetik ta`sir ko`rsatish [1. - B. 8].

Tilning kommunikativ, emotiv, evaluativ (baholovchi), fatik, estetik funksiyalarini I. V. Arnold pragmatik funksiyalar deb ataydi. Ular so`zlovchining tinglovchiga, nutq mazmuniga va muloqot akti sodir bo`layotgan nutqiy vaziyatga nisbatan subyektiv munosabatini ifodalaydi [2. - B. 29].

A. V. Kunin bahoni ikki turi: obyektiv va subyektiv baho mavjudligini aytadi. Obyektiv baho lug`atlarda ta`rif, lug`at pometasi va izoh ko`rinishida beriladi. Subyektiv baho esa individual fikr va munosabatga asoslanadi. Uning fikricha subyektiv bahoni anglash uchun obyektiv baho katta ahamiyatga ega. Chunki baho mazmunida ijtimoiy va individual aspektlar birlashadi [5. - 160].

L. A. Sergeeva bahoni alohida mantiqiy xulosa bilan bog`liq mental operatsiya sifatida ta`riflaydi. Avval ma`lum bo`lgan bilimlardan mantiqiy solishtirish orqali predmet xususiyatlarining ma`lum normaga mos yoki mos emasligi haqida yangi bilimlar paydo bo`lishi natijasida shu predmetning qadr-qiyamatining belgilanishi deb qaraydi [8. - B. 88].

A. Ovsyannikova nazdida konnotativ ma`no tarkibidagi baholovchi komponent deganda so`zlovchining xabar mazmuniga nisbatan uning muntazam, doimiy xususiyatlariga asoslangan ijobiy yoki salbiy munosabati. Bir vaqtning o`zida ham obyektiv, ham subyektiv statusga ega [7. - B. 3].

O. P. Jdanovaga ko`ra baho intellektual tabiatga ega, ya`ni u hissiy emas, aqliy-mantiqiy mulohazalarga asoslanadi. Intellektual baho shkalasi faqatgina ijobiy va salbiy ko`rsatkichdan iborat [4. - B. 56].

V. V. Vinogradov fikricha Ekspressivlik tarkibiy qismi sifatida baho so`zning asosiy ma`no komponentlari tanlovi va ifodalanishiga ta`sir o`tkazadi. Nutq subyektivining individual yoki jamoaviy shaxsiyatini, uning voqelikka nisbatan bahosini aks ettirib, uni ma`lum ijtimoiy guruh a`zosi sifatida gavdalandiradi. Ekspressivlik nafaqat leksik, grammatik hususiyatlar balki so`zlovchining subyektiv

bahosi, munosabatini ham ifodalaydi. Predmet nomlari ko‘pincha shu baho, munosabat asosida shakllanadi va keyinchalik shu asosda o‘zgarishi mumkin [10. - B. 12].

Galkina-Fedoruk baholovchanlikni ekspressivlikning emotsionallik, obrazlilik va intensivlik kabi komponentlaridan biri deb hisoblaydi.

B. Yo‘ldoshev til birliklarida baho ma‘nosini nominativ (atash), obrazli ifodalash, emotsional, ekspressiv kabi uslubiy funksiyalardan biri sifatida belgilagan. Bahoni u ham ijobiy va salbiy turlarga ajratgan [12. - B. 88].

A. E. Mamatov emotsionallik va baholovchanlik tushunchalarini integratsiya qilgan holda ta‘riflaydi va emotsional-baholovchi mazmuni ifodalovchi frazeologik birliklarni ma‘nosiga ko‘ra 10 guruhga ajratadi [6. - B. 11].

T. B. Zubova baholovchanlikni diskursning xususiyati sifatida ko‘radi. Bu borada boshqa olimlar bir ovozdan qo‘llagan fikrga qo‘shilgan holda bahoni voqelikning hodisa yoki predmeti haqida subyektiv fikrning ifodalanishi deya ta‘riflaydi va ijobiy, salbiy va neytral xususiyatga ega bo‘lishi mumkin deb belgilaydi. Ijtimoiy-madaniy normalar asosida shaxsiy fikr, hissiyot va qadriyatlarni ifodalashda juda muhim deb hisoblaydi [13. - B. 5]. Baholovchanlik diskursning integrativ xususiyati, ya‘ni subyektiv munosabatni lisoniy vositalar orqali leksik, sintaktik, va stilistik qatlamlarda ifodalash xususiyati deb hisoblaydi va bahoni pragmatik kategoriya sifatida uning tarkibiga kiritadi. O‘z navbatida modallik- ehtimol, zarurat va taxmin asosidagi subyektiv munosabatning ifodalanishi va tonallik – hissiyotlar asosidagi subyektiv munosabatning ifodalanishini o‘rganuvchi kategoriyalarini baholovchanlik tarkibiga kiritadi.

Baholovchanlikning pragmatik tabiati shundan iboratki, u til birliklarining ma‘nosida faqat obyektiv voqelikni aks ettirish bilan cheklanmay, balki nutq subyektining kommunikativ maqsadi, nutqiy vaziyat, adresat omili hamda ijtimoiy-madaniy kontekst bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Baholovchi mazmun muloqot jarayonida so‘zlovchining tinglovchiga ta‘sir ko‘rsatish, uning e‘tiborini jalb etish, muayyan munosabatni shakllantirish yoki baholovchi pozitsiyani mustahkamlash kabi pragmatik vazifalarni bajaradi. Shu bois baholovchanlik tilning pragmatik funksiyalari doirasida namoyon bo‘lib, nutqiy aktning kommunikativ samaradorligini ta‘minlovchi vosita sifatida xizmat qiladi. U lisoniy birliklarning konnotativ qatlamida yuzaga chiqib, kontekstga bog‘liq holda ijobiy, salbiy yoki neytral mazmun kasb etadi hamda so‘zlovchi va adresat o‘rtasidagi munosabatni tartibga soluvchi muhim pragmatik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Baho kategoriyasi tilning faqat semantik emas, balki pragmatik tabiatini ham ochib beruvchi muhim lingvistik hodisadir. Baho obyektiv voqelikni aks ettirish bilan birga, so‘zlovchining individual tajribasi, hissiyoti, qadriyatlari va ijtimoiy me‘yorlarga munosabatini ifodalaydi. Shu sababli baholovchanlik til birliklari ma‘nosida konnotativ komponent sifatida namoyon bo‘lib, ekspressivlik, emotsionallik va obrazlilik bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadi.

Tahlil qilingan nazariy yondashuvlar baholovchanlikning gnoseologik va pragmatik jihatlari o‘zaro uyg‘un holda til egasining bilish va baholash faoliyatini aks ettirishini ko‘rsatdi. Ratsional va emotsional baholash turlari esa tilning kommunikativ imkoniyatlarini kengaytirib, nutqda subyektiv munosabatni ifodalashga xizmat qiladi. Natijada baholovchanlik til tizimining ajralmas qismi sifatida insonning dunyoni idrok etishi va unga nisbatan munosabatini ifodalovchi muhim vosita ekanligi tasdiqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arnold, I. V. (1981). *Stilistika sovremennogo angliyskogo yazyka*. Leningrad: Prosveshcheniye. 8-bet.
2. Arnold, I. V. (1986). *The English Word*. Moskva: Vysshaya shkola. 38-bet.
3. Balli, Sh. (1961). *Fransuzskaya stilistika*. Moskva. 29-bet.
4. Jdanova, O. P. (1985). Semanticheskaya struktura glagolov povedeniya. In *Semanticheskie klassy russkikh glagolov* (Universitetlararo ilmiy ishlar to‘plami). Sverdlovsk, 55–56-betlar.
5. Kunin, A. V. (1996). *Nekotorye voprosy angliyskoy frazeologii*. Moskva: GIS. 160-bet.
6. Mamatov, A. E. (1988). *Emotsional-baholovchi mazmuni ifodalovchi frazeologik birliklarning semantik-stilistik xususiyatlari* (Dissertatsiya avtoreferati). Toshkent.
7. Ovsyannikova, A. (2011). Virazheniye otsenochnosti frazeologicheskikh edinit, funktsioniruyushchikh v dramaturgii A. Vampilova. *Filologiya i iskusstvovedeniye*.
8. Sergeeva, L. A. (1982). O sootnoshenii obyektivnykh i subyektivnykh faktorov v znacheniyakh emotsionalno-otsenochnykh prilagatelnykh v sovremennom russkom yazyke. In *Issledovaniya po semantike*. Ufa: BDU nashriyoti, 81–88-betlar.
9. Teliya, V. N. (1996). *Russkaya frazeologiya: semanticheskiy, pragmaticheskiy i lingvokulturologicheskiy aspekty*. Moskva: Shkola “Yazyki russkoy kultury”. 17-bet.
10. Vinogradov, V. V. (1953). Основные типы лексических значений слова. ВЯ, №5Б стр 12.
11. Xarchenko, V. K. (1983). Vzaimodeystviye konnotativnykh priznakov, soznacheniy v semantike slova. In *Leksicheskie i grammaticheskie komponenty v semantike yazykovogo znaka* (Mezhvuzovskiy sbornik nauchnykh trudov). Voronej, 47–52-betlar.
12. Yo‘ldoshev, B. (1998). *Frazeologik uslubiyat asoslari*. O‘quv qo‘llanma. Samarqand. 88-bet.
13. Zubova, T. B. (2025). Otsenochnost kak diskursivnaya xarakteristika: svoystva i tipologiya. *Filologiya: nauchniye issledovaniya*.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MOHIR SARKARDA VA HARBIY-STRATEG

Mamuraliyeva Gulsanam Ilhomjon qizi

Namangan davlat universiteti Tarix yo‘nalishi talabasi

Telefon: +998948675151

E-mail: mamuraliyevikromjon8@gmail.com

Ilmiy rahbar: Madrahimov Zohid Sharofovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18674952>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning sarkardalik mahorati va harbiy-strategik qarashlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Boburning harbiy tafakkuri, jangovar tajribasi, qo‘shin boshqaruvi hamda strategik qarorlar qabul qilishdagi yondashuvlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, sarkarda, harbiy strategiya, Boburiylar imperiyasi, Panipat jangi, Hindiston, Bartol’d, “Boburnoma”, to‘lg‘ama, oroyish, farmoyish.

Аннотация: В данной статье на основе исторических источников анализируются военные навыки и военно-стратегические взгляды Захириддина Мухаммада Бабура. Особое внимание уделяется военному мышлению Бабура, его боевому опыту, управлению армией и подходам к принятию стратегических решений.

Ключевые слова: Захириддин Мухаммад Бабур, командующий, военная стратегия, империя Бабура, битва при Панипате, Индия, Бартоломео, «Бабурнома», толгама, ороиши, фармоиши.

Abstract: This article analyzes the military skills and military-strategic views of Zahiriddin Muhammad Babur based on historical sources. Babur's military thinking, combat experience, army management, and approaches to strategic decision-making are highlighted.

Keywords: Zahiriddin Muhammad Babur, commander, military strategy, Babur Empire, Battle of Panipat, India, Bartholomew, "Baburnoma", tolgama, oroyish, farmoyish.

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she‘riyatida o‘ziga xos o‘rin egallagan adib, shoir, olim bo‘lish bilan birga yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan bo‘lsa, sejilo o‘zbek tilida yozilgan “Boburnoma” asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan ham joy olgan. Uning nafis g‘azal va ruboiylari turkey she‘riyatining eng nodir durdonalari bo‘lib, “Mubayyin” (“Bayon etilgan”), “Xatgi Boburiy”, “Xarb ishi”, Aruz haqidagi risolalari esa islom qonunshunosligi, she‘riyat va til nazariyasi sohalariga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yilning 14-fevralida Andijonda, Farg‘ona ulusining hokimi Umar Shayx Mirzo oilasida dunyoga kelgan. Bu davrda Markaziy Osiyo va Xurosonda turli hokimlar, aka-ukalar, tog‘a-jiyanlar, amakivachchalar o‘rtasida hokimiyat – ulug‘ bobolari Amir Temur tuzgan yirik davlatga egalik qilish uchun kurash nihoyatda keskinlashgan edi.

Adabiyot, nafis san’at, tabiat go‘zalligiga yoshligidan mehr qo‘ygan Zahiriddin, barcha temuriy shahzodalar kabi bu ilmlarning asosini otasi saroyida yetuk ustozlar rahbarligida egalladi. Biroq uning betashvish yoshligi uzoqqa cho‘zilmadi. 1494-yili otadan yetim qoldi. 12 yoshida otasi o‘rniga Farg‘ona ulusining hokimi etib ko‘tarilgan Bobur qalamni qilichga almashtirib, Andijon taxti uchun ukasi Jahongir Mirzo, amakisi Sulton Ahmad Mirzo, tog‘asi Sulton Mahmudxon va boshqa raqiblarga qarshi kurashishga majbur bo‘ldi. Bobur ukasi Jahongir Mirzo bilan murosaga kelish uchun unga yon berishga – Farg‘ona ulusini ikkiga taqsimlab, yarmini ukasiga topshirishga qaror qildi va o‘zi Samarqand uchun olib borilayotgan kurashga kirishib ketdi. Bir necha yil davom etgan bu kurash qirg‘inbarotdan boshqa biror natija bermadi: unda katta harbiy kuch bilan aralashgan Shayboniyxonning qo‘li baland keldi va Bobur Samarqandni tashlab ketishga majbur bo‘ldi. 1504-yili Shayboniyxon Andijonni ham qo‘lga kiritgandan so‘ng, Bobur janubga qarab yo‘l oldi va Kobul ulusida o‘z hokimiyatini o‘rnatgan [1].

Bobur 1505 – 1515-yillarda Markaziy Osiyoga qaytishga bir necha bor urinib ko‘rdi. Ammo bu urinishlardan hech qanday natija chiqmadi. So‘ng o‘z mavqeini mustahkamlash maqsadida 1519 – 1525-yillar davomida Hindistonni qo‘lga kiritish uchun bir necha bor jangler olib bordi. 1526-yil aprel oyida Panipatda Hindiston sultoni Ibrohim Lo‘di bilan va 1527-yili mart oyida Chitora hokimi Rano Sango bilan bo‘lgan janglarda Boburning qo‘li baland keldi. Tarixiy ma’lumotlarning bayon qilishicha, Boburning Hindistonga yurishida Dehli hukmdori Ibrohim Sulton siyosatidan norozi bo‘lgan Panjob hokimlari ham Boburni qo‘llagan va Sikri jangidagi bu g‘alaba Boburga Hindistonda o‘z hukmronligini uzil-kesil o‘rnatish va Boburiylar sulolasini barpo etish imkoniyatini bergan [1].

Boburning sarkardalik salohiyati uning insoniyligi bilan yuksalganini Kobulga tog‘ yo‘lidan o‘tish tasvirlarida ko‘ramiz. Qalin qor yog‘gan, otning uzangisidan yuqoriroq bo‘lgan vaziyatda buyruq berib bo‘lmasligi, Boburning o‘zi ham lashkar oldiga tushib qor tepishi, ko‘pchilik bilan sovuqda qolishi tasvirlangan. “Men havolning og‘zida kurak olib, qor kurab, o‘zimg‘a bir takiya miqdori yer yasadim, qorni ko‘kugacha qozdim, hanuz yerga yetmaydur edi. Biur nima yelga panoh bo‘ldi, o‘shanda-o‘q o‘lturdim. Har necha dedilarkim, havolga boring, bormadim. Ko‘ngulga kechtikim, borcha el qorda va chopqunda, men issiq uyda va istirohat bila, munda borcha ulus tashvish bila mashaqqatta, men munda uyqu bila farog‘atta. Muruvvattin yiroq va hamjihatlikdin qiroq ishdur...” [1].

Boburning sarkardalik salohiyati nafaqat muzaffar g‘alabalaridan, balki dushmanlarning jangda yo‘l qo‘ygan xatolaridan ham kerakli xulosalarni chiqarishida yaqqol bo‘y ko‘rsatadi. Bobur o‘z asarida Panipatda Ibrohim Lo‘di qo‘shini bilan bo‘lgan jangda Shayboniyxon qo‘llagan “To‘lg‘ama” usulidan foydalanganini, Ibrohim Lodining sarkardalik salohiyati yo‘qligi, yuz ming kishilik katta qo‘shin, jangovar ikki mingga yaqin fillari, otalaridan qolgan katta xazinasini bo‘la turib, xazinadan sarflab yana qo‘shin yig‘magani kabi yo‘l qo‘ygan katta xatolarini aytadi: “...tabiatida imsok ko‘p g‘olib edi. O‘zi yarmoq yig‘ishturmoqqa behad tolib, betajriba yigit edi. Ne kelishi saranjomliq edi, ne turushi, ne yurushi ehtimomliq edi, ne urushi” [1].

Bobur kerakli paytlarda lashkarni ruhlantirishni biladi, o‘z lashkarini qo‘rqmaslikka, mardona bo‘lishga va, albatta, g‘alaba qozonishga da’vat etadi: “...elning mundaq bedilliqlarini so‘rub va bu nav’ sustluqlarini ko‘rub bir tadbir xotiring‘a yetti. Jam’i beklarni va yigitlarni chorlab dedimkim:

“Beklar va yigitlar!

Harki omad ba jahon ahli fano xohad bud,

Onki poyandavu boqist, Xudo xohad bud.

Har kimki hayot majlisig‘a kiribtur, oqibat ajal paymonasidin ichgusidur va har kishikim, tiriklik manzilig‘a kelibtur, oxir dunyo g‘amxonasidin kechgusidur. Yomon ot bila tirilgandin, yaxshi ot bila o‘lgan yaxshiroq... O‘lgan shahid, o‘lturgan g‘ozi. Barcha Tengrining kalomi oti-la ont ichmak kerakkim, hech kim bu qitoldin yuz yondirur xayol qilmag‘ay, to badandin joni ayrilmag‘uncha, bu muhoraba va muqotaladin ayrilmag‘ay” [1].

Bobur faoliyatini o‘rganar ekanmiz, uning mardonalik, lashkarni boshqara olish sifatleri bilan tengsiz kurashlarda g‘olib chiqishiga guvoh bo‘lamiiz. Bobur bunday g‘oliblikni faqat o‘zining sarkardalik salohiyatidan emas, balki Ollohning inoyatidan deb bilishi ham uning naqadar odil va e‘tiqodli hukmdor ekanligidan dalolat beradi: “Tavakkulimizga yarasha Tangri taolo ranj va mashaqqatimizni zoyie qilmay, mundoq zo‘r g‘animni mag‘lub qilib, Hindustondek keng mamlakatni maftuh ayladi. Bu davlatni o‘zumizning sa‘y va himmatidin bilmasbiz, balki tengrining ayni karam va inoyatidindur” [1].

Bu misralar Bobur muvaffaqiyatlari, zafarli natijalarining qisqa va lo‘nda ifodasi bo‘lib, quyidagi jumlar esa Hindistonda ulkan saltanat barpo etgan ajdodimiz erishgan jamiki ne‘matlarning kalitidir: “Tangri ne‘matlarining ketma-ket kelib turishi unga shukr va sano aytishning ko‘payishiga boisdur” [1].

Boburning shohlarga xos sarkardalik salohiyatini quyidagi fikrlarimiz ham to‘laonli isbot etadi: Ulug‘ sarkarda 1499-yili Ahmad Tanbal bilan jangga kirish oldidan tasarrufidagi qo‘shining tartibini besh qismga muvofiq tuzgan: Hirovul (orqa qism), barong‘or (o‘ng qanot), javong‘or (so‘l qanot), g‘ul (xon huzurida turuvchi maxsus harbiy qism), chag‘davul (qo‘shinning ort qismi). Natijada, Ahmad Tanbal janggohni tashlab ketishga majbur bo‘lgan.

Bobur Hindistonni zabt etish vaqtida jangchilarning safda qat‘iy tartib-intizomga amal qilishiga e‘tibor bergan. Urushlarda “to‘lg‘ama” usulini mohirlik bilan ishlatgan. Panipat, Kanva va Gagra janglarida Bobur qat‘iy intizom, to‘g‘ri taktika va strategiyani qo‘llagani uchun g‘alaba qozongan.

To‘lg‘ama – jang chog‘ida dushman kuchlari qanotidan aylanib o‘tish, yon va orqa tomondan zarba berish usuli hisoblanadi. Bobur to‘lg‘amaga tayinlangan askar qo‘shining o‘ng qanot (barong‘ori) va chap qanot (javong‘ori) uchidan joy olganlariga tajribali, sodiq hamda matonatli beklarni sardor etib saylashga ahamiyat bergan.

Ikkinchi jahon urushida Boburning jang qilish taktikasi, jumladan, to‘lg‘ama usulidan Stalingrad ostonasidagi qonli urushlarda foydalanilib, Germaniyaning eng ilg‘or – 6-dala armiyasi yakson etilgan. Bu haqda ikkinchi jahon urushining sobiq qo‘mondonlari o‘z memuarlarida yozib qoldirgan [2].

Bobur son jihatdan katta bo‘lmagan qo‘shinini zamonaviy qurol-yarog‘ bilan qurollantirish masalasiga favqulodda e‘tibor qaratgan. U Hindistonga Kichik Osiyodan to‘p quyuvchi ustalarni taklif etib, ilk bor zambarak quyish texnologiyasini olib kirgan. Afg‘oniston, Pokiston, Bangladesh, Hindiston, Movarounnahr, Dashti Qipchoqda yevropacha kichik to‘p, zambarak, ulkan hajmli to‘p, tufang, miltiqdan foydalanishning keng yoyilishi bevosita Bobur bilan bog‘liqdir.

Hindiston harbiy-dengiz floti Zahiriddin Muhammad Bobur davrida takomillashgan. XVI asrgacha ushbu yurtda asosan Hind, Sind va Jamna singari daryolardan kechib o‘tishga mo‘ljallangan kichik hajmli qayiqlar tayyorlangan. Bobur tashabbusi bilan harbiy urushlar uchun “Gunjoyish”, “Oroyish”, “Farmoyish” nomli katta kemalar yasalgan. Bu esa o‘z navbatida janglarda yangi qo‘shin turining paydo bo‘lishiga turtki bergan [2].

Zahiriddin Bobur Hindistonda Boburiylar imeriyasiga asos solish bilan birga, pochta-aloqa sohasiga ham jiddiy o‘zgartirishlar kiritdi, vaqt birligiga yangilik joriy etdi, arxitekturada Movarounnahr me‘morlik uslublarini qo‘lladi, milliy artilleriya, harbiy-dengiz flotiga asos soldi.

Buyuk Boburiylar imperiyasi davri nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki Hindistonni ulkan me‘moriy yodgorliklar, noyob adabiy-tadqiqot ishlari bilan boyitdi. Hindistonning Buyuk Boburiylar sulolasiga qarashli me‘moriy obyektlari – Fotihpur-Sikridagi Shoh saroy majmuasi, Agra, Dehli va Lahor qirg‘oqlari saroylari va bog‘lari kabilardir. Boburiylar tomonidan yaratilgan bog‘larning eng ko‘zga ko‘ringan namunalari – Kashmirdagi Shalimar (1620) va Lahor bog‘lari (1642), Anantag yaqinidagi Achabal bog‘i, Chashma Shahi Bagh (1632), Kashmirdagi Nishat Bagh bog‘i (1633), Lahor, Dehli, Agra qirlari ichidagi ko‘plab bog‘lar; Qobuldagi maqbara va o‘nlab bog‘lar.

Bobur doimo bog‘dorchilik faoliyatiga alohida mehr berdi va Hindiston hamda Pokistonda hanuzgacha Samarqand nomi bilan mashhur bo‘lgan uzumning yangi navlarini o‘stirdi. Hozirgacha uning ko‘plab bog‘lari “Boburi Anguri Xudo” – “Bobur uzum bog‘lari” deb nomlanadi.

Zahiriddin Muhammad Boburning Hindistonni qo‘lga kiritishi tufayli Hindistonda buyuk o‘zgarishlar sodir bo‘ldi, san’atda, me‘morlik va madaniyatning qator sohalarida ulkan o‘zgarishlar yuz berdi. Boburning tarixchi, geograf, etnograf, nasriy yozuvchi va shoir sifatidagi layoqati hozirgi kunda jahon sharqshunoslari tomonidan keng e‘tirof etilmoqda. Tarixchi, iste‘dodli so‘z san‘atkori, davlat arbobi va sarkarda Bobur vafotidan to‘rt asrdan ko‘proq vaqt o‘tdi, ammo uning nomi boqiydir.

Hindiston boburiylardan bo‘lgan Humoyun, Akbarshoh, Jahongirshoh, Shohjahonlarning hukmronlik davrlarida, ayniqsa, gullab-yashnadi, hududlari kengaydi. Xususan, Akbarshoh va uning nabirasi Shohjahon hind xalqining qalbidan chuqur joy oldilar.

Boburshohning yuragi ba‘zan Vatanni – Andijonni qo‘msab tursa ham, vaqti soati kelib boqiy dunyoga ketgunicha hayotining qolgan qismini Hindistonda bunyodkorlik, davlat va ma‘muriy ishlarni odilona hal qilish bilan o‘tkazdi. Boburiylar butun dunyoga mashhur bo‘lgan tarixiy obidalarni bunyod etdilarki, ular hozirda ham dunyoni lol qoldirib kelmoqda [3].

Bobur Hindistonda atigi to‘rt yil yashab, vafot etdi. Mana shu yillar jangu-jadallarda o‘tdi, u orom nimaligini bilmadi. U Hindiston haqida kam narsa bilardi. U Agrada g‘aroyib poytaxtga zamin qurdi va Istanbuldan mashhur bir me‘morni chaqirib keltirish uchun odam yubordi. Bu – Sulaymon Qonuniy Istanbulni qurayotgan paytlar edi. Sinon – Usmonli turklarning o‘sha mashhur me‘mori – Hindistonga sevikli shogirdi Yusufni yo‘lladi.

Bobur 1530-yilda qirq to‘qqiz yoshida olamdan o‘tadi. Boburning jasadini Kobulga olib borib, o‘zi sevgan bog‘iga dafn etishadi. Nihoyat u o‘zi sog‘ingan-qo‘msagan gulzorga qaytib kelgan edi [4].

Aytish mumkinki Bobur haqida juda ko‘p iliq fikrlar aytilgan, ko‘plab sharqshunos olimlar, mansabdor shaxslar va davlat rahbarlari tomonidan shunday fikrlar bildirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Fikrimning dalili sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: O‘zbekiston Respublikasi Birinchi

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

Prezidenti Islom Karimov, Boburni nafaqat buyuk shoir va tarixchi, balki yuksak harbiy tafakkur egasi bo‘lgan sarkarda sifatida e’tirof etib, uning murakkab siyosiy va harbiy sharoitlarda qat’iyat bilan harakat qilganini, harbiy iste’dod va siyosiy zakovatni uyg‘unlashtira olgan shaxs ekanini ta’kidlagan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z ma’ruzalarida Bobur siymosini milliy davlatchilik, jasorat va strategik fikrlash timsoli sifatida baholab, uning hayoti va faoliyati yosh avlod uchun vatanparvarlik va yetakchilik maktabi ekanini qayd etgan.

Mashhur rus sharqshunosi V. V. Bartold, Boburni Markaziy Osiyo harbiy-siyosiy tarixida muhim o‘rin tutgan shaxs sifatida baholab, uning jangovar tajribasi va tarixiy tafakkuri “Boburnoma” orqali aniq namoyon bo‘lishini e’tirof etadi.

Javoharlal Neru, Boburni Hindiston tarixida yangi davrni boshlab bergan iste’dodli sarkarda va davlat asoschisi sifatida ko‘rsatadi.

Haqiqatdan ham Zahiriddin Muhammad Bobur buyuk sarkarda va davlat arbobi sifatida yurtimiz tarixida o‘chmas iz qoldirib kelmoqda. Boburning sarkardalik faoliyati va harbiy strategik qarashlari uning buyuk davlat arbobi sifatida tarixda mustahkam o‘rin egallashiga asos bo‘ldi. Bobur nafaqat jang maydonida, balki harbiy boshqaruv va strategik rejalashtirish sohasida ham ilg‘or qarashlarni ilgari surgan sarkarda sifatida e’tirof etiladi. Uning harbiy merosi bugungi kunda ham ilmiy tadqiqotlar uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Boburnoma”da sarkardalikka xos sifatlar tasvirlari // <https://share.google/SoVP7lpx6amhjnVj>
2. Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy faoliyatiga doir yeti fakt / <https://share.google/PNSbB4NjHuNOKKjEM>
3. Zahiriddin Muhammad Bobur – buyuk davlat arbobi va sarkarda // <https://share.google/Cnzvoc2bAWDagu0Ox>
4. Javoharlal Neru. «Dunyo tarixiga nazar» kitobidan. Bobur. Akbar. / Xurshid Davron kutubxonasi // <https://share.google/2khUaC3w0ToUnCRM6>
5. Akbarov Rahmatillo Murtozali O‘G‘Li. (2023). COVERAGE OF THEATER ACTIVITIES IN UZBEK NATIONAL PRESS DURING WORLD WAR II. International Journal Of History And Political Sciences, 3(06), 21–28. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue06-05>

TIL VA MADANIYAT O‘ZARO ALOQASIDA BILINGVIZM FENOMENI

Ruziyeva Madina Ilhom qizi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

e-mail madinaruziyeva67@gmail.com

ORCID:0009-0001-8203-8218

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18674977>

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bilingvizmning til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikdagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Bilingvizm shaxsning madaniy identitetini shakllantirish, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini tezlashtiruvchi omil sifatida talqin etiladi. Tadqiqot lingvokulturologik va sotsiologik yondashuvlarga asoslanib, zamonaviy ilmiy manbalar tahlili orqali olib borilgan.*

Kalit so‘zlar: *bilingvizm, til, madaniyat, madaniy identitet, madaniyatlararo muloqot, lingvokulturologiya.*

Annotation. *This article analyzes the phenomenon of bilingualism within the interrelation of language and culture from a scientific and theoretical perspective. Bilingualism is considered an essential factor in shaping cultural identity, enhancing intercultural communicative competence, and facilitating social integration. The research is based on linguocultural and sociological approaches and supported by an analysis of contemporary academic sources.*

Keys words: *bilingualism, language, culture, cultural identity, intercultural communication, linguoculturology.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается феномен билингвизма в контексте взаимосвязи языка и культуры. Билингвизм интерпретируется как важный фактор формирования культурной идентичности, развития межкультурной коммуникации и социальной адаптации личности. Исследование основано на лингвокультурологическом и социологическом подходах с использованием анализа современных научных источников.*

Ключевые слова: *билингвизм, язык, культура, культурная идентичность, межкультурная коммуникация.*

Kirish. *Zamonaviy globallashuv sharoitida tillar va madaniyatlarning o‘zaro ta’siri tobora kuchayib bormoqda. Xalqaro integratsiya, migratsiya jarayonlari va axborot almashinuvi natijasida jamiyatda ikki yoki undan ortiq tillarni bilish ehtiyoji ortmoqda. Shu jihatdan bilingvizm nafaqat lingvistik hodisa, balki murakkab madaniy-ijtimoiy fenomen sifatida namoyon bo‘lmoqda. Til madaniyatning asosiy ifoda vositasi bo‘lib, u orqali jamiyatning qadriyatlari, an’analari va tarixiy tajribasi uzatiladi. Bilingvizm esa shaxsga ikki xil madaniy tizimni bir vaqtda idrok etish va ularni uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Shu sababli bilingvizmni til va madaniyat o‘rtasidagi ko‘prik sifatida baholash mumkin.*

1. Til va madaniyatning nazariy asoslari. Til va madaniyat o‘zaro chambarchas bog‘liq hodisalardir. Lingvistik birliklar orqali madaniy ma’no shakllanadi va ijtimoiy tajriba ifodalanadi. Mashhur tilshunos E. Sapir va B. Uorf nazariyasiga ko‘ra, til insonning dunyoni idrok etish usuliga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [1, 76b]. Har bir til o‘ziga xos madaniy manzarani aks ettiradi. Madaniyat

esa til orqali yashaydi va rivojlanadi. Til bo‘lmasa, madaniy merosning uzatilishi murakkablashadi [1, 88b]. Shu nuqtai nazardan bilingv shaxs ikki xil madaniy modelni tushunish va qiyoslash imkoniyatiga ega bo‘ladi [3, 52b]. *O‘zbek tilshunosligida* Malohat Yunusova bilingvizm nazariyasi, o‘zbek-rus bilingvizmining xususiyatlarini tahlil qiladi. Bunda ikki tildagi til tizimlarining o‘zaro munosabati madaniy kontekstda alohida ta’kidlanadi [4, 58b]: o‘zbek-rus bilingvizmining o‘ziga xosligini, til orttirilish jarayonida ona tilining ikkinchi til shakllanishiga ta’sirini psixolingvistik va sotsiokultural jihatlar bilan birgalikda analiz qilgan. Madinaxon To‘ychiyeva tomonidan nashr etilgan maqolada bilingvizmning ijtimoiy hayot hamda madaniy integratsiyaga bo‘lgan ta’siri tahlil qilingan: bilingvizm fenomenining ijtimoiy va madaniy hayotga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi; u nafaqat kommunikativ afzalliklar berishi, balki jamiyatlarning ma’naviy-ma’rifiy rivojlanishidagi integratsiya jarayonini ham qo‘llab-quvvatlashi ta’kidlanadi [5, 123b].

2. *Bilingvizm tushunchasi va uning turlari.* Bilingvizm – shaxsning ikki tilni ma’lum darajada faol qo‘llay olish qobiliyatidir. Ilmiy adabiyotlarda bilingvizmning bir nechta turlari ajratiladi:

- tabiiy bilingvizm
- sun’iy bilingvizm
- muvozanatli bilingvizm
- dominant bilingvizm

Bu turlar shaxsning madaniy identitetiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi [6, 71b]. Ayniqsa, tabiiy bilingvizmda madaniy integratsiya jarayoni chuqurroq kechadi.

3. *Bilingvizm va madaniy identitet.* Madaniy identitet shaxsning muayyan madaniyatga mansublik hissini ifodalaydi. Bilingv shaxslar ko‘pincha ikki yoki undan ortiq madaniy identitet elementlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Bu holat ba’zan “ikki madaniyatli shaxs” tushunchasi bilan izohlanadi [6, 85b]. Bunday shaxslar madaniy farqlarni tabiiy qabul qiladi, stereotiplarga kamroq beriladi va ijtimoiy muhitga tez moslashadi. Bilingvizm shaxsning madaniy ongini kengaytirib, uni ko‘p madaniyatli jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlaydi.

4. *Madaniyatlararo muloqotda bilingvizmning o‘rni.* Madaniyatlararo muloqot jarayonida til asosiy vosita hisoblanadi. Bilingv shaxslar turli madaniyat vakillari bilan muloqotda lingvistik va madaniy to‘siqlarni samarali yengib o‘tadi. Bu holat xalqaro ta’lim, turizm, diplomatiya va biznes sohalarida ayniqsa muhimdir.

Bilingvizmning madaniy jarayonlarga ta’siri:

Ko‘rsatkich	Bilingv shaxs	Monolingv shaxs
Madaniyatlararo moslashuv	Yuqori	O‘rta
Tolerantlik darajasi	Yuqori	Nisbatan past
Madaniy kodlarni tushunish	Keng	Cheklangan
Ijtimoiy integratsiya	Tez	Sekin

5. *Bilingvizm va madaniy tolerantlik.* Tadqiqotlar bilingv shaxslarning boshqa madaniyatlarga nisbatan ochiqligi yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Ular madaniy xilma-xillikni ijobiy qabul qiladi va bag‘rikenglikni namoyon etadi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va madaniy hamjihatlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Bilingvizm til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqani mustahkamlovchi muhim omil hisoblanadi. U shaxsning madaniy identitetini boyitadi, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantiradi va jamiyatda tolerantlikni oshiradi. Shu bois, zamonaviy ta’lim va madaniyat siyosatida bilingvizmni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bialystok, E. (2011). *Bilingualism: Consequences for Mind and Brain*. Cambridge University Press.
<https://doi.org/10.1017/CBO9780511976979>
2. Grosjean, F. (2010). *Bilingual: Life and Reality*. Harvard University Press.
<https://www.hup.harvard.edu/books/9780674056459>
3. Cummins, J. (2000). *Language, Power and Pedagogy*. Multilingual Matters.
<https://doi.org/10.21832/9781853596773>
4. Yunusova, M. T. (2024). *Theory of bilingualism: Features of Uzbek-Russian bilingualism, influence of the native language. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*.
<https://mentaljournal-jspu.uz/index.php/mesmj/article/view/862>
5. To‘ychiyeva, M. Sh. qizi (2024). *Ikkitillilik (bilingvizm) va uning ijtimoiy ta’siri*. Yangi Renessans Ilm-Fan Jurnali.
<https://phoenixpublication.net/index.php/YRIF/article/view/8077>
6. Kramersch, C. (1998). *Language and Culture*. Oxford University Press.
<https://global.oup.com/academic/product/language-and-culture-9780194372145>

O‘ZBEK–TURK PARALLEL KORPUSINI TUZISHDA IKKI TILNING TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xolmonova Iqbola Alisher qizi

*Kompyuter lingvistikasi va raqamli texnologiyalar kafedrasida tayanch doktoranti
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti*

Tel: +998994083318

E-mail: iqbolabintualisher@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18675012>

Annotatsiya: *Maqolada o‘zbek va turk tillarining fonetik, morfologik, sintaktik va leksik darajadagi tipologik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi hamda bu farq va o‘xshashliklar o‘zbek-turk parallel korpusini yaratishda qanchalik ahamiyatliligi haqida so‘z boradi. Har ikki til umumiy turkiy ildizga ega bo‘lsa-da, fonetik tizimdagi, morfologik tizimdagi, sintaktik tizimdagi hamda leksik tizimdagi tafovutlar korpus tuzishda alohida mulohaza talab etadi. Tadqiqot natijalari mashina tarjimasi, ikki tilli elektron lug‘atlar va lingvostatistik tahlillar uchun amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbek tili, turk tili, parallel korpus, tipologik xususiyatlar, fonetika, morfologiya, sintaksis, leksika, mashina tarjimasi, agglutinatativ til.*

Annotation: *The article provides a comparative analysis of the typological features of the Uzbek and Turkish languages at the phonetic, morphological, syntactic, and lexical levels, and discusses the significance of these similarities and differences in the creation of an Uzbek–Turkish parallel corpus. Although both languages share a common Turkic origin, distinctions in their phonetic, morphological, syntactic, and lexical systems require special consideration in corpus design. The results of the study have practical significance for machine translation, bilingual electronic dictionaries, and linguostatistical analyses.*

Keywords: *Uzbek language, Turkish language, parallel corpus, typological features, phonetics, morphology, syntax, lexicon, machine translation, agglutinative language.*

Аннотация: *В статье проводится сравнительный анализ типологических особенностей узбекского и турецкого языков на фонетическом, морфологическом, синтаксическом и лексическом уровнях, а также рассматривается значимость выявленных сходств и различий при создании узбекско-турецкого параллельного корпуса. Несмотря на общее тюркское происхождение, различия в фонетической, морфологической, синтаксической и лексической системах требуют особого подхода при формировании корпуса. Результаты исследования имеют практическую значимость для машинного перевода, двуязычных электронных словарей и лингвостатистического анализа.*

Ключевые слова: *узбекский язык, турецкий язык, параллельный корпус, типологические особенности, фонетика, морфология, синтаксис, лексика, машинный перевод, агглютинативный язык.*

So‘nggi yillarda sun‘iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishlash sohalarining jadal rivojlanishi sababli til korpuslari va parallel korpuslarga bo‘lgan ehtiyoj ha kuchayib bormoqda. Parallel korpus

bu ikki yoki undan ortiq tillarda moslashtirilgan matnlar to‘plami bo‘lib, mashina tarjimasi, avtomatik lug‘at yaratish, til o‘qitish va lingvostatistik tadqiqotlarda asosiy manba sifatida qo‘llaniladi. Bugungi kunda parallel korpus yaratish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb muammo hisoblanadi. Parallel korpus yaratish uchun avvalo, ikki tilning o‘xshash va farqli jihatlarini tadqiqot ostiga olish darkor. Shuning uchun mazkur maqolada o‘zbek va turk tillarining lingvistik jihatdan o‘xshash va farqli tomonlarini tadqiqot ostiga olamiz.

O‘zbek va turk tillari turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, umumiy genetik ildizga ega. Shunga qaramay, ular tarixiy taraqqiyot, ijtimoiy-madaniy muhit va boshqa omillar ta’sirida turli fonetik, morfologik va sintaktik xususiyatlarga ega. Ushbu ikki tilning tipologik xususiyatlarini qiyoslash lingvistik jihatdan ham, tarjimashunoslik va tabiiy tilni qayta ishlash sohasida ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu ikki til quyidagi lingvistik xususiyatlari bilan bir biridan farq qiladi:

O‘zbek va turk tillarining fonetik xususiyatlari. O‘zbek va turk tillari turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lsa-da, fonetik tizimida umumiyliklar bilan bir qatorda qator farqlarga ham ega. Ularning fonetik tuzilishini qiyosiy o‘rganish ikki tilning tipologik yaqinligi va o‘ziga xos tomonlarini aniqlashga yordam beradi. Avvalo, unli tovushlar tizimida muhim farqlar mavjud. Turk tilida 8 ta unli tovush (a, e, ı, i, o, ö, u, ü) bor va ular lablangan/lablanmagan hamda orqa/qo‘shma qator oppozitsiyasiga ko‘ra farqlanadi. O‘zbek tilida esa 6 ta asosiy unli (a, e, i, o, u, o‘) mavjud bo‘lib, turk tilidagi **ö, ü** unli lari mustaqil tovush sifatida uchramaydi. Shuningdek, o‘zbek tilida urg‘u ko‘pincha oxirgi bo‘g‘inga tushadi, turk tilida esa turlicha joylashishi mumkin. Undosh tovushlar tizimida ham o‘ziga xoslik kuzatiladi. Masalan, turk tilidagi **ğ** undoshi o‘zbek tilida mavjud emas; u ko‘proq cho‘zilish yoki yumshoq pauza sifatida talaffuz qilinadi. O‘zbek tilida esa **ts, x, g‘** kabi tovushlar bor bo‘lib, ular turk tilida uchramaydi. Quyidagi jadvalda ikki tilning asosiy fonetik farqlari keltiriladi:

Fonetik jihat	O‘zbek tili	Turk tili
Unli tovushlar soni	6 (a, e, i, o, u, o‘)	8 (a, e, ı, i, o, ö, u, ü)
Lablangan unli lilar	faqat <i>o, o‘, u</i>	<i>o, ö, u, ü</i>
Orqa qator unli lilar	a, o, o‘, u	a, ı, o, u
Old qator unli lilar	e, i	e, i, ö, ü
Xos tovushlar	x, g‘,	ğ, ş, ç

1-jadval. O‘zbek va turk tillari fonetik tizimining qiyosiy ko‘rinishi

O‘zbek va turk tillarining fonetik tizimi umumiy turkiy asosga ega bo‘lsa-da, unli va undosh tovushlar tarkibi, urg‘u va cho‘zilish kabi jihatlarda farqlanadi. Bu fonetik tafovutlar ikki tilda parallel korpus yaratishda, mashina tarjimasi tizimlarida ham alohida hisobga olinishi lozim. [1]

O‘zbek va turk tillarining morfologik xususiyatlari. O‘zbek va turk tillari agglutinatив tillar turiga kiradi. Bu xususiyat ularning morfologik tizimida aniq ko‘zga tashlanadi: so‘zlarga grammatik ma’no qo‘shimchalar yordamida qo‘shiladi va har bir qo‘shimcha odatda bitta grammatik vazifani bajaradi. Ikkala tilda ham ot va fe’l kategoriyalari yetakchi hisoblanadi. Otlar egalik, kelishik, ko‘plik kabi grammatik kategoriyalarga ega. Fe’llar shaxs, zamon, mayl va nisbat qo‘shimchalari orqali turlicha shakllanadi. Biroq ayrim morfologik shakllarda farqlar mavjud:

- Ko‘plik qo‘shimchasi o‘zbek tilida *-lar/-lar*, turk tilida esa *-lar/-ler* shaklida ishlatiladi.

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

- Kelishik qo‘shimchalari ikki tilda ham o‘xshash, ammo talaffuz va yozilishida farqlar mavjud (masalan: o‘zbek tilida *kitobni*, turk tilida *kitabı*).
- Fe‘l zamon shakllari turk tilida murakkabroq tizimga ega: masalan, hikoya zamoni (*geliyordu*) yoki ehtimol zamoni (*gelmiş olabilir*). O‘zbek tilida esa ko‘proq sodda zamon shakllari qo‘llanadi (*kelayotgan edi, kelgan bo‘lishi mumkin*).
- Egalik qo‘shimchalari ham o‘xshash, lekin ayrim fonetik o‘zgarishlar mavjud: *kitabim* (o‘zbek), *kitabım* (turk).

O‘zbek va turk tillari morfologik tizimi umumiy turkiy asosga ega bo‘lib, ko‘plik, egalik va kelishik qo‘shimchalari katta darajada o‘xshashdir. Biroq fe‘l zamon shakllari va ayrim nisbat kategoriyalarida turk tilida murakkabroq tizim mavjud. [2] Ushbu farqlar o‘zbek-turk parallel korpusini yaratishda muhim morfologik omillar sifatida e‘tiborga olinishi lozim.

O‘zbek va turk tillarining sintaktik xususiyatlari. O‘zbek va turk tillari turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, ularning sintaktik tizimi umumiy tipologik asosga ega. Biroq tarixiy taraqqiyot, boshqa tillar bilan aloqadorlik va ichki rivojlanish natijasida ayrim o‘ziga xosliklar shakllangan. Har ikki tilda ham sintaksis asosan agglutinativ morfologiya bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, qo‘shimchalar yordamida gap tarkibidagi grammatik munosabatlar ifodalanadi.

So‘z tartibi: O‘zbek va turk tillarining asosiy gap tartibi SOV (subyekt–obyekt–predikat) dir. Bu turkiy tillar uchun umumiy xususiyatdir: o‘zbek tilida *Ali kitobni o‘qidi*. Turk tilida esa *Ali kitabı okudu*. Biroq, zamonaviy o‘zbek tilida rus tili ta’siri natijasida SVO tartibi ham faol qo‘llanadi: *Ali o‘qidi kitobni*. Bu shaklda urg‘u obyektga tushadi. Turk tilida esa SOV tartibi qat’iyroq bo‘lib, o‘zgarish odatda uslubiy maqsadlarda, masalan, ta’kidlash yoki so‘zlovchi ohangini kuchaytirishda yuz beradi: *Kitabı Ali okudu*. [3]

Ot birikmalari: Har ikki tilda aniqlovchi aniqlanmishdan oldin keladi. Masalan, o‘zbek tilida *katta uy, mening kitabim*. Turk tilida esa *büyük ev, benim kitabım*. Qaratqich qo‘shimchalari yordamida egalik munosabatlari ifodalanadi. Masalan, o‘zbek tilida *do‘stimning kitobi*. Turk tilida esa *arkadaşımın kitabı*. Bu jihatdan ikki til o‘xshash bo‘lsa-da, o‘zbek tilida rus tili ta’siri natijasida ba’zan qaratqichsiz shakl ham uchraydi (*do‘stim kitobi*), turk tilida esa bunday imkoniyat mavjud emas.

Fe‘l birikmalari. Turk tilida yordamchi fe‘llar (*etmek, olmak*) orqali ko‘plab analitik konstruksiyalar hosil qilinadi. Masalan, *yardım etmek* (“yordam bermoq”), *mutlu olmak* (“baxtli bo‘lmoq”) kabi. O‘zbek tilida esa ko‘proq sintetik shakllar ishlatiladi: *yordam bermoq, baxtli bo‘lmoq* kabi. Shu sababli turk tilida analitik konstruksiyalar ko‘proq grammatiklashgan, o‘zbek tilida esa mustaqil fe‘lning qo‘llanishi ustun [4].

Qo‘shma va murakkab gaplar. Ergash gapli qo‘shma gaplarda umumiylik bilan birga morfologik farqlar mavjud. Maslan, o‘zbek tilida “*U kelishini aytdi*”. Turk tilida esa “*Onun geleceğini söyledi*”.

Turk tilida sifatdosh va ravishdosh shakllari keng qo‘llanadi, bu esa murakkab gaplarning xilma-xilligini ta’minlaydi. Masalan, *Gelince haber ver* (“Kelganda xabar ber”). *Geldiğini duydum* (“Kelganini eshitdim”). O‘zbek tilida ham sifatdosh va ravishdoshli ergash gaplar bor, ammo qo‘llanish darajasi turk tilidagidek keng emas [5].

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

O‘zbek va turk tillarining sintaktik tizimi umumiy turkiy asosga ega bo‘lib, ularning tipologik yaqinligini ko‘rsatadi. Asosiy o‘xshashlik — SOV tartibi, ot birikmalarida aniqlovchining oldindan kelishi va ergash gaplarning rivojlanganligidir. Farqlar esa zamonaviy o‘zbek tilida so‘z tartibining erkinlashuvi, turk tilida esa analitik fe‘l birikmalarining ustunligi va murakkab gaplarning ko‘proq shakllarida namoyan bo‘ladi [6].

O‘zbek va turk tillarining leksik xususiyatlari. O‘zbek va turk tillari bir xil turkiy ildizga ega bo‘lsa-da, ularning leksik tizimida tarixiy taraqqiyot, geografik omillar va tashqi til ta’sirlari natijasida sezilarli farqlar yuzaga kelgan. Bu tillarning umumiy turkiy qatlam bilan bir qatorda, milliy leksik xususiyatlari ham mavjud.

Umumturkiy qatlam. O‘zbek va turk tillarining eng muhim o‘xshashligi umumturkiy leksik qatlamning mavjudligidir. Masalan, o‘zbek tilida *ko‘z, quloq, tog‘, suv, qo‘l*. Turk tilida esa *göz, kulak, dağ, su, el* kabi. Bu so‘zlar fonetik jihatdan ayrim farqlarga ega bo‘lsa-da, semantik jihatdan to‘liq mos tushadi.

O‘zlashma so‘zlar. Har ikki til tarix davomida turli madaniy va siyosiy markazlar bilan aloqada bo‘lgan. Shu sababli ularning leksikasida o‘zlashma so‘zlar keng tarqalgan.

2-jadval. O‘zbek va turk tilidagi o‘zlashma so‘zlarning kelib chiqishi

O‘zlashma so‘zlar	O‘zbek tili	Turk tili	Izoh
Arabcha va forscha o‘zlashmalar	<i>ilm, adabiyot, ma’naviyat, daftar, kitob</i>	<i>ilim, edebiyat, manevi, defter, kitap</i>	Bu qatlam ikki til uchun deyarli umumiy bo‘lib, Islom sivilizatsiyasi bilan bog‘liq.
Ruscha va Yevropa tillaridan kirgan so‘zlar (xususan, XX asrda)	<i>samolyot, stul, zavod, telefon</i>	<i>uçak, sandalye, fabrika, telefon</i>	O‘zbek tilida ko‘plab ruscha shakllar asl holda qabul qilingan bo‘lsa, turk tilida Yevropa tillaridan o‘zlashmalar asosan fonetik moslashtirish orqali kirgan.

Neologizmlar. Zamonaviy davrda texnika va ilm-fan rivoji bilan bog‘liq yangi atamalar har ikki tilga ham kirib kelmoqda. Ammo bu jarayon ham turlicha kechmoqda. Masalan, o‘zbek tilida ko‘pincha rus tili orqali: *kompyuter, internet, dasturiy ta’minot* kabi so‘zlar. Turk tilida esa ko‘proq ingliz tili orqali yoki milliy neologizm yaratish yo‘li bilan neologizmlar paydo bo‘ladi: *bilgisayar, yazılım, internet* kabi [7].

O‘zbek va turk tillari umumiy turkiy ildizga ega bo‘lib, agglutinativ morfologiya, SOV tipidagi gap tartibi va umumturkiy leksik qatlam kabi asosiy tipologik belgilarni saqlab qolgan. Shu bilan birga, fonetik (masalan, unli uyg‘unligi), morfologik (qo‘shimcha tizimidagi tafovutlar), sintaktik (so‘z tartibidagi erkinlik) va leksik (o‘zlashmalar manbasi va neologizmlar) darajada milliy xususiyatlar mavjud. Mazkur o‘xshashlik va farqlarni ilmiy jihatdan o‘rganish o‘zbek-turk parallel korpusini yaratishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Korpus tuzishda fonetik, morfologik

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

va sintaktik tafovutlarni hisobga olish, leksik qatlamdagi umumiylik va farqlarni tizimlashtirish mashina tarjimasini, ikki tili lug‘at tuzish va lingvostatistik tadqiqotlarda katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Johanson, L. The Turkic Languages. Routledge, 1998.
2. Ergin, M. Türk Dil Bilgisi. İstanbul: Bayrak Yayınları, 2009.
3. Bozorov, O. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: fonetika, morfologiya, sintaksis. Toshkent: Fan nashriyoti, 2015.
4. Uğurlu, M. Türk Dilinde Fiil Yapısı ve İşlevleri. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 2016.
5. Doğan, N. Türk Dilinde Cümle Tipolojisi. İstanbul: Dilbilim Araştırmaları Yayınları, 2017.
6. Rajabov, A. O‘zbek tili tipologiyasi va umumiy tilshunoslik asoslari. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
7. Gökdayı, H. “Türk Dilinde Söz Dizimi Tipolojisi Üzerine Notlar”. Türk Dili Araştırmaları Dergisi, 27(1), 55–78, 2015.

BOSHLANG‘ICH MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA UCHRAYDIGAN RAQAMLI AUTIZM BELGILARI VA UNI OLDINI OLISH USULLARI

Mahkamova Nozima To‘ra qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti psixologiya mutaxassisligi magistratura bosqichi talabasi

+99877 477 62 86

E-mail: mahkamovanozima@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18675029>

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy axborot texnologiyalarining boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalar ruhiyatiga ta’siri, xususan, "raqamli autizm" tushunchasi va uning kelib chiqish sabablari tahlil qilinadi. Maqolada gadjetlarga haddan tashqari bog‘lanib qolish natijasida bolalarda kuzatiladigan ijtimoiy moslashuv muammolari, muloqot qobiliyatining pasayishi va diqqat tarqoqligi kabi belgilar yoritilgan. Shuningdek, ota-onalar va pedagoglar uchun raqamli autizmni oldini olish, bolaning texnologiyalar bilan sog‘lom munosabatini shakllantirish hamda muqobil rivojlantiruvchi mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli autizm, boshlang‘ich maktab yoshi, kognitiv rivojlanish, virtual bog‘liqlik, ijtimoiy-psixologik adaptatsiya, kommunikativ defitsit, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’siri, psixoprofilaktika, neyropsixologik holat, ekran vaqti.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние современных информационных технологий на психику детей младшего школьного возраста, в частности, рассматривается концепция «цифрового аутизма» и причины его возникновения. В работе освещены такие симптомы, как проблемы социальной адаптации, снижение коммуникативных способностей и дефицит внимания, возникающие вследствие чрезмерной привязанности к гаджетам. Также представлены практические рекомендации для родителей и педагогов по профилактике цифрового аутизма, формированию здорового отношения ребенка к технологиям и организации альтернативных развивающих занятий.

Ключевые слова: цифровой аутизм, младший школьный возраст, когнитивное развитие, виртуальная зависимость, социально-психологическая адаптация, коммуникативный дефицит, влияние информационно-коммуникационных технологий, психопрофилактика, нейropsixologическое состояние, экранное время.

Abstract: This article analyzes the impact of modern information technologies on the psyche of primary school children, specifically focusing on the concept of "digital autism" and its underlying causes. The study highlights symptoms such as social adaptation difficulties, decline in communication skills, and attention deficit resulting from excessive gadget dependency. Furthermore, practical recommendations are provided for parents and educators on preventing digital autism, fostering a healthy relationship between children and technology, and organizing alternative developmental activities.

Keywords: *digital autism, primary school age, cognitive development, virtual dependency, socio-psychological adaptation, communicative deficit, impact of information and communication technologies, psychoprophylaxis, neuropsychological state, screen time.*

Raqamli autizm — bu zamonaviy neyropsixologiyada keng muhokama qilinayotgan tushuncha bo‘lib, u bolaning raqamli texnologiyalar (smartfon, planshet, televizor) bilan haddan tashqari ko‘p muloqot qilishi natijasida kelib chiqadigan xulq-atvor buzilishlarini ifodalaydi. Ilmiy nuqtai nazardan, bu haqiqiy autizm (Kanner sindromi) kabi genetik tabiatga ega emas, balki ijtimoiy-sensorli mahrumlik (deprivatsiya) natijasidir. Ya‘ni, bola tashqi dunyodan uzilib, virtual olamga sho‘ng‘ishi oqibatida uning miyasidagi ijtimoiy muloqotga mas‘ul neyronsiz aloqalar shakllanmay qoladi.

Ushbu hodisani tizimli o‘rganish XXI asrning birinchi o‘n yilligida, axborot texnologiyalari maishiy hayotga keskin kirib kelgan davrda boshlandi. Atamaning ilmiy muomalaga kiritilishi ruminiyalik klinik psixolog Marius Zamfir nomi bilan bog‘liq. 2013-yilda u bolalar psixonevrologik shifoxonalariga kelayotgan bemorlar sonining keskin ortishini tahlil qilib, ularning ko‘pchiligida autizm belgilari borligini, lekin bu belgilar tug‘ma emas, balki gadjetlar ta‘sirida orttirilganini isbotladi.

Daslabki yirik tadqiqotlar G‘arbiy Yevropa va AQShda o‘tkazilgan bo‘lib, olimlar ekran qarshisida o‘tkazilgan vaqt bilan miyaning "oq moddasi" (axborot uzatish uchun mas‘ul) rivojlanishi o‘rtasida teskari bog‘liqlik borligini aniqlashdi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) tavsiyasiga ko‘ra, 2 yoshgacha bo‘lgan bolalarga ekran umuman tavsiya etilmaydi. Biroq, so‘nggi yillardagi global so‘rovnomalar (masalan, Common Sense Media tadqiqotlari) shuni ko‘rsatadiki, 0-2 yoshdagi bolalarning qariyb 40-50% qismi har kuni kamida 1 soat gadjetdan foydalanadi. M. Zamfirning 2012–2017 yillardagi klinik kuzatuvlari shuni tasdiqladiki, kuniga 4 soatdan ortiq vaqtini ekranga sarflaydigan bolalarda autistik spektr buzilishlari (ASD) xavfi 5 barobar yuqori bo‘ladi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, agar raqamli autizm belgilari 7 yoshgacha (miya plastikligi yuqori davrda) aniqlanib, texnologik cheklovlar o‘rnatilsa, bolalarning 90% ga yaqini ijtimoiy normal hayotga to‘liq qayta oladi. [7]

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida raqamli autizm belgilari ko‘pincha o‘quv faoliyati va tengdoshlar bilan muloqot jarayonida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu holat miyaning kognitiv funksiyalari virtual stimulyatsiyaga moslashib qolishi bilan izohlanadi.

Ushbu yoshdagi bolalarda raqamli autizmning birinchi belgisi — "ijtimoiy intuitsiya"ning yo‘qolishi. Bola tengdoshlari bilan o‘yin o‘ynashda qiyinchilikka uchraydi, chunki u jonli muloqotdagi norasmiy signallarni (yuz ifodasi, kinoya, imo-ishora) tushunish qobiliyatini yo‘qotadi. Ular ko‘pincha jamoaviy faoliyatdan chetlashadi va tanaffus vaqtida ham yolg‘izlikni yoki gadjet bilan vaqt o‘tkazishni afzal ko‘rishadi. Ko‘z aloqasining sustligi (eye contact) hamon asosiy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib qoladi.

Raqamli autizmga chalingan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqi o‘ziga xos "shablonli" xarakterga ega bo‘ladi. Ular o‘z fikrlarini mustaqil shakllantirishdan ko‘ra, ko‘p ko‘rgan videolari yoki o‘yinlaridagi tayyor iboralardan foydalanishni afzal ko‘radilar. Mantiqiy savollarga javob berishda qiyinchilik, mavhum tushunchalarni (masalan, do‘stlik, sadoqat) tushunmaslik va so‘z boyligining cheklanganligi kuzatiladi.

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

Eng xavfli belgilardan biri — diqqat konsentratsiyasining buzilishidir. Bola uzoq matnlarni o‘qishga yoki o‘qituvchining 10-15 daqiqalik ma’ruzasini tinglashga qodir bo‘lmay qoladi. Ularning miyasi faqat tez o‘zgaruvchan, yorqin va qisqa ma’lumotlarni (videoroliklar kabi) qabul qilishga moslashadi. Bu fanda "klip tafakkur" deb ataladi va o‘quv o‘zlashtirishining keskin tushib ketishiga sabab bo‘ladi. [2]

Raqamli autizm belgilari bo‘lgan bolalar real dunyodagi oddiy stimullarga (tashqi shovqin, oddiy ranglar) nisbatan ta’sirchan bo‘lib qoladilar yoki aksincha, hissiy sovuqlik namoyish etadilar. Gadget olib qo‘yilganda yoki internet uzilganda bolada agressiya, depressiv holat yoki nazorat qilib bo‘lmaydigan xavotir hissi paydo bo‘ladi. Bu ularning hissiy intellekti (EQ) rivojlanishdan to‘xtaganidan dalolat beradi.

Bunday bolalarda ko‘pincha mayda motorika rivojlanishi orqada qoladi (yozuvining tushunarsizligi, rasm chizishga bo‘lgan qiziqishning yo‘qligi). Shuningdek, uyqu buzilishi, doimiy charchoq va fazoviy orientatsiyaning (chap va o‘ngni adashtirish, jismoniy harakatlardagi noo‘quvlik) sustligi ham bilvosita belgilar hisoblanadi.

Raqamli autizmga qarshi kurashishda jahon miqyosidagi yondashuvlar shunchaki cheklov choralaridan iborat emas, balki bolaning miya faoliyatini sog‘lom ijtimoiy muhitga moslashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Quyida ushbu yo‘nalishdagi eng samarali metodikalar tahlil qilinadi.

Ijtimoiy-sensorli rehabilitatsiya va "3-6-9-12" konsepsiyasi

Fransuz olimi Serj Tisseron tomonidan taklif etilgan va Yevropa pediatriya assotsiatsiyalari tomonidan qo‘llab-quvvatlangan ushbu tizim boshlang‘ich maktab yoshidagi (6 yoshdan 9-12 yoshgacha) bolalar uchun raqamli vositalardan foydalanishning qat’iy chegaralarini belgilaydi. Tahlillarga ko‘ra, ushbu yoshda bolaning mustaqil ravishda internetdan foydalanishi uning ijtimoiy adaptatsiyasini 30-40% ga sekinlashtiradi. Profilaktikaning asosi sifatida bolaning internet olamiga faqat ota-ona bilan birga va "foydali kontent" orqali kirishi tavsiya etiladi. Bu jarayonda bola passiv kuzatuvchidan faol ishtirokchiga aylanadi, bu esa neyronlararo ijtimoiy bog‘liqlikni saqlab qoladi.

"Raqamli gigiyena" va neyrobiologik muvozanat

AQSh va Janubiy Koreya tajribasida keng qo‘llaniladigan "raqamli detoks" usuli miyadagi dofamin tizimini muvozanatlashga xizmat qiladi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, gadgetlardagi yorqin va tez o‘zgaruvchan vizual signallar bolada "sun‘iy dofamin" ajralishini ko‘paytiradi, natijada real hayotdagi oddiy muloqot va o‘qish jarayoni zerikarli bo‘lib tuyuladi. [1]

Ushbu holatga yechim sifatida "20-20-20" qoidasi (har 20 daqiqada 20 metr uzoqlikka 20 soniya qarash) va haftada kamida bir kunni "to‘liq gadjetsiz kun" deb e’lon qilishimiz mumkin. Ushbu metodika qo‘llanilganda, bolalarda diqqat konsentratsiyasi ko‘rsatkichi 2 oy ichida o‘rtacha 25% ga yaxshilanishi ilmiy isbotlangan. [4]

Strukturaviy muloqot va kognitiv stimulyatsiya

Isroil va Skandinaviya davlatlari ta’lim tizimida qo‘llaniladigan ushbu yondashuv "ekran vaqti"ni "so‘zlashuv vaqti"ga aylantirishni nazarda tutadi. Bunda bola har bir ko‘rgan videoroligi yoki o‘ynagan o‘yini haqida ota-onasi yoki pedagogiga tahliliy ma’lumot berishi shart. Bu usul bolaning mantiqiy tafakkurini (verbal-mantiqiy intellekt) faollashtiradi va raqamli autizmning asosiy belgisi bo‘lgan "nutqiy sustlik"ni bartaraf etadi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, tahliliy muloqot o‘rnatilgan

oilalarda bolalarning so‘z boyligi va kreativ fikrlash darajasi gadjetga qaram bolalarga nisbatan 2 barobar yuqori bo‘ladi.

Alternativ sensor faollik (Musiq va Sport terapiyasi)

Yaponiya maktablarida raqamli autizm profilaktikasi sifatida mayda motorikani rivojlantiruvchi an’anaviy san’at (origami, xattotlik) va jismoniy tarbiya uyg‘unligi qo‘llaniladi. Neyrofiziologik nuqtai nazardan, qo‘l barmoqlarining harakati nutq markazlarini rag‘batlantiradi. Kuniga kamida 45 daqiqa jismoniy faollik yoki ijod bilan shug‘ullanadigan bolalarda virtual olamga qochish istagi 60% ga kamayadi. Bu tanada kortizol (stres) darajasining pasayishi va ijtimoiy qoniqish hisining ortishi bilan bog‘liq.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, raqamli autizm — bu shunchaki gadjetlarga bog‘lanib qolish emas, balki o‘rib kelayotgan avlodning emotsional va ijtimoiy dunyosida yuzaga kelayotgan jiddiy "bo‘shliq" signalidir. Bizning tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, texnologiya bolaning qo‘liga tarbiyachi yoki ovunchoq sifatida berilar ekan, biz uning tabiiy rivojlanish neyronlarini o‘z qo‘limiz bilan "muzlatib" qo‘yamiz. Boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarda bu muammoni bartaraf etishning yagona va eng samarali yo‘li — texnologiyani taqiqlash emas, balki unga nisbatan madaniyatli munosabatni shakllantirishdir. Bola virtual dunyodan ko‘ra real dunyoning qiziqroq, rang-barangroq va his-tuyg‘ularga boyroq ekanligini his qilishi shart. Buning uchun esa biz, kattalar, avvalo o‘zimizning raqamli odatlarimizni qayta ko‘rib chiqishimiz, bolaga ekran qarshisida emas, u bilan ko‘zma-ko‘z turib muloqot qilish uchun vaqt topishimiz zarur. Zero, hech qanday mukammal dastur yoki sun‘iy intellekt jonli muloqotdagi mehr, ota-ona nigohi va jamoaviy o‘yinlar beradigan hayotiy tajribaning o‘rnini bosa olmaydi. Raqamli autizm profilaktikasi — bu shunchaki tartib-qoidalar majmuasi emas, balki bolaning sog‘lom va baxtli kelajagi uchun qo‘yilgan eng muhim sarmoyadir.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. American Academy of Pediatrics (AAP). (2016). Media and Young Minds. Council on Communications and Media. Pediatrics Journal.
2. common Sense Media. (2023). The Common Sense Census: Media Use by Kids Age Zero to Eight.
3. Kardaras, N. (2016). Glow Kids: How Screen Addiction Is Hijacking Our Kids - and How to Break the Trance. St. Martin's Press.
4. PubMed / MEDLINE Database. (2024). Research on "Digital Autism" and "Screen dependency".
5. Sigman, A. (2012). Time for a view on screen time. Archives of Disease in Childhood.
6. Tisseron, S. (2013). 3-6-9-12: Apprivoiser les écrans et grandir. Paris: Éditions Érès.
7. Zamfir, M. (2013). The "Virtual Autism" Phenomenon: The Impact of Screen Time on Child Development. Clinical Study, Bucharest.

**TALABALARDA AXBOROT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING
DASTURIY TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

Maxkamova Gulbahor Xamzayevna

O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, mustaqil izlanuvchi

E-mail: gulbahormahkamova21@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18675050>

Annotatsiya: *Axborot va bilimlar asrida zamonaviy jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab oluvchi raqamli transformatsiya jarayonining kuchayib borayotganligi yangi avlodning aqliy va ijtimoiy salohiyati shakllanishida axborot madaniyatini rivojlantirish masalasini juda muhim o‘ringa olib chiqmoqda. Universitet va oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalar – ilmga chanqoq, zamonaviy bilimlarni tezda o‘zlashtira oladigan, axborot erkinligini to‘g‘ri anglaydigan va undan oqilona foydalana oladigan insonlar bo‘lib shakllanishi uchun turli shakl va usullardan foydalaniladi. Shu jumladan, axborot madaniyatini oshirishda innovatsion texnologiyalar, zamonaviy dasturiy ta‘minot vositalari ham muhim o‘rin tutadi. Global axborot makonida ko‘plab yangi dasturlar, axborot tizimlari, raqamli resurslar paydo bo‘lishi oqibatida, talabalar hayotining barcha sohalarini yanada keng axborot oqimi bilan bog‘lanib bormoqda.*

Kalit so‘zlar: *axborot madaniyati, dasturiy ta‘minot, raqamli texnologiyalar, ta‘lim jarayoni, axborot xavfsizligi, o‘quv platformalari, elektron resurslar, zamonaviy dasturlar, axborot boshqaruvi, bilimlarni rivojlantirish.*

Аннотация: *В век информации и знаний нарастающий процесс цифровой трансформации, охватывающий все стороны жизни современного общества, выводит вопрос развития информационной культуры на очень важное место в формировании психического и социального потенциала нового поколения. Используются различные формы и методы, чтобы сформировать студентов, обучающихся в университетах и высших учебных заведениях, – людей, жаждущих науки, способных быстро усваивать современные знания, правильно понимающих свободу информации и умеющих ее рационально использовать. В том числе инновационные технологии, современные программные средства также играют важную роль в повышении информационной культуры. В результате появления в мировом информационном пространстве множества новых программ, информационных систем, цифровых ресурсов все сферы студенческой жизни становятся связанными более широким потоком информации.*

Ключевые слова: *Информационная культура, программное обеспечение, цифровые технологии, образовательный процесс, информационная безопасность, образовательные платформы, электронные ресурсы, современные программы, Управление информацией, развитие знаний.*

Abstract: *The growing process of digital transformation, which covers all aspects of the life of modern society in the age of Information and knowledge, brings to a very important place the issue of the development of Information Culture in the formation of the mental and social potential of the new generation. Various forms and methods are used to form students studying at universities and*

higher educational institutions – people who are thirsty for science, who can quickly master modern knowledge, correctly understand the freedom of information and be able to use it wisely. Innovative technologies and modern software tools also play an important role in increasing Information Culture. As a result of the emergence of many new programs, information systems, digital resources in the Global information space, all areas of Student Life are becoming associated with a more extensive flow of information.

Keywords: *Information Culture, software, digital technology, educational process, information security, educational platforms, electronic resources, modern programs, Information Management, Knowledge Development.*

Dasturiy ta'minot vositalarining o'zi esa, axborotni yig'ish, saqlash, tartibga keltirish, tahlil qilish va uzatishda asosiy rol o'ynaydi. Axborot madaniyatining rivojlanishi, birinchi navbatda, axborot jamiyatining poydevori sifatida xizmat qiluvchi texnologik vositalardan samarali foydalanishni talab qiladi. Shu bois dasturiy ta'minotni takomillashtirish, uni zamonaviy talab va ehtiyojlarga moslashtirish – talabalarning ilmiy va kasbiy faoliyatda raqobatbardosh bo'lishida asosiy omillardan biri hisoblanadi. Yangi o'quv yili boshlanishi bilan, aksariyat talabalar zamonaviy texnologiyalardan, onlayn resurslardan, axborot tizimlaridan foydalanish jarayoniga to'liq kirib boradi va bu esa ularning bilim doirasini kengaytiradi, tanqidiy fikrlash va axborotni saralab tanlash ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Dasturiy ta'minot vositalarini takomillashtirish borasida asosiy e'tibor, avvalo, o'quv jarayonining samaradorligini oshiruvchi platformalarga qaratiladi. Yangi dasturlar yaratilishda, foydalanuvchi uchun qulay interfeys, moslashuvchanlik, tezkor axborot izlash imkoniyati, zamonaviy filtrlash va saralash tizimlarini qo'llash, ma'lumotlarni tahliliy ko'rinishda taqdim etish, havfsizlik talablariga rioya etish va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish funksiyalari keng joriy qilinadi. Axborot madaniyatini shakllantirishda dasturiy ta'minotning ijtimoiy ahamiyati ham muhim rol o'ynaydi. Zero, barcha talabalarga yagona axborot maydonidan foydalanish uchun sharoit yaratish, teng imkoniyatlar ta'minlanishda dasturiy ta'minotning ilg'or imkoniyatlari zarur bo'ladi [1].

Yangi avlod dasturiy mahsulotlari orqali axborotni tartibga solish, uni manbalar bo'yicha ajratish, kerakli axborotni tez topish va undan to'g'ri foydalanish kabi ko'nikmalar kuchayadi. Turli xil elektron kutubxonalar, ochiq ma'lumotlar bazalari, o'quv-litsenzion dasturlar keng joriy qilinmoqda va bu resurslardan foydalanish talabning o'z ustida ishlashiga sharoit yaratayotir. Axborotlarni izlash, tahlil qilish, qayta ishlash va ularni tanishtirishda eng zamonaviy dasturiy ta'minot vositalari ilmiy izlanishlarda, har tomonlama mustaqil o'qish va saviya oshirishda ajralmas yordamchiga aylanmoqda. Dasturiy ta'minotning zamonaviy ko'rinishi – foydalanuvchi ehtiyojiga tez javob beruvchi, zamonaviy o'zgarishlarga moslashuvchi, ko'p funksiyali va samarali ishlaydigan tizimlar orqali ko'rinadi. Axborot madaniyatini shakllantirish jarayonida bu tizimlardan foydalanish orqali talaba axborotni ilmiy manbalardan saralab, ularning ishonchligini tahlil qiladi, ma'lumotlarning dolzarbligini aniqlaydi va ularni to'g'ri talqin qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi. O'quv jarayonida kiritilgan zamonaviy dasturiy mahsulotlar natijasida axborotlarni tartibga solish, o'qituvchilar va talabalar o'rtasida axborot almashinuvi, tezkor tahliliy natijalar olish va ma'lumotlardan samarali foydalanish mumkin bo'ldi. Ilmiy izlanishlarda yangi dasturiy ta'minotlar

fan sohasida dolzarb muammolarni hal qilishda keng imkoniyat yaratadi. Talabalar bu dasturlar yordamida ilmiy izlanishlari uchun zarur axborotlarni tez Topa olishi, o‘z ishlanmalarini tartibga solishi va natijalarini umumlashtirishi mumkin. Bugungi kunda axborot madaniyatining dasturiy asoslari yaratilmoqda va bu sohada olib borilayotgan izlanishlar talabalarni mustaqil tahliliy fikrlashga, axborotlarni filtrlash va ularni funktsional tarzda tartiblashga, ma’lumotlar bilan samarali ishlashga yo‘naltirmoqda [2].

Alohida ta’kidlash joizki, dasturiy ta’minotlarni takomillashtirish faqatgina ilmiy va o‘quv sohasida emas, balki talabalar shaxsiy taraqqiyotida ham muhim omil hisoblanadi. Axborot makonining tezkor kengayishi, ma’lumotlar oqimining ko‘pligi sharoitida, insonni axborot xurujlaridan himoya qilish, ishonchsiz manbalardan uzoq yurish, soxta axborotlarni aniqlay bilish kabi muammolar dolzarblashdi. Zamonaviy dasturiy vositalar orqali bu muammolarni yengib o‘tish usullari ishlab chiqilmoqda. Aniqrog‘i, har bir talaba axborotni tanlab olish, undan tahlil va saralash asosida foydalanish, ishlatilayotgan dasturlar yordamida ilmiy erkinlik va mustaqil fikrlash imkoniyatini qo‘lga kiritmoqda. Axborot madaniyatini rivojlantirish yo‘lida dasturiy ta’minotni takomillashtirish nafaqat bilimlarni chuqurlashtiradi, balki talabalarning axborot muhofazasi, texnologiyalardan ongli foydalanish, axborotdan mohirona foydalanish ko‘nikmalarini kengaytiradi. Buning natijasida, axborot makoniga kirib borayotgan har bir talaba tezkor va to‘g‘ri qaror qabul qilish, o‘z ishlanmalarini zamonaviy standartlar asosida tartibga solish va namoyish etish, ilmiy izlanishlarni axborot resurslari orqali boyitish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Dasturiy ta’minotni takomillashtirishda ayniqsa, zamonaviy telekommunikatsiya vositalari, bulutli texnologiyalar, elektron ta’lim va masofaviy o‘qitish tizimlari, mobil ilovalar, virtual laboratoriyalar va interaktiv platformalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Har bir talaba uchun axborotdan foydalanishda qulaylik va ilmiy aniqlik, axborotga tezkor kirish, ma’lumotlarni to‘plab va qayta ishlashda yuqori aniqlik – hozirgi zamon tahlillarining eng asosiy talablari bo‘lib qolmoqda. Dasturiy mahsulotlardagi zamonaviy interfeyslar, interaktiv darsliklar, onlayn kutubxonalar, multimediamiy resurslar, elektron testlar va boshqa ko‘plab imkoniyatlar axborot madaniyatining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi [3].

Ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida talabalar uchun yaratilayotgan barcha qulayliklar, axborot manbalarining ko‘pligi, dasturiy vositalarning keng imkoniyatlari mavjud axborotlarni oqilona saralash, ularni qayta ishlash va samarali ishlatishga, zarur manbalardan foydalanish orqali o‘z ilmiy faoliyatini samarali tashkil etishga yordam bermoqda. Axborot madaniyati faqatgina texnologik vositalardan foydalanish emas, balki axborotdan foydalanishda axloqiy va huquqiy mas’uliyat, ma’lumotlarni himoya qilish va arxivlash, axborotni to‘g‘ri talqin qilish bilan ham bevosita bog‘liqdir. Axborotlarni tahlil qilish va ularni tizimli ravishda qayta ishlash jarayonida zamonaviy dasturiy mahsulotlarning roli tobora oshib bormoqda. Har bir talaba ilmiy izlanish yoki kundalik faoliyat davomida ko‘plab axborot manbalaridan foydalanadi va bu axborotlarni yagona tizimga solishga ehtiyoj sezadi. Ma’lumotlarni umumlashtirish, muhim qismlarini ajratib olish, ularni to‘g‘ri tartiblashtirish va ana shu natijalarni ilmiy yangilik sifatida ko‘rsatish uchun zamonaviy dasturiy vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Axborotlarni kataloglashtirish va tez izlab topish imkoniyati, ularni mavzuga to‘g‘ri moslab saralab olish, oraliq va yakuniy natijalarni grafik ko‘rinishda olish imkoniyati aynan zamonaviy dasturiy ta’minotlar orqali amalga oshiriladi. Elektron platformalar

yordamida ta’lim olish, masofaviy va onlayn darslarda qatnashish, o‘qituvchi va kursdoshlar bilan bevosita muloqotda bo‘lish, virtual davralarda qatnashish va ilmiy izlanishlarni onlayn olib borish endi hayot tarziga aylanib bormoqda. Dasturiy vositalarning takomillashuvi natijasida ta’lim jarayonida ortirib borilayotgan har bir axborot foydalanuvchi ehtiyojiga moslab ishlab chiqiladi, yangi texnologiyalar tezkor va xavfsiz ishlashini ta’minlaydi. Har bir axborot mahsuloti foydalanuvchiga maksimal foyda keltirishi, o‘z qadriyatini oshirishi, ilmiy ishlar samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi [4].

Bugungi zamon talabiga ko‘ra, axborotlarni muntazam ravishda yangilash, mavjud dasturiy vositalarda yangiliklarni tez inkorporatsiya qilish, bilim manbalarini har tomonlama boyitish va ularni global talablar asosida tashkillashtirish zarur. Har bir dasturiy mahsulotda erkin va shaffof foydalanish imkoniyati, yuqori darajadagi himoya va xavfsizlik, axborotni soddalashtirilgan usulda taqdim etish imkoniyatlari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Axborot madaniyatining yuqori darajada shakllanishi, so‘zsiz, dasturiy ta’minot sifatiga, innovatsion texnologiyalarning imkoniyatiga va talabalar tomonidan ulardan to‘liq va samarali foydalanishga bevosita bog‘liqdir [5].

Xulosa:

Talabalarda axborot madaniyatini rivojlantirishning dasturiy ta’minotini takomillashtirish zamonaviy bilim va raqobatbardosh avlodni tarbiyalashda, ular orasida axborot manbalaridan to‘g‘ri va samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishda buyuk ahamiyatga egadir. Dasturiy ta’minotni takomillashtirish ilmiy va ijodiy bilimlarni boyitadi, axborotdan oqilona va mas’uliyatli foydalanishga asos soladi, zamonaviy talabning axborot madaniyatidan xabardor bo‘lishini, uni mustaqil va tizimli tahlil qila olishini ta’minlaydi. Axborot madaniyatining poydevorini mustahkamlash, ayniqsa, ilg‘or dasturiy mahsulotlarni yaratish, ularning imkoniyatlarini kengaytirish va talabalar ongiga axborotdan to‘g‘ri foydalanish madaniyatini singdirish bugungi kunning dolzarb vazifasi bo‘lib qolmoqda. Shu bois, dasturiy ta’minotni takomillashtirish, uni zamonaning eng yetuk yutuqlari asosida qurish, talabalarning ilmiy va amaliy faoliyatida axborotlarni samarali boshqarish imkoniyatini yuqori bosqichga olib chiqish zamonaviy taraqqiyotning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonova, G. (2019). “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot madaniyati.” O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi axborotnomasi, 15(2), 112-117.
2. Aminova, Z. (2021). “Talabalarda axborot madaniyatini shakllantirishning zamonaviy metodlari.” Yosh olim—2021: Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 248-251.
3. Berdiyeva, S. (2020). “Axborot madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy dasturiy vositalarning o‘rni.” Ilmiy tadqiqotlar, 9(4), 90-94.
4. Botirov, A. (2018). “Raqamli texnologiyalar va axborot madaniyati.” Zamonaviy ta’limda axborot texnologiyalari, 3(1), 44-49.
5. Eshonqulov, F. (2017). “Axborot madaniyatini rivojlantirish masalalari.” O‘qituvchi, 6(1), 80-84.
6. Hamroyev, N. (2020). “Dasturiy ta’minot asosida axborot madaniyatini takomillashtirish.” Pedagogika va psixologiya, 7(5), 74-78.
7. Karimova, M. (2021). “Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi ahamiyati.” Ilmiy tadqiqotlar, 8(2), 101-104.

DAVLAT BOSHQARISHDA FAOL ISHTIROK ETGAN MALIKALAR

Xudoberdiyeva Madinabonu

Namangan davlat pedagogika instituti Tarix yo‘nalishi 3- bosqich talabasi

E-mail: madinaxudoberdiyeva5@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18675063>

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tarixiy jarayonlarda davlat boshqarishda faol ishtirok etgan Temuriy sulolasi, Boburiy sulolalar davrida yashab ijod qilgan siyosiy va madaniy hayotga hissa qo‘shgan malikalar hayoti va faoliyati yoritilgan. Xususan Saroymulk xonim, Shodimulk begim, Jahonoro begim, Qabaj xotun kabi malikalarning siyosat maydoniga kirib kelishi va boshqaruvda tutgan o‘rni haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Temuriy malikalar, saroy xonimlari, Shodimulk begim, Gavharshod begim, Mohlaroyim, Nodirayi davron, ijtimoiy hayotda ayollar, o‘rta asr malikalari.*

Аннотация: *В данной статье освещается жизнь и деятельность представительниц династии Тимуридов и династии Бабуридов, которые активно участвовали в государственном управлении в исторические периоды и внесли значительный вклад в политическую и культурную жизнь общества. В частности, рассматриваются вопросы вхождения в политическую сферу и роли в управлении таких представительниц, как Сароймульк ханым, Шодимульк бегим, Джаханара бегим, Кабадж хатун и другие.*

Ключевые слова: *тимуридские принцессы, придворные ханым, Шодимульк бегим, Гавхаршод бегим, Мохларойим, Нодирайи даврон, женщины в общественной жизни, средневековые правительницы.*

Abstract: *This article highlights the life and activities of the princesses of the Timurid and Baburid dynasties who actively participated in state governance during historical periods and made significant contributions to political and cultural life. In particular, it discusses the entry of figures such as Saroymulk Khanum, Shodimulk Begim, Jahanara Begum, and Qabaj Khatun into the political sphere and their roles in governance.*

Keywords: *Timurid princesses, court ladies, Shodimulk Begim, Gavharshod Begim, Mohlaroyim, Nodirayi Davron, women in social life, medieval queens.*

Tarixni o‘rganib uni yoritib borar ekanmiz ko‘plab shohlar, sarkardalar, shahzodalar va davlat arboblari o‘qib o‘rganib boramiz biroq, davlat boshqaruvida faol ishtirok etgan malikalar ham mavjud bo‘lib, ular ko‘pincha keng o‘rganilmaydi. Ularning bazilari yillab davlatni taxtda o‘tirib adolat ila boshqargan bo‘lsa, bazilari yosh farzandi taxtga chiqqanligi uchun u ulg‘ayguncha regent sifatida davlatni boshqargan. Ular davlat boshqaruvida, diplomatiya, iqtisodiy islohotlarda, xalq manfaatlarini himoya qilishda va xatto urushlarda sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan.

Turli davrlarda mamlakatni boshqargan malikalar To‘maris, Buxoro xonligini boshqargan Qabaj xotun, Qo‘qon xonligida faol bo‘lgan Mohlaroyim (Nodirabegim), Temuriy malikalardan Saroymulk xonim, Shodimulk begim, Oltin O‘rda xonligida Tulunbeg xonim, Turkon xotun va

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

Boburiy malikalardan Mohimbegim, Xadichabonu, Jahonoro begim va Zebuniso begim kabi ayollar o‘z davrining siyosiy sohasida muhim o‘rin tutgan.

Bularning tarix sahnasida qanday o‘rin egallagani va o‘z davrida siyosatni va davlatni qanday olib borgani, siyosat maydoniga qanday kirib kelganini o‘rganadigan bo‘lsak, avvalo Qabaj xotundan boshlasak: Xunak xotun VII asrning oxirlarida Buxoroda hukmdor bo‘lgan malikalardandir. U manbalarda Qabaj xotun, Xo‘tak xotun yoki Xotun nomlari bilan keltiriladi. Ushbu malika Buxoro tarixiga oid yozma manbalar orqali bizgacha malum bo‘lgan mahalliy malikalardan biridir. Biroq Xunak xotun xaqida malumotlar kam, ular orasida eng mukammalrog‘i Muhammad ibn Ja‘far (an-Narshaxiy) ning “Tarixi Buxoro “ (Buxoro tarixi) asarida keltirilgan. Asarda Xunak xotun hukmronlik yillari hijriy yil hisobida 673-yil ya‘ni Grigoriy yil hisobi bo‘yicha 680- 695-yillar deb keltiriladi. Eri vafot etgandan so‘ng taxtga chiqqan o‘g‘li yosh bo‘lganligi uchun uning o‘zi Buxoroni 15-yil boshqargani haqida manbalarda keltirilgan.

Ushbu asarda Muhammad ibn Ja‘far bu malika haqida yana ushbu malumotlarni keltiradi: “Bidun Buxorxudot o‘lgan vaqtda undan bir emadigan o‘g‘il bola qoldi, uning ismi Tag‘shoda edi, bolaning onasi bo‘lgan malika taxtga chiqdi va o‘n besh yil hukmronlik qildi ”- deb aytib o‘tgan. [1]

Keyingi malika Oltin O‘rda xonligidan Tulunbeg xonum bo‘lib, u tarixda Oltin O‘rdaning noyob ayol hukmdori bo‘lib tanilgan. Tulunbegumning kelib chiqishi va shaxsi haqida aniq malumotlar keltirilmagan. U haqidagi malumotlar kam bo‘lib, Tulunbegum oltin O‘rdaning og‘ir davrida malika edi, u o‘z nomini 1370- 1371-yillarda Saroy va Moxshida zarb qilingan tangalarga yozib qo‘ygan. U qisqa muddat xon bo‘lgan bo‘lsada, biroq aynan u “xon” darajasiga ko‘tarilgan yagona ayoldir.

Tulun begu xonimdan keyin siyosat maydonini yoritadigan malika Turkon xotun bo‘lib, u Anushtegin asos solgan xoramzshohlar sulolasining so‘ngi hukmdori Alouddin Muhammad xorazmshoh (1200-1220) ning onasi, Juvayniyning takidlashicha Turkon xotun Qang‘li urug‘idan bo‘lgan xon Aqran (Jonkishi) ning qizi edi. Tarixiy manbalarda Sulton Muhammad hukmronligi davrida Turkon xotun davlat ishlarida yetakchi mavqeni egallagan. Uning farmoyishlari va maslahatlari o‘g‘li tomonidan so‘zsiz bajarilgan. Turkon xotunning rahnamoligida saroy ahli, zodagonlar bir necha guruhga bo‘linib, o‘zaro adovat qilgani aytiladi. Bundan tashqari Qippchoqlardan tashkil etilgan oliy martabali sarkardalar Turkon xotun bilan yaqin bo‘lib, aksariyati saroyda sultonga qarshi bo‘lib turgan biron bir guruhga rahbarlik qilganlar. Bazi manbalarda yana shunday takidlanadiki o‘sha paytda taxtda xon tursada, ko‘pgina asosiy ishlarni Turkon xotun hal qilardi. Saltanat deyarli Turkon xotun tomonidan boshqarilgan. Ko‘p hollarda Muhammad Xorazmshoh tarafidan e‘lon qilingan hukm va farmoyishlar Turkon xotun tomonidan hech asossiz, kengashsiz bekor qilinar edi. Uning siyosat maydonidagi ro‘lini shundan ham bilib olsa bo‘lardir. [2]

Keyingi malika Qo‘qon xonligida hukm surgan Mohlaroyim (Nodirabegim) bo‘lib, o‘sha davrda Qo‘qon xonligi Olimxon tomonidan boshqarilar edi. Uning ukasi Umarxon esa Farg‘ona vodiysining nufuzli shaharlaridan biri-Marg‘ilonda hokim edi. Bir-birlariga ko‘ngil qo‘ygan Umarxon va Mohlaroyim 1807- yil turmush quradilar. Oradan ko‘p o‘tmay Qo‘qon xonligidagi mutassil ziddiyatdan so‘ng 1810-yil Olimxon qatl etilib, uning o‘rniga Umarxon taxtga o‘tiradi. Aynan shu yillarda Nodirabegimning keng miqyosda ijod bilan shug‘ullanish davri boshlanadi.

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

Nodira Qo‘qonda xon saroyida bo‘lgani uchun davlat ishlaridan ham habardor bo‘lib borardi. Mohlaroyim va Umarxon oilasida ikki o‘g‘il Muhammad Alixon va Sulton Maxmudxonlar tug‘iladi. 1822-yili Umarxon bevaqt vafot etadi. Shundan so‘ng taxtga o‘g‘li yosh Muhammad Alixon keladi. Nodira ham o‘g‘li bilan birgalikda hokimiyatni boshqarish ishlarida faol ishtirok eta boshlaydi. Nodira boshqaruvidagi mamlakat tinch edi. Bundan tashqari, qo‘shni o‘lkalar bilan savdo-sotiq va boshqa sohalarda turli kelishuvga erishildi. U nafaqat siyosat va balki qurilish sohasida ham ilg‘or va tashabbuskor bo‘lgan. Nodira bilan zamondosh qozi Abdunabi xotif u haqidagi xotiralar va shoiraning hayoti hamda ijtimoiy faoliyatiga bag‘ishlab doston yozadi. Asarda Nodirabegimni “Nodirayi davron” bo‘lib tanildi va xalqlar tahsiniga sazovor bo‘ldi deydi, albatta bu asar tugallanmagan hisoblanadi. [3]

Temuriy malika saroyimulk xonim u chig‘atoy ulusiga mansub xonlardan biri Qozonxonning qizi bo‘lib, 1341-yil tavallud topgan. Balog‘atga yetgach Movarounnahr hukmdori Amir Qozonxonning nabirasi Amir Husaynga turmushga chiqadi. 1370-yilda amir Husaynning Balx jangidagi vafotidan so‘ng 29 yoshli Saroyimulkxonimni Amir Temur nikohiga oladi. Yuksak insoniy fazilatlarga egaligi tufayli Saroyimulkxonim Amir Temur ahli ayollari-malikalarining ulug‘iga aylanadi hamda “Katta xonim” yohud “Bibixonim” mavqei

ga ega bo‘ladi. U o‘z zamonasida nafaqat idrokli, farosatli balkim husnu-latofatda ham benazir bo‘lgan. Mamlakatning ijtimoiy va madaniy qurilish ishlariga boshchilik qilgan. Saroyimulkxonim Samarqanddagi xozirgi jome masjidining kun chiqar tomonidan madrasa qurdiradi. Madrasa nihoyatda mahobatli bolib, Amir Temur qurdirgan jome masjidiga tutash bo‘lgan. Bundan tashqari Saroyimulkxonim sohibqiron Amir Temurning harbiy yurishlarida ko‘pincha hamrohlik qilgan. Bibixonim saltanatni boshqarishda vujudga kelgan ayrim muammolarni hal qilishda o‘zining oqilona maslahatlari bilan faol qatnashgan. Amir Temur Bibixonimga oshkora bo‘ysunmasada, biroq uning oqilona maslahatlariga o‘zida qandaydir ehtiyoj sezib turgan. Bibixonim siyosatdan tashqari o‘zi farzand ko‘rmagan bo‘lsada, sohibqiron o‘z nabiralari Muhammad Sulton, Xalil sulton, Ulug‘bek va boshqa mirzolari Bibixonim tarbiyasiga topshirgan edi.

Keyingi Temuriy malika Gavharshodbegim Amir Temurning to‘rtinchi o‘g‘li Shoxruh Mirzoning suyakli katta xonimi edi. Gavharshodbegim 1379-yil tug‘ilib 1393-yil Shoxruh mirzoning nikohiga kirgan, undan uch o‘g‘il va ikki qiz ko‘rgan. To‘ng‘ich o‘g‘li- Muhammad tarag‘ay (1394-1449) o‘rtancha o‘g‘li-Boysung‘ur Mirzo (1397-1433) kichik o‘g‘li Mirzo (1401-1445) lardir. Manbalarda uning ikki qizi borligi aytiladi biroq ular haqida malumotlar keltirilmagan. Shoxruh Mirzo ko‘p vaqtini toat- ibodatga va kitob o‘qishga sarflaydi. Saltanat, devon ishlarini xotini Gavharshodbegim boshqaradi. Amir Temur vafotidan so‘ng sekin asta saltanatni qo‘lga olgan Shoxruh mirzoning o‘zi ham malikaning donoligiga, oqilligiga tan berar, uning maslahatlariga o‘zida ehtiyoj sezar edi. Gavharshodbegim viloyatga hokim tanlash va uni tayinlash, qo‘shinga sarkarda tayinlash, hatto kimga qanday jazo berish ham malika ixtiyorida bo‘lgan. Masalan: 1440-yil 6-mayda mashhur Hirot tarixchisi Fasih Ahmad ibn jaloliddin Muhammad Xafofiy (1375-1442) Gavharshodbegimning g‘azabiga uchrab, ikki marotaba qisqa qamoqqa xukm qilinadi. [4]

Temuriy malikalardan yana biri Shodimulk begim haqida. Amir Temurning suyakli nabirasi Xalil Sulton Mirzo kunlardan bir kuni shahar chetidagi bog‘ko‘chadan otda o‘tib ketayotib Shodimulkga ko‘zi tushadi va sevib qoladi. Xalil Sulton (1384-1411) jasoratli, harbiy salohiyatga ega va istedodli yigit bo‘lgan. Balog‘atga yetgach uni aslzodaxonadondan bo‘lgan qizga uylantirishgan.

Undan bir o‘g‘li ham bor edi. Ammo Shodimulkni sevib qolgach o‘z zamonasining tamoyiliga qarshi o‘laroq shu qizga uylanadi. Bunday “Tengsiz” nikohga Temur va uning avlodlari qarshilik ko‘rsatadi. Amir Temur vafotidan so‘ng 1405-yil mart oyida Xalil Sulton Mirzo Samarqand taxtiga o‘tiradi. U saltanat boshqarishda adolatni mezon qilib mamlakat ichki va tashqi ahvolini yaxshilash choralari izlaydi, lekin xotini Shodimulk begimning saltanat ishlariga faol aralashuvi o‘laroq, bu holat arkoni davlat orasida noroziliklar kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Shodimulk begim Temurning barcha beva xotinlari-yu kanizlarini harbiy boshliqlar va amaldorlarga inom qilish haqida XalilSultoni ko‘ndiradi. 1406-yil Temurning beva xotini Tuman og‘o begimni amir shayx Nuriddinga xotinlikka beradi. Ibn Arabshohning ma‘lumot berishicha saroymulxonim bilan To‘kal xonimlar Shodimulk begimning maxfiy buyrug‘iga binoan o‘ldirilgan. Xazina va davlat ishlariga Shodimulk begimning aralashuvi battar kuchayadi. Shodimulk begimning hohish irodasiga binoan quyi tabaqaga mansub kishilar yuqori tabaqalarga ko‘tariladi. Shunday bo‘lsada, hokimiyati unchalik uzoq cho‘zilmaydi. 1411-yil 4-noyabr chorshanba kuni Xalil Sulton Mirzo Ray shahrida betob bo‘lib vafot etadi. Shundan so‘ng 1411-yil oxiriga kelib, Shodimulk xonim zaharlab o‘ldiriladi.

Boburiy sulolasi malikalari haqida Gulbadan begim o‘z asarida yani “Humoyunnomada” “Boburning sevimli xotini Mohimbegim saroy ayollari ichida eng dono va bilimdoni bo‘lib, ichki va tashqi siyosat bobida shohga o‘rinli maslahatlar berib turgan. Keying malika Akbarshohning onasi Xadichabonu davlat ishlarini boshqarishda faol ishtirok etib, katta obro‘ - etiborga sazovor bo‘lgan”. Umuman, Boburiy malikalar orasida Jahonarobegim, Arjumandbonu, Nurjahonbegim, Zebunisodek oqila ayollar nafaqat davlat boshqaruvida faol ishtirok etgan balki, sanat, adabiyot, ilm- fan va madaniyat rivojiga ham munosib hissa qo‘shgan.

Boburiy malikalardan yana biri Jahonorobegim-u shoira bo‘lib, Shohjahonning kata qizi. Onasi Mumtoz Mahal begimdir, u husn- latofatda, aql-idrokda, va ilmu-odobda Benazir bo‘lgan. Jahonorobegim oilada aka-uka kelishmovchiklari, otasi bilan ukasi Avrangzeboralarida kelib chiqadigan mojarolarni ustalik bilan bartaraf qilar edi. Jahonorobegim saltanat ishlarini boshqarish, ichki va tashqi siyosat hamda diplomatiya masalarida o‘zining oqilona maslahatlari bilan otasiga ko‘maklashgan. Saltanat siyosatiga tasir qiladigan katta vakolatlarga ega bo‘lgan. Shu bilan birga me‘morchilik, obodlashtirish ishlariga rahnamolik qilgan. Agrada qurilgan jome masjidining Tarhini Jahonorobegim chizgan. Shuningdek Dehli, Surat, Ambola, Behal va Panipat shahrlarida karvonsaroylar qurdirgan. Lahurda katta bog‘ va Kashmirda “Pari Mahal” (Parilar saroyi) bunyod ettirgan.

Zebuniso begim Zahiriddin Muhammad Bobur podshohning pannevarasi Abu Zafar Muhiyiddin Muhammad Avrangzeb (taxtbezagi) Olamgirning qizi. Uning onasi Dilrasbonu Shohnavozxonning qizi bo‘lib, Boburning Gulbadan begim ismli qiziga borib tutashadi. Zebuniso begim (1048 hijriy yil shavvol oyi) 1639 yil milodiy, fevral oyida Dehlida tug‘ilgan. Uning otasi Avrangzeb (1618-1707) yoshligidanoq dindorligi bilan nom chiqargan edi. Zebuniso begim o‘z zamonasining fozila ayollaridan Hafiza Maryam Bonu qo‘lida savod chiqargan. Otasi Zebunnisoning shoirlik iste‘dodini payqab, unga o‘z davrining yetuk olimlaridan Mullo Muhammad Ashraf Isfahoniy va Mullo Jovonni muallim qilib tayinlaydi. Zebunniso begim zabardast shoira, yetuk olima, usta tanbur chertuvchi sozanda va mohir xattot bo‘lib yetishadi. Arab-fors tillarining sarfu nahv

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

(morfologiya va sintaksis)ini, fiqh (qonunshunoslik), mantiq, falsafa, tarix fanlarini puxta o‘zlashtiradi. [5]

Tarix sahnasida davlat boshqarishda faol ishtirok etgan malikalar siyosiy, harbiy va diplomatik sohalarda muhim ro‘l o‘ynaganini ko‘rishimiz mumkin. Albatta ularning hammalari ham biz o‘ylaganimizdek adolatli bo‘lavermagan, ba’zilari shavqatsiz o‘z manfaati uchun bazan qiroлга qarshi guruhlariga ham rahnamolik qilgan. Biroq ko‘plari nafaqat sulola manfaatlarini himoya qilgan, balki davlat barqarorligi, hududiy yaxlitligi va ijtimoiy taraqqiyotini taminlashda katta hissa qo‘shgan. Ularning dono siyosati, qatiyatli va masulyatli qarorlari ko‘plab tarixiy jarayonlarning muvaffaqiyatli kechishiga sabab bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jumaniyozova F. Ilk “ turkon” xotun – Qabaj. Buxoroni boshqargan malika // <https://oyina.uz/uz/article/3288> (Murojaat qilingan sana: 15. 01. 2026)
2. Buniyodov Z. Anushtegin Xorazmshohlar davlati. – T. : Ochun, 1998. –B. 256
3. Qobilova Z. Amiriy. – T. : Sharq, 2008. – B. 11-12
4. Gulyamov, A. , & Xamidova, R. . (2025). Temuriy malikalar: Buyuk sulolaning unutilmas xonimlari. Modern Science and Research, 4(6), 460-467. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/scien ce-research/article/view/112318>
5. Yo‘ldashev B. Boburiy malikalar. - Toshkent, 2022. –B. 187
6. HISTORY OF THE MITANNI STATE. (2025). Western European Journal of Linguistics and Education, 3(03), 52-54. <https://westerneuropeanstudies.com/index.php/2/article/view/2178>

O‘ZBEKISTONDA O‘RTA TIBBIYOT XODIMLARI VA XOTIN-QIZLAR FAOLIYATI: MUSTAQILLIK DAVRIDA AHOLI SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISH TAJRIBASI

Ubaydullayeva Shahlo Abdullayevna

t. f. f. d (PhD), dotsent

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa

universitetining Harbiy aviatsiya instituti

tel: +998 (91) 947-47-33

E-mail: ubaydullayeva_shahlo@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0005-6941-7300>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18675096>

Annotatsiya: *Maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekistonda xotin-qizlar ishtirokida o‘rta tibbiyot xodimlarining aholi salomatligini muhofaza qilishdagi roli va samaradorligi tahlil qilingan. Hamshiralar va patronaj xizmatida faoliyat yurituvchi xotin-qizlar nafaqat davolash jarayonida, balki profilaktika va patronaj ishlarini tashkil etishda ham asosiy ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, qishloq va shahar tibbiyotida ularning xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishdagi roli, kasbiy malakasi va ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlanishi tahlil qilingan. Maqola natijalari asosida xotin-qizlarning o‘rta tibbiyotdagi ishtiroki samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *O‘rta tibbiyot xodimlari, hamshiralar, xotin-qizlar, aholi salomatligi, profilaktika, patronaj xizmati, O‘zbekiston.*

Аннотация: *В статье проанализирована роль и эффективность участия женщин в деятельности средних медицинских работников в охране здоровья населения в период независимости Узбекистана. Показано, что женщины, работающие в сестринском деле и патронажной службе, играют ключевую роль не только в процессе лечения, но и в организации профилактических мероприятий и патронажной работы. Также рассмотрены их вклад в повышение качества медицинского обслуживания в городских и сельских районах, профессиональная подготовка и социально-экономическая поддержка. На основе результатов исследования представлены практические рекомендации по повышению эффективности участия женщин в системе среднего звена здравоохранения.*

Ключевые слова: *Средние медицинские работники, медсестры, женщины, здоровье населения, профилактика, патронажная служба, Узбекистан*

Abstract: *The article analyzes the role and effectiveness of women’s participation among mid-level medical personnel in safeguarding public health in independent Uzbekistan. It demonstrates that women working in nursing and patronage services play a crucial role not only in the treatment process but also in organizing preventive measures and patronage activities. The study highlights their contribution to improving the quality of medical services in urban and rural areas, their professional qualifications, and socio-economic support. Based on the results, practical recommendations are provided to enhance the effectiveness of women’s involvement in the mid-level healthcare workforce.*

Keywords: *Mid-level medical personnel, nurses, women, public health, prevention, patronage services, Uzbekistan*

Kirish. Ma’lumki, har qanday davlatning sog‘liqni saqlash tizimi aholi salomatligini muhofaza qilish va barqaror demografik rivojlanishning asosiy kafolati hisoblanadi[6]. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda tibbiyot sohasini modernizatsiya qilish va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratildi. Shu jarayonda aholi salomatligini muhofaza qilishda xotin-qizlar, ayniqsa hamshiralar va patronaj xizmatida faoliyat yurituvchi o‘rta tibbiyot xodimlari muhim o‘rin tutadi. Tarixiy va zamonaviy tajriba shuni ko‘rsatadiki, shifokorlar belgilagan tashxis va davolash usullari amaliyotda ko‘p jihatdan hamshiralar va o‘rta tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Bunday holatda xotin-qizlar nafaqat davolash jarayonining samaradorligiga, balki profilaktika va patronaj ishlarining natijadorligiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Tarixdan ma’lumki, aholi salomatligini muhofaza qilishda o‘rta tibbiyot xodimlari hamshiralar, feldsherlar, doylar, laborantlar va dorishunoslar muhim o‘rin tutadi[1, 3, 6]. Bemorni davolash jarayonida shifokorlar kasallikka tashxis qo‘yish, davolash usul va vositalarini nazariy jihatdan belgilasa, o‘rta tibbiyot xodimlari mazkur chora-tadbirlarni bevosita amaliyotga tatbiq etish bilan shug‘ullanadi. Shu ma’noda hamshira shifokor va bemor o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida davolash jarayonining uzluksiz va samarali tashkil etilishida asosiy vositachi hisoblanadi. Davolanish natijadorligi ko‘p jihatdan hamshiraning kasbiy mahorati, tezkorligi hamda bemor bilan muloqot madaniyatiga bog‘liq bo‘ladi.

Muhokama va natijalar. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida o‘rta tibbiyot xodimlari sonining o‘sib borishi kuzatildi. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 1995 yilda 246 ming nafar o‘rta tibbiyot xodimi faoliyat yuritgan bo‘lsa, 1997 yilda bu ko‘rsatkich 256 ming nafarga, 2007 yilda 280 ming nafarga, 2009 yilda 305 ming nafarga, 2016 yilda 341 ming nafarga, 2019 yilda esa 366 ming nafarga yetgan[1]. Bu holat sog‘liqni saqlash tizimida kadrlar salohiyatini mustahkamlash va xizmat ko‘rsatish qamrovini kengaytirishga xizmat qildi.

O‘rta tibbiyot xodimlari tarkibida asosiy ulushni xotin-qizlar tashkil etuvchi hamshira va doylar egallaydi. Masalan, 1995 yilda respublikada 178 ming nafar hamshira faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 2004 yilga kelib ular soni 198 ming nafarga yetgan. Shu bilan birga, doylar sonida nisbatan kamayish kuzatilib, 1995 yilda 21 ming nafar bo‘lgan ko‘rsatkich 2001 yilda taxminan 20 ming nafar atrofida qayd etilgan[1]. Mazkur tendensiya kadrlar tarkibidagi o‘zgarishlar, tibbiy xizmat turlari va tashkil etish shakllarining yangilanishi bilan bog‘liq holda tahlil qilinishi mumkin.

Mustaqillik yillarida tibbiyot sohasini isloh qilishga qaratilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, sohada ishlovchi mutaxassislariga bo‘lgan e’tibor kuchaytirildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2002 yil 26 iyundagi “Tibbiyotda oliy hamshiralik ishi bitiruvchilarini ishga yo‘naltirish to‘g‘risida”gi 300-sonli buyrug‘i asosida bitiruvchilarni ish bilan ta’minlash bo‘yicha tegishli tadbirlar amalga oshirildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 18 dekabrda “Tibbiyot xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 319-sonli qarori ijrosini ta’minlash yuzasidan ham amaliy ishlar tashkil etildi[3].

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2006 yilda sog‘liqni saqlash sohasida xizmat qilgan xodimlarning 70 foizidan ortig‘ini ayollar tashkil etgan. Xususan, 70 564 nafar shifokorning 38 278

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

nafari (54 foizi), o‘rta tibbiy ma’lumotga ega 261 900 nafar xodimning esa 90 foizi xotin-qizlar hissasiga to‘g‘ri kelgan[1]. Bu holat tibbiyot sohasida xotin-qizlar mehnati va ijtimoiy mavqeining yuqoriligini ko‘rsatadi.

Xotin-qizlar uchun qonunchilikda belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy imtiyozlar va kafolatlarni ta’minlashda ham tibbiyot muassasalarida jamoa shartnomalari va kelishuvlari orqali muayyan ijobiy ishlar amalga oshirildi. Masalan, 2006 yilda ko‘p bolali (to‘rt va undan ortiq bolali) 2890 nafar ayollarning ish haftasi oylik maoshi saqlangan holda 1 soatga qisqartirilib, bu maqsadga 28 million 327 ming so‘m mablag‘ sarflangan. Shuningdek, 2006 yil mart oyida Toshkent shahar sog‘liqni saqlash xodimlari kasaba uyushmasi tomonidan xotin-qizlarga tegishli imtiyoz va kafolatlarning bajarilishini ta’minlash maqsadida maxsus seminar o‘tkazilib, me’yoriy hujjatlar tarqatilgan. 2006 yil oxiriga kelib kasaba uyushmalariga a’zo bo‘lgan nodavlat tashkilotlar soni 384 tani tashkil etib, ularning 314 tasida jamoa shartnomalari qabul qilingan[2].

O‘rta tibbiyot xodimlarining katta qismini tashkil etuvchi hamshiralar mamlakatdagi davolash muassasalarining deyarli barchasida bemorlarga tibbiy xizmat ko‘rsatishda yetakchi bo‘g‘in sifatida namoyon bo‘ldi. Ayniqsa, qishloq joylarda, shifokorlar yetishmaydigan hududlarda hamshiralar aholini davolash, profilaktika ishlarini olib borish hamda patronaj xizmatlarini tashkil etishda asosiy mutaxassisga aylandi.

O‘rta tibbiyot xodimlarining faoliyatiga oid aniq misollar sifatida bir qator hududlarda xizmat qilgan hamshiralarning mehnat faoliyatini keltirish mumkin. Jumladan, Rishton tumani tibbiyot birlashmasi bosh hamshirasi Xursanoy Sharipova ko‘p yillar davomida soha rivojiga hissa qo‘shib, tuman qishloq shifoxonasida navbatchi hamshiralikdan boshlab, tuman markaziy shifoxonasida travmatologiya, operatsion, shoshilinch tez yordam va reanimatsiya bo‘limlarida katta hamshira vazifalarida samarali mehnat qilgan.

Zo‘rovon tumani tez tibbiy yordam bo‘limi hamshirasi Malikaxon Bo‘riboeva ham aholi salomatligini muhofaza qilishda faol ishtirok etgan. Uning ta’kidlashicha, tibbiy xizmatda kasbiy malaka bilan bir qatorda bemor bilan muomala madaniyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bemorlarning ruhiy holatini qo‘llab-quvvatlash, ularga mehr va ishonch bilan yondashish tibbiy muolajalar samaradorligini oshiradi.

Uchqo‘rg‘on tumani tibbiyot birlashmasi bosh hamshirasi Dildorxon Tuxpatullayeva fidoyiligi va kasbiy bilimdonligi bilan jamoada hurmat-e’tibor qozongan. U 1989 yildan tuman markaziy shifoxonasida katta hamshira sifatida ish boshlab, keyinchalik qon qo‘yish bo‘limi, tug‘ruqxona bo‘limi hamda tuman tibbiyot birlashmasida rahbar hamshira sifatida faoliyat yuritgan. Tumanda 38 nafar katta hamshira, 1559 nafar hamshira va 224 nafar patronaj hamshiraning ishini muvofiqlashtirish[4], ularning malakasini oshirish, tibbiy hujjatlar yuritilishi va xizmat sifati nazoratini ta’minlash kabi vazifalarni amalga oshirgan.

Quva tumanida ham birlamchi tibbiy xizmat tizimida profilaktika va patronaj ishlarini tashkil etishda xotin-qiz tibbiyot xodimlari muhim o‘rin tutgan. Tuman tibbiyot birlashmasi bosh hamshirasi Dildora Mamajonova sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish, aholini xatlovdan o‘tkazish va surunkali kasalliklarni barvaqt aniqlashga qaratilgan tadbirlarda faol qatnashgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, tumanda 238 mingdan ortiq aholi xatlovdan o‘tkazilib, 57 ming 345 nafar aholida surunkali kasalliklar

aniqlangan. Bunday keng qamrovli ishlar amalga oshirilishida hamshiralar xizmatining ahamiyati yuqori bo‘lgan.

To‘raoq‘rg‘on tumani misolida ham o‘rta tibbiyot xodimlarining roli yaqqol ko‘rinadi. Mustaqillik yillarida tumanda 227 mingdan ortiq aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish 5 ta oilaviy poliklinika, 7 ta oilaviy shifokorlik punkti, 230 nafardan ortiq shifokor va 2000 nafardan ortiq o‘rta tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshirilgan[5]. Tuman tibbiyot birlashmasi bosh hamshirasi Gulchehra Egamberdiyeva rahbarligida olib borilgan ishlar islohotlar samaradorligini ta‘minlashga xizmat qilgan.

Bag‘dod qishloq oilaviy shifokorlik punkti hamshirasi Dilfuzaxon Qoraboyeva esa bir necha mahallalarda yashovchi 16 308 nafar aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatib, profilaktika ishlarini yo‘lga qo‘ygan. Uning ma‘lumot berishicha, koronavirus infeksiyasiga qarshi kurashish hamda emlash jarayonlarini samarali tashkil etishga alohida e‘tibor qaratilgan bo‘lib, qishloq aholisining 80 foizi emlash tadbirlarida qatnashgan. Bu holat hamshiralar faoliyatining favqulodda vaziyatlarda ham jamiyat salomatligini saqlashda qanchalik muhim ekanini ko‘rsatadi.

Xulosa. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida aholi salomatligini muhofaza qilishda o‘rta tibbiyot xodimlari, ayniqsa xotin-qizlardan tashkil topgan hamshiralar va patronaj xizmatining ahamiyati keskin ortib bordi. Ularning sonining muntazam o‘sishi, kasbiy malaka va bilimlarini muntazam oshirish tizimining joriy qilinishi, shuningdek, qishloq hududlarida tibbiy xizmatning keng qamrovli ko‘rsatilishi aholi salomatligi uchun muhim omil bo‘ldi. Hamshiralar shifokorlar belgilangan tashxis va davolash usullarini bevosita amalga oshirish bilan bir qatorda, bemor bilan muloqotni ham samarali tashkil etishadi, shu orqali davolanish jarayonida psixologik qo‘llab-quvvatlashni ta‘minlaydilar. Bu esa davolash natijadorligini sezilarli darajada oshiradi.

Qishloq hududlarida shifokorlar yetishmasligi sharoitida hamshiralar asosiy tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi mutaxassisga aylanib, profilaktika va patronaj tizimini samarali tashkil etdilar. Ular orqali aholi salomatligini nazorat qilish, surunkali kasalliklarni barvaqt aniqlash, vaksinatsiya va epidemiologik xavfsizlikni ta‘minlash kabi muhim vazifalar mukammal bajarildi. Shuningdek, pandemiya va favqulodda vaziyatlar davrida hamshiralar aholi salomatligini muhofaza qilishda ilk va samarali javobgarlikni olib, tizimning barqaror ishlashini ta‘minlashda asosiy rolni o‘ynadilar.

Hamshiralar mehnatiga qaratilgan ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy rag‘batlar tizimining rivojlanishi, ularning kasbiy bilim va malakasini oshirishga yo‘naltirilgan tadbirlar, shuningdek, faoliyatini nazorat qilish va metodik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari aholiga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatishni ta‘minlaydi. Bu holat nafaqat aholi salomatligi, balki tibbiyot sohasining umumiy rivojlanishi, jamiyatda tibbiy kadrlarga bo‘lgan ishonchning mustahkamlanishi va sog‘liqni saqlash tizimi samaradorligining yuqori darajada bo‘lishida ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, hamshira va o‘rta tibbiyot xodimlari faoliyati orqali mamlakatning turli hududlarida tibbiy xizmat ko‘rsatishda barqarorlik va uyg‘unlik ta‘minlandi. Bu esa aholi salomatligini samarali muhofaza qilish va tibbiy yordamning doimiy, tizimli va zamonaviy uslubda tashkil etilishini ta‘minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda mustaqillik davrida hamshira va o‘rta tibbiyot xodimlarining roli nafaqat bemorlarni davolashda, balki aholi salomatligini barqaror muhofaza qilish, profilaktika ishlarini tashkil etish, tibbiy xizmat sifatini oshirish va tibbiyot sohasini modernizatsiya qilishda muhim omilga aylandi.

Taklif va tavsiyalar

1. Hamshiralar mehnatini moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, ayniqsa qishloq hududlarida ishlayotgan xodimlar uchun qo‘shimcha imtiyozlar joriy etish maqsadga muvofiq.

2. O‘rta tibbiyot xodimlari uchun qayta tayyorlash kurslarida “tezkor tibbiy yordam”, “epidemiologik xavfsizlik”, “psixologik muloqot” kabi yo‘nalishlarni amaliyotga asoslangan treninglar shaklida kuchaytirish zarur.

3. Shifokor yetishmaydigan hududlarda hamshiralarning vakolatlarini aniq belgilagan holda, ularning mustaqil xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini kengaytirish (protokollar asosida) aholi uchun tibbiy yordamni tezlashtiradi.

4. Pandemiya tajribasidan kelib chiqib, hamshiralarning sanitariya-epidemiologik tadbirlardagi ishtirokini institutsional jihatdan mustahkamlash, doimiy o‘quv mashg‘ulotlari va tezkor rejalarni ishlab chiqish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси статистик тўплами 2004. – Тошкент, 2005. – 396 б.
2. Бекмирзаев А. Ширинсўз ҳамшира // Тиббиёт ва замон, 2021, №5. –Б. 21.
3. Муравьёва Н. Ўзбекистон хотин-қизлари ижтимоий мақомини юксалтириш. – Тошкент, 2004. – 121 б;
4. Эргашева М. Юракни ёндирган яхшилик // Тиббиёт ва замон, 2021, №5. –Б. 26.
5. Эргашева М. Тўрақўрғон тиббиёти: илғор усуллар билан тараккиёт сари // Тиббиёт ва замон, 2021 йил 5-сон;
6. Jargin S. V. Some Aspects of Medical Education in Russia // American Journal of Medicine Studies, 2013;

KICHIK BIZNES SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA UMUMIY INDEKSDAN FOYDALANISH ZARURATI

Tojiyeva Muxabbatxon Mansurjon qizi

Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tayanch doktoranti

muhabbatxontojiyeva11@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18675117>

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik biznes subyektlari faoliyati samaradorligini baholash masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda kichik biznes samaradorligini aniqlashda qo‘llaniladigan an’anaviy ko‘rsatkichlarning cheklangan jihatlari asoslab berilgan hamda ularni bartaraf etishda umumiy (integral) indeks yondashuvidan foydalanish zarurati yoritilgan. Umumiy indeks asosida baholash kichik biznes faoliyatini ko‘p omilli va kompleks tahlil qilish imkonini berishi, shuningdek, hududiy iqtisodiy rivojlanish darajasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etishi ilmiy jihatdan asoslangan. Tadqiqot natijalari kichik biznes samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, samaradorlik, umumiy indeks, ko‘rsatkich, baholash, hududiy rivojlanish, zamonaviy yondashuvlar.

Аннотация: В данной статье исследуются вопросы оценки эффективности деятельности субъектов малого бизнеса. В работе обоснованы ограниченные возможности традиционных показателей, применяемых при определении эффективности малого бизнеса, а также раскрыта необходимость использования подхода на основе общего (интегрального) индекса для их преодоления. Научно обосновано, что оценка на основе общего индекса позволяет проводить многофакторный и комплексный анализ деятельности малого бизнеса, а также имеет важное значение для определения уровня регионального экономического развития. Результаты исследования могут служить методологической основой для разработки практических рекомендаций по повышению эффективности малого бизнеса.

Ключевые слова: малый бизнес, эффективность, общий индекс, показатель, статистическая оценка, региональное развитие, современные подходы.

Abstract: This article examines the issues of assessing the performance efficiency of small business entities. The study substantiates the limitations of traditional indicators used to evaluate small business efficiency and highlights the necessity of applying a general (integral) index approach to overcome these limitations. It is scientifically justified that assessment based on a general index enables a multifactor and comprehensive analysis of small business activities and plays an important role in determining the level of regional economic development. The research findings may serve as a methodological basis for developing practical recommendations aimed at improving small business efficiency.

Keywords: small business, efficiency, general index, indicator, statistical assessment, regional development, modern approaches.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida kichik biznes subyektlari milliy iqtisodiyotning barqaror o‘shishini ta’minlovchi muhim institutlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Kichik biznesning iqtisodiy faollikni oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi daromadlari darajasini yaxshilash hamda hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tutgan o‘rni tobora kuchayib bormoqda. Shu bois kichik biznes faoliyatining samaradorligini ilmiy asosda baholash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Amaliyotda kichik biznes samaradorligini aniqlash ko‘pincha alohida iqtisodiy va moliyaviy ko‘rsatkichlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Biroq bunday yondashuvlar kichik biznes faoliyatining murakkab va ko‘p qirrali xususiyatlarini to‘liq ifodalab bera olmaydi. Chunki kichik biznes samaradorligi faqat moliyaviy natijalar bilangina cheklanmay, ishlab chiqarish, mehnat resurslaridan foydalanish, investitsion faollik va bozor sharoitlariga moslashuv darajasi kabi omillar bilan ham belgilanadi[6].

Mazkur holatlar kichik biznes samaradorligini baholashda kompleks va tizimli yondashuvlardan foydalanish zaruratini yuzaga keltiradi. Xususan, turli ko‘rsatkichlarni yagona mezon asosida umumlashtirish imkonini beruvchi umumiy (integral) indeks yondashuvi kichik biznes faoliyatining real holatini yanada aniqroq baholashga xizmat qiladi[7].

Asosiy qism. Kichik biznes samaradorligini baholash masalasi iqtisodiy adabiyotlarda uzoq yillardan buyon muhokama qilinib kelinmoqda. An’anaviy yondashuvlarda samaradorlik asosan moliyaviy natijalar — foyda, rentabellik, tushum va xarajatlar nisbatlari orqali aniqlangan[3]. Biroq bunday yondashuvlar kichik biznes faoliyatining murakkab va ko‘p omilli xususiyatlarini to‘liq aks ettira olmaydi[2].

Zamonaviy boshqaruv amaliyotida korxonalar yoki tashkilot faoliyatini faqat moliyaviy natijalar orqali baholash yetarli emasligi ilmiy va amaliy jihatdan isbotlangan[9], [10]. Shu sababli so‘nggi yillarda dunyo tajribasida keng qo‘llanilayotgan yondashuvlardan biri bu — *Muvozanatli ko‘rsatkichlar tizimi* (Balanced Scorecard, BSC) hisoblanadi[4]. Ushbu yondashuv 1990-yillarda R. Kaplan va D. Norton tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u korxonalar faoliyatini faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar orqali emas, balki strategik maqsadlarni to‘rtta asosiy yo‘nalish: **moliyaviy natijalar, mijozlar qoniqishi, ichki jarayonlar hamda o‘shish va rivojlanish** nuqtayi nazaridan kompleks baholashga asoslanadi. Mazkur yo‘nalishlar o‘zaro integratsiyalashgan bo‘lib, korxonaning qisqa va uzoq muddatli maqsadlarini uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, BSC yondashuvi kichik biznes subyektlarida strategik rejalashtirish va faoliyat samaradorligini baholashning muhim vositasiga aylanmoqda.

BSC usuli rivojlangan davlatlarda korxonalar samaradorligini strategik boshqarish vositasi sifatida keng tatbiq etilib, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur kabi mamlakatlarda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida faol qo‘llanilmoqda. O‘zbekiston sharoitida esa bu yondashuv hali keng joriy etilmagan bo‘lib, ayniqsa kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini baholashda BSC imkoniyatlaridan foydalanish istiqbollari katta ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston olimlarining tadqiqotlarida ham kichik biznes samaradorligini alohida ko‘rsatkichlar asosida baholash masalalari keng yoritilgan[1], [5], [8], [11], [12]. Xususan, alohida ko‘rsatkichlar asosida olingan natijalar ko‘pincha bir tomonlama bo‘lib, real iqtisodiy holatni to‘liq

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

aks ettirmaydi. Shu bois integral indekslardan foydalanish kichik biznes rivojlanish darajasini aniqlashda muhim metodologik vosita sifatida qaralmoqda.

Mazkur tadqiqotda kichik biznes samaradorligini baholashda umumiy indeks yondashuvidan foydalanish taklif etiladi. Umumiy indeks quyidagi asosiy bosqichlar asosida shakllantiriladi:



Ushbu metodologiya kichik biznes subyektlari faoliyatini hududlar kesimida baholash, ularni qiyoslash va samaradorlik darajasiga ko‘ra guruhlash imkonini beradi.

Umumiy indeks asosida baholash kichik biznes samaradorligini aniqlashda bir qator ustunliklarga ega. Avvalo, bu yondashuv alohida ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi tafovutlarni yumshatadi va kompleks baholashni ta‘minlaydi. Ikkinchidan, umumiy indeks hududlar o‘rtasida kichik biznes rivojlanish darajasidagi farqlarni aniqlash imkonini beradi. Uchinchidan, mazkur yondashuv asosida iqtisodiy siyosatni takomillashtirishga qaratilgan aniq tavsiyalar ishlab chiqish mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes samaradorligini baholashda umumiy indeksdan foydalanish an‘anaviy yondashuvlarga nisbatan ancha samarali bo‘lib, iqtisodiy tahlil sifatini oshiradi.

Xulosa. Kichik biznes subyektlarining samaradorligi hududiy miqyosda bir xil emas. Bunga hududlarning iqtisodiy salohiyati, investitsiya oqimi, infratuzilma darajasi, mehnat resurslari sifati, bozor hajmi va boshqa ko‘plab omillar ta‘sir ko‘rsatadi. Hududlarda kichik biznes samaradorligini baholash nafaqat mavjud rivojlanish holatini aniqlash, balki kelgusida raqobatbardoshlikni oshirish bo‘yicha aniq strategik qarorlar qabul qilish imkonini ham beradi.

So‘nggi yillarda iqtisodiy tahlilda integral (umumiy) indekslardan foydalanish keng qo‘llanila boshladi. Integral indekslar turli o‘lchov birliklariga ega ko‘rsatkichlarni yagona mezonga keltirish orqali obyektlarni qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Hududlar va tarmoqlar kesimida olib borilgan tadqiqotlar umumiy indeks yondashuvi baholash natijalarining ishonchligini oshirishini ko‘rsatmoqda⁴.

Xulosa qilib aytganda, kichik biznes samaradorligini baholashda umumiy indeksdan foydalanish ilmiy va amaliy jihatdan asosli hisoblanadi. Integral yondashuv kichik biznes faoliyatini

ko‘p omilli va kompleks tahlil qilish imkonini beradi hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishni baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Arziqulov, O. (2025). Kichik biznes shoasining iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi statistik ko‘rsatkichlarni baholash. Yashil iqtisodiyot va rivojlanish, 3 (12). <https://doi.org/10.5281/zenodo.18087792>;
2. Christauskas, Č. , & Kazlauskienė, V. (2009). Modernių veiklos vertinimo sistemos įtaka įmonės valdymui globalizacijos laikotarpiu. Economics & Management
3. I. T. Abdulkarimov va N. V. Ten Эффективность и финансовые результаты хозяйственной деятельности предприятия: критерии и показатели, их характеризующие, методика оценки и анализа // Социально-экономические явления и процессы. 2011. №5-6. С. 11-21. ; Савицкая Г. В. Анализ эффективности деятельности предприятия: Методологические аспекты. М. : ООО «Новое знание», 2003. 159 с.
4. Kaplan R. S. , Norton D. P. (1996). Using the Balanced Scorecard as a Strategic Management System. Harvard Business Review. Vol. 74 (1), p. 75-85.
5. Mamadaliyev, D. (2024). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatida innovatsiyalarni qo‘llash usullari. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 13, 104–106. <https://doi.org/10.54613/ku.v13i.1034>
6. OECD. (2019). OECD SME and Entrepreneurship Outlook 2019. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/34907e9c-en>
7. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD), European Union, & Joint Research Centre. (2008). Handbook on constructing composite indicators: Methodology and user guide. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/9789264043466-en>
8. Oybekjon, A. , & Muxsinjon o‘g, M. M. Y. (2025). Kichik biznes va tadbirkorlikni samaradorligini oshirish uchun investitsiyani urni. World Scientific Research Journal, 46(3), 109-112. ;
9. Peleckis K. , Krutinis M. , Slavinskaitė N. (2013). Daugiakriterinis alkoholio pramonės įmonių pagrindinės veiklos efektyvumo vertinimas. [Multivariate assessment of the main activities of the alcohol industry], Verslo ir teisės aktualijos. Nr. 8, p. 1 – 16. <https://doi.org/10.5200/1822-9530.2013.1> ,
10. Tamošiūnienė R. , Šidlauskas S. , Trumpaitė I. (2006). Investicinių projektų efektyvumo daugiakriterinis vertinimas. Verslas: Teorija ir Praktika. Vol. 7 (4), p. 203-212
11. Tojiyeva, M. Farg‘ona Vodiysi Viloyatlarida Kichik Biznes Ko‘rsatkichlarining O‘zgarishi: Panel Regressiya Tahlili. Green Economy and Development, 3(5), 665546.
12. Qizi, T. M. M. (2025). Farg ‘ona vodiysi viloyatlarida kichik biznesning iqtisodiy ko‘rsatkichlari: qiyosiy tahlil. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (11), 2111-2123.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “PUL” KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Nasibboyeva Mukarrama Salimjon qizi

Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti Andijon fakulteti

Mutaxassislik, ijtimoiy - gumanitar va aniq fanlar

kafedrasi o‘qituvchisi

E-mail: mukarrama79@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-8311-9280>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18675126>

***Annotatsiya:** Maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi “pul” komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Pul konsepti har ikki tilda insonning moddiy va ma’naviy qadriyatlariga nisbatan munosabatini aks ettiradi. Tadqiqotda frazeologik birliklarning semantik tarkibi, madaniy asoslari, milliy tafakkurdagi ifodasi va tarjima jarayonidagi muammolar yoritiladi. Lingvomadaniyat yondashuvi asosida frazeologizmlarning faqat til emas, balki madaniy tafakkur mahsuli sifatida talqin qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:** pul, frazeologik birlik, lingvomadaniyat, milliy tafakkur, madaniy kod, ingliz tili, o‘zbek tili*

LINGUOCULTURAL FEATURES OF PHRASEOLOGICAL UNITS WITH THE COMPONENT “MONEY” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Tashkent State University of Economics Andijan faculty

Department of Specialization, Social-Humanitarian and Exact Sciences

Teacher: Nasibboyeva Mukarrama Salimjon kizi

Email: mukarrama79@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-8311-9280>

***Annotatsion:** This article analyzes the linguocultural features of phraseological units containing the component “money” in English and Uzbek languages. The concept of money in both languages reflects the attitude toward material and spiritual values. The research highlights the semantic structure of these phraseological units, their cultural foundations, representation in national thinking, and challenges in translation. Based on a linguocultural approach, the study interprets phraseological units not only as linguistic constructs but also as products of cultural cognition.*

***Keywords:** money, phraseological unit, linguoculture, national worldview, cultural code, English language, Uzbek language*

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ С КОМПОНЕНТОМ «ДЕНЬГИ» В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Ташкентский государственный экономический университет

Кафедра специальностей, социально-гуманитарных и точных наук

Преподавательница: Насиббоева Мукаррама Салимовна

Электронная почта: mukarrama79@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-8311-9280>

Аннотация: В статье рассматриваются лингвокультурные особенности фразеологических единиц с компонентом «деньги» в английском и узбекском языках. Концепт денег в обоих языках отражает отношение человека как к материальным, так и духовным ценностям. Исследование освещает семантическую структуру фразеологизмов, их культурные основы, отражение в национальном мышлении и трудности перевода. На основе лингвокультурного подхода фразеологические единицы интерпретируются не только как языковые формы, но и как результат культурного сознания.

Ключевые слова: деньги, фразеологическая единица, лингвокультура, национальное мышление, культурный код, английский язык, узбекский язык

Frazeologik birliklar tilning madaniy qatlamini ifodalaydi va har bir tilda o‘z xalqining mentaliteti, qadriyatlari, tarixiy tajribasi hamda axloqiy me‘yorlarini mujassamlashtiradi. Ayniqsa, iqtisodiy mazmunga ega bo‘lgan “pul” komponentli frazeologizmlar har ikki tilda iqtisodiy tafakkurning lingvistik ifodasi sifatida ko‘riladi. Ular nafaqat moliyaviy munosabatlarni, balki odamlarning pulga, boylikka, mehnatga, halollikka munosabatini ham aks ettiradi.

Frazeologik birliklar tilning milliy-madaniy qadriyatlarini ifodalovchi muhim komponentlaridan biridir. Ayniqsa, iqtisodiy hayotga oid frazeologizmlar xalqning mehnatga, boylikka, qanoatga va moliyaga bo‘lgan munosabatini ochib berishda muhim rol o‘ynaydi. “Pul” komponentli frazeologizmlar har bir til va xalq madaniyatida o‘ziga xos semantik va konnotativ ma’no qatlamiga ega.

Lingvomadaniyatshunoslik yondashuvi doirasida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilidagi frazeologik birliklar, masalan, money talks (“pul gapiradi”), to be in the red (“zararda bo‘lish”), cash cow (“foydali manba”) kabi iboralar kapitalistik qadriyatlarni, individual yutuq va shaxsiy manfaat ustuvorligini aks ettiradi. Ularning mazmuni, ko‘pincha, pulning kuchi, ta’siri va imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik, foyda keltiruvchi resurslarga egalik kabi tushunchalarni ham ifodalaydi.

Aksincha, o‘zbek tilidagi frazeologizmlar, masalan, pulning quli bo‘lma, pul orqama yugurma, halol topgan pul baraka keltirar kabi ifodalar esa jamoaviylik, halollik va qanoat tamoyillarini ilgari suradi. Ular nafaqat iqtisodiy amaliyot, balki ma’naviy-axloqiy mezonlarni ham o‘z ichiga oladi. Bunday birliklar kishilarning boylik orttirishga bo‘lgan munosabatini tartibga soladi va uni halollik, sabr-toqat, baraka kabi qadriyatlar bilan uyg‘unlashtiradi.

Frazeologizmlarning shakllanishida xalq og‘zaki ijodi, tarixiy tajriba va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar muhim rol o‘ynaydi. Ingliz tilida iqtisodiy hayot ko‘proq texnik va aniq natijalar asosida baholansa, o‘zbek tilida iqtisodiy faoliyatning axloqiy va ma’naviy bahosi ustun turadi. Bu esa ikki til orasidagi mental tafovutni ko‘rsatadi. Masalan, easy money ingliz tilida nolegal yo‘l bilan topilgan boylikni bildirsa, o‘zbek tilida oson pul topgan odamning puli uzoqqa bormaydi degan mazmun ko‘proq axloqiy bahoni uzatadi.

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

Frazeologik birliklarning tarjima jarayonida ham ushbu tafovutlar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, money doesn't grow on trees iborasi o'zbek tiliga pul daraxtda o'smas tarzida tarjima qilinsa-da, u har ikki tilda bir xil iqtisodiy intizom va ehtiyotkorlik g'oyasini ifodalaydi. Biroq ba'zi iboralar, masalan, filthy rich (juda boy, salbiy konnotatsiyada) ifodasi o'zbek tilida to'g'ridan-to'g'ri muqobili bo'lmagani sababli kontekstga mos muqobil topish lozim bo'ladi. Bunday holatlar tarjima jarayonida lingvokulturologik kompetensiyaning muhimligini ko'rsatadi.

Shuningdek, pul komponentli frazeologik birliklar xalq tafakkurining iqtisodiy pragmatizm va ma'naviy qadriyatlarga nisbatan qanday yondashuvda ekanligini ham aks ettiradi. Ingliz tilida time is money degan frazeologizm orqali vaqt va pul tenglashtirilsa, o'zbek tilida besh kunlik dunyoda kabi iboralar hayotni moddiyatga qaramasdan qadrlashga undaydi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'zbek tilidagi “pul” komponentli frazeologizmlarning 65% hollarda milliy madaniyatga xos ma'naviy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lib, ingliz tilidagi frazeologizmlarning 70% holatlarida esa iqtisodiy manfaat va shaxsiy yutuq asosiy urg'uda turadi.

Tadqiqotda ingliz tilidagi quyidagi frazeologizmlar tahlil qilindi: money talks, to be tight with money, to make a quick buck, to be in the money, to cost an arm and a leg. Bu birliklar orqali pulning qudrati, tejamkorlik, yengil yo'l bilan daromad topish va narxning haddan tashqari qimmatligi ifodalanadi.

O'zbek tilida esa pul ko'zning qorachig'i, pul bosh egdiradi, pulga sotilmoq, qo'li ochiq bo'lmoq, pulga pul qo'shmoq kabi frazeologik birliklar keng tarqalgan. Bu frazeologizmlar orqali xalq tafakkurida pulga ehtiyoj, unga bo'lgan ehtiyotkorlik, manfaatparastlik va saxovatli munosabatlar ifodalanadi.

Har ikki tilda “pul” nafaqat iqtisodiy qadriyat, balki ijtimoiy va axloqiy kategoriya sifatida talqin qilinadi. Ingliz tilida pul ko'pincha muvaffaqiyat, erkinlik, imkoniyatlar bilan bog'liq bo'lsa, o'zbek tilida pul masalasiga ehtiyotkorlik, ehtiyoj va ko'proq axloqiy nuqtai nazardan yondashuv kuzatiladi.

Tarjima jarayonida ba'zi frazeologik birliklarning to'g'ridan-to'g'ri muqobili bo'lmashligi, ularning madaniy komponentlarini anglab yetish zarurati paydo bo'ladi. Masalan, money talks ifodasini pul gapirtiradi tarzida so'zma-so'z tarjima qilish mumkin bo'lsa-da, har ikki til madaniyatida turlicha pragmatik yuklamaga ega bo'ladi.

“Pul” komponentli frazeologizmlar ingliz va o'zbek tillarida xalqning iqtisodiy mentalitetini, qadriyatlarini, iqtisodiy hayotga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Ularning lingvomadaniy jihatdan tadqiq etilishi xalq tafakkurining iqtisodiy jihatdan qanday shakllanganini ochib beradi. Frazeologizmlarni tarjima qilishda esa nafaqat semantik, balki madaniy konnotatsiyalarni ham inobatga olish lozim. Kelajakda bu yo'nalishdagi izlanishlar iqtisodiy tarjima amaliyoti va frazeologik lug'atlar yaratishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, “pul” komponentli frazeologik birliklar tildagi semantik boylikni ko'rsatish bilan birga, milliy tafakkur, mentalitet va madaniyatning ham yorqin ifodasi bo'lib xizmat qiladi. Bunday frazeologizmlarni o'rganish nafaqat lingvistik, balki sotsiokultural va tarjimashunoslik nuqtai nazaridan ham nihoyatda muhimdir.

REFERENCES:

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

1. Cowie, A. P. (1998). *Phraseology: Theory, Analysis, and Applications*. Oxford University Press.
2. Crystal, D. (2003). *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. Cambridge University Press.
3. Kunin, A. V. (1996). *English-Russian Phraseological Dictionary*. Moscow: Russian Language Publishers.
4. Moon, R. (1998). *Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach*. Oxford University Press.
5. Lakoff, G. , & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.
6. Karasik, V. I. (2002). *Yazykovoy krug: lichnost, kontseptiy, diskurs*. Volgograd: Peremena.
7. Komissarov, V. N. (2002). *Teoriya perevoda (lingvisticheskie aspekty)*. Moscow: KomKniga.
8. Bobojonova, Z. (2016). *O‘zbek tilida frazeologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari*. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
9. Mahmudov, N. (2015). *O‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari*. Toshkent: Fan nashriyoti.
10. Abdullayeva, M. (2021). *Lingvomadaniyatshunoslik asoslari va frazeologik birliklar*. Toshkent: Ilm Ziyo nashriyoti.
11. Uzbek National Corpus – <http://corpus.uzbekcorpus.uz>
12. Cambridge Dictionary of Idioms (Online Resource) – <https://dictionary.cambridge.org>

**TALABALARDA O‘ZARO IJTIMOIIY- PSIXOLOGIK TA’SIR
KOMPETENTLARINING SHAKLLANTIRILISHIGA DOIR NAZARIY
YONDASHUVLAR TAHLILI**

Umaraliyeva Hilola Fazliddin qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrasida o‘qituvchisi

E-mail: umaraliyevahilola4@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18675163>

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarda o‘zaro ijtimoiy-psixologik ta’sir kompetentlarini shakllantirish masalasi nazariy jihatdan tahlil qilingan. Ijtimoiy-psixologik ta’sir kompetentligi shaxsning boshqalar bilan samarali muloqot qilish, ularning fikri, hissiy holati va xulq-atvoriga ongli hamda ijobiy ta’sir ko‘rsatish, shuningdek, tashqi ta’sirlarni to‘g‘ri qabul qila olish qobiliyatlari majmui sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda ijtimoiy o‘rganish, gumanistik va sistemali yondashuvlar asosida mazkur kompetentlikning ilmiy asoslari yoritilgan. Shuningdek, uning kognitiv, emotsional, xulq-atvoriy va refleksiv komponentlari tahlil qilinib, ularning uyg‘unligi talabaning ijtimoiy moslashuvi, psixologik farovonligi va kasbiy tayyorgarligini ta’minlovchi muhim omil ekani asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-psixologik ta’sir, kompetentlik, ijtimoiy-shaxsiy kompetentlik, kognitiv komponent, emotsional komponent, xulq-atvoriy komponent, refleksiv komponent, talaba shaxsi, ijtimoiy moslashuv, psixologik farovonlik.

**THEORETICAL ANALYSIS OF APPROACHES TO THE FORMATION OF
INTERPERSONAL SOCIO-PSYCHOLOGICAL INFLUENCE COMPETENCIES IN
STUDENTS**

Annotation: This article provides a theoretical analysis of the issue of forming interpersonal socio-psychological influence competencies in students. Socio-psychological influence competence is interpreted as a set of abilities that enable an individual to communicate effectively with others, consciously and positively influence their opinions, emotional states, and behavior, as well as correctly perceive external influences. The study examines the scientific foundations of this competence based on social learning theory, humanistic, and systemic approaches. In addition, the cognitive, emotional, behavioral, and reflective components of the competence are analyzed, and it is substantiated that their integration serves as an important factor in ensuring students’ social adaptation, psychological well-being, and professional preparedness.

Keywords: socio-psychological influence, competence, social-personal competence, cognitive component, emotional component, behavioral component, reflective component, student personality, social adaptation, psychological well-being.

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОДХОДОВ К ФОРМИРОВАНИЮ
КОМПЕТЕНЦИЙ МЕЖЛИЧНОСТНОГО СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО
ВОЗДЕЙСТВИЯ У СТУДЕНТОВ**

Аннотация: В статье представлен теоретический анализ проблемы формирования у студентов компетенций межличностного социально-психологического воздействия. Компетентность социально-психологического воздействия рассматривается как совокупность способностей личности к эффективному взаимодействию с другими людьми, сознательному и позитивному влиянию на их мнения, эмоциональные состояния и поведение, а также к адекватному восприятию внешних воздействий. В исследовании раскрываются научные основы данной компетентности с позиций теории социального научения, гуманистического и системного подходов. Также анализируются когнитивный, эмоциональный, поведенческий и рефлексивный компоненты компетентности, обосновывается их интеграция как важный фактор социальной адаптации, психологического благополучия и профессиональной подготовленности студентов.

Ключевые слова: социально-психологическое воздействие, компетентность, социально-личностная компетентность, когнитивный компонент, эмоциональный компонент, поведенческий компонент, рефлексивный компонент, личность студента, социальная адаптация, психологическое благополучие.

Kirish. Talabalarda o‘zaro ijtimoiy-psixologik ta’sir kompetentlari — bu talabaning boshqa odamlar bilan muloqot jarayonida ularning fikri, hissiy holati va xulq-atvoriga ijobiy, ongli va samarali ta’sir ko‘rsata olish, shu bilan birga boshqalarning ta’sirini to‘g‘ri qabul qila olish qobiliyatlari majmuidir [1]. Qisqa xulosa qilsak, odamlar bilan to‘g‘ri gaplasha olish, jamoada o‘zini tutishni bilish, boshqalarni tushunish va ularga moslasha olish, kelishmovchiliklarni tinch yo‘l bilan hal qilish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lgan insonda ijtimoiy- psixologik ta’sir kompetentlari shakllangan deyish mumkin [10].

Ijtimoiy-shaxsiy kompetentlik bu – shaxsning ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish, o‘zaro munosabatlarga kirishish, muloqot qilish, ijtimoiy rollarni bajarish, ijtimoiy me’yorlarga mos ravishda o‘zini tutish qobiliyatidir[9]. . Shuningdek, bu kompetentlik o‘z-o‘zini anglash, axloqiy qadriyatlarga sodiqlik, fuqarolik pozitsiyasi, tanqidiy fikrlash, mas’uliyatni his etish, o‘zini boshqarish va rivojlantirishni o‘z ichiga oladi [7]. Ijtimoiy-shaxsiy kompetentlikni rivojlantirish nafaqat shaxsiy yutuq, balki ijtimoiy barqarorlik, fuqarolik jamiyatining shakllanishi, demokratik qadriyatlar mustahkamlanishi uchun muhim omildir. Ayniqsa, talabalar – ertangi kun mutaxassislari, rahbarlari, fikr yetakchilari sifatida bu kompetensiyani o‘zlashtirishlari shart. [5]

Adabiyotlar tahlili.

1. Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi (Bandura, 1977). Talabalarning o‘zaro ijtimoiy-psixologik kompetentligi model olish, kuzatish va taqlid qilish orqali shakllanadi. Ular atrofdagi yetakchi shaxslar, o‘qituvchilar va tengdoshlar bilan muloqotda bo‘lib, samarali xatti-harakatlarni o‘rganadilar. Bu yondashuv kompetentlikni faqat nazariy bilimlar bilan cheklamasdan, amaliy faoliyat orqali rivojlanishini ta’kidlaydi[2].

2. Gumanistik yondashuv (Rogers, Maslow). Gumanistik psixologiya nuqtai nazaridan, shaxsning ichki motivatsiyasi, o‘zini anglash va ijobiy o‘zini idrok etish kompetentlikni

rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi. [3, 4]. Talaba o‘z qobiliyatlariga ishonishi va ichki resurslarni faol ishga solishi orqali samarali muloqot va ijtimoiy moslashuvchanlikni egallaydi [3].

3. Sistemali yondashuv. Talabani ijtimoiy, akademik va psixologik kontekst bilan bog‘liq tizim sifatida o‘rganish, kompetentlikning ko‘p qirrali shakllanishini tushuntirishga yordam beradi. Shaxslararo ta’sirlar, guruh dinamikasi va akademik muhitning o‘zaro bog‘liqligi kompetentlikni rivojlantirishga bevosita ta’sir qiladi [5]

2. Shakllanish jarayoniga ta’sir etuvchi omillar. Ilmiy tadqiqotlar kompetentlikni rivojlantirishga quyidagi omillar ta’sir qilishi mumkinligini ko‘rsatadi:

- Individual xususiyatlar: shaxsiy motivatsiya, o‘z-o‘zini qadrlash, stressga chidamlilik, empatiya.

- Ijtimoiy kontekst: tengdoshlar va o‘qituvchilar bilan muloqot, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, guruh ichidagi munosabatlar.

- Akademik muhit: dars metodikasi, interaktiv mashg‘ulotlar, onlayn va oflayn o‘quv jarayoni.

- Texnologik vositalar: generativ sun‘iy intellekt va boshqa raqamli platformalardan foydalanish, ularning psixologik va muloqotga ta’siri. Bu omillar bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, kompetentlikning shakllanish jarayonini murakkab va ko‘p qirrali qiladi [8]

3. Kompetentlikni o‘lchash va rivojlantirish

- O‘lchash usullari: psixologik testlar, anketalar, observatsiya, o‘z-o‘zini baholash.

- Rivojlantirish strategiyalari: kooperativ o‘qitish, rolli o‘yinlar, guruh loyihalari, psixologik treninglar (empatiya va ijtimoiy idrokni rivojlantirish), raqamli simulyatsiyalar va interaktiv mashg‘ulotlar.

Shuningdek, kompetentlikni rivojlantirish pedagogik va psixologik aralashuvlar bilan birgalikda amalga oshirilsa, talabaning shaxsiy rivojlanishi, psixologik farovonligi va jamoaviy faoliyati uchun yanada samarali natijalar beradi.

Talabalarda o‘zaro ijtimoiy-psixologik kompetentlik — bu ko‘p komponentli va integrativ psixologik tuzilma, uning shakllanishi individual, ijtimoiy va akademik omillar bilan belgilanadi. Nazariy yondashuvlar (ijtimoiy o‘rganish, gumanistik va sistemali yondashuvlar) kompetentlikni nafaqat bilim va ko‘nikmalar, balki psixologik barqarorlik va ijtimoiy moslashuvchanlik bilan bog‘liqligini tushuntiradi.

Ushbu kompetentlikni rivojlantirish oliy ta’limda pedagogik strategiyalar, psixologik treninglar va texnologik vositalar orqali amalga oshirilishi mumkin. Kompetentlikning yuqori darajasi talabaning psixologik farovonligi, ijtimoiy muhitga moslashuvi va kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatini ta’minlaydi [8]

Zamonaviy ta’lim tizimida shaxsning faqat bilim egallashi emas, balki uning **ijtimoiy muhitda samarali faoliyat yurita olishi** muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, talabalarda o‘zaro ijtimoiy-psixologik ta’sir kompetentlarini shakllantirish masalasi pedagogik va psixologik tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy-psixologik ta’sir kompetentlari shaxslararo munosabatlar jarayonida namoyon bo‘lib, ular **bilim, hissiy holat, xulq-atvor va reflektiv tahlilning o‘zaro integratsiyasi** asosida shakllanadi. Ushbu kompetentlar tarkibiy jihatdan to‘rt asosiy komponentdan iborat bo‘lib, har biri mustaqil psixologik mazmunga ega.

1. Kognitiv komponent. Kognitiv komponent shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy idrok va muloqot jarayonlari haqidagi bilimlar bilan bog‘liq. A. A. Bodalev shaxslararo idrok nazariyasida boshqalarni to‘g‘ri tushunish ijtimoiy ta’sir samaradorligini belgilashini ta’kidlaydi [6]

R. S. Nemov esa muloqotni ongli boshqariladigan jarayon sifatida talqin qiladi. [7]

2. Emotsional komponent. Emotsional komponent empatiya, hissiy barqarorlik va emotsional boshqaruvni o‘z ichiga oladi. D. Goleman emotsional intellekt nazariyasida empatiyani ijtimoiy muvaffaqiyatning markaziy omili sifatida ko‘rsatadi [8]

K. Rogers gumanistik psixologiyada empatik munosabat va shartsiz qabul qilishni muhim deb hisoblaydi [3].

3. Xulq-atvoriy komponent. Xulq-atvoriy komponent shaxsning real muloqotdagi harakatlarida namoyon bo‘ladi. A. Bandura ijtimoiy o‘rganish nazariyasida xulq-atvor kuzatish va taqlid orqali shakllanishini asoslaydi [2]. L. S. Vygotskiy shaxs rivojlanishini ijtimoiy muhit va faoliyat bilan bog‘laydi [3].

4. Refleksiv komponent. Refleksiv komponent shaxsning o‘z faoliyatini tahlil qilish qobiliyatidir. I. A. Zimnyaya refleksiyani kompetentlikning ajralmas qismi deb biladi [10]. S. L. Rubinshteyn ong va faoliyat birligi tamoyilini ilgari suradi [5]

Muhokama. Talabaning o‘zlashtirayotgan kompetentligi ko‘p jihatdan u yashayotgan ijtimoiy muhitga bog‘liq. Oila, do‘stlar, o‘qituvchilar, ommaviy axborot vositalari – bularning barchasi talabaning dunyoqarashi, axloqiy pozitsiyasi va jamiyatdagi o‘rnini belgilaydi. Yaxshi tashkil etilgan akademik muhit, mehribon va qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhit shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchini, mas’uliyat hissini oshiradi. Aks holda, salbiy muhitda shakllangan shaxsda passivlik, befarqlik, ijtimoiy rollarni bajara olmaslik holatlari kuzatiladi [5, 9].

Talabalarda o‘zaro ijtimoiy-psixologik ta’sir kompetentlari ko‘p komponentli, murakkab va integrativ tuzilma bo‘lib, kognitiv, emotsional, xulq-atvoriy va refleksiv komponentlarning o‘zaro uyg‘unligi asosida shakllanadi. Ushbu kompetentlar talabaning shaxsiy kamoloti, ijtimoiy moslashuvi va kasbiy tayyorgarligining muhim omili hisoblanadi [3, 10].

1. Kognitiv komponentning ilmiy tahlili - kognitiv komponent shaxsning ijtimoiy-psixologik hodisalar haqidagi **tizimli bilimlari** bilan belgilanadi. U ijtimoiy idrok, shaxslararo munosabatlar qonuniyatlari, muloqot mexanizmlari hamda guruh dinamikasi haqidagi tushunchalarni o‘z ichiga oladi [6, 7].

Psixologiya fanida (A. A. Bodalev, R. S. Nemov) ta’kidlanishicha, shaxsning boshqalarga ta’sir ko‘rsatishi avvalo **ijtimoiy vaziyatni to‘g‘ri anglash va tahlil qilish qobiliyatiga** bog‘liq [6, 7]. Talaba ijtimoiy holatni idrok eta olmasa, uning ta’siri tasodifiy yoki salbiy xarakter kasb etadi. Demak, kognitiv komponent ijtimoiy vaziyatlarni tahlil qilish, shaxslararo munosabatlar sabab-oqibatlarini anglash, muloqot jarayonida ongli qaror qabul qilish uchun nazariy asos vazifasini bajaradi [1].

2. Emotsional komponentning ilmiy tahlili - emotsional komponent shaxsning **hissiy sezgirligi va emotsional regulyatsiyasi** bilan bog‘liq bo‘lib, empatiya, bag‘rikenglik va hissiy barqarorlikni qamrab oladi. Ijtimoiy-psixologik ta’sir jarayonida hissiy omil yetakchi rol o‘ynaydi, chunki insonlar ko‘pincha mantiqdan ko‘ra hissiyotlar orqali ta’sirni qabul qiladilar [3, 8]. Zamonaviy tadqiqotlarda emotsional kompetentlik ijtimoiy moslashuvning muhim ko‘rsatkichi sifatida qaraladi.

Talabanning boshqalarning hissiy holatini tushuna olishi uning muloqotdagi samaradorligini oshiradi va ijtimoiy ziddiyatlarning oldini oladi. Ilmiy nuqtayi nazardan, emotsional komponent shaxslararo ishonchni shakllantiradi, ijobiy psixologik muhitni ta’minlaydi, ijtimoiy ta’sirning insonparvarlik xarakterini belgilaydi [8].

3. Xulq-atvoriy komponentning ilmiy tahlili - xulq-atvoriy komponent ijtimoiy-psixologik ta’sir kompetentlarining **amaliy ifodasi** bo‘lib, talabanning real muloqot jarayonidagi harakatlari orqali namoyon bo‘ladi. Bu komponent shaxsning muloqot strategiyalarini tanlashi, ijtimoiy rollarni bajarishi va nizolarni hal etish usullarida ifodalanadi. [2, 9] Pedagogik-psixologik tadqiqotlarda xulq-atvoriy komponent kompetentlikning eng ko‘zga tashlanadigan qismi sifatida e’tirof etiladi, chunki aynan shu bosqichda bilim va hissiyotlar **ijtimoiy faoliyatga aylantiriladi**. Xulq-atvoriy komponentning ilmiy ahamiyati shundaki, u: ijtimoiy ta’sir samaradorligini belgilaydi, shaxsning ijtimoiy yetuklik darajasini ko‘rsatadi, jamoaviy faoliyat natijadorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [7].

4. Refleksiv komponentning ilmiy tahlili - refleksiv komponent shaxsning o‘z faoliyatini **ongli tahlil qilish va baholash qobiliyati** bilan tavsiflanadi. U shaxsning o‘z xatti-harakatlari natijalarini anglab yetishi, ijtimoiy tajribani qayta ko‘rib chiqishi va kelgusida uni takomillashtirishga xizmat qiladi. Ilmiy adabiyotlarda refleksiya shaxs rivojlanishining oliy darajasi sifatida qaraladi (I. A. Zimnyaya). Refleksiv komponent mavjud bo‘lmagan taqdirda, ijtimoiy-psixologik ta’sir mexanik va barqaror bo‘lmagan xarakter kasb etadi. Shu bois refleksiv komponent - shaxsiy rivojlanishni ta’minlaydi, ijtimoiy xatolarning takrorlanishining oldini oladi, kompetentlarning uzluksiz takomillashuviga xizmat qiladi. Talabalarda o‘zaro ijtimoiy-psixologik ta’sir kompetentlari **ko‘p komponentli, murakkab va integrativ tuzilma** bo‘lib, kognitiv, emotsional, xulq-atvoriy va refleksiv komponentlarning o‘zaro uyg‘unligi asosida shakllanadi. Ushbu kompetentlar talabanning shaxsiy kamoloti, ijtimoiy moslashuvi va kasbiy tayyorgarligining muhim omili hisoblanadi [10].

Xulosa. Talabalarda o‘zaro ijtimoiy-psixologik ta’sir kompetentlari — bu shaxsning ijtimoiy muhit bilan samarali o‘zaro ta’sir ko‘rsatish qobiliyati bo‘lib, u “kognitiv, emotsional, xulq-atvoriy va refleksiv komponentlar” asosida shakllanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu komponentlarning uyg‘unligi talabanning “psixologik farovonligi”, “ijtimoiy moslashuvchanligi” va “shaxsiy rivojlanishi”ga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Kognitiv komponent ijtimoiy vaziyatlarni idrok etish va tahlil qilish orqali ongli qaror qabul qilishni ta’minlasa, emotsional komponent empatiya va hissiy boshqaruv orqali ijtimoiy muhitga moslashuvchanlikni oshiradi. Xulq-atvoriy komponent bilim va hissiyotlarni amaliy faoliyatga aylantiradi, refleksiv komponent esa shaxsning o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilish va tajribadan xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

Natijada, o‘zaro ijtimoiy-psixologik ta’sir kompetentligi nafaqat talabanning “individual rivojlanishi va kasbiy tayyorgarligi”, balki “jamoaviy hamkorlik va ijtimoiy muhitdagi samarali faoliyat” uchun ham muhim fundament sifatida qaraladi. Shu bilan birga, ushbu kompetentlikni rivojlantirish oliy ta’lim muassasalarida pedagogik va psixologik strategiyalarni ishlab chiqishda “nazariy va amaliy ahamiyatga ega”.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bandura A. Social learning theory. – Englewood Cliffs, NJ : Prentice Hall, 1977. – 247 p.

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

2. Бодалев А. А. Личность и общение. – М. : Педагогика, 1983. – 272 с.
3. Гоулман Д. Эмоциональный интеллект / пер. с англ. – М. : АСТ, 2008. – 478 с.
4. Маслоу А. Мотивация и личность / пер. с англ. – СПб. : Питер, 2007. – 352 с.
5. Немов Р. С. Психология : учеб. пособие : в 3 т. – М. : ВЛАДОС, 2003. – Т. 3. – 432 с.
6. Роджерс К. Взгляд на психотерапию. Становление человека / пер. с англ. – М. : Прогресс, 1994. – 480 с.
7. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. – СПб. : Питер, 2002. – 720 с.
8. Выготский Л. С. Мышление и речь. – М. : Лабиринт, 1999. – 352 с.
9. Зимняя И. А. Ключевые компетенции как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. – М. : Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – 38 с.
10. Андреева Г. М. Социальная психология : учебник для вузов. – М. : Аспект Пресс, 2001. – 384 с.

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIGA INGLIZ TILINI O‘QITISHDA
LEKSIK QIYINCHILIKLAR VA BARTARAF ETISH YO‘LLARI**

Namangan davlat pedagogika instituti Xorijiy tillar kafedrasida o‘qituvchisi

Boltabayeva Ma’rifatxon Baxromjon qizi

E-mail: boltabayevamarifathon@gmail.com

Telefon: +998942755577

Namangan davlat pedagogika instituti Xorijiy tillar kafedrasida o‘quvchisi

Azimov Samandar Murodjon o‘g‘li

E-mail: azimovsamandar196@gmail.com

Telefon: +99894242220

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18675176>

Annotatsiya: *Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tili lug‘atini o‘rgatish jarayonida uchraydigan asosiy leksik qiyinchiliklar - fonetik-grafik nomutanosiblik, polisemiya, kollokatsion barqarorlik va ona tilidan keluvchi semantik interferensiya tahlil qilinadi. Tadqiqot yosh o‘quvchilarning kognitiv imkoniyatlari, ishchi xotira cheklovlari va abstrakt so‘zlarni idrok etishdagi murakkabliklar leksik kompetensiyaning shakllanishiga ta’sir qilishini ko‘rsatadi. Muammoni bartaraf etish yo‘llari sifatida multimodal semantizatsiya, vizual-kognitiv tayanchlar, tematik-assotsiativ lug‘atlar va differensial takrorlash texnikasining samaradorligi asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, ingliz tili leksikasi, leksik qiyinchiliklar, polisemiya, semantik interferensiya, kollokatsiya, kognitiv rivojlanish, vizual tayanch, takrorlash texnikasi, kommunikativ metod.*

Abstract: *This article examines the major lexical difficulties encountered by primary school learners in acquiring English vocabulary, including phonetic-graphic inconsistency, polysemy, collocation stability, and L1-induced semantic interference. The findings indicate that children’s cognitive development, limited working-memory capacity, and challenges in processing abstract lexical items significantly influence the formation of lexical competence. The study highlights the effectiveness of multi-modal semantic presentation, visual-cognitive supports, thematic-associative vocabulary building, and spaced repetition techniques in overcoming these difficulties.*

Keywords: *primary education, English vocabulary, lexical difficulties, polysemy, semantic interference, collocation, cognitive development, visual support, spaced repetition, communicative approach.*

Аннотация: *В статье анализируются основные лексические трудности, возникающие у учащихся начальных классов при овладении английской лексикой: фонетико-графическое несоответствие, полисемия, устойчивость коллокаций и семантическая интерференция родного языка. Результаты исследования показывают, что когнитивные особенности детей, ограниченный объем рабочей памяти и сложности в обработке абстрактных слов существенно влияют на формирование лексической компетенции. В качестве эффективных путей преодоления трудностей предлагаются мультиModal’ная семантизация, визуально-*

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

когнитивные опоры, тематико-ассоциативные словари и техники интервального повторения.

Ключевые слова: начальное образование, английская лексика, лексические трудности, полисемия, семантическая интерференция, коллокации, когнитивное развитие, визуальная опора, интервальное повторение, коммуникативный метод.

Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitish jarayoni o‘quvchilarning lug‘aviy bazasini shakllantirishni talab qiladi, chunki mazkur bosqich keyingi bosqichlardagi fonetik, grammatik va nutqiy rivojlanishning poydevori hisoblanadi. Ingliz tili leksikasi o‘zining fonetik-grafik murakkabligi, ko‘p ma‘noliligi, kollokatsion barqaror birikmalari va ona tilidan keladigan interferensiya sababli o‘quvchilarda qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Mazkur jarayonni samarali tashkil etish uchun o‘qituvchi boshlang‘ich ta‘lim psixologiyasi, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va lingvodidaktik yondashuvlarga tayangan holda metodik strategiyalarni qo‘llashi zarur. Fonetik-grafik nomutanosiblik ingliz tilida yozilish va aytilish o‘rtasidagi farqlar sabab yuzaga keladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ingliz tilidagi grafema-fonema uyg‘unligining noturg‘unligi tufayli so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishda qiynaladilar. Ushbu muammoni kamaytirish uchun fonetik drillar, audio-vizual resurslar, minimal juftliklar bilan ishlash va fonetika markazlashgan lug‘aviy mashqlar samarali hisoblanadi. Polisemiya – ya‘ni so‘zlarning bir nechta ma‘noga egaligi – yosh o‘quvchilarda semantik chalkashliklarga sabab bo‘ladi. Bunda kontekst asosida ma‘no chiqarish, vizual yordamlar, semantik xaritalar, sodda misollar asosida ma‘nolarni farqlash texnikalari qo‘llanadi. Nutqiy vaziyatlar orqali har bir ma‘noning real qo‘llanishini ko‘rsatish polisemiya qiyinchiliklarini ancha kamaytiradi. Ingliz tiliga xos barqaror kollokatsiyalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun murakkab bo‘lib, bu birikmalarning ona tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinmasligi sababli semantik xatolarga olib keladi. Kollokatsion ogohlantirish, tayyor strukturalar bilan ishlash, drammatizatsiya, rasm asosidagi birikmalarni mustahkamlash va tez-tez takrorlanadigan o‘quv vazifalari bu jarayonda yordam beradi. Semantik interferensiya – ona tili leksik tizimining ingliz tilini qabul qilishga ta‘siri boshlang‘ich bosqichda eng ko‘p uchraydigan muammolardan biridir. O‘zbek tilidagi mos kelmaydigan ma‘nolar, kengaytirilgan yoki toraygan semantik qamrovlar inglizcha so‘zlarning noto‘g‘ri tushunilishiga olib keladi. Ushbu holatni bartaraf etish uchun kontrastiv yondashuv, ikki tilni qiyoslab o‘rgatish, misollarni real kontekstga joylashtirish va amaliy nutq vazifalari qo‘llanadi. Ushbu leksik qiyinchiliklarni bosqichma-bosqich yengish uchun multimodal yondashuv, yosh xususiyatlariga mos interfaol mashqlar, o‘yin texnologiyalari, ko‘rgazmali vositalar, audio-vizual materiallardan foydalanish va lug‘atni kommunikativ muhitda qo‘llash muhim sanaladi. Bu usullar o‘quvchining lug‘atni eslab qolishi, nutqiy faoliyatda qo‘llashi va kontekstual tafakkurini rivojlantiradi. Shunday qilib, ingliz tilini boshlang‘ich sinfda o‘qitishda uchraydigan leksik qiyinchiliklar tahlili ularni bartaraf etish jarayonida lingvodidaktik, psixolingvistik va metodik yondashuvlarni uyg‘un qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi. Ilmiy asoslangan, yoshga mos, mazmun va metod jihatdan uyg‘un tashkil etilgan leksik o‘qitish jarayoni boshlang‘ich ta‘lim samaradorligini oshiradi va o‘quvchilarning keyingi bosqichlarda ingliz tilini ongli o‘zlashtirishiga mustahkam zamin yaratadi.

Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘rgatish jarayonida lug‘at o‘zlashtirishning samaradorligi o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va psixolingvistik omillarga bevosita bog‘liq. Tadqiqotlar shuni

ko‘rsatadiki, 7–10 yoshdagi bolalar cheklangan ishchi xotiraga ega bo‘lib, bir vaqtning o‘zida 5–7 ta yangi leksik birlikni samarali qayta ishlay oladi. Shu sababli yangi so‘zlarni o‘rgatishda vizual yordamlar, kontekstual misollar, multimediyaviy materiallar va tematik-assotsiativ yondashuvlar samarali hisoblanadi[].

Shuningdek, ingliz tilidagi fonetik-grafik nomutanosiblik, polisemiya va kollokatsion barqarorlik boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun qiyinchilik tug‘diradi. Ona tilidan keluvchi semantik interferensiya esa yosh o‘quvchilarning so‘zlarni noto‘g‘ri qabul qilishiga olib keladi. Leksik qiyinchiliklarni yengillashtirish uchun multimodal semantizatsiya, differensial takrorlash texnikasi, o‘yin texnologiyalari va vizual-kognitiv tayanchlardan foydalanish tavsiya etiladi[].

Semantik interferensiya - bu ona tilining (L1) leksik va semantik xususiyatlari boshqa tilni (L2) o‘rganishda talqin va tushunishga ta‘sir qilishi hodisasi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ingliz tilini o‘rgatishda semantik interferensiya ko‘pincha quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi:

o‘zbek tilidagi so‘zning bir ma‘nosini ingliz tilida har doim to‘g‘ri qo‘llashga intilish, ko‘p ma‘noli ingliz so‘zlarini noto‘g‘ri umumlashtirish, idiomatik yoki barqaror birikmalarni ona tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilish urinishlari.

Masalan, o‘zbek tilidagi “issiq” so‘zi har doim ingliz tilidagi hot so‘zi bilan ifodalanadi deb qabul qilish noto‘g‘ri kontekstual qo‘llanishga olib keladi. Shu sababli semantik interferensiya boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining leksik kompetensiyasini shakllantirishda asosiy qiyinchiliklardan biri hisoblanadi[].

Ushbu muammoni bartaraf etish uchun kontrastiv yondashuv, vizual va kontekstual misollar, interfaol mashqlar va kommunikativ vazifalar qo‘llanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, semantik interferensiya bilan ishlashning samarali strategiyalari o‘quvchilarning yangi so‘zlarni to‘g‘ri tushunishi va nutq jarayonida faol qo‘llashini sezilarli darajada yaxshilaydi[].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ingliz tili lug‘atini o‘rgatish jarayoni til kompetensiyasining asosiy poydevorini yaratadi. Ushbu davrda o‘quvchilarning nutq faoliyati, idrok qilish qobiliyati, ishchi xotira hajmi va kognitiv rivojlanish darajasi o‘rganilayotgan leksik birliklarning tezligi va samaradorligiga bevosita ta‘sir qiladi. Ingliz tilida so‘zlar fonetik va grafik jihatdan murakkab bo‘lishi, ko‘p ma‘nolilik (polisemiya), kollokatsion barqarorlik va ona tilidan keluvchi semantik interferensiya sababli o‘quvchilarda qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Kollokatsiya – bu so‘zlarning tabiiy va barqaror birikmalari bo‘lib, ular nutqda ma‘no va ohangni to‘liq ifodalashga yordam beradi. Ingliz tilidagi make a decision, take a rest, fast food kabi birikmalar alohida so‘zlardan farqli ravishda o‘quvchilar tomonidan mustahkam yodlanishi zarur. Kollokatsiyalarni vizual kartochkalar, dramatisatsiya va kontekstual mashqlar orqali o‘rgatish ularning nutqiy kompetensiyasini oshiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv rivojlanish darajasi leksik o‘zlashtirishning samaradorligini belgilovchi asosiy omildir. 7–10 yoshdagi bolalar bir vaqtning o‘zida cheklangan sonli so‘zlarni qayta ishlay oladi, shu bois yangi lug‘at birliklari bosqichma-bosqich va mavzuga mos holda berilishi lozim. Kognitiv imkoniyatlar inobatga olingan darslarda vizual yordamlar, real predmetlar, multimodal materiallar va o‘yin texnologiyalari keng qo‘llanadi.

Vizual tayanch deb, so‘zlar va ularning ma‘nolarini rasm, predmet, diagramma yoki harakat orqali mustahkamlash usulidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari abstrakt tushunchalarni vizual kontekst

yordamida tezroq anglaydi va eslab qoladi. Masalan, apple, run, house kabi so‘zlarni rasm yoki real predmet bilan birga ko‘rsatish ularning nutqiy qo‘llanishini oshiradi.

Takrorlash texnikasi o‘quvchilarning lug‘at boyligini mustahkamlash va uzoq muddatli xotirada saqlashga qaratilgan. Spaced repetition (differensial takrorlash) orqali yangi so‘zlar 1 kun, 3 kun, 1 hafta va 2 hafta interval bilan qayta ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, kontekstli mashqlar va o‘yinlar orqali takrorlash samaradorligi oshadi.

Kommunikativ metod so‘zlarni faqat yodlash emas, balki real nutq vaziyatida qo‘llashga yo‘naltirilgan yondashuvdir. Rolli o‘yinlar, suhbat mashqlari va dialoglar o‘quvchilarda so‘zlarni faol qo‘llash ko‘nikmasini shakllantiradi. Shu tarzda ular leksik birliklarni kontekstual ravishda ishlatishni o‘rganadi va semantik interferensiya ta’siri kamayadi.

REFERENCE

1. Nation, I. S. P. Learning Vocabulary in Another Language, 2nd edition. Cambridge: Cambridge University Press, 2001, p. 45–50.
2. Marifatkhon Boltabayeva. (2025). The Clash Of Religious and Secular Views In Graham Greene’s Works. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 6(3), 8. <https://doi.org/10.47134/emergent.v4i1.64>
3. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching, 5th edition. Harlow: Pearson Education, 2015, p. 123–128.
4. Odlin, T. Language Transfer: Cross-Linguistic Influence in Language Learning, Cambridge University Press, 1989, p. 75–80.
5. Gass, S. & Selinker, L. Second Language Acquisition: An Introductory Course, 4th edition, Routledge, 2008, p. 210–215.
6. Azimov S. M. O‘quvchilarga xorijiy tillarni o‘rgatishda metodik usul va yondashuvlar hamda o‘qituvchining psixologik bilimi // Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2024. – Jild 1, № 7. – B. 45–52.
7. Azimov S. M. , Maxammadaliyeva S. A. Modernizatsiya davrida o‘rta ta’lim o‘quvchilari uchun ingliz tili o‘qitish usullari // Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2024. – Jild 1, № 7. – B. 120–127.
8. Azimov S. M. , Darvishaliyeva O‘. A. Yangi til o‘rganish qiyinchiliklari va yechimlari // Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2024. – Jild 1, № 7. – B. 235–241.
9. Azimov S. M. The place and significance of the English language worldwide //International Journal of Scientific Researchers. 2024. Vol. 5, Issue 2. P. 31–35.
10. Komiljon o‘g, Y. O. A. (2025). WAYS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO PRE-SCHOOL CHILDREN. Ustozlar uchun, 74(2), 193-194.
11. Azimov S. M. The place and significance of the English language worldwide // International Journal of Scientific Researchers. – 2024. – Vol. 5, Issue 2. – P. 31–35.
12. Azimov S. M. , Darvishaliyeva O‘. A. Yangi til o‘rganish qiyinchiliklari va yechimlari // Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2024. – Jild 1, № 7. – B. 235–241.
13. Azimov S. M. , Maxammadaliyeva S. A. Modernizatsiya davrida o‘rta ta’lim o‘quvchilari uchun ingliz tili o‘qitish usullari // Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2024. – Jild 1, № 7. – B. 120–127.

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

14. Dexkonova G. A. Ingliz tili o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. №412648
15. Dexkonova G. A. Didaktik vositalardan foydalanib kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning leksik kompotentsiyasini rivojlantirish. “ til ta’limi tendensiyalari : muammo, yechimlar va istiqbollari” mavzusida konferensiya. Namangan- 2025. –B:126-130.

SUV RESURLARI VA ULARNING IFLOSHLANISH DARAJASI

G‘ulomova Ruxsora Buriyevna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

E-mail: ezozasavkatova@gmail.com

Tel nomer: +998977992904

ORCID: 0009-0005-9526-7190

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18675303>

Annotatsiya. Mazkur maqolada suv resurslari, ularning hozirgi holati va ifloslanish darajasi bilan bog‘liq muammolar tahlil qilinadi. Global miqyosda suv resurslarining kamayishi va sifatining yomonlashuvi iqlim o‘zgarishi, aholi sonining tez o‘sishi, sanoat va qishloq xo‘jaligida suvdan noto‘g‘ri foydalanish hamda yer osti suvlarining haddan tashqari ekspluatatsiyasi bilan bevosita bog‘liq ekani yoritilgan. Shuningdek, suv tanqisligi va ifloslanishining inson salomatligi, iqtisodiyot hamda ekologik tizimlarga ko‘rsatadigan salbiy ta‘siri ko‘rib chiqilgan. Jahon banki hisobotlari asosida yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida suv resurslarini boshqarishning ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqotda keltirilgan muammolar O‘zbekiston sharoitida ham dolzarb bo‘lib, suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish zarurligi asoslab berilgan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются водные ресурсы, их современное состояние и уровень загрязнения. Проанализированы основные факторы сокращения водных ресурсов, такие как изменение климата, рост численности населения, нерациональное использование воды в промышленности и сельском хозяйстве, а также чрезмерная эксплуатация подземных вод. Особое внимание уделено влиянию дефицита и загрязнения воды на здоровье населения, экономику и экологические системы. На основе отчетов Всемирного банка раскрывается значение эффективного управления водными ресурсами в процессе перехода к «зеленой» экономике. Отмечается, что данные экологические проблемы являются актуальными не только в мировом масштабе, но и для Республики Узбекистан, что подчеркивает необходимость рационального использования и охраны водных ресурсов.

Annotation. This article examines water resources, their current state, and the level of pollution. The main factors contributing to the depletion of water resources are analyzed, including climate change, population growth, irrational use of water in industry and agriculture, and excessive exploitation of groundwater. Particular attention is paid to the negative impacts of water scarcity and pollution on human health, economic development, and ecological systems. Based on World Bank reports, the importance of effective water resource management in the transition to a green economy is highlighted. The study emphasizes that these environmental challenges are relevant not only at the global level but also for Uzbekistan, underscoring the need for sustainable use and protection of water resources.

Kirish. Suv – bu obi hayot manbai hisoblanib, inson va barcha tirik organizmlar uchun zarur resurslardan biridir. Hozirgi kunga kelib dunyo miqyosida suvga bo‘lgan talabning ortishi, suv resursining kamayishi va suv ifloslanishi ekologik muammolardan biri sifatida nomoyon bo‘lmoqda. Suv resurslarining kamayishi asosan tabiiy va inson omili natijasida yuzaga keladigan jarayon sifatida

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

qaralmoqda. Shu bilan birga, suv tanqisligi, ifloslanishi insonlarning salomatligiga, iqtisodiyot va ekologik tizimlarga srezilarli darajada jiddiy zarar yetkazadi. XXI asrga kelib suv zahiralaring kamayishiga yaqqol ko‘zga tashlanib qodi, va bir nechta omillar ko‘rinishida aks etganluigini ko‘rishimiz mumkin: 1. Iqlim o‘zgarishi: Havoning meyoridan ziyod isishi, yog‘ingarchilikning kamayishi, qurg‘oqchilikni tez-tez takrorlanib turushi va qishloq xo‘jaligi uchun suv yetishmovchiligi kabi muommolar resurslarning kamayishiga olib kelmoqda 2. Aholi sonining ko‘payishi: Aholi sonining ortishi suvga bo‘lgan talabni yanada oshiradi, bu esa resurslarning taqchilligiga sabab olib kelmoqda. 3. Sanoat rivojlanishi: Zavod va fabrikalarning suvdan noto‘gri foydalanishi oqibatida suv tanqisligi yanada kuchaydi. 4. Yer osti suvlarining haddan tashqari ishlatilishi: Quduqlarni nazoratsiz ishlatish natijasida yer osti suvlarining darajasi pasayadi.

Jahon bankining hisobotida esa mamlakatning yashil iqtisodiyotga o‘tishdagi muammolari va imkoniyatlari tahlil qilingan. U eng dolzarb bo‘lgan ekologik va boshqa shu turdagi xavflarni aniqlaydi va bu boradagi siyosatga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritishni tavsiya qiladi. Ularning ba‘zilari, masalan, energiya samaradorligi bo‘yicha chora-tadbirlar suv masalalari bilan bog‘liq masalalar va landshaftlarni tiklash dasturlari bir vaqtning o‘zida iqtisodiyot va atrof-muhitga foyda keltiradi. Bunday ekologik muommolar faqat jahonda emas balki O‘zbekistonda ham kuzatilyotganini guvohi bo‘lamiz.

O‘zbekistonda tabiiy resurslardan foydalanish va boshqarishni yaxshilashga olib keladi. Mamlakatning tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi Yevropa Ittifoqi va boshqa o‘rtacha daromadi yuqori mamlakatlarnikiga qaraganda ancha past. O‘zbekistonda suvdan foydalanish ayniqsa samarasiz bo‘moqda. Mamlakatning YaIM birligi uchun energiya iste‘moli Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan qariyb uch barobar, qo‘shni Qozog‘istondan esa ikki baravar yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Shu bilan birga, shahar va sanoat manbalaridan havoning ifloslanishi shamolning ishi natijasida qumli va bo‘ronli kunlarda atmosfera havosi qishloq xo‘jaligi yerlarida namning qochishi va o‘simliklarning kasallikka chalinishiga sabab bo‘lishi bilan kuchaymoqda.

Suv ifloslanishi tabiiy va inson omili aralashuvi natijasida yuzaga keladi.

Bunda ishlab chiqarish, sanoat zavodlari va undan chiqadigan chiqindilarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri daryo va ko‘llarga oqizishi. Bu suvni kimyoviy moddalarga boy qiladi. 2. Qishloq xo‘jaligini chiqindilari: Pestitsidlar, minenal o‘g‘itlar va hayvon chiqindilari suv havzalarini ifloslantiradi.

3. Shahar chiqindilari: Kanalizatsiya va axlat suvga aralashib, suv sifatini pasaytiradi 4. Neft va boshqa tabiiy resurslarning oqib ketishi: Bu suv havzalarida ekologik ofatlar va baliq resurslarining kamayishiga olib keladi.

Suv ifloslanishi inson sog‘ligiga jiddiy xavf tug‘diradi. Masalan, iflos suv orqali tarqaladigan bakteriyalar va viruslar ichak infeksiyalari va boshqa kasalliklarni keltirib chiqaradi

Suv resurslarini saqlash va ifloslanishni kamaytirish uchun quyidagi choralarga e‘tibor qaratish lozim:

1. Suvni tejash texnologiyalari: Suvni tejaydigan texnologiyalar va qurilmalardan foydalanish.
2. Chiqindilarni qayta ishlash: Sanoat va qishloq xo‘jaligi chiqindilarini tozalash va qayta ishlash tizimlarini joriy etish.
3. Tabiiy muhitni tiklash: O‘rmonlarni ko‘paytirish, daryo va ko‘llarni tozalash va tabiiy muhitni himoya qilish.

4. Xalqaro hamkorlik: Chegaralararo suv havzalarini boshqarish va suv resurslarini adolatli taqsimlash.

Xulosa.

Suv resurslarining kamayishi va suv ifloslanishi global muammo bo‘lib, u nafaqat insoniyat, balki butun ekotizim uchun xavf tug‘diradi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun suvni tejash, chiqindilarni kamaytirish va suvni tozalash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Shuningdek, ekologik tarbiya va insonlarning suvga munosabatini o‘zgartirish ham muhim ahamiyatga ega. Faqat birgalikda harakat qilinsa, suv resurslarini saqlash va kelajak avlodlar uchun barqaror ekotizimni ta’minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. –T. : “O‘zbekiston”, 2019. 400 b

2. G‘ulomova Ruxsora Buriyevna “Orolbo‘yi mintaqasida davlat ekologik siyosatini takomillashtirish zaruriyati” NAMdu axborotnomasi. 2024. 5-son.

3. IPCC. (2023). Climate Change 2023: Impacts, Adaptation and Vulnerability. Geneva: IPCC.

4. Omonov B. N. Problems And Consequences Of Water Deficiency In Central Asia // Turkish Online Of Qualitative Inquiry (TOJQI) Volume 12, July 2021: 2541-2545. <https://www.tojqi.net/index.php/journal/article/view/4680>

5. Омонов Б. Н. Значение религиозных ценностей в формировании культуры личной экологии. Proceedings of Global Technovation 4th International Multidisciplinary Scientific Conference Hosted from Paris, France February 27th 2021. <https://conferencepublication.com>. www.ekonevs.uz.

6. Water resources of Uzbekistan (O‘zbekiston suv resurslari) — maqola O‘zbekistonning umumiy suv resurslari, ichimlik suvi ta’minoti va ularni boshqarish masalalarini ko‘rib chiqadi.

7. Water Resources of Uzbekistan and Their Effective Use of the Provision of Population with Drinking Water — O‘zbekiston suv resurslari va aholiga ichimlik suvi yetkazib berish samaradorligi muammolari haqida ilmiy tadqiqot.

8. Problems with Water Resources (Suv resurslari muammolari) — qishloq xo‘jaligida suv resurslari, suv tanqisligi va suv tejash texnologiyalari masalalari tahlili.

**КОМПЕТЕНТНОСТНЫЙ ПОДХОД В ОБУЧЕНИИ
РУССКОМУ ЯЗЫКУ**

Махмудбекова Гулнора Убайдуллаевна

Ташкентский фармацевтический институт, старший преподаватель

+99890 959-85-33

E-mail: gulnoramahmudbekova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18675333>

***Аннотация.** Статья посвящена формированию и развитию коммуникативной компетентности школьников в процессе изучения русского языка, развитию познавательных способностей ученика через обогащение лексического запаса, умению правильно сочетать слова, использовать их в речи, логически и стилистически оправданно употреблять различные грамматические средства, связно излагать свои мысли, подчиняя высказывание, текст, выразительные средства основному замыслу.*

***Ключевые слова:** речь, коммуникативная компетентность, лингвистическая и языковая компетенции, коммуникативно-речевые умения и навыки, модернизация, деятельность, ориентация.*

***Abstract.** The paper discusses the formation and development of communicative competence of school students in the course of learning Russian, development of cognitive abilities of the pupil through enrichment of a lexical stock, ability to correctly combine words, to use them in the speech, to logically and stylistically reasonably use various grammatical means, to coherently state the thoughts, bringing the statement, the text and means of expression under the main idea.*

***Keywords:** speech, communicative competence, linguistic and language competences, communicative and speech skills, modernization, activity, orientation.*

***Annotatsiya.** Maqola rus tilini o‘rganish jarayonida maktab o‘quvchilarining kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirish va rivojlantirishga bag‘ishlangan, so‘z boyligini boyitish, so‘zlarni to‘g‘ri bog‘lash, nutqda qo‘llash, turli grammatik vositalardan foydalanishni mantiqiy va uslubiy jihatdan asoslash, o‘z fikrini izchil ifodalash, bayon, matn, ifoda vositalarini asosiy fikrga bo‘ysundirish orqali o‘quvchining bilish qobiliyatini rivojlantirish.*

***Kalit so‘zlar:** nutq, kommunikativ kompetentsiya, til va lingvistik kompetentsiya, kommunikativ-og‘zaki ko‘nikmalar va qobiliyatlar, modernizatsiya, detallar, orientatsiya.*

Сегодня модернизация системы образования характеризуется высокими требованиями к обучающимся и качеству образования. Включение в нормативный и практический компоненты образования компетенций по решению конкретных жизненных задач или проблемных ситуаций позволяет решить общую для всех школ задачу, при которой учащиеся лучше усваивают комплекс теоретических знаний и не испытывают затруднений в деятельности, требующей использования этих знаний.

Современная концепция образования ставит целью развитие личности, способной к эффективной реализации себя в сфере будущей профессиональной деятельности. Особое

значение в связи с этим приобретает проблема формирования и развития коммуникативной компетентности школьников в процессе изучения русского языка. Использование языка как средства общения требует от говорящего знания социальных, ситуативных и контекстуальных правил, которые должен учитывать носитель языка. Почему, что, где, когда, как говорят, какое значение придается отдельным словам и выражениям в зависимости от конкретных обстоятельств, – все это регулируется коммуникативной компетенцией.

Владение языком означает ориентацию на развитие языковой личности. Уровень владения языком определяется не только теоретическими знаниями о языке и правилами правописания, но и практическими навыками, выражающимися в речевой деятельности школьников, в их творческой и исследовательской работе над словом. Формирование коммуникативной компетенции возможно только на базе лингвистической и языковой компетенций. В дидактике на первое место выдвигаются задачи развития речи, формирования у школьников языкового чутья, привития любви и интереса к русскому языку. Развитие речи опирается на развитие познавательных способностей ученика через обогащение лексического запаса, умение правильно сочетать слова, использовать их в речи, логически и стилистически оправданно употреблять различные грамматические средства, связно излагать свои мысли, подчиняя высказывание, текст, выразительные средства основному замыслу. Владение языком означает умение действовать, соблюдая нормы русского литературного языка и правила культуры речи. Каждый культурный человек должен быть знаком с разноаспектными словарями и справочниками по русскому языку и уметь ими пользоваться во всех сомнительных случаях. Компетентностный подход, который набирает силу в современной школе, является отражением потребности общества в подготовке людей не только знающих, но и умеющих применить свои знания. Компетенции рассматриваются как осознанная человеком способность реализации знаний и умений для эффективной деятельности в конкретной ситуации. То есть компетенция – это сплав традиционных знаний, умений и навыков с личностными особенностями школьника, с его самоосознанием, рефлексией в ходе познавательной деятельности.

Эффективное развитие языковых компетенций возможно в деятельностном подходе, который научно обоснован в современной педагогической практике. Деятельность выстраивается через отдельные действия и опирается на субъективный опыт ребенка. Для формирования действия необходимо, чтобы субъект деятельности осознал ее ближайший результат, достижение которого ведет к осуществлению всей деятельности в целом. Основными условиями формирования компетенций обучения мы считаем: потребность в высказывании, повышение речевой мотивации, желание выразить свои мысли и чувства, наличие содержательной основы для высказывания, освоение учащимися языковых средств, необходимых для создания конкретного текста, выработку у них умения отбирать и использовать эти средства в зависимости от ситуации общения. Важную роль в формировании компетенций играет и процесс обучения, и место обучаемого в этом процессе, его эмоциональный комфорт, и необходимость построения системы обучения с учетом индивидуальных возможностей каждого школьника. Компетентностный подход к обучению требует овладения учащимися определенным набором способов деятельности в процессе

обучения. Знания, приобретенные учащимися в процессе обучения, должны быть ориентированы на самостоятельное использование их в учебном процессе. Формирование знаний связано с рациональной соотнесенностью процесса овладения необходимыми знаниями и процесса овладения способами их усвоения, что обеспечивает единство изучения грамматической теории и развития познавательных сил школьников, их способности к самостоятельному, творческому использованию знаний в практике языкового анализа и речевом творчестве (формирование языковой компетентности учащихся). Для этого необходимо тщательно отбирать дидактические средства с учетом трудностей усвоения и сложности самостоятельного их применения в нестандартных ситуациях, использование заданий на дифференциацию внешне сходных явлений, на классификацию изученного. Предполагаемым результатом обучения в рамках компетентного подхода можно считать такие сформированные качества личности, как коммуникабельность, владение культурой слова, устной и письменной речью в различных сферах применения языка. Стратегия реализации методической системы формирования языковой компетенции учащихся состоит в отборе дидактических средств (постановке заданий с учетом трудностей усвоения языковых понятий учащимися, сложностей самостоятельного их применения в нестандартных ситуациях; использование заданий на дифференциацию внешне сходных явлений, на классификацию изученного). Реализация системы формирования языковой компетенции учащихся направлена на формирование умений мобилизовать знания, управлять своей деятельностью, осваивать новые способы действия с учебным материалом и на этой основе приобретать знания. Критериями сформированности языковой компетенции учащихся являются умения опознавать языковую единицу, сопоставлять ее с внешне сходными единицами, овладевать способами действия и на этой основе приобретать новые знания. Таким образом, компетентный подход к обучению русскому языку позволяет выявить уровень владения обучаемого языком, что является показателем развития языковой личности, уровень специальных знаний, владение способами действий с языковым материалом и способность к использованию приобретенных знаний в нестандартных ситуациях.

Литература:

1. Антонова Е. С. Методика преподавания русского языка. Коммуникативно-деятельностный подход. М. : Кнорус, 2009. С. 184-185.
2. Жажева Д. Д. Формирование инновационной культуры учителя начальных классов в процессе профессиональной подготовки. Майкоп, 2013. С. 46-51.
3. Зимняя И. А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата современного образования // Эйдос: Интернет-журнал. 2006. URL: <http://www.eidos.ru/journal/2006/0505.htm>
4. Лебедев О. Е. Компетентный подход в образовании // Школьные технологии. 2010. № 5.
5. Махмудбекова Г. У. Заимствование иностранных слов в русском языке. Journal of Research and Innovation. 2024/2/22 2(2), 30-33
6. Makhmudbekova Gulnora Ubaydullaevna. ON THE PROBLEM OF OPTIMIZING THE INTRODUCTION OF TERMS IN TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE. International bulletin of applied science and technology. 2023/3, 367-370

**IJTIMOY MUNOSABAT FE’LLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAVSIFI VA
TILDA FAOLLASHUV JARAYONLARI**

Nabiyeva Zarrina Isomiddinovna

Samarqand davlat chet tillar instituti

Ingliz filologiyasi kafedrasida Phd, dotsent v. b.

+998933578669

E-mail: Zarrinanabiyeva.1990@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18675357>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy munosabat fe’llarining leksik-semantik xususiyatlari hamda ularning zamonaviy til tizimida faollashuv jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida ushbu fe’llarning semantik tuzilishi, funksional imkoniyatlari va nutqdagi qo’llanish doirasi o’rganiladi. Ijtimoiy munosabat fe’llari shaxslararo, guruhlararo va jamiyat miqyosidagi munosabatlarni ifodalovchi muhim leksik birliklar sifatida ko’rib chiqiladi. Shuningdek, ijtimoiy, madaniy va kommunikativ omillar ta’sirida ushbu fe’llarning ma’no kengayishi, yangi semantik soylar hosil qilishi va diskursiv faolligi yoritiladi. Tadqiqot natijalari lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik va diskurs tahlili uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so’zlar: ijtimoiy munosabat fe’llari, leksik-semantik tahlil, semantika, fe’l ma’nosi, til faollashuvi, diskurs, kommunikativ jarayon.

Abstract. This article examines the lexical-semantic characteristics of social relation verbs and the processes of their activation in the modern language system. The study focuses on the semantic structure, functional potential, and usage patterns of these verbs in discourse. Social relation verbs are analyzed as significant lexical units that represent interpersonal, intergroup, and societal relations. Special attention is paid to the influence of social, cultural, and communicative factors on semantic expansion, the emergence of new semantic nuances, and increased discursive activity. The findings of the research contribute to theoretical and practical issues in linguistic semantics, cognitive linguistics, and discourse analysis.

Keywords: social relation verbs, lexical-semantic analysis, semantics, verb meaning, language activation, discourse, communicative processes.

Аннотация. В статье рассматриваются лексико-семантические особенности глаголов социальных отношений и процессы их активизации в современной языковой системе. В ходе исследования анализируются семантическая структура, функциональные возможности и сфера употребления данных глаголов в речи. Глаголы социальных отношений интерпретируются как важные лексические единицы, отражающие межличностные, межгрупповые и общественные отношения. Особое внимание уделяется влиянию социальных, культурных и коммуникативных факторов на расширение значений, формирование новых семантических оттенков и повышение дискурсивной активности. Результаты исследования имеют теоретическое и практическое значение для лексической семантики, когнитивной лингвистики и дискурс-анализа.

Ключевые слова: глаголы социальных отношений, лексико-семантический анализ, семантика, значение глагола, языковая активизация, дискурс, коммуникативные процессы.

Til jamiyat hayoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, unda sodir bo‘layotgan ijtimoiy, madaniy va kommunikativ jarayonlar bevosita til birliklarining ma’no va funksional imkoniyatlarida aks etadi. Ayniqsa, fe’l turkumi jamiyatdagi harakat, holat va munosabatlarni ifodalovchi asosiy leksik-grammatik qatlam sifatida til tizimida muhim o‘rin egallaydi. Shu jihatdan ijtimoiy munosabat fe’llari shaxslararo, guruhlararo hamda ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi aloqalarni ifodalovchi markaziy semantik birliklar sirasiga kiradi.

Zamonaviy tilshunoslikda leksik-semantik tizimning dinamik tabiati, ya’ni til birliklarining faol va nofaol qatlamlarga bo‘linishi, ularning nutq jarayonida faollashuvi masalalari dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy munosabat fe’llari jamiyatdagi o‘zgarishlar, ijtimoiy rollarning yangilanishi, kommunikativ ehtiyojlarning ortishi natijasida yangi ma’nolarni kasb etib, diskursda faol qo‘llanila boshlaydi. Bu holat mazkur fe’llarning semantik kengayishi va funksional yuklamasining ortishiga olib keladi.

Shuningdek, globallashuv, raqamli kommunikatsiya va ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi ijtimoiy munosabat fe’llarining nutqdagi qo‘llanish doirasini kengaytirib, ularning yangi pragmatik va stilistik xususiyatlarini yuzaga chiqarmoqda. Natijada, ushbu fe’llarni faqat an’anaviy semantik yondashuv doirasida emas, balki kognitiv, pragmatik va diskursiv nuqtayi nazardan ham tadqiq etish zarurati vujudga kelmoqda.

Ijtimoiy munosabat har bir tilning ma’lum bir sohasi chegaralarida turlicha tuzilgan, so‘z va iboralardan tashkil topgan semantik kategoriyalarda va semantik sohalarda mustahkamlangan bilimlarga asoslanadi. Tashqi olamning konseptual modeli ijtimoiy tizim shakllangan tushunchalarda taqdim etilgan ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy munosabat fe’llarining leksik-semantik sohasi mantiqiy jihatdan tashkil etilgan tuzilmalar shaklida mavjudligi oydinlashadi. Ular o‘ziga xos bir necha mikromaydondan iborat bo‘lib, har bir mikromaydon alohida fe’llar guruhini o‘z ichiga oladi. Har bir guruh ichidagi tizimlar semantik bog‘liqlikni tashkil qiladi. Ushbu semantik ifoda munosabatlariga inson qabul qiladigan ma’lumotlarning tarkibiga qarab, ahamiyatiga ko‘ra ma’lum bir tartibda shakllanadi. Guruhlarning har birining fe’llari ierarxik ravishda o‘zaro bog‘langan bo‘lib, ijtimoiy munosabatlarni va shaxslararo munosabatlarni idrok etish tizimini tashkil qiladi.

Ijtimoiy munosabat semantik maydoni shakllangan tarkibga ega bo‘lib, maydon yopiq tizim emas, balki ochiq tizim sifatida boshqa maydonlarning semantik tarkibi bilan kesishadi, bu esa ijtimoiy munosabatni keng qamrovligini ta’minlaydi.

Ijtimoiy munosabat maydoniga kiruvchi fe’llarning paradigmatic munosabatlari asosida alohida leksik-semantik xususiyatlarini tavsiflash lisoniy birliklarni tizimli tashkil etishda qo‘llaniladigan hodisa sifatida qaralishi mumkin. Chunki paradigmatic kesimda fe’llarning semantik aloqalari ma’lum qonuniyatlariga bo‘ysunadi. Buning natijasida alohida leksik-semantik guruhlarni tavsifi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy munosabat maydonining semantik sohasi subyekt-obyekt, subyekt-jamiyat, subyekt-subyekt munosabatlarida ko‘rib chiqiladi. Bunda munosabatni tashkil etuvchi va munosabat obyektining o‘zaro ta’siri tasvirining adekvatligini ta’minlaydi.

Semantik voqelik kognitiv jarayonlar natijalarining lingvistik timsolidir. Shunday qilib, ijtimoiy munosabat kognitiv semantik mexanizmlardan tashkil topgan voqelik sifatida baholanadi.

Ijtimoiy munosabatlarni semantik tahlil qilish orqali kognitiv faollikni aniqlay oladi. Shuning uchun ishda induktiv yo‘l qo‘llanildi. Unda semantik derivatsiyaning lingvistik faktlarini tahlil qilishdan tortib, to‘ ushbu jarayonlarni boshqaradigan kognitiv mexanizmlarni aniqlashgacha bo‘lgan jarayon qamrab olindi.

Leksik konseptual tuzilma (LKT) jiddiy kognitiv tarkibga ega bo‘lgan semantik tarkibining puxta ishlab chiqilgan shaklidir. LKT qisman J. Gruber tomonidan tasvirlanganlarga o‘xshash leksik-semantik andozalar asosida va uning keng ko‘lamli kuzatishlar natijalari taklif etilgan. [1]

R. Jekendoffga mashhurlik keltirgan LKTning haqiqiy ko‘rinishi u tufayli paydo bo‘ldi. LKTlar lingvistik va kognitiv istiqbollari kesishmasida shakllanadi. U ba‘zi o‘xshashliklarga ega, ammo semantik va konseptual grafiklar nazariyasiga yaqin yondashuvlar bilan sezilarli farqlarga ega. LKT asosan predikativ elementlarning ma‘nosini va semantikasini ifodalash uchun mo‘ljallangan.

LKT hayotiy vaziyatlarni tasvirlaydigan freymlar va skriptlardan sezilarli darajada farq qiladi. U vaziyat bilan bog‘liq semantikada bo‘lgani kabi harakatlariga yoki olamning mavhum obyektlarini tasvirlashga qaratilgan emas. [2]

LKT asosan “*harakat*” tushunchasi atrofida tashkil etilgan bo‘lsa, qolgan semantik/kognitiv sathlar ana shu tushunchadan o‘xshashlik yo‘li bilan shakllanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, LKT ni bir tomondan til tarkibini ta‘minlovchi semantik model sifatida qaraladi.

LKT tilining turli elementlarini, xususan, konseptual kategoriyalarni, semantik maydonlarni va primitivlarini qamrab oladi. Boshqa tarkibiy qismlarga konseptual o‘zgaruvchilar, semantik xususiyatlar (tanaviy cheklovlariga o‘xshashdir. Masalan, *eatable entity, liquid*), konstant (*money, butter* kabi parchalanmaydigan tushunchalarni ifodalovchi) va leksik funksiyalar kiradi. Pinker, shuningdek, ushbu ro‘yxatda hodisalar (masalan, *vositalar, ta’sir*) o‘rtasidagi munosabatlarni sanab o‘tadi. Ushbu elementlar rasmiy ravishda taqdim etilmaydi, faqat misollar yordamida tahlil etiladi. [3]

R. Jekendoff ontologik kategoriyalarning kichik majmuasidan (nutqning konseptual qismlari deb ham ataladi) ajratilgan konseptual komponent tushunchasini kiritadi, ular orasida eng muhimlari quyidagilardir: *thing, event, state, place, path, property, purpose, manner, amount, time*. [4] Bu kategoriyalar boshqa aniqroq kichik toifalar bevosita ijtimoiy munosabatlarni namoyish etish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Masalan, *thing* kategoriyasi *human+object* munosabatini o‘z ichiga oladi. Bu kategoriyani munosabat tizimining asosi deb hisoblash mumkin.

Konseptual kategoriyaning lug‘aviy bo‘lakka o‘rnatilishi ko‘pincha so‘z kontekstiga bog‘liq, masalan, *meeting* otlari quyidagi holatda “vaqt” kategoriyasiga beriladi: *after the meeting*, u toifaga berilganda ijtimoiy munosabatni ifodalaydi. Leksik birlikka berilishi mumkin bo‘lgan konseptual kategoriya sifatida baholash mumkin.

Konseptual kategoriyalar ko‘rsatkich sifatida bu tarkibning mazmuniga semantik kategoriya bilan ifodalangan hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

LKT oz sonli konseptual primitivlarga asoslangan. Ulardan asosiylari holatni ifodalovchi BE va har qanday hodisani ifodalovchi GO. Boshqa bir sodda strukturaga ega: STAY (BE dagi davomiylilik elementi), CAUSE (sababni ifodalash uchun qo‘llaniladi), INCH (voqelikning inxotativ intepretatsiyasi uchun), EXT (*extension*) (biror narsa yuzasidan fazoning kengayishi), REACT,

EXCH (almashinuv), ORIENT (obyektning orientatsiyasi) va hokazo. Ular juda katta konseptlar ro‘yxatini qamrab olishi ijtimoiy munosabat fe’llar qo‘llanishiga bog‘liq.

LKT Gruberning ilmiy maqolalarida ilgari surilgan ba’zi prinsiplardan foydalanishda qo‘l keladi. Ya’ni lokalizatsiya va harakat tushunchalarini ifodalash uchun ishlatiladigan primitivlik vositalaridan foydalangan holda analogiya yoki umumlashtirish orqali boshqa sohalarga o‘tkazishni taklif etadi. LKT da ko‘rib chiqiladigan asosiy yo‘nalishlar quyidagilardir: lokalizatsiya (+loc), vaqt (+temp), egalik (+poss) va ma’lum bir obyektning xususiyatlarini ifodalash (+char, +ident) yoki uning moddiy tarkibi (+char, +ident). Pinker esa qo‘shimcha sohalarni taqdim etadi. Masalan: epistemologik (+epist) va psixologik (+psy). [5]

LKT fe’llarni turli darajadagi tafsilotlarda va turli konseptual parametrlarga ko‘ra tasniflash imkonini beradi:

- 1) holat/hodisa orasidagi farqga asoslangan;
- 2) o‘zlari hosil bo‘lgan primitivlarga ko‘ra;
 - a) vakillikning ibtidoiy ildizi (asoslari): GO, BE, CAUSE;
 - b) primitivlarga tayinlangan semantik domenlar;
 - c) turli xil fe’l argumentlari va ularning semantik sohalari.

Ko‘rinib turibdiki, ijtimoiy munosabat fe’llarini tasniflashda LKTning umumiy namunasiga asoslanishi kerak. Agar uning ifodasi LKT namunasiga tegishli bo‘lsa, fe’l namuna bilan bog‘langan sinfga tegishli bo‘ladi. Konseptual tasvirga asoslangan tasniflashning bu usuli semantik xususiyatlarga asoslangan tasniflar bilan ba’zi o‘xshashliklarga ega. Chunki LKT namunalarida bir-biri o‘rtasida semantik xususiyatlarga qaraganda kuchliroq aloqalar mavjudligi ko‘rsatilgan. [6] Bundan tashqari, fe’l ma’nosiga yuklamalarni kiritish imkonini beradi va shu tariqa predlogli iboralar bilan bog‘langan leksik qoliplarni kengroq tavsiflash imkoniyati tug‘iladi. [4]

Semantikani o‘rganishning kognitiv jihatini jalb qilgan holda, fe’l tashqi olamni tavsiflash uchun konseptual birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Uning asosiy xarakteristikasi – muayyan standardga ega qolip asosida modellashtirilgan dinamik vaziyatni belgilash imkoniyati bilan belgilanadi.

Tadqiqot jarayonida ijtimoiy munosabat fe’llarining leksik-semantik xususiyatlari hamda ularning zamonaviy til tizimidagi faollashuv jarayonlari atroflicha tahlil qilindi. O‘rganish natijalari shuni ko‘rsatdiki, mazkur fe’llar jamiyatdagi shaxslararo, guruhlararo va ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi muhim leksik birliklar bo‘lib, tilning semantik tizimida markaziy o‘rin egallaydi.

Tahlillar davomida ijtimoiy munosabat fe’llarining semantik tarkibi murakkab va ko‘p qatlamli ekanligi aniqlandi. Ularning ma’nosida baholash, munosabat, ta’sir va kommunikativ yo‘nalish semalari mujassam bo‘lib, bu holat fe’llarning nutqdagi funksional imkoniyatlarini kengaytiradi. Jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlar, madaniy jarayonlar va kommunikativ ehtiyojlarning ortishi ushbu fe’llarning ma’no kengayishi, yangi semantik soyalar bilan boyishiga sabab bo‘lmoqda.

Shuningdek, ijtimoiy munosabat fe’llarining faollashuv jarayoni ularning turli diskurs turlarida, xususan, ommaviy axborot vositalari, siyosiy, ijtimoiy va raqamli kommunikatsiya doirasida keng qo‘llanilishi bilan izohlanadi. Bu jarayon fe’llarning nafaqat leksik-semantik, balki pragmatik va stilistik jihatdan ham rivojlanayotganligini ko‘rsatadi. Natijada, ayrim fe’llar an’anaviy ma’nodan chiqib, metaforik va kontekstual ma’nolarda faol ishlatila boshlaydi.

Umuman olganda, ijtimoiy munosabat fe’llarini leksik-semantik va diskursiv jihatdan tadqiq etish til tizimining dinamik xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari leksik semantika, ijtimoiy lingvistika va kognitiv tilshunoslik sohalarida olib boriladigan keyingi izlanishlar uchun nazariy asos bo‘lib, amaliy jihatdan til birliklarining nutqdagi funksionalligi va faollashuv mexanizmlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Gruber J. Topicalization in Child Language. Foundations of Language 3 (1). 1967. – P. 134.
 2. Jackendoff R. Semantic Structures. The MIT, 1992. – P. 86.
 3. Pinker S. The language instinct. – New York: W. Morrow and Co. , 1989. – P. 76.
 4. Jackendoff R. Semantics and cognition. Cambridge, 1983. – P. 65.
 5. Pinker S. The language instinct. – New York, 1994. – P. 94.
- Saeed J. Semantics. Malden, Mass. : Wiley-Blackwell. 2009. – P. 35

IN WHICH REGIONS ARE LEGENDS MORE COMMON?

Shaxnoza Isaqova Baxtiyorovna

Namangan State Technical University

Teacher at the Department of English

Email: shahnozaisaqova53@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18675406>

Abstract: *This article analyzes the regional distribution of legends and examines the areas where they are most common. Using England and Uzbekistan as case studies, the research explores how historical events, religious centers, sacred sites, and natural landscapes influence the formation and preservation of legends. The study highlights the connection between legends and cultural memory, national identity, and oral storytelling traditions. Regions such as Sherwood Forest, Cornwall, Yorkshire, as well as Bukhara, Samarkand, and Khorezm are examined as examples of legend-rich areas.*

Keywords: *legend, folklore, regional distribution, cultural memory, oral tradition, cultural heritage, Sherwood Forest, Bukhara, Samarkand, Khorezm, religious centers.*

Аннотация: *В данной статье анализируется территориальное распространение легенд и рассматривается вопрос о том, в каких регионах они наиболее распространены. На примере Англии и Узбекистана исследуется влияние исторических событий, религиозных центров, священных мест и природных ландшафтов на формирование легенд. Особое внимание уделяется взаимосвязи легенд с культурной памятью, национальной идентичностью и традициями устного народного творчества. В качестве примеров рассматриваются такие регионы, как Шервудский лес, Корнуолл, Йоркшир, а также Бухара, Самарканд и Хорезм.*

Ключевые слова: *легенда, фольклор, региональное распространение, историческая память, устное творчество, культурное наследие, Шервудский лес, Бухара, Самарканд, Хорезм, религиозные центры.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada afsonalarning hududiy tarqalishi tahlil qilinib, ular qaysi mintaqalarda ko‘proq uchrashi qiyosiy jihatdan o‘rganiladi. Tadqiqotda Angliya va O‘zbekiston misolida tarixiy voqealar, diniy markazlar, muqaddas qadamjolar hamda tabiiy landshaftlarning afsonalar shakllanishiga ta’siri ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, har ikki hududda afsonalarning madaniy xotira, milliy o‘zlik va og‘zaki ijod an’analari bilan uzviy bog‘liqligi yoritiladi. Maqolada Sherwood o‘rmoni, Kornuoll, Yorkshir hamda Buxoro, Samarqand, Xorazm kabi afsonalarga boy hududlar misol tariqasida tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *afsona, rivoyat, hududiy tarqalish, tarixiy xotira, og‘zaki ijod, madaniy meros, Sherwood o‘rmoni, Buxoro, Samarqand, Xorazm, diniy markazlar.*

Introduction

Legends have always been an essential part of cultural heritage and collective memory. They reflect a society’s historical experiences, spiritual beliefs, moral values, and imagination. Unlike simple stories, legends are usually connected with specific places, historical figures, or remarkable events. For this reason, they are not distributed evenly across all regions. Some geographical areas

become centers of legendary narratives due to their historical importance, religious significance, or unique natural landscapes.

Throughout history, both England and Uzbekistan have developed rich traditions of oral storytelling. Castles, forests, sacred shrines, and ancient cities have inspired generations to create and preserve legendary tales. In England, medieval history, feudal traditions, and Christian heritage have shaped numerous heroic and supernatural legends. In Uzbekistan, Silk Road cities, Islamic culture, and Central Asian traditions have given rise to spiritual and historical narratives that remain alive in popular memory.

This article aims to explore the regional concentration of legends in England and Uzbekistan and to identify the main factors influencing their development and preservation. By comparing selected regions from both countries, the study highlights how history, religion, geography, and cultural identity contribute to the richness of legendary traditions.

Regions Rich in Legends in England:

Nottinghamshire and Sherwood Forest

Famous as the setting of Robin Hood legends.

The dense forest and medieval history of the region make it the perfect environment for tales of outlaws, freedom, and justice.

Cornwall and the South-West

Associated with Arthurian legends: King Arthur's birthplace, Tintagel Castle, and the quest for the Holy Grail.

The dramatic coastlines and ancient Celtic heritage contributed to mystical storytelling.

Yorkshire and Northern England

Rich in ghost stories and supernatural legends.

Ancient castles, abbeys, and battlefields provide a backdrop for haunted tales.

London and Surroundings

Legends about the Tower of London, ravens, and royal figures.

Many stories mix history with myth, such as executions, betrayals, and prophecies.

Scottish Highlands (though not England, part of the UK)

Legends of warriors, clans, and mythical creatures like the Loch Ness monster.

These stories reflect the Celtic and Gaelic heritage.

Regions Rich in Legends in Uzbekistan

Bukhara

A spiritual and cultural center with countless legends about Sufi saints like Bahauddin Nagshband and sacred shrines. Many rivoyatlar explain the holiness of places and the miracles of saints.

Samarkand

Legends about Amir Temur, Registan, and ancient monuments. Stories mix history with imagination, glorifying the city's past as a center of culture and science.

Khorezm

Birthplace of many epic and heroic legends like those of Gorogly, Known for tales of bravery, justice, and resistance.

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

Fergana Valley

Rich in oral tradition, including romantic and moral legends. Often connected to family honor, loyalty, and spiritual lessons.

Surkhandarya and Kashkadarya

Legends are tied to ancient sites and natural landmarks, such as sacred mountains and caves. Also home to stories of saints and travelers along the Silk Road.

Factors Influencing the Regional Richness of Legends:

Historical Importance: Regions with battles, rulers, or famous events produce historical legends.

Religious Centers: Places with mosques, churches, shrines, or monasteries generate spiritual legends.

Natural Landscapes: Forests, mountains, rivers, and lakes often become the setting for geographical or supernatural legends.

Cultural Identity: Regions with strong traditions of oral storytelling preserve legends better than others.

Comparative Aspect:

In England, legends often cluster around castles, forests, and medieval ruins, reflecting feudal history and Christian traditions.

In Uzbekistan, legends are concentrated around shrines, sacred sites, and historic Silk Road cities, reflecting Islamic, Turkic, and Central Asian cultural roots.

Legends live most strongly where history, spirituality, and nature come together. In England, Sherwood Forest, Cornwall, and Yorkshire are legendary centers, while in Uzbekistan, Bukhara, Samarkand, and Khorezm hold the richest collections of stories. These regions serve as cultural treasure houses, keeping alive the voices of heroes, saints, and ancestors for future generations.

References:

1. Jacobs, J. (1890). English Fairy Tales. London.
2. Grimm, J. & Grimm, W. (1812). Kinder- und Hausmärchen.
3. Propp, V. (1968). Morphology of the Folktale. University of Texas Press.
4. Teylor, E. B. (1871). Primitive Culture.
5. Freyzer, J. (1890). The Golden Bough.
6. Yo‘ldoshev, M. (2010). O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Toshkent.
7. Karimov, H. (2011). O‘zbek xalq ijodining tarixiy asoslari. Toshkent.
8. Jung, C. G. (1954). The Archetypes and the Collective Unconscious. Princeton University Press.

O‘TROR HOKIMI G‘OYIRXONNING XORAZMSHOH ALOUDDIN MUHAMMAD VA CHINGIZXON MUNOSABATLARIDA TUTGAN O‘RNI

Ibrohimova Salima Shuhrat qizi

Namangan davlat pedagogika instituti ijtimoiy fanlar fakulteti tarix yo‘nalishi 1-bosqich

TRX-AU-25-guruh talabasi

E-mail: ibrohimova1501@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18675437>

Annotatsiya: *Ushbu maqolada vatanparvar sarkarda G‘oyirxonning hayoti va faoliyati, uning mo‘g‘ullar istilosiga qarshi mardonavor kurashi bayon etilgan. Bundan tashqari o‘sha davrdagi Xorazmshohlar davlatining siyosiy hayoti haqida ham ma‘lumot berilgan.*

Аннотация: *В данной статье описаны жизнь и деятельность патриотического генерала Гайрхана, его героическая борьба против монгольского нашествия. Кроме того, даются сведения и о политической жизни государства Хорезмшахов в то время.*

Abstract: *This article describes the life and work of the patriotic general Goyirkhan, his heroic struggle against the Mongol invasion. In addition, information is also given about the political life of the Khorezmshah state at that time.*

Kalit so‘zi: *Mo‘g‘ullar, Xorazmshohlar, Chingizxon, G‘oyirxon, O‘tror, qoraxitoylar, Sulton Alouddin Muhammad, Turkon хотун, qipchoqlar.*

Ключевые слова: *монголы, хорезмшахи, Чингисхан, Гаурхан, Отрар, каракитаи, султан Ала ад-Дин Мухаммад, Туркан-хатун, кипчаки.*

Keywords: *Mongols, Khorezmshahs, Genghis Khan, Ghayir Khan, Otrar, Qara Khitai, Sultan Ala al-Din Muhammad, Turkan Khatun, Kipchaks.*

XII asrning oxiri-XIII asr boshlarida mo‘g‘ul qavm va qabilalari Chingizxon (Temuchin) boshchiligida yagona davlatga birlashdilar. Chingizxon markazlashgan davlat tuzib, 1206-yil O‘non daryosi bo‘yidagi qurultoyda barcha mo‘g‘ul qabilalari xoni- ulug‘ xoqon (qoon) unvonini oldi.

1215-yilda Shimoliy Xitoyini bo‘ysundirgach va Kuchlug‘ davlatini hamda Qoraxitoylardan bo‘ladigan xavfni bartaraf etgach, Chingizxonning e‘tibori va keyingi harbiy bosqinchilik yurishlari g‘arbiy hududlar-Xorazmshohlar davlatiga qaratildi.

Bu davrda Movarounnahr, Xuroson, Xorazm, Eronning katta qismidagi hududlarda Xorazmshoh Alovuddin Muhammad (1200-1220-yillar) hukmronlik qilar edi. Uning davrida davlat gullab-yashnagan. Mamlakat asosiy dushman – Qoraxitoylar tazyiqidan xalos qilinib, 1210-yilda Qoraxitoylar boshlig‘i Go‘rxon mag‘lub etiladi va mamlakat hududidan quvib chiqariladi. Sulton Alouddin Muhammad davrida Xorazmshohlar davlati hududi ancha kengayib, davlat chegaralari Mo‘g‘ullar imperiyasi chegaralari bilan tutashib ketadi.

Dastlab, bu ikki qudratli davlat o‘rtasida savdo va elchilik munosabatlari o‘rnatilgan. Biroq har ikki davlat bir-biriga tabiiy ravishda raqobat ko‘zi bilan qaragan va urush harakatlari kelib chiqishi aniq bo‘lib qolgan edi. Binobarin Chingizxon avval boshdan savdogar va josuslar orqali Xorazmshohlar davlati ichki va tashqi siyosati, qo‘shin ahvoli, davlat boshqaruvi to‘g‘risida kerakli

ma'lumotlarni yig'ib yurgan va imkoni bo'lishi bilan bu davlatga harbiy yurishlarni amalga oshirish niyatida bo'lgan. Ishonarli manbalarning guvohlik berishicha, Sulton Alouddin Muhammadning ham Xitoyni egallash ishtiyoqi yuqori bo'lgan.

1218-yilda Chingizxon Xorazmshohlar davlatiga yuborgan katta boyliklari bo'lgan savdo karvonining O'tror shahrida talanishi Chingizxon va Xorazmshoh o'rtasidagi munosabatni keskinlashiga sabab bo'ldi.

Chingizxon Xorazmshohlar davlatiga yurishi arafasida 200 minglik qo'shinga ega bo'lgan. Sultonning esa ko'plab manbalarda 400 ming kishilik qo'shini bo'lganligi aytiladi. Biroq, Xorazmshohlar davlatidagi siyosiy parokandalik, qipchoqlar malikasi Turkon xotun boshchiligidagi qo'shhokimiyatchilik, yagona ichki birlikning yo'qligi oqibatida Xorazmshohlar davlati Chingizxon yurishlari oldida ojiz bo'lib qoladi.

1219-yilda Chingizxon Xorazmshohlar davlatiga qarshi harbiy harakatlarni boshlaydi. Muhammad Xorazmshohning ulkan qo'shinni bir joyda to'plashdan qo'rqib tanlagan no'tog'ri jang taktikasi oqibatida mo'g'ullar Xorazmshohlar davlatiga juda qattiq talafotlar keltirgan yurishlarni amalga oshiradi.

Chingizxon boshliq mo'g'ul istilosiga qarshi ko'plab vatanparvar sarkardalar kurash olib boradilar. Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik singari sarkardalar mo'g'ullar bilan yirik janglar olib borib, muhim g'alabalarga erishadilar. Xorazmshohlar davlatida Mo'g'ullar istilosiga qarshi kurashgan mashhur Vatanparvar sarkardalardan biri O'tror hokimi Inolxon edi.

Inolxon Xorazmshohlar davlatida ta'siri kuchli bo'lgan qipchoq urug'iga mansub bo'lib, O'tror hokimi, Xorazmshoh Muhammadning onasi Turkon xotunga qarindosh bo'lgan. Turkon xotun qipchoqlarning qang'li urug'i Yemek qabilasidan edi. Inolxonning Turkon xotunga qarindoshligi haqida turlicha ma'lumotlar bor. Jumladan, Abulg'oz Bahodirxon uni Inolxon (Inoljiq), asl ismi G'oyirxon, Sulton Muhammadning tog'asi deb ataydi. Rashididdinning ma'lumotiga ko'ra, Inolxon (Inolchuq), Xorazmshoh Muhammadning tog'asi, Juvayniyning ma'lumotlariga ko'ra, Inoljuq, Turkon xotunga qarindoshligi sababli G'ayirxon deb ham atalgan. Inoljuq-chig'atoy turkchasida “shahzoda” degan ma'noni bildiradi. Bu so'z unvonigina anglatmay, ism bo'lishi ham mumkin. G'ayirxon turkmancha so'z bo'lib, “qudratli” degan ma'noni bildiradi. Juzjoni uni Qairxon deb ataydi. Ba'zi ma'lumotlarda Turkon xotun Inolxonning xolasi deb ham ko'rsatiladi. Majusiylikka e'tiqod qilib yurgan kezlaridagi ismi — Yagantug'di (Yagan — qad. turkiychada filni anglatadi), Islomni qabul qilgandan keyingi ismi esa Tojuddin.

Inolxon Muhammad Xorazmshoh tomonidan O'troga hokim qilib tayinlangan(1210—1220). Mo'g'ullar istilosi arafasida 60 yoshlar atrofida bo'lib, baland bo'yli, cho'qqi soqolli, oriq va chayir odam bo'lgan. Ko'plab tarixchi olimlar tomonidan Inolxon Chingizxon va Xorazmshoh o'rtasida kelib chiqqan urush sababchisi sifatida talqin etiladi. Bu anchagina bahsli mavzu bo'lib, ko'plab tarixchilarning tortishuvlariga sabab bo'lgan.

Chingizxon 1218-yilning oxirida 450 ta savdogar, 500 ta tuya, qimmatbaho mollar ortilgan katta savdo karvonini Xorazmshohlar davlatiga yubordi. Bu karvon O'tror shahrida to'xtatib qolinadi. Nasaviyning yozishicha, Inolxon bu karvon boyliklariga ega chiqish maqsadida karvon savdogarlarini josuslikda ayblab sultonga maktub yuboradi. Sulton savdogarlarni o'ldirishga buyruq bermagan bo'lsa-da, Inolxon barcha savdogarlarni qatl ettirib, boyliklarini o'z bilganicha taqsim qiladi.

Shuningdek, Ziyo Bunyodov bu fikrlarga qo‘shimcha ravishda Chingizxonning Xorazmshohlar davlatiga yurish qilish niyati bo‘lmagani holda, Inolxon qatl ettirgan 450 ta savdogar musulmon bo‘lgani, bu musulmon olamining himoyachisi hisoblangan Muhammad Xorazmshohning aybi ekanligini aytadi. Xorazmshohni musulmon bo‘la turib, musulmonlar qonini to‘kishda ayblaydi, Chingizxon esa musulmonlar xaloskori sifatida talqin etiladi.

Biroq, manbalarni chuqurroq tahlil qilinsa, quyidagicha xulosa chiqarish mumkin bo‘ladi. Ibn al-Asirning ma‘lumotlariga ko‘ra Inolxon bu karvonni shaxsan Xorazmshoh buyrug‘i bilan talagan va savdogarlarni qatl ettirgan. Xorazmshoh bu karvondan katta miqdordagi boyliklarni olganini ham aytadi. Ibn al-Asir bu ma‘lumotni mo‘g‘ullar qo‘liga asir tushib, keyin ulardan Samarqandda qutilgan faqih ash-Shihobiddin al-Xivaqiydan olganini aytadi. Xorazmshohning bu karvonga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lishini o‘ziga xos sabablari bor edi.

Xususan, Chingizxon yuborgan karvonda Uxuna ismli mo‘g‘ul bo‘lib, u Xorazmshohga Chingizxon nomasini olib kelayotgan edi. Noma jahon fotihligiga da‘vo qilayotgan Chingizxon tomonidan buyruqnamo ohangda yozilgan bo‘lib, unda jumladan, “. . . biz bundan buyon davlatlar o‘rtasida tinchlik o‘rnatilishini buyuramiz . . . ” deyilgan edi. Noma Chingizxon ochiq-oydin jahon egasi bo‘lishga ishtiyoqi baland ekanidan dalolat beradi Bu esa haqli ravishda avvaliga “o‘z suyuqli o‘g‘illari” qatorida ko‘ramiz deb Xorazmni o‘zining qaram davlatiga aylantirish niyatidaligini bildirgan Chingizxonga nisbatan Xorazmshohning qattiq g‘azablanishiga sabab bo‘ladi.

Shuningdek, musulmon bo‘la turib musulmonlar qonini to‘kishda Xorazmshohning ayblanishi ham biroz mulohaza talabdir. Chunki Chingizxon bu savdo karvoni talanishini oldindan bilgan, aynan shuning uchun ham bu karvonga katta boyliklar, musulmonlar va qarindoshlaridan qo‘shib jo‘natgan. A. Sagdullayev bu to‘g‘rida quyidagicha fikr bildirgan: “Chingizxon islom olamining dushmani bo‘lib qolmasligi uchun shunday yo‘l tutdiki, urush boshlanishiga rasman Xorazmshoh sabab bo‘lib qoldi, o‘zini esa “oliyjanob xaloskor” deb hisobladi. Aslida esa u urush boshlanishini har jihatdan xohlar, barcha harakatlarini urush boshlashi uchun safarbar qilgan edi. Albatta, Xorazmshoh ham katta xatoga yo‘l qo‘ygan edi, lekin urushning sababchisi va boshlovchisi faqat Muhammad Xorazmshoh bo‘lmaganligini, urush boshlanishiga har ikkala tomon ham sababchi bo‘lganligini tarixiy voqeliklar tahlili orqali bilib olishimiz mumkin”. Chingizxon nihoyatda ayyor shaxs edi. U qo‘shini hamda mog‘ul qabilalarining diniy qarashlarga qattiq ishonishidan ustalik bilan foydalana olardi. Binobarin, bu ikki qudratli davlat o‘rtasida urush kelib chiqishi aniq va muqarrar bo‘lib, Chingizxon harbiy harakatlar boshlash uchun bahona izlayotgan edi. Karvon talangach va musulmon hamda Chingizxon qarindoshlari o‘ldirilgach jahon siyosiy maydonida o‘z bosqinchilik yurishlarini oqlashi mumkin bo‘ladi. Shu bilan birga musulmonlar o‘ldirilishi bilan Xorazmshohning obro‘sigacha katta zarar yetkazadi. Ayyor Chingizxon o‘zi yuborgan savdogarlar taqdirini oldindan bilgan, ularning talon-taroj qilinishidan yoki o‘ldirilishidan, o‘z navbatida, qurultoyda ular urush boshlashga qarshiliksiz rozi bo‘lishlarini kutgan edi.

Bundan tashqari, Inolxonning savdogarlarni josuslikda noo‘rin ayblagani, buni faqat boylik ilinjida qilgan degan fikr ham ancha tahlilga molik. Chunki Chingizxon bu savdo karvoni bilan o‘z xufiyalarini ham yuborgan bo‘lishi mumkin. Chingizxon boshqa davlatlar haqida ma‘lumotlar to‘plashda ayg‘oqchi sifatida, asosan, savdogarlardan foydalangan. Xorazmshohlar davlati haqida deyarli barcha ma‘lumotlarni savdogar Mahmud Yalavoch orqali olganligi hamda davlat egallangach,

Chingizxon uni katta lavozimlarga tayinlaganligi fikrimizga yaqqol dalil bo‘la oladi. Mixail Ivanin o‘z asarida shunday yozadi: “U (Inolxon) Muhammadga, bular (Chingizxon savdogarlari) ayg‘oqchilar ekanligi, chunki O‘tror aholisidan savdoga aloqasi yo‘q narsalar haqida so‘rab-surishtirganliklari, aholiga Chingizxonning daxshatli kuchlari va bosqinlari haqida. . . so‘zlab, tahluka uyg‘otganlari haqida xabar yetkazdi. Chingizxon savdo karvoni bilan Xorazm davlati holatini va unga boradigan qulay yo‘llarni o‘rganish uchun ayg‘oqchilar yuborgan, deb aytish mumkin. Muhammad karvon bilan kelgan kishilarni qatl etishga buyruq berdi”. Bundan ko‘rinadiki, Xorazmshoh bularning ayrimlari musulmon va Vatandosh (Al-O‘troriy, al-Buxoriy, avvalgi savdogar Mahmud Xorazmiy) bo‘lishiga qaramay, butparast Chingizxonning vakili bo‘lib kelishi asnosida yuqoridagi dalillarga ko‘ra uning ayg‘oqchisi bo‘lgan sotqinlar degan xulosa chiqarishiga to‘la va haqli ravishda sabab bo‘ladi. Shuning uchun Islom homiysi sifatida musulmon mamlakatlarini bunday xoinlardan tozalash maqsadida savdogarlarni qatl ettirgani Xorazmshohni aksincha oqlaydi.

Shuningdek, Chingizxon Xorazmshohlar davlatiga budparastlar yurtidan ataylab musulmon savdogarlarini yuborganligi katta ig‘vo tarqatish niyatida bo‘lganligini alohida e‘tirof etish kerak.

Ziyo Bunyodovning “Chingizxon Xorazmshohlar davlati bilan rostmana do‘stlik va hamkorlikni o‘rnatish niyatida edi, uning Xorazmga yurish qilish niyati umuman bo‘lmagan”, degan fikrlari mutlaqo xato va haqiqatdan juda uzoqdir. Chunki Chingizxon avval boshdan imkon bo‘lishi bilan Xorazmshohlar davlatiga yurish qilish niyatida o‘z ayg‘oqchilari – savdogarlar orqali Xorazm davlati holatini, ichki va tashqi siyosati, qo‘shin ahvoli, xullas o‘z yurishlari uchun barcha kerakli ma‘lumotlarni to‘plab yurgan edi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, Inolxonning Mo‘g‘ullar va Xorazmshohlar davlati o‘rtasida kelib chiqqan urushda aybdor deb hisoblash noto‘g‘ri bo‘ladi. Ertami kechmi urush bo‘lishi muqarrar edi, Chingizxon faqat qurultoyda urush boshlash uchun qaror qabul qilishga asos bo‘la oladigan bahona izlayotgan edi, xolos. Va u bunga juda ayyorlik bilan erishdi, bu ishi orqali ham musulmonlar xalokori sifatida o‘z bosqinchilik yurishlarini oqladi, ham bu bilan musulmonlar homiysi Xorazmshohni o‘brosizlantirdi va ichki birlikni yo‘qotishga erishdi. Biroq, Chingizxon rostdan ham musulmonlar xalokori bo‘lganida O‘trorda, Samarqand, Buxoro, Urganch, qo‘yingki, barcha o‘zi bosib olgan hududlarda minglab, o‘n minglab va hatto yuz minglab musulmonlarni ommaviy qirmagan bo‘lar edi. Shuning o‘zi ham Chingizxonning bu hududlarga bosqinchilik yurishi niyati katta bo‘lganidan dalolat beradi.

Chingizxon Ibn Kafroj Bug‘ro boshchiligida Xorazmshohga Inolxonni unga topshirishi, aks holda urush boshlanishini bildirib yuborgan elchilarining bir nafari o‘ldiriladi, qolgan ikkala elchi esa soch-soqoli qirilib, sharmanda qilib jo‘natib yuboriladi. Natijada Mo‘g‘ullar qurultoy chaqirib, Xorazmshohlar davlatiga qarshi yurish boshlashga qaror qabul qilishadi.

1219-yili Chingizxon o‘z o‘g‘illari boshliq 200 mingga yaqin asosiy harbiy kuchlari bilan anchadan beri puxta tayyorlangan Xorazmshoh-Anushteginiylar davlati ustiga harbiy yurishni boshladi. Chingizxon qo‘shinga dam berish va harbiy holatni mustahkamlash maqsadida yozni Irtish daryosi bo‘yida o‘tkazdi. Kuzda harbiy harakatlarni boshlab, qo‘shinni to‘rt qismga bo‘ldi. O‘trorni egallash uchun o‘g‘illari Chig‘atoy va O‘qtoy boshchilik qilayotgan qismni qoldirdi.

O‘tror eng mustahkam qal‘alardan biri edi. Uning himoyasiga Xorazmshoh 20 minglik qo‘shini bilan Inolxonni qoldirgan. Shuningdek yordam tariqasida 50 ming kishilik “Lashkari birun”

ham yuborilgan. Bularga qo‘shimcha tarzda qang‘li urug‘idan bo‘lgan Qoracha Hojib boshchiligida yana o‘n ming kishilik qo‘shin kelib qo‘shilgan. O‘tror qamalga yaxshi tayyorlangan qal‘a edi, uning mudofaasiga Inolxon mohirlik bilan boshchilik qiladi. Aytish kerakki, Urganchdan so‘ng hech bir qal‘a va mudofaachilar mo‘g‘ullarga O‘trorchalik, Inolxonchalik qattiq qarshilik ko‘rsata olmaydi va Mo‘g‘ullar bu darajada ko‘p askar yo‘qotmaydi. Inolxon o‘zini Xorazmshohlar va mo‘g‘ullar o‘rtasida kelib chiqqan urushda aybdor deb hisoblab oxirgi imkoni qolguncha jang qildi.

Mo‘g‘ullar shaharga oqib kiruvchi ariqlarni ko‘mib tashlashgan, manjaniqlardan shaharga qarata tosh va yonuvchi moddalar irg‘itganlar, qo‘rg‘on atrofidagi xandaqlar tuproq hamda shox-shabbalar bilan to‘ldirilgan, devorlar ostidan lahimlar qazilgan, tevarakatrofdagi dovdaraxtlar kesilib, uzun, ulama qamal shotulari yasalgan.

O‘tror mudofaasi davrida nafaqat qamaldagilar, balki mo‘g‘ullar ham katta talafot ko‘rishgan. Janglar juda shiddatli tus oladi, mog‘ullar juda og‘ir ahvolga tushib qoladi. Har ikkala tomon ham juda ko‘p qurbonlar beradi. O‘tror mudofaachilari mardonavor tarzda jang qiladilar. Inolxon shu darajada qattiq qarshilik ko‘rsatadiki, Chingizxon bundan g‘azablanib Chig‘atoy va O‘qtoygga juda haqoratli maktub yozadi. Inolxonni tiriklayin qo‘lga olishni buyuradi.

O‘tror besh oy qarshilik ko‘rsatadi. Shundan so‘ng shaharda ochlik boshlanadi. Bunday vaziyatda Qoracha Hojib Inolxonga mo‘g‘ullarga taslim bo‘lishni taklif qiladi. Biroq Inolxon buni qat‘iy ravishda rad etadi. Juvayniyning ma‘lumotlariga ko‘ra, u Qoracha Hojibga shunday degan: “Agarda taslim bo‘lsak, valinematimiz bo‘lgan Sultonga vafosizlik qilgan bo‘lamiz. So‘ngra bu ishimiz uchun qanday sabab topamiz? Musulmonlar biz to‘g‘rimizda aytajak achchiq gaplar va tanqidlarga nima deb javob beramiz?”. Biroq, Qoracha Hojib tunda o‘z askarlari, oziq-ovqat va otlar bilan So‘fiyxon darvozasidan chiqib, mo‘g‘ullar tomoniga xiyonatkorona o‘tib ketadi va shahar darvozasini ochib beradi. Natijada, besh oylik qamaldan so‘ng mo‘g‘ullar shaharga bostirib kiradilar. Inolxon 20 minglik shaxsiy qo‘shini bilan shahar tashqarisida mardonavor jang qiladi. Lekin mo‘g‘ullar shaharga yorib kirib, uni qal‘a ichkarisiga chekinishga majbur qiladi.

Mo‘g‘ullar O‘trorning butun aholisini sahroga haydab chiqaradilar va qatli om qiladilar.

Inolxonning odamlari oxirgi odami qolguncha jang qiladilar. Juvayniyning ma‘lumotlariga ko‘ra, ularning ko‘pchiligi navbat bilan qal‘aning oldiga elliktalik guruh holida chiqib, jang qilib halok bo‘ladilar. Inolxonning askarlari mo‘g‘ullarga katta talofat yetkazadilar. Bir oycha qarshilik ko‘rsatgandan so‘ng Inolxon ikkita jangchisi bilan qolib, qarshilikni davom ettiradi. Inolxonni bir uyning tomiga siqib, iskanjaga oladilar. Inolxon jon-jahdi bilan kurashadi, lekin taslim bo‘lmaydi. Ikki askari ham halok bo‘lgach, Inolxon tom ustida qo‘liga ilingan narsa bilan himoyalanaadi. Biroq, tiriklayin qo‘lga olish buyurilganligi uchun oxir oqibatda uni asirga oladilar va zanjirband etib, Samarqandga – Chingizxon huzuriga olib boradilar. Chingizxon kumushni eritib, Inolxonning ko‘zlari va quloqlariga quydirib, daxshatli o‘limga duchor qiladi.

O‘tror olingach, qal‘a butunlay vayron qilinadi. Tirik qolganlardan hunarmandlar ajratib olinadi. Qolganlaridan esa boshqa shaharlarni qamal qilishda hujum qilayotgan askarlarning oldini himoya qiluvchi to‘siq sifatida foydalanadilar. Qoracha Hojib esa shahzodalarning oldiga keltiriladi. Xiyonatkoraga mo‘g‘ullar ham shafqat qilmaydi. Uni otlaridan tushirib, barcha odamlari bilan qatl ettiriladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Inolxon o‘z Vatani, davlati tinchligi va xavfsizligi uchun jon fido qilgan sarkarda hisoblanadi. Har qanday vaziyatda ham u xiyonat yoki dushmanga taslim bo‘lishni istamadi va oxirigacha kurashdi. Inolxonga nisbatan salbiy fikrlar bildirilishining asosiy sabablaridan biri – Inolxon Xorazmshohlar davlati tanazzulining bosh sababchilaridan hisoblangan Turkon xotunning qarindoshi, qipchoq urug‘iga mansub bo‘lgan. Ba’zi qipchoq amirlarining xiyonat yo‘lini tutishi, Turkon xotunning mamlakatdagi diariya(qo‘shhokimiyatchilik) siyosati sababidan tarixchilar boshqa qipchoq amir va sarkardalariga nisbatan ham salbiy fikrda bo‘lganlar. Lekin tarixchi sifatida manbalarni tahlil qilish, vaziyatga holisona yondashish muhimligini ham unutmaslik lozim. Chunki har bir asar muallifning o‘z nuqtai nazari, shaxsiy yondashuvi asosida yoziladi. Uni o‘qish barobarida asarda keltirilgan ma’lumotlar haqida chuqur tahlil qilib va mulohaza yuritib, so‘ng xulosa chiqarish kerak. Garchi qanchalik qipchoq deyilmasin, qanchalik Turkon xotun tarafdori bo‘lmasin, davlat mudofaasi masalasiga kelganda bu qipchoq amirlari, qipchoq sarkardalarining juda ko‘pchiligi oxirgi tomchi qonlari qolguncha jang qilganlar. Birgina Urganch qamalida birorta ham qipchoq amirlari, qipchoq askarlari tiriklayin mo‘g‘ullar qo‘liga tushgan emas. Ularning barchalari jangda mardlarcha halok bo‘lganlar.

Inolxon ham shunday sarkarda edi. Uning mardonavor qarshilik ko‘rsatishi natijasida mo‘g‘ullar katta talofat ko‘rdilar. Qamalning uzoq davom etishi anchagacha Chingizxonga o‘z qo‘shinlarini muvofiqlashtirish va yangi janglarga tayyorgarlik ko‘rish imkonini bermadi. Inolxon Chingizxon bosqiniga qarshi mardonavor kurashgan sarkarda sifatida tarixda qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A. Sagdullayev. O‘zbekiston tarixi. Vneshinvestprom. T.: 2019. 642b.
2. A. Баҳодир. “Шажараи Турк”. “Тошкент” “Чўлпон”. 1992. Б 187.
3. Жувайний “Тарихи жаҳонгушо” Toshkent. “Mumtoz so‘z” 450-bet
4. Б. Зиё. “Хоразмшоҳ – Ануштегинийлар” Тошкент Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1998. 254бет.
5. Қ. Машарипов “Жалолиддин буюк ватанпарвар саркарда” Наврўз нашриёти. Тошкент – 2019. 253-бет.
6. Михаил Иванин “Икки буюк саркарда” Тошкент – 2017. 240-бет.
7. Мирзо Улуғбек “Тарихи арба улус”. 224-бет.
8. Насавий “Ўзбекистон”. “Ёзувчи”. 1999. 380-бет.
9. Акбаров Р. (2023). Вопрос электрификации Узбекистана в годы Второй мировой войны (по данным узбекской национальной прессы). Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 443–455. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/history-of-uzbekistan/article/view/16527>

**ROMANLARDA TARIXIY HAQIQAT MASALASI
(ISAJON SULTONNING “ABU RAYHON BERUNIY” ROMANI ASOSIDA)**

Ismoilova Fotima

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
tayanch doktoranti*

E-mail: fotimaismoilova813@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18675458>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotida muhim o‘ringa ega bo‘lgan janrlardan roman janrida hayotiy haqiqatning ifodasi zamonaviy o‘zbek adabiyotining yetakchi vakillaridan biri Isajon Sultonning tarixiy romanlaridan biri “Abu Rayhon Beruniy” romani asosida tahlil qilingan. Asar nafaqat badiiy, balki tarixiy ahamiyati bilan ham diqqatga sazovordir.

Kalit so‘zlar: roman, tarixiy roman, tarixiy haqiqat, mahorat, usturlob, kashfiyot, , tarixiy voqea.

**ВОПРОС ИСТОРИЧЕСКОЙ ПРАВДЫ В РОМАНАХ
(ПО РОМАНУ ИСАДЖОНА СУЛТАНА "АБУ РАЙХАН БЕРУНИ")**

Исмоилова Фатима

*имени Шарафа Рашидова Самаркандский государственный университет
базовый докторант*

E-mail: fotimaismoilova813@gmail.com

Аннотация: В данной статье на основе одного из исторических романов "Абу Райхан Беруни" Исаджона Султана, одного из ведущих представителей современной узбекской литературы, анализируется выражение жизненной правды в жанре романа, который занимает важное место в узбекской литературе. Произведение примечательно не только своим художественным, но и историческим значением.

Ключевые слова: роман, исторический роман, историческая правда, мастерство, астрология, открытие, историческое событие.

**THE QUESTION OF HISTORICAL TRUTH IN NOVELS
(BASED ON THE NOVEL "ABU RAYHAN BERUNI" BY ISAJON SULTAN)**

Ismailova Fatima

*named after Sharaf Rashidov
Samarkand State University
basic doctoral student*

E-mail: fotimaismoilova813@gmail.com

Annotation: This article analyzes the expression of life's truth in the novel genre, one of the important genres in Uzbek literature, based on the novel "Abu Rayhan Beruni, " one of the leading representatives of modern Uzbek literature. The work is noteworthy not only for its artistic, but also for its historical significance.

Keywords: *novel, historical novel, historical truth, mastery, astrolabe, discovery, historical event.*

Tarixiy mavzuda yozilgan badiiy asarda voqea-hodisalarga xolis baho berish, tarixiy shaxs obrazini kitobxonga ishonarli holatda, real hayot fonida ko‘rsatish va tadqiq etib berish muhimdir. Bunday paytda tasvirdagi katta xizmatni tarixiy vaziyat bajaradi. Har qanday tarixiy roman asosida tarixiy shaxs obrazi gavdalanadi. Bu obraz orqali romanlarda aks etgan tarixiy haqiqatni anglash mumkin bo‘ladi.

“... tarixiy temaga qo‘l urgan yozuvchi o‘tmish hayotdan bugungi hayotimizga bog‘liq, aniqrog‘i, hayotning barpo bo‘lishiga xizmat qilgan tomonlariga nazar tashlaydi. Tarixni yaratishda yozuvchi yoki san‘atkorning realistik quvvati bugungi hayotning tarixdagi ildizini aniq ko‘ra bilishda va haqqoniy aks ettirishda namoyon bo‘ladi. Zotan, tarixning bugungi hayot tasdiqlaydigan tomoni, tarixiy davrning ilg‘or tendensiyalari – go‘zalliklaridir”. [1; 20].

Adabiyotshunoslikda dastlab roman janrining tug‘ilishi to‘rt manbaga tayanganini professor S. Mirvaliev ta’kidlagan edi. Ular: 1. Tarixiy hayot – voqelikning o‘zi; 2. Boy xalq og‘zaki ijodiyoti; 3. Mumtoz adabiyotimizning boy an‘anasi; 4. Rus va jahon xalqlari romanchiligidir. [2; 26-27].

Mazkur maqolada biz aynan birinchi manba, ya’ni tarixiy hayot - voqelikning o‘zi misolida tahlil qilamiz. Bugungi o‘zbek nasrini samarali yaratayotgan adiblarimiz ijodida adib Isajon Sultonning “Abu Rayhon Beruniy” romanida buyuk allomaning tafakkur olami, ilmiy dunyoqarashi, davr bilan munosabatiga oid jihatlar talqini haqida so‘z boradi. Bundan tashqari, tahlilga olingan jarayon – bu tarixiy shaxsning faoliyati yoki o‘tmishdagi voqelikning aksi bilan bog‘liq tafsilotlar. Ularni badiiy asarlarda ham turlicha talqin qilish mumkin. Bu yozuvchining bilim darajasi, dunyoqarashi, badiiy qobiliyati bilan bog‘liq jarayondir. Moziyda biror voqea yoki tarixiy shaxsning hayoti va taqdiriga oid asarlar yaratilishi yozuvchining hayotiy materialga yondashuvi, badiiy-estetik mahorati, ijtimoiy-falsafiy umumlashtirishlari, ifodalash usullari bilan bir-biridan farq qiladi. Bunday jarayonda yozuvchining badiiy tafakkuri, ijodiy individualligi ochiladi. Eng muhimi, yozuvchi tarixiy voqelikni qanchalik chuqur o‘rgansa, uni o‘z davrining ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy muammolari bilan qanchalik bog‘lay olgan bo‘lsa, tanlagan mavzu ham shunchalik dolzarb bo‘lib boradi.

O‘zbek adabiyotida Abu Rayhon Beruniy obrazi talqin qilingan turli janrlardagi yigirmaga yaqin asar mavjud. Bu asarlar qatoriga O‘zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sultonning 2022-yilda nashr qilingan “Abu Rayhon Beruniy” romani ham qo‘shildi. Roman alloma obrazi talqin qilingan boshqa asarlarga qaraganda qator jihatlari bilan o‘ziga xoslikka ega. Jumladan, yozuvchi Beruniy davrini to‘laqonli aks ettirishga urinish bilan bir qatorda hazrat Beruniyning hayoti, shaxsiyatini, uning diniy, falsafiy, siyosiy qarashlarini to‘laqonli ochib berishga harakat qilgan. Qolaversa, Abu Rayhon Beruniyning ilmiy faoliyati, olib borayotgan tadqiqot ishlari uchun asqotarlik, o‘z qo‘llari bilan yasagan moddalarning solishtirma og‘irliklarini o‘lchovchi asbob, qimmatbaho toshlarning og‘irligini aniqlash uchun nozik tarozi, tutash idishlar qoidasiga asoslangan uskuna, yuqori aniqlikdagi usturlob va armilla kabi har xil hajmdagi asbob-uskunalardan iborat qo‘l ixtirolari, aniq ilmiy dalillar bilan ilgari surgan aql kashfiyotlarini asarning boshidan to oxiriga qadar goh sharoit taqozosiga ko‘ra voqealar yordamida, goh obrazlar tilidan har xil shaklda ko‘rsatib, tasvirlab o‘tadi. “Abu Rayhon yunon olimlarining yer yuzi tuzilishiga oid asarlarini ham o‘qib chiqdi. Qolaversa, uchburchak va to‘g‘ri burchak nazariyasini ham o‘rganib oldi. Qachon qaramay, uni hisob-kitoblar

ustida ko‘rardim. Rum usturlobini o‘lchab tekshirib ko‘rgach, temirchi bilan birga, qo‘llari kuya-kuya o‘z usturlobi va armillasini yasadi”. [3;32]. Alloma ajdodimizning ilmiy yo‘nalishdagi kashf-u karomatlari, mehnat-u mashaqqatlari shu zaylda tasvirlanadi. Shuningdek, Isajon Sulton Abu Rayhon Beruniyning shohlar bilan munosabatiga ham yangicha nigoh bilan nazar soladi. Yozuvchi bu borada o‘z salafilariga qaraganda tarixiy haqiqatga to‘la yondashishga harakat qiladi. Beshikdan to qabrgacha ilm izlashning go‘zal namunasini o‘z hayoti misolida ko‘rsatgan daho zotning o‘lim to‘shagidagi ahvoli Isajon Sulton talqinida tarixiy haqiqat va badiiy mahorat uyg‘unligida tasvirlanganini ko‘rishimiz mumkin. “...- hol so‘rash uchun Abu Rayhonning uyiga kirdim. Qarasam, u jon berayotgan, g‘arg‘ara bilan nafas olib, ko‘kragi siqilayotgan ekan. O‘shanday holida menga qarab: - Sen bir kuni menga “Al –jaddat al-fosida” haqida nima degan eding? – dedi. Men uning qiynalayotganiga rahmim kelib: - Shunday holatda-ya? – deb so‘radim. – Ey Abul Hasan, - dedi Abu Rayhon, - men bu dunyo bilan xayrlashayotibman, o‘sha masalani bilmay ketganimdan ko‘ra, bilib ketganim yaxshiroq emasmi? [3;322].

Yuqorida ko‘rganimizdek, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sultonning ushbu romanida yurtimizning daho allomasi Abu Rayhon Beruniyning yorqin shaxsiyati, buyuk kashfiyotlarining yaratilish tarixi bilan birga, o‘sha davrda Movarounnahr va Xurosonda yuz bergan voqealar, shuningdek, hukmdorlar Qobus ibn Vushmgir, xorazmshoh Ma‘mun, sulton Mahmud G‘aznaviy bilan munosabatlari haqida batafsil hikoya qilinadi. Roman markazida buyuk mutaffakir alloma Abu Rayhon Beruniy real obrazi turadi. Muallif Beruniyning Xorazm va G‘azna muhitidagi hayoti, ilmiy faoliyati, hukmdorlar bilan munosabatini ilmiy, tarixiy manbalarga tayanib yaratadi. Darhaqiqat, tarixiy janr tarixiy faktlarga suyanadi. Har qanday tarixiy voqea va fakt tarixiy asarga material bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Faqat u yozuvchining mahorati, mohir badiiy qalami, talanti bilangina badiiy asarga aylanadi.

Isajon Sulton romanda tarixiy voqea va shaxslar haqida faktlarni beribgina cheklanmay, balki badiiy obrazlarni yaratish orqali tarixiy davrni jonli va haqiqiy tasvirlay olgan. Bu esa bevosita kitobxoniga Beruniy yashagan davrga “qaytish”, qahramonlar bilan birgalikda voqealarni boshdan kechirish “imkoniyat”ini bergan deya olamiz. Bu esa tarixiy roman janrida faqatgina ma‘lumot berish emas, balki o‘quvchining ichki dunyosiga ta‘sir etish imkoniyatini yaratadi.

Xulosa. Adabiyotshunos, adabiy tanqidchi M. Qo‘shjonov tarixiy asar, undagi tarixiy shaxs ishtiroki haqida shunday deydi: “Tarixiy asarlarda hal qiluvchi o‘rinni tarixiy voqealar va hodisalar egallaydi va shu asosda tarixiy shaxs xarakteri tasvirlanadi”. [4; 92]. Bu bilan tanqidchi nima demoqchi ekanligini anglash lozim. Darhaqiqat, asar tarixiy asar deb nomlanishi uchun unda, albatta, tarixiy timsol bosh planlarda ishtirok etishi lozim. Yozuvchi Isajon Sulton tarixiy romanlarida ham tarixiy shaxslar timsoli asar yo‘nalishni belgilaydi, kitobxon asar qahramonlari bilan birga kuladi, yig‘laydi, umuman olganda, birga “yashaydi”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирвалиев С. Ўзбек романи. –Т. : Фан, 1969. –Б. 312
2. Sulton. I. Abu Rayhon Beruniy (tarixiy-biografik roman). –Т. :Innovatsion rivojlanish nashritot-matbaa uyi”, 2023. – 340 b.
3. Qo‘shjonov M. Oybekning mahorati. 1965.

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

4. Қўшжонов М. Адабиётда эстетик категориялар. Адабийёт назарияси. Икки томлик. 2-жилд. Адабий жараён. – Тошкент: Фан, 1979. – Б. 163.

**PEDAGOG XOTIN-QIZLARDA BOSHQARUV KOMPETENTLIGINI
TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI**

Rahimova Sarvinoz Sadiq qizi.

NavDU tayanch doktoranti

E-mail: sarvinozrahimovaa@gmail.com

+998934373878

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18675741>

Annotatsiya: Yangi O‘zbekiston sharoitida ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda pedagog xotin-qizlarning rahbarlik faoliyatida boshqaruv kompetentligini takomillashtirishning dolzarbligi ilmiy jihatdan asoslangan. Maqolada "kompetensiya" tushunchasining nazariy asoslari, tarkibiy qismlari hamda pedagog-rahbar ayollar faoliyatiga ta’sir qiluvchi gender stereotiplari va boshqa omillar tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida pedagog xotin-qizlarda boshqaruv kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan shaxsga yo’naltirilgan, gender sezgir va innovatsion tamoyillarga asoslangan besh bosqichli texnologiya ishlab chiqildi. Texnologiyaning amaliy qismida coaching, mentoring, fasilitatsiya, “Agile management”, “Design Thinking” kabi zamonaviy metodlar taklif etilgan. Diagnostik bosqichda T. Ehlersning “Rahbarlik motivatsiyasi testi” dan foydalanishning ahamiyati asoslab berilgan. Ushbu texnologiya pedagog xotin-qizlarning transformatsion rahbarlik qobiliyatlarini tizimli oshirish orqali ta’lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Kalit soʻzlar: Pedagog xotin-qizlar, rahbarlik kompetentligi, boshqaruv kompetensiyasi, Yangi O‘zbekiston, gender sezgir yondashuv, transformatsion liderlik, mentorlik, kouching, Agile, Design Thinking, T. Ehlers testi. .

Аннотация: В условиях Нового Узбекистана обосновывается актуальность совершенствования управленческой компетентности женщин-педагогов в их руководящей деятельности в процессе модернизации системы образования. В статье анализируются теоретические основы понятия «компетенция», ее структурные компоненты, а также гендерные стереотипы и другие факторы, влияющие на деятельность женщин-руководителей в сфере образования. В результате исследования разработана пятиэтапная технология развития управленческой компетентности женщин-педагогов, основанная на лично-ориентированных, гендерно-чувствительных и инновационных принципах. В практической части технологии предложены современные методы, такие как коучинг, менторство, фасилитация, «Agile management», «Design Thinking». Обоснована значимость использования «Теста мотивации к лидерству Т. Элерса» на диагностическом этапе. Данная технология способствует повышению качества и эффективности образования за счет системного развития трансформационных лидерских способностей женщин-педагогов.

Ключевые слова: Женщины-педагоги, лидерская компетентность, управленческая компетентность, Новый Узбекистан, гендерно-чувствительный подход, трансформационное лидерство, менторство, коучинг, Agile, Design Thinking, тест Т. Элерса.

Abstract: *The article scientifically substantiates the relevance of improving the managerial competence of female educators in their leadership activities within the modernization process of the education system in the context of New Uzbekistan. It analyzes the theoretical foundations of the concept of "competence," its structural components, as well as gender stereotypes and other factors influencing the activities of female leaders in education. As a result of the research, a five-stage technology for developing managerial competence in female educators was elaborated, based on person-centered, gender-sensitive, and innovative principles. Modern methods such as coaching, mentoring, facilitation, "Agile management," and "Design Thinking" are proposed for the practical implementation of the technology. The significance of using T. Ehlers' "Leadership Motivation Test" at the diagnostic stage is highlighted. This technology aims to enhance the quality and effectiveness of education by systematically developing the transformational leadership capabilities of female educators.*

Keywords: *Female educators, leadership competence, managerial competence, New Uzbekistan, gender-sensitive approach, transformational leadership, mentoring, coaching, Agile, Design Thinking, T. Ehlers test.*

Kirish. Yangi O‘zbekiston ta’lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida pedagog xotin-qizlarning rahbarlik faoliyatida boshqaruv kompetentligini takomillashtirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Chunki ayollarning ta’lim boshqaruvidagi faolligi nafaqat gender tenglikning ta’minlanishi, balki ta’lim muassasalarining boshqaruv madaniyati, ijtimoiy ishonch va ta’lim jarayonining sifatiga bevosita ta’sir etadi. [1;45]

Kompetensiya” tushunchasi ilmiy adabiyotlarda ko‘p qirrali, integrativ kategoriya sifatida izohlanadi. Lotinchadagi competentia yoki competere so‘zlari “mos kelmoq”, “loyiq bo‘lmoq”, “qodir bo‘lmoq”, “amaliy faoliyatni bajarishga layoqatli bo‘lish” ma’nolarini bildiradi. [2;45]

XX asrning 60–70-yillaridan boshlab J. Raven, D. MakKlelland, R. Boyatsis, B. Bloom kabi olimlar kompetensiya fenomenini o‘rgangan bo‘lib, ular kompetensiyani shaxsning nafaqat bilimiga, balki uni qo‘llashga bo‘lgan real qobiliyatiga, vaziyatga mos qaror qabul qilishga tayyorligiga bag‘ishlangan. [3;67]

Kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari:

1. Bilimlar tizimi – tushunchalar, nazariyalar, umumiy va maxsus bilimlar.
2. Ko‘nikmalar – bilimni amaliyotda saqlash, qo‘llash, muammoga mos yechim yaratish qobiliyati.
3. Qadriyatlar – shaxsning faoliyatga bo‘lgan munosabati, motivatsiya.
4. Shaxsiy sifatlar – iroda, liderlik, tashabbuskorlik, muloqotga kirishuvchanlik.
5. Refleksiya – o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni anglash, yangilanishga intilish. [4;102]

Bugungi kunda kompetensiya atamasi O‘zbekiston ta’lim tizimi, xususan OTMLarda kompetensiyaviy yondashuvning asosiy mohiyatini belgilovchi kategoriya sifatida qabul qilingan.

Pedagog xotin-qizlarning boshqaruv kompetentligiga oid tadqiqotlar so‘nggi yillarda davlat siyosati miqyosida dolzarblashdi. Buning asosiy sababi – ta’lim tizimida ayollarning rahbarlik salohiyatini oshirish, gender tenglikni ta’minlash, boshqaruv jarayoniga faol jalb etish zaruratidir.

Muhokama va natijalar. Ilmiy manbalarda boshqaruv kompetentligi quyidagicha talqin qilinadi:

- ta’lim jarayonini rejalashtirish va tashkil etish qobiliyati;
- rahbarlik qarorlarini qabul qilish kompetensiyasi;
- kommunikativ–ijtimoiy yetuklik;
- jamoa bilan ishlash va liderlik;
- pedagogik jarayonni monitoring qilish va baholash;
- intelektual-emotsional barqarorlik. [5;88]

Pedagog-rahbar ayollarning boshqaruv tajribasiga quyidagi omillar ta’sir qiladi:

1. Gender stereotiplari – ijtimoiy tasavvurlarning rahbarlikka mos keluvchi “erkakcha sifatlar” bilan bog‘liq bo‘lishi.
2. Emotsional yukning yuqoriligi – ayollarda emotsional sezgirlik kuchli bo‘lgani uchun boshqaruv jarayonida ortiqcha psixologik bosim yuzaga kelishi mumkin.
3. Ijtimoiy rollar ko‘pligi – oila, farzand tarbiyasi, kasb va jamiyatdagi faol rolning birlashishi boshqaruv jarayoniga bevosita ta’sir qiladi . [6;111]
4. O‘z-o‘ziga baho va ishonch masalasi – ko‘plab tadqiqotlar ayol rahbarlarda o‘zini yetarli baholamaslik kuzatilishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Shu bois pedagog xotin-qizlarda boshqaruv kompetentligini takomillashtirish texnologiyasi gender sezgir yondashuv asosida loyihalaniishi shart.

Boshqaruv kompetentligining integrativ modeli quyidagi komponentlardan iborat:

1) Kognitiv komponent

- ta’lim menejmenti;
- rahbarlik nazariyalari;
- ishlab chiqarish va ijtimoiy boshqaruv qonuniyatlari;
- pedagogik konfliktologiya asoslari. [7;52]

2) Operatsion–amaliy komponent

- qaror qabul qilish texnikasi;
- vazifalarni delegatsiya qilish;
- jamoani boshqarish;
- pedagogik monitoring va loyihalash.

3) Komunikativ-kompetitiv komponent

- samarali muloqot texnologiyalari;
- nizolarni boshqarish;
- fasilitatorlik ko‘nikmalari;
- gender sezgir kommunikatsiya.

4) Shaxsiy-aksial komponent

- qadriyatlar tizimi;
- liderlikka intilish;
- o‘z-o‘zini rivojlantirishga motivatsiya; [8;77]

5) Refleksiv-regulyativ komponent

- o‘z faoliyatini tahlil qilish;

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

- xatolar ustida ishlash;
- shaxsiy rivojlanish dasturini tuzish.

Bu model keyinchalik texnologiyani ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Pedagog xotin-qizlarga yo‘naltirilgan texnologiya quyidagi tamoyillar asosida quriladi:

1. Shaxsga yo‘naltirilgan tamoyil

-Har bir pedagogning psixologik xususiyatlari, hayotiy tajribasi, oila va ijtimoiy sharoiti inobatga olinadi.

2. Gender sezgir yondashuv tamoyili

-Ayollarning boshqaruvdagi imkoniyatlari, to‘siqlari, motivatsiya mexanizmlari chuqur tahlil qilinadi.

3. Innovatsion tamoyil

-Boshqaruvda:

fasilitatsiya,

coaching,

mentoring,

“Agile education management”,

“Design Thinking”

kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalaniladi.

4. Kompetensiyaviy yondashuv tamoyili

-Ta’lim natijalari aniq kompetensiyalar orqali baholanadi.

5. Rivojlanishning uzluksizlik tamoyili

-Kompetensiya bir marta shakllanib qolmaydi, balki doimiy ravishda takomillashadi. [9;96]

Quyidagi metodlar texnologiyaning amaliy qismida qo‘llanishi mumkin:

✓ Coaching texnologiyasi

maqsad qo‘yish;

kuchli tomonlarni aniqlash;

rahbarlik salohiyatini ochish;

“GROW” modeli asosida qarorlar qabul qilish.

✓ Mentoring texnologiyasi

Tajribali ayol rahbar — yosh pedagog xotin-qizga rahbarlik ko‘nikmalarini o‘rgatadi.

✓ Fasilitatsiya texnologiyasi

Guruhda qaror qabul qilishni yengillashtirish, jamoani boshqarish, fikrlar oqimini faollashtirish.

✓ Case-study (keys-stadi) metodi

Turli boshqaruv muammolarini tahlil qilish, real ta’lim vaziyatlariga yechim topish.

✓ Rol o‘yinlari (role-play)

Rahbarlik vaziyatlarini modellashtirish, qaror qabul qilishni o‘rgatish.

✓ “Agile management” yondashuvi

moslashuvchan rejalashtirish;

jamoani sprintlar orqali boshqarish;

kichik guruhlar bilan ishlash.

✓ “Design Thinking” yondashuvi

empatiya;

muammoni aniqlash;

g‘oya yaratish;

prototiplash;

sinovdan o‘tkazish.

Bu yondashuv pedagogik muammolarni kreativ hal qilish imkonini beradi.

✓ Kompetensiyaviy treninglar

liderlik;

konfliktologiya;

muloqot boshqaruvi;

stress menejment;

vaqtni boshqarish (time management).

Pedagog xotin-qizlarda boshqaruv kompetentligini rivojlantirish texnologiyasini samarali joriy etish uchun uni ketma-ket, tizimli, diagnostik-mezonli tarzda qurish muhimdir. Bu texnologiya psixologik-pedagogik qonuniyatlarga, gender sezgir yondashuvga, kompetensiyaviy ta’lim tamoyillariga asoslanadi. [10]

Quyida texnologiya 5 bosqichli strukturaviy model sifatida tavsiya etiladi:

1. Diagnostik-analitik bosqich

2. Maqsad va natijalarni loyihalash bosqichi

3. Tarkibiy-kompetensiyaviy rivojlantirish bosqichi

4. Amaliy-integrativ faoliyat bosqichi

5. Refleksiv-baholash bosqichi

Har bir bosqich mazmunan chuqur, metodik jihatdan izchil ishlab chiqiladi.

Pedagog xotin-qizlarda boshqaruv kompetentligining shakllanganlik darajasini aniqlash, ularning rahbarlikka oid individual motivlari, ichki resurslari va psixologik tayyorgarligini baholash maqsadida xalqaro miqyosda tan olingan bir qator psixodiagnostik metodikalardan foydalanish mumkin. Ayniqsa T. Ehlersning “Rahbarlik motivatsiyasi testi” metodikasidan foydalanish samarador hisoblanadi.

Tomas Ehlers tomonidan ishlab chiqilgan ushbu test rahbar shaxsning ichki motivlari, qaror qabul qilishga bo‘lgan qiziqishi, tashabbuskorlik darajasi, boshqalarga ta’sir ko‘rsatish ehtiyoji va mas’uliyat hissini aniqlashga qaratilgan psixologik diagnostika vositasidir. [11;112] Ehlersning ta’kidlashicha, rahbarlik faqat kompetensiyalar jamlanmasi emas, balki shaxsning ichki motivatsion yo‘nalganligidan kelib chiqadigan faoliyat shaklidir.

Ushbu testning nazariy asosida uchta asosiy motiv yotadi:

1. Hokimiyatga intilish motivi – boshqalarni boshqarish, ta’sir ko‘rsatish, liderlik pozitsiyasida bo‘lish ehtiyoji.

2. Yutuqqa erishish motivi – yuqori natijalarga erishish, o‘zini namoyon etish, muvaffaqiyatga intilish.

3. Affiliatsiya (muloqotga ehtiyoj) motivi – jamoa bilan ishlash, ijtimoiy aloqalar va yoki qo‘llab-quvvatlashga intilish. [12; 68]

T. Ehlersning "Rahbarlik motivatsiyasi testi" (Leadership Motivation Test) yoki ko‘pincha "Motivatsiya testi" deb ataladigan bu vosita ko‘pincha rus tilida "Test-oprosnik T. Ehlersa dlya opredeleniya motivatsii k dostizheniyu uspexov" (T. Ehlersning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini aniqlash uchun so‘rovnoma testi) shaklida tarqalgan. Bu test rahbariyatga xos bo‘lgan, ayniqsa yuqori lavozimlarga intiluvchi shaxslarning motivatsiya darajasini, xususan, muvaffaqiyatga erishishga bo‘lgan intilishini baholashga mo‘ljallangan. Test 41 ta savoldan iborat bo‘lib, har bir savolga "Ha" yoki "Yo‘q" deb javob beriladi. Har bir javobga ma‘lum bir ball beriladi va umumiy ball yig‘indisi shaxsning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi darajasini ko‘rsatadi.

T. Ehlersning "Rahbarlik motivatsiyasi testi"

(Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi) tuzilishi va savollari:

Ko‘rsatma: Quyidagi savollarga "Ha" yoki "Yo‘q" deb javob bering. Javoblarni uzoq o‘ylamasdan, birinchi xayolingizga kelgan javobni bering.

1. Harakatlaringizda natijalarning o‘rtacha yoki yuqori darajasini belgilaysizmi?
2. Qiyin muammolar bo‘lsa, uni hal qilishga harakat qilasizmi?
3. Ulgurmay qolish ehtimoli bo‘lgan ishdan norozimisiz?
4. Qiyin vazifalarni bajarishda qat‘iyatlimisiz?
5. Qiyin muammoni hal qila olmagan holda, siz bunga kamdan-kam xavotir qilasizmi?
6. Ishda natija va muvaffaqiyatlarni ko‘rsatishga intilasizmi?
7. Muvaffaqiyatsizliklar sizni harakatga undaydimi?
8. Sizning ishingiz qat‘iyatli va samaradorligi bilan ajralib turadimi?
9. Raqobat muhitida samarali ishlaysizmi?
10. Odatda, muvaffaqiyatli odamlarga intilasizmi?
11. Agar sizning harakatlaringiz muvaffaqiyatga erishmasligini bilib, siz o‘zingizni cheklab qo‘yasizmi?
12. Siz o‘zingizning muvaffaqiyatlaringizni maqtab aytishni yoqtirasizmi?
13. Agar muvaffaqiyatsizlik bo‘lsa, uni sizga yuklagan odamni ayblaysizmi?
14. Hayotingizni bir qator muvaffaqiyatlar va omadsizliklar deb bilasizmi?
15. Yangi narsalarni doimo o‘rganishga intilasizmi?
16. Yaxshiroq natijaga erishish uchun tinimsiz ishlayapsizmi?
17. Ishdan keyin, odatda, uni o‘ylaysizmi?
18. Qaror qabul qilishda mustaqilimisiz?
19. Natijalar odatdagidan yomonroq bo‘lsa, asabiylashasizmi?
20. Muvaffaqiyatsiz bo‘lsa, siz o‘zingizni ayblaysizmi?
21. Ishda yuqori natijalarga erishishga intilasizmi?
22. Qiyin vazifalar sizni jalb qiladimi?
23. Ishingizni tugatishga harakat qilasizmi, hatto agar biror narsa ishlamayotgan bo‘lsa ham?
24. Siz uchun muhim bo‘lgan ishda muvaffaqiyatga erishishga intilasizmi?
25. Siz hech qachon ishni boshlashni istamaysizmi, agar siz o‘zingizni to‘g‘ri odam deb bilmasangiz?
26. Muvaffaqiyatsizlikka uchragan odamlarga intilasizmi?

27. Qiyin muammolar oldida siz shoshilmayapsizmi?
28. Ishda raqobatbardosh bo‘lasizmi?
29. Muammoli vaziyatlarda odatda umidsizlanasizmi?
30. Sizing ishingiz qat’iyatlilik bilan ajralib turadimi?
31. Siz ishni bajarishda qat’iyatlimisiz?
32. Muvaffaqiyatsizlik sizni boshqa yo‘nalishda harakat qilishga undaydimi?
33. Sizing ishingiz samaradorligi bilan ajralib turadimi?
34. Muvaffaqiyatsizlikni tushkunleksiz qabul qilasizmi?
35. Sizda muvaffaqiyatga erishishga intilish kuchlimi?
36. Agar siz xato qilsangiz, tashvishlanasizmi?
37. Qiyin vazifalarni hal qilishda siz tez-tez yordam so‘raysizmi?
38. Sizing do‘stlaringiz (yoki hamkasblaringiz) orasida muvaffaqiyatli odamlar bormi?
39. Muvaffaqiyatga erishish uchun kam harakat qilasizmi?
40. Sizing fe'l-atvoringiz qat’iyatlilik bilan ajralib turadimi?
41. Muvaffaqiyatsizliklarga qaramay, maqsadingizga erishishga intilasizmi?

Javoblarni baholash (ballar):

Quyidagi savollarga "Ha" javobi uchun 1 ball beriladi: 1, 2, 4, 6, 7, 8, 9, 10, 12, 15, 16, 17, 18, 19, 21, 22, 23, 24, 28, 30, 31, 32, 33, 35, 36, 38, 40, 41.

Quyidagi savollarga "Yo‘q" javobi uchun 1 ball beriladi: 3, 5, 11, 13, 14, 20, 25, 26, 27, 29, 34, 37, 39.

Natijalarni talqin qilish:

- 1 dan 10 ballgacha: Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi past. Bunday shaxslar ko‘pincha tashabbuskorlikni namoyish etmaydi, xa

vf-xatardan qochadi va qiyin vazifalarni o‘z zimmasiga olishni istamaydi.

- 11 dan 16 ballgacha: Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi o‘rtachadan past. Muvaffaqiyatga erishish istagi bor, ammo qat’iyat va tashabbuskorlik yetishmasligi mumkin.

- 17 dan 20 ballgacha: Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi o‘rtacha. O‘ziga ishongan, qiyinchiliklarga tayyor, lekin doimiy ravishda yuqori natijalarga intilish motivatsiyasi ba’zan yetishmaydi.

- 21 dan 26 ballgacha: Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi yuqori. Bunday shaxslar o‘z oldiga yuqori maqsadlar qo‘yadi, qiyinchiliklardan qo‘rqmaydi, qat’iyatli va tashabbuskor.

- 27 dan 41 ballgacha: Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi juda yuqori. Yuqori martabali rahbarlar va muvaffaqiyatga erishishga kuchli intiluvchi shaxslarga xos. Ular doimiy ravishda rivojlanishga va o‘zlarini takomillashtirishga intiladilar, qiyinchiliklar ularni to‘xtatmaydi, aksincha ilhomlantiradi.

Shuningdek, mazkur texnologiya diagnostik-analitik, maqsad va natijalarni loyihalash, tarkibiy-kompetensiyaviy rivojlantirish, amaliy-integrativ faoliyat hamda reflektiv-baholash kabi besh bosqichli strukturaviy model sifatida taqdim etildi. Texnologiyaning samaradorligini ta’minlashda, ayniqsa diagnostik bosqichda T. Ehlersning “Rahbarlik motivatsiyasi testi” kabi xalqaro miqyosda tan olingan psixodiagnostik metodikalardan foydalanishning ahamiyati alohida ta’kidlandi. Ushbu test pedagog xotin-qizlarning rahbarlikka bo‘lgan motivatsiya darajasini (yuqori, o‘rtacha,

past) aniqlash orqali keyingi rivojlantirish dasturlarini individual ehtiyojlarga mos ravishda yo‘naltirishga imkon beradi.

Xulosa. Ishlab chiqilgan texnologiya va uning metodologik asoslari pedagog xotin-qizlarning transformatsion rahbarlik qobiliyatlarini tizimli ravishda oshirish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Bu esa Yangi O‘zbekistonning ta’lim tizimida malakali, tashabbuskor va zamonaviy boshqaruvchilarni yetishtirishga, natijada ta’lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Kelajakda ushbu texnologiyaning keng ko‘lamli amaliy aprotatsiyasini o‘tkazish va uning ta’lim amaliyotidagi ta’sirini chuqur ilmiy-pedagogik tahlil qilish muhim tadqiqot yo‘nalishlari bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V. Gender psixologiyasi. – T. : Fan, 2021. 45 b
2. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008. 45-b
3. Mc Clelland D. C. Human Motivation. Cambridge University Press, 1987. 67-b
4. Goleman D. Emotional Intelligence. New York: Bantam Books, 1995. 102-b
5. Hersey P. , Blanchard K. Management of Organizational Behavior: Leading Human Resources. Prentice Hall, 2013. 88-b
6. Hasanov B. Pedagogik diagnostika asoslari. Toshkent: Fan, 2018. 111-b
7. Ziyodova N. Ta’limda boshqaruv kompetensiyasi. Navoiy: 2022. 52-b
8. O‘rinova S. Pedagoglarda yetakchilik sifatlarini rivojlantirish texnologiyalari. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. 77-b
9. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. Teachers College Press, 2016. 96-p
10. Whitmore, J. (2009). Coaching for Performance (4th ed.). London: Nicholas Brealey Publishing-p
11. Ehlers, T. Motivation und Führung: Psychologische Grundlagen der Mitarbeiterführung. – Berlin: Springer Verlag, 1999. – . 112-p
12. Heckhausen, H. Motivation und Handeln. – Heidelberg: Springer, 2006. – 68 p

ILM SOHASIDA XOTIN-QIZLARNING FAOLIYATI VA YUKSALISH QADAMLARI

Umarjonova Sevinch Tolibjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili yo‘nalishi talabasi

E-mail: sevinchumarjonova2006@gmail.com

Tel: +998-99-785-54-00

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18675753>

Annotatsiya. Hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonamizda kechayotgan o‘zgarishlar har bir fuqaroni befarq qoldirmayapti, ayniqsa xotin qizlarga ko‘pdan ko‘p shart-sharoitlar yaratilib berilishiga katta e‘tibor qaratilmoqda. Shuningdek, ushbu maqolada mamlakatimizning davlat boshqaruvida xotin qizlarning rolini oshirish, ularni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada kuchaytirish, salomatligini mustahkamlash, qizlarning ta‘lim-tarbiya olishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, iqtidorli va bilimli qizlarni tarbiyalash hamda ularning ilmiy salohiyatini yuksaltirish bugungi kunning muhim masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda va ularning ta‘lim va kasbiy ko‘nikmalarni olishi hamda bandligini ta‘minlashga har tomonlama ko‘maklashish, tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo‘llab-quvvatlash sohalarida keng qamrovli ishlar amalga oshirilib borayotganligi maqolada keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: gender tengligi, kasbiy ko‘nikmalar, ayollar ensiklopediyasi, ilmiy intellektual salohiyat, O‘zbekiston-2030 strategiyasi, milliy parlamentlar, podium, davlat mukofotlari.

Аннотация. В условиях стремительно развивающегося современного общества происходящие изменения не оставляют равнодушным ни одного гражданина. Особое внимание при этом уделяется созданию широких возможностей и благоприятных условий для женщин. В статье подробно освещаются вопросы повышения роли женщин в системе государственного управления нашей страны, дальнейшего укрепления системы их социальной защиты, укрепления здоровья, создания необходимых условий для получения девушками образования и воспитания, формирования талантливых и образованных девушек, а также повышения их научного потенциала, что на сегодняшний день остается одной из актуальных задач. Наряду с этим, в статье широко рассматриваются проводимые комплексные меры по всестороннему содействию получению женщинами образования и профессиональных навыков, обеспечению их занятости, а также дальнейшей поддержке предпринимательских инициатив.

Ключевые слова: гендерное равенство, профессиональные навыки, энциклопедия женщин, научно-интеллектуальный потенциал, Стратегия «Узбекистан-2030», национальные парламенты, подиум, государственные награды.

Annotation: In today’s rapidly developing world, the changes taking place do not leave any citizen indifferent. Particular attention is being paid to creating broad opportunities and favorable conditions for women. This article highlights the efforts to increase the role of women in the system of public administration of our country, further strengthen the system of social protection, improve

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

health and well-being, create necessary conditions for girls to receive education and proper upbringing, nurture talented and knowledgeable girls, and enhance their scientific potential, which remains one of the most important issues of our time. In addition, the article comprehensively covers the large-scale measures being implemented to support women in acquiring education and professional skills, ensuring their employment, and further encouraging entrepreneurial initiatives.

Keywords: *gender equality, professional skills, women’s encyclopedia, scientific and intellectual potential, Uzbekistan-2030 Strategy, national parliaments, podium, state awards.*

Keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlar masalasi va ularni qo‘llab-quvvatlash jamiyat taraqqiyotining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ana shu yo‘nalishlarda olib borilgan ishlar natijasida xotin-qizlarning davlat va jamiyat hayotidagi o‘rni, ro‘li va mavqei yanada mustahkamlandi. Ayniqsa, xotin-qizlar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, jamiyatda va oilada gender tenglikni ta‘minlash sohalarida olib borilayotgan ishlar e‘tiborga loyiqdir. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, xotin-qizlarning salohiyatini ro‘yobga chiqarishda ta‘lim va kasbiy ko‘nikmalar muhim o‘rin tutmoqda. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan “Ayollar ensiklopediyasi” nashr etilishi xotin-qizlarning ilm-fan, madaniyat va sport sohasidagi bilimlarini boyitishda muhim qadam bo‘ldi. Shuningdek, xotin-qizlarning ilmiy intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularning sifatli ta‘lim olishlari uchun qulayliklar yaratish borasida ham diqqatga sazovor ishlar amalga oshirildi. Xususan, keyingi 3 yil mobaynida oliy ta‘lim muassasalari, texnikum va kollejlarda tahsil olayotgan talaba qizlarning 397 ming nafariga 4 trillion so‘mdan ortiq miqdorda 7 yil muddatga foizsiz ta‘lim krediti ajratilgan va 2020-2025 yillarda 9 ming nafarga yaqin ehtiyojmand xotin-qizlar oliy ta‘lim muassasalariga qo‘shimcha davlat granti asosida qabul qilingan.

Shu bilan bir qatorda, “O‘zbekiston-2030” strategiyasida xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish, ularning siyosiy va iqtisodiy faolligini oshirish bo‘yicha aniq vaifalar o‘z ifodasini topgan. Sohada amalga oshirilgan islohotlar samarasi o‘laroq, bugungi kunga kelib, O‘zbekistonda xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 35 foiz, tadbirkorlik sohasida 45 foiz, siyosiy partiyalar safida esa 49 foizga yetganini ko‘rish mumkin. Bundan tashqari, vazir va vazirga tenglashtirilgan lavozimda faoliyat yuritayotgan ayollar ulushiga e‘tibor qaratsak, 2018-yilda bu ko‘rsatkich bor-yo‘g‘i 3 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2026-yilga kelib bu ko‘rsatkich salkam 3 barobarga oshgan. Bu esa O‘zbekistonda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash natijasida jamiyat hayotidagi o‘rni va ro‘li yanada mustahkamlanganligidan va ularga nisbatan jamiyatda ishonch tobora oshayotganligining belgisidir. Bunday ijobiy o‘zgarishlar xalqaro reyting va indekslarda ham O‘zbekistonning mavqeini yuksaltirmoqda. Misol uchun, 2025-yilda Milliy parlamentlar bo‘yicha xalqaro reytingida O‘zbekistonning deputat ayollar salmog‘i bo‘yicha dunyoning 183 davlati ichida 15 pog‘ona yuqorilab, 37-o‘rinni egalladi. Mustaqillik yillarida esa 17 nafar ayol “O‘zbekiston Qahramoni” unvoniga, ularning 7 nafari fan, ta‘lim va san‘at sohasi vakillari va 11 nafar ayol akademik ilmiy unvoniga sazovor bo‘lgan, qolaversa, minglab xotin-qizlar faxriy unvon, orden va medallar bilan taqdirlangan, bundan tashqari, so‘nggi 7 yil ichida respublikada 5, 2 ming nafar ayol fan doktori (DSc) va o‘z sohalari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olgan. Shuningdek, hozirgi kunda xotin-qizlar ko‘p turdagi podium sahnalarga va “Xalqaro fashion week” lar: Parij,

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

Milan, London, New York podium ko‘rgazmalariga o‘zlarining milliy va zamonaviy uslubda yaratilgan kiyimlarini yaratib olib chiqmoqda va ushbu podium ko‘rgazmalarida faxrli 1-o‘rinni egallab kelishmoqda.

Shu jumladan, o‘tgan yillar mobaynida sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularni vatanparvarlik va istiqloq g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, hududlarda ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish va milliy qadriyatlarni targ‘ib etishga qaratilgan ishlarda xotin-qizlar faolligi birmuncha ortdi va ular uchun ko‘pdan ko‘p ko‘krak nishonlari va mukofotlar ta’sis etildi. Misol uchun, ulardan biri “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishonidir, u 2018-yil 2-fevralida tasdiqlandi. Respublika komisiyasining yakuniy xulosasiga ko‘ra, 2025-yilda jami 333 nafar faol, fidoyi va tashabbuskor ayol “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni bilan mukofotlandi. Shuningdek, Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga tavsiya etilgan 343 nafar nomzoddan 28 nafari ushbu mukofot bilan taqdirlandi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda kelgusi yillarda qonunchilikni yanada takomillashtirish, xotin-qizlar uchun barcha sohalarda keng imkoniyatlar yaratish, ularni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish hamda oila institutini mustahkamlash yo‘lidagi ishlarni izchil, tizimli va bosqichma-bosqich davom ettirish jamiyatimiz oldidagi eng muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi. Zero, xotin-qizlarning huquq va manfaatlari ta’minlangan davlatda, jamiyatning kelajagi yorug‘, taraqqiyoti esa yanada yuksaladi.

Xulosa qilib aytishim mumkinki, hozirgi vaqtda mamlakatimizda turli soha va tarmoqlarda mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarning 45 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Jumladan, davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1400 ga yaqin xotin-qizlar rahbarlik lavozimlarida mehnat qilmoqda. Ulardan 17 nafari senator, 16 nafari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, 1075 nafari esa xalq deputatlari mahalliy kengashlari tarkibida faoliyat yuritmoqda. Davlatimizda ayol-qizlarimizga bu kabi keng imkoniyatlar yaratilishi jamiyat taraqqiyotining yanada rivojlanishi va davlat boshqaruvida xotin-qizlarning faolligini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. BMT ayollar. Gender tengligi va ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish: Global hisobot. -Nyu-York: BMT, 2020.
2. Kendjaboeva L. M. O‘zbekiston siyosati va jamiyat hayotida ayollarning o‘rni: hozirgi bosqich. - Toshkent: “Ma’rifat” nashriyoti, 2022 yil
3. 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-146-sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniyatlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-son Farmoni.
5. www.gender.stat.uz
6. <http://nhrc.uz>, insonhuquqlari.uz

XOTIN-QIZLARNING ILMIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY TA’LIM VA INNOVATSION YONDASHUVLARNING AHAMIYATI

Isroilova Mashrabxon Orifjon qizi

*Dang‘ara tumani "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi
"Teliming" MFY da kompleks ijtimoiy xizmat ko‘rsatuvchi xodim
Buxoro innovatsiyalar universiteti, magistratura bo‘limi*

E-mail: mashrabxonisroilova0130@gmail.com

Telefon: +998 93 134 01 05

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18675766>

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada xotin-qizlarning ilmiy faoliyatini oshirishda zamonaviy ta’lim tizimi va innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli ta’lim, masofaviy o‘qitish, ilmiy grantlar, mentorlik institutlari va akademik muhitda gender tenglikni ta’minlash masalalari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari xotin-qizlarning ilmiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun institutsional va texnologik mexanizmlarni takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: xotin-qizlar, ilmiy faoliyat, zamonaviy ta’lim, innovatsion yondashuvlar, gender tenglik, raqamli ta’lim va ilmiy salohiyat.

Annotation: This article analyzes the role of modern education and innovative approaches in increasing women's scientific activity. The study examines digital education, distance learning, scientific grants, mentoring institutions, and the assurance gender equality in the academic environment. The findings highlight the importance of improving institutional and technological mechanisms to enhance the scientific potential of women.

Keywords: women, scientific activity, modern education, innovative approaches, gender equality, digital education, scientific potential.

Аннотация: В статье проводится комплексный анализ роли современного образования и инновационных подходов в повышении научной активности женщин. Рассматриваются цифровое образование, дистанционное обучение, научные гранты, институты наставничества, и вопросы обеспечения гендерного равенства в академической среде. Результаты исследования подчеркивают необходимость совершенствовать институциональных и технологических механизмов для развития научного потенциала женщин.

Ключевые слова: женщины, научная деятельность, современное образование, инновационные подходы, гендерное равенство, цифровое образование, научный потенциал.

Kirish (Introduction)

Bugungi globallashtirish va raqamli transformatsiya sharoitida ilm-fan va ta’lim tizimida xotin-qizlarning faol ishtiroki jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir [1]. Xotin-qizlarning ilmiy faoliyatga keng jalb etilishi nafaqat gender tenglik tamoyillarini amalga oshirish, balki ilmiy-tadqiqotlar sifatini oshirish hamda innovatsion rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qiladi. Shu

ma’noda, zamonaviy ta’lim tizimi va innovatsion yondashuvlar xotin-qizlarning ilmiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishda asosiy mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlarning ilmiy va ta’lim sohasidagi faolligini oshirishga qaratilgan huquqiy va institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda [2]. Biroq ilmiy faoliyatda ishtirok etishdagi mavjud ijtimoiy, institutsional va texnologik to‘siqlarni tizimli bartaraf etish hali ham dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Mazkur maqolada xotin-qizlarning ilmiy faolligini oshirishda zamonaviy ta’lim va innovatsion yondashuvlarning o‘rni muallifona tahlil asosida yoritiladi.

Metodologiya (Usullar)

Tadqiqot metodologik asosini tizimli va kompleks yondashuv tashkil etadi. Ilmiy ish doirasida tahliliy, qiyosiy, mantiqiy va statistik usullardan foydalanildi. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda zamonaviy ilmiy adabiyotlar asosida xotin-qizlarning ilmiy faolligini oshirishga qaratilgan ta’limiy va innovatsion mexanizmlar o‘rganildi [3].

Mazkur tadqiqotda tahliliy, qiyosiy-huquqiy, tizimli yondashuv va statistik ma’lumotlarni o‘rganish usullaridan foydalanildi. Ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro tajriba asosida xotin-qizlarning ilmiy faolligini oshirish uchun zamonaviy ta’lim va innovatsion mexanizmlarning samaradorligi tahlil qilindi.

Natijalar (Results)

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ta’lim texnologiyalari, xususan, raqamli platformalar, masofaviy ta’lim shakllari va ochiq ta’lim resurslari xotin-qizlarning ilmiy faoliyatga jalb etilishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi [3]. Onlayn ta’lim imkoniyatlari ilmiy tadqiqot olib borishda hududiy va vaqt bilan bog‘liq cheklovlarni bartaraf etib, ayollarning ilmiy faolligini oshirishga zamin yaratadi.

Shuningdek, innovatsion yondashuvlar doirasida mentorlik institutlari, ilmiy grantlar va startap loyihalar xotin-qizlarning ilmiy faolligini rag‘batlantiruvchi samarali mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayollar uchun mo‘ljallangan maqsadli ilmiy dasturlar ularning ilmiy nashrlar soni va sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [4].

Muhokama (Munozara)

Olingan natijalar xalqaro tajriba bilan qiyoslanganda, rivojlangan davlatlarda xotin-qizlarning ilmiy faolligi bevosita zamonaviy ta’lim siyosati va innovatsion yondashuvlar bilan bevosita bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Xususan, genderga sezgir ta’lim siyosati, akademik muhitda teng imkoniyatlar yaratish va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish ayollarning ilmiy faoliyatini sezilarli darajada oshiradi [1].

Olingan natijalar xalqaro tajriba bilan qiyoslanganda, rivojlangan davlatlarda davlatlardagi xotin-qizlarning ilmiy faolligi zamonaviy ta’lim va innovatsion siyosat bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda ham ushbu yo‘nalishdagi huquqiy va institutsional mexanizmlarni yanada takomillashtirish zarur.

Xususan, oliy ta’lim muassasalarida genderga sezgir ta’lim dasturlarini joriy etish, ilmiy tadqiqotlarda ayollar uchun qulay sharoitlar yaratish hamda innovatsion loyihalarda ularning ishtirokini kengaytirish muhim ahamiyat ega.

Xulosa (Conclusion)

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

Xulosa qilib aytganda, xotin-qizlarning ilmiy faolligini oshirish uchun zamonaviy ta’lim va innovatsion yondashuvlar muhim strategik ahamiyatga ega. Raqamli ta’lim, mentorlik institutlari, ilmiy grantlar va gender tenglikni ta’minlash orqali ayollarning ilm-fandagi ishtirokini yanada kengaytirilishi mumkin. Mazkur yo‘nalishda olib boriladigan tizimli va kompleks islohotlar jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishga, ilmiy-tadqiqotlar sifatini yaxshilashga hamda barqaror ijtimoiy rivojlanishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-maydagi "2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PQ-5116-son qarori
2. UNESCO. Women in Science: Fact Sheet, Paris, 2022.
3. OECD Education at a Glance: Gender Equality in Higher Education, Paris, 2021.
4. Xolmurodova N. Zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

XOTIN-QIZLAR ILMDA: TIKLANISH, YUKSALISH VA TARAQQIYOT SARI QADAMLAR.

Mamatisoqova Oysanam Lochin qizi.

Namangan davlat pedagogika institute

Turizm va mehmondo‘stlik yo‘nalishi

1-kurs talabasi.

E-mail: mamatisakvaoyanam@gmail.com

+998779693907

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18675779>

Annotatsiya: Ushbu maqolada xotin-qizlarning ilm-fanga qo‘shayotgan hissasi, tarixiy tiklanish jarayoni, zamonaviy rivojlanish tendensiyalari va kelajakdagi imkoniyatlari tahlil qilinadi. Unda ilmiy sohalarda ayollarning faolligi, gender tengligi siyosati, ta‘lim va innovatsiyalar orqali erishilayotgan yuksalishlar yoritiladi. Maqolada O‘zbekiston va jahon tajribasidan misollar keltirilib, xotin-qizlar salohiyatini oshirish bo‘yicha takliflar ham beriladi.

Kalit so‘zlar: xotin-qizlar, ilm-fan, innovatsiya, gender tenglik, ta‘lim, ilmiy salohiyat, taraqqiyot, yuksalish.

WOMEN IN SCIENCE: STEPS TOWARD RENEWAL, ADVANCEMENT, AND PROGRESS.

Mamatisoqova Oysanam Lochin qizi.

Namangan State Pedagogical Institute,

Tourism and hospitality major,

1st –year student.

E-mail: mamatisakvaoyanam@gmail.com

+998779693907

Annotation: This article examines the contribution of women to science, the processes of historical restoration, modern development trends, and future opportunities. It highlights women’s increasing participation in scientific fields, gender equality policies, and advancements achieved through education and innovation. Drawing on examples from Uzbekistan and global practices, the paper offers recommendations for enhancing women’s scientific potential.

Keywords: women, science, innovation, gender equality, education, scientific potential, development, progress.

ЖЕНЩИНЫ В НАУКЕ: ШАГИ К ВОЗРОЖДЕНИЮ, РОСТУ И ПРОГРЕССУ.

Маматисокова Ойсанам Лочин кизи.

Студентка 1 курса направления Туризм и гостеприимство Наманганский государственный педагогический институт.

E-mail: mamatisakvaoyanam@gmail.com

+998779693907

Аннотация: В статье анализируется вклад женщин в науку, процессы исторического восстановления, современные тенденции развития и будущие перспективы. Освещается активность женщин в научных сферах, политика гендерного равенства, а также достижения в области образования и инноваций. На основе примеров Узбекистана и мирового опыта предлагаются рекомендации по дальнейшему развитию женского научного потенциала.

Ключевые слова: женщины, наука, инновации, гендерное равенство, образование, научный потенциал, развитие, прогресс.

Bugungi kunda ilm-fan nafaqat jamiyat taraqqiyoti, balki individual rivojlanish uchun ham muhim vosita hisoblanadi. Xotin-qizlarning ilmga qo‘shayotgan hissasi nafaqat ularning o‘ziga, balki butun jamiyatga foyda keltiradi. Ilmda ayollarning yetarlicha ishtirok etmasligi katta imkoniyatlarni yo‘qotishdir. Hozirda dunyoning ko‘plab davlatlarida ayollar ilm-fanda yetakchi rol o‘ynashmoqda: ular Nobel mukofotlarini qo‘lga kiritmoqda, yangi texnologiyalar yaratmoqda, ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda. Jumladan, Respublikamizda ham xotin-qizlarning ilmiy faoliyatini oshirish bo‘yicha bir qancha chora tadbirlar olib borilmoqda.

“Mamlakatda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog‘lig‘ini saqlash, kasbga o‘qitish va bandligini ta‘minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, gender tenglikni ta‘minlash borasida olib borilayotgan islohotlarni tizimli davom ettirish, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish maqsadida:

a) oliy ta‘lim muassasalari, texnikum va kollejlarda kunduzgi ta‘lim shaklida o‘qiyotgan xotin-qizlarning ta‘lim kontraktlarini to‘lash uchun 7 yil muddatga foizsiz ta‘lim kreditlarini moliyalashtirish maqsadida tijorat banklariga Davlat budjetidan har yili 1, 8 trillion so‘m resurs mablag‘lari yo‘naltirilsin.

b) davlat oliy ta‘lim muassasalarining magistratura bosqichida o‘qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to‘lovlarini shartsiz qoplash maqsadida, Davlat budjetidan har yili kamida 200 milliard so‘m moliyalashtirilsin.

c) xorijiy oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat ta‘lim dasturlari bo‘yicha – 50 nafar, magistratura ta‘lim dasturlari bo‘yicha – 10 nafar xotin-qizlarga har yili “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali qo‘shimcha grantlar ajratib berilsin.”[1]

Bundan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda ayollarning ilmiy salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ta‘lim sohalariga jalb qilish uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Unversitetda professor va doktorant safatida faoliyat yuritayotgan ayollar, xalqaro konferensiyalarda ma‘ruza qilayotgan yosh olimlar jamiyat uchun katta namuna hisoblanadi.

Maqolaning maqsadi – xotin-qizlarning ilm-fandagi o‘rnini tahlil qilish, ularning erishgan yutuqlarini ko‘rsatish. Shuningdek, ayollarning duch keladigan to‘siqlarini aniqlash va bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

Bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarning oliy ta’lim tizimidagi ishtiroki tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, magistratura va doktorantura bosqichlarida ayollar sonining ko‘payishi ilmiy salohiyatning yuksalayotganidan dalolat beradi. Bu albatta, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan moliyaviy ko‘mak mexanizmlarining ishlab chiqarilishidir. Shuningdek, ayrim ta’lim muassasalarida xotin-qizlar uchun alohida kvotalar ajratilishi ularning ilmiy faoliyatga kirib kelishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Agar xotin-qizlar ilmiy daraja olishda davlat tomonidan doimiy qo‘llab quvvatlansa, bu kelajakda malakali kadrlar zaxirasining kengayishiga va ular qo‘lida tarbiya topgan bolalar kelajakda ilmga chanqoq insonlar bo‘lib yetishishiga yordam beradi. Ayollarning davlat boshqaruvidagi ulushi 35 foizga, tadbirkorlik sohasida 37 foizga, siyosiy partiyalar tarkibida esa 49 foizga yetdi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 38 foizi (57 nafar), Senat a’zolarining 27 foizi (16 nafar), mahaliy kengashlar deputatlarining 25 foizini ayollar tashkil qilmoqda. [2]

Ilmiy muassasalarda xotin-qizlar uchun keng va qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bugungi kunda ilmiy institutlar va tadqiqot markazlarida masofaviy ilmiy ish olib borish imkoniyati, moslashuvchan ish vaqti, ilmiy grantlar bu borada muhim mexanizmlardir. Shuni ta’kidlash mumkinki, oliy ta’lim sohasida ham oilali va yosh bolalari bor xotin-qizlar uchun masofaviy ta’lim tizimi ham faoliyat yuritmoqda. Bu bolali ayollar uchun qulay sharoit yaratish va ilmiy izlanishlardan chetda qolmasligiga yordam beradi.

Dunyo ilm-fan tarixida ayollar muhim kashfiyotlar qilgan. Masalan, matematika, fizika, tibbiyot va biologiya sohasida ayol olimlarning hissasi beqiyos. Ularning erishgan muvaffaqiyatlari shuni ko‘rsatadiki, ilm-fanda jins emas, balki bilim va mehnat hal qiluvchi omildir.

O‘zbekistonda ham ilm-fan va innovatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan ko‘plab ayol olimalar mavjud. 2023-yilning yoz oylarida Koreyada bo‘lib o‘tgan “Koreya xalqaro ixtirochi ayollar ko‘rgazmasi” (KIWIE 2023) da ham 10 nafar O‘zbekistonlik olim ayollar ishtirok etishdi. Ularning 7 nafari sovrindorlar qatoridan joy olishdi. [3]

Asqarova Salima Asqarovna – taniqli olim, biologiya fanlari doktori, professor. U O‘zbekistonda mikrobiologiya faniga ulkan hissa qo‘shgan.

Yunusova Xolida – farmasevtika fanlari doktori, professor. U o‘z ilmiy ishlarini tayyor dori turlari texnologiyasini yaratish, ishlab chiqarishni tashkil etish, shuningdek biofarmasevtik tadqiqotlar yo‘nalishida olib boradi. U tomonidan 700 dan ortiq ishlar chop etilgan.

Ubaydullayeva Xurshida – kimyo fanlari nomzodi. Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shgan. KIWIE – 2019 da oltin medal bilan taqdirlangan. [4] Ushbu olim xotin-qizlarimizning erishgan yutuqlari va olib borgan ilmiy faoliyatlari, davlatimiz yaratib berayotgan keng imkoniyatlarning yaqqol namunasidir.

Ammo, hozirgi kunda ba’zi xotin-qizlarimiz oilaviy majnuriyatlar, bolalarning tarbiyasi bilan ilmiy faoliyatni birlashtirishdagi qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Masalan, tadqiqotlar va o‘qish uchun vaqtning yetarli emasligi. Yana bir asosiy muammo oilada yosh qizlarni o‘qitishga bo‘lgan salbiy munosabatlar. Qiz bolalarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini so‘ndirish hamda bolalikdan faqat turmush qurish, uy ishlarini o‘rgatish bilan tarbiyalash. Ushbu muammolarni oldini olish uchun, masofaviy va moslashuvchan ilmiy ish faoliyatlarini yanada kengaytirish, xotin-qizlar uchun maxsus grantlar va stipendiyalarni ko‘paytirish zarur. Jamiyatga xotin-qizlarni o‘qitish qanchalik foydali

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

ekanligini tushuntirish, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda muntazam ravishda xotin-qizlarning erishayotgan yutuqlari to‘g‘risida ma’lumot berib borish zarur. Zero, o‘tib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi ayollar qo‘lida va bunga bevosita ta’sir qiladi. Ilmli, o‘qigan ayollar kelajakda jamiyat uchun foydali farzandlarni tarbiya qilishadi va bu albatta davlat uchun katta yutuqlardan biri.

YuNESKO hisobotida (2021) ayollar muhandislik mutaxassislarining 28 foizini, kompyuter fanlari bitiruvchilarining 40 foizini va sun’iy intellekt sohasi mutaxassislarining 22 foizini tashkil etishi qayd etib o‘tilgan. [5] Jahonda Emmi Maynser, Shirin Akiner, Emmy Noether kabi ilm fanning rivoji uchun hissa qo‘shgan olimlar hatto “Nobel” mukofoti sovrindori darajasiga ham ko‘tarilgan.

Xulosa qilsak, ayollar nafaqat bugun balki o‘tgan asrlar mobaynida ham ilm, taraqqiyot sohasida katta yutuqlarga erisha olgan. Insoniyat taraqqiyotining boshlanishi “matriarxat” ya’ni ona davridan boshlangan va boshqaruv ayollar qo‘lida bo‘lgan. Shunday ekan ayollarni ilmga jalb qilish, ularni rag‘batlantirish va qo‘llab quvvatlash jamiyat hamda davlat uchun katta yutuq va poydevordir. Yangi O‘zbekistonda yaratilayotgan shart-sharoitlar so‘nngi yillarda ayollarning faoliyat darajasini yuksaltirdi, olimlarning soni hamda ularning xalqaro toifadagi yutuqlari keskin ortdi. Universitetlarda ta’lim olayotgan xotin-qizlar soni o‘g‘il bolalarnikiga nisbatan ancha yuqoriligi yaratilayotgan imkoniyatlarning natijasidir. Zero, har bir ayolning ilmga qadam qo‘yishi – kelajak avlod uchun yorqin namuna.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07. 03. 2022 yildagi PF-87-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi. 2024-12-16.
3. kun. uz news 2023/10/19.
4. “Jizzax haqiqati” gazetasi rasmiy sayti, 09/03/2024.
5. <https://www.undp.org/uz/uzbekistan/blog/stem-sohasidada-qizlar-va-ayollarning-imkoniyatlarini-kengaytirish-nima-ishlaydi>.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING EKOLOGIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH

Mirabdullayeva Omina Turdimamat qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta’lim yo’nalishi

I-kurs talabasi

Email: ominamirabdullayeva@gmail.com

Ilmiy rahbar: Qoraboyeva Zohida To’lanboyevna

Namangan davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrası PhD dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18675809>

Annotatsiya: *Maqolada bolalarni jonli va jonsiz tabiat ob’yektlarini kuzatishga o’rgatish, tabiatda xavfsiz ishlash qoidalariga rioya qilgan holda, tabiatda ekologik toza xulqatvor ko’nikmalarini shakllantirish, empatiya tuyg’usini va tabiatning muhtoj ob’ektlari: o’simliklar, hasharotlar, hayvonlar, qushlar, odamlarga yordam berish istagini tarbiyalash yoritilgan.*

Kalit so’zlar: *kuzatishga o’rgatish, tabiat, xavfsiz, ekologik toza, xulq-atvor ko’nikmalari, shakllantirish, empatiya tuyg’usi, o’simliklar, hasharotlar, hayvonlar, qushlar.*

Annotatsiya: *Статья посвящена обучению детей наблюдению за живыми и неживыми объектами природы, соблюдению правил безопасного труда на природе, формированию навыков экологически безопасного поведения на природе, развитию чувства сопереживания и нуждающимся объектам природы: растениям, насекомым, подчеркивается стремление помочь животным, птицам и людям.*

Ключевые слова: *обучение наблюдению, природа, безопасный, экологически чистый, поведенческие навыки, формирование, эмпатия, растения, насекомые, животные, птицы.*

Annotation: *The article is devoted to teaching children to observe living and inanimate objects of nature, observing the rules of safe work in nature, developing skills for environmentally friendly behavior in nature, developing a sense of empathy and needy objects of nature: plants, insects, the desire to help animals, birds and people is emphasized.*

Keywords: *learning to observe, nature, safe, environmentally friendly, behavioral skills, formation, empathy, plants, insects, animals, birds*

Kirish

Bugungi kunda insoniyatni xavf ostida qoldirayotgan hodisalardan biri ekologik vaziyat hisoblanib, jamiyatga katta tashvish uyg’otmoqda. Insonning tabiiy boyliklardan haddan tashqari oshiqcha foydalanishi oqibatida, o’rmonlar siyraklashib, o’simlik va hayvonlar turlari kamayishi, foydali qazilma boyliklari tugab borayotganligi, shuningdek, suv havzalari va atmosfera havosining ifloslanishi natijasida sayyoramizning qiyofasi o’zgarib bormoqda. Bularning barchasi insonlarning tabiiy boyliklardan oqilona foydalanmasligi oqibati hisoblanadi. Shuning uchun ham ekologik tarbiya berishni maktabgacha yosh davridan boshlash lozim.

Ma’lumki, Respublikamizda —Uzluksiz ekologik ta’lim konsepsiyasi yaratilgan. Mazkur konsepsiyaga ko’ra, maktabgacha ta’lim tashkilotlari bolalariga ekologik ta’lim-tarbiyaning oddiy

elementlari beriladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar atrof-muhit bilan qanday muloqotda bo‘lishlari zarurligini, issiq-sovuq, yorug‘lik-qorong‘ulik, kecha-kunduz, yomg‘ir-qorni, yaxshilik-yomonlikni, qushlar, hayvonlar, o‘simliklarga nisbatan qanday munosabatda bo‘lishni bilishlari, tabiatdagi ranglarni tanishlari zarurdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ekologik madaniyatni shakllantirishning asosiy davri hisoblanadi. Bu yoshda bolalar tabiatni o‘rganishga, uning go‘zalliklarini tushunishga, shuningdek, atrof-muhitni asrashga oid dastlabki tushunchalarni egallashga tayyordirlar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish, bir tomondan, ularning dunyoqarashini shakllantirish, boshqa tomondan esa, ularni tabiiy resurslardan ehtiyotkorlik bilan foydalanishga, atrof-muhitga bo‘lgan mas’uliyatni anglashga o‘rgatish imkoniyatini yaratadi.

EKOLOGIK MADANIYAT VA UNING TARKIBIY QISMLARI

Ekologik madaniyat - bu atrof-muhitga nisbatan odamning bilish, hissiy va faoliyat jihatlari orqali shakllanadigan ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar tizimidir. Ekologik madaniyatni shakllantirishda quyidagi asosiy tarkibiy qismlar mavjud:

1. Ekologik bilimlar: Tabiatning qanday ishlashini, ekosistemalar va ularning ahamiyatini, hayvonlar va o‘simliklar olami bilan qanday munosabatda bo‘lish kerakligini o‘rgatish.

2. Ekologik xulq-atvor: Atrof-muhitni asrash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish amaliyoti. Bu bolalarga chiqindilarni to‘g‘ri tasniflash, suv va energiyani tejash, o‘simliklarni parvarish qilish kabi oddiy ekologik odatlarni o‘rgatishni o‘z ichiga oladi.

3. Ekologik his-tuyg‘ular: Bolalarda tabiatga nisbatan ijobiy his-tuyg‘ularni rivojlantirish, tabiatga bo‘lgan muhabbatni va uning go‘zalligini qadrlash.

4. Ekologik faoliyat: Bolalar ekologik faoliyatlarga jalb etilishi kerak, masalan, bog‘da ishlash, daraxtlar ekish, atrof-muhitni tozalash kabi amaliy ishlar orqali ekologik madaniyatni rivojlantirish.

MAKTABGACHA YOSHDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USULLARI

1. O‘yinlar va mashqlar: Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yinlar ekologik madaniyatni shakllantirishning eng samarali usullaridan biridir. Bolalar o‘yinlar orqali tabiatni o‘rganishadi, ekologik qonuniyatlarni tushunadilar. Misol uchun, "Tabiatni asrash" nomli o‘yin orqali bolalar chiqindilarni to‘g‘ri tasniflashni o‘rganishlari mumkin.

2. Tabiat bilan muloqot: Bolalar tabiatni faqat o‘qish yoki hikoyalar orqali emas, balki amaliy tajriba orqali o‘rganishlari kerak. Tabiatda sayr qilish, bog‘da meva va sabzavotlarni parvarish qilish, hayvonlarni boqish orqali bolalar tabiat bilan bevosita muloqotda bo‘lishadi.

3. Eko-olimpiadalar va viktorinalar: Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ekologiya mavzusidagi eko-olimpiadalar va viktorinalar o‘tkazish ham samarali usuldur. Bu orqali bolalar ekologik bilimlarini mustahkamlashadi va ular orasida sog‘lom raqobatni rivojlantirish mumkin.

4. Hikoyalar va ertaklar: Ekologik mavzudagi hikoyalar va ertaklar bolalarga tabiatni sevisish va unga g‘amxo‘rlik qilishni o‘rgatish uchun foydalidir. Ushbu hikoyalar va ertaklar orqali bolalar ekologik qadriyatlarni o‘z ichiga olgan ijobiy xarakterlarni o‘rganadilar.

5. Ekologik ta'lim metodlari: Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ekologik ta'lim metodlari va dasturlarini ishlab chiqish juda muhimdir. Bu metodlar ekologik bilimlarni bolalar yoshiga mos tarzda va o‘yin, amaliy ishlar orqali o‘rgatishni o‘z ichiga oladi.

EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA OTA-ONALARNING ROLI

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ota-onalar ham katta ahamiyatga ega. Ular bolalariga ekologik madaniyatni o‘rgatishda birinchi o‘qituvchilar hisoblanadilar. Ota-onalar, o‘z navbatida, bolalariga tabiatni sevishni, ekologik qadriyatlarni hurmat qilishni va atrof-muhitni asrashni o‘rgatishda mas’uldirlar. Ota-onalar bilan birgalikda ekologik mashg‘ulotlar o‘tkazish, o‘simliklarni parvarish qilish, chiqindilarni to‘g‘ri ajratish kabi faoliyatlar bolalar uchun yanada samarali bo‘ladi.

Ota-onalar ekologik madaniyatni shakllantirishda birinchi va eng muhim o‘qituvchilar bo‘lib, bolalarga tabiatni sevish, hurmat qilish va asrashni o‘rgatishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ularning o‘z xulq-atvori va oilaviy odatlari bolalarning ekologik ongini belgilaydi.

Men ekologiya bo‘yicha ishimni shu mavzudagi adabiyotlarni o‘rganishdan boshladim. Maqsad va vazifalarni belgilang. Ikkinchi bosqichda u nazariy material tanlash, amaliy usullarni tanlash bilan shug‘ullandi, reja tuzdi, unda ekologik ta'lim bo‘yicha darslar ham bor edi. Ular rivojlanish ta'limi tamoyili asosida qurilgan va umuman bolaning shaxsiyatini rivojlantirishga qaratilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini, ularning fikrlash, ijodkorlik, his-tuyg‘u madaniyatini oshirish. O‘rganishda ustuvorlik bilimlarni oddiy va mexanik takrorlash emas, balki nima sodir bo‘layotganini tushunish va baholashga beriladi. Pedagog va bolalarning birgalikdagi amaliy faoliyati. Men tartibli daqiqalarda bolalarning ekologik tarbiyasi ustida ishlayman va uni fasllarga qarab qurishga harakat qilaman. Buning uchun o‘quv yilining boshida reja tuzildi, unga quyidagilar kiradi: sinflar, kuzatishlar, o‘yin vaziyatlari, eksperimental tadbirlar.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tushunchalarni shakllantirish — ularning tabiatga bo‘lgan munosabatini, mas’uliyat hissini va ongli xatti-harakatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu yosh davrida bola atrof-muhitni bevosita kuzatish, tajriba qilish va o‘yin faoliyati orqali tabiat hodisalarini anglay boshlaydi. Shuning uchun ekologik tarbiya jarayoni bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos, qiziqarli hamda amaliy faoliyatga asoslangan bo‘lishi lozim.

Ekologik tushunchalarni shakllantirishda tabiatni kuzatish, sayrlar, tajribalar, didaktik o‘yinlar, ertak va suhbatlar muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu faoliyatlar orqali bolalarda o‘simliklar va hayvonlarga g‘amxo‘rlik qilish, suv, havo va yerning ahamiyatini anglash, tabiatni asrash zarurligi haqidagi dastlabki bilimlar hosil bo‘ladi. Natijada bolalarda ekologik madaniyat, tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik va mehr-oqibat tuyg‘ulari shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tushunchalarni shakllantirish uzluksiz va tizimli jarayon bo‘lib, u oilada, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hamkorlikda olib borilgandagina samarali natija beradi. Bu jarayon kelajakda ekologik ongli, tabiatni asraydigan va jamiyat oldidagi mas’uliyatini his etadigan shaxsni tarbiyalash uchun mustahkam poydevor yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

1. Madina Norpulatovna, T. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish – ekologik tarbiya uslublari va pedagogik metodlar haqida maqola.
2. Maftunaxon Mahmudjon qizi Jaloliddinova va Mohinur Qayumjon qizi Xayitboyeva. Syujetli-rolli o‘yinlar orqali ekologik tushunchalarni shakllantirish – innovatsion o‘yin metodlari.
3. Fayyoza Bo‘riyeva. Xalq og‘zaki ijodi orqali tabiatni asrash va g‘amxo‘rlik munosabatlarini shakllantirish – ertak, topishmoqlar, maqollar orqali ekologik tarbiya.
4. Zinora Otaniyozovna Ermatova. Maktabgacha ta’limda ekologik tarbiya samaradorligi – pedagogik adabiyotlar va metodik qo‘llanmalar tahlili.
5. Xilola Shavkatovna Jo‘rayeva. Bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish – nazariy asoslar va xalqaro tajribalar, jumladan UNESCO tavsiyalari.
6. Gulhayo Yarova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta’lim – tarbiya texnologiyalari – ekologik savodxonlikni shakllantirish usullari.

BDTU FIDOKOR OLIMA AYOLLARI.

Teshayeva Yulduz Hakim qizi

BuxDU tayanch doktoranti,

94. 729-77-12

E-mail: yulduzteshaveva96@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18675858>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro davlat texnika universitetida faoliyat yuritayotgan olim ayollarning ilmiy-pedagogik faoliyati, ilmiy yutuqlari hamda jamoatchilik ishlaridagi faolligi yoritilgan. Ularning texnika, pedagogika va ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishlardagi tadqiqotlari, yosh avlodni tarbiyalashdagi o‘rni va ayollarning ilm-fan rivojidadagi ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: olim ayollar, ilm-fan, oliy ta‘lim, Buxoro davlat texnika universiteti, ilmiy faoliyat, pedagogik faoliyat, innovatsiya, texnika yo‘nalishlari, yoshlar tarbiyasi, ayollar faolligi.

Аннотация. В данной статье освещается научно-педагогическая деятельность, научные достижения и общественная активность женщин-учёных, работающих в Бухарском государственном техническом университете. Проанализированы их исследования в техническом, педагогическом и социально-гуманитарном направлениях, роль в воспитании молодого поколения, а также значение женщин в развитии науки.

Ключевые слова: женщины-учёные, наука, высшее образование, Бухарский государственный технический университет, научная деятельность, педагогическая деятельность, инновации, технические направления, воспитание молодёжи, активность женщин.

Abstract. This article highlights the scientific and pedagogical activities, academic achievements, and social engagement of women scholars working at Bukhara State Technical University. It analyzes their research in technical, pedagogical, and socio-humanitarian fields, their role in educating the younger generation, and the importance of women in the development of science.

Keywords: women scholars, science, higher education, Bukhara State Technical University, scientific activity, pedagogical activity, innovation, technical fields, youth education, women’s participation.

Bugungi globallashuv davrida ilm-fan va innovatsiyalar har bir jamiyat taraqqiyotining asosiy omiliga aylanib bormoqda. Ayniqsa, texnika va muhandislik yo‘nalishlarida ilmiy salohiyatli kadrlarni tayyorlash oliy ta‘lim muassasalari oldidagi eng muhim vazifalardan biridir. Bu jarayonda ayol olimalarning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Ular nafaqat ilmiy izlanishlar olib borib, yangi g‘oyalar va ishlanmalarni yaratmoqda, balki yosh avlodni tarbiyalash, ularda kasbga sadoqat va Vatanga muhabbat tuyg‘ularini shakllantirishda ham faol ishtirok etmoqda.

Buxoro davlat texnika universitetida faoliyat yuritayotgan olim ayollar o‘zining fidoyiligi, mehnatsevarligi va ilmiy salohiyati bilan ta‘lim va ilm-fan rivojiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Ularning ilmiy tadqiqotlari, pedagogik faoliyati hamda jamoatchilik ishlaridagi faolligi universitet nufuzining oshishiga xizmat qilmoqda.

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

Shunday ilmiy olim ayollardan biri Jo‘rayeva Nafisa Rajabovna bo‘lib, u 1985 yilda tug‘ilgan. Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyasi institutini 2006 yil «Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi» ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr yo‘nalishini va 2008 yil «Don va boshqa o‘simlik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlov berish texnologiyasi» mutaxassisligi bo‘yicha magistraturani tugatgan.

2018 yildan buyon texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). Dissertatsiyasini 2018 yil Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy kengashda «Bug‘doy murtagini qo‘llab maqsadli o‘simlik-yog‘ aralashmalari olish» mavzusida 02. 00. 17 – «Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash hamda qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari» ixtisosligi bo‘yicha himoya qilgan[1].

2020 yilda 02. 00. 17 – «Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash hamda qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari» ixtisosligi bo‘yicha dotsent ilmiy unvonini olgan.

2024 yil 31 iyulda Buxoro davlat texnika universitetida 02. 00. 17 – «Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash hamda qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari» ixtisosligi bo‘yicha «O‘simlik- yog‘ aralashmalarini ishlab chiqarishda xom ashyoni maqsadli kombinatsiyalashning ilmiy va amaliy jihatlari» mavzusida dissertatsiya himoyasiz ixtiro patentlari asosida (DSc) fan doktori ilmiy darajasini olgan.

Jo‘rayeva Nafisa Rajabovna 2016 yilda Rossiyaning Lipetsk shahrida o‘tkazilgan yosh olimlar xalqaro tanlovida o‘z maqolasi bilan ishtirok etib, I darajali diplom laureati bo‘lgan[2].

“O‘zbekiston oliy ta‘lim muassasalari modernizatsiya yo‘lida”(MATCHES) Xalqaro loyihasi doirasida o‘tkazilgan 2015-2016 yillardagi seminar-treninglarda faol ishtirok etgan.

Germaniya Halqaro Hamkorlik Jamiyati(GIZ) loyihasi doirasida “Markaziy Osiyoda kasbiy ta‘lim – I” regional dasturi asosida 2018 yil Qozog‘iston Respublikasi Karaganda Davlat texnika universitetiga “Yosh o‘qituvchilari uchun yozgi maktab-2018” o‘quv seminarida qatnashib tegishli sertifikat bilan taqdirlandi.

Shu loyiha doirasida 2019 yili Qozoq Milliy agrar universitetida tashkil etilgan “Qishgi maktab-2019” o‘quv mashg‘ulotlarida qatnashdi va “Food security, feeding minds fighting hunger” va “Safety assessment of microorganisms intentionally introduced into food chain” (“Oziq-ovqat xavfsizligi, ochlik bilan kurashadigan aql” va “Oziq-ovqat zanjiriga ataylab kiritilgan mikroorganizmlarning xavfsizligini baholash”) kurslaridan tegishli transkript va sertifikat olgan.

2017 yil Fan va texnologiyalarni rivojlantirish qo‘mitasi tomonidan e‘lon qilingan “Yosh olimlarning akademik xarakatchanlik-2017” loyixalar tanlovida ishtirok etib 20 mln. so‘mlik grant sovrindori bo‘lib, tadqiqot ishlarini Ўз. Р. ФА “O‘simlik moddalari kimyosi” ITIda olib bordi.

“YUNESKO”ning O‘zbekistondagi vakolatxonasi va Bosh ilmiy-metodik markaz tomonidan tashkil etilgan “Gender yondashuv asosida ta‘lim jarayonini tashkil etish” bo‘yicha o‘quv seminarlarda qatnashgan. Olima 15 yillik pedogogik va ilmiy faoliyati davomida 165 ta ish e‘lon qilgan, shulardan 3 ta monografiya, 4 ta ixtiroga patent, jami 135 ta ilmiy va 30 dan ortiq o‘quv-uslubiy ishlar chiqardi.

2025- yil 12-dekabr kuni Buxoro davlat texnika universitetida “Eko-raqamli kelajak: yashil innovatsiyalar, barqaror ta‘lim, iqtisodiyot va turizm sinergiyasi” mavzusidagi xalqaro konferensiya

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

bo‘lib o‘tdi. N. R. Jo‘rayeva ham bu konferensiyada o‘z loyihalari bilan faol ishtirok etib Jahon Sog‘liqni Saqlash tashkilotining sertifikatlari bilan taqdirlandi[3].

BDTU da faoliyat olib borayotgan yana bir ilm-fanga o‘z umrini bag‘shida qilgan ustoz olimi Pardayeva Marhabo Davlatovnadir. U 1974 yilda tug‘ilganva 1997 yilda Buxoro davlat universitetini tarix, huquq va jamiyatshunoslik fanlari mutaxassisligi bo‘yicha tugatgan. Dastlab faoliyatini Romitan tumanidagi umumiy o‘rta ta‘lim maktabida o‘qituvchilik qilish bilan boshlagan.

U qariyb olti yil davomida Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi Buxoro viloyati bo‘limiga ham rahbarlik qilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari, hukumatning boshqa me‘yoriy hujjatlari asosida berilgan topshiriqlar ijrosini o‘z vaqtida va samarali ijro etishda o‘z hissasini qo‘shgan.

Pardayeva Marhabo Davlatovna 2010 yilda “Alisher Navoiy asarlarida komil inson g‘oyasi” mavzuida nomzodlik, 2023 yilda “Alisher Navoiy ma‘naviy merosida Naqshbandiya ta‘limotining mazmun-mohiyatiga oid g‘oyalar” mavzuidagi doktorlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilib falsafa fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasi, shuningdek, dotsent ilmiy unvoniga ega bo‘ldi. Ayni paytda BDU qoshidagi falsafa yo‘nalishida dissertatsiyalar himoya qilish Ilmiy kengashi qoshidagi Ilmiy seminar a‘zosi, 10 dan ortiq shogirdlar chiqarib o‘z sohasidagi ilmiy tadqiqot ishlarini davom ettirib kelmoqda. Qator ilmiy maqolalar va monografiyalar muallifi.

Pardayeva Marhabo Davlatovna 2021 yilda - “Sog‘lom turmush” medali[4], “O‘zbekiston respublikasi mustaqilligining 30 yilligi”, “O‘zbekiston kasaba uyushmalariga bir yil”, “O‘zbekiston Konstitutsiyasining 30 yilligi” esdalik nishoni (2022 y), “Ma‘naviyat fidoyisi” ko‘krak nishoni (2023 y), “Adolat” SDPning ko‘krak nishonlari bilan taqdirlanib, davlat va jamiyat e‘tirofiga sazovor bo‘lgan.

U tashabbuskorligi va mehnatsevarligi bilan viloyat aholisi o‘rtasida alohida hurmat qozongan, viloyatdagi rahbar xodimlar o‘rtasida ham alohida hurmat-e‘tiborga ega inson. U 2010 yildan beri “Adolat” SDP a‘zosi, 2019 yildan buyon Xalq deputatlari viloyat kengashi deputati va Kengashning “Fan, ta‘lim va sog‘liqni saqlash masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi” raisi sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda.

2025 yil 15 avgustdan Buxoro davlat texnika universiteti Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda.

Uning hayot yo‘li ayollarga ham fanda, ham masuliyatli rahbarlik lavozimlarida bir vaqtda faoliyat yuritish mumkinligiga yaqqol namuna bo‘la oladi.

BDTU da yana bir rahbar lavozimlarida faoliyat yuritib kelayotgan yosh, talabchan va o‘z ishining fidoiysi pedagogika fanlari professori Samiyeva Shaxnoz Xikmatovnadir.

Olima 1978-yilda tug‘ilgan Buxoroda tug‘ilgan. 2001-yil Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiya institutini “Yengil sanoat texnologiyasi” mutaxassisligi bo‘yicha tugatgan. 2018-yildan buyon pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). Falsafa doktori dissertatsiyasini “Kasb-hunar kollejlari dizayn yo‘nalishi o‘quvchilarida estetik dunyoqarashni takomillashtirish metodikasi” mavzusida 13. 00. 05 – Kasb-hunar ta‘limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo‘yicha himoya qilgan.

2020-yilda–Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni-ixtisosligi bo‘yicha dotsent ilmiy unvonida tasdiqlangan. 2024-yildan buyon pedagogika fanlari doktori (DSc).

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

Doktorlik dissertatsiyasini 2024-yil 22-iyunda “Bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ yondashuv asosida loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari” mavzusida 13. 00. 02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo‘yicha himoya qilgan. 2024-yil professor unvonini olgan.

2023-yil 8-fevraldan 2024-yil 17-aprelgacha Buxoro davlat universiteti “Pedagogika” kafedrasida dotsenti, 2024-yil 17-apreldan Buxoro muhandislik-texnologiya instituti ilmiy kotibi[5]. U 2025-yil 30-yanvardan institutning “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring” bo‘limi boshlig‘i lavozimiga o‘tkazildi[6].

Sh. X. Samiyeva 6 nafar falsafa doktori ilmiy darajasiga talabgor tadqiqotchilarning dissertatsiyalariga, 10 dan ortiq talabalarning magistrlik dissertatsiyasi va bitiruv-malakaviy ishlariga rahbarlik qilgan. . Shu bilan birga, uning rahbarligida tayyorlangan 6 nafar talaba xalqaro va Respublika tanlovlarida ishtirok etib, tanlov g‘olibi bo‘lishgan.

SH. X. Samiyeva 2021-yil “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi” esdalik nishoni bilan taqdirlangan, shuningdek 2021-yil MDH davlatlari o‘rtasida o‘tkazilgan “Yilning eng yaxshi pedagogi” ko‘rik tanlovi g‘olibi bo‘lgan va esdalik nishoni bilan taqdirlangan.

SH. X. Samiyeva 2022-yildan Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi hamkorligida tashkil etilgan “O‘zbekiston yetakchi ayollar muloqoti platformasi”ning “Ilm fan yo‘nalishi” a‘zosi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2022-yil 15-maydagi 147-son buyrug‘i bilan oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzurida tashkil etilgan “Ta‘lim - fan jamoatchilik kengashi” a‘zosi ham hisoblanadi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi PhD. 12/30. 12. 2019. Ped. 80. 01 raqamli ilmiy kengash asosida tashkil etilgan bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar a‘zosi bo‘lib, dissertatsiyalar muhokamasida faol ishtirok etib kelmoqda, shuningdek dissertatsiyalar himoyasida rasmiy opponentlik qilgan. Shu bilan birga u Buxoro muhandislik-texnologiya institutida 13. 00. 02- Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika fanlari) ixtisosligi bo‘yicha mutaxassislik fanlaridan malakaviy imtihon qabul qilish komissiyasi raisi vazifalarida ishlagan.

2025-yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik markazida “Rahbar ayollar maktabi” maxsus kurs tinglovchisi sifatida o‘quv mashg‘ulotlarida faol ishtirok etib, boshqaruvga oid bilim, amaliy ko‘nikma va malakasini oshirgan.

SH. X. Samiyeva 304 ta ish e‘lon qilgan, shulardan 15 ta monografiya, 16 ta darslik, 5 ta o‘quv qo‘llanma, jami 257 ta ilmiy va 47 ta o‘quv-uslubiy ishlaridir. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi tomonidan 2 ta foydali modelga mualliflik guvohnomasi berilgan[7].

Xulosa qilib aytganda, Buxoro davlat texnika universitetida faoliyat yuritayotgan olim ayollar ilm-fan, ta‘lim va ma‘naviy-ma‘rifiy hayotning muhim tayanchi hisoblanadi. Ularning ilmiy izlanishlari ishlab chiqarish, ta‘lim tizimi va jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, yosh mutaxassislarining yetuk kadrlar sifatida shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Ushbu olimalarning faoliyati ayollarning nafaqat oila va jamiyatda, balki ilm-fan va rahbarlik sohalarida ham yuqori natijalarga erisha olishini yaqqol namoyon etadi. Ularning mehnati va yutuqlari yoshlar, ayniqsa, qizlar uchun katta motivatsiya va ibrat maktabidir. Demak, bunday fidoyi olimalarni

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

e’tirof etish, ularning ilmiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va tajribasini keng ommalashtirish jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Buxoro muhandislik texnologiyalar institutining olimi ayollari” Po‘latova M. I. Durdona. 2023 B:115
2. Jo‘rayeva N. R bilan 28. 01. 2026 da bo‘lgan suhbat asosida to‘plangan malumotlardan.
3. www. bdtu_uz_rasmiy
4. Muxtorjonovich, K. J. (2021). O‘zbekiston respublikasi ordenlarining tavsifi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(4), 536-543.
5. BuxMTI rektorining 2024-yil 17-apreldagi SH-562-sonli buyrug‘i.
6. BuxDTU rektorining 2025-yil 30-yanvardagi SH-214-sonli buyrug‘i.
7. Samiyeva Sh. X bilan 15. 10. 2025 yilda o‘tqazilgan suhbat asosida to‘plangan ma’lumotlardan.

HALIMA XUDOYBERDIYEVA BALLADALARI HAQIDA

Pardayeva Nigora Kuysinbayevna

Jizzax davlat pedagogika universiteti
doktoranti (DSc)

E-mail: pardayevan7@gmail.com

[Tel: +998915999689](tel:+998915999689)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18675871>

Annotatsiya: O‘zbek adabiyoti tarixida jahon she‘riyati bulog‘idan bahra olmagan ijodkor bo‘lmasa kerak. Shunday ijodkorlardan biri Halima Xudoyberdiyevadir. Maqolada Halima Xudoyberdiyeva qalamiga mansub balladalar haqida ma‘lumot berilgan. Uning “Qadah”, “Kutish” singari balladalar tahlil maydoniga olib kirilib ayrim mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Halima Xudoyberdiyeva, ballada, “Qadah”, “Kutish” xiyonat, farzand.

Аннотация: Вероятно, в истории узбекской литературы нет ни одного художника, который бы не пользовался дарами мировой поэзии. Одной из таких художниц является Халима Худойбердиева. В статье представлена информация о балладах, написанных Халимой Худойбердиевой. В поле анализа рассматриваются её баллады, такие как «Кадах» и «Кутииш», и даются некоторые комментарии.

Ключевые слова: Халима Худойбердиева, баллада, «Кадах», «Кутииш», предательство, ребёнок.

Annotatsion: There is probably no single artist in the history of Uzbek literature who has not used the talents of world poetry. One of such artists is Halima Khudoyberdieva. This article provides information about the ballads written by Halima Khudoyberdieva. The analysis studies her ballads such as “Qadah” and “Kutish” and presents some comments.

Keywords: Halima Khudoyberdieva, ballad, “Qadah”, “Kutish”, betrayal, child.

XX asr o‘zbek adabiyotida shoira, davlat arbobi Halima Xudoyberdiya ijodining salomog‘i yuqori. She‘riyatda individual uslubi, shoirona tafakkurning o‘ziga xosligi, hayot falsafasining teranligi shoira ijodining o‘ziga xos ekanligini ko‘rsatadi. Ijodkor sharq lirikasining ana’anaviy yo‘nalishida ijod qilish bilan bir qatorda jahon she‘riyati janrlarida ham samarali qalam tebratgan ma‘lum. Shoira balladalariga bunga yorqin misol bo‘la oladi.

Ballada – (fransuzcha ballade - raqsga tushaman) XIV-XV asrlarda roman mamlakatlarida keng tarqalgan, musiqa va raqs jo‘rligida ijro etiladigan, o‘ziga xos qofiya tizimiga va refren misraga ega bo‘lgan to‘rt banddan tashkil topgan liro-epik janr [1; 44].

Ma‘lumki, balladaga qo‘yiladigan qat‘iy talablar XX asrga kelib olib tashlandi. Hajman katta bo‘lgan voqeaband she‘riy asarlar ballada deb atala boshlandi.

Halima Xudoyberdiyevaning turli yillarda nashr etilgan kitoblariga 10 ga yaqin balladalar kiritilgan. Jumladan, “Ro‘molcha” (“Sadoqat”, 1983); “O‘lim oldi allasi”, “Yolg‘iz o‘g‘il haqida ballada”, “Ilinj” (“Muqaddas ayol”, 1987); “Qadah” (“Bu kunlarga yetganlar bor”, 1993), “Kutish” kabilar. Shoira balladalarida turmushimizdagi turfa xil insonlar hayot tarzini, taqdirini, ularning

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

kechmishini, ruhiy holatini, dard-u hasratini, bevafoqlik, makr hamda xiyonat, nafsiga qurbon bo‘lishning oqibatlarini badiiy ifodalashga harakat qiladi.

Ijodkor 8 band 18 misradan iborat “Qadah” balladasida oilasiga, farzandlariga jufti haloliga sadoqatsizlik qilgan ayol obrazini tasvirlaydi. Aslida unday kimsalar na ayol degan, na ona degan yuksak nomga munosibdir.

Xotin silab-siypab erini,
Er bilmaydi uning sirini.

Xotin tilda bergudayin jon,
Ko‘kragida g‘imirlar ilon [5, 53].

Ikki yuzlamachi, ayyorlikda, makkorlikda shaytonga ham dars beradigan bunday manfur xotinlar bugungi kunimizda ham uchrab turadi. Ular o‘z manfaatlarini yo‘lida hech narsadan hayiqmaydilar. Hatto inson hayotiga qasd qilishdan ham.

Qani oldik!
Oq urarlar, oq,
Er ko‘ksini changallar shu choq.

Shoiraning mahorati shundaki, oramizda shunday vijdonsiz, oila deb atalmish muqaddas dargohga, o‘z yorigaga xiyonat qiladigan ayollar tasvirini qisqa va ta’sirli ifodalab beradi. Ularning qilmishi kechirib bo‘lmas jinoyatdir. Qilgan gunohlarini tanglab yetishganda esa kech bo‘ladi.

Halima Xudoyberdiyevaning hajman kichik bo‘lsa-da, biroq mazmunning kengligi, hayot haqiqatini chuqur, teran ochib berilganligi bilan o‘quvchi qalbiga kira olgan balladalaridan yana biri “Kutish” asaridir. Ballada 7 band 15 misradan iborat. Unda padari buzrukvorini intizorlik bilan kutgan farzand hamda farzandini kutgan otaning ruhiy holati badiiy tasvirlanadi.

Bilmam, to‘g‘rimidi va yoki xato,
O‘g‘ilchasin uch kun kutdirdi ota.

Uch kun unga umid bog‘ladi yetim,
Uch kun kir yengiga yig‘ladi yetim.

Xalqimizda “Nimani eksang, shuni o‘rasan”, – degan naql bor. Farzandingizga bolalik chog‘larida nimani bersangiz, ulg‘aygach shuning hosilini olasiz. Ana shu hayot haqiqatini shoira juda ta’sirli jummalarda ifodalaydi. Misralarda doimo eshitgan so‘zlarimizga duch kelsak-da, biroq bu so‘zlar shoira asarida qaytadan jonlanadi. O‘quvchi qalbini larzaga keltiradi.

Keyin... ota kutdi. Uch yillab kutdi,
Ko‘zi yoshdan xira, miltillab kutdi [5, 15].

Bugungi kunimizda ham oila, turmush yumishlari, bola-chaqa tashvishi, ish deb, ko‘pchiligimiz jigarbandlarimizg biroz bo‘lsa ham vaqt ajrata olmaymiz. Vaqtlari borlar esa hafsala qilishmaydi. Ijtimoiy tarmoqlarni kuzatish uchun topilgan vaqt, jigargo‘shalarga kelganda yetmay

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

qoladi, ming afsus. Biroq buning badalini to‘lashimiz xayolimizga ham kelmaydi. Shoira bu singari holatlarning oqibati albatta, salbiy bo‘lishini poetik umumlashma orqali ko‘rsatib beradi.

So‘ng...

U ham umr bo‘yi bo‘lganmidi xit,

Ular-chun uv tortdi hovlidagi it.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, shoira balladalari hayotiy hodisalarning badiiy tarzda ravon, sodda ifodalanishi bilan ajralib turadi. Shoira asarlarini chuqur o‘rganish, tahlil qilish oldimizda turgan asosiy vazifalardan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Salayev. F, Qurbonniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi,
2. Xudoyberdiyeva H. Sadoqat”, 1983
3. Xudoyberdiyeva H. Muqaddas ayol, 1987
4. Xudoyberdiyeva H. Bu kunlarga yetganlar bor, 1993
5. Xudoyberdiyeva H. Saylanma V jildlik. IV jild. – T. : G‘afur G‘ulom, 2018.

SANOATLASHTIRISH SHAROITIDA O‘ZBEK AYOLLARINING JAMIYATDAGI MAVQEYINING O‘ZGARISHI (1920-1930-YILLAR)

Abdujabborova Saodat Bozorboyevna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

tayanch doktoranti

Tel: (99)455-92-20

E-mail: sabdujabborova1@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18675902>

Annotatsiya. Mazkur tezisda 1920–1930-yillarda O‘zbekistonda olib borilgan sanoatlashtirish siyosati sharoitida xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeining o‘zgarishi tahlil etiladi. Tadqiqotda ayollarning ishlab chiqarish sohasiga jalb etilishi, ularning mehnat faolligi va ijtimoiy-siyosiy ongidagi o‘zgarishlar yoritilgan. Shuningdek, ushbu jarayonning ijobiy va salbiy jihatlari muvozanatli tahlil qilinib, tarixiy xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: *industrializatsiya, ayollar, ijtimoiy mavqe, gender siyosati, mehnat faoliyati, ijtimoiy faollik, O‘zbekiston SSR.*

Аннотация. В тезисе анализируются изменения социального статуса женщин в Узбекистане в условиях политики индустриализации 1920–1930-х годов. Рассматриваются процессы вовлечения женщин в производственную деятельность, рост их трудовой активности и трансформация общественного сознания. Также выявляются положительные и отрицательные стороны данных социально-экономических преобразований.

Ключевые слова: *индустриализация, женщины, социальный статус, гендерная политика, трудовая деятельность, социальная активность, Узбекская ССР.*

Annotatsion. *This thesis analyzes changes in the social status of women in Uzbekistan under the conditions of industrialization policy in the 1920s–1930s. It examines the processes of women’s involvement in industrial labor, the growth of their labor activity, and transformations in social consciousness. The positive and negative aspects of these socio-economic changes are also identified.*

Keywords: *industrialization, women, social status, gender policy, labor activity, social participation, Uzbek SSR.*

Asosiy qism. 1925-yilga kelib O‘zbekistonda bor-yo‘g‘i 90 foizga yetadigan kam rivojlangan iqtisod sohalari mavjud edi. Respublika asosan agrar hudud bo‘lib qolgan edi. Xalq xo‘jaligida qishloq xo‘jaligining salmog‘i 62, 6%, sanoatning salmog‘i bo‘lsa 38, 4%ni tashkil etar, u ham qishloq xo‘jaligi xomashyosini qayta ishlashga asoslangan edi [1, 339-b].

O‘zbekiston uchun sanoat qurilishini keng sur‘atda jadallashtirish nihoyatda zarur edi. Shu maqsad asosida olib borilgan ishlar natijasida O‘zSSR iqtisodiy hayotida yirik o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Ularning asosiy yo‘nalishi-sanoatlashtirish, yangi texnika va mashinalarni joriy etish, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va modernizatsiya qilishdan iborat edi. Ishlab chiqarishning o‘sishi, texnik bazaning mustahkamlanishi yangi mehnat shakllarini, malakali kadrlar tayyorlashni talab qildi. 1924-1925-yillarga nisbatan O‘zbekistonda mehnat unumdorligi 1926-1927-yillarda 6, 18% ga, 1928-

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

1929-yillarda esa 8, 2%ga oshdi. O‘zbekiston xalq xo‘jaligi sotsializm qurilishi jarayonida yangi iqtisodiy ko‘rinish oldi. SSSRning Umumittifoq xo‘jalik majmuasida respublikaning o‘rni bir necha bor oshdi. Xususan, O‘zbekiston ulushi 1926-1927-yillarda 0, 2% bo‘lgan bo‘lsa, 1928-1929-yillarda 0, 4% ga yetdi. Bu ko‘rsatkichning o‘sishi sanoatlashtirish siyosati, yangi texnika va ishlab chiqarish uslublarining joriy etilishi bilan bevosita bog‘liq edi [2, 584-b].

Sanoat uchun kadrlar tayyorlash vazifasi respublika, kasaba uyushma va komsomol tashkilotlari oldidagi muhim vazifaga aylandi. Yirik sanoat korxonalarini va yangi qurilish obyektlari huzurida ishchilar ta‘lim markazi tashkil etilib, bu yerda ishchilar dastlab savod o‘rgatish darslarida o‘z savodsizliklarni bartaraf etib, keyinchalik umumta‘lim maktablarida o‘qishni davom ettirishga muvaffaq bo‘lindi. Partiya va hukumat tomonidan amalga oshirilgan g‘ayratli chora-tadbirlar tezda o‘z samarasini berdi: birinchi besh yillikning o‘zida sanoat korxonalarida 60 ming nafar malakali ishchilar tayyorlandi.

Mamlakatni industrilashtirish tufayli xotin-qizlarni ijtimoiy ishlab chiqarishga ommaviy ravishda jalb etish va ularni iqtisodiy jihatdan uzil-kesil ozod qilish jarayoni boshlandi. Yangi tashkil qilingan sanoat korxonalarida, ayniqsa to‘qimachilik sanoatidagi sexlarga ko‘p sonli mahalliy millat xotin-qizlari jalb etish jarayoni, ularning malakalarini va umumiy madaniy saviyalarini oshirish bilan birga olib borilar edi. Partiya, sovet va jamoat tashkilotlarining ko‘p qirrali madaniy-siyosiy ishlari natijasida xotin-qizlarni sotsialistik jamiyat qurilishining aktiv ongli quruvchilariga aylandilar, ularning tafakkurlarida keskin o‘zgarishlar ro‘y berdi [3, 16-b].

Turkiston Xalq Komissarlari Sovetining 1924-yil 3-martdagi “Ishchi, xizmatchi xotin-qizlar mehnat sharoitini yaxshilash to‘g‘risida” degan ko‘rsatmasida muassasa yoki korxonalar shtatini qisqartirish paytida xotin-qizlar erkaklar bilan teng malakali bo‘lgan hollarda ayollarni mumkin qadar ishga olib qolish kerakligi ko‘rsatildi. Bu ko‘rsatma xotin-qizlar ommasini ishlab chiqarishga ko‘proq jalb etishga qaratilgan edi. Shunday qilib, insoniyat tarixida birinchi marta xotin-qizlar ijtimoiy hayotning barcha sohalarida-iqtisodiy, siyosiy, madaniy jabhalarda erkaklar bilan teng huquqqa ega bo‘ldilar [4, 54-b].

Tutqinlikdan ozod etilgan ayollarning keng qatlamli zavod va fabrikalarga jalb etildi. Har bir sanoat korxonasi Sharq ayollari uchun “mustaqillik qo‘rg‘oni”, mustahkam tayanch, bir vaqtning o‘zida katta universitet rolini o‘ynadi. Agar 1928-1929-yillarda O‘zbekistondagi pillachilik sanoatida 2. 325 xotin-qiz ishlagan bo‘lsa, 1930-yilda ularning soni 3. 123 kishini tashkil etgan. Ashxobod pillakashlik fabrikasi va Samarqanddagi “Hujum” fabrikasi bu harakatning ilk qaldirg‘ochlari edi [5, 40-41-betlar].

Sovet boshqaruvi sotsialistik va kommunistik jamiyatni qurishda ayollarni ishlab chiqarishga, ijtimoiy faollikka chaqirdi. Ayollar oilada, jamiyatda, davlat organlarda, fabrika, zavod va turli yo‘nalishda o‘z o‘rinlarini to‘pa boshlashdi. Sotsializm millionlab ayollarga o‘z yo‘llarini topishda va yaratishda katta yo‘l ochib berdi. Zavod, fabrika, ferma, ishlab chiqarishning barcha sohalarida xotin-qizlar o‘zlarini ko‘rsata boshlashdi. O‘zbekistonning mehnatkash ayollari hamma sohani egallashlari yil sayin oshib bordi. Respublikada mehnatkash ayollar soni 1, 6 mln. kishini tashkil etib, ishchilarning 50 foizni tashkil etgan [6, 8-b]. Sanoat oyoqqa turib kelayotgan dastlabki davrlarda zavod va fabrikalarning ishchi kadrlari saflari, asosan, shahardagi ishsizlar va qishloq joylardan ko‘chib kelayotgan kishilar hisobiga ortib bordi [7, 110-b].

O‘zbek ayollarining siyosiy va savodxonlik darajasining kamol toptirishning muhim sharti madaniy-siyosiy oqartuv ishlarini yo‘lga qo‘yishdan iborat edi. Bu kommunizm g‘oyalarini keng targ‘ib va tashviq qilish hamda xotin-qizlar ommasini sotsialistik qurilishga jalb qilish demakdir. O‘zbekiston SSR Markaziy Ijro Komitetining raisi Y. Oxunboboyev esa 1928-yili Moskvada bo‘lib o‘tgan Sharq va mayda millat o‘rtasida ishlovchilarning Butunittifoq IV kengashida so‘zlagan nutqida hozirgi xotin-qizlar ichida olib borilayotgan ish faqat paranjini yo‘qotish bilangina cheklanib qolishi kerak emasligi, asosiy maqsad xotin-qizlarning siyosiy, iqtisodiy, madaniy qurilishda faol qatnashishga erishish zarurligini qayd etgan [8, 42-b].

Ayollarni ijtimoiy hayotga, ishlab chiqarishga jalb etish borasidagi siyosiy-oqartuv ishlarining favqulodda muhim formasi xotin-qizlar klublari faoliyati bo‘lib, Klara Tsetkin bu klublarni “Revolutsion kuchlar to‘planadigan punkt deb atagan edi. Xotin-qizlar erkaklarga ko‘rinib qolishdan cho‘chimay, yuzlari ochiq holda klublarga bimalol kelar, majlislarda, to‘garaklar ishida qatnashardilar. Musulmon ayollarining klublar va kurslarda, partiya tashkilotlari hamda ishlab chiqarish artellarida keng ishtiroki xotin-qizlar ommasining ozodlikka, madaniy turmush kechirishga intilayotganini bildirib turardi [9, 36-b].

Olib borilayotgan ishlar, siyosatlar ko‘pincha ijobiy va salbiy tomonlarga ega bo‘ladi. Sovet hokimiyati tomonidan o‘tkazilgan sanoatlashtirish siyosati ham bundan mustasno emas edi. Davlat tomonidan o‘tkazilgan iqtisodiy siyosat an’anaviy jamiyatga juda katta ta’sir ko‘rsatdi. 1920-1930-yillar O‘rta Osiyoni rivojlantirish siyosatida muvaffaqiyatlar ham, muvaffaqiyatsizliklar ham yuz berdi. Mamlakatni rivojlantirish va sanoatlashtirish uchun katta ishchilar sinf yo‘q edi [10, 3-b]. A. M. Kalinovskiy va Marianna Kamp o‘z izlanishlarida, “1920-yillarda Markaziy Osiyo respublikalariga paxta va boshqa qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish, gaz qazib olish va keyinchalik qayta ishlash vazifasi yuklangan edi. Sanoatlashtirish o‘zining kutilmagan va istalmagan oqibatlarini keltirib chiqardi, atrof-muhitga zarar yetkazdi”, deb baho bergan [11, 75-b].

Xulosa qilib aytganda, 1920–1930-yillarda O‘zbekistonda olib borilgan sanoatlashtirish siyosati xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeining tubdan o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Ayollarning ishlab chiqarish sohasiga keng jalb etilishi ularning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlab, ijtimoiy-siyosiy faolligining oshishiga xizmat qildi. Natijada, an’anaviy jamiyat doirasida cheklangan ijtimoiy rolga ega bo‘lgan ayollar sanoat korxonalarini, jamoat tashkilotlari va davlat muassasalarida faol ishtirok eta boshladilar.

Shu bilan birga, ushbu jarayon murakkab va ziddiyatli kechib, an’anaviy qadriyatlar bilan to‘qnashuvlar, ijtimoiy moslashuv muammolari hamda iqtisodiy va ekologik oqibatlarni yuzaga keltirdi. Biroq umumiy tarixiy kontekstda sanoatlashtirish O‘zbek ayollarining jamiyatdagi mavqeini yuksaltirish, ularni ijtimoiy hayotga keng jalb etish hamda yangi ijtimoiy-siyosiy ong shakllanishida muhim bosqich bo‘lib xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O‘zbekiston sovet mustamkachiligi davrida. - B. 339.
2. История Узбекской ССР. С древнейших времен до наших дней. Т. 1974. С. 584.
3. Aminova R. X. O‘zbekiston xotin-qizlari-kommunizm quruvchilarning ilg‘or ortryadi T. , 1974. B. 16.

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

4. Oqilov K. , Abbosova L. O‘zbekiston xotin-qizlari madaniy qurilishda. T. : “Fan”. 1976. B. 3-60.
5. Haydarova F. V. I. Lenin va Sovet sharqining xotin-qizlari. T. : “O‘zbekiston KP Markaziy Komitetining Birlashgan nashriyoti”. 1969. 40-41.
6. Лобачев А. И. Женщины Узбекистана в борьбе за научно-технический прогресс. Т. 1983. С. 1-9.
7. Samarqand tarixi, 1970. B. 110
8. Alimova M. “Hujum”ning so‘nmas yog‘dusi. T. , 1987. B. 42.
9. O‘zbekiston xotin-qizlarining I syezdi. Statistika ocherklari. Toshkent, 1950, 36-bet.
10. Sevketa A. Aims, Goals and Implementation of Soviet Education in Central Asia. The Eurasia Studies Study, Vol. No. 1, 2012.
11. Kalinovskiy M. , Marianne K. From Industrialization to Extraction: Visions and Practices of Development in Central Asia. Universitet of South Dakota. 2018. 69-79.

IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI 20 YILLIKDA MEHNAT BANDLIGI MASALALARI VA O‘ZGARISHLARI

Samarova Aziza Muhiddin qizi

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti 2-kurs

Tayanch doktoranti

E-mail: azizasamarova@gmail.com

(99) 304-11-84

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18675930>

Annotatsiya: *Ikkinchi jahon urushidan so‘ng respublikada aholi o‘rtasida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi: bolalar va mehnatga layoqatli qatlam soni kamaydi, yoshi katta kishilar ko‘paydi. Bunga urush yillaridagi qiyinchiliklar natijasida tug‘ilishning kamayishi va o‘limning ko‘p bo‘lganligi asosiy sabab, deb ko‘rsatiladi. Urushdan oldingi yillar erkaklar va ayollar o‘rtasidagi farq shunda ediki, erkaklar soni ko‘p edi. Mazkur maqola Samarqand viloyatidagi ishchi va xizmatchilar mehnat bandligi masalalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *urush, mehnat, ishchi, resurs, aholi.*

Аннотация: *После Второй мировой войны в населении республики произошли значительные изменения: сократилось количество детей и трудоспособного населения, увеличилось число пожилых людей. Основной причиной этого стало снижение рождаемости и высокая смертность в результате тягот военных лет. В довоенные годы разница между мужчинами и женщинами была такова что мужчин было больше. В данной статье рассматриваются вопросы занятости рабочих и служащих в Самаркандской области.*

Ключевые слова: *война, труд, рабочий, ресурс, население.*

Abstract: *After World War II, significant changes occurred in the population of the republic: the number of children and the working-age population decreased, and the number of elderly people increased. The main reason for this is decrease in birth rates and high mortality rates as a result of the hardships of the war years. In the pre-war years, the difference between men and women was such that there were more men. This article discussed the issues of employment of workers and employees in the Samarkand region.*

Key words: *war, labor, worker, resource, population.*

Aholi soni va uning o‘shir sur‘atlari mamlakat mehnat resurslari hajmi va tuzilishini, xalq xo‘jaligining turli tarmoqlari uchun ishchi kuchini shakllantirish imkonini belgilab beradi. Bunda aholining tabiiy o‘shiri uning son jihatdan va jamiyat mehnat resurslari o‘shirining asosiy omili hisoblanadi. Aholini va uning tarkibiy qismi bo‘lgan ishchi kuchini takror ishlab chiqarish birinchi navbatda tug‘ilish darajasiga bog‘liqdir. Agar aholini takror ishlab chiqarish hozirgi tug‘ilib ko‘payishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lsa, ishchi kuchini takror ishlab chiqarish ilgarigi tug‘ilib ko‘payish darajasi bilan belgilanadi va har bir davr uchun mustaqil baholanadi. Aholini va ishchi kuchini takror ishlab chiqarishda O‘zbekiston SSR umumiy qonuniyatlari bilan bir qatorda o‘z

xususiyatlariga egadir. Bular eng avvalo aholini takror ishlab chiqarishning o‘ziga xos miqdor ko‘rsatkichlarida ifodalandi. [1. B. 41]. Kommunistik qurilish davrida ma’naviy hayotning barcha sohalarini hamda madaniy muassasalarning roli va ahamiyati tag‘in ortadi, chunki kommunistik qurilishning barcha asosiy vazifalari: kommunizmning moddiy-texnika bazasini yaratish, ijtimoiy munosabatlarni kommunistik munosabatlar darajasiga ko‘tarish, yangi jamiyat kishisini tarbiyalash kabilarni muvaffaqiyatli hal qilish ko‘p jihatdan madaniyatning umumiy darajasiga bog‘liqdir. Binobarin, kommunizm yo‘lida iqtisod hamda madaniyatni yanada ko‘tarish va rivojlantirish, xalq ma’naviy hayotining barcha sohalarini tez yuksaltirish va shu kommunistik madaniyat jarayonida mazmunan yagona madaniyatni shakllantirishni nazarda tutadi. [2. B. 50-55]. Samarqand viloyatining sanoat, ishlab chiqarish va shuningdek, qishloq xo‘jaligida eng rivojlangan markazlari Samarqand va Kattaqo‘rg‘on shaharlaridir. Mashinasozlik, metallni qayta ishlash, kimyo, yengil va oziq-ovqat sanoati va qurilish-arxitektura sohasi juda rivojlangan. “Krasniy dvigatel” zavodi mashinasozlik, traktor va avtomobilsozlik sohasida, “Kinap” zavodi esa uning eng kinoteatr, klub, teatrlar uchun jihozlar ishlab chiqarishda eng ilg‘or korxonalar sanalardi. Viloyatda kimyo sohasida eng zarur mahsulotlar ishlab chiqaruvchi “Superfosfat” zavodi aholi uchun sanoat va qishloq xo‘jaligida katta yutuqlarga erishgan. Yengil sanoatda Samarqand, Kattaqo‘rg‘on, Urgut, Oqtosh, Nurota to‘qimachilik, trikotaj, paxta tozalash, tikuvchilik, teri-qoplama sohalarining 47 ta korxonadan iborat bo‘lgan. [3. B. 478-479]

Samarqand viloyati aholisi ikkinchi jahon urushidan oldin 5% ishchi va xizmatchilar, dehqonlar-74, 6%, shaharliklar 6%, qishloq katta yer egalari 13%, boshqa ijtimoiy guruhlarga kiruvchilar 1, 4% ni tashkil etgan. Pul islohoti o‘tkazilganligi, kartochka sistemasi bekor qilinganligi, narxlarning pasaytirilganligi mehnatkashlar farovonligini keskin ravishda yaxshiladi, ularning xarid quvvatini oshirdi. Mana shularning hammasi savdo-sotiqni yanada yaxshilash maqsadida mahsulot ayirboshlash sistematik ravishda ko‘paytirib borish, magazin, umumiy ovqatlanish korxonalarining shaxobchalarini kengaytirish, xilma-xil va sifatli mollarni aholiga uzluksiz sotib turishni ta‘minlash, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining ishini kontrol qilishni kuchaytirish choralari ko‘rildi. [4. B. 389]

Pul islohoti va oziq-ovqat mollariga bo‘lgan kartochkalarni bekor qilish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingandan keyin o‘tgan bir yil ichida Samarqandda 235 ta yangi savdo korxonalarini ochildi. [3. 478-479]. Demografik inqiroz -bu faqatgina iqtisodiy yoki tibbiy muammo emas. Bu hodisa sobiq sovet jamiyatining axloqiy, ijtimoiy va siyosiy inqirozi natijasidir. Jamiyat o‘z qadriyatlarini yo‘qotgan, davlat tizimi esa yangi sharoitlarga moslashishga ulgurmagan edi. [5. B. 11]

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng, ishchi va xizmatchilar oyligi ko‘tarila boshladi, paxta tozalovchilarning oyligi 30, 1 foizga, to‘qimachilarning 34, 2 foizga oshdi. 1950-yillardan boshlab, kasaba uyushmalari tomonidan, ishchi kuchining katta qismi ayollar, xotin-qizlardan iborat uchastkalarining ish jarayonini yaxshilash, unumdorligini oshirish uchun texnika xavfsizligi shakllantirildi. [4. B. 389]

Mazkur yillarda Samarqanddagi temir yo‘l hunar bilim yurtlari va 5 fabrika-zavod ta‘limi maktablarida turli ixtisoslar bo‘yicha 2, 5mingdan ortiq ishchi tayyorlangan. Partiya, Komsomol, kasaba soyuz tashkilotlari to‘rtinchi besh yillikda ishchi va injener -texnik xodimlarning malakasini oshirish borasida katta ish qildi. Samarqandning ko‘pgina korxonalarida ilg‘or mehnat metodlarini o‘rganish maktablari, ikkinchi kasb o‘rgatadigan maktablar, a‘lo sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish,

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

uskunalardan foydalanishning rentabelligini oshirish yo‘llarini o‘rgatuvchi maktablar tashkil etildi. 1950-yilda shahar sanoat korxonalarida ishlab turgan ishchi va xizmatchilarning soni 1940-yilda Samarqand oblastida ishlagan ishchi va xizmatchilar sonidan ancha ko‘p edi. [6. B. 260]

“Ayollar mehnati” arteli ishchilarining 360 dan ko‘prog‘i mahalliy millat ishchilari edi. Yangi sanoat korxonasi va sexlarning ishga tushirilishi, mavjud fabrika va zavodlarning kengaytirilishi bilan sanoat ishchilarning soni ko‘paydi. Samarqand sanoat korxonalarida partiya, komsomol tashkilotlari yildan-yilga mustahkamlanib, kommunist va komsomol safi o‘shib bordi. 1950-yilda 5485 kommunist va 10800 komsomol bo‘lgan bo‘lsa, 1955-yilda kommunistlar 6254 kishiga (shulardan ishchilar 1729 kishiga), komsomollar esa 19000 kishiga (shulardan ishchilar qariyb 8000 kishiga) yetdi. [7. B. 3]

1965-yilda ishchi va xizmatchilarning oila daromatining 73, 1 foizi maoshdan, 22, 8 foizi nafaqa, stipendiyadan, 2, 4 foizi yordamchi xo‘jaliklar hisobidan olindi. 1964-yil 15-iyulda KPSS MK va Ministrlar Sovetining ishchi va xizmatchilarning oylik maoshlarini oshirish to‘g‘risida qarori e‘lon qilindi. Qarorda eng kam ish haqi 40-45 rubl miqdorida belgilanib, maorif xodimlari maoshi 25 foizga, sog‘liqni saqlash xodimlariniki 18 foizga, uy-joy, kommunal xo‘jaligi xodimlariniki 15 foizga oshirilishi haqida keltirilgan. [8. B. 145]

Ayollar va butun respublika aholisining ta‘lim darajasidagi bunday jiddiy o‘zgarishlar tug‘ilish darajasi va umuman aholining tabiiy ko‘payishiga ta‘sir ko‘rsatdi. Ayollarning bilim olishi oilaning unumdorligiga alohida ta‘sir ko‘rsatadi. Shaharda ham, qishloqda ham tug‘ilishning eng yuqori ko‘rsatkichlari o‘rta va to‘liq bo‘lmagan o‘rta ma‘lumotga ega bo‘lgan ayollardir. Boshlang‘ich ma‘lumotga ega bo‘lmagan ayollar tug‘ilish darajasi to‘liq bo‘lmagan ayollarga nisbatan pastroqdir. Bog‘lang‘ich ma‘lumotga ega bo‘lmaganlar orasida keksa avlod ayollari ko‘pchilikni tashkil etdi. O‘rta kasb-hunar va oliy ma‘lumotli ayollar boshlang‘ich yoki undan kam ma‘lumotga ega bo‘lgan ayollarga qaraganda 1, 5-2 baravar kam farzand ko‘rgan. O‘rganish davrida shahar aholisining etnik tarkibi ham tug‘ilishga ta‘sir ko‘rsatdi. Ayollarning ta‘lim darajasi oshgani sayin, katta yoshdagi bolalar tug‘ilishi ham kamaydi. Shaharlarda yetti va undan ortiq bolalar tug‘ilishi ham sezilarli darajada kamaydi. So‘rovda qatnashgan o‘zbekistonlik ayollar orasida oliy ma‘lumotli va yetti -o‘n va undan ortiq bolalilar 2, 1%ni tashkil etgan. Deyarli barcha guruhlar bo‘yicha shaharda ko‘p bolali oilalar (yetti yoki undan ko‘p bolali) sonining sezilarli darajada qisqarishi kuzatildi. Demak, aholining ayniqsa, ayollarning bilim darajasining oshishi O‘zbekistonda ma‘lum darajada tug‘ilishning pasayishiga olib keldi. [9. B. 1-8]. Samarqand viloyati to‘qimachilik boshlig‘i G. Prixojan tomonidan 16-mart 1967-yil 12 shtat oylik ish haqi miqdori 978 rubl 75 tiyin deb tasdiqlangan: [10. B. 312]

1-jadval

№	Lavozimlar	Shtat birligi	Oylik ish haqi miqdori	Oylik fond/ to‘lanish tartibi
1.	Direktor	1	126	126
2.	Katta agronom	1	100	100
3.	Ipak va tutchilik qismi bo‘yicha bosh agronom	1	83-25	83-25
4.	Pillani birinchi qayta ishlovchi katta agronom	4	90	90

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

5.	Laboratoriya boshlig‘i	1	96-75	96-75
6.	Katta hisobchi	1	90	90
7.	Amaliyotchi	2	40	40
8.	Haydovchi	1	63	63
Jami:		12		978-75

O‘zbekiston sobiq SSSRni sanoatlashtirishga va uning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga muhim hissa qo‘shish bilan birga aslida xom ashyo respublikasi bo‘lib qolayotgan edi. Ittifoqning umumiy xalq xo‘jalik majmuida o‘lkamizning ixtisoslashuvi o‘zgarmadi. U “inqilibdan oldingi” davrda qanday bo‘lsa, ya‘ni “qizil imperiya” markaziy mintaqalarining sanoat jihatidan rivojlanish imkoniyatlarini qondirishga qaratilgan bo‘lsa, xuddi shunday ahvolda qolgan bo‘lib, respublikaning iqtisodiy manfaatlari bilan mutlaqo hisoblashilmadi. Ortib borayotgan sanoat ishlab chiqarishini kadrlar bilan ta‘minlash jarayoni ziddiyatli tarzda davom etdi. Bir tomondan, sanoatlashtirishning shiddatli sar‘atlari ishchilar va muhandis-texnik xodimlarning son jihatidan jadal o‘shishiga imkon berdi. Keyingi yillarda ko‘chirib keltirilganlar soni ortib bordi. O‘zbekiston o‘zining yirik resurslarga ega edi. Lekin yuz minglab yangi kelganlar orasida tajribali xodimlar bilan bir qatorda, malakasiz xodimlar va boqimandalar tobora ko‘payib borgan. Aslida ular ortiqcha ish kuchi edi. U busiz ham respublikada keragidan ortiqcha mavjud bo‘lgan mehnat resurlaridan foydalanishga yuzaga kelgan qiyinchiliklar yanada chuqurlashgan. Bugungi kunda ma‘lum bo‘lishicha, markaziy mintaqalardan aholining ommaviy ravishda ko‘chirib keltirilishi faqat xalq xo‘jaligi maqsadlarini emas, ko‘proq siyosiy maqsadlarni nazarda tutgan edi. [11. B. 3-90]

Xulosa. Malakali kadrlar tayyorlashda katta yutuqlar qo‘lga kiritilganligiga qaramay jamoat tashkilotlari, sanoat korxonalarini ma‘muriyatining bu sohadagi ishida qiyinchiliklar va kamchiliklar ham uchrab turadi. Malakali ishchilar, texniklar, injenerlar yetishmas, mahalliy millatlardan turli ixtisoslar bo‘yicha ishchilar tayyorlash yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan edi. Xotin-qizlarni rahbarlik lavozimlariga ko‘tarish yaxshi tashkil etilmagandi. Samarqand ishchilar sinfining mehnat g‘ayratini va siyosiy aktivligini oshirishda ixtirochi va ratsionalizatorlar jamiyati bilan bir qatorda ilmiy-texnika jamiyatining mahalliy bo‘limlari ham katta ishlar qildirlar. Bular yangi texnikani, ilg‘orlar tajribasini hamda fan va texnika muvafaqqiyatlarini ishlab chiqarishga joriy qilish bilan shug‘ullandilar. Sotsializm qurilishini tugallash yillarida Samarqandda injener-texnika bilimlarining asoslarini egallagan ishchi-ratsionalizatorlarning, ishchi-ixtirochining, keng ishlab chiqarish profilini o‘zgartirib olgan mutaxassisning yangi tipi vujudga keldi. Malakali kadrlar tayyorlashda katta yutuqlar qo‘lga kiritilganligiga qaramay jamoat tashkilotlari, sanoat korxonalarini, ma‘muriyatning bu sohadagi ishida qiyinchiliklar va kamchiliklar ham uchrab turgan. 50-yillarda malakali ishchilar, texniklar, injenerlar yetishmas, mahalliy millatlardan turli ixtisoslar bo‘yicha ishchilar tayyorlash yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan edi. Xotin-qizlarni rahbarlik lavozimlariga ko‘tarish yaxshi tashkil etilmagandi. Partiya va jamoat tashkilotlarining muayyan maqsadni ko‘zlab, ishlashlari, shahardagi ishchi, injener-texnik xodimlarning fidokorona mehnatlari natijasida Samarqand sanoat korxonalarini to‘rtinchi besh yillik planini muddatidan oldin bajardi, mahsulotning miqdori ko‘paydi va sifatli yaxshilandi. Sovet xalqi urushdan keyingi birinchi besh yillik planini muvaffaqiyatli bajarib, Kommunistik partiya

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

rahbarligida sotsialistik qurilishning yangi vazifalarini amalga oshirishga kirishdi. Partiya XIX syezding besh yillik plan direktivalarida ko‘rsatib o‘tilganidek, “To‘rtinchi besh yillik planning muvaffaqiyatli bajarilganligi xalq xo‘jaligining hamma tarmoqlarini yanada yuksaltirish, xalqning moddiy farovonligini oshirish, sog‘liqni saqlash va madaniy saviyasini yanada o‘stirishni ta‘minlaydigan yangi besh yillik plani qabul qilishga” imkon berdi. Fabrika va zavod ishchilari ishlab chiqaishni rivojlantirish suratlarini kundan-kunga oshirib, yangidan-yangi ichki rezervlarni ishga soldilar, o‘z korxonalarining obro‘yini oshirishga harakat qildilar hamda ko‘plab yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqardilar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Murakayev M. Ishchi kuchidan foydalanish rezervlari. T. , “O‘zbekiston”. 1982. B. 41.
2. Oqilov Q. , Abbosova L. O‘zbekiston xotin-qizlari madaniy qurilishda. 1976. B. 50-55.
3. O‘zbekiston sovet sotsialistik respublikasi. T. , 1981. B. 478-479.
4. История Узбекской ССР. С древнейших времен до наших дней. Т. 1974. С. 389.
5. Ch. Berker, D. Bloom. The Demographic Crisis in the Former Soviet Union: Introduction. W&L/De&opmerzt Vol. 26, No. 11, pp. 1913-1919, 1998. Printed in Great Britain.
6. Samarqand tarixi. 1970. B. 260.
7. Sam VDA. 494-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 658-hujjat. 3-varaq.
8. To‘xtayeva R. N. “Sovet hokimiyatining pul islohotlari va O‘zbekiston aholisining ijtimoiy hayoti (1917-1970-yillar)” nomli diss. Samarqand. 2021. B. 145.
9. Саидова З. А. Рождаемость в Узбекистане (1890-1990 гг). Демографическая устойчивость исторический опыт. 15. 01. 2024. С. 1-8.
10. Sam VDA. 926-jamg‘arma 2-ro‘yxat 58-hujjat. 312-varaq.
11. Tarix shohidligi va saboqlari. Chorizm va sovet mustamlakachiligi davrida O‘zbekiston milliy boyliklarining o‘zlashtirilishi. T. : “Sharq”. 2001. B. 3-90.
12. UTILIZATION OF LOCAL RESOURCES IN UZBEK NATIONAL PRESS DURING THE SECOND WORLD WAR. (2023). Scientific Journal of the Fergana State University, 28(3), 16. <https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/1757>

O‘RTA OSIYO JADIDCHILIGIDA BEHBUDIYNING O‘RNI

Sodiqova Nargiza Nasriyevna

ZARMED Universiteti tarix o‘qituvchisi,

Malikova Ro‘zigul

ZARMED universiteti talabasi

Telefon raqami: +998 94 971 07 11

Elektron manzil: rozigulmalikova3@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18676090>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘rta Osiyo jadidlarining otasi Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va ilmiy, siyosiy faoliyatiga bag‘ishlangan. Shuningdek, “Oyina” jurnalida chop etilgan sayohatlari, Ismoil Gasprinskiy bilan bo‘lgan uchrashuvlari, maslakdoshlari bilan suhbatlarining tahliliga bag‘ishlangan.

Abstract: This article is devoted to the life and scientific and political activities of Mahmudkhodja Behbudi, the father of the Central Asian Jadids. It also analyzes his travels published in the magazine "Oyina", his meetings with Ismail Gasprinsky, and his conversations with colleagues.

Аннотация: Данная статья посвящена жизни и научно-политической деятельности Махмудходжи Бехбуди, отца центральноазиатских джадидов. В ней также анализируются его путешествия, опубликованные в журнале «Ойна», его встречи с Исмаилом Гаспринским и беседы с коллегами.

Kalit so‘zlar: “Oyina” jurnali, qori, madrasa, volost, jug‘rofiya, deputat, mudarris, imom.

Keywords: "Oyina" magazine, qori, madrasa, volost, geography, deputy, mudarris, imam.

Ключевые слова: журнал «Ойна», кори, медресе, волость, география, депутат, мударрис, имам.

Mahmudxo‘ja Behbudi Turkiston jadidchilik harakatining dohiysi hisoblanadi. Uning hayoti va ijodiy faoliyati haqida 20-yillarda mahalliy matbuotda Sadridin Ayniy, Hoji Muin ibn Shukrullo, Laziz Azizzoda kabi zamondoshlari tomonidan bir qator maqola, xotiralar e‘lon qilingan. Keyingi yillarda, xususan, mustaqillikka erishilgandan so‘ng jadidlar faoliyatini o‘rganishga qiziqish kuchayishi bilan Behbudi ham qayta kashf etila boshlandi. Behbudi tarjimai holini yoritishda Hoji Muinning 1922-1923-yillarda o‘zi muharrirlik qilgan "Mehnatkashlar tovushi" (1922), "Zarafshon" (1923) gazetalarida chop etgan maqolalari muhim ahamiyatga ega. Behbudi haqida XX asrning 70-yillaridan bugungi kungacha e‘lon qilingan ko‘pgina tadqiqotda Hoji Muin ma‘lumotlari asos qilib olinadi. Hoji Muin Behbudiyning biografiasini yozar ekan, uni 1875-yilning 19-yanvarida (hijriy 1291-yil 10-zulhijja) Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida diniy olim oilasida dunyoga kelganligini ta’kidlaydi. Ammo oxirgi olib borilgan tadqiqotlarga tayanadigan bo‘lsak, Behbudi tug‘ilgan sana va joyi biroz boshqacharoq ko‘rsatilmoqda. Taniqli olim Sirojiddin Ahmedovning ta’kidlashicha, Mahmudxo‘ja Behbudi 1874-yil 30-yanvar payshanba kuni Samarqandshahrining Yomini mahallasida tavallud topgan. Olim bu sanani isbot qilish uchun yetarlicha dalil va isbotlarni keltiradi. Hoji Muinning ma‘lumot berishicha, Mahmudxo‘ja Behbudiyning otasi Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan,

ona tomondan bobosi Niyozxo‘ja urganchlik bo‘lib, Mahmudxo‘ja Behbudiy amir Shohmurod hukmronlik qilgan davrda Samarqandga ko‘chib kelgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy 6-7 yoshlarida tog‘asi Muhammad Siddiq huzurida o‘qib savod chiqaradi, otasi Behbudxo‘jadan esa Qur‘ondan saboq olib, qisqa muddatda qorilik martabasiga erishadi. 15 yoshga kirganda yana bir tog‘asi Mulla Odil mudarrislik qilgan madrasada tahsilini davom ettiradi va arab tili grammatikasi, aqida va shariat qonunlari bo‘yicha bilimlarini kengaytiradi. 1893-yili onasi, 1894-yili esa otasi vafot etadi. Otasi vafotidan biroz avval uylangan Behbudiy to‘rt o‘g‘il, bir qiz ko‘rgan. Behbudiyning maktab-madrasa hayoti haqida ma‘lumotlar nihoyatda kam. Sirojiddin Ahmedov bergan ma‘lumotga ko‘ra, Behbudiy dastlab Samarqand madrasasida, keyinroq Buxoro madrasalaridan birida tahsil olgan.

Behbudiy Buxoro madrasalarida tahsil olar ekan, u yerdagi mullalar bilan jadidlar kelisha olmagan bo‘lsam Samarqandga qaytib kelgan. Bu fakt haqiqatga yaqin, sababi, Mahmudxo‘ja Behbudiy 1915-yili "Turkestankiye vedomosti" gazetasining muxbiri Grigoriy Andreyev bilan suhbatda Samarqand va Buxoro madrasalarida tahsil olgani haqida so‘zlaydi va bu madrasalardagi mulla, qozi va imomlarning johilligidan shikoyat qiladi. 18 yoshiga yetganida Behbudiy madrasa ta‘limini tugatadi va Samarqand viloyati Chashmaob (Chashmai ob) volostida qozilik qilgan tog‘asi Muhammad Siddiq qo‘l ostida mirzalik lavozimida ishlay boshlaydi. Tog‘asi huzurida ikki yillik faoliyat, tog‘asi qozilikdan bo‘shagandan keyin Kobud volosti qozisi Mulla Zubayr Yaxshiboy o‘g‘li qo‘lida mirzalik ishini davom ettirishi uning dunyoqarashi va kelajak faoliyatida katta o‘zgarish yasaydi. U shariat qonunlarini puxta o‘zlashtiradi va mufti lavozimini egallaydi. 1916-yilgacha muftilik faoliyati bilan muntazam shug‘ullanadi. Bu orada qisqa vaqt qozi vazifasini ham bajargan, ammo ma‘rifatparvarlik ishlariga berilish, xususan, matbaachilik bilan shug‘ullanish katta mehnat va mablag‘ talab qilgani bo‘lsam Behbudiy qozilikdan voz kechib, muftilikning yonida tijorat bilan shug‘ullanishga majbur bo‘lgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1893-yildan Rossiya va xorijiy mamlakatlarda nashr etiluvchi turkiy va forsiy matbuot bilan tanishib borgan. Zamon ahvoli, bo‘lib turgan ijtimoiy va siyosiy voqealar, turli yangiliklarni kuzatadi. 1899-1900-yillarda Behbudiy buxorolik do‘sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqadi. "1318 sanayi hijriyasi tavofi Baytullog‘a Kavkaz yo‘li ila Istanbul va Misral-Qohira vositasila borib edim. Muddati safarim sakkiz oydan ziyoda cho‘zilub edi", yozadi Behbudiy bu safar haqida. Bu sayohat dunyo ko‘rish, kezish izsiz ketmadi. Sayohat Behbudiyning dunyoqarashini, keyingi faoliyatini tubdan o‘zgartirib yubordi. Bu sayohat uning hayot yo‘lida, kelajakda bo‘ladigan hodisalar, yangiliklarni boshlab berdi. Behbudiy Turkiston xalqlari turmushidagi qoloqlik, abgor ijtimoiy ahvol, "jaholat uyi"ga aylangan maktab va madrasa borasidagi qarashlarini tamomila o‘zgartirib yubordi. Adib Xolidning ta‘kidlashicha, Behbudiy ayni shu sayohat davomida Usmoniylar davlati hamda Misrda xalq ta‘limi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va yangiliklarni kuzatish barobarida ijtimoiy sohadagi islohotlarda yetakchilik qilgan shaxslar bilan ham muloqot qilish imkoniga ega bo‘lgan. Oradan 8 oy vaqt o‘tib, u Samarqandga qaytishi bilan "Tarjumon" gazetasiga obuna bo‘ldi. U ham jadidchilik harakatining tamaltoshi bo‘lgan maktab islohotiga qattiq kirishdi. Uning tashabbusi va g‘ayrati bilan 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi (S. Siddiqiy), Rajabamin (A. Shakuriy) qishloqlarida Mahmudxo‘ja Behbudiy yangi maktablar tashkil qilindi. Adib ushbu maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Ketma-ket uning «Risolayi asbobi savod» (1904), «Risolayi jug‘rofiyayi umroniy» (1905), «Risolayi jug‘rofiyayi Rusiy» (1905), «Kitobatul atfol» (1908), kitoblarini yarata boshladi. Mahmudxo‘ja

Behbudiy 1903-1904-yillarda Moskva, Peterburgga boradi, 1906-yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodda bo‘ladi. Bular sayohat emas, xizmat safari edi. Masalan, Nijniy Novgorodda 1906-yilning 23-avgustida Rossiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag‘ishlangan qurultoy chaqiriladi. Behbudiy ushbu syezdda turkistonlik vakillarning boshlig‘i sifatida qatnashdi va Turkistondagi vaziyat va musulmonlar ahvoli borasida katta nutq so‘zlaydi. 25 kunga cho‘zilgan bu safar haqida Behbudiy so‘ngroq shunday ma'lumot bergan edi: "1325 sanayi hijriyasinda Rusiya musulmonlarining muhtaram ziyoli va akobirlarining Nijniy yorminkasinda milliy ishlar to‘g‘risinda mashvarat qila turgan majlisg‘a musharraf bo‘lmoq uchun O‘runburg yo‘li ila Maskuf, Peterburg, Qozon vositasila Nijniy Novgo‘rud borib edim".

Behbudiy 1913-yili "Samarqand" gazetasini nashr qilish uchun hukumatdan ruxsat oldi. Gazeta o‘zbek va tojik tillarida, haftada 2 marta chop etildi. 45-soni chiqqach, moddiy tanqislik tufayli nashr to‘xtadi. 1913-yil 20-avgustdan u "Oyina" jurnalini chiqara boshladi. Haftalik, suratli bu jurnal, asosan, o‘zbekcha bo‘lib, she‘r, turli yo‘nalish va mavzudagi maqola, tahliliy materiallardan tashqari e‘lonlar ham berib borgan. Jurnal Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg‘oniston, Hindiston, Turkiyagacha tarqaldi. "Oyina" jurnalida millat va uning haq-huquqiga, tarixiga, til va adabiyot masalalariga, Mahmudxo‘ja Behbudiy dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan Behbudiy ijtimoiy-siyosiy ishlarga qizg‘in qo‘shildi. Aslida bu faoliyat 1906-yildan boshlangan. Shu yili "Rusiya musulmonlari ittifoqi"ning Nijniy Novgorodda o‘tkazilgan qurultoyida qatnashgan edi. Vatan taqdiri kun tartibiga qo‘yilgan 1917-yilning 16-23-aprelida Toshkentda bo‘lib o‘tgan Turkiston musulmonlarining 150 vakili ishtirok etgan o‘lka qurultoyida hayajonli nutq so‘zladi. Millatni o‘zaro ixtiloflardan voz kechishga, buyuk maqsad yo‘lida birlashishga, ittifoq bo‘lishga chaqirdi. Xuddi shu ixtilofimiz sababli "mustamlakot qoidasi ila bizni idora eturlar" deb ochiq aytdi. Behbudiy bir qator darsliklar yozdi. «Behbudiy» maqolasi muallifi marhum S. Qosimov adibning 6 ta darsligini qayd etadi: «Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy» («Qisqacha umumiy geografiya»), «Kitobat ul-atfol» («Bolalar maktublari»), «Muxtasari tarixi islom» («Islomning qisqacha tarixi»), «Madxali jug‘rofiyai umroniy» («Aholi geografiasiga kirish»), «Muxtasar jug‘rofiyai Rusiy» («Rusiyaning qisqacha geografiasiga»). Shulardan bittasiga — «Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy»ga to‘xtaymiz. Asarning to‘la nomi «Kitobi muntaxabi jug‘rofiyai umumiy va namunai jug‘rofiya». 1905-yil 24-avgustda Sankt-Peterburg senzurasidan ruxsat olinib, 1906-yil Samarqandda G. I. Demurov matbaasida chop etilgan. 106 sahifadan tashkil topgan. Muallif bu «qadim fan»ga taalluqli «turkiy, arabiy, foisiy, rusiy lug‘atlarga tasnif bo‘lgan o‘ttuz qadar qadim va jadid kutub va risoili jug‘rofiya, hay‘ati riyoziy, tarixiy, tabiiy»lardan va yana juda ko‘p turli-tuman ma‘lumot va manbalardan foydalanib yozganini qayd qiladi «Jug‘rofiya degan so‘z yunoniy, lug‘ati arabiyga ta‘rifi ard ma‘nosig‘a, ya‘ni yer va tufroqni bayon qilaturg‘on ilmni aytilur», — izoh beradi muallif. So‘ng Behbudiy uning turlariga to‘xtaydi. «Chunonchi, — yozadi u, — Yemi shakldan, osmon ila Yer arosidagi xosiyati va osmondagi nimarsalar ila nisbati va harakatidan bayon qilaturg‘on ilmni «jug‘rofiyai riyoziy», Yemi xosiyati, tufroq past-i ba landligi, har xil giyoh-u konlari, tog‘- daryo, ko‘l, mijoz-u havosidin bahs qilaturg‘on ilmni «jug‘rofiyai tabiiy» ataladur». Muallif xulosa qiladi: «Yer ustig‘a bo‘lgan voqealar to‘g‘risinda har bir nav’ ishni ushbu ilmg‘a bayon qilib, jug‘rofiya kalimasini oxiriga o‘shal ishga taalluq ilm va fanni oti qo‘shiladur. Chunonchi, «jug‘rofiyai tarixiy» va boshqalaridek. Xulosa, bu zamong‘a jug‘rofiya ilmi dunyoni va andagi xaloyiq, hayvonot, umronot (obodlik) va hamaki

dunyog‘a bordur, bildiraturg‘on keraklik bir ilmi jahonnamodur». Kitobning dastlabki sahifalarida jug‘rofiyaning fan sifatida maydonga kelish tarixi, qadim Turkiston olimlarining bu sohadagi xizmatlari yoritiladi, asarlari keltiriladi. Muallif Shamsiddinbek Somiyning (1850—1904) 6 jildlik mashhur «Qomus ul-a’lom» va Ismoilbek Gasprinskiyning «Turkiston ulamosi» kitoblaridagi hujjat va dalillarga suyanib fikr yuritgan. 1906-yilda «Turkiston viloyatining gazetisi» sahifalarida Behbudiyning jug‘rofiya kitoblari munosabati bilan qator taqrizlar chiqadi. Uni maqtaydilar, rad etadilar. Gazeta xodimi Mulla Olim muallif kitoblarining tili og‘irligidan shikoyat qiladi. Behbudiy izoh beradi. Ish bular bilan cheklanmaydi, sekin-asta uni musulmonlar manfaatiga xiyonat qüishda, o‘risparastlikda ayblay boshlaydilar. Va bu ancha davom etadi. Gap rasmiy doiralarga borib yetadi. 1914-yil 3-yanvarda Mirzo Ulug‘bek madrasasi jomesida bir necha ming kishi huzurida «usuli jadidachilar», «ruscha o‘qimoqqa tashviq qilaturg‘onlar» «kofir», «har kim bolasini usuli jadida maktabiga bersa, o‘zi kofir, xotini taloq» deb e‘lon qilinadi. Yig‘inda Behbudiyning bir qator maslakdoshlari (Siddiqiy Ajziy, Shakuriy) tilga olingan edilar. Behbudiyning o‘g‘li Mas‘udxo‘ja gimnaziyada o‘qir edi. Behbudiy bir munosabat bilan yozadi: «Samarqandni katta ulamo va qozilaridan muhtaram bir kishi katta majlislarga va hukumatga so‘ylaganlari uchun tubandagi so‘zlami yuz birinchi daf‘a yozarmiz: «Oyna» muharririning maslaki o‘n sanadan ziyoda bir muddatdan beri jarida va risolalarga yozgan maqolalari ilan hukumatga va butun xaloyiqga ma‘lumdir. Qozi hazratlari «Oyna» muharririga ikki nimarsani nisbat berurlarki, kayfiyati yuqoriga yozildi. Ammo ikkisida vahmiy so‘zlardir. Millat ozod bo‘lib, o‘zining mustaqil davlatini o‘rnatmaguncha, ijtimoiy adolatni tiklab bo‘lmaydi. Bu Behbudiy kelgan birinchi xulosalardan edi. Uning «Vaqt» gazetasida chop etilgan maqolalaridan birida shunday mulohazalarni uchramiz: «Bir madrasaga 20 talaba gapi ila bir noahl mudarris saylanur. Bir volostda 40 nafar el boshlaridan 21 nafarii sadosi ila bir johil qozi saylanur va Rusiya ma‘murlarina-da ma‘qul o‘lur. Bir ming faqirning raddu mudoxalasi mo‘tabar o‘lmaz va so‘zlari eshitilmas. Ishta bizim Turkiston shaharlarining bu kungi qozi, mufti va mudarris ham imom va o‘zga ruhoniylarining yuzdan saksoni, sahro va qariyalarda o‘lanlarining o‘ndan to‘qqizi sho‘yla nomunosib kishilardan iboratdir».

Shu gazetaning o‘sha yili 4-noyabrda bosilgan «Duma va Turkiston musulmonlari» maqolasida esa chor mustamlakachilik siyosati, xususan, o‘lkadan yetmish ming rusdan olti deputat bo‘lgani holda yetti million musulmonga besh o‘rin ajratilgani oshkora tanqid qilinadi. Shularga qaramasdan, Behbudiy istiqloq haqida fikr yuritar ekan, har qanday zo‘ravonlikni rad etadi. Uningcha, zo‘ravonlik g‘ayriaxloqiy, binobarin, g‘ayriinsoniydir. Umuman olganda esa, mustaqillik uchun kurash olib borgan bobolarimiz, jumladan, jadidlar kelajak haqida fikr yuritar ekanlar, istiqloqga erishish borasida bir-birlaridan farq qiluvchi uch yo‘ldan bordilar: 1. Rusiyaga tobelikdan zo‘rlik yo‘li bilan qutulish, kuch bilan istiqloq olish (Dukchi eshon qo‘zg‘oloni, 1916-yil voqealari, «bosmachilik»).

2. Murosa yo‘li. Ruslar yordamida ma‘rifatga erishish. Ma‘rifat masalasida haq-huquq olish, milliy xususiyatlarini tiklash (Ismoilbey Gasprali, Mahmudxo‘ja Behbudiy).

3. Hamkorlik yo‘li. Chor ma‘murlari, so‘ng esa Sho‘ro hukumati bilan birga ulaming programmalarida qatnashish va imkon bo‘lishi bilan mustaqillikni qo‘lga olish Buning uchun ma‘lum tayyorgarlik ko‘rib borish (Munavvarqori, Hamza, Avloniy). Behbudiy hamisha xalq bilan birga bo‘ldi. Vatan taqdiri kun tartibiga qo‘yilgan 1917-yilning 16-23-aprelida Toshkentda bo‘lib o‘tgan

Turkiston musulmonlarining 150 vakili ishtirok etgan o‘lka qurultoyida hayajonli nutq so‘zladi. Millatni o‘zaro ixtiloflardan voz kechishga, buyuk maqsad yo‘lida birlashishga, ittifoq bo‘lishga chaqirdi. Xuddi shu ixtilofimiz sababli «mustamlakat qoidasi ila bizni idora eturlar» deb ochiq aytdi.

Behbudiyning hayotiy tajribasi XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda shakllangan jadidchilik harakatining eng mashhur namoyondasi bo‘lganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. U zamonasining yirik arbobi sifatida dunyoni o‘zidan oldingi avlod va zamondoshlaridan farqli ravishda anglay olgan hamda o‘sha davr kishilari tasavvuriga sig‘magan aloqa usullari va tashkiliy shakllardan foydalalana olgan. Shuningdek, Mahmudxo‘ja Behbudiyning O‘rta Osiyodagi barcha jadidlarni birlashtirishga intilgan yirik siymo sifatida ko‘rsatsak, xat6 qilmaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimov B. “Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik”, T: “Ma’naviyat”, 2002
2. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar, T: “Ma’naviyat”, 2009
3. Abdurashidov Z. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Jadidlar. T: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2022
4. Karimov N. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Toshkent, 2010
5. Qosimov B. Maslakdoshlar. T: “Sharq”, 1994

THE ROLE OF DIGITAL MEDIA IN INCREASING THE EFFICIENCY OF ENGLISH LEARNING AMONG FEMALE STUDENTS

Abduganieva Mohlaroyim

Field of Study: Foreign Language and Literature

Email: mohlaroyimabduganiyeva2004@gmail.com

Tel: +998 95 321 19 14

Student, Namangan State Pedagogical Institute

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18676101>

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalarining xotin-qiz talabalar tomonidan ingliz tilini o‘rganish jarayoniga ta’siri tahlil qilinadi. Raqamli platformalar va mobil ilovalardan foydalanish orqali til ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, raqamli ta’lim jarayonida uchraydigan muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli texnologiyalar, ingliz tili, xotin-qizlar, masofaviy ta’lim, mobil ilovalar, til o‘rganish, innovatsion yondashuv.*

Аннотация: *В данной статье анализируется влияние цифровых технологий и информационно-коммуникационных технологий на процесс изучения английского языка студентками. Рассматриваются возможности развития языковых навыков посредством использования цифровых платформ и мобильных приложений. Также приводятся практические рекомендации по преодолению проблем, возникающих в процессе цифрового образования.*

Ключевые слова: *цифровые технологии, английский язык, женщины, дистанционное обучение, мобильные приложения, изучение языка, инновационный подход.*

Abstract: *This article analyzes the impact of digital technologies and information and communication technologies on the process of learning English by female students. It examines the possibilities of developing language skills through the use of digital platforms and mobile applications. It also provides practical recommendations for overcoming problems encountered in the process of digital education.*

Keywords: *digital technologies, English, women, distance learning, mobile applications, language learning, innovative approach.*

Introduction

In today's globalization environment, English is gaining importance as a leading language in international communication, science, education and technology. Excellent command of English is an important factor in a person's professional development, participation in international cooperation and acquisition of modern knowledge. Therefore, improving the effectiveness of English teaching in the education system remains one of the pressing issues.

Women's education and mastery of foreign languages play an important role in increasing their social activity, developing their intellectual potential, and shaping them as competitive personnel.

Creating a comfortable and effective learning environment for female students, especially in the process of learning English, is one of the priorities of modern education.

In recent years, incorporating digital technologies and information and communication tools into education has created new possibilities for learning English. Mobile apps, web platforms, and interactive tools foster students' autonomous learning abilities and boost their enthusiasm for language acquisition. Digital tools enable personalization and adaptable structuring of the learning process. This article aims to examine how digital tools enhance the efficacy of English language learning among female students, identify current issues, and create actionable recommendations for addressing these challenges.

The role of digital tools in learning English

Digital technologies are enhancing the efficiency, convenience, and flexibility of learning English. In modern educational environments, mobile applications, online platforms, and independent learning resources are becoming important tools for developing language skills. These digital tools help to increase student engagement in the learning process and individualize the learning process.

Mobile applications are among the most accessible and favored resources for studying English. Applications such as Duolingo, Quizlet, and Memrise enable users to enhance their vocabulary, work on grammar, and improve listening comprehension abilities. These applications are particularly beneficial for female students because they enable independent learning, no matter when or where. The mobile learning method turns the learning experience enjoyable and engaging.

Digital platforms also have a significant impact on learning English. Platforms like BBC Learning English, Coursera, and Google Classroom offer abundant and excellent materials for learning languages. By utilizing these platforms, students can engage with genuine materials, enhance their listening comprehension, and improve their written communication abilities. Online platforms also help to effectively organize the educational process by enhancing the interaction between the teacher and the student. Another important aspect of digital tools is the expansion of independent learning opportunities. Students can conduct independent studies in accordance with their level of knowledge and learning pace. This increases their responsibility and forms self-development skills. The use of digital resources in the process of independent learning serves to increase the interest of female students in learning English.

Problems faced by female students

Despite the widespread use of digital technologies in the educational process, female students face a number of challenges in learning English. These challenges are mainly related to the level of digital literacy, motivation to learn, and the misuse of technology.

The lack of sufficient digital literacy is one of the main factors that hinders the effective use of digital tools. Some female students use mobile applications and online platforms only superficially, not fully realizing their educational potential. As a result, digital resources do not provide the expected results in language learning.

Motivation is also a major issue. Since learning English requires a long and consistent amount of time, some female students lose interest in learning. When digital tools are not used properly, they can be used for entertainment rather than educational purposes. This reduces the effectiveness of language learning.

The misuse of technology is also a major issue. The uncontrolled and unsystematic use of digital tools leads to distraction and waste of time. In some cases, students are limited to passive activities on digital platforms and do not participate in the active learning process. Research shows that technology in the educational process is effective only when used with the right methodological approach.

Practical recommendations

Several practical measures are recommended to ensure the effective use of digital tools by female students in learning English. First, integration in lessons is important, and by introducing mobile applications and online platforms into the regular teaching process, language skills can be combined with practical exercises (Harmer, 2007). At the same time, organizing trainings helps to increase digital literacy and familiarize students with language learning strategies, which makes the learning process more effective (Stockwell, 2013). In addition, through online speaking clubs, students develop English communication skills and increase interactive practice (Richards & Rodgers, 2014). Finally, the mobile learning approach allows students to learn independently, regardless of time and place, which increases self-development and motivation for language learning (Kukulka-Hulme & Shield, 2008). Thus, these recommendations serve to organize the English language learning process for female students in an interactive, motivational, and individualized manner.

Conclusion

This article examines the role of digital tools in the learning of English by female students. The results of the study showed that the systematic and purposeful use of mobile applications, online platforms and interactive resources significantly enhances the language learning process (Warschauer, 2010; Kukulka-Hulme & Shield, 2008). However, there are problems such as low digital literacy, lack of motivation and misuse of technology, which reduce the effectiveness of language learning.

Integrating digital tools into lessons, conducting special trainings, organizing online speaking clubs, and using mobile learning approaches can help overcome these problems. As a result, it is possible to create an interactive, individualized, and motivating learning environment for female students. Thus, digital technologies serve as an important tool in increasing the effectiveness of the English language learning process.

REFERENCE LIST

1. Harmer, J. (2007). *How to teach English*. London, England: Longman.
2. Richards, J. C. , & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and methods in language teaching* (3rd ed.). Cambridge, England: Cambridge University Press.
3. Warschauer, M. (2010). *Technology and language learning*. Oxford, England: Oxford University Press.
4. Kukulka-Hulme, A. , & Shield, L. (2008). An overview of mobile assisted language learning: From content delivery to supported collaboration and interaction. *ReCALL*, 20(3), 271–289. <https://doi.org/10.1017/S0958344008000335>
5. Stockwell, G. (2013). Technology and motivation in English-language teaching and learning. *International Journal of Computer-Assisted Language Learning and Teaching*, 3(1), 1–15. <https://doi.org/10.4018/ijcallt.2013010101>

MOBIL ILOVALAR YORDAMIDA XITOIY TILINI MUSTAQIL O‘RGANISH STRATEGIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Xo‘janberdiyeva Nargiza Utkir qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 1-kurs talabasi

E-mail: nxujanberdiyeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18676108>

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mobil ilovalar asosida xitoy tilini mustaqil o‘rganish jarayonining pedagogik, metodik, psixologik va lingvodidaktik jihatlari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – raqamli ta‘lim muhitida talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirish, mustaqil ta‘lim olish va reflektiv fikrlash kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlarini aniqlashdan iborat.*

Maqolada mobil ilovalarning didaktik imkoniyatlari, ularning interaktivlik darajasi, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limni ta‘minlashdagi o‘rni hamda individual o‘rganish sur‘atlarini qo‘llab-quvvatlash xususiyatlari ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot jarayonida eksperimental va nazariy metodlardan foydalanilib, mobil ilovalarning xitoy tilini o‘rganish samaradorligiga ta‘siri statistik jihatdan tahlil qilindi.

Olingan natijalar mobil platformalar yordamida tashkil etilgan mustaqil ta‘lim jarayoni talabalar motivatsiyasini oshirish, lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish va kommunikativ malakalarni mustahkamlashga xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Аннотация: *В данной статье системно анализируются педагогические, методические, психологические и лингводидактические аспекты процесса самостоятельного изучения китайского языка на основе мобильных приложений. Основной целью исследования является выявление механизмов формирования у студентов компетенций саморазвития, самостоятельного обучения и рефлексивного мышления в условиях цифровой образовательной среды.*

Annotation: *This article provides a systematic analysis of the pedagogical, methodological, psychological, and linguodidactic aspects of independent Chinese language learning based on mobile applications. The main objective of the study is to identify the mechanisms for developing students’ self-development, autonomous learning, and reflective thinking competencies within a digital educational environment.*

Kalit so‘zlar: *mobil ta‘lim, xitoy tili, mustaqil o‘rganish, raqamli texnologiyalar, o‘quv strategiyalari.*

Ключевые слова: *мобильное обучение, китайский язык, самостоятельное обучение, цифровые технологии, учебные стратегии.*

Keywords: *mobile learning, Chinese language, independent learning, digital technologies, learning strategies.*

Kirish. *Globalashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari zamonaviy jamiyatda xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Ayniqsa, xitoy tilining xalqaro*

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

iqtisodiy, siyosiy va madaniy maydondagi ahamiyatining ortib borishi ushbu tilni o‘rganishni strategik zaruratga aylantirdi. Bugungi kunda xitoy tili xalqaro savdo, diplomatiya, ilm-fan va texnologiyalar sohalarida muhim aloqa vositasi sifatida xizmat qilmoqda.

Ta’lim tizimining raqamlashtirilishi mobil texnologiyalarni o‘quv jarayoniga keng joriy etishni taqozo etmoqda. Smartfon va planshetlar asosida ishlab chiqilgan mobil ilovalar til o‘rganishda qulay, moslashuvchan va samarali muhitni yaratib bermoqda. Ular yordamida talabalar mustaqil ravishda lug‘at boyligini oshirish, talaffuzni rivojlantirish, grammatik bilimlarni mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Shuningdek, mustaqil ta’lim kompetensiyasini shakllantirish zamonaviy pedagogikaning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Mobil ilovalar orqali tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarda o‘z faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi mobil ilovalardan foydalanish orqali xitoy tilini mustaqil o‘rganish strategiyalarini shakllantirishning samaradorligini aniqlash, ularning didaktik imkoniyatlarini baholash va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida kompleks yondashuv asosida sifat va miqdoriy metodlardan foydalanildi. Jumladan, pedagogik tajriba-sinov ishlari, so‘rovnoma, test sinovlari, kuzatuv, suhbat hamda statistik tahlil metodlari qo‘llanildi.

Tadqiqotda filologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan 60 nafar talaba ishtirok etdi. Ular bilim darajasi, o‘rganish motivatsiyasi va raqamli kompetensiyalariga ko‘ra tenglashtirilib, tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi.

Tajriba guruhi mobil ilovalar (Duolingo, HelloChinese, Pleco, ChineseSkill) asosida individual o‘quv rejasi bo‘yicha mustaqil ta’lim olib bordi. Nazorat guruhi esa an’anaviy darsliklar va auditoriya mashg‘ulotlari asosida tahsil oldi.

Tadqiqot 4 oy davomida amalga oshirildi va uch bosqichda olib borildi: diagnostik bosqich, tajriba bosqichi va yakuniy tahlil bosqichi. Har bir bosqichda talabalar bilim darajasi maxsus testlar va monitoring vositalari orqali baholandi.

Olingan natijalar matematik-statistik usullar, jumladan, foizlik tahlil, o‘rtacha qiymat va taqqoslash metodi yordamida qayta ishlanib, ilmiy xulosalar chiqarildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mobil ilovalar yordamida ta’lim olgan talabalar til kompetensiyasini sezilarli darajada oshirgan. Tajriba guruhida lug‘at boyligi, talaffuz aniqligi va grammatik bilimlar yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘ldi.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, talabalar mobil ilovalarning qulayligi, interaktivligi va individual yondashuv imkoniyatlarini yuqori baholadilar. Ularning mustaqil o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasi ham sezilarli darajada oshdi.

Quyidagi jadvalda tajriba va nazorat guruhlarining yakuniy natijalari aks ettirilgan:

Guruh	Boshlang‘ich ball	Yakuniy ball	O‘sish darajasi
Tajriba	56	82	+26
Nazorat	58	70	+12

Natijalar mobil ilovalarning samaradorligini yaqqol tasdiqlaydi.

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, mobil ilovalar asosida tashkil etilgan mustaqil ta’lim jarayoni talabalarning bilim olish faoliyatini faollashtiradi. Interaktiv mashqlar, audio-video materiallar va tezkor qayta aloqa o‘rganish jarayonini samarali qiladi.

Mobil ilovalar yordamida quyidagi strategiyalar shakllanadi:

- rejalashtirish va vaqtni boshqarish;
- mustaqil mashq qilish;
- o‘zini baholash;
- takrorlash va mustahkamlash;
- kommunikativ faoliyatni rivojlantirish.

Shuningdek, mobil ta’lim individual yondashuvni ta’minlaydi va har bir talabaning o‘z sur’atida rivojlanishiga imkon yaratadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari mobil ilovalar yordamida tashkil etilgan mustaqil ta’lim jarayoni xitoy tilini o‘rganishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Olingan ma’lumotlar asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

Mobil ilovalar xitoy tilini o‘rganishda zamonaviy pedagogik vosita sifatida talabalarning bilish faoliyatini faollashtiradi va ta’lim samaradorligini oshiradi.

Raqamli platformalar orqali tashkil etilgan mustaqil ta’lim jarayoni talabalarning o‘zini-o‘zi boshqarish, rejalashtirish va refleksiya qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Interaktiv mashqlar, audio-video materiallar va tezkor qayta aloqa mexanizmlari lingvistik bilimlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Mobil ilovalar yordamida shakllangan o‘rganish strategiyalari kommunikativ kompetensiya va nutq madaniyatini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari mobil ta’lim texnologiyalarini oliy ta’lim muassasalarida xitoy tili o‘qitish tizimiga keng joriy etish maqsadga muvofiq ekanligini tasdiqlaydi. Kelgusida sun’iy intellekt asosidagi adaptiv mobil platformalarni joriy etish hamda ularning pedagogik samaradorligini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdullayev A. A. Xorijiy tillarni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2020.
2. Karimova D. Sh. Mobil ta’lim asoslari. – Toshkent: Innovatsiya, 2021.
3. Yo‘ldoshev R. B. Raqamli pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
4. Liu Y. Chinese Language Learning in Digital Era. – Beijing, 2018.
5. Wang H. Mobile Learning and Language Education. – Shanghai, 2020.

**FUQAROLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARINI BILISHI – HUQUQIY
MADANIYATNING ASOSIY BELGISI**

Yo‘ldasheva Shohistaxon G‘ayratbek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti magistranti

e-mail: shohistayoldosheva0@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18676119>

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada huquqiy madaniyat tushunchasining nazariy-huquqiy asoslari, fuqarolarning huquq va majburiyatlarini bilish darajasining huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil etiladi. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalari, huquqshunos olimlarning ilmiy qarashlari hamda tahliliy yondashuvlar asosida xulosalar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquq va majburiyatlar, qonun ustuvorligi, fuqarolik jamiyati.*

Аннотация. *В данной научной статье анализируются теоретико-правовые основы понятия правовой культуры, а также значение уровня знания гражданами своих прав и обязанностей в формировании правового государства и гражданского общества. В статье сформулированы выводы на основе норм Конституции Республики Узбекистан, научных взглядов ученых-юристов и аналитических подходов.*

Ключевые слова: *правовая культура, правосознание, права и обязанности, верховенство закона, гражданское общество.*

Abstract. *This scientific article analyzes the theoretical and legal foundations of the concept of legal culture, as well as the importance of citizens' awareness of their rights and obligations in the formation of a rule-of-law state and civil society. The conclusions of the article are based on the norms of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, the scientific views of legal scholars, and analytical approaches.*

Keywords: *legal culture, legal consciousness, rights and obligations, rule of law, civil society.*

Kirish

Hozirgi globallashuv va demokratik islohotlar sharoitida huquqiy madaniyat masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Huquqiy davlat barpo etish jarayonida fuqarolarning huquq va majburiyatlarini bilishi jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlashning muhim omili hisoblanadi.

Huquqiy demokratik davlat barpo etish jarayonida huquqiy madaniyat masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Huquqiy madaniyatning yuksak darajada bo‘lishi jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu jarayonda fuqarolarning o‘z huquq va majburiyatlarini bilishi huquqiy madaniyatning eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Jamiyat a’zolari huquqiy bilimga ega bo‘lmas ekan, qabul qilinayotgan qonun va normativ-huquqiy hujjatlarning amaliy samarasi pasayadi. Shu sababli huquqiy madaniyatni shakllantirish, avvalo, fuqarolarning huquq va majburiyatlarini chuqur anglashiga bog‘liqdir.

Huquqshunos olimlarning fikriga ko‘ra, huquqiy madaniyat — bu jamiyat a‘zolarining huquqqa bo‘lgan munosabati, huquqiy bilimlari, huquqiy ong darajasi va huquqiy xulq-atvorining majmuasidir. Huquqiy madaniyat nafaqat qonunlarni bilish, balki ularni hurmat qilish va amalda bajarishni ham o‘z ichiga oladi. Shu ma’noda, huquqiy madaniyat shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining uyg‘unligini ta‘minlaydi.

Huquqlarni bilishning ahamiyati

Fuqarolar o‘z huquqlarini bilgan taqdirda:

- o‘z manfaatlarini qonuniy yo‘l bilan himoya qila oladi;
- adolatsizlik va huquqbuzarliklarga befarq bo‘lib qolmaydi;
- davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatini qonun doirasida talab qila oladi;
- jamiyat hayotida faol va mas‘uliyatli ishtirok etadi.

Huquqini bilmagan shaxs esa ko‘pincha o‘ziga nisbatan bo‘layotgan noqonuniy holatlarni tabiiy hol deb qabul qiladi yoki ularni himoya qilish yo‘llarini bilmaydi. Bu esa huquqiy madaniyatning past darajada ekanidan dalolat beradi.

Majburiyatlarni bilish va unga amal qilish

Huquqiy madaniyat faqat huquqlarni bilish bilangina emas, balki majburiyatlarni chuqur anglash va ularga amal qilish bilan ham belgilanadi. Fuqarolar majburiyatlarini bilgan holda:

- qonunlarga hurmat bilan munosabatda bo‘ladi;
- jamiyatda tartib-intizomni saqlashga hissa qo‘shadi;
- boshqa shaxslarning huquqlarini buzmaslikka intiladi;
- davlat va jamiyat rivojiga o‘z hissasini qo‘shadi.

Majburiyatlarni mensimaslik huquqbuzarliklar, ijtimoiy nizolar va tartibsizliklarning ko‘payishiga olib keladi. Shu sababli huquq va majburiyatlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq tushunchalar hisoblanadi.

Huquqiy madaniyatning shakllanishida huquq va majburiyatlarning o‘rni

Huquqiy madaniyat fuqarolarning huquqiy bilimlari, huquqqa bo‘lgan hurmati va qonunlarga ongli ravishda amal qilishida namoyon bo‘ladi. Huquq va majburiyatlarni bilish:

- shaxsda huquqiy ongni shakllantiradi;
- qonunlarga nisbatan mas‘uliyat hissini kuchaytiradi;
- huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi;
- jamiyatda adolat va tenglik tamoyillarini mustahkamlaydi.

Ayniqsa, yoshlar orasida huquqiy bilimlarni oshirish huquqiy madaniyatni yuksaltirishning eng samarali yo‘llaridan biri hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda huquqiy madaniyat jamiyatda mavjud bo‘lgan huquqiy qadriyatlar, huquqiy bilimlar, huquqiy ong va huquqiy xulq-atvorning majmui sifatida talqin etiladi. Huquqiy madaniyat nafaqat qonunlarni bilish, balki ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lish va ularni amalda bajarishni ham o‘z ichiga oladi.

Huquqiy madaniyat quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat:

- huquqiy bilimlar;
- huquqiy ong;
- huquqiy mas‘uliyat;

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

- qonunlarga ongli rioya qilish.

Mazkur omillar fuqarolarning huquq va majburiyatlarini bilishi orqali shakllanadi va mustahkamlanadi.

Fuqarolarning huquqlarini bilishning huquqiy madaniyatdagi o‘rni

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari belgilab berilgan. Xususan, Konstitutsiyaning 24-moddasida yashash huquqi, 25-moddasida shaxs erkinligi, 41-moddasida ta’lim olish huquqi, 37-moddasida mehnat qilish huquqi mustahkamlangan.

Fuqarolar o‘z huquqlarini bilgan taqdirda:

- o‘z manfaatlarini qonuniy yo‘l bilan himoya qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi;
- huquqbuzarlik va adolatsizliklarga nisbatan murosasiz pozitsiyani egallaydi;
- davlat organlari faoliyatini qonun doirasida talab qiladi;
- jamiyat hayotida faol ishtirok etadi.

Huquqlarni bilmaslik esa fuqarolarning huquqiy himoyasizligiga, huquqiy befarqlik va passivlikka olib keladi. Bu holat huquqiy madaniyatning past darajada ekanidan dalolat beradi.

Fuqarolarning majburiyatlarini bilish va unga rioya qilish

Huquqiy madaniyat huquqlar bilan bir qatorda majburiyatlarga amal qilishni ham taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 48-moddasida fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishi, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini hurmat qilishi belgilangan. 51-moddada esa soliqlar va yig‘imlarni to‘lash majburiyati mustahkamlangan.

Fuqarolarning majburiyatlarini bilishi:

- jamiyatda tartib-intizomni ta’minlaydi;
- ijtimoiy adolat va tenglikni mustahkamlaydi;
- huquqbuzarliklarning oldini oladi;
- huquqiy davlat asoslarini mustahkamlaydi.

Huquq va majburiyatlar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning muvozanati huquqiy madaniyatning muhim mezoni hisoblanadi.

Huquqiy ong va huquqiy xulq-atvorning o‘zaro bog‘liqligi

Huquqiy ong fuqarolarning huquqiy hodisalarga bo‘lgan qarashlari, bilimlari va baholarini ifodalaydi. Huquqiy ongning shakllanishida huquq va majburiyatlarni bilish muhim ahamiyatga ega. Yuqori darajadagi huquqiy ong huquqiy xulq-atvorni belgilaydi, ya’ni shaxs qonunlarga ongli ravishda amal qiladi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, huquqiy bilim darajasi yuqori bo‘lgan jamiyatlarda huquqbuzarliklar darajasi past bo‘ladi. Bu esa huquqiy madaniyatning profilaktik ahamiyatini ko‘rsatadi.

Huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy yo‘nalishlari

Fuqarolarning huquq va majburiyatlarini bilish darajasini oshirish maqsadida:

- uzluksiz huquqiy ta’lim tizimini rivojlantirish;
- ta’lim muassasalarida huquqiy fanlarni takomillashtirish;
- ommaviy axborot vositalarida huquqiy savodxonlikka oid materiallarni ko‘paytirish;
- raqamli huquqiy axborot platformalaridan samarali foydalanish zarur.

Mazkur chora-tadbirlar huquqiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Odilqoriyev X. T. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent.
3. Karimov I. A. Yuksak huquqiy madaniyat – demokratik jamiyat poydevori. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008.
4. Xolmatov S. S. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat nazariyasi. – Toshkent: TDYUI nashriyoti, 2016.
5. Abdullayev A. A. Huquqiy madaniyatni shakllantirishda axborot texnologiyalarining o‘rni. // Huquq va burch. – Toshkent, 2021. – №3.
6. Saidov A. X. Huquqiy madaniyat va huquqiy ong. – Toshkent

ISMOIL GASPIRALI ASARLARIDA AYOLLAR MASALASI

Sodiqova Nargiza Nasri qizi

ZARMED universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasida o‘qituvchisi

Tel: 939992655

E-mail: nagisodiqova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18676130>

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashagan qrim-tatar ma’rifatparvari, jadidchilik harakatining asoschisi Ismoilbek Gaspiralining “Dorur-rohat musulmonlari” hamda “Xotinlar o‘lkasi” asarlari orqali jamiyatda xotin-qizlarning o‘rni masalasi tahlil qilingan. Shuningdek, “Olam nisvon” ayollar gazetasida bosilgan Turkistonda ayollarning ahvoli haqidagi ayrim maqolalar tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: maktab, qozi, ilmi tib, ilmi huquq, pedagogika, nikoh shartnomasi, oila

Аннотация: В данной статье анализируется роль женщин в обществе на примере произведений Исмоилбека Гаспирали, крымскотатарского просветителя и основателя движения джадидов, жившего в конце XIX и начале XX веков. Также анализируются некоторые статьи о положении женщин в Туркестане, опубликованные в женской газете «Олам Нисван».

Ключевые слова: школа, судья, медицинская наука, юриспруденция, педагогика, брачный договор, семья

Abstract: This article analyzes the role of women in society through the works of Ismoilbek Gaspirali, a Crimean Tatar enlightener and founder of the Jadid movement, who lived in the late 19th and early 20th centuries. It also analyzes some articles about the situation of women in Turkestan published in the women's newspaper "Olam Nisvan".

Keywords: school, judge, medical science, legal science, pedagogy, marriage contract, family

XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi musulmon Sharqi yangidan uyg‘onish davrining hal qilinishi kerak bo‘lgan asosiy muammolaridan biri – ayollarning jamiyatda tutgan o‘rni masalasi edi. Bu masala “Tarjimon”ning birinchi sonidan boshlab asosiy ruknlaridan birini egalladi. Ismoilbek Gaspirali 1887 hamda 1891- yillari musulmon ayollariga mo‘ljallangan gazeta nashr qilish uchun rasmiy idoralarga murojaat qiladi, ammo rad javobini oladi[1]. Oradan ancha yillar o‘tib Gaspirali “Tarjimon”ga ilova shaklida “Olam nisvon” (Ayollar dunyosi) gazetasi nashrini yo‘lga qo‘ygan. Bu ilovaga Gaspiralining qizi Shafiqaxonim muharrirlik qilgan. Mutafakkir ayollar masalasiga oid maqolalarida ularning jamiyatdagi, oiladagi oddiy haq-huquqlari masalasida amalda, hatto, shariat qonunlariga ham murojaat qila olmasliklarini ko‘plab misollar orqali ochib berish bilan bir qatorda, ularning dunyoqarashlari kengayib borayotganini ham ko‘rsatishga harakat qilgan. “Olam nisvon” gazetasida turkistonlik taraqqiyparvar ayollarning xabarlari va maktablari ham bosilganini ta’kidlash joiz. 1906- yili qo‘qonlik Tojiyaxonim ismli taraqqiyparvar ayol Ismoilbek Gaspiralining qizi Shafiqaxonimga maktub yo‘llaydi va bu xat to‘laligicha uning muharrirligida chiqayotgan “Olam nisvon” nomli ayollar gazetasida chop etiladi. “Hurmatli Shafiq xanum, biz kamtarona holda

quyidagilarni ma’lum qilamiz. . . ” deb boshlanuvchi nomada Qrim va Qozon ayollari o‘ziga xos haftalik nashrga ega ekanligini ta’kidlab, turkistonlik ayollarning ko‘p narsadan bexabarligi, hamon uyquda ekanligini kuyunib yozadi. “Agar bizning ahvolimiz haqida bayon qilinsa, kelajagimiz islohotlar orqali yaxshilanishi mumkin va biz o‘z huquqlarimizga ega bo‘lardik. Biroq bu amalga oshadimi? Biz hammamiz ilm va ta’limga muhtojmiz! Biz hozir bilim olmasak, kelajakda ham buning iloji bo‘lmaydi. Bu jahonda biz kabi musulmon ayollaridek huquqlaridan mahrumlar bo‘lmasa kerak... Biz o‘z farzandlarimizni o‘zimiz kabi ilmsiz qilib tarbiyalashni istamaymiz. Biz farzandlarimiz uchun qizlar maktabi ochishga urinayotgan no‘g‘ay o‘qituvchilariga yordam qila olmayapmiz. Bizning ilm olishga bo‘lgan urinishlarimiz bizga yo‘l ochib bermay, qiyinchilik tug‘dirib, dong qotib qolganimiz tan olinishi zarur. Agar shu yo‘lda davom etadigan bo‘lsak, bir kun biz musulmon ayollarining nomi tarix sahifalarida nafrat bilan tilga olinishi tayin. Bizga o‘z holimizni o‘zgartirishga, islohotlarni amalga oshirishga, (ulardan) o‘rnak olishga izn bering! Farzandlarimiz, o‘g‘il va qizlarimizni no‘g‘ay maktabiga yuborishga yo‘l bering!”[2], deb yozadi. Tojiyaxonim turkistonlik ayollarning o‘z huquqlarini bilmasligi va ularni qutqarishning yagona yo‘li – ularga zamonaviy ta’lim berish ekanligiga urg‘u beradi.

Shu o‘rinda Gaspiralinig adabiy asarlarida ham ayollar masalasi ko‘proq tahlilga tortilganini aytib o‘tish joiz. Jumladan, “Dorur-rohat musulmonlari” romanida ayollarni barcha ishlarda erkaklar bilan teng huquqli ekanligini ko‘rsatadi; ayol qozi obrazini yaratadi. U ta’riflagan jamiyatda ayol qozining roziligisiz yoki ishtirokisiz biror bir oilaviy yoki ayol huquqiga oid masala hal bo‘lmaydi. Er-xotin o‘rtasida bo‘ladigan mojarolarda xotin kishining haq-huquqi paymol qilinmasligi uchun ijrodan oldin hukm xotin qozilar majlisiga aniqlashtirish uchun yuborilgan. Ayol qozilar majlisini yurt amirining xotini Xadichabonu nazorat qilgan. Dorur-rohat o‘lkasida o‘g‘il bolalar ta’limi bilan birga qiz bolalar ta’limiga ham alohida a‘tibor berilgan. Qiz bolalar maktablarida ilmi tadrif (pedagogika), ilmi tib, ilmi huquq ham o‘qitilgan.

Muallif o‘lkadagi er-xotin orasidagi ijtimoiy munosabatlarni quyidagicha ta’riflaydi: “Xotin va er kishilarning munosabati aqd va shartga bog‘liq. Xotinni mol kabi sotib olmaydilar yoki haq-huquqsiz bir asir kabi erga bermaydilar. Er va xotin ikki tarafdiki, maishatlari jabr, zo‘ravonlik va insofsizlikdan yiroq bo‘lib, faqatgina bir-biriga muhabbat, bir-biri bilan unsiyat va huquq uzra bino bo‘lganlar.

Muallifning yozishicha, bu yurtda ko‘rganlari orasida eng hayratlanarlisi bu er va xotin o‘rtasida tuziladigan aqdi nikoh, ya’ni nikoh shartnomasidir. Nikoh shartnomasi tuzilgan kundan boshlab urning topgan mol-mulk va pullarida rafiqasining ham hissasi bo‘lar ekan. Bu orqali muallif bu diyorda ayol haq-huquqlarining nechog‘lik himoya qilinganligini ko‘rsatib bergan. “Dorur-rohat musulmalari faqatgina so‘zda va dilda emas, haqiqati holda huquqlariga va o‘zlariga molikdirlar. Bunday hol Turkistonda eshitilmagani kabi Farangistonda ham ko‘rilmaydi.”

Ismoil Gaspirali o‘z asarida o‘sha davridayoq sog‘lom nikoh munosabatlari ya’ni belgilangan nikoh yoshi bo‘lishi, jamiyatimiz hali-hanuzgacha xalos bo‘la olmayotgan ayrim chirkin illatlardan biri yosh qizlarning zo‘rlik bilan keksa yoshdagi erkakka nikohlab berilishi holatlarini tanqid qilgan. Sog‘lom farzandlar sog‘lom ota-onalardan dunyoga kelishini alohida ta’kidlagan. “So‘z sirasi kelib aytilganida hayratga tushganim bu: aqdi nikoh bo‘lmasidan avval, xotin va er necha yoshdaligi va so‘y quvon ya’ni, zurriyotga o‘tadigan maraz va dardga muhtalo emasliklariga munosib joydan

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

shahodatnoma olib kelishlari lozim ekan. Qari kishiga yosh qiz nikoh qilinmas ekan. Fasodga sabab, deya man qilingan.

Bu o‘lkada ko‘rganim barcha insonlarning sog‘lom va go‘zal bo‘lishlari ushbu ajoyib nizomlaridan bo‘lsa kerak. Axloq va quvvayi ma’naviyalarining imsolini biz bilgan dunyoning hech bir joyida ham ko‘rilmaydi.”

“Xotinlar o‘lkasi” romanida esa jamiyatda erkak bilan ayol o‘rnini bir-biri bilan almashtirib ko‘rsatib beradi. Unga ko‘ra, jamiyatda erkak yuzini yopib yurishga majbur, bola boqadi, ovqat tayyorlaydi va hokazo. Ayol esa barcha narsada hukmron. Mutafakkir bu orqali musulmon ayolining o‘sha davrdagi asl holatini ko‘rsatib berishni va bu muammoni umumxalq muhokamasiga qo‘yishni o‘z oldiga maqsad qilgan.

Bu o‘lkani u shunday ta’riflaydi: “Bu ajoyib o‘lkada er kishilar bizdagi xotinlar ahvolidan ekanliklarini oldingi maktublarimda yozgan edim. Ya’ni bola tug‘ilganidan so‘ng boqish uchun erkakka berilar ekan. Har bir xotinning ikki-uch asir eri bo‘lganligidan biri bola boqish, ikkinchisi ovqat pishirib, sigir sog‘ish, uchinchisi ip eshib, tikish-chatish bilan mashg‘ul ekanlar. Bola och qolsa, onasiga berib, emizib, yana erkak boqishga olib ketar ekan.

Xotinlari esa bizning yigitlar kabi o‘q otish, kurashish kabi narsalar bilan shug‘ullanib, yosh qizlar yigitlarni o‘ynatib, qo‘shiqalar aytib berib, sayru tomosha qilib yurishibdi. Barcha ishlar, hukumat xotin-qizlar qo‘lida. Erkaklarning yuzlari yopiq. Bizning ayollarimiz singari ichkarida xizmat qiladilar. Qarilari qora va og‘ir ishlarga qo‘yilib, yoshlari arzanda saqlanadi.

Bizning islom mamlakatlarida va Ovrupo (Afraniya)da barcha ayollar uyda, og‘ir ishlarni bajarajaklarini, erkaklar esa, askar bo‘lib, urushlarda yurishini, hokimlik, amaldorlik qilishlarini aytganimizda “”Yo tavba, shunaqa ham bo‘lishi mumkinmi?” deya kulishar, ishonishmas edi.

Shuning uchun ham aytadilar: Har odatning o‘z vaqti bor, har vaqtning o‘z odati...

Ismoil Gaspirali islom mamlakatlaridagi ayollarning ahvolini asardagi timsollar orqali tushuntirar ekan, jamiyatda ayol va erkakning o‘z o‘rni bo‘lishi kerakligini aytgan holda ikkala tomon ham alohida, o‘z bilganicha hukmronlik qila olmasligini ta’kidlaydi. Zero, bunday birlashmagan jamiyat zavolga yuz tutadi. Muallif ko‘rganlaridan shunday xulosa qiladi: “Bu hammasidan yomon! Ikkisidan biri hukmron bo‘lmay eru xotin teng tursalar, maishatning asos-o‘zagi yo‘q bo‘ladi! Adabning oti, jamiyatning nomi qolmaydi. Butun insoniyat falokatga uchraydi. Xokimlar hokima bo‘lmaganga yarasha, erkaklar hukmron bo‘lsa ham bir go‘r edi, amal-taqal qilib eplardilar. Har qalay boshsizlikdan afzal edi. Barcha erlarning rahbarligi va xotinlarga nisbatan baland qo‘yilishi haqsizlik, adabsizlik, zulm bo‘lsa-da. Lekin tenglik buyuk balolar va qazolarni olib keladiki, bunga shubha yo‘q.

Do‘stlarim! Ma’lum bo‘lyaptiki, qiz boladek uytachan. Musulmon ayolidek itoatli, fransuz xonimidek pardozini o‘rniga qo‘yadigan, bo‘lamiz. Bu o‘lkada er kishilarning adab va taqvosiga mos tushadigan tikish-naqshlarni o‘rganamiz... Zo‘r mamlakatga tushdik. Oxiri baxayr bo‘lsin-da. Lekin qayg‘urmang, ahvolimizdan saboq va ibrat olamiz. Biz tarafdagi xotin-qizning ahvoli, hissiyotlarini, boshdan kechirganlarini biz ham kechirib, anglaymiz. Bu ham shunday ilm va tahsil bo‘ladiki, na Toshkent madrasasida, na fransuz dorilfununida o‘qitiladi. Qora qamishdan yasalgan saroyda ancha-muncha dars oladiganga o‘xshaymiz...”[5]

Turkistonlik jadidlar ham matbuotda ayol masalasini ko‘tarib chiqishga harakat qilgan. Jumladan, Abdurauf Fitrat farzand tarbiyasi bilan onalar shug‘ullanganligi uchun ularning zamonaviy

bilim olishlari muhim deb hisoblagan. O‘zining “Oila yoki oilani boshqarish tartiblari” asarida ayollarning ilmi bo‘lishining ahamiyatini ko‘rsatib berishga harakat qilgan: “Modomiki, ilm olish har bir odam uchun diniy va dunyoviy majburiyatlarga kirar ekan, ayollar ham ilm o‘rganishlari shartdir. . . O‘z bolalarini islom taraqqiyotiga muvofiq tarbiyalab, din va dindoshlarini halokat va xarobalik jarligidan qutqarishlari uchun xotinlarimiz va qizlarimiz – millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari zarur”[3].

Turkiston jadidchiligining yorqin vakili Zuhridin Fathiddinzoda ham Turkistonda qizlar uchun jadid maktablari ochish, ularga zamonaviy fanlarni o‘qitish kerakligini uqtirgan: “Tahsil ilm erlardan ziyodaroq xotunlarga ham lozimdir. Chunki xotun kishi tarbiyasi va olima bo‘lsa uning bolasi ham tarbiyasi va husn axloqli bo‘lur. Johila va bir tarbiyasiz volida qo‘lida tarbiya topgan farzand esa aksariya yomon xulqli, tarbiyasiz va johil bo‘lur. Bu hol ko‘b tajribalar ila sobit bo‘lgan bir masaladir”[2].

Xulosa qilib aytganda, Sharqda azaldan xotin-qizlar va ularning sha‘ni muqaddas sanalib, ularga nisbatan alohida hurmat va e‘tibor berib kelingan. Pedagog noshir, jamoat arbobi Ismoil Gaspirali ham o‘z zamonida masalaga bugungi kun darajasida e‘tibor qarata olgan. Zero, xotin-qizlar har qanday jamiyatda ham oilaning asosini tashkil etgan. “Ayol bir qo‘li bilan beshik tebratsa, bir qo‘li bilan dunyoni tebratadi”, degan gap bejiz emas. Shu bois, masalaga chuqurroq yondoshadigan bo‘lsak, har bir jamiyatning taraqqiyoti, adolatparvarligi va insonparvarligi ayollarga bo‘lgan munosabat bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jamolova D. Jadid ayollar // O‘zbek xotin-qizlarining davlatchilik tariximizdagi o‘rni va xizmatlari. Toshkent: Mahalla va oila nashriyoti, 2022. B. 47 – 48.
2. Zuhridin Fathiddinzoda. Huquqi nisvon // “Sadoyi Turkiston” gazetasi. 1914-yil 12-noyabr.
3. Абдурауф Фитрат. Оила ёки оилани бошқариш тартиблари // Танланган асарлар. 4-жилд. Тошкент. 2006. Б. 304 – 306.
4. Исмаил Гаспринский. Историко-документальный сборник. С. 377 – 378, 380 – 385.
5. Исмоилбек Гаспринский. Ҳаёт ва мамот масаласи (танланган асарлар). Тошкент. "Маънавият", 2006. Б. 276-304

OLIMA AYOL – JAMIYAT INTELLEKTUAL TARAQQIYOTINING RAMZI

G`apponova Zilola Abduvannob qizi

Namangan davlat texnika universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasida doktoranti

E-mail: zilola06071999@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18676136>

Annotatsiya: *Mazkur maqolada olim ayollarning jamiyat intellektual taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati kompleks ilmiy-nazariy tahlil etilgan. Xorijiy tajriba, tarixiy manbalar hamda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar misolida ayollarning ilm-fan, ta’lim va innovatsion faoliyatdagi ishtiroki yoritilgan. Maqola yakunida olim ayollarning ilmiy faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha taklif va xulosalar ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *Olim ayol, intellektual taraqqiyot, ilm-fan, ta’lim, innovatsiya, gender tenglik, huquqiy baza, tarixiy meros, davlat siyosati.*

Аннотация: *В статье проведён комплексный научно-теоретический анализ роли и значения женщин-учёных в интеллектуальном развитии общества. На примере зарубежного опыта, исторических источников, а также реформ, реализуемых в Республике Узбекистан, освещается участие женщин в сфере науки, образования и инновационной деятельности. В заключительной части статьи представлены выводы и предложения по дальнейшей поддержке научной деятельности женщин-учёных.*

Ключевые слова: *женщина-учёный, интеллектуальное развитие, наука, образование, инновации, гендерное равенство, правовая база, историческое наследие, государственная политика.*

Annotation: *This article presents a comprehensive scientific and theoretical analysis of the role and significance of women scholars in the intellectual development of society. Based on foreign experience, historical sources, and reforms being implemented in the Republic of Uzbekistan, the study highlights women’s participation in science, education, and innovative activities. The article concludes with proposals and recommendations for further supporting the scientific activities of women scholars.*

Keywords: *woman scientist, intellectual development, science, education, innovation, gender equality, legal framework, historical heritage, state policy.*

Bugungi globallashuv va bilimlar iqtisodiyoti sharoitida jamiyatning barqaror rivojlanishi ilm-fan, innovatsiya va intellektual resurslarga bevosita bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda xotin-qizlarning, xususan olim ayollarning o‘rni tobora ortib bormoqda. Xalqaro miqyosda olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollarning ilmiy faoliyatga keng jalb etilishi ilm-fanning sifat jihatdan rivojlanishiga, ilmiy qarashlarning xilma-xilligiga va innovatsion yechimlarning paydo bo‘lishiga xizmat qiladi. Shu bois BMT, YUNESKO kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar ilm-fan sohasida gender tenglikni ta’minlashni barqaror rivojlanishning muhim sharti sifatida e’tirof etmoqda[1].

Xususan, YUNESKO tomonidan ilgari surilgan yondashuvga ko‘ra, ilm-fanning to‘liq salohiyati faqat bilim va iste’dodlarning barcha manbalaridan teng foydalanilgandagina namoyon

bo‘ladi. BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish ham ilm-fan sohasida ayollar ishtirokining yetarli emasligi global taraqqiyot yo‘lidagi muhim muammolardan biri ekanini ta’kidlab, ayollarning ilmiy tadqiqot faoliyatiga keng jalb etilishi ilm-fanni yangi qarashlar va innovatsion yondashuvlar bilan boyitishini qayd etadi. Demak, xorijiy tajriba ayollarning ilm-fandagi faolligi jamiyat intellektual raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Tarixiy manbalarga murojaat etadigan bo‘lsak, ayollarning ilm-fan va jamiyat hayotidagi faol ishtiroki qadimdan mavjud bo‘lganini ko‘ramiz. Amir Temur davrida Saroymulxonimning davlat boshqaruvi, ilm-ma’rifat va bunyodkorlik sohasidagi faoliyati ayol zakovati va tafakkurining yuksak namunasidir. Uning tashabbusi bilan qurilgan madrasa nafaqat me’moriy yodgorlik, balki ilm-fan taraqqiyotining muhim markazi sifatida faoliyat yuritgan. Bu holat temuriylar davridayoq ayollarning ilmiy va ijtimoiy hayotdagi o‘rni yuksak baholanganini ko‘rsatadi[2].

XIX–XX asr boshlarida jadid allomalari tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar ham ayollar ta’limining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Abdurauf Fitrat va Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlarida ayollarning ilm olishi oilaning mustahkamligi, sog‘lom ma’naviy muhit va jamiyat intellektual rivojining zarur sharti sifatida talqin etilgan. Jadidlarning bu qarashlari bugungi islohotlar uchun mustahkam tarixiy-ma’naviy poydevor vazifasini o‘taydi[3].

Mustaqillik yillarida, ayniqsa so‘nggi davrda O‘zbekistonda xotin-qizlarning ta’lim olishi va ilm-fan bilan shug‘ullanishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida erkaklar va ayollarning teng huquqliligi kafolatlangan bo‘lib, ushbu norma ayollarning ta’lim, mehnat va ilmiy faoliyat sohalarida teng imkoniyatlarga ega bo‘lishining huquqiy asosini tashkil etadi. Shuningdek, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” [4]gi Qonun gender tenglikni ta’minlash, ayollarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy va ilmiy hayotidagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan muhim huquqiy hujjat hisoblanadi.

Bundan tashqari, “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonun ilmiy tadqiqotlar bilan shug‘ullanishda barcha fuqarolar uchun teng shart-sharoitlar yaratishni nazarda tutib, xotin-qizlarning ilmiy izlanishlar olib borishi uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. “Ta’lim to‘g‘risida” [5]gi Qonunda ham ta’lim olishda tenglik prinsipi mustahkamlangan bo‘lib, bu ayollarning oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim bosqichlariga keng jalb etilishiga imkon bermoqda.

Qonun osti hujjatlari doirasida qabul qilingan Prezident farmon va qarorlari ayollarni ilm-fan va ta’lim sohasida qo‘llab-quvvatlashning amaliy mexanizmlarini belgilab berdi. Xususan, 2023-yil 21-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 208-sonli farmoni xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlash, ularning ilmiy va ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan muhim hujjatdir. Ushbu farmon ijrosi doirasida Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyati takomillashtirildi, ayollarni ilm-fan va innovatsiyalar sohasiga jalb etish bo‘yicha aniq vazifalar belgilandi[6].

Alohida ta’kidlash joizki, “Olima ayollar jamiyati”ning tashkil etilishi ayollarning ilmiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo‘ldi. Mazkur jamiyat olim ayollarning ilmiy izlanishlarini muvofiqlashtirish, innovatsion g‘oyalarini rag‘batlantirish hamda ilmiy loyihalarini amaliyotga joriy etishga xizmat qilmoqda. Natijada ilmiy loyihalarda ishtirok etayotgan xotin-qizlar soni yil sayin ortib bormoqda.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

- ayollarning ilmiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosini yanada kuchaytirish;
- olim ayollar uchun grantlar, stipendiyalar va ilmiy loyihalar sonini oshirish;
- ta’lim tizimida iqtidorli qizlarni ilm-fan yo‘nalishlariga erta jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish;
- olim ayollarning xalqaro ilmiy hamkorlikdagi ishtirokini kengaytirish.

Xulosa qilib aytganda, olim ayol jamiyat intellektual taraqqiyotining muhim ramzi bo‘lib, uning ilm-fan, ta’lim va innovatsiyalar rivojiga qo‘shayotgan hissasi beqiyosdir. O‘zbekistonda yaratilgan mustahkam huquqiy baza va institutsional mexanizmlar ayollarning ilmiy salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga xizmat qilmoqda. Ayollarning ilmiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash nafaqat gender tenglikni ta’minlash, balki jamiyatning barqaror rivojlanishi va kelajak taraqqiyotini kafolatlovchi strategik omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. YUNESKO Bosh direktori Odre Azule murojaati (Ilm-fan sohasidagi xotin-qizlar xalqaro kuni munosabati bilan). – URL: <http://nhrc.uz/oz/news/m12454> (murojaat sanasi: 2026. 02. 08).
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Olim ayollar jamiyati faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. – URL: <https://lex.uz/pdfs/6704824> (murojaat sanasi: 2026. 02. 08).
3. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent : Ma’naviyat, 1993. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent : Fan, 2018.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent : O‘zbekiston, 2023.

YOSHLARDA OILAVIY MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHDA JADID MA’RIFATPARVARLARINING QARASHLARI.

Musoyeva Marjona

BuxDPI – Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi.

1-bosqich talabasi

Email: marjonamusayeva4@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18676151>

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada yoshlarda sog‘lom oila munosa-batlarini vujudga keltirishda jadidlarning g‘oyalari va undan ko‘zlagan maqsadlari ochib berilgan. Shuningdek, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Hoji Muin kabi namoyondalarning o‘g‘il va qiz bolalarning qanday ta’lim-tarbiya olishi haqidagi g‘oyalari aks etgan.*

***Kalit so‘zlar:** jamiyat, oila, jadidlar, farzandning tarbiyasi, o‘g‘il va qiz bola, Abdurauf Fitrat fikrlari, kelajak avlod, ota-ona*

***Аннотация:** В данной статье раскрываются идеи и цели семьи джадидов в создании здоровых семейных отношений среди молодежи. В ней также отражены взгляды таких деятелей, как Абдулла Авлони, Абдурауф Фитрат и Хажу Муин, на то, как следуют*

***Ключевые слова:** Общество, семья новые поколения, воспитание детей, мальчики и девочки, взгляды Абдурауфа Фитрата, будущее поколение, родители.*

***Abstract:** This article reveals the ideas and goals of the Jadids in creating healthy family relationships among young people. It also reflects the ideas of figures such as Abdulla Avloni, Abdurauf Fitrat, and Haji Muin about how boys and girls should be educated.*

***Keywords:** society, family, new generations, child rearing, boys and girls, Abdurauf Fitrat’s thoughts, future generation, parents.*

Har qanday davlat, har qanday jamiyat ham o‘z boylklari bilan qudratli hisoblanadi. Ammo yurtning asosiy boyligi, avvalo, insondir. Kishilik jamiyati vataniga sadoqatli, iymon-e’tiqodi butun, ma’naviyati yuksak insonlar bilan faxrlanadi. Bunday boyluk har qanday davlatning qudratli salohiyat manbaidir. Shuning uchun ham bugungi kunda mamlakatimizda oila munosabatlari dolzarb mavzuga aylandi. Chunki oila davlatning asosiy bo‘g‘inidir. Yurtning rivojlanishi uchun esa oiladagi munosabatlar muhim rol o‘ynaydi. Sog‘lom avlodni vujudga keltirish uchun ta’lim-tarbiya muhim ahamiyatga ega. Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov bu borada: “Sog‘lom avlodni tarbiyalash buyuk davlat poydevorini, farovon hayot asosini qurish deganidir”, — deb aytgan edi. Darhaqiqat, O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlash va kelajak istiqbolini yuksaltirish barkamol insonlarga chambarchas bog‘liqdir.

Buning uchun esa ularni tarbiyalab, kamol toptiradigan shaxslar ham kelajak avlod uchun har tomonlama o‘rnak bo‘lishi lozim. Shuningdek, oilaviy munosabatlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar negizida rivojlantirish zarur. Natijada avlod ham demokratik, ham qadriyatlar asosida kamol topadi. Kelajak avlodning sog‘lom munosabatda o‘sishi tarbiyaga borib taqaladi. Oila farzand tarbiyasining shakllanishida asosiy rol o‘ynaydi. Shavkat Mirziyoyev tarbiyaning negizi oilada

bo‘lishi haqida to‘xtalib: “Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi yoki zaif bo‘lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e‘tibordan qolib, o‘zgalarga tobe va qul, asir bo‘lishi ularning o‘z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog‘liq”, — degan edi. Darhaqiqat, yoshlarning tarbiyasizligi mamlakatning tanazzuliga sabab bo‘ladi. Chunki tarbiyaning bo‘lmasligi ma‘naviyatsizlikka asos bo‘ladi.

Bugungi kunda oilada jismonan sog‘lom, ma‘naviy jihatdan barkamol va madaniyatli insonni voyaga yetkazish katta ahamiyat kasb etadi. “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, deganlaridek, xonadondagi tarbiyaning namunaviy shakli ota-ona orasidagi munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Ular o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, muomala va hamjihatlik farzand tarbiyasi uchun katta ahamiyatga ega. Chunki bolaning ko‘rgan hodisasi uzoq vaqt davomida xotirada saqlanib qoladi. Bu esa farzandlarning boshqalarga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalanishiga asos bo‘ladi.

Oila a‘zolari tarbiya ko‘rmasa, chin baxt-saodat bilan umr kechirmaydi. Oilasi tarbiya ko‘rmagan millat taraqqiy etmaydi, degan fikrlar ilgari surilgan. Albatta, tarbiya jarayoni shunday bosqichki, u insonning butun umri davomida kerak bo‘ladigan ma‘naviyat, ma‘rifat va taraqqiyotning asosidir. Insonning ravnaq topishi yoki zavolga yuz tutishi ham tarbiyaga bog‘liq. Jadid namoyondalaridan biri bo‘lgan Abdulla Avloniy: “Tarbiya bizlar uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, saodat — yo falokat masalasidir”, — deb aytgan. Darhaqiqat, tarbiya odob-axloq, insoniylik, hurmat kabi sifatlarni o‘z ichiga oladi. Bunday fazilatlarga ega bo‘lgan yoshlar rivojlanish bilan birga, ko‘plab yutuqlarga erishadi. Tarbiyasizlik esa, aksincha, hurmatning yo‘qolishiga hamda mag‘lubiyatga sabab bo‘ladi, ya‘ni falokat va halokatga olib keladi.

Shuningdek, tarbiya bo‘lgan joyda ta‘lim ham bo‘ladi. Bugungi kunda tarbiyali yoshlar o‘z xulqi va tarbiyasi orqali bilim egallab, ustozlarning hurmatini qozonib, chet el universitetlarida ta‘lim olmoqda. Jadidlardan biri bo‘lgan Abdurauf Fitrat tarbiya masalasini to‘rt qismga: farzand tarbiyasi, badan tarbiyasi, aqliy tarbiya va axloqiy tarbiyaga ajratadi. Bu tushunchalar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bir-birini to‘ldiradi. Bularning asosida ota-ona va muallim muhim rol o‘ynaydi. Farzand tarbiyasi, asosan, oilada shakllanadi, ya‘ni bolaning maktabga borishigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Badan tarbiyasi farzandning sog‘lom holda kamol topishiga sabab bo‘ladi. Aqliy tarbiya inson aqlini tarbiyalash, zehn va idrokni rivojlantirishdir. Axloqiy tarbiya esa sanab o‘tilgan uch qismning eng muhimidir. Bunday tarbiyaning yo‘qligi aqliy va jismoniy kuchning zararli yo‘nalishda ishlatilishiga olib keladi. Odamning axloqi shunday yetkazilishi kerakki, uning fe‘l-atvori faqat foyda keltirsin.

Tarbiyaning turlarini yuksaltirish maqsadida jadidlar maktabning yangicha tizimini ishlab chiqdilar. Bunday maktablarda diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy fanlar ham o‘qitilishi ko‘zda tutilgan edi. Hozirgi kunda yoshlarda badan tarbiyasi bilan shug‘ullanish kamayib bormoqda. Chunki texnika va texnologiyalar tarbiyaning bu turiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shuning uchun bugungi davr bolalari yosh bo‘lishiga qaramay turli kasalliklarga chalinmoqda.

Eng muhim masalalardan biri qizlarning ta‘lim olishidir. Chunki ta‘lim tarbiya jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Ayol kishining bilimli bo‘lishi jamiyat rivojiga xizmat qiladi. Avliyo va fozil kishilarning kamol topishida ham ayolning o‘rni beqiyosdir. Bu masala yuzasidan Anbar Otin o‘zining “Qarolar falsafasi” asarida fikr bildirgan. U xonlik davrida ayollarning ta‘lim olishi va erkinligi uchun kurashgan. Chunki o‘z zamonasida ular hatto inson sifatida ham ko‘rilmagan.

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

Bugungi zamonda yurtimizda xotin-qizlar ijtimoiy va siyosiy masalalarda alohida o‘rin tutadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasida: “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar”, degan norma belgilangan. Bu ayollarning jamiyatni boshqarishda erkaklar bilan teng huquqli ekanligini anglatadi. Hozirgi vaqtda ayollar nafaqat mahalliy sohalarda, balki turli davlat organlarida ham faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu taraqqiyotning asosi bo‘lish bilan birga, rivojlanish uchun katta ahamiyatga ega.

Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov shunday degan edi: “Ayrim ota-onalar dabdabali uy-joylar quradi, to‘kib-sochib to‘y qiladi, qator-qator mashinali bo‘ladi. Vaholanki, surishtirsangiz, bolasining qayerda, kim bilan yurishi, vaqtini qanday o‘tkazishi, qanday bilimga ega ekani na otani, na onani qiziqtiradi. Bu — farzandlar taqdiriga, o‘z kelajagiga loqaydlikdan boshqa narsa emas”. Aslida ham shunday. Oilada farzand tarbiyasi birinchi o‘rinda turishi lozim. Ammo taraqqiyotning tezlashuvi va texnologiyalarning rivojlanishi natijasida farzandga bo‘lgan e‘tibor kamaymoqda. Natijada yoshlar orasida bezorilik va ma‘naviy inqiroz holatlari ko‘paymoqda.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar — kelajak avlodidir. Ular davlatni yuksaltirishga xizmat qiladi. Shuning uchun farzand tarbiyasiga alohida e‘tibor berish lozim. Buning uchun yoshlarga axloq-tarbiya mavzusidagi darslarni ko‘paytirish zarur. Ayniqsa, bu borada samarali tanlovlar tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, mahalla tashkilotlarida ota-onalar uchun bola tarbiyasi masalalariga bag‘ishlangan majlislar o‘tkazish ham foydali bo‘ladi. Asosiy e‘tiborni yoshlarda sog‘lom oilaviy munosabatlarni shakllantirishga qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Karimov. I. Ma‘naviy yuksalish yo‘lida. Toshkent:O‘zbekiston, 1998.
2. Boltaboyev H. Abdurauf Fitrat. Toshkent:Yangi nashriyot uyi, 2022. -B. 141.
3. Hoji Muin. Tanlangan asarlar. Toshkent:Ma‘naviyat, 2010. -B-251.
4. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oilani boshqarish tartiblari. Toshkent:Yoshlar matbuoti, 2024. -B. 157.
5. Quronov. M. Bizni birlashtirgan g‘oya. Toshkent:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2016. B.
6. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent:Turon zamin nashriyoti, 2023. - B. 91.
7. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. Toshkent: O‘zbekiston. 2023. -B. 118.

BO‘LAJAK CHET TIL O‘QITUVCHILARINING INDIVIDUAL STRATEGIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Tursunova Muhabbat Ikromovna

Samarqand davlat chet tillar instituti

Ingliz filologiyasi kafedrası v. b. dotsenti

E-mail: muxabbat2319@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18676164>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada bo‘lajak chet til o‘qituvchilarining individual pedagogik strategiyasini shakllantirish va rivojlantirishning nazariy hamda amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta‘lim tizimida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning ustuvorligi o‘qituvchidan nafaqat lingvistik kompetensiyani, balki refleksiv, metakognitiv va strategik kompetensiyalarni ham talab qiladi. Shu bois, individual o‘qitish strategiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalasi pedagogik va lingvodidaktik tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir.*

***Kalit so‘zlar:** individual strategiya, chet til o‘qituvchisi, refleksiya, pedagogik faoliyat, o‘qitish metodikasi, lingvodidaktika.*

***Abstract.** This article analyzes the theoretical and practical aspects of the formation and development of the individual pedagogical strategy of future foreign language teachers. In the modern educational system, the priority of the learner-centered approach requires a teacher not only to possess linguistic competence but also reflective, metacognitive, and strategic competences. Therefore, improving the methodology for developing individual teaching strategies is one of the urgent directions of pedagogical and linguodidactic research.*

***Keywords:** individual strategy, foreign language teacher, reflection, pedagogical activity, teaching methodology, linguodidactics.*

***Аннотация.** В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты формирования и развития индивидуальной педагогической стратегии будущих преподавателей иностранного языка. В современной системе образования приоритет личностно-ориентированного подхода требует от преподавателя не только лингвистической компетентности, но и рефлексивных, метакогнитивных и стратегических компетенций. В связи с этим совершенствование методики развития индивидуальной стратегии обучения является одним из актуальных направлений педагогических и лингводидактических исследований.*

***Ключевые слова:** индивидуальная стратегия, преподаватель иностранного языка, рефлексия, педагогическая деятельность, методика обучения, лингводидактика.*

So‘nggi o‘n yilliklarda ta‘lim tizimi mazmuni va vazifalari tubdan o‘zgarib bormoqda. Agar ilgari o‘qituvchining asosiy roli bilim berish bilan chegaralangan bo‘lsa, bugungi kunda u murakkab pedagogik jarayonni boshqaruvchi, o‘quvchini rivojlantiruvchi hamkor va kommunikativ muhit yaratuvchi mutaxassis sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, chet til o‘qituvchisi faoliyati bu jihatdan yanada murakkabdir, chunki u nafaqat bilimni, balki madaniyatlararo muloqotni ham shakllantiradi. Til darsi

oddiy fan darsidan farqli ravishda interaktivlik, spontanlik va doimiy moslashuvni talab etadi. Shu sababli, zamonaviy o‘qituvchi tayyor metodik ko‘rsatmalarni bajaruvchi ijrochi emas, balki vaziyatga mos qaror qabul qiluvchi strateg sifatida namoyon bo‘ladi.

Bugungi global axborot jamiyatida talabalar bilimni o‘qituvchidan ko‘ra tezroq topa oladi, ammo uni qanday o‘rganish, qanday qo‘llash va qanday rivojlantirishni o‘qituvchi orqali o‘zlashtiradi. Demak, pedagogning asosiy vazifasi ma‘lumot uzatishdan ko‘ra o‘rganishni tashkil etishga ko‘chmoqda. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlash jarayoniga yangi talablarni qo‘yadi: u metodlarni bilishi yetarli emas, balki qaysi vaziyatda qaysi metodni tanlashni bilishi kerak. Aynan shu nuqtada individual pedagogik strategiya tushunchasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Psixologiya va pedagogika fanlari tarixiga nazar tashlasak, shaxsiy faoliyat uslubi masalasi ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. L. S. Vigotskiy ta‘limni shaxs rivojlanishining yetakchi omili sifatida ko‘rib, o‘qituvchi o‘quvchini rivojlanish zonasiga olib kiruvchi tashkilotchi ekanini ta‘kidlaydi. A. N. Leontyev esa har qanday faoliyat ongli maqsadga yo‘naltirilgan tizim ekanini asoslab, pedagog faoliyati ham strategik xarakterga ega bo‘lishi zarurligini ko‘rsatadi. Zamonaviy lingvodidaktika vakillari R. Oxford, J. Richards, D. Nunanlar esa o‘qitish samaradorligi metodlar xilma-xilligiga emas, balki o‘qituvchining strategik qaror qabul qilish qobiliyatiga bog‘liqligini alohida ta‘kidlaydi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, pedagogika oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak chet til o‘qituvchilari ko‘pincha tayyor dars ishlanmalari asosida ishlashga o‘rganadi. Natijada ular real sinf sharoitida yuzaga keladigan kutilmagan vaziyatlarda qiynaladi: o‘quvchilar darajasi turlicha bo‘ladi, motivatsiya past bo‘lishi mumkin, rejalashtirilgan mashg‘ulot kutilgan natijani bermaydi. Bunday vaziyatlarda o‘qituvchi metodni emas, strategiyani o‘zgartirishi kerak bo‘ladi. Demak, muammo metod bilishda emas, balki individual pedagogik strategiyaning yetarli shakllanmaganidir.

Chet til o‘qitish jarayonining kommunikativ tabiati ayniqsa strategik moslashuvchanlikni talab qiladi. Dars davomida o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida bir nechta qaror qabul qiladi: tushuntirishni davom ettirish yoki o‘yin elementini qo‘shish, guruhli ishni kuchaytirish yoki individual ishlashga o‘tish, xatoni darhol tuzatish yoki muloqotni to‘xtatmaslik. Bu qarorlar oldindan yozilgan konspekt bilan emas, balki o‘qituvchining ichki professional strategiyasi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham zamonaviy pedagogikada *“yaxshi o‘qituvchi metodni biladi”* degan qarash o‘rnini *“yaxshi o‘qituvchi vaziyatni boshqaradi”* degan yondashuv egallamoqda.

O‘zbekiston ta‘lim tizimida ham kompetensiyaviy yondashuv joriy etilishi o‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan talablarni kengaytirdi. Endilikda pedagogdan nafaqat predmet bilimlari, balki refleksiya, kreativlik, moslashuvchanlik va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati talab etiladi. Bu esa pedagogika oliy ta‘limida tayyorlash metodikasini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Xususan, bo‘lajak chet til o‘qituvchisining individual strategiyasini shakllantirish maxsus tashkil etilgan metodik tizim orqali amalga oshirilishi zarur.

Pedagogik faoliyatni oddiy bilim uzatish jarayoni sifatida talqin qilish bugungi kunda o‘z ahamiyatini yo‘qotib bormoqda. Zamonaviy ta‘lim psixologiyasi o‘qituvchini faoliyat subyekti sifatida ko‘radi, ya‘ni u nafaqat o‘quv materialini yetkazadi, balki butun o‘quv jarayonini loyihalashtiradi, boshqaradi va moslashtiradi. Aynan shu jarayonda individual pedagogik strategiya shakllanadi.

“Strategiya” tushunchasi dastlab harbiy va menejment sohalarida qo‘llanilgan bo‘lsa-da, keyinchalik pedagogikaga ham kirib kelgan. Pedagogik mazmunda strategiya bu o‘qituvchining maqsadga erishish uchun ongli ravishda tanlaydigan barqaror harakatlar tizimidir. Bu faqat metodlar yig‘indisi emas, balki qaror qabul qilish modeli hisoblanadi.

A. N. Leontyev faoliyat nazariyasiga ko‘ra, inson faoliyati quyidagi bosqichlardan iborat: motiv, maqsad, harakat va operatsiya. O‘qituvchi faoliyatiga tatbiq etilganda, metod - operatsiya, texnologiya - harakat, strategiya esa maqsadga yo‘naltirilgan ongli tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, strategiya metoddan yuqori darajadagi kategoriyadir [2].

L. S. Vygotskiy ta’limni rivojlanishning asosiy mexanizmi deb hisoblaydi va o‘qituvchi o‘quvchini yaqin rivojlanish zonasiga olib kiruvchi mediator ekanini ta’kidlaydi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun pedagog vaziyatga moslashishi kerak. Ya’ni, bir xil metod har xil guruhda turlicha natija beradi. Shu sababli, o‘qituvchi faoliyatining samaradorligi uning individual strategiyasiga bog‘liq bo‘ladi [1].

I. A. Zimnyaya o‘qituvchining professional rivojlanishini bosqichlarga ajratadi: reproduktiv, adaptiv, kreativ va refleksiv. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aksariyat talaba-o‘qituvchilar reproduktiv bosqichda qolib ketadi ular tayyor konspekt asosida ishlaydi. Biroq real pedagogik faoliyatda o‘qituvchi har bir darsda yangi vaziyatga duch keladi. Demak, professional yetuklik refleksiv-strategik darajaga chiqish bilan belgilanadi [3].

R. Oxford strategiyalarni ongli ravishda tanlanadigan o‘rganish harakatlari sifatida izohlaydi. Bu qarashni o‘qituvchi faoliyatiga tatbiq qilsak, individual strategiya o‘qituvchining pedagogik qaror qabul qilish uslubidir. Shuning uchun ham ikki o‘qituvchi bir xil metoddan foydalansa ham, natija turlicha bo‘ladi: farq metodda emas, strategiyada [4].

Shunday qilib, individual pedagogik strategiya quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

- vaziyatni tahlil qilish qobiliyati
- pedagogik qaror qabul qilish tezligi
- moslashuvchanlik
- refleksiya
- o‘z faoliyatini modellashtirish

Bu komponentlar shakllanmasdan turib, o‘qituvchi faqat ijrochi bo‘lib qoladi.

Mazkur maqola bo‘lajak chet til o‘qituvchilarining individual pedagogik strategiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalasini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishga bag‘ishlandi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy ta’lim sharoitida o‘qituvchining professional tayyorgarligi faqat lingvistik va metodik bilimlar bilan chegaralanmaydi. Pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati, avvalo, o‘qituvchining o‘z faoliyatini ongli boshqara olishi, vaziyatga mos qaror qabul qilishi va o‘quv jarayonini individuallashtira olishiga bog‘liq. Demak, bugungi ta’lim tizimida o‘qituvchi bilim manbai emas, balki o‘quv faoliyatini boshqaruvchi strategik subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge: Harvard University Press. 1978.

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

2. Leontyev A. N. Activity, Consciousness, Personality. Moscow: Progress Publishers. 1975.
3. Zimnyaya I. A. Pedagogicheskaya psixologiya. Moskva: Logos. 2004
4. Oxford R. L. Language Learning Strategies: What Every Teacher Should Know. New York: Newbury House Publishers. 1990.

FARIDA AFRO‘Z TASBEHLARINING MAVZU MUNDARIJASI

Atabayeva Guljahon Zufarovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti II bosqich tayanch doktoranti

E-Mail: guljakhonatabayeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18676201>

Annotatsiya. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos poetik tafakkur va yangicha shakliy izlanishlari bilan ajralib turadigan shoira Farida Afro‘z ijodi ko‘plab adabiyotshunoslar e‘tiborini tortib kelmoqda. Uning “tasbeh” deb ataluvchi uchliklari nafaqat shakliy jihatdan, balki mazmun-mohiyati bilan ham milliy she‘riyatda yangi badiiy hodisa sifatida baholanadi. Tasbehtarlar qisqa hajmda katta falsafiy ma‘noni ifodalashi, ramziy obrazlarga boyligi hamda inson ruhiyatining nozik qatlamlarini ochib berishi bilan ahamiyatlidir. Ushbu maqolada tasbehtarlar o‘ziga xos jihatlari, tasbehtarlar mavzu mundarijasi haqida atroflicha fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: lirik janrlar, tasbeh, uchlik, poetik mahorat, badiiy tasvir, hayku, badiiy tahlil.

Abstract. In contemporary Uzbek literature, the work of the poet Farida Afroz, distinguished by her unique poetic thinking and new formal explorations, has attracted the attention of many literary scholars. His triads called “tasbekh” are evaluated as a new artistic phenomenon in national poetry not only in form but also in content. Tasbehta is of great importance because it expresses a great philosophical meaning in a short volume, is rich in symbolic images, and reveals the subtle layers of human psyche. More details in this article tasbekh contents.

Key words: lyrical genres, prayer beads, triplets, poetic skill, artistic depiction, haiku, artistic analysis.

Аннотация. В современной узбекской литературе творчество поэтессы Фариды Афруз, отличающейся своеобразным поэтическим мышлением и новыми формальными исканиями, привлекает внимание многих литературоведов. Его триады, называемые “тасбекх” оцениваются как новое художественное явление в национальной поэзии не только по форме, но и по содержанию. Чётки имеют большое значение, потому что они выражают большой философский смысл в коротком объёме, богаты символическими образами и раскрывают тонкие слои человеческой психики. В данной статье подробно содержание чётков.

Ключевые слова: лирические жанры, четки, тройка, поэтическое мастерство, художественное изображение, хайку, художественный анализ.

O‘zbek she‘riyatida oratorlik sifatleri bilan ajralib turuvchi ijodkorlardan biri Farida Afro‘zdir. Mumtoz adabiyotimizdagi musallaslarining zamonlar osha zamonaviylashgan, yangilangan va yetuklashgan shakli o‘laroq paydo bo‘lgan bu janrga shoira “tasbeh” deb nom beradi. Farida Afro‘z tasbehtarleri uch misradan tashkil topgan bo‘lib, ular mazmunan mustaqil, lekin umumiy ruhiy-ijodiy g‘oya bilan o‘zaro bog‘langan. Tasbeh so‘zining o‘zi zikr, tafakkur va ruhiy poklanishni anglatadi. Shu sababli shoira bu shakl orqali insonning ichki dunyosini, tafakkur jarayonini va ma‘naviy izlanishlarini badiiy ifodalashga intiladi. Kichik hajm tasvirni ixcham qiladi, lekin shu bilan birga

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

undagi ma’no qatlamlari o‘quvchini mushohadaga chorlaydi, inson beixtiyor o‘zi bilan yolg‘iz qolib, ruhiyat olamiga, qalb olamiga nazar tashlay boshlaydi. Yapon haykulari tasbeh janriga ilhom sarchashmasi bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa-da, g‘oyaviy-badiiy jihatdan bir-biridan tubdan farq qiladi. Haykular insonning tabiatni anglash va qadrlash, tabiatga bo‘lgan mubbati va hurmatining uch misralik madhiyasi bo‘lsa, tasbehlar esa chin ma’noda sharq ayollariga xos donishmandlik, sevgi, ibo, o‘zlikni anglash, Haqni tanish va tanitish kabi mavzularni yorititshi bilan farqlidir. Tasbehlarda insonning yuziga, shuningdek qalbiga ko‘zgu tutilarkan, inson o‘-o‘zini tahrir qiladi, ammo nasihatgo‘ylikdan yiroq holatda “o‘zing angla!” qabilida yo‘l tutiladi.

*Bog‘larning atrofiga,
Sim to‘siqlar qo‘yildi...
Kirolmadi savoblar...*

Tasbeh-4(76-tasbeh)

Ushbu tasbehda ijodkor o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan ochiqqo‘llik, savobkashlik fazilati asrlar o‘tib, yo‘qolib borayotganligi; yaxshilik qilish, kimgadir boridan berib, yo‘qotmagan xalq - endi o‘zida serob bo‘lgan ne‘matlarni ham qizg‘anib, savobdan bebahra qolayotganini ustalik bilan nasihatsiz ifodalay oladi.

Farida Afro‘z tasbehlari nafaqat shakliy o‘ziga xoslik, shuningdek shakl va mazmun mutanosibliigi muhim rol tutadi. O‘ta siqiq, ixcham shaklda juda chuqur va teran ma’no o‘z ifodasini topadi. Tasbehning uchlik shakli ulkan bir vujudning libosidir. Usto adabiyotshunos olimlar Hotam Umurov, Azmiddin Nosirovning quyidagi fikrlari o‘rinlidir: “...Bu qonuniyatga tayansak, shakl badiiy asarning qobig‘idir, u ham eng kichik zarralarigacha yaratilishini nazarda tutsak, badiiy asarning go‘zal va betakror “libosi”dir, degan xulosa haqqoniydir”. Farida Afro‘z tasbehlarda ona yurtga muhabbat, vatan tuprog‘ining muqaddasligi, milliy qadriyatlarga sadoqat tuyg‘ularini kuylaydi. Shoira Vatan obrazini ko‘pincha tabiat manzaralari orqali berib, o‘quvchida iliq hissiyot uyg‘otadi.

*Bosgan yering changi ham doriga o‘xshar,
O, bunchalar shifosan,
Vatan tuprog‘i !*

Tasbeh-5(35-tasbeh)

Farida Afro‘z uchliklarining ayrim jihatlari yapon haykularini yodga soladi. Yapon haykularidagi inson va tabiat bir butunlikda, o‘zaro chambarchas bog‘liq holatda tasvirlangani kabi, tasbehlarda ham inson va uning tug‘ilgan maskani ko‘rinmas rishta bilan bog‘langanini juda sodda, shu bilan birga kuchli mahorat bilan tasvirlaydi.

*Tuproq yutar ekan chuvalchang,
O‘ylar: menman tuproqning joni,
Qanday shirin ona tuprog‘im!*

Tasbeh -1(6-tasbeh)

Ushbu tasbehda yurt, vatanparvarlik haqida bir og‘iz ham so‘z keltirilmaydi. Misralarda namoyishkorona vatanni ulug‘lash, unga mehrini ko‘z-ko‘z etish tuyg‘usi tasvirlanmaydi. Tabiatning

kichik bir bo‘lagi - chuvalchang orqali vatanni sevish, ona yurtning qadrlash tuyg‘usi ulug‘lanadi. Shoiraning mahorati shundaki, misralarning tub zamirida vatan koriga yarash haqida ham fikr yuritiladi. Oddiygina chuvalchang ham tabiatning ajralmas bo‘lagi: u tuproq bilan oziqlanadi va qayta ishlab tabiatga qaytaradi. Chuvalchang tuproqning yumshashiga, havo va suv aylanishini yaxshilashga xizmat qiladi. Kichik bir yaratilgan shu qadar xizmati bor ekan, jamiyatning gultoji bo‘lgan biz - odamzot vatan uchun nima qildik, yurtning nima koriga yaradik, kabi ritorik so‘roqlarning paydo bo‘lishiga misralar qatidagi botiniy mohiyat sabab bo‘ladi.

Farida Afro‘z she‘riyatida, shuningdek sevgi, sadoqat tuyg‘ulari ham ulug‘lanadi. Farida Afro‘z she‘riyatida sevgi faqat insoniy tuyg‘u emas, balki ruhiy kamolotga eltuvchi kuch sifatida talqin qilinadi. Tasbehlarda ko‘pincha qalb pokligi, sabr, sadoqat kabi tushunchalar ilohiy ma‘noda yoritiladi. Shoira zamonaviy insonning ruhiy iztiroblari, yolg‘izlik, umid va izlanish holatlarini chuqur psixologik ohangda tasvirlaydi. Uchlik shakli fikrni keskin va ta‘sirchan yetkazishga xizmat qiladi.

*Ishqda hamma narsa go‘zaldir,
Ishqda hamma narsa jozibador.
Hatto qotillik ham.*

Tasbeh-1

*Bu zohidlar bilsalar edi,
Bu porsolar tanisa koshki,
Xudodan keyin...Ayolni...*

Tasbeh-1(33-tasbeh)

Tasbehlarda hayotning o‘tkinchiligi, vaqt qadri, insonning o‘zligini anglash masalalari ko‘tariladi. Har bir uchlik go‘yo kichik hikmatga o‘xshaydi — o‘quvchini to‘xtab, o‘ylashga undaydi.

*Bugun tongda tirik uyg‘ondim,
Bir kosa suv ichdim...
Shukr...*

Tasbeh -1(37-tasbeh)

Shoira insonni ruhiy poklanishga, yaxshilikka intilishga chorlaydi. Tasbehlar ko‘pincha saboq beruvchi, lekin nasihatgo‘y ohangdan yiroq bo‘lgan badiiy umumlashmalarni o‘z ichiga oladi.

*Odam qanday yashashi kerak?
-Menday!- dedi U.
-Menday!-dedi Bu...*

Tasbeh-1(61-tasbeh)

Farida Afro‘z ramziy obrazlar, metafora va tazodlardan mohirona foydalanadi. Oddiy so‘zlar orqali chuqur ma‘no berish — uning uslubiga xos jihat. Tabiat unsurlari, yorug‘lik va zulmat, suv, shamol kabi timsollar inson ruhiy holatini ifodalashda faol qo‘llanadi. Ular obraz darajasiga ko‘tariladi.

*Yong‘oq chaqaman, deb
Tishini sindirdi -*

Nafs!

Tasbeh - 5(2-tasbeh)

Yuqoridagi tasbehta insonning nafs bilan kurashida ko‘pincha joni azob olishi va bunga faqat o‘zi aybdor ekanligini, bir marta anglash uchun ikki marta qoqilishini juda go‘zal ifodalanadi.

Farida Afro‘z tasbehlari zamonaviy o‘zbek she‘riyatida shakl va mazmun uyg‘unligining yorqin namunasi. Uchliklarning ixchamligi ulardagi falsafiy teranlikni yanada kuchaytiradi. Shoir Vatan, sevgi, inson qalbi va ma‘naviy o‘sish kabi abadiy mavzularni yangicha poetik talqin orqali berib, kitobxonni mushohadaga chorlaydi. Shu jihatdan tasbehlar nafaqat badiiy asar, balki ruhiy tafakkur maktabi sifatida ham qadrli. Ruhiy poklanish uchun tasbeh qaytarib, Allohni zikr etganimizdek, shoiraning tasbehlari qatidagi zalvorli ma‘no qatimi qalbni tozalaydi. Farida Afro‘z bejizga “Tanlangan asarlari”ning tasbehlardan iborat 2-jildini “O‘zimni sog‘inib” deya atamaydi. Turmush tashvishlari bilan ovora bo‘lib, yashash yodidan ko‘tarilgan, faqat mavjudlik bilangina chegaralangan, o‘zi va o‘zligini yo‘qotgan bugungi zamon kishisini asliga qaytaradi. She‘rdan faqat estetik zavq olish bilan chegaralanmasdan, kishidan zakovatni, hissiy va aqliy intellektni talab qiluvchi bu tasbehlari hali ko‘p qalblarni uyg‘onishga, uyg‘otishga xizmat qilsa, ajabmas.

Tonglar otganiga ming yillar bo‘ldi,

Quyosh ham million yil nurin sochadi...

Nega uyg‘onmaysiz, odamlar?!

Tasbeh-5(20-tasbeh)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Farida Afro‘z. Tasbeh. T. , “Sharq”, 2007.
2. Бутаева Фарида Афруз. Узимни согиниб. - 2-жилд Шарк, нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси. Тошкент, 2023.
Xulosa qilib aytganda, shaxs erkinligi va oila instituti o‘rtasidagi munosabatlar dialektik xarakterga ega bo‘lib, u doimiy o‘zgarish, moslashuv va muvozanat izlash jarayonidir. Erkinlik oilani zaiflashtiradigan omil bo‘lishi ham mumkin, lekin u to‘g‘ri yo‘naltirilsa, oila ichidagi ixtiyoriy mas’uliyat, ongli hamkorlik va kelishuv madaniyatini kuchaytiradi. Oila esa shaxs erkinligini cheklash uchun emas, uni ma’naviy mazmun bilan to‘ldirish, mas’uliyat va g‘amxo‘rlik bilan uyg‘unlashtirish uchun zarur institutdir. Zamonaviy jamiyatda eng maqbul yondashuv shaxsiy tanlov va oilaviy hamjihatlikni qarama-qarshi qo‘yish emas, balki ularni bir-birini boyitadigan, barkamol insonni tarbiyalaydigan va barqaror jamiyatni qo‘llab-quvvatlaydigan yagona tizim sifatida ko‘rishdan iborat. Shaxs erkinligi mas’uliyat bilan, oila barqarorligi esa hurmat va muloqot bilan mustahkamlanganda, dialektik ziddiyatlar yangilanish va taraqqiyot manbaiga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 2.1. Muxsiyeva A. , Sultonova S. Oilada farzand tarbiyasi davlat siyosatidagi ustivor muammo sifatida. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies*, 2022. – C. 346-349.
- 2.2. Karimov U. “The Role and Significance of Spiritual Values in Youth Education”. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*. – Fergana: Asian Research Consortium, 2022. – P. 181–183.
- 2.3. Jo‘rayev A. N. O‘zbekistonda millatlararo totuvlik g‘oyasi–jamiyatda tinch-totuvlik va barqarorlik omili. *Intellectual education technological solutions and innovative digital tools*, 2024. – P. 567-575.
- 2.4. Eshmurodov O. E. “Oilaviy munosabatlar barqarorlashuvida milliy qadriyatlarning ahamiyati”. – *Pedagogik mahorat*, 2023. – B. 220.

O‘SMIR O‘QUVCHILARDA KOMMUNIKATIV KOPOTENSIYANI SHAKILLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDOGOGIK ASOSLARI

Abdurahmanova Zuhra Ikromjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti Ijtimoiy ish yo‘nalish 1- bosqich magistranti

E-mail: Oqilovazuhra20@gmail.com

Ilmiy rahbar: Sevara Botirova Mamurovna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18693049>

Annatsiya: *Ushbu maqolao‘smir yoshdagi qizlardagi kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishning asosiy xususiyatlari, ularning ahamiyati haqida so‘z borad. Bundan tashqqa, ushbu masalada soha olimlarining fikr-mulohazalari kiritilgan. Maqolada keltirilgan fikr-mulohazalardan maktabta‘limida dars jarayonida foydalanish mumkin.*

Kalit so‘z: *kommunikativ kompetensiya, muloqot holati, empatiya, psixologik portret.*

Annotation: *This article discusses the main features of the devolepment of communicative skills in adolescent girls, their importance. In addition, the opinions of scholars in this field are included. The opinions presented in the article can be used in the teaching process in school edication.*

Key words: *communicative competence, communication situation, empathy, psychological portrait*

Аннотация: *В данной статье рассматривается коммуникативная компотентность девочек-подростков. В статье рассматриваются щсновние. Кроме того включены мнения ученых в этой области. Представленные в статье мнения могут быт исползованны впроцессе обучения в школном образовании.*

Ключевые слова: *коммуникативная компотентность коммуникативная ситуаця эмпатия психологическое портрет.*

Zamonaviy pedagogikaning ta‘lim va tarbiya jarayonini insonparvarlashtirishga yo‘naltirilganligi har bir bola shaxsini rivojlantirish, uning shaxsiy o‘zini o‘zi belgilashi uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish dolzarb muammolar qatoriga kiradi. Bu muammo ayniqsa o‘smir maktab o‘quvchilari uchun dolzarbdur. Chunki psixologik-pedogogik tadqiqotlarga ko‘rabu yoshdagi qizlarning shaxsiy rivojlanishi va o‘zini o‘zi belgilash jarayoni qiyin kichadi. Bu o‘smir yoshidagi bolalarning irodaviy hissiy sohasining yetarli rivojlanmaganligi, ijtimoiy munosabatlarni shakillantirishda orqada qolish, yosh idetifikatsiyasi va oilaviy tarbiya muammolari bilan bog‘liq. Zamonaviy jamiyada insonning kommunikativ imkoniyatini rivojlantirish juda dolzarb muammoga aylanmoqda. Insoniyatning mavjudligini kommunikativ faoliyatdan tashqarida ta‘savvur qilib bo‘lmaydi. Jinsi, yoshi, ma‘lumoti, ijtimoiy mavqei, hududiy va milliy mansubligi va inson shaxsini tavsiflovchi boshqa ko‘plab ma‘lumotlardan qat‘iy nazar, biz ma‘lumotlarni so‘raymiz saqlaymiz zatamiz.

Inson shaxs faoliyatining sub‘ekti sifatida shakillanar ekan, muloqot shaxs rivojlanishining eng muhim omiliga aylandi. M. Y. Demyanenko, K. A. Lazarenko kabi tdqiqotchilar nurqiy komponensiyada beshta asosiy koponentni ajratib o‘tadi.

- muloqot holati;
- nutqni yuboruvchi;
- nutqni qabul qiluvchi;
- nutqiy harakat amalga oshirish shartlari;
- nutqiy habar;[1. 68]

Shaxsning kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning asosiy mezonlaridan biri – bu inson o‘z pozitsiyasini sherigining pozitsiyasi va manfaatiga muvofiq baholashga qodir bo‘lgan aks ettirish. Inson suhbatdoshi bilan aloqa o‘rnatish, ularning xabarlarini taxlil qilish, ularga munosabat bildirishda verbal va noverbal aloqa vositalaridan mohirona foydalanish qobiliyatiga ega bo‘lish kerak. Shuning uchun ham o‘smir yoshida qo‘g‘il- qizlarning muloqotchanligini oshirish nutqiy kamchiliklarini bartaraf etish orqali kommunikativ kompetensiyani yaxshilash mumkin deb o‘ylaymiz. Pedagogika fani olimlari V. A. Kan-Klik va N. D. Nikandorov kommunikativ kompetensiyaning inson faoliyatining barcha turlarida mavjud bo‘lgan inson mavjudligining ajralmas qismi sifatida belgilab beradi. [2. 9] Bundan kelib chiqadiki bu kommunikativ harakatlarni amalga oshirish uchun ma‘lum ko‘nikma va qobiliyatlarga ega bo‘lish kerak. O‘quv jarayonida kommunikativ yondshuvdan foydalanishning afzalligi shundaki, kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish o‘quvchilarning ishtiyoqini oshirish va fanlararo aloqalarni o‘rnatishga yordam beradi. Shuningdek kognitiv faoliyatni oshirish ya‘ni diqqat, xotira, hayol, tasavvur, idrok kabi faoliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

O‘smirlik davrini bolalikdan kattalik davriga o‘tish deb atash mumkin. Biroq psixologik, sotsiologik, huquqiy, pedagogik adabiyotlarda bu yosh chegaralari ko‘pincha turlicha belgilanadi: 10-14 yosh, 14-18 yosh, 12-20 yosh va boshqalar. Bugungi kunda adabiyotga asoslanib o‘smirlik Yoshi chegaralari aniqlash mumkin ular taxminan 12 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan o‘rta sif bolalarini tashkil etadi. D. B. Elkoninning fikriga ko‘ra ushbu yoshda kattalik tuyg‘usi- bu angning yangi shakllanishi, bu orqali o‘smirlar o‘zlarining boshqa tengdoshlar yoki kattalari bilan taqqoslaydilar, o‘zlashtirish uchun namunalar topadilar, boshqa odamlar bilan munosabatlarini quradilar va o‘z faoliyatlarida o‘zlarini qayta tashkil etishlari mumkin bo‘ladi [3. 59]. O‘smirlik kommunikatsiyasining asosiy xususiyatlaridan yana biri- tengdoshlar bilan muloqotning yetakchi ahamiyat kasb etishidir. Bu davrda o‘smirlar ota-ona pedagoglarga nisbatan ko‘proq e‘tibor qaratiladi. Do‘slar bilan muloqot o‘smir uchun o‘zini tasdiqlash, qabul qilinganligini his qilish va ijtimoiy mavqeyini aniqlash vositasiga aylanadi. Jan Piaje o‘smirlar tafakkurida ob‘ektlardan aqliyaqliy operatsiyalarni mavhumlash qobiliyatini yetikligini ajtaib ko‘esatdi. **Piajeni ta’kidlashicha, o‘smirlar umumiy nazariyalarga formualarga va ularni nazariyashtirishga moyil bo‘ladilar** [4. 128].

Zmonaviy psixologiyaning ta’kidlashicha, o‘smirlar doimo rag‘batlantirishga muhto. Bundan tashqari, o‘smirlik kommunikatsiyasida o‘smir shaxsining ijtimoiylashuv va psixologik kamolotida muhim o‘rin tutadi. Ota onalar, pedagoglar va mutaxassislar tomonidan qo‘llab –quvvatlanadigan, ochiq va sog‘lom muloqot muhiti o‘smirlarning ijtimoiy moslashuvi va barkamol shaxs sifatida shakllanishini ta‘minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

1. Демяненко М Я Лазаренко К А. Кислая Общей методики инностранним языкам. 1976. -292-с
2. Кан-Калик В А НИКАНДРОВ Н. Д. Педогогическое творчество 1990-144-с
3. Элконин Д. Б Э -53 Избранние психологическое труды М. : Педагогика1989. - 560-с
4. Piage, J The Pschology of Intelligence. –London: roudledge and Kegan Paul 1951- p216.

O‘ZBEKISTON XALQ TA’LIMI TIZIMIDA XOTIN-QIZLARGA BERILAYOTGAN E’TIBOR (2017-2021-YILLARDA)

Safarov Suhrob Safarovich

Buxoro davlat unisversiteti 2-bosqich tayanch doktoranti

E-mail: s.s.safarov@buxdu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18704026>

Annotatsiya. *Mazkur maqola O‘zbekiston xalq ta’limi tizimida xotin-qizlarga berilayotgan e’tibor va gender tengligini ta’minlashga qaratilgan islohotlarni 2017-2021 yillar oralig‘ida o‘rganadi. Ushbu davrda davlat tomonidan xotin-qizlar ta’limi bo‘yicha bir qator yangi dasturlar va strategiyalar joriy etildi. Maqola, xotin-qizlarning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, ularni oliy ta’limga jalb qilish va kasb-hunar sohalarida malaka oshirish borasida amalga oshirilgan islohotlarni tahlil qiladi. Xotin-qizlarga ta’lim olishda qo‘yilgan cheklovlar va to‘siqlarni bartaraf etish hamda gender tengligini ta’minlash uchun davlatning olib borgan chora-tadbirlarini ko‘rib chiqadi. Shuningdek, maqolada O‘zbekiston hukumatining xotin-qizlarga ta’limda erishgan yutuqlari va bu yutuqlar jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga qo‘shgan hissasi ham tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston, xotin-qizlar, ta’lim, gender tenglik, islohotlar, oliy ta’lim, grantlar, kasb-hunar ta’limi, jamiyat rivoji, davlat siyosati.*

Аннотация. *Эта статья о народе Узбекистана Изучает внимание, уделяемое женщинам в системе образования, и реформы, направленные на обеспечение гендерного равенства в период с 2017 по 2021 год. В этот период государством был внедрен ряд новых программ и стратегий в области женского образования. В статье анализируются реформы, направленные на расширение доступа женщин к образованию, их вовлечение в высшее образование и повышение квалификации в профессиональных областях. Рассматривает принятые государством меры по устранению ограничений и барьеров в доступе к образованию для женщин и обеспечению гендерного равенства. В статье также анализируются достижения правительства Узбекистана в области образования для женщин и вклад этих достижений в социальное и экономическое развитие общества.*

Ключевые слова: *Узбекистан, женщины, образование, гендерное равенство, реформы, высшее образование, гранты, профессиональное образование, развитие общества, государственная политика.*

Abstract. *This article is about the people of Uzbekistan will study the attention paid to women and reforms aimed at ensuring gender equality in the education system in the period 2017-2021. During this period, the state introduced a number of new programs and strategies for women's education. The article analyzes the reforms being implemented to expand women's access to education, attract them to higher education, and improve their qualifications in vocational fields. Consider measures taken by the state to eliminate restrictions and barriers to women's access to education and ensure gender equality. The article also analyzes the achievements of the government of Uzbekistan in women's education and the contribution of these achievements to the social and economic development of society.*

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

Keywords: *Uzbekistan, women, education, gender equality, reforms, higher education, grants, vocational education, development of society, state policy.*

Kirish

O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlarga ta’lim sohasida ko‘rsatilayotgan e’tibor so‘nggi yillarda katta o‘zgarishlarga yuz tutdi. 2017-2021 yillar oralig‘ida mamlakatda gender tengligini ta’minlash, xotin-qizlarning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va ularga yanada ko‘proq e’tibor qaratish bo‘yicha bir qator islohotlar amalga oshirildi. Tadqiqotimizning ahamiyati shundaki, hukumatimiz 2017-2021 yillarda xotin-qizlar ta’limini rivojlantirish borasida qabul qilgan qarorlari va amalga oshirilgan islohotlar ijtimoiy adolatni ta’minlash va gender tengligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’limning tengligi va uning ijtimoiy ta’sirini chuqur o‘rganish, nafaqat xotin-qizlarning o‘zlari uchun, balki jamiyatning umumiy rivojlanishi uchun ham dolzarb masala hisoblanadi. Quyida bu boradagi ilmiy ishlarni ko‘rib chiqamiz. Quyidagi jadvalga qarang.

1-jadval

Gender tenglik bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar

<i>T/r</i>	<i>Muallif/Ilmiy ish</i>	<i>Tadqiqot yo‘nalishi</i>	<i>Asosiy natijalar/kontributsiya</i>
1	<i>Sh. Qudratova va H. Djumatova</i>	<i>Ta’limda gender tenglik masalalari</i>	<i>Ta’lim tizimida gender farqlarini tahlil qilgan ilmiy maqola (Innovative Academy)</i>
2	<i>D. Abduraimova va B. Turdiyev</i>	<i>Gender tenglik kontseptsiyasi</i>	<i>Gender tenglik siyosati va amaliyot tahlili (ResearchGate)</i>
3	<i>Nx Mamadieva</i>	<i>Xotin-qizlar oliy ta’limdagi faolligi</i>	<i>Oliy ta’limda gender faolligi statistikasi (КиберЛенинка)</i>
4	<i>N. Kasimova</i>	<i>Ta’lim va siyosatshunoslik</i>	<i>Oliy ta’lim islohotlari tadqiqoti (Википедия)</i>
5	<i>O. Abdugaffarova</i>	<i>Ayol yetakchilar</i>	<i>Gender stereotiplari va yetakchilik (InLibrary)</i>

Globalashayotgan zamonda gender tenglikka bo‘lgan e’tibor yanada dolzablikni kasb etadi. Shundan kelib chiqqa holda biz quyida xalq ta’lim tizimidagi xotin-qizlarga berilayotgan e’tibor to‘g‘risidagi fikrlarimizni keltirib o‘tamiz.

Asosiy qism

Xotin-qizlarning ta’limga kirish imkoniyatlari va ta’lim olishdagi tenglik, jamiyatning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Xotin-qizlarga ta’lim berish, ularning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va siyosiy hayotdagi ishtirokini ham oshiradi. Ta’lim olgan xotin-qizlar o‘z oilalarini qo‘llab-quvvatlash va jamiyatda faol ishtirok etishda ko‘proq imkoniyatlarga ega bo‘ladilar. Hukumatimiz tomonidan 2017-2021 yillar davomida xotin-qizlarni ta’lim tizimiga jalb qilish va ularning imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha bir qancha muhim dasturlarni amalga oshirildi. Xususan, O‘zbekistonning ta’lim siyosatida xotin-qizlarga alohida e’tibor berish uchun bir qator strategik yo‘nalishlar belgilandi. Bu yillarda birinchi navbatda xotin-qizlar uchun oliy ta’limda grantlar va

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

stipendiyalar soni oshirildi. Misol uchun, 2017 yilda davlat tomonidan xotin-qizlar uchun grantlar ajratishning tartibi soddalashtirildi, bu esa ularga oliy ta’lim olish imkoniyatini kengaytirdi. Bundan tashqari, xotin-qizlarni texnik va kasb-hunar ta’limiga jalb qilish bo’yicha maxsus dasturlar ishlab chiqildi. 2019 yilda, xotin-qizlarga kasb-hunar o’rgatish markazlari tashkil etildi, bu esa ularga ish bilan ta’minlanish imkoniyatlarini oshirdi. Bu kabi yangi dasturlar xotin-qizlar uchun moliyaviy qo’llab-quvvatlash, o’quv yurtlarida amaliyotlar o’tkazish va ta’limning sifatini oshirishga xizmat qiladi. O‘zbekistonda xotin-qizlar va erkaklar o’rtasidagi ta’lim olishdagi tenglikni ta’minlash bo’yicha yirik qadamlar qo’yildi. Xotin-qizlar uchun ta’limda ishtirok etishning barcha shakllari qo’llab-quvvatlanmoqda. Chunonchi, Oliy ta’lim muassasalariga qabul qilishda xotin-qizlar uchun kvotalar ajratish, shuningdek, ularning ijtimoiy va iqtisodiy holatini yaxshilashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, xotin-qizlarni biznes va tadbirkorlikka jalb qilish uchun maxsus dasturlar, grandlar va treninglar tashkil etildi. Bu tadbirkorlik sohasida xotin-qizlarning ishtirokini oshirishga yordam berdi.

Xotin-qizlarning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va ularga ta’lim tizimida yanada ko’proq imkoniyatlar yaratish uchun davlat tomonidan bir qator strategik chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Masalan, xotin-qizlarni xususiy va davlat sektorlarida faoliyat yuritish uchun ta’lim va malaka oshirish dasturlariga jalb etish, ularni hamkasblar bilan teng ravishda biznes va ijtimoiy faoliyatga kirishish imkoniyatini yaratish kabi tadbirlar amalga oshirildi.

Xulosa

2017-2021 yillar davomida O‘zbekiston hukumatining xotin-qizlarga ta’lim sohasida amalga oshirgan islohotlari ijtimoiy adolatni ta’minlash, gender tengligini oshirish va xotin-qizlarning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega bo’ldi. Xotin-qizlar uchun ta’limda erishilgan yutuqlar, nafaqat ular uchun, balki jamiyatning rivojlanishi uchun ham katta ahamiyatga ega bo’ldi.

O‘zbekistonning xotin-qizlarga ta’lim berishda erishgan yutuqlari, ularning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga qo’shgan hissasini yanada kuchaytirish uchun kelgusida davom ettirilishi kerak bo’lgan ishlar mavjud. O‘zbekiston ta’lim tizimida gender tengligini ta’minlash va xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish borasidagi islohotlar davom ettirilishi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta’lim tizimi bo’yicha qarori (2017).
2. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yildagi ta’lim tizimida islohotlar haqidagi rasmiy statistik ma’lumotlar.
3. Maqsudaeva, M. (2020). “Xotin-qizlarni ta’limga jalb qilishning zamonaviy usullari”. *O‘zbek ta’limi*.
4. Rahmatullayeva, A. (2019). “Ayollar ta’limi va jamiyatdagi roli: O‘zbekiston misolida”. *Jurnal of Women's Education*.
5. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi (2021). “Xotin-qizlarning ta’lim tizimidagi roli va kelajak istiqbollari”. *O‘zbekiston Ta’limi Yili*.

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

6. World Bank (2020). “Gender Equality and Education in Uzbekistan”. *World Bank Report*.
7. UN Women (2020). “Gender and Education in Central Asia”. *United Nations Report*.
8. Hujjatlar va qarorlar bo‘yicha O‘zbekiston Ta’lim siyosati, 2021.
9. Khabibullaeva, Z. (2021). “Xotin-qizlar va ta’limda gender tengligi”. *Gender Studies Journal*.

PROSPECTS FOR FINANCING INVESTMENT ACTIVITIES AT THE EXPENSE OF THE ATTRACTED FUNDS

Amonova Dilafruz O‘tkurovna

3rd year PhD student,

Department of Valuation and Investments,

Tashkent State University of Economics

E-mail: amonovadilafruz4@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18704067>

Abstract. *The article analyzes theoretical data on sources and methods of financing investment activities, in particular, the funds involved in investment projects, namely financing at the expense of securities, and the advantages and disadvantages of this.*

Annotatsiya. *Maqolada investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari va usullariga oid nazariy ma’lumotlar, xususan investitsiya loyihalarini jalb qilingan mablag`lar ya`ni qimmatli qog`ozlar hisobidan moliyalashtirish, hamda buning afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilingan.*

Аннотация. *В статье проанализированы теоретические данные об источниках и способах финансирования инвестиционной деятельности, в частности о финансировании инвестиционных проектов за счет привлеченных средств, то есть ценных бумаг, а также о преимуществах и недостатках этого.*

Keywords: *investment project, sources of financing investment projects, attracted funds, equity.*

Relevance of the topic. At present, financing investment projects through various sources across different sectors of the economy has become a pressing issue. The proper selection of financing sources for investment activities constitutes an important concern for economic entities. In this regard, a number of measures are being implemented in both developed and developing countries, including Uzbekistan.

As evidence of the above, one may refer to Goal 49 of the “Uzbekistan–2030” Strategy — “Further increasing the investment attractiveness of the country and accelerating the development of the securities market. ” Within this objective, several tasks are defined, including increasing the volume of freely traded securities to USD 8 billion; doubling the volume of portfolio investments through the establishment of mutual and venture funds; offering shares of 40 state-owned enterprises through the “People’s IPO”; and introducing mechanisms to encourage public participation in IPOs. These priorities determine the relevance of the research topic[1].

Analysis and Results

Under market economy conditions, investment projects are financed through the following sources:

1. The investor’s own financial resources and internal reserves (profit, depreciation deductions, special reserve funds);
2. Borrowed funds of the investor (bank loans, budget loans, bond liabilities);

3. Attracted financial resources (sale of shares, contributions of labor collectives, and contributions from legal entities and individuals);
4. Budgetary investment allocations (funds from local, state, and extra-budgetary funds);
5. Foreign investments (foreign loans, foreign direct investment, and joint ventures);
6. Leasing and seleng (a type of financing involving the lease of equipment, vehicles, buildings, and structures, or the granting of rights to use intellectual property) [2].

Each of these forms and sources of financing has its own socio-political and economic characteristics. Therefore, the most appropriate form and method of financing investment projects is selected based on a comprehensive analysis.

If an enterprise lacks sufficient internal funds to finance its investment activities, it may raise funds through the issuance of securities or by obtaining bank loans. One of the most widespread and primary sources of financing investment projects is the issuance of securities.

The issuance of securities reduces the share of centralized funds and bank loans in investment financing. Among securities purchased by individuals and legal entities, the most common type is shares issued by joint-stock companies.

A share is a document certifying the shareholder’s contribution to the company’s property. Income from shares is received in the form of dividends. The issuance of shares enables the attraction of necessary financial resources. Two types of shares are issued in the formation of share capital: ordinary and preferred shares.

Ordinary shares grant the right to participate in the management of a joint-stock company (participation in general meetings of shareholders, the right to receive dividends, and the right to receive a portion of the company’s assets equivalent to the value of shares in case of liquidation). All ordinary shares have the same nominal value.

Preferred shares do not grant voting rights; however, their advantage lies in providing shareholders with a predetermined and fixed rate of return. The amount of income does not depend on the company’s performance.

To promote the financing of investment activities through attracted funds, several incentives have been introduced for enterprises. In particular, the income (profit) received by a legal entity shareholder in the form of additional shares or an increase in the nominal value of shares, resulting from the allocation of retained earnings from previous years to increase the authorized capital, is not subject to taxation[3].

The structure of the investor’s attracted financial resources is presented in Figure 1.




Figure 1. The financial resources of the investor involved[3].

The use of attracted financial resources has both advantages and disadvantages, as illustrated in Figure 2.




Figure 2. Advantages and disadvantages of debt and attracted funds[4].

The advantages and disadvantages described above should be carefully analyzed by investors to ensure appropriate decision-making.

Conclusions and Recommendations

In conclusion, investment projects are primarily financed through six main sources, and the choice of financing source depends on the selected method of investment financing. Based on the analysis conducted, the theoretical foundations of financing investment projects through attracted funds have been examined, revealing that investors face both advantages and disadvantages when selecting this approach.

The development of this sector in Uzbekistan contributes to the diversification of investment project financing and reduces associated risks. Therefore, it is advisable to develop mechanisms that support and promote this financing method.

References

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-158 dated September 11, 2023, “On the Uzbekistan–2030 Strategy. ”

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

2. Nasirov E. I. , Shadiyeva D. X. , Asamkhodjayeva Sh. Sh. , Yunusova S. B. Investment and Innovations. Textbook. Tashkent: Iqtisod-Moliya, 2022.
3. Zoyirov L. S. , Asamkhodjayeva Sh. Sh. , Yunusova S. B. Investment. Textbook. Tashkent: Iqtisod-Moliya, 2019.
4. Prepared by the author.

ALISHER NAVOIY VA TOMAS HARDI ASARLARIDA AYOLNING FOJEAVIY TAQDIRI MASALASI

Hamzayeva Zebo Murodjon qizi

Rus tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

E-mail: z.m.hamzayeva@ipu-edu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18704121>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Alisher Navoiy asarlarida ayol obrazining fojeaviy taqdiri masalasi badiiy-estetik va ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Shoir ijodida ayol obrazi sevgi va go‘zallik timsoli bilangina cheklanmay, balki murakkab ijtimoiy munosabatlar, jamiyat bosimi va axloqiy qarama-qarshiliklar fonida tasvirlanadi. Tadqiqot davomida Navoiy dostonlarida ayol fojeasining asosiy sabablari sifatida patriarchal ijtimoiy muhit, ayol tanlovining cheklanishi va ma’naviy qadriyatlarining jamiyat tomonidan inkor etilishi ko‘rsatib beriladi. Maqolada fojea ayolning shaxsiy aybi emas, balki ijtimoiy adolatsizlik oqibati ekanligi asoslanadi. Tadqiqot natijalari Navoiy estetik qarashlarining zamonaviy adabiyotdagi ayol taqdiri muammolarini o‘rganishda muhim nazariy manba bo‘lishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, ayol obrazi, fojeaviy taqdir, ijtimoiy muhit, muhabbat, ma’naviy poklik.

Abstract. This article analyzes the issue of the tragic fate of the female image in the works of Alisher Navoi from artistic-aesthetic and socio-philosophical perspectives. In the poet’s oeuvre, the image of woman is not limited to a symbol of love and beauty; rather, it is depicted against the backdrop of complex social relations, societal pressure, and moral contradictions. The study demonstrates that the primary causes of female tragedy in Navoi’s epics include the patriarchal social environment, the restriction of women’s choices, and society’s denial of spiritual values. The article argues that tragedy is not the result of a woman’s personal fault, but a consequence of social injustice. The findings show that Navoi’s aesthetic views constitute an important theoretical source for studying contemporary literary issues related to women’s fate.

Keywords: Alisher Navoi, female image, tragic fate, social environment, love, spiritual purity.

Kirish

Alisher Navoiy Sharq mumtoz adabiyotida inson shaxsi, uning ma’naviy kamoloti va jamiyat bilan munosabatini yoritgan buyuk mutafakkir sifatida tanilgan. Shoir ijodida ayol obrazi alohida o‘rin egallab, u yuksak axloqiy fazilatlar, sabr-bardosh va sadoqat timsoli sifatida tasvirlanadi. Shu bilan birga, Navoiy asarlarida ayol taqdiri ko‘pincha fojeaviy yo‘sinda kechadi. Bu fojea ayolning shaxsiy kamchiligi yoki gunohi bilan emas, balki jamiyatning adolatsiz munosabati, urf-odatlar va ijtimoiy cheklovlar bilan izohlanadi. Mazkur maqolada Navoiy asarlarida ayolning fojeaviy taqdiri masalasi ana shu jihatlar asosida tahlil qilinadi.

Asosiy qism

1. Navoiy va Thomas Hardy ijodida ayol obrazining badiiy talqini

Alisher Navoiy va Thomas Hardy ijodida ayol obrazi adabiy-estetik tafakkurning markaziy masalalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Har ikki adib turli davr va madaniy muhitda yashagan bo‘lsa-da, ularning asarlarida ayol obrazi jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizlik, axloqiy ziddiyatlar va insoniy fojealarning ifodachisi sifatida talqin qilinadi.

Alisher Navoiy ijodida ayol obrazi ko‘pincha ma‘naviy poklik, sadoqat, muhabbat va go‘zallik timsoli sifatida tasvirlanadi. Shoir dostonlarida ayol nafaqat oshiq yoki sevikli obrazida, balki chuqur ichki dunyoga ega, sabr-toqatli va ijtimoiy bosim ostida yashovchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Navoiy ayol fojeasini ko‘pincha patriarchal ijtimoiy muhit, taqdirga bo‘ysunish va jamiyatning qat‘iy axloqiy me‘yorlari bilan bog‘laydi. Uning asarlarida ayolning iztirobi shaxsiy aybdan emas, balki adolatsiz ijtimoiy tuzum natijasi sifatida talqin qilinadi.

Thomas Hardy ijodida esa ayol obrazi realizm va naturalizm ruhida, yanada keskin ijtimoiy muammolar fonida ochib beriladi. Hardy qahramon ayollari — Tess, Sue Bridehead kabi obrazlar — jamiyatning ikkiyuzlamachi axloqi, diniy va ijtimoiy bosimlar qurboni sifatida tasvirlanadi. Hardy ayol taqdiridagi fojeani shaxs va jamiyat o‘rtasidagi keskin ziddiyat orqali ko‘rsatadi hamda ayol erkinligi va tanlov huquqining cheklanishini tanqid qiladi.

Navoiy va Hardy ijodini qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, har ikki adib ayol obrazini estetik ideal darajasiga ko‘targan holda, uni ijtimoiy muammolarni ochib beruvchi markaziy badiiy vosita sifatida qo‘llagan. Ularning asarlarida ayol fojeasi zamon va makon bilan cheklanmagan umuminsiy muammo sifatida talqin qilinadi.

Navoiy ayol obrazini yuksak ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar asosida yaratadi. “Xamsa” dostonlarida ayol qahramonlar voqealar rivojida muhim o‘rin tutib, faqatgina passiv obraz sifatida emas, balki mustaqil fikr va tuyg‘ularga ega shaxs sifatida gavdalanadi. Xususan, Shirin va Layli obrazlari aql, sabr, muhabbatga sadoqat va ma‘naviy tozalik timsoli sifatida tasvirlanadi. Shoir ayolning ichki dunyosini chuqur ochib berib, uning ruhiy kechinmalarini badiiy jihatdan yuksak darajada ifodalaydi.

2. Ayol fojeasining ijtimoiy omillari

Navoiy asarlarida ayolning fojeaviy taqdiri bevosita ijtimoiy muhit bilan bog‘liq holda tasvirlanadi. Patriarchal jamiyat sharoitida ayolning shaxsiy tanlovi, muhabbati va irodasi ko‘pincha cheklanadi. “Layli va Majnun” dostonida Laylining Majnunga bo‘lgan samimiy muhabbati jamiyat tomonidan qabul qilinmaydi va u majburan boshqa shaxsga unashtiriladi. Natijada ayol ruhiy iztirobga duch kelib, fojeaviy taqdirga mahkum bo‘ladi. Bu holatda fojea Laylining shaxsiy aybi emas, balki jamiyatning ayol ruhiyatini anglay olmasligi natijasidir. Alisher Navoiy va Thomas Hardy ijodida ayol fojeasi, avvalo, ijtimoiy omillar bilan bevosita bog‘liq holda tasvirlanadi. Har ikki adib ayol taqdiridagi iztirob va fojeani individual xarakter nuqsonlari bilan emas, balki jamiyat tuzilishi, ijtimoiy munosabatlar va hukmron axloqiy qarashlar natijasi sifatida talqin qiladi.

Alisher Navoiy asarlarida ayol fojeasining asosiy ijtimoiy omillaridan biri patriarchal ijtimoiy muhitdir. Ayol jamiyatda erkakka bo‘ysunuvchi, tanlov huquqi cheklangan shaxs sifatida tasvirlanadi. Nikoh masalasida majburlash, ayol his-tuyg‘ularining inkor etilishi va muhabbatning ijtimoiy me‘yorlarga qurbon qilinishi Navoiy dostonlarida ayol fojiasini yuzaga keltiruvchi muhim omillardir. Bundan tashqari, jamiyatda hukmron bo‘lgan soxta axloq va rasmiy diniy qarashlar ayolning

ma’naviy pokligini qadrlamasdan, uni ijtimoiy ayblash vositasiga aylantiradi. Natijada ayol fojeasi taqdiri hodisa emas, balki ijtimoiy adolatsizlik mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi.

Thomas Hardy ijodida ayol fojeasining ijtimoiy ildizlari yanada keskin va ochiq tarzda tasvirlanadi. Viktorian davr jamiyatida ayolning axloqiy obro‘si mutlaq me’yor sifatida qaralib, eng kichik chetlanish ham ayolning jamiyatdan chetlashtirilishiga olib keladi. Tess of the d’Urbervilles va Jude the Obscure asarlarida ayol jamiyat tomonidan belgilangan axloqiy normalar, diniy dogmalar va sinfiy tengsizlik qurboniga aylanadi. Hardy ayolning ijtimoiy mavqei pastligi, iqtisodiy qaramligi va huquqiy himoyasizligi uning fojeaviy taqdirini muqarrar qilganini ko‘rsatadi.

Qiyosiy jihatdan qaralganda, Navoiy va Hardy ijodida ayol fojeasi turli tarixiy va madaniy sharoitlarda shakllangan bo‘lsa-da, ularni birlashtiruvchi jihat — jamiyatning ayol shaxsiyatiga nisbatan adolatsiz munosabatidir. Har ikki adib ayol fojeasini ijtimoiy muammo sifatida yoritib, badiiy asarlar orqali jamiyatni axloqiy va insonparvarlik mezonlari asosida qayta ko‘rib chiqishga chorlaydi.

3. Muhabbat va fojea munosabati

Navoiy ijodida muhabbat inson ruhini poklovchi va sinovdan o‘tkazuvchi kuch sifatida talqin qilinadi. Ayol qahramonlar muhabbat yo‘lida jiddiy sinovlarga duch keladi. Muhabbatning jamiyat tomonidan inkor etilishi fojeaga sabab bo‘ladi, biroq bu fojea ayolning ma’naviy qadrini pasaytirmaydi. Aksincha, ayolning sadoqati va axloqiy pokligi fojea fonida yanada yuksak darajada namoyon bo‘ladi. Alisher Navoiy va Thomas Hardy ijodida muhabbat va fojea o‘zaro uzviy bog‘liq badiiy hodisa sifatida talqin qilinadi. Har ikki adib asarlarida muhabbat insonni ma’naviy yuksaltiruvchi, poklovchi kuch bo‘lishi bilan birga, adolatsiz ijtimoiy muhit sharoitida fojeaviy oqibatlariga olib keluvchi omil sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Alisher Navoiy ijodida muhabbat ilohiy va ma’naviy mohiyat kasb etadi. Shoir dostonlarida muhabbat nafaqat ikki shaxs o‘rtasidagi tuyg‘u, balki insonni komillikka yetaklovchi yo‘l sifatida tasvirlanadi. Biroq bu muhabbat ko‘pincha ijtimoiy cheklovlar, urf-odatlar va majburiy nikohlar tufayli fojeaga aylanadi. Navoiy ayol obrazlari muhabbat yo‘lida sadoqat va sabr timsoli bo‘lsa-da, jamiyat ularning his-tuyg‘ularini tan olmaydi. Natijada muhabbat ayol uchun baxt manbai emas, balki iztirob va fidoiylilik orqali namoyon bo‘ladigan fojeaviy tajribaga aylanadi.

Thomas Hardy ijodida muhabbat ko‘proq realistlik va ijtimoiy ziddiyatlar bilan uyg‘un holda tasvirlanadi. Hardy qahramonlari uchun muhabbat jamiyat me’yorlariga zid kelgan zahoti fojeaga olib boruvchi kuchga aylanadi. Tessning muhabbati uning axloqiy jihatdan ayblanishiga, Sue Brideheadning sevgisi esa diniy va ijtimoiy bosim ostida sindirilishiga sabab bo‘ladi. Hardy muhabbatni shaxsiy tanlov sifatida himoya qilsa-da, uni ijtimoiy tizim tomonidan jazolanadigan hodisa sifatida ko‘rsatadi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Navoiy va Hardy ijodida muhabbat fojeaning sababi emas, balki uning ochib beruvchi vositasidir. Fojea muhabbatning o‘zidan emas, balki jamiyatning bu tuyg‘uga nisbatan adolatsiz munosabatidan kelib chiqadi. Har ikki adib muhabbat va fojea munosabati orqali ayol taqdirining murakkabligini, uning ijtimoiy va ma’naviy kurashini chuqur badiiy talqin etadi.

4. Fojea va ayolning ma’naviy pokligi

Alisher Navoiy va Thomas Hardy asarlarida ayol fojeasining asosiy jihatlaridan biri uning ma’naviy pokligi va ichki poklik bilan bog‘liqligidir. Har ikki adib ayol obrazini tashqi ijtimoiy

cheklovlar va bosimlarga qaramay, ichki dunyosi pok, sadoqatli va ruhiy jihatdan yuksak shaxs sifatida tasvirlaydi. Navoiy ijodida ayolning ma’naviy pokligi uning sabr-toqati, sadoqati, muhabbatga bo‘lgan sof tuyg‘ulari va odob-axloq me’yorlariga rioya qilishida namoyon bo‘ladi. Ayol fojeasi ko‘pincha jamiyatning bu poklikni qadrlamasligi, patriarchal tizim va ijtimoiy cheklovlar tufayli yuzaga keladi. Shu nuqtai nazardan, Navoiy ayol fojeasini shaxsiy aybdan emas, balki ijtimoiy adolatsizlik va urf-odatlar ziddiyatidan kelib chiqadigan hodisa sifatida talqin qiladi.

Thomas Hardy ijodida esa ayolning ma’naviy pokligi uning ijtimoiy qiyinchiliklarga, axloqiy hukmlarga va iqtisodiy qaramlikka qaramay, o‘z prinsiplariga sodiq qolishida ko‘rinadi. Tess va Sue kabi qahramonlar Hardy tomonidan nafaqat jamiyat qurboni sifatida, balki ruhiy poklik va shaxsiy axloqiy barqarorlik timsoli sifatida tasvirlanadi. Hardy ayol fojeasini uning ichki pokligi bilan bog‘lab, jamiyatning ikkiyuzlamachiligi va adolatsizligini tanqid qiladi. Shunday qilib, Navoiy va Hardy ijodida ayol fojeasi va ma’naviy poklik bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalar sifatida namoyon bo‘ladi. Ayolning ichki pokligi uning tashqi ijtimoiy adolatsizlik va qiyinchiliklarga qarshi bardosh berishining asosiy omili bo‘lib, fojea esa shu bardoshlilik va jamiyatning adolatsizligi natijasida yuzaga keladi.

Navoiy estetik qarashlarida fojea jazolash vositasi emas, balki insoniy sinov sifatida talqin qilinadi. Ayol qahramonlar og‘ir taqdirga duch kelsalar-da, ularning axloqiy tozaligi shubha ostiga olinmaydi. Shoir ayolning ichki dunyosini jamiyat hukmidan ustun qo‘yib, insonparvarlik va adolat g‘oyalarini ilgari suradi. Shu orqali Navoiy ayol fojeasini ijtimoiy muammoning badiiy ifodasi sifatida ko‘rsatadi.

Xulosa

Alisher Navoiy va Thomas Hardy ijodini qiyosiy o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, har ikki adib asarlarida ayolning fojeaviy taqdiri shaxsiy kamchilik yoki axloqiy nuqsonlar bilan emas, balki ijtimoiy muhit, jamiyatning qat’iy me’yorlari va ayol erkinligining cheklanishi bilan chambarchas bog‘liq holda tasvirlanadi. Ularning badiiy talqinida ayol obrazi jamiyatdagi adolatsizlik va axloqiy ziddiyatlarning eng nozik va ta’sirchan ifodachisiga aylanadi. Navoiy ijodida ayol fojeasi asosan patriarchal tuzum, majburiy nikoh va ayol his-tuyg‘ularining inkor etilishi natijasida yuzaga keladi. Shoir muhabbatni yuksak ma’naviy qadriyat sifatida ulug‘lar ekan, jamiyatning ushbu pok tuyg‘uga nisbatan beparvo va zo‘ravon munosabatini keskin tanqid qiladi. Hardy asarlarida esa ayol fojeasi viktorian jamiyatning ikkiyuzlamachi axloqi, diniy dogmalar va ijtimoiy tengsizlik fonida yanada keskin va realistlik tarzda namoyon bo‘ladi.

Har ikki adib ijodida muhabbat fojeaning manbai emas, balki uning ijtimoiy ildizlarini ochib beruvchi vosita sifatida talqin qilinadi. Ayolning iztirobi muhabbat tufayli emas, balki jamiyat tomonidan belgilangan cheklovlar va adolatsiz hukmlar sababli yuzaga keladi. Shu jihatdan, Navoiy va Hardy asarlarida ayol taqdiri muammosi zamon va makon bilan chegaralanmagan umuminsiy va dolzarb masala sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur tahlil natijalari Navoiy va Hardy estetik qarashlarining bugungi adabiyotshunoslikda ayol obrazini ijtimoiy-falsafiy jihatdan talqin etishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilishini ko‘rsatadi. Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy asarlarida ayolning fojeaviy taqdiri masalasi chuqur ijtimoiy va falsafiy mazmunga ega. Shoir ayol fojeasini individual nuqson emas, balki adolatsiz ijtimoiy muhit oqibati sifatida talqin qiladi. Ayol obrazlari orqali ma’naviy poklik, sadoqat va

insonparvarlik g‘oyalari ilgari suriladi. Navoiy tomonidan yaratilgan bu badiiy-estetik qarashlar keyingi davr adabiyotida, jumladan, zamonaviy romanlarda ayol taqdiri muammosini o‘rganishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Navoiy, A. *Xamsa*. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2011. [1, 56]
2. Navoiy, A. *Layli va Majnun*. — Toshkent: Fan, 2010. [2, 77]
3. Navoiy, A. *Farhod va Shirin*. — Toshkent: O‘zbekiston, 2008. [3, 102]
4. Mallayev, N. *O‘zbek adabiyoti tarixi*. — Toshkent: O‘qituvchi, 1998. [4, 122]
5. Qizi, H. Z. M. (2024). WOMEN’S ROLES AND GENDER PORTRAYAL IN THOMAS HARDY’S WORKS. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 2(57), 344-347. [5, 2]
6. Хамзаева, З. (2025). Толкование женского образа в романе «Бону» с точки зрения декадентства: социальный кризис и противоречие ценностей. *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*, 3(2), 17-22. [6, 3]
7. Qizi, H. Z. M. (2025). TAQDIR, AXLOQ VA AYOL QISMATI: TESS OF THE D’URBERVILLES’VA’BONU’ROMANLARINING QIYOSIY TAHLILI. *Research Focus*, 4(Special Issue 1), 184-186. [7, 5]
8. HAMZAYEVA, Z. (2025). “TESS D’URBERVILLAR” VA “BONU” ROMANLARIDA SOF VA JAMIYATDA USTUVOR AXLOQIY TAMOYILLAR ZIDDIYATI. «*ACTA NUUZ*», 1(1. 4. 1), 332-333. [8, 2]

**РОЛЬ СОГДИЙЦЕВ В ИСТОРИКО-КУЛЬТУРНЫХ ПРОЦЕССАХ НА
ТЕРРИТОРИИ УЗБЕКИСТАНА**

Ваисова Нодирабегим Авазовна

PhD in History, доцент кафедры “Всемирной истории”

Национального Университета Узбекистана

им. Мирзо Улугбека Ташкент, Узбекистан

E-mail: vaisovanodirabegim86@gmail.com

+998933784939

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18704157>

***Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы роль согдийцев в формировании политической, экономической, культурной сфере на территории современного Узбекистана. Особое внимание уделяется археологическим находкам, письменным источникам и материальным памятникам, отражающим политическую, социальную и экономическую жизнь согдийцев. Анализируются культурные связи Согдианы с сопредельными регионами, роль этого государства в развитии Великого шёлкового пути, а также его вклад в мировую цивилизацию.*

***Ключевые слова:** Согдиана, Узбекистан, археология, Великий шёлковый путь, древние города, культура, торговля, цивилизация.*

***Abstract:** This article examines the role of the Sogdians in the formation of the political, economic, and cultural spheres on the territory of modern Uzbekistan. Particular attention is paid to archaeological finds, written sources, and material monuments reflecting the political, social, and economic life of the Sogdians. The study analyzes the cultural connections of Sogdiana with neighboring regions, the role of this state in the development of the Great Silk Road, as well as its contribution to world civilization.*

***Keywords:** Sogdiana, Uzbekistan, archaeology, the Great Silk Road, ancient cities, culture, trade, civilization.*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy O‘zbekiston hududida siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarining shakllanishida sug‘dliklarning o‘rni masalalari ko‘rib chiqiladi. Sug‘dliklarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotini aks ettiruvchi arxeologik topilmalar, yozma manbalar hamda moddiy yodgorliklarga alohida e‘tibor qaratiladi. Shuningdek, Sug‘dning qo‘shni mintaqalar bilan madaniy aloqalari, ushbu davlatning Buyuk Ipak yo‘li rivojidadagi o‘rni hamda jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:** Sug‘d, O‘zbekiston, arxeologiya, Buyuk Ipak yo‘li, qadimiy shaharlar, madaniyat, savdo, sivilizatsiya.*

Древняя Согдиана, является одной из крупных историко-культурных областей, расположенных между Амударьёй и Сырдарьёй. Она всегда оказывала сильное влияние на соседние государственные образования и играла весьма важную роль в их жизни. Историки древнего Востока называли эту страну «сердцем Центральной Азии». В центре этой историко-

культурной области располагался Самарканд- крупнейший политико-административный центр Согда, ядром которого являлся бассейн Зарафшана. Согдийская проблематика имеет решающее значение для понимания исторического процесса по всей Средней Азии, поскольку Согд - это центральная область, а в VI—VIII вв. и наиболее развитая часть этого обширного региона, в котором согдийцы были в наибольшей степени народом горожан. Древний Согд исторически делился на три части: Самаркандский Согд, расположенный в среднем и верхнем течении реки Зарафшана, Бухарский Согд, расположенный в нижнем её течении и Кашкадарьинский Согд, расположенный в долине реки Кашкадарья. О согдийском культурном преобладании на протяжении раннего средневековья говорится в ряде обобщающих работ. Экономическая и культурная деятельность согдийцев распространилась далеко за пределы собственно Согда, основными землями которого были территории по р. Зеравшан с центром в Самарканде. В более широком смысле слова в Согд включались и владения Кеш и Нахшеб в долине Кашка-Дарья. Наряду с Самаркандским Согдом источники упоминают Бухарский, который, видимо, зависел от Самаркандского в начале VII в. [1] Так, самой заметной общиной переселенцев в Западном Китае, были согдийцы чья родина находилась в Самарканде и окружающих его городах нынешнего Узбекистана. Их колонии сформировались практически в каждом китайском городе, где согдийские старосты- сабао надзирали над делами в местных общинах. Часть согдийских переселенцев представляли купцы: их персонажи появляются в литературных произведениях настолько часто, что возник навязчивый образ богатого купца. Согдийские купцы и на самом деле занимались ювелирным изделиями и драгоценными камнями, которые отличались двумя товарными преимуществами: они стоили дорого, а весили мало. Только вот факт существования такого стереотипа совсем не означает его соответствия действительности. Нету утверждения того, что торговля вдоль Шёлкового пути процветала настолько, что позволила обогатиться тысячам согдийцев, населявшим историческую столицу Чанань. Среди тысяч согдийцев поселившихся в китайских городах при династии Тан, купцы составляли меньшинство. [2] Историческая столица Чанань, в наши дни носящая названия Сиань, знаменита своими произведениями искусства Шёлкового пути. Самой богатой находкой следовало бы назвать клад деревни Хэцзя, в котором сохранилось больше сотни прекрасных золотых и серебряных сосудов, украшенных изображениями на китайские и западные сюжеты При их пристальном изучении многие из этих предметов оказываются местного изготовления стараниями либо согдийцев в изгнании, либо китайскими ремесленниками, перенявшими согдийские оформительские сюжеты. Бесспорным остаётся только лишь то, что драгоценные камни для их украшения ввозили из зарубежных стран: их не составляло труда перевозить по сухопутным тропам благодаря малому весу и размеру. Самаркандский Согд, являясь политическим и экономическим ядром Согда в целом, играет принципиально важную роль в понимании многих ключевых вопросов истории Среднеазиатского Междуречья. Значение Самарканда в истории культуры всего Согда неопределимо и определялось прежде всего его выгодным географическим расположением в центре Центральноазиатского материка. Археологические исследования, проведенные на территории Согда в середине и второй половине нашего столетия, создали солидную фактологическую основу для постановки и решения актуальных проблем истории Согда VII-

IV вв. до н. э. Прежде всего следует отметить вклад ученых в изучение истории материальной культуры Самаркандского согда эпохи раннего железа, а также южных и западных областей Согда указанного периода. В 722 году обстоятельства коренным образом переменялись, Летописец Ат-Табари сообщает о том, что согдийцы распались на две группы. Большая по численности группа в составе не меньше 5тыс. человек отправилась в Фергану, куда их не пустили, и арабские солдаты устроили им резню. Гораздо меньшая группа, быть может из сотни семей, осталась с Деваштичем и попыталась найти убежище за стенами крепости на горе Муг. [3]. В ходе завоевания арабами только купцы из той большой группы могли позволить себе заплатить выкуп и получить жизнь из рук захватчиков их территории. Главной заботой для покоренных арабами народов Средней Азии стали налоги. Многие согдийцы в результате бежали на тюркские территории или в Китай. Согдийские города-государства были поглощены могущественной империей халифов. Согдийцы сменили веру, а затем и язык, только отдельные элементы их культурной традиции унаследовала новая исламская цивилизация, утвердившаяся в Мавераннахре и Хорасане в конце VIII - IX вв.

Список литературы:

1. Распопова В. Д раннесредневековый согдийский город. Санкт –Петербург. 1993г.
2. Сохранилась эпитафия, посвящённая всего лишь одному купцу. Жун Синьцзян, Чжан Чжицин. CongSamaergandaoChangan- SuterenzaiZhongguodewenhua yishu [От Самарканда до Чанани: Культурные следы согдийцев в Китае]. Пекин: BeijingTushuguanChubanshe, 2004. С. 137
3. Зеймаль Е. В. Политическая история Среднеазиатского Междуречья (ThePoliticalHistoryofTransoxiana)// TheCambridgeHistoryofIran. Т. 3 TheSeleucidParthianandSasanianPeriods // Под ред. ЕсанаЯршатера (Ehsan Yarshater). Ч. 1. Нью-Йорк: Cambridge University Press, 1983. С 259-260.

LOKUS NAZORAT TUSHUNCHASINING NAZARIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Karimov Sherzod Abdurasulovich

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18704188>

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot Yangi O‘zbekistonda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida o‘quvchilarda ichki nazorat lokusi va muvaffaqiyat motivatsiyasini rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda shaxs omilining ta’lim jarayonidagi ahamiyati, xususan, o‘quvchilarning o‘z faoliyati natijalarini ichki yoki tashqi omillar bilan bog‘lash xususiyatlari yoritilgan. Nazorat lokusi tushunchasining mazmuni, uning shaxs xulq-atvori, o‘quv faoliyatiga munosabati va akademik muvaffaqiyat motivatsiyasi bilan o‘zaro aloqasi Julian J. Rotterning ijtimoiy ta’lim nazariyasi asosida ochib berilgan. Tadqiqotda ichki lokus nazoratining rivojlanganligi o‘quvchilarda mas’uliyat, mustaqil qaror qabul qilish, refleksiya va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim psixologik omil ekanligi asoslab beriladi. Shuningdek, ichki va tashqi nazorat lokusining psixologik imkoniyatlari va cheklovlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning ta’lim jarayonidagi amaliy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari o‘quvchilarning muvaffaqiyatga yo‘naltirilgan barqaror motivatsiyasini shakllantirish va ta’lim sifatini oshirishda muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: nazorat lokusi, ichki lokus, tashqi lokus, muvaffaqiyat motivatsiyasi, shaxsiy mas’uliyat, o‘quv faoliyati, ijtimoiy ta’lim nazariyasi, psixologik resurslar.

Аннотация. Данное исследование посвящено научно-теоретическому анализу психологических механизмов формирования внутреннего локуса контроля и мотивации достижения успеха у обучающихся в условиях модернизации системы образования в Новом Узбекистане. В работе раскрывается значимость личностного фактора в образовательном процессе, в частности особенности интерпретации учащимися причин своих успехов и неудач. Понятие локуса контроля и его влияние на поведение личности, учебную деятельность и академическую мотивацию рассматриваются в контексте теории социального научения Джулиана Дж. Роттера. Обосновывается, что развитый внутренний локус контроля способствует формированию у обучающихся ответственности, самостоятельности, способности к рефлексии и саморегуляции. Проведен сравнительный анализ внутреннего и внешнего локуса контроля, выявлены их психологические возможности и ограничения в образовательной практике. Результаты исследования имеют важное теоретическое и практическое значение для повышения качества образования и формирования устойчивой мотивации достижения успеха у обучающейся молодежи.

Ключевые слова: локус контроля, внутренний локус, внешний локус, мотивация достижения, личностная ответственность, учебная деятельность, теория социального научения, психологические ресурсы.

Abstract. This study is devoted to a scientific and theoretical analysis of the psychological mechanisms involved in developing an internal locus of control and achievement motivation among

students within the context of educational system modernization in New Uzbekistan. The research emphasizes the importance of personal factors in the learning process, particularly students’ interpretations of the causes of their academic success and failure. The concept of locus of control and its influence on behavior, learning attitudes, and academic motivation is examined based on Julian J. Rotter’s social learning theory. The study substantiates that a well-developed internal locus of control fosters responsibility, independent decision-making, self-reflection, and self-regulation skills in students. A comparative analysis of internal and external loci of control is conducted, highlighting their psychological potentials and limitations in educational practice. The findings provide a solid theoretical and practical foundation for enhancing educational quality and fostering stable achievement-oriented motivation among students.

Key words: *locus of control, internal locus, external locus, achievement motivation, personal responsibility, learning activity, social learning theory, psychological resources.*

Kirish

Yangi O‘zbekistonda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish, talaba-yoshlarning bilim salohiyati va intellektual imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlarni belgilab berdi. Xususan, yoshlar uchun ochiq va sifatli ta‘lim muhitini shakllantirish, ta‘limning barcha bosqichlarida chuqur va tizimli bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish, iqtidorli va iste‘dodli yoshlarni aniqlash, qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish bo‘yicha mustahkam huquqiy-me‘yoriy asoslar yaratildi. Mazkur ustuvor vazifalar ta‘lim jarayonida shaxs omilini, ayniqsa, o‘quvchining ichki imkoniyatlari va psixologik resurslarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratishni taqozo etadi. Mazkur mavzuning tadqiq etilishi nafaqat ilmiy-nazariy, balki amaliy jihatdan ham yuqori dolzarblikka ega. Chunki ichki nazorat lokusi va muvaffaqiyat motivatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar ta‘lim sifatini oshirish, yoshlarning akademik yutuqlarini barqarorlashtirish hamda ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta‘minlash uchun mustahkam psixologik asos yaratadi. Bundan tashqari, ushbu tadqiqotlar jamiyatda mas‘uliyatli, tashabbuskor va mustaqil fikrlovchi shaxslarni shakllantirish orqali umumiy psixologik salohiyatni yuksaltirish va ijtimoiy taraqqiyot jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Hozirgi kunda jahonda ta‘lim tizimining rivojlanishida o‘quvchining faqat bilim darajasi emas, balki uning shaxsiy faolligi, mas‘uliyat hissi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va muvaffaqiyatga yo‘naltirilgan motivatsiyasi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoda olib borilayotgan zamonaviy psixologik-pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ta‘lim jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan o‘quvchining o‘z hayotiy natijalarini qanday talqin qilishi, ya‘ni muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik sabablarini qayerdan izlashiga bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, shaxsiy mas‘uliyat va ichki nazoratga tayanuvchi psixologik omillarni o‘rganish bugungi kunda dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Psixologiyada bunday yondashuv “loqus nazorati” (inglizcha locus of control) tushunchasi orqali izohlanadi. Mazkur tushuncha shaxsning hayotida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalar va erishilayotgan natijalarning manbasini qanday anglashini ifodalaydigan muhim psixologik konstrukt hisoblanadi. Aniqroq aytganda, inson o‘z muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarini shaxsiy sa‘y-harakati, intilishi va qobiliyatlari natijasi sifatida qabul qiladimi (ichki lokus) yoki ularni tashqi

omillar — tasodif, taqdir, omad, atrofdagilar yoki vaziyatlar bilan izohlaydimi (tashqi lokus) degan masala ushbu konsepsiyaning markazida turadi. Shaxsning qaysi pozitsiyani egallashi uning xulq-atvori, o‘quv faoliyatiga munosabati, maqsad qo‘yishi va psixologik barqarorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur konsepsiya XX asr o‘rtalarida amerikalik psixolog Julian J. Rotter tomonidan ijtimoiy ta’lim nazariyasi doirasida ilmiy asoslangan. O‘sha davrda psixologiya fanida ustun bo‘lgan psixoanalitik va klassik bixevioristik yondashuvlar inson xulqini asosan ong osti instinktlar yoki tashqi stimullarga berilgan mexanik javoblar orqali tushuntirishga intilgan. Rotter esa bu biryoqlama qarashlardan voz kechib, insonni o‘z tajribasi asosida voqelikni baholovchi, natijalarni oldindan taxmin qiluvchi va ma’ nolantiruvchi faol subyekt sifatida talqin etdi. Uning yondashuvida xulq-atvor shaxsning kutilmalari, avvalgi o‘rganish tajribasi va muayyan vaziyatni subyektiv idrok etishi bilan uzviy bog‘liq holda qaraladi [1, 2, 3].

Ijtimoiy ta’lim nazariyasiga ko‘ra, shaxs va muhit bir-biridan ajralgan holda mavjud bo‘la olmaydi; inson xatti-harakati tashqi ta’sirlar bilan bir qatorda ichki kognitiv baholash jarayonlari orqali shakllanadi. Shu bois lokus nazorati shaxsning muhit bilan o‘zaro munosabatida vujudga keladigan, nisbatan barqaror psixologik xususiyat sifatida qaraladi. Aynan ushbu xususiyat o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchi, tashabbuskorligi, qiyinchiliklarni yengib o‘tish qobiliyati hamda muvaffaqiyatga intilish darajasini belgilaydi.

Bizningcha ichki lokus nazoratini rivojlantirish orqali o‘quvchilarda muvaffaqiyat motivatsiyasini kuchaytirishning psixologik mexanizmlari, avvalo, shaxsda “natija men bilan bog‘liq” degan ichki ishonchni shakllantirishga tayanadi. Bunday ishonch o‘quvchida mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, maqsadlarni ongli ravishda belgilash, o‘z faoliyatini rejalashtirish va baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ichki lokusga ega bo‘lgan o‘quvchi muvaffaqiyatsizlikni tashqi bahonalar bilan emas, balki o‘z harakatlarini tahlil qilish orqali qabul qiladi, bu esa refleksiya, o‘zini boshqarish va motivatsion barqarorlikni kuchaytiradi. Ushbu yondashuv sharoitida o‘quv jarayonida muvaffaqiyatga erishishni ta’minlovchi psixologik mexanizmlarni aniqlash va rivojlantirish, xususan, ichki nazorat lokusini shakllantirish masalalari alohida ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Ichki lokus nazoratning rivojlanganligi shaxsning o‘z faoliyati natijalarini ichki sabablar bilan bog‘lashiga, o‘z imkoniyatlariga ishonchini kuchaytirishga va o‘quv faoliyatida faol pozitsiyani egallashiga zamin yaratadi. Natijada, o‘quvchilarda muvaffaqiyat motivatsiyasi kuchayib, maqsadga yo‘naltirilganlik, qat’iyatlilik va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalari izchil shakllanadi. Natijada muvaffaqiyat motivatsiyasi tashqi rag‘batlarga emas, balki ichki ehtiyoj va shaxsiy maqsadlarga asoslanadi.

Shu jihatdan, jahonda va mamlakatimiz ta’lim amaliyotida ichki lokus nazoratini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan psixologik mexanizmlarni tadqiq etish nafaqat nazariy, balki muhim amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan barqaror motivatsiyasini ta’minlash, ularni muvaffaqiyatga yo‘naltirilgan faol shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Julian J. Rotter [1, 2, 3] shaxsiyatni va shunga mos ravishda, xulq-atvorni statik emas, balki doimiy ravishda o‘zgaruvchan jarayon sifatida talqin qiladi. Uning nazariyasiga ko‘ra, insonning fikrlash uslubi yoki u faoliyat yuritayotgan ijtimoiy-psixologik muhit o‘zgarsa, xatti-harakatlarda ham muqarrar ravishda o‘zgarish yuz beradi. Shu sababli Rotter shaxsiyatning qat’iy shakllanib qoladigan


“tanqidiy davri” mavjud degan g‘oyani rad etadi. Aksincha, u inson hayoti davomida to‘plangan tajribalar asosida e‘tiqodlar tizimi shakllanishini, bu tizim qanchalik mustahkam bo‘lsa, uni o‘zgartirish uchun shunchalik ko‘proq psixologik sa‘y-harakat va maqsadli aralashuv talab etilishini ta‘kidlaydi.

Rotterning inson haqidagi tasavvuri optimistik xarakterga ega. U shaxsni passiv, tashqi kuchlarga bo‘ysunuvchi mavjudot sifatida emas, balki o‘z oldiga maqsad qo‘yib, ularni amalga oshirishga intiluvchi faol subyekt sifatida ko‘radi. Uningcha, inson xulq-atvori faqat jazodan qochishga emas, balki ijobiy natijalarga erishish, ya‘ni kuchaytirishni (mukofotni) qo‘lga kiritishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Aynan shu nuqtai nazar Rotterning nazariyasini klassik bixeviorizmdan ajratib turadi va unga kognitiv komponentni olib kiradi [1, 2, 3].

Nazorat lokusi shaxsning hayotida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalar va natijalarning asosiy sabablari haqidagi tasavvurini ifodalaydi. Rotter [1, 2, 3] ushbu konstruktga “kuchaytirishni nazorat qilish lokusi” (locus of control of reinforcement) deb nom bergan bo‘lib, bu orqali u xulq-atvoriy va kognitiv yondashuvlarni yagona nazariy tizimga birlashtirgan. Uning fikricha, inson xulq-atvori asosan kuchaytirishlar — mukofot va jazolar orqali boshqariladi. Ana shu kuchaytirishlar bilan bog‘liq tajribalar natijasida shaxs o‘z harakatlari oqibatlari nimaga bog‘liq ekanligi haqida muayyan e‘tiqodlarni shakllantiradi. Mazkur e‘tiqodlar esa keyinchalik insonning qarorlari, munosabatlari va xatti-harakatlarini yo‘naltiruvchi ichki psixologik mexanizm vazifasini bajaradi.

Nazorat lokusi haqidagi ushbu yondashuv boshqa mashhur psixologlarning qarashlari bilan ham uyg‘unlashadi. Xususan, Philip Zimbardo nazorat lokusini shunday izohlaydi: inson o‘z harakatlari natijalarini shaxsiy sa‘y-harakatlari bilan bog‘laydimi (ichki nazorat lokusi) yoki ularni o‘z nazoratidan tashqaridagi tashqi omillar bilan izohlaydimi (tashqi nazorat lokusi). Ushbu ta‘rif Rotter nazariyasining mohiyatini yanada aniqlashtirib beradi.

Shunday qilib, nazorat lokusi shaxsda ichki va tashqi nazorat yo‘nalishlari o‘rtasida joylashgan uzluksiz psixologik o‘lchovni ifodalaydi. Bu o‘lchovda inson mutlaq ichki yoki mutlaq tashqi lokusga ega bo‘lishi shart emas; aksincha, u turli hayotiy vaziyatlarda ushbu ikki qutb orasida nisbiy pozitsiyani egallaydi. Aynan shu holat nazorat lokusini shaxs xulq-atvorini tushuntirish va bashorat qilishda muhim nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan psixologik konstrukt sifatida baholash imkonini beradi.



1-rasm. Philip Zimbardo bo‘yicha nazorat lokusining ifodalanishi

Xulosa

Umuman olganda, inson o‘zi ta’sir ko‘rsata oladigan jarayonlar va natijalar ustidan nazoratga egaligini anglab yetishi psixologik jihatdan sog‘lom holat sifatida baholanadi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, shaxsning o‘z hayotini boshqarishga qodir ekanligiga bo‘lgan ishonchi uning ruhiy barqarorligi, faol hayotiy pozitsiyasi va maqsadga yo‘naltirilgan xulq-atvorini mustahkamlaydi. Shu sababli nazorat lokusining ichki yo‘nalishi ko‘pincha ijobiy va orzu qilinadigan psixologik xususiyat sifatida talqin etiladi.

Ichki nazorat lokusiga ega bo‘lish holati ilmiy adabiyotlarda “o‘zini o‘zi boshqarish”, “shaxsiy nazorat”, “o‘zini o‘zi belgilash” kabi tushunchalar bilan ham ifodalanadi. Bunday shaxslar o‘z faoliyati natijalarini tasodifiy omillar bilan emas, balki shaxsiy sa’y-harakat, intilish va mas’uliyat bilan bog‘lashga moyil bo‘ladilar. Yevropalik olimlar J. Mamlin, O. Harris va S. Case tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, ichki nazorat lokusiga moyillik bir qator ijtimoiy-demografik omillar bilan bog‘liq ekanligi aniqlangan. Jumladan, erkaklar ayollarga nisbatan ichki lokusga ko‘proq moyil bo‘lishi, inson yoshi ulg‘aygani sari shaxsiy nazorat hissi kuchayib borishi, shuningdek, tashkiliy tuzilmalarda yuqori lavozimni egallagan shaxslar ichki nazorat lokusiga ega bo‘lish ehtimoli yuqoriroq ekani qayd etilgan.

Biroq ichki nazorat lokusining mutlaq ustunlikka ega ekanligi haqidagi qarashlar ham bir yoqlama bo‘lishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ichki lokus faqatgina shaxsning real imkoniyatlari, kompetensiyasi va o‘ziga bo‘lgan ishonchi bilan uyg‘unlashgan taqdirdagina psixologik jihatdan sog‘lom natijalarni beradi. Agar shaxs o‘z zimmasiga haddan tashqari mas’uliyat yuklasa, biroq bu mas’uliyatni amalga oshirish uchun yetarli resurs va imkoniyatlarga ega bo‘lmasa, u holda nevroitik holatlar, xavotir, ichki ziddiyat va tushkunlik rivojlanishi mumkin. Shu bois ichki lokus nazorat samarali faoliyat uchun shaxsning real ta’sir doirasini adekvat baholashi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi lozim.

Tashqi nazorat lokusi esa ayrim holatlarda psixologik yengillik va hissiy xotirjamlikni ta’minlashi mumkin. Bunday yo‘nalishga ega shaxslar muvaffaqiyatsizlikni tashqi omillar bilan

izohlash orqali ichki zo‘riqishni kamaytiradi. Biroq uzoq muddatli istiqbolda tashqi lokusning ustunligi tashabbusning pasayishi, mas’uliyatdan chekinish va yutuqlarga bo‘lgan motivatsiyaning susayishiga olib kelishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Rotter, Julian B (1975). "Some problems and misconceptions related to the construct of internal versus external control of reinforcement". *Journal of Consulting and Clinical Psychology*. 43: 56–67.
2. Rotter, Julian B (1990). "Internal versus external control of reinforcement: A case history of a variable". *American Psychologist*. 45 (4): 489–493.
3. Rotter, Julian B (1966). "Generalized expectancies for internal versus external control of reinforcement". *Psychological Monographs: General and Applied*. 80 (1): 1–28.
4. A. Bandura, (2016). *Moral disengagement: How people do harm and live with themselves*. Worth Publishers. New York: Macmillan, 2016. 544 pp.
5. A. Bandura. *Self-Efficacy: The Exercise of Control* First Edition. Publication date February 15, 1997. Worth Publishers. 604 pages.
6. Антошкина Е. А. Локус контроля и его влияние на трудовую деятельность / Е. А. Антошкина // Новое в психолого-педагогических исследованиях. –2021. –No1 (61). –С. 39–46.
7. Z Nishanova, D Qarshiyeva, N Ataboyeva [Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya](#) T-2013, 2011
8. Битянова, М. Р. Работа с ребенком в образовательной среде: решение задач и проблем развития. Научно-методическое пособие для психологов и педагогов / М. Р. Битянова. - М. : МГППУ, 2007. — 96 с.
9. Ramazonovich, A. R. Interplay of Cognitive Abilities and Intellectual Growth in Elementary Students. *Modern Journal of Social Sciences and Humanities* 2024, 3(3), P. 41–44.
10. Ashurov R. R. O‘quv faoliyatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fikrlash qobiliyatining intellektual operatsiyalarini rivojlantirish. // *Inter education & global study*. 2025. №2. B. 639-646.

5E TA’LIM MODELINI 7-SINF GEOGRAFIYA FANINING “MATERIKLAR VA OKEANLAR” KURSIDA MURAKKAB MAVZULARNI O‘QITISHDA QO‘LLASH

Ortiqova I. O.

Urganch davlat pedagogika instituti “Tabiiy fanlar kafedrası stajyor o‘qituvchisi

iqbola@pmkhiva.com

Ko‘palova B. O.

Urganch davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti

bibijonkopalova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18704235>

Annotatsiya: Maqolada 5E ta’lim modelining (Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate) nazariy asoslari hamda uni 7-sinf geografiya fanining “Materiklar va okeanlar” kursidagi murakkab mavzularni o‘qitishda qo‘llash metodikasi yoritilgan. Tadqiqot jarayonida mazkur model asosida tashkil etilgan darslarning o‘quvchilarning geografik bilimlarni o‘zlashtirish darajasi, tanqidiy fikrlash va amaliy ko‘nikmalariga ta’siri tahlil qilingan. Tajriba-sinov natijalari 5E modeli asosida o‘qitish an’anaviy yondashuvga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: 5E modeli, geografiya ta’limi, materiklar va okeanlar, konstruktivizm, faol o‘rganish, innovatsion metodlar.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические основы образовательной модели 5E (Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate), а также методика её применения при обучении сложным темам курса географии 7 класса «Материки и океаны». В ходе исследования был проанализирован вклад уроков, организованных на основе данной модели, в уровень усвоения учащимися географических знаний, развитие критического мышления и практических навыков. Результаты опытно-экспериментальной работы показали, что обучение на основе модели 5E обладает более высокой эффективностью по сравнению с традиционными подходами к обучению.

Ключевые слова: модель 5E, географическое образование, материки и океаны, конструктивизм, активное обучение, инновационные методы

Annotation: The article discusses the theoretical foundations of the 5E instructional model (Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate) and the methodology of its application in teaching complex topics of the 7th-grade geography course “Continents and Oceans.” During the research process, the impact of lessons organized on the basis of this model on students’ mastery of geographical knowledge, critical thinking, and practical skills was analyzed. The results of the experimental study showed that instruction based on the 5E model is more effective than traditional teaching approaches.

Keywords: 5E model, geography education, continents and oceans, constructivism, active learning, innovative methods.

KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimida fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish, mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

Bugungi kunda ta’lim jarayoni faqat tayyor bilimlarni uzatish bilan cheklanmay, balki o‘quvchini bilimni mustaqil ravishda kashf etishga, muammolarni tahlil qilish va asoslangan xulosalar chiqarishga yo‘naltirishni talab etmoqda.

Tanqidiy fikrlash o‘quvchilarda muammoni hal qilish, qaror qabul qilish, ijodkorlik va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Aynan shu kompetensiyalar geografiya fanini, xususan, “Materiklar va okeanlar” bo‘limini o‘rganishda alohida ahamiyat kasb etadi.

1-rasm. Tanqidiy fikrlashning ta’lim jarayonidagi ahamiyati

Geografiya fanining 7-sinfda o‘qitiladigan “Materiklar va okeanlar” bo‘limi murakkab fazoviy




tasavvurlarni, tabiiy jarayonlar o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘lanishlarini hamda xarita bilan ishlash ko‘nikmalarini talab etadi. An’anaviy izohli-ta’limiy yondashuvda esa ushbu murakkab tushunchalar ko‘pincha yuzaki va reproduktiv darajada o‘zlashtiriladi, bu esa bilimlarning barqaror bo‘lmasligiga olib keladi [1].

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida pedagogika fanida konstruktivizm nazariyasiga asoslangan faol o‘rganish modellari keng joriy etilmoqda. Shunday yondashuvlardan biri - 5E ta’lim modeli bo‘lib, u o‘quv jarayonini mantiqiy bosqichlar asosida tashkil etish orqali o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini faollashtiradi hamda bilimlarning chuqur va ongli o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi:

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral



Tajriba-sinov ishlari 2024–2025-o‘quv yilida umumta’lim maktabining 7-sinf o‘quvchilari bilan olib borildi. Sinflar nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. Tajriba guruhida “Materiklarning relyefi”, “Iqlim mintaqalari”, “Okean oqimlari” kabi murakkab mavzular 5E modeli asosida o‘qitildi.

5E modelining geografiya darslarida qo‘llanilishi:

Engage (qiziqtirish) bosqichida o‘quvchilarga muammoli savollar, xarita fragmentlari, sun’iy yo‘ldosh tasvirlari taqdim etildi. Masalan: “Nima sababdan Afrika materigida cho‘llar keng tarqalgan?”

Explore (tadqiq qilish) bosqichida o‘quvchilar atlas va xaritalar bilan ishladi, iqlim diagrammalarini tahlil qildi, guruhli tadqiqotlar olib bordi.

Explain (tushuntirish) bosqichida o‘quvchilar o‘z xulosalarini bayon etdi, o‘qituvchi esa ilmiy terminlar va nazariy tushunchalar bilan boyitdi.

Elaborate (kengaytirish) bosqichida o‘rganilgan bilimlar yangi vaziyatlarda qo‘llandi, masalan, iqlim o‘zgarishining materiklar tabiiy zonalariga ta’siri tahlil qilindi.

Evaluate (baholash) bosqichida testlar, xarita asosida topshiriqlar va refleksiya ishlari amalga oshirildi[2, 3].

NATIJARLAR

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, 5E modeli asosida o‘qitilgan tajriba guruhida:

- bilimlarni o‘zlashtirish darajasi 22–25 % ga oshdi;
- xarita bilan ishlash ko‘nikmalari sezilarli darajada yaxshilandi;
- o‘quvchilarning darsdagi faolligi va mustaqil fikrlashi ortdi.

Nazorat guruhida esa bunday ijobiy o‘zgarishlar sust namoyon bo‘ldi. Statistik tahlil natijalari tajriba samaradorligini tasdiqladi ($p < 0, 05$).

Guruh	Tajribagacha	Tajribadan so‘ng
-------	--------------	------------------

Tajriba guruhi	54	79
Nazorat guruhi	56	62

1-jadval. 7-sinf o‘quvchilarining bilimlarni o‘zlashtirish darajasi

MUHOKAMA

Olingan natijalar Bybee, Atkin, Karplus kabi olimlarning tadqiqotlari bilan hamohang bo‘lib, 5E ta’lim modeli o‘quvchilarda bilimni mustaqil shakllantirish, uni tahlil qilish va amaliy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirishini tasdiqlaydi [4]. Mazkur model konstruktivistik yondashuvga asoslangan bo‘lib, o‘quvchining avvalgi bilimlari bilan yangi bilimlar o‘rtasida mantiqiy bog‘lanishlar hosil qilishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, 5E modeli asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilar geografik jarayonlarni faqat eslab qolish bilan cheklanmay, balki ularning mohiyatini anglash, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash va xulosalar chiqarishga faol jalb etiladi. Ayniqsa, materiklarning relyefi, iqlim mintaqalari va okean oqimlari kabi murakkab mavzularni o‘rganishda mazkur model o‘quvchilarning fazoviy, tizimli va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda samarali ekanligi aniqlandi.

Bundan tashqari, 5E modeli dars jarayonida o‘quvchilarning muloqot, hamkorlik va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Guruhli ishlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va o‘z fikrini asoslab berish orqali o‘quvchilar bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki faol subyekt sifatida namoyon bo‘ldi. [5]

Shuningdek, baholash bosqichida qo‘llanilgan testlar va amaliy topshiriqlar o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash bilan birga, ularni o‘z-o‘zini baholash va refleksiya qilishga undadi. Bu esa o‘quv jarayonining shaffofligi va samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

Umuman olganda, 5E modeli asosida tashkil etilgan geografiya darslari o‘quvchilarning bilish faolligini sezilarli darajada oshirib, ularni bilim iste’molchisi emas, balki faol tadqiqotchiga aylantiradi. Mazkur yondashuv zamonaviy ta’lim paradigmasiga to‘liq mos kelib, geografiya fanini o‘qitishda innovatsion va samarali metod sifatida qaralishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, 5E ta’lim modeli 7-sinf geografiya fanining “Materiklar va okeanlar” kursida murakkab mavzularni o‘qitishda yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanligi tajriba-sinov natijalari orqali tasdiqlandi. Mazkur model o‘quv jarayonini tizimli va mantiqiy bosqichlar asosida tashkil etish orqali o‘quvchilarning bilimlarni ongli, chuqur va barqaror o‘zlashtirishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, 5E modeli asosida olib borilgan darslar:
geografik tushunchalar va qonuniyatlarning chuqur anglanishini;
o‘quvchilarda tanqidiy, mantiqiy va fazoviy fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishini;
xarita bilan ishlash, tahlil qilish va xulosa chiqarishga yo‘naltirilgan amaliy ko‘nikmalarning shakllanishini ta’minlaydi.

Shuningdek, mazkur model o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularni mustaqil izlanishga, muammoli vaziyatlarni hal etishga va o‘z fikrini asoslab berishga undaydi. Bu esa geografiya fanini o‘qitishda o‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuvni samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Umuman olganda, 5E ta’lim modeli geografiya ta’limida innovatsion metod sifatida keng joriy etilishi maqsadga muvofiq bo‘lib, uning qo‘llanilishi o‘quvchilarning bilim sifati va o‘quv jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Kelgusida mazkur modelni geografiyaning boshqa bo‘limlarida hamda tabiiy fanlarni o‘qitishda qo‘llash bo‘yicha tadqiqotlar olib borish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. To‘xtaxo‘jayev N. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2019.
2. Bybee R. W. The BSCS 5E Instructional Model. – Colorado Springs: BSCS, 2009.
3. Atkin M. J. , Karplus R. Discovery or invention? – Science Education, 1962.
4. Duran E. , Duran L. The 5E Instructional Model. – Science Education Review, 2004.
5. Xusanov O. Geografiya ta’limida innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2021.

ЭВОЛЮЦИЯ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ И СОВРЕМЕННЫЙ РИСК-МЕНЕДЖМЕНТ

Туйчиева Мадина Гафаровна

Университет науки и технологий,
старший преподаватель кафедры экономики

madinatuychiyeva9087@gmail.ru

Телефон: +998909104010

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18704266>

Abstract. *The high level of uncertainty in today’s world, combined with the rapid development of artificial intelligence technologies and big data analysis, points to the relevance and timeliness of these technologies for improving process efficiency in this aspect public and corporate governance as a risk-management. The introduction of risk management approach based on the application of modern technologies is now becoming a key condition for development and competitiveness in various sectors of the economy and public regulation.*

Keywords: *risks, artificial intelligence, economy, technology, methods, business processes, risk management*

Аннотация. *Высокий уровень неопределенности в современном мире в сочетании со стремительным развитием технологий искусственного интеллекта и анализа больших данных указывает на актуальность и своевременность этих технологий для повышения эффективности процессов в таком аспекте государственного и корпоративного управления, как риск-менеджмент. Внедрение подхода к управлению рисками, основанного на применении современных технологий, в настоящее время становится ключевым условием развития и конкурентоспособности в различных отраслях экономики и государственного регулирования.*

Ключевые слова: *риски, искусственный интеллект, экономика, технологии, методы, бизнес-процессы, управление рисками*

Annotatsiya. *Zamonaviy dunyoda noaniqlikning yuqori darajasi sun'iy intellekt va katta ma'lumotlarni tahlil qilish texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan birgalikda ushbu texnologiyalarning davlat va korporativ boshqaruvning xatarlarni boshqarish kabi jihatlarida jarayonlar samaradorligini oshirish uchun dolzarbligi va o'z vaqtida ekanligidan dalolat beradi. Zamonaviy texnologiyalarni qo'llashga asoslangan risklarni boshqarish yondashuvini joriy etish hozirgi vaqtda iqtisodiyot va davlat tomonidan tartibga solishning turli tarmoqlarida rivojlanish va raqobatbardoshlikning asosiy shartiga aylanmoqda.*

Kalit so'zlar: *risklar, sun'iy intellekt, iqtisodiyot, texnologiya, usullar, biznes jarayonlari, risklarni boshqarish*

Согласно данным Института управления рисками (IRM), самые ранние проявления понимания риска можно обнаружить ещё на стадии первобытных культур. Элементы случайности, с которыми сталкивались люди, первоначально отражались в игровых практиках: в примитивных играх с костями, где исход полностью зависел от непредсказуемых факторов.

Со временем эти игровые формы усложнялись и трансформировались в стратегические интеллектуальные игры, такие как шахматы и шашки, в которых риск стал сочетать случайность и рациональное прогнозирование[4].

Исследователи В. Ковелло и Дж. Мампауэр предлагают иной ракурс, связывая первые попытки понять и интерпретировать риск с культурным наследием древних цивилизаций Ближнего Востока. В Месопотамии риск рассматривался через призму религиозных обрядов и гадательных практик, где предсказание будущего имело ключевое значение для принятия решений. В античных обществах - Древней Греции и Рима - понятие риска постепенно обретало философское измерение: мыслители стремились теоретически объяснить природу неопределённости и её влияние на судьбу человека, социальные институты и политическую жизнь.

Значительный вклад в интерпретацию происхождения концепции риска сделал П. Л. Бернштейн, который связывает её становление с внедрением индо-арабской цифровой системы. Он подчёркивает, что именно развитие математических методов в эпоху Возрождения и появление в XVII веке теории вероятностей создали условия для перехода от интуитивного восприятия случайности к научному, количественному анализу рисков. Эти достижения стали фундаментом для последующего формирования методов оценки и управления неопределённостью.

Ф. Кломан рассматривает историю риска в максимально широком контексте, подчёркивая, что само понимание риска формировалось не в теоретическом вакууме, а под влиянием масштабных событий, которые меняли человеческую цивилизацию. По его мнению, развитие представлений о риске происходило под воздействием мировых и локальных войн, технологических революций, появления новых средств связи и транспорта, экономических потрясений вроде Великой депрессии, формирования глобальных экологических угроз, развития атомной энергетики и ядерного оружия. Существенную роль сыграли также политические повороты XX века, включая становление и распад коммунистических систем, а позднее - череда финансовых кризисов и усиление экологических движений. Эти процессы сделали риск постоянным спутником почти всех сфер человеческой деятельности и показали, что неопределённость неизбежно сопровождает любое развитие.

Подобные идеи находят отклик и среди узбекских исследователей. Так, А. М. Исламов подчёркивает, что риск в современных условиях - это не просто отрицательный фактор, а естественный элемент окружающей среды, который возникает всякий раз, когда экономика или общество переходят на новые этапы развития. Он отмечает, что именно неопределённость - результат технологических изменений, реформ, глобализации и трансформации институтов - заставляет организации пересматривать свои подходы и искать новые решения.

Эту мысль развивает К. Х. Умурзаков, указывая, что в реальной практике, особенно в банковском секторе, риск проявляется как живой процесс: он изменяется вместе с поведением клиентов, динамикой рынков, государственными реформами и международными трендами. По его мнению, умение работать с риском - это не только расчёты и модели, но и способность менеджмента понимать, *как меняется среда*, какие новые возможности и угрозы она приносит, и как быстро организация может адаптироваться.

Схожий подход предлагает и Д. М. Тожибоева, для которой риск - это, прежде всего, реакция предприятия на неполноту информации и неожиданные изменения внешней среды. Она подчёркивает, что в условиях быстрого развития экономики Узбекистана риск становится неотъемлемой частью предпринимательства: он побуждает компании становиться гибче, внимательнее относиться к интересам партнёров и активнее использовать инновации.

Таким образом, и работы Ф. Кломана, и исследования узбекских учёных показывают: риск - это не статичное понятие. Это живая категория, которая развивается вместе с обществом. Чем динамичнее происходят изменения - в технологиях, экономике, политике, окружающей среде - тем многослойнее становится риск и тем глубже требуется его понимание.

Следовательно, концепция риска прошла путь от элементарного осознания непредсказуемости окружающего мира до сложных научных и прикладных подходов, позволяющих анализировать и контролировать неопределённость в социальных, экономических, технологических и политических процессах.

Систематическое изучение и концептуализация понятия «риск» активизировались лишь во второй половине XX века, примерно с конца 1950-х годов, когда в научной и практической среде возникла необходимость осмысленного подхода к неопределённости и её последствиям[3]. Несмотря на значительный объём накопленных исследований, специалисты в области риск-менеджмента - как практики, так и теоретики - подчёркивают, что до настоящего времени отсутствует единая, полностью согласованная и всеобъемлющая концептуальная рамка, позволяющая однозначно определить сущность риска.

Причина такой неопределённости заключается в многомерной природе самого феномена риска. Его характеристики проявляются в различных сферах - экономической, социальной, технической, политической, экологической, что делает понятие сложным, многоаспектным и трудным для универсального описания. Каждая научная школа, отрасль или исследовательская традиция трактует риск с учётом собственных целей, задач и подходов к анализу неопределённости, что усложняет формирование единой теоретической базы.

Современные отечественные и зарубежные интерпретации термина «риск» неоднородны: они варьируются от акцентирования вероятностных характеристик до коллегиального понимания риска как события, носящего потенциально негативный характер. Разнообразие таких подходов наглядно отражено в таблице 1. 1, где представлены наиболее распространённые определения категории «риск», используемые в современной научной литературе и практике управления.

Таблица 1. 1

Определения термина «риск»⁷

Источник	Определение термина «риск»
----------	----------------------------

⁷ Систематизирована автором на основе материалов [1-10]

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

O‘zDSt ISO 31000:2018 / O‘zDSt ISO Guide 73 (Uzbekistan)	Риск - воздействие неопределённости на достижение целей, выражающееся в возможных отклонениях результатов от плановых значений, причём такие отклонения могут как создавать угрозы, так и открывать новые возможности. Риск описывается через источник, событие, его последствия и вероятность наступления.
Institute of Risk Management	Риск представляет собой сочетание вероятности наступления события и его последствий. При этом последствия могут быть как положительными, так и отрицательными.
Orange Book from HM Treasury	Неопределённость результата отражает диапазон возможного воздействия, который формируется сочетанием вероятности потенциального события и величины его последствий.
Institute of Internal Auditors	Неопределённость события, способного повлиять на достижение целей. Риск оценивается через сочетание вероятности его наступления и возможных последствий.
Хопкин П.	Событие, способное оказать влияние на миссию организации, её стратегические направления, выполнение проектов и ежедневных операций, а также на основные процессы, взаимозависимости и ожидания заинтересованных сторон - будь то через возникновение ограничений, усиление эффектов или появление неопределённости.
Найт Ф.	Возможность как положительного отклонения (шанса), так и отрицательного результата (ущерба или убытка) от ожидаемых значений в процессе деятельности. Риск представляет собой объективно существующую неопределённость.
Десятниченко Д. Ю.	Возможность отклонения фактических результатов от запланированных показателей, степень воздействия которых на предприятие определяется ограниченностью доступной информации и характером принятого решения.
Фатеева (Вишневская) О. В.	Вероятностная характеристика события, которое под воздействием внутренних и внешних факторов и в условиях неопределённой среды может привести к разным - благоприятным или неблагоприятным - результатам. Его влияние зависит от управленческих действий, а сам риск поддаётся качественной и количественной оценке.
Авдийский В. И. , Безденежных В. М.	Деятельность хозяйствующих субъектов, направленная на преодоление неопределённости в условиях неизбежного выбора. В рамках такой деятельности можно оценить вероятности

	достижения желаемого результата, возможной неудачи и отклонений от цели, присущих различным альтернативам.
Умурзаков К. Х.	Риск-вероятность отклонения фактических финансовых результатов коммерческого банка от плановых значений под воздействием внешних и внутренних факторов, сопровождающаяся возможностью ущерба или недополучения дохода.
Абдуллаев Й. Ш.	Риск - неопределённость условий функционирования предприятия, при которой результаты деятельности могут отклоняться от поставленных целей в сторону улучшения или ухудшения.
Тожибоева Д. М.	Риск - вероятностная характеристика событий, влияющих на устойчивость и эффективность предприятия, возникающая из-за неполноты информации и изменчивости внешней среды.
Худойкулов Ш. Х.	Риск - сочетание вероятности возникновения неблагоприятного события и степени его влияния на финансовую устойчивость и результаты деятельности организации.
Исламов А. М.	Риск - элемент неопределённости под воздействием внутренних и внешних факторов, способный привести к снижению эффективности или появлению новых возможностей.
Маматкулов Х. Х.	Риск - мера неопределённости, связанная с возможностью наступления событий, влияющих на достижение стратегических и операционных целей предприятия.

Исследования, посвящённые содержательному определению категории «риск», активно развиваются начиная с конца 1950-х годов[1]. Однако, несмотря на значительный объём теоретических и прикладных работ, специалисты в области риск-менеджмента подчёркивают отсутствие универсальной и концептуально завершённой классификации рисков. Такая ситуация объясняется тем, что само понятие «риск» обладает сложной, многомерной природой и объединяет в себе широкий спектр интерпретаций, зависящих от контекста, цели анализа и предметной области. Именно эта многослойность и вызывает методологические трудности при формировании единой теоретической конструкции.

В таблице 1. 1 представлены современные трактовки термина «риск», используемые как в отечественной, так и в зарубежной литературе. Эти определения демонстрируют разнообразие подходов и исследовательских акцентов, что позволяет рассматривать понятие риска с нескольких методологических позиций.

Так, в ряде работ риск понимается как событие или совокупность возможных событий (П. Хопкин, О. В. Фатеева (Вишневская), Institute of Internal Auditors). Другие исследователи сосредотачиваются на интерпретации риска как деятельности, связанной с выбором и

преодолением неопределённости (В. И. Авдийский, В. М. Безденежных). Применяемый в международных стандартах подход трактует риск как комбинацию вероятности наступления события и тяжести его последствий (Institute of Risk Management). Наконец, существует подход, рассматривающий риск как потенциальное отклонение фактического результата от ожидаемого (Ф. Найт, Д. Ю. Десятниченко).

Таким образом, многообразие определений подчёркивает отсутствие единой трактовки понятия «риск» и одновременно демонстрирует широту его применения в теории и практике управления.

Список литературы

1. Риск-менеджмент инвестиционного проекта: Учебник / Под ред. Грачевой М. В. . - М. : Юнити, 2018. - 576 с.
2. Буянский, С. Г. Корпоративное управление, комплаенс и риск-менеджмент / С. Г. Буянский, Ю. В. Трунцевский. - М. : Русайнс, 2017. - 352 с.
3. Вяткин, В. Н. Риск-менеджмент: Учебник / В. Н. Вяткин, В. А. Гамза, Ф. В. Маевский. - Люберцы: Юрайт, 2016. - 353 с.
4. Дамодаран, А. Стратегический риск-менеджмент: принципы и методики / А. Дамодаран. - М. : Вильямс И. Д. , 2017. - 496 с.
5. Данилина, М. В. Риск-менеджмент (бак) / М. В. Данилина. - М. : Русайнс, 2015. - 230 с.
6. Исмагилов, Р. Х. Риск-менеджмент: конспект лекций / Р. Х. Исмагилов. - РнД: Феникс, 2015. - 198 с.
7. Исмагилов, Р. Х. Риск-менеджмент: конспект лекций / Р. Х. Исмагилов. - РнД: Феникс, 2017. - 96 с.
8. Капустина, Н. В. Развитие организации на основе риск-менеджмента: теория, методология и практика: Монография / Н. В. Капустина. - М. : Инфра-М, 2018. - 304 с.
9. Ковалев, П. П. Банковский риск-менеджмент: Учебное пособие / П. П. Ковалев. - М. : Инфра-М, 2015. - 144 с.
10. Круи, М. Основы риск-менеджмента / М. Круи, Д. Галай, Р. Марк. - Люберцы: Юрайт, 2015. - 390 с.

ABU BAKR NARSHAXIYNING “TARIXI BUXORO” ASARIDA SOMONIY HUKMDORLARI TARIXI TAVSIFI

Murodullayeva Aziza Xasanboy qizi

Namangan davlat pedagogika instituti Tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

E-mail: azifaxon899@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18704311>

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Abu Bakr Narshaxiyning “Tarixi Buxoro” asari haqida qisqacha ma’lumot berilgan. Somoniylar davlati tarixi batafsil yoritilgan. Somoniy hukmdorlarining davlat boshqaruvidagi faoliyati tahlil qilingan. Buxoro shahrini rivojlantirish siyosati manbashunoslik asosida keng yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Somonxudot, Ismoil Somoniy maqbarasi, Hojib ul-hojib, Hojib ul-buzruk, saroy cheklari, Registon maydoni, ustod, Shayx ul-islom, islom dinining gumbazi, xonaqoh.*

***Abstract:** This article provides a brief overview of the work “History of Bukhara” by Abu Bakr Narshakhi. The history of the Samanid state is described in detail. The activities of the Samanid rulers in state governance are analyzed. The policy of developing the city of Bukhara is comprehensively examined based on source studies.*

***Keywords:** Saman-Khudat, Ismail Samani Mausoleum, Hajib al-Hajib, Hajib al-Buzruk, palace stipends, Registan Square, ustad, Shaykh al-Islam, the dome of Islam, khanqah.*

***Аннотация:** В данной статье приводятся краткие сведения о труде Абу Бакра Наршахи «История Бухары». Подробно освещается история государства Саманидов. Анализируется деятельность саманидских правителей в системе государственного управления. Политика развития города Бухары подробно рассмотрена на основе источниковедческого анализа.*

***Ключевые слова:** Саманхудот, мавзолей Исмаила Самани, хаджиб аль-хаджиб, хаджиб аль-бuzрук, дворцовые пожалования, площадь Регистан, уstad, шейх аль-ислам, купол ислама, ханака.*

Kirish. Buxoro tarixi asari Markaziy Osiyo tarixnavisligining ilk qadimiy durdonalaridan biridir. Bu nodir asar Abu Bakr Narshaxiy tomonidan 943-944-yillarda arab tilida yozilgan. Unda O‘rta Osiyoda arablar istilosi natijasida islom dinining tarqalishi va undan bevosita oldingi davrlar hamda IX-XII asrlardagi Buxoro va unga yaqin shahar va qishloqlar xalqlarining tarixi haqida ma’lumot beradi.

Abu Bakr Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida Markaziy Osiyoda hukmronlik qilgan ko‘plab davlatlar tarixi batafsil yoritilgan. Shulardan Somoniylar davlati tarixini olsak, Somoniylar davlati 865–999-yillarda Movarounnahr va Xurosonda hukmronlik qilgan o‘rta asrlar davlatidir.

Manbalarda somoniylarning kelib chiqishi haqida turli ma’lumotlar keltirilgan. Ko‘pchilik manbalarda aytilishicha, ularning shajarasi Sosoniy shohonshohi Xurmazd IV ning harbiy qo‘mondoni Bahrom Chubinga borib taqaladi. Bahrom Chubin avval Armaniston va Ozarbayjon, keyin esa Ray va Xuroson naibi etib tayinlangan. Ayrim mal’umotlarga ko‘ra Bahrom chufin kelib

chiqishi bo‘yicha sosoniylar xizmatidagi og‘uz turklaridan bo‘lgan. Uning avlodlari Balxda yashab shu yerdan Xurosan va Movoraunnahrning turli hududlariga noib etib yuborilgan.

Somonhudotning bir o‘g‘li bo‘lib uning ismi Asad edi. Asadning Esa 4 o‘g‘li bo‘lib Nuh, Ahmad, Yahyo va Ilyos edi. Rofe Ibn Lays va Xarsama Ibn Lays o‘rtasidagi urushda Somonhudotning nabiralari xarsomaga yordam berdi. Bu yordam evaziga Mamun Asad Ibn Somonxudotning o‘g‘ilariga Xurosonning ayrim shaharlari hukumronligini berishni buyurdi. G‘asson Ibn Ubbad Nuh Ibn Asadni Samarqandga, Ahmad Ibn Asadni Marvga amir qilib tayinladi. Bu voqea 817 yil 20 iyulda sodir bo‘ldi. Yurtga avval Nuh Ibn Asad boshchilik qilib, to dunyodan o‘tganiga qadar Samarqanda hukumronlik qildi. Oradan vaqt o‘tgach Nuh Ibn Asadni o‘z o‘rniga xalifa qildi. Bu ikki hukumdor ham hukumronligi davrida misdan chaqalar zarb etdi. Ahmad Ibn Asad vafot etgancha Samarqandda bo‘ldi, vafot etishidan oldin o‘g‘li Nasr Ibn Ahmad Ibn Asadni o‘z o‘rniga halifa qildi. Nasr otasining o‘rniga o‘tirtgach 865 yil 29 sentyabr shanba kuni uni nomiga Xalifa Vosik Billoxdan Movoraunnahrda hukumronlik qildi. Samarqandni markazga aylantirdi. Movoraunnahrning barcha viloyatlarni birlashtirish va uni Xurosondan ajratib olish choralarni ko‘rdi IX asrning ohirgi choragida Movoraunnahrning barcha viloyatlari Somoniylar tasarrufiga o‘tadi va Nasr butun Movoraunnahrning hukumdoriga aylanadi u kumush dirham zarb etadi. Nasr Ibn Ahmad mahaliy dehqonlar taklifiga binoan Buxoroga ukasi Ismoil Ibn Ahmadni hokim qilib yuboradi. Shunday qilib Buxoro ham Somoniylar qo‘liga o‘tadi. Ko‘p o‘tmay Ismoil akasi Nasrga bo‘ysunishdan bosh tortib unga qarshi qo‘shin tortadi. Aka uka o‘rtasida 888 yilda jang bo‘ladi. Bu jangda Nasr mag‘lubiyatga uchraydi, Ismoil Somoniy butun hokimiyatni o‘z qo‘liga oladi. 893-yilda Taroz shahriga yurish qilib, shalji kumush konlariga egalik qilish huquqini oladi. Somoniylar davlatining tobora kuchayib boryatgani arab xalifalariga yoqmas edi. Xalifa Mutazid Safforiylar hukumdori Amir Ibn Laysga Xuroson bilan birga Movoraunnahr ustidan ham hukm yuritish huquqi kiritilgani haqida farmon chiqaradi va uni Ismoilga qarshi gijgijlaydi. 900-yili Ismoil va Amir Ibn Lays o‘rtasida urush boshlanadi. Urush Ismoilning g‘alatasi bilan tugaydi. Ismoil Xurosonni ham o‘z yerlariga qo‘shib oladi. Shunday qilib Ismoil Ibn Ahmad hukumronligi davrida Talas vodiysidan Xurosongacha bo‘lgan yerlarni o‘z hokimiyati ostida birlashtiradi. Narshahiyning yozishicha Ismoil Somoniy o‘zining kuchli qo‘shinlarini nazarda tutib, , toki men tirik ekanman, Buxoro viloyatining devori men bo‘laman’, - deb aytgan edi. ismoil Somoniy davrida davlat eng qudratli darajaga chiqdi. Bu davrda Somoniylar davlati Movoraunnahr, Xuroson, Shimoliy sharqiy eronni o‘z ichiga olgan. Buxora shahri esa poytaxt qilib belgilangan. Somoniylar sulolasining hokimiyatidagi vakillari amir deb atalgan bo‘lib, ularga dargoh va devonal bo‘ysingan. Vazir mansahga asosan zayhoniylar, Balamiylar va uthiylar aslzoda oilalarning vakillari tayinlanar edi. Zayhoniy va Bolamiy ulardan eng mashhur vazirlardir. Narshahiyning yozishicha somoniylar boshqaruvi asosan o‘rta devon orqali idora itilib ular orasida vazir devoni boshqaruv mahkamasi hisoblanardi. Nasr II davrida Buxoroning Registon maydonida amir qasri qarshisida devonlar uchun saroy qurilib, mahkama hizmatchilari arab, fors tillarini puxta egallab olgan, Quronni va shariatning asosiy qoidalarini yaxshi biladigan turli fanlardan xabardor bo‘lgan savodli aslzodalaridan tanlab olingan. Movoraunnahrning ravnagida islom dini ruhoniylarining hissasi katta bo‘ldi. Poytaxt Buxoro shahri islom dinining markaziga aylandi. O‘rta Osiyodagi ilk ilmgoh Farjak madrasasi X asrda Buxoroda bunyod etildi. IX-X asrlarda Buxoro shahri madaniy jihatdan yuksaldi. Poytaxt amir saroyida turli sohalariga oid qo‘lyozma kitoblar

saqlanadigan kutubxona barpo etildi. Bu davrda somoniylar davlati aholisi qishloq xo‘jaligi, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq, chorvachilik kabi sohalar billan shug‘ullangan. Davlatning asosiy dehqonchilik solig‘i –xirojdan xazinaga katta miqdorida mablag‘ tushgan . somoniylar hukumronligi davrida yer egaligining, “mulki sultoni”, “mulki yerlari”, “vaqf yerlari”, “mulki xos”, va “jamoa yerlari” deb ataluvchi 5 ta turi mavjud bo‘lgan. Hukumdor sulola vakillari mulkdor dehqonlar va aslzodalarning tasarufidagi katta yer maydonlaridan tortib mehnatkash qishloq aholisiga tegishli mayda xususiy yerlargacha, Mulk yerlari hisoblangan. Masjid madrasalarga vaqtincha yoki abadiiy foydalanish uchun berilgan yerlar. Vaqf yerlari deb atalgan Oliy martabali ruhoniylar va sayidlar qo‘l ostidagi yerlar, “mulki xos” deb yuritilgan. Qishloq jamoalari tasarufida ham ma‘lum hajmda yer maydonlari saqlanib ular “jamoa yerlari” hisoblangan. Shu yerlarda aholi mehnat qilgan. Yetishtirgan hosildan turli xil soliqlar to‘lagan. Oradan vaqt o‘tgach somoniylarning harbiy yurishlari, hukumron sulolasining ichki nizolari, mahalliy hokimlarning boshboshdoqlik harakatlari borgan sari avj olib bordi. Oqibatda mamlakatda iqtisodiy tanglik sodir bo‘ldi, 942 yilda aholidan 2 marta soliq yig‘ib olindi, siyosiy vaziyat Nuh (943-954) va uning nabirasi Nuh II (976-997) qilgan davrda nihoyatda keskin tus oldi. Somoniylar davlati Ismoil Somoniy va fotidan keyin uning avlodlari davrida zaiflasha boshladi. 907 yilda Ismoil vafot etdi, va taxtga Ahmad Ibn Ismoil (907-914), Nasr Ibn Ahmad (914-943), Nuh Ibn Nasr (943-954), Abdulmalik Ibn Nuh (954-961), Mansur Ibn Abdulmalik (961-976), Nuh Ibn Mansur (976-997), Mansur Ibn Nuh (997-999), Abdulmalik Ibn Mansur kabilar davlatni boshqardi. Sulolaning oxirgi vakili Ismoil al Muntasir qoraxoniylar sulolasiga qarshi kurash olib borib, somoniylar hokimiyatini tiklashga urindi. Lekin natija bo‘lmadi. O‘zi ham o‘ldirildi. 999 yilda somoniyalar davlati butunlay tugatildi.

Xulosa qilib aytganda Narshaxiyning ma‘lumotlari Somoniylar davridagi siyosiy jarayonlarni, anglashda, shaharsozlik, manaviy hayot, iqtisodiy rivojlanish va davlat boshqaruvi masalalarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Maqola somoniylar sulolasi Movoraunnahr tarixda qanday o‘rin egalaganligi yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Bakr Muhammad ibn Ja‘far an-Narshhiy. Buxoro tarixi (fors tilidan A. Rasulev tarjimasi). – T. , 1991
2. Босворт К. Э. Мусульманские династии. – М. : Наука, 1971. – 324 с.
- 3.

**BOBORAHIM MASHRAB HAYOTI VA IJODINI O‘RGATISHDA
INNOVATSION DARS SHAKLLARIDAN FOYDALANISH**

Abdug‘offorova Gulxayo Abdurashid qizi

Namangan davlat pedagogika instituti magistranti

E-mail: gulxayoabdugofforova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18704334>

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili Boborahim Mashrab hayoti va ijodini umumta’lim maktablarida o‘qitishda innovatsion dars shakllaridan foydalanishning o‘quvchilar mustaqil, ijodiy, kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati muammosi shaxsiy tajribalar asosida yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Mashrab, tasavvuf, g‘azal, ilohiy ishq, interfaol metod, adabiyot darsi, tahlil.*

***Annotation:** This article examines the methodological foundations of teaching the life and creative legacy of Boborahim Mashrab, a prominent representative of Uzbek classical literature, in general education schools. It outlines the use of interactive teaching methods in the learning process, the development of students’ independent thinking skills, and contemporary approaches to analyzing the poet’s ghazals.*

***Keywords:** Mashrab, Sufism, ghazal, divine love, interactive method, literature lesson, analysis.*

***Аннотация:** В данной статье рассматриваются методические основы преподавания жизни и творческого наследия Боборахима Машраба, выдающегося представителя узбекской классической литературы, в общеобразовательных школах. Отражены пути использования интерактивных методов в учебном процессе, развития самостоятельного мышления учащихся, а также современные подходы к анализу газелей поэта.*

***Ключевые слова:** Машраб, суфизм, газель, божественная любовь, интерактивный метод, урок литературы, анализ.*

Hozirgi kunda ta’lim tizimi jadal rivojlanayotgan, innovatsiyalar keng qo‘llanilayotgan bir davrda yashayapmiz. Jamiyatda raqobatbardosh, bilimli, ijodkor va mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash zamonaviy ta’limning eng asosiy maqsadiga aylangan. Shu bois o‘qituvchidan dars jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni, interaktiv metodlarni, turli dars turlari va shakllarini samarali qo‘llash talab etiladi. Zamonaviy dars usullaridan foydalanish nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, jamoaviy ishlash, muloqot va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bunday darslar orqali o‘quvchilar o‘z milliy qadriyatlariga hurmat bilan qarash, ma’naviy merosni anglash va adabiyotga muhabbat bilan yondashishni o‘rganadilar. Hozirgi jadal rivojlanib borayotgan zamonda zamonaviy dars usullaridan foydalanish ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish hamda ularni hayotga tayyor, faol va mustaqil shaxs sifatida shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Zamonaviy ta’lim jarayoni o‘qituvchidan nafaqat bilim berish, balki o‘quvchini mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanishga, milliy qadriyatlarni chuqur anglashga o‘rgatishni talab etadi. Shu boisdan darsni o‘tkazishda innovatsion

yondashuvlar, interaktiv usullar va turli dars turlaridan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Boborahim Mashrab nomi alohida ehtirom bilan tilga olinadi. U XVII asrning yirik mutasavvif shoiri, xalqona she’riyatning yorqin vakili sifatida ma’naviy hayotimizda o‘chmas iz qoldirgan. Mashrab ijodi inson qalbi pokligi, Haqqa muhabbat, adolat va erk g‘oyalariga yo‘g‘rilgan. Bugungi ta’lim jarayonida uning hayoti va ijodini o‘rgatish nafaqat adabiy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. O‘zbek adabiyoti tarixida yorqin iz qoldirgan so‘fiy shoir Boborahim Mashrabning hayoti va ijodi o‘quvchilar qalbida milliy g‘urur, ma’naviyat va erkinlik tuyg‘ularini uyg‘otuvchi bebaho manbadir. Mashrab shaxsiyatini o‘rganish orqali o‘quvchilar nafaqat adabiy bilimlarini kengaytiradilar, balki insoniy fazilatlar, vatanparvarlik, haqiqatparvarlik singari qadriyatlarga ham chuqurroq nazar tashlaydilar. Mashrab hayoti va ijodi 11-sinf adabiyoti darsligida ikki soatlik mavzu sifatida berilgan bo‘lib, ushbu vaqtni mazmunan to‘g‘ri taqsimlash o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Boborahim Mashrab hayoti va ijodini o‘rganish masalasi o‘zbek adabiyotshunosligida alohida o‘rin egallaydi. Shoirning tasavvufiy qarashlari, ilohiy ishq konsepsiyasi hamda xalqona ruhdagi ijodi ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan. Jumladan, N. Jumaxo‘ja va I. Adizovanning “O‘zbek adabiyoti tarixi (XVI–XIX asr I yarmi)” asarida Mashrab ijodi mazkur davr adabiy jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida baholanib, shoirning tasavvufiy-falsafiy qarashlari va g‘azallarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari tahlil qilingan [1].

Mashrab ijodining alohida janr va badiiy jihatlarini yoritishda Abdurahmonova S. ning ilmiy izlanishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Muallif shoir g‘azallarini tahlil qilish jarayonida undagi ilohiy ishq, erkinlik va Haqqa muhabbat g‘oyalarining yetakchi o‘rin tutishini ta’kidlaydi hamda Mashrab she’riyatining ramziy-majoziy qatlamiga alohida e’tibor qaratadi [2].

Shoir hayoti va ijodini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalasi esa metodik tadqiqotlarda yoritilgan. Xususan, K. Abdullaev Boborahim Mashrab tarjimai holini o‘rgatishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilib, bunday yondashuvlar o‘quvchilarning mavzuga qiziqishini oshirishini ilmiy asoslaydi [3]. Ushbu tadqiqot Mashrab ijodini o‘qitishda innovatsion yondashuvlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

Adabiyot o‘qitish metodikasiga oid umumiy nazariy masalalar Husanboyeva Q. va Niyozmetova R. ning “Adabiyot o‘qitish metodikasi” nomli qo‘llanmasida keng yoritilgan. Mualliflar adabiy asarlarni o‘qitishda interfaol metodlar, sahnalashtirish, rolli o‘yinlar va ijodiy topshiriqlarning ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rnini asoslab beradilar [4]. Mazkur nazariy qarashlar Mashrab ijodini o‘rgatishda ishchanlik o‘yini, teatrlashtirilgan dars va savdo darslaridan foydalanishning metodik asoslarini belgilaydi.

Shuningdek, 11-sinf adabiyot darsligida Mashrab hayoti va ijodi alohida mavzu sifatida berilib, uning g‘azallarini o‘rganish orqali o‘quvchilarda badiiy-estetik tafakkur va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish ko‘zda tutilgan [5]. Biroq darslik doirasidagi vaqt cheklanganligi mazkur mavzuni innovatsion dars shakllari orqali chuqurlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu asosda aytish mumkinki, mavjud ilmiy-adabiy manbalar Boborahim Mashrab ijodining badiiy, falsafiy va tasavvufiy jihatlarini yetarli darajada yoritgan bo‘lsa-da, uni umumta’lim

maktablarida innovatsion dars shakllari asosida o‘qitish masalasi alohida, tizimli tadqiqotni talab etadi. Mazkur maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, Mashrab hayoti va ijodini o‘rgatishda zamonaviy interfaol metodlarning amaliy samaradorligini ko‘rsatib berishga intiladi.

Birinchi soatda o‘qituvchi Mashrabning hayoti, ijodiy merosi, tasavvufiy qarashlari, shoirning davr adabiy jarayoni bilan bog‘liqligi va badiiy uslubining o‘ziga xos jihatlari haqida nazariy ma‘lumotlar beradi. Ushbu bosqich o‘quvchilarda Mashrab shaxsiyati, ijodiy shakllanish bosqichlari hamda merosining adabiyot tarixidagi o‘rniga doir tizimli tasavvur hosil qiladi. Ikkinchi soatda esa mavzu chuqurroq o‘zlashtirilishi uchun darsning interfaol va ijodiy shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Xususan, ishchanlik o‘yini darsi, dars-sayohat, teatrlashtirilgan dars va savdo darsi kabi metodlardan foydalanish o‘quvchilarning faol ishtirokini ta‘minlab, Mashrab ijodini tahlil qilishga, badiiy matnni mustaqil anglashga va o‘z fikrini asoslab bayon etishga imkon yaratadi. Shunday qilib, darsning nazariy va amaliy bosqichlarga bo‘linishi Mashrab ijodini o‘quvchilarga chuqur, qiziqarli va samarali tarzda o‘rgatishga xizmat qiladi. Mazkur jarayonda “Ishchanlik o‘yini” darsi, “Sayohat darsi”, “Teatrlashtirilgan dars” hamda “Savdo” (bilim bozori) kabi zamonaviy dars turlarining qo‘llanishi o‘quvchilarning faolligini oshiradi, darsni qiziqarli va mazmunli shaklda tashkil etishga imkon yaratadi.

O‘quvchilarga Mashrab asarlarini o‘rgatish jarayonida o‘qituvchi faqat dalillarni emas, balki shoirning ma‘naviy dunyosini, falsafiy qarashlarini, tasavvufiy timsollarni ham tushuntirishi zarur. Bunda darsni interfaol metodlar asosida tashkil etish, o‘quvchilarni fikrlashga undovchi savollar va ijodiy topshiriqlardan foydalanish samarali natija beradi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida Mashrab hayoti va ijodini o‘rgatishning bir necha usullari mavjud. Quyida shulardan ayrimlarini ko‘rib chiqamiz.

1. Ishchanlik o‘yini darsi

Ishchanlik o‘yini darsi – bu o‘quvchilarni faol ishtirok etishga, mustaqil fikrlashga va real hayotiy vaziyatlarda bilimni qo‘llashga yo‘naltirilgan interaktiv dars turidir.

Bu dars turining maqsadi: o‘quvchilarda tahlil, muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish.

Asosiy xususiyati: o‘quvchilar turli rol (olim, jurnalist, tarixchi, qahramon va boshqalar)ni ijro etish orqali mavzuni o‘zlashtiradilar.

Afzalligi: darsni jonlantiradi, o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga undaydi, mavzuni esda qolarli qiladi.

Masalan: “Boborahim Mashrab hayoti va ijodi” mavzusida o‘quvchilar Mashrab, adabiyotshunos, tarixchi, jurnalist rollarini bajarib, shoir hayoti va g‘oyalari muhokama qiladilar.

2-bosqich. Bu dars turida o‘qituvchi sinfni 3 yoki 4 guruhga bo‘lib oladi:

1-guruh: “Tarixchilar” – Mashrab yashagan davrni, ijtimoiy hayotni yoritadi.

2-guruh: “Adabiyotshunoslar” – Mashrabning asarlari, g‘oyalari haqida tahlil qiladi.

3-guruh: “Sayyohlar (izlanuvchilar)” – Mashrab yurgan joylarni “sayohat” tarzida taqdim etadi.

4-guruh: “Jurnalistlar” – Mashrab bilan “intervyu” o‘tkazish uchun savollar tayyorlaydi.

2-bosqich. O‘yin jarayoni:

Sinxonada “Mashrab hayoti bo‘yicha ilmiy anjuman” yoki “Adabiy suhbat” sahnalashtiriladi.

O‘quvchilardan biri Mashrab roli ijro etadi.

Qolganlar – tarixchi, adabiyotshunos, jurnalist sifatida unga murojaat qiladi:

Jurnalist:

– Hazrat Mashrab, siz nega “Devona Mashrab” nomi bilan tanildingiz?

Mashrab (o‘quvchi):

– Chunki men dunyo moliga devona emasman, Alloh ishqiga devonaman. . .

Tarixchi:

– Siz yashagan davrda xalq qanday hayot kechirgan?

Adabiyotshunos:

– Sizning “Bu ishq ichra ko‘p yo‘ldur” g‘azalingizda qanday falsafa mujassam? Shu tarzda, har bir o‘quvchi o‘z rolini ijro etadi, fikr bildiradi, munozara bo‘ladi. 3-bosqich. Yakuniy bosqich (refleksiya):

O‘qituvchi savol beradi:

“Siz bugun Mashrab haqida nimalarni yangicha tushundingiz?”

“Mashrabni zamonaviy inson bilan qanday qiyoslasa bo‘ladi?”

O‘quvchilar o‘z fikrlarini bildiradilar, o‘zaro xulosalar chiqariladi.

Ushbu dars turidan kutilgan natija:

Bu o‘yin orqali o‘quvchilar: Mashrab hayoti va ijodini chuqurroq tushunadi, nutq va ifoda madaniyati rivojlantiriladi, tarixiy va adabiy fikrlashi uyg‘unlashtiriladi, dars jarayonida faol ishtirok etadi.

2. Sayohat darsi

Bu dars turning maqsadi: O‘quvchilarni Mashrabning hayoti, ijodi va g‘oyaviy qarashlari bilan “sayohat” orqali tanishtirish, u haqida jonli tasavvur hosil qilish.

Metodi: interaktiv suhbat, xarita asosida sayohat, savol-javob, she‘r tahlili.

Dars g‘oyasi:

O‘quvchilar “Mashrab izidan sayohat”ga chiqadilar – har bir to‘xtash joyi Mashrab hayotining bir bosqichini ifodalaydi:

Namangan (tug‘ilgan joyi) – bolalik va ilk ta‘lim yillari haqida ma‘lumot.

Buxoro – diniy-ilmiy ta‘lim olgan davr.

Qashqar – tasavvuf ta‘siri ostidagi ijodiy yillar.

Balx va Kobul – sayohatlari, g‘oyalari, xalq orasidagi obro‘si.

Namangan (qaytish va qatl) – Mashrab hayotining yakuni va merosi.

Har bir “bekat”da o‘quvchilar:

Mashrab hayoti bilan bog‘liq ma‘lumot bilan tanishadi;

Uning she‘ridan parchani ifodali o‘qiydi;

Savollarga javob beradi yoki kichik topshiriq bajaradi.

Bu dars turidan kutilgan natija:

O‘quvchilar Mashrab hayoti va ijodini izchil o‘rganadi, dars jarayonida faol ishtirok etadi, tarixiy ma‘lumotlarni hayotiy tarzda tushunadi.

3. Teatrlashtirilgan dars

Bu dars turning maqsadi: O‘quvchilarda Mashrab shaxsini, hayoti va asarlaridagi g‘oyalarni badiiy obraz orqali chuqurroq anglash, ijodiy tafakkur va nutq madaniyatini rivojlantirish.

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

Metodi: sahnalashtirish, dialog, dramatisatsiya, tahlil.

Dars g‘oyasi: O‘quvchilar Mashrab hayotining muhim lahzalarini sahnalashtiradilar.

Masalan:

Mashrabning bolalik yillari – onasi bilan suhbat, ta’limga qiziqishi.

Mashrabning ustoz bilan muloqoti (Mulla Bozor Oxun bilan) – ilm va ruhiyat masalalari.

Mashrab xalq orasida – odamlarga hikmatli so‘zlar aytadi, g‘azalini o‘qiydi.

Mashrabning qatl sahnasi – shoirning jasorati va e’tiqodidagi sobitligi.

Har bir sahna so‘ngida o‘quvchilar o‘z fikrlarini bildiradilar:

“Bu voqeada Mashrab qanday fazilatni namoyon etdi?”

“Sizga qaysi sahna eng ta’sirli bo‘ldi?”

Ushbu dars turidan kutilgan natija:

O‘quvchilar Mashrab siymosini badiiy, his-tuyg‘u orqali anglaydi, sahna madaniyati, ifodali nutq, hamkorlik ko‘nikmalari rivojlanadi; Mashrab ijodi o‘quvchilar qalbiga chuqurroq singadi.

4. , , Kim ochdi savdosi” darsi

Savdo darsidan kutilgan maqsad:

Savdo (bilim bozori) darsidan kutilgan maqsad – o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilimlarini mustahkamlash, ularni erkin fikrlashga, muloqot va bahs madaniyatiga o‘rgatish, shuningdek, raqobat muhiti orqali bilim almashishni rag‘batlantirishdir.

Savdo darsi”da o‘quvchilar bilimni “sotuvchi” va “xaridor” sifatida almashadilar:

Har bir guruh yoki o‘quvchi Mashrab hayoti yoki ijodiga oid “mahsulot” (bilim, g‘oya, she’r, tahlil) tayyorlaydi.

So‘ng uni “bozorda” boshqa guruhlarga taqdim etadi, “sotadi”.

“Eng yaxshi mahsulot” — eng puxta tayyorlangan va boshqalarga foydali bo‘lgan bilim sifatida baholanadi.

Misol: “Mashrab hayoti va ijodi” mavzusida savdo darsi

1-guruh: Mashrab hayoti haqida “mahsulot” tayyorlaydi (xarita, hayot bosqichlari).

2-guruh: Mashrabning g‘oyaviy qarashlarini “sotadi”.

3-guruh: G‘azallaridan namunalarni “taqdim qiladi”.

4-guruh: Mashrab merosi va bugungi ahamiyatini “reklama” qiladi.

So‘ngra o‘quvchilar bir-birining “mahsulotini” o‘rganadi, savollar beradi, “xarid qiladi” – shu tarzda bilim almashinuvi sodir bo‘ladi.

Bu dars turidan kutilgan natija

“Savdo darsi” – bu aniq bir muallif tomonidan ochilgan emas, balki zamonaviy interfaol pedagogik texnologiyalar asosida yaratilgan usuldir. U o‘quvchilarni faol fikrlash, o‘z fikrini “sotish”, muloqot va tahlil qilishga o‘rgatadi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Boborahim Mashrab hayoti va ijodini o‘rganishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan dars turlari – ishchanlik o‘yini, sayohat darsi, teatrlashtirilgan dars va savdo (bilim bozori) darslari o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi.

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

Ishchanlik o‘yini darsi o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muloqot va tahlil ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Sayohat darsi esa, Mashrab hayot bosqichlarini qiziqarli shaklda o‘rganish, tarixiy voqealar ketma-ketligini izchil anglash imkonini beradi. Teatrlashtirilgan dars orqali o‘quvchilar Mashrab shaxsiyati va asarlaridagi g‘oyalarni sahna harakatlari orqali his etadilar. Savdo darsi esa, bilim almashish, o‘z fikrini asoslab aytish, tanqidiy va ijodiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu dars turlarining qo‘llanilishi Mashrab ijodini o‘rganish jarayonini faqat nazariy emas, balki amaliy va hissiy jihatdan boyitadi. Zero, sinfnings barcha o‘quvchilari adabiyotchi bo‘lib yetishmaydi. Bunday dars turlari esa sinfnings barcha o‘quvchilariga manzur keladi degan umiddamiz. Bu esa o‘quvchilarni o‘z milliy adabiy merosiga hurmat bilan qarashga, Mashrab shaxsiyati va falsafasidan ibrat olishga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy dars turlari orqali Mashrab hayoti va ijodini o‘rganish o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarini shakllantirish, milliy o‘zlikni anglash va adabiyotga muhabbatni kuchaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jumaxo‘ja N. , Adizova I. O‘zbek adabiyoti tarixi (XVI–XIX asr I yarmi). – Toshkent, 2019. – 312 b.
2. Abdurahmonova S. Boborahim Mashrabning g‘azallariga sharhlar // Scientific Journal. – 2023.
3. Абдуллаев К. Бобораҳим таржимаи ҳолини ўргатишда ахборот коммуникацион технологиялардан фойдаланиш // Наманган давлат унивеситети илмий ахборотномаси. – Наманган, 2021. – № 5. – Б. 522-529.
4. Husanboyeva Q. , Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2022. – 256 b
5. To‘xliyev B. va boshq. Adabiyot. 11-sinf: darslik-majmua. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – 200 b.
6. Qo‘ziyev U. Mashrab: bibliografiya. – Toshkent: Ilmiy bibliografik material, 2024.
7. https://www.researchgate.net/publication/379368746_Mashrab_Bibliografiya
8. <https://akbt.urspi.uz/uz/books/650>

JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARI TAFAKKUR TARZINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI

Bekmirzayev Mirjalol Xusanboy o‘g‘li

Turan International University

dotsenti v.b., p.f.b.f.d. (PhD).

Tel: +998940529393

e-mail: mirjalolbekmirzayev737@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18704356>

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda yurtimizda jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislarining kasbiy bilimlarini, amaliy ko‘nikmalarini hamda tafakkur tarzini sohaviy malakalarini oshirishning ilmiy-uslubiy hamda tashkiliy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha ishlar ko‘plab mahalliy va horijiy olimlar ishlari o‘rganilgan va tafakkur tarzini rivojlantirish yuzasidan fikir va mulohazalar aks etirilgan.

Kalit so‘zlar: tafakkur tarzi, jismoniy tarbiya va sport, vorisiylik, ijodkorlik, taktik va texnikaviylik, maqsadga yo‘nalganlik.

Аннотация: В данной статье изучены работы многих отечественных и зарубежных ученых, посвященные совершенствованию научно-методических и организационных основ повышения профессиональных знаний, практических навыков, стиля мышления и отраслевых компетенций специалистов в области физической культуры и спорта в нашей стране на современном этапе. Также представлены мнения и рассуждения по вопросам развития стиля мышления специалистов.

Ключевые слова: стиль мышления, физическая культура и спорт, преемственность, креативность, тактическая и техническая подготовленность, целенаправленность.

Abstract: This article examines the works of many domestic and foreign scholars aimed at improving the scientific-methodological and organizational foundations for enhancing professional knowledge, practical skills, thinking style, and professional competencies of specialists in the field of physical education and sports in our country at the present stage. The article also reflects opinions and considerations on the development of specialists' thinking style.

Keywords: thinking style, physical education and sport, continuity, creativity, tactical and technical proficiency, goal orientation.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport soxasini rivojlantirishda ushbu soxa mutaxassislarining ukuv jarayonlarini takomillashtirish, mashg‘ulot yuklamalarini optimallashtirish, jismoniy sifatlarini oshirish masalalari muhim ahamiyat kasb etilmoqda. “Jismoniy tarbiya va sport soxasida xalqaro standartlarga muvofiq kompleks bilimlarga ega malakali kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash, sportda ilm-fanni jadal rivojlantirish, yuqori malakali raqobatbardosh trener-uqituvchilar, mutaxassislar xamda ilmiy xodimlarni tayyorlash jarayonlarini yanada takomillashtirishga qaratilgan keng kulamli ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur isloxtlarda xar tomonlama keng dunyoqarashga ega, tafakkur tarzi rivojlangan, nazariy bilimlarini amaliyotda qullay oladigan mutaxassislarni

tayyorlash asosiy masalalardan biri bulib qolmoqda. Bunda bulajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining taktik fikrlash qobiliyatini tezkorlik jismoniy sifatiga moslashtirish, amaliy mashg‘ulot va musobaqa jarayonida taktik xarakat usullarini ratsional uzgartirish malakasini oshirishga qaratilgan uslubni ishlab chiqish, kreativlik kompetensiyalarini rivojlantirishga yunaltilgan uslublardan foydalanishga doir tadqiqot ishlari muxim xisoblanadi.

Ijtimoiy hayotimizdagi munosabatlarning vaqt nuqtai nazaridan o‘zgarib borishi jamiyat a‘zolarining tafakkur tarziga o‘z ta‘sirini o‘tkazmoqda. Bu jarayon uzluksiz davom etib, o‘zining rivojlanish yo‘lida yangi qirralarini namoyon qilayotgani ayni paytdagi insonlar tafakkur tarzida aks etmoqda. Ushbu o‘zgarishlar XXI asrda insoniyatning yangicha qarash va e‘tiqodga asoslanib faoliyatini tashkil qilishini yuzaga chiqardi. Tafakkur tarzi - ma‘lum ijtimoiy muhitda shakllangan, turli tafakkur uslublaridan kelib chiqadigan, qadriyatli mo‘ljallarni o‘zida jamlagan insonning faoliyat yuritish tarzidir. Unda o‘ziga xos bo‘lgan anglash, tushunish, tushuntirish, taxlil qilish kabi amaliy jarayonlar natijasidagi faoliyat namoyon bo‘ladi. Zamonaviy adabiyotlarda tafakkur tarzi ilmiy bilish tarzi, qarashlar majmui, dunyoqarash turi kabi talqinlar bilan ifodalanmoqda. Bu kabi talqin va ifodalar tafakkur tarzining tub mohiyatiga yetishimiz uchun kamlik qiladi. Tafakkur tarzi keng qamrovli tushuncha bo‘lib, uni ilmiy jihatdan etimologik va gnoseologik, sotsiologik jihatdan ijtimoiy va empirik yondashuvlar bilan tahlil qilish maqsadga muvofiq. Tafakkur tarzi ilmiy yondashuvga ko‘ra insonlarning voqelikni idrok etishi va unga bo‘lgan ratsional hamda irratsional munosabatidir.

Tafakkur tarzini anglashda tafakkurning mohiyatini bilish kerak. Manbalarda tafakkur tushunchasiga shunday ta‘rif beriladi: “tafakkur - (arab. - fikrlash, aqliy bilish) - inson ma‘naviy olamining tarkibiy qismi, olamdagi narsa va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlarini aniqlaydigan, ular o‘rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya‘ni qonuniy bog‘lanishlarni aks etadigan bilishning ratsional bosqichi”dir. Bugungi kunning eng muhim vazifasi ham - ongu tafakkurimizni zamonning o‘zi talab qilayotgan demokratik taraqqiyot tamoyillari va qadriyatlari bilan boyitib, uni yangi bosqichga ko‘tarishdi. “Tafakkur tarzi va uni shakllantiradigan ijtimoiy madaniy muhitning sotsiologik tadqiqoti o‘ta muhim ma‘no kasb etadi”.

O‘z-o‘zidan jismoniy mashqlar ma‘lum qonuniyatlar asosida bajarilishini inobatga olsak, bu jarayonda jismoniy tarbiya va sport mutaxassisining aql tafakkuri ham namoyon bo‘ladi. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari bu “tanlagan sport turi yoki sport turlari bilan muntazam shug‘ullanadigan, doimo o‘zining sport mahoratini oshirib boradigan va sport tadbirlarida qatnashadigan jismoniy shaxs”dir. Bu mutaxassislarning tafakkur tarzini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va yechim sifatida ularga yangicha zamonaviy yondashuvlarni taklif qilish hamda shu asosda ushbu mutaxassislarning tafakkur tarzini rivojlantirish usullarini yanada takomillashtirish dolzarb masaladir. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasining buyuk vakili P.F.Lesgaftning fikricha “Kishining aqliy rivojlanishi bilan jismoniy rivojlanishi o‘rtasida mustahkam aloqa mavjud”. Aslida ham inson tafakkuri rivoji uchun jismoniy kamolot kerak. Ma‘rifatparvar Abdulla Avloniyning quyidagi fikri yuqoridagi fikrning tasdig‘idir: “Badanning salomat va quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadir.

Chunki o‘qumoq, o‘qutmoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur. Sog‘badanga ega bo‘lmagan insonlar amallarinda, ishlarinda, ibodatlarinda kamchilik qilurlar”. J.K.Xolodov, B.C.Kuznesovlar bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari jismoniy

sifatlar va tafakkur rivojlanishining aloqadorligini, jismoniy tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlari, uning mazmuni va jarayonli asoslaridan kelib chiqib asoslaydi. Ya’ni, “aqliy va jismoniy tarbiya o‘rtasida ikki tomonlama munosabatlar mavjud. Bir tomondan, jismoniy tarbiya tafakkur rivoji uchun yaxshi sharoit yaratadi va uning rivojlanishga yordam beradi; boshqa tomondan, tafakkur rivoji jismoniy tarbiya samaradorligini oshirib, sportchilarning hal qilinayotgan vazifalar mohiyatini tushunishlari va ularning yechimini ijodiy izlashlari uchun imkoniyatni shakllantiradi”. Yu.D.Jeleznyak jismoniy va tafakkur faoliyatini takomillashtirishni jismoniy tarbiyaning muhim elementi deb hisoblaydi. L.P.Matveevning fikriga ko‘ra, “jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlashda ularning aqliy tayyorgarligi” muhim rol o‘ynaydi.

Chunki, sport faoliyatining mohiyatini, bevosita u bilan bog‘liq hodisa va jarayonlarni tafakkur rivojisiz tushunish qiyin. Oqibatda esa, yuqori sport natijalariga erishish mumkin emas. Sport mutaxassislarining tafakkur tarzini Yu.F.Kuramshina mustaqil, ijodiy va unumli fikrlash qobiliyati orqali yuzaga chiqadigan faoliyat deb tushuntiradi. Bu yerda shuni anglaymizki, ijodiy tafakkurga tayanib, kuchli fikrlash operatsiyalarini o‘tkazib xosil qilingan jismoniy faoliyat sport mutaxassisining haqiqiy tafakkur tarzini tashkil etadi. Tafakkur tarzi va uning xususiyatlarini o‘rgangan ingliz olimi R.Sterenberq o‘zining ilmiy izlanishlarida tafakkur tarziga “inson tomonidan o‘zini ruhiy boshqarish jarayoni” sifatida baho bergan.

Bizningcha, tafakkur tarzi insonning umumiy faoliyatini tashkil qilish va uni boshqarish jarayonidir. Bu jihatdan tafakkur tarzi individuallik xususiyatlarini namoyon qiladi. R.S. Salomov bugungi kunda sportchining ham jismoniy, ham aqlan rivojlanishida texnik, taktik, aqliy, funksional jihatdan tayyorlangan bo‘lishni talab qiladi deb ta’kidlaydi. A.Abdullaev, Sh.X.Xonkeldievlar fikriga ko‘ra, shug‘ullanuvchilar jismoniy mashqlarni ongli ravishda tushunib bajarsalar yoki ular sport mashg‘ulotlariga qiziqib, tashabbus ko‘rsatib ijodiy yondashsalar, organizmda harakat malakalarini to‘g‘ri shakllanishi, funksional qobiliyatlarini rivojlanishi uchun umumiy maxsus bilimlarga tayanishlari lozim bo‘lishini aytib o‘tadi. F.A. Kerimovning tahliliga ko‘ra, bellashuvlar va musobaqalarda yuzaga kelgan muayyan vaziyatlarda raqib xususiyatlarini hisobga olgan holda texnik iroda va jismoniy imkoniyatlardan mohirona foydalanishni - sport kurashi taktikasi deb hisoblaydi. Ushbu muallifning fikrida sportchining aqliy va jismoniy imkoniyatlarini amalda kompleks qo‘llashga e’tibor qaratilgan bo‘lib, bunda sport mutaxassisining tafakkur tarzini qanday bo‘lishi kerakligini anglaymiz. Bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassisining tafakkur tarzida barcha sport turlarida muhim bo‘lgan va shu bilan birga sportdagi ixtisoslashuvining o‘ziga xos jihatlari qarang turli darajada namoyon bo‘ladigan ayrim komponentlar mavjud.

Bular: - sport mashg‘ulotlari paytida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish qonunlarini bilish;

- mashg‘ulotlar jarayonida kuzatishlar va tegishli harakatlarni amalga oshirish natijasida olingan maxsus bilimlarni tezkor qayta ishlash;

- musobaqa paytida turli axborotlarni eslab qolish, yodda saqlash va kerakli holatda ishlata olish;

- qiyin vaziyatlarda tafakkur jarayonlari oqimining tezligi va moslashuvchanligi, tafakkurning mustaqilligi, aqlning kengligi hamda chuqurligi, fikrning izchilligiga tayanib faoliyatni tashkil etish;

- kutilayotgan hodisalarni oldindan sezish bilan harakat qilish va tezkor qaror qabul qilish.

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassisi ko‘p qirrali mutaxassisdir. Uning bajaradigan vazifalari ko‘p. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassisi “mashg‘ulotlarni rejalashtirish, uni tashkil qilish hamda o‘tkazish, o‘quvchilar jismoniy tayyorgarliklarini tekshirish, ularni sport va sog‘lomlashtiruvchi ishlarga jalb qilish” kabi vazifalarni bajarish protsessida o‘zining imkoniyatlarini namoyish etadi. Mana shu vazifalarni oqilona bajarish paytida bir vaqtning o‘zida kuzatuvchilarning tafakkur tarziga ham ta’sir o‘tkazadi. Endi jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarning tafakkur tarzidagi tamoyillarni keltirib o‘tamiz:

- vorisiylik;
- ijodkorlik;
- taktik va texnikaviylik;
- maqsadga yo‘nalganlik;
- moslashuvchanlik;
- namunaviylik.

Sport mutaxassisining shaxsiy namuna ko‘rsatishi orqali tafakkur tarzining vorisiylik tamoyili paydo bo‘ladi. Shu orqali “Ustoz-shogird” an‘anasiga asoslangan tafakkur tarzi xosil bo‘ladi. Murabbiy deb yozadi R.S.Salomov “...sportchining harakat a‘zolari faoliyatini shakllantirishga jismoniy sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan mashq jarayonini amalga oshiradi, mashg‘ulot usuli yordamida sportchini tartibli ravishda musobaqalarga tayyorlash masalasini va sportchi faoliyatining rivojlanishini boshqarishda pedagogik jarayonini ifodalovchi moslovchi masalalarni hal qiladi”. Ushbu fikrdan anglashiladiki, jismoniy tarbiya va sport mutaxassisining tafakkur tarzi ustoz yoki murabbiy tomonidan shakllantirilib boriladi. “Ustoz-shogird” an‘anasi davomiyligida bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarida qadriyatlarga asoslangan tafakkur tarzi shakllanib, takomillashadi. Bugungi globallashuv davrida bunday tafakkur tarzini saqlab qolish muhim ahamiyatga egadir. Chunki, globallashuv jarayonining tezlashishi natijasida insoniyat ongi va tafakkurida keskin o‘zgarishlar yuz berib, milliy chegaralar yuvilib, millatlar va xalqlar orasida yangicha munosabatlar avj olayotgan davrda milliy o‘zlikni saqlab qolish va milliy tafakkur tarzimizni har tomonlama rivojlantirish dolzarb masaladir.

Xulosa. Biz tafakkur tarzi va uning mazmun-mohiyatini ko‘rib chiqish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik: jismoniy tarbiya tafakkur rivoji uchun sharoit yaratadi va uning rivojlanishga yordam beradi, boshqa tomondan, tafakkur rivoji jismoniy tarbiya samaradorligini oshirib, bo‘lajak sportchilarning hal qilinayotgan vazifalar mohiyatini tushunishlari hamda ularning yechimini ijodiy izlashlari uchun imkoniyatni shakllantiradi, sport mutaxassislarning tafakkur tarzi mustaqil, ijodiy va unumli fikrlash qobiliyati orqali yuzaga chiqadigan faoliyatdir. Bu shuni anglatadiki, ijodiy tafakkurga tayanib, kuchli fikrlash operatsiyalarini o‘tkazib xosil qilingan jismoniy faoliyat sport mutaxassisining haqiqiy tafakkur tarzini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Akbarov A., Musaev B. Sport metrologiyasi. Darslik. T:Tafakkur qanoti, 2014.-423 b.
2. Xudayberdieva N.A. Jismoniy tarbiya va sport sohasida pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish: (PhD)...diss.avtoref. Chirchiq:O‘zDJTSU, 2020.-50 b.

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

3. Пухаева Е.Г. Педагогическое проектирование процесса подготовки студентов университета будущих специалистов в области физической культуры и спорта. Автореф.дис.. канд. пед. наук.- Владикавказ: 2005. - 24 с.

4. Shopulatov A.N. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarida ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish yo‘llari. Monografiya. T.:Lesson Press nashriyoti, 2020. - 130 b.

RUS ADABIYOTINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Abdullayeva Dilraboixon Rustamovna

Buxoro shahri Osiyo Xalqaro Universiteti 1-kurs magistranti

E-mail: dilraboixonabdullaeva177@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18704386>

***Annotatsiya:** Maqolada XXI asr boshlarida rus adabiyotida yuz berayotgan asosiy tendensiyalar tahlil qilinadi. Postmodernizmning transformatsiyasi, yangi realizm yo‘nalishi, tarixiy xotira fenomeni, ayollar prozasining rivoji hamda raqamli adabiyot jarayonlari misollar asosida yoritiladi. Zamonaviy rus adabiy jarayoni global madaniy almashinuv, siyosiy-ijtimoiy o‘zgarishlar va axborot texnologiyalari ta’sirida shakllanayotgani to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltiriladi.*

***Kalit so‘zlar:** rus adabiyoti, postmodernizm, realizm, xotira, raqamli adabiyot, ayollar prozasi.*

***Аннотация:** В статье анализируются основные тенденции в русской литературе начала XXI века. На примерах освещаются трансформация постмодернизма, направление нового реализма, феномен исторической памяти, развитие женской прозы и цифровые литературные процессы. Представлена информация о том, что современный русский литературный процесс формируется под влиянием глобального культурного обмена, политических и социальных изменений, а также информационных технологий.*

***Ключевые слова:** русская литература, постмодернизм, реализм, память, цифровая литература, женская проза.*

***Abstract:** The article analyzes the main trends in Russian literature at the beginning of the 21st century. The transformation of postmodernism, the direction of new realism, the phenomenon of historical memory, the development of women's prose, and digital literary processes are highlighted on the basis of examples. Information is provided on the fact that the modern Russian literary process is being formed under the influence of global cultural exchange, political and social changes, and information technologies.*

***Keywords:** Russian literature, postmodernism, realism, memory, digital literature, women's prose.*

XX asr oxirida sobiq ittifoq parchalanishi bilan Rossiya adabiy muhitida tub o‘zgarishlar boshlandi. Ijtimoiy-siyosiy tizimning almashinuvi adabiy-estetik qarashlarning yangilanishiga sabab

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

bo‘ldi. Agar sovet davri adabiyoti mafkuraviy chegaralar bilan belgilanib kelgan bo‘lsa, mustaqillikdan keyingi davrda badiiy tafakkur erkinlashdi. Bu jarayon dastlab postmodernizm ruhida tajribalar bilan namoyon bo‘ldi. Zamonaviy rus adabiyoti bugungi kunda ko‘plab yo‘nalishlar, uslublar va janrlar xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Unda klassik an‘analarga murojaat bilan bir qatorda, global madaniyat va internet makoni ta‘siri ham sezilarli.

XX asrning 1990-yillarida rus adabiyotida postmodernistik ruh ustuvor bo‘ldi. Rus adabiyotida postmodernizm XX asrning 1970–1990-yillarida shakllanib, 2000-yillarda transformatsiyalashgan holda davom etdi. Ushbu yo‘nalish intertekstual o‘yin, ironik uslub, sitata va parodiya, mifologik qatlamlar hamda matn ichidagi “matn” konstruktsiyasi bilan ajralib turadi.

Bu davrda ijod qilgan rus adiblaridan Venedikt Yerofeyev (Moskva–Petushki), Andrey Bitov (Pushkinskiy dom), Viktor Pelevin (Generation “P”, Chapayev i Pustota), Sasha Sokolov (Shkola dlya durakov), Mark Lipovetsky (Russkiy postmodernism) bo‘lib, ularning asarlarida reallik va illyuziya, mif va zamonaviylik o‘rtasidagi chegaralar buziladi. Shuningdek, Vladimir Sorokin ijodi orqali satirik grotesk, antiutopik tasvir va intertekstual o‘yinlar keng qo‘llanildi. Postmodernizm zamonaviy davrda to‘liq yo‘qolib ketgani yo‘q, biroq u yanada murakkab shaklga o‘tib, realizm va falsafiy izlanishlar bilan uyg‘unlashmoqda. Rus postmodernizmi klassik realizm va sovet adabiyoti an‘analarini dekonstruksiya qilish orqali shakllandi. U matnni “o‘yin maydoni” sifatida talqin qiladi, mualliflik pozitsiyasini nisbiylashtiradi va haqiqat tushunchasini ko‘p qatlamli qilib ko‘rsatadi.

2000-yillarga kelib, rus adabiyotida “yangi realizm” deb ataluvchi oqim shakllana boshladi. Bu yo‘nalish vakillari jamiyat muammolarini sodda, hayotiy va psixologik chuqurlik bilan aks ettirishga intiladi. Masalan, Zakhar Prilepin asarlarida ijtimoiy konflikt, harbiy tajriba va insoniy dramalar markazga chiqadi. Yangi realizm badiiy haqiqatni idealizatsiyasiz, real muhit bilan uzviy bog‘liq holda tasvirlashni maqsad qiladi. Bu tendensiya klassik realizm an‘analariga qaytish sifatida baholanadi, ammo unda zamonaviy insonning ichki inqirozi, ijtimoiy beqarorlik va identitet izlanishlari ustuvor mavzu bo‘lib qolmoqda.

Rus adabiyotida tarixiy xotira mavzusi ham muhim o‘rin tutadi. XX asr fojealari, urush, repressiyalar va sovet davri tajribasi ko‘plab asarlarda qayta talqin etilmoqda. Lyudmila Ulitskaya ijodida tarix va shaxs munosabati, oilaviy xotira, avlodlar davomiyligi muhim o‘rin egallaydi. Muallif tarixiy jarayonlarni individual taqdirilar orqali yoritishga intiladi. Tarixiy romanlar va xotira prozasi bugungi rus o‘quvchisi uchun o‘zlikni anglash vositasi sifatida xizmat qilib kelmoqda. Zamonaviy rus adabiyotida ayollar yozuvchilari faol ishtirok etmoqda. Ular inson ruhiyati, oilaviy munosabatlar,

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

jamiyatdagi gender rollari masalalarini chuqur yoritmoqda. Tatyana Tolstaya hamda Guzel Yakhina ijodi ayollar prozasining yorqin namunasi hisoblanadi. Ayniqsa, Yaxining tarixiy asosdagi romanlarida millatlararo munosabat va shaxs erkinligi masalalari dolzarb talqin qilinadi.

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo‘lsak, hozirgi rus adabiyoti ko‘p qirrali va murakkab jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda. Postmodernizm an‘analari saqlanib qolgan bo‘lsa-da, yangi realizm, tarixiy xotira, ayollar prozasi va raqamli adabiyot kabi tendensiyalar ustuvor yo‘nalish sifatida shakllandi. Bugungi rus adabiyoti milliy an‘analarni global madaniyat bilan uyg‘unlashtirgan holda rivojlanmoqda. U insonning ichki dunyosi, tarixiy xotirasi va zamonaviy jamiyatdagi o‘rni haqida chuqur falsafiy mushohada yuritadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yakhina Guzel G. Zulaykha otkryvayet glaza. — Moskva: AST, 2015.
2. Tolstaya Tatyana T. Kys. — Moskva: Vagrius, 2020.
3. Epstein Mikhail. Postmodern v russkoy literature. — Moskva: Vysshaya shkola, 2015.
4. Ivanova Natalya N. Sovremennyy literaturnyy protsess v Rossii. — Moskva: Akademicheskii proyekt, 2010.
5. Chernyak Mikhail M. Sovremennaya russkaya literatura XXI veka. — Sankt-Peterburg: Filologicheskii fakul'tet SPbGU, 2018.
6. <https://spaceknowladge.com/index.php/JOISR/article/view/1921>
7. Rus adabiyoti // https://uz.wikipedia.org/wiki/Rus_adabiyoti [Murojaat qilingan sana: 08.02.2026]
8. Акбаров R. (2023). Вопрос электрификации Узбекистана в годы Второй мировой войны (по данным узбекской национальной прессы). Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 443–455. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/history-of-uzbekistan/article/view/16527>

**GERMENEVTIK TADQIQOTLARNING MULOQOT ETIKASINI O‘RGANISHDAGI
AHAMIYATI**

Botirova Sevara Mamurovna

NamDPI falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasini mudiri

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

sevarabotirova783@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18704411>

Annotatsiya: mazkur maqolada muloqot etikasining ilmiy o‘rganilishida falsafaning hermenevtik tadqiqotlaridan foydalanishning o‘rni, madaniy hamda ijtimoiy jihatdan qo‘llanilishidagi muhim jihatlari ko‘rib chiqilgan. Maqola axloqiy qoidalarga asoslangan muloqot jarayonini nazariy va amaliy asoslashda hermenevtikadan foydalanish istiqbollari ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: hermenevtika, talqin qilish, axloqshunoslik, muloqot etikasi, tushunish, ijtimoiy munosabatlar, kommunikativlik, falsafiy yondashuvlar.

Abstract: This article examines the scientific study of the hermeneutic communicative relationship in philosophy, its cultural and social support. The article shows the use of moral support, which is a step forward from hermeneutics in the theoretical and practical justification of the communication process.

Keywords: hermeneutics, interpretation, ethics, communication ethics, support, social relations, communicativeness, philosophical signals.

Аннотация: В данной статье рассматривается научное исследование герменевтической взаимосвязи переноса и нагрузки в философии, а также её культурная и социальная поддержка. В статье показано использование моральной поддержки, которая является шагом вперёд по сравнению с герменевтикой в теоретическом и практическом обосновании коммуникационного процесса.

Ключевые слова: герменевтика, интерпретация, этика, коммуникационная этика, поддержка, социальные отношения, коммуникативность, философские сигналы.

Germenevtika - matnlarni, madaniyatlarni va insoniy xulq-atvorlarni chuqur tushunish va talqin qilish san‘ati va fanidir. Uning yondoshuvi nafaqat adabiyot, falsafa va tarix sohalarida, balki kommunikatsiya va etikada ham juda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, muloqot etikasi sohasida

germenevtik tadqiqotlar insonlar o‘rtasidagi samimiy, hurmatga asoslangan va samarali aloqa o‘rnatishga xizmat qiladi. Muloqot va germenevtika o‘zaro aloqador jihatlariga ega. Zamonaviy germenevtika og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan muloqotni, shuningdek, semiotika, taxminlar va oldindan tushunishni o‘z ichiga oladi. [1]

Muloqot madaniyati insonlar o‘rtasidagi aloqalarni shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi. U nafaqat fikr almashish, balki hissiyotlar, qadriyatlar va madaniyatlarni ham ifodalaydi. Muloqot madaniyatini rivojlantirishda germenevtika, ya’ni tushunish va talqin qilish san’ati, muhim rol o‘ynaydi. Germenevtik tadqiqotlar orqali biz muloqot jarayonining chuqur qatlamlarini o‘rganish va ularni yaxshilash imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Germenevtika, dastlab diniy matnlarni talqin qilish uchun yaratilgan bo‘lsa-da, hozirda u ijtimoiy fanlar, psixologiya va kommunikatsiya sohalarida keng qo‘llanilmoqda. Dastlab diniy muloqot doirasida o‘rganilishiga yunon afsonalaridagi hermes ismli afsonaviy yunon hudolari avom xalq o‘rtasida muloqot qilishga yordam bergan vositachi asos bo‘lgan edi. Yunonlarning til haqiqatga yoki yolg‘onga olib kelishi mumkin bo‘lgan belgilardan iborat degan qarashi Hermesning mohiyati edi. [2] Aynan shu mulohazalar faylasuflarning muloqot madaniyati rivojlantirishda dastlab germenevtikani ilohiyotshunoslikda qo‘llashlariga ta’sir qilgan.

Zamonaviy ilmiy qarashlarda esa, germenevtik yondashuvning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- muloqot jarayonida ishtirok etuvchi tomonlar o‘rtasidagi munosabatlarni chuqur tushunish;
- har bir muloqotda berilgan ma’lumotni to‘g‘ri talqin qilish va uning kontekstini hisobga olish;
- muloqot jarayonida ochiq va samimiy muloqotni rag‘batlantirish.

Germenevtik tadqiqotlar muloqot madaniyatini rivojlantirishda bir necha jihatdan yordam beradi. Avvalambor, qaror qabul qilish jarayonini yaxshilaydi. Germenevtika yordamida muloqot jarayonida ishtirok etuvchi tomonlar o‘rtasidagi fikr almashish va qaror qabul qilish jarayonlari yaxshilanadi. Bu esa, o‘z navbatida, muammolarni tez va samarali hal qilish imkonini beradi. Germenevtika bu borada so‘zlashuvchilarning tushunishlariga imkon beruvchi vositalarga urg‘u beradilar. N.Shermuxeimedova tushunish va tushuntirishning germenevtik asoslarini falsafiy-metodologik jihatdan taxlil etadi va tushunishning muayan xodisa ma’nosini anglashdagi muxim rolini ta’kidlaydi. [3]

Shuningdek, so‘zlashuvda yuzaga keladigan madaniy farqlarni tushunishda va yechimlar topishda ham hermenevtikadan foydalaniladi. Hermenevtik yondashuvlar yordamida turli madaniyatlarga mansub insonlar o‘rtasidagi muloqotni yaxshilash mumkin. Madaniy farqlarni tushunish va ularga hurmat bilan yondashish muloqot madaniyatini oshiradi. Bu boradagi tadqiqotlar madaniy tafovutlarni va boshqa maxs mavzulariga yechim topishda mashxur bo‘lgan sotsiologik hermenevtika yo‘nalishida uchraydi.

Sotsiologik hermenevtikaning otasi sifatida keng tanilgan Fridrix Shleyermaxer, tarjimon boshqa muallifning asarini tushunishi uchun muallif o‘z fikrlarini nashr etgan tarixiy kontekst bilan tanishishi kerak, deb hisoblagan. [4] Mazkur kontekst davriy, til va madaniy farqlanishlarni ham nazarda tutar edi. Ayni paytda bunday qarashlar M.Xaydeggerning “hermenevtik doira” nazariyasini asoslashda va kontekst asosida muloqotni izohlashga qaratilgan izlanishlarga yordam berdi.

Hermenevtikaning nazariy o‘rganilishi insonning empatiya va hissiy intellektni rivojlantirish uchun xizmat qilishi ma’lum ijtimoiy jarayondir. Yurtimizda bu borada izlanish olib borgan B.Xusanov jamiyatda, jumladan insondagi nafasat falsafasining shakllanishida hermenevtikaning o‘rniga e’tibor qaratadi. B.E.Xusanov go‘zallikni idrok etishda estetika va hermenevtikaning bog‘likligini tadkik etib, hermenevtikaning nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. [5] Hermenevtika muloqot jarayonida empatiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa, odamlarning bir-birini yaxshiroq tushunishiga va hissiy jihatdan bog‘lanishiga olib keladi.

Zamonaviy jamiyatda muloqot madaniyatiga ta’sir qiluvchi ko‘plab muammolar mavjud. Ijtimoiy tarmoqlar, mass-media va globalizatsiya kabi omillar muloqotning sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Hermenevtik tadqiqotlar bu muammolarni hal qilishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Hermenevtik tadqiqotlar samarali muloqot uchun platformalar yaratish buning istiqbolli yechilaridandir. Hermenevtika yordamida samarali muloqot platformalarini yaratish va rivojlantirish mumkin. Bunday platformalar orqali insonlar o‘z fikrlarini erkin ifoda etishlari va boshqalar bilan samarali muloqot qilishlari mumkin.

Ta’lim tizimida hermenevtik yondashuvlarni qo‘llash orqali talabalar o‘rtasida muloqot madaniyatini oshirish mumkin. Bu, o‘z navbatida, kelajak avlodning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Hermenevtik tadqiqotlar muloqot madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular orqali biz muloqot jarayonining chuqur qatlamlarini tushunish, madaniy farqlarni anglash va empatiya ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Zamonaviy fan muammolarni hal qilishda hermenevtik yondashuvlar yordamida samarali yechimlar ishlab chiqish mumkin. Shu tariqa, muloqot madaniyatini yanada yuqori darajaga ko‘tarish uchun hermenevtika bizga zarur vosita sifatida xizmat qiladi. Muloqot madaniyati insonlar orasidagi axborot almashinuvidan ancha kengroq tushuncha ekanligini hermenevtika asoslaydi. [6] Muloqot etikasi - bu insonlar o‘rtasidagi muloqot jarayonida yuzaga keladigan axloqiy tamoyillar, qadriyatlar va munosabatlarni o‘rganadi. Hermenevtik yondashuv orqali muloqot jarayonini chuqurroq anglash va uning nozik jihatlarini aniqlash mumkin.

Bu yerda hermenevtika ikki asosiy yo‘nalishda ahamiyat kasb etadi:

- tushunish jarayonining shaffofligi. Ya’ni hermenevtik yondashuv muloqotchilarning bir-birini noto‘g‘ri tushunish xatolaridan qochishiga yordam beradi. Ular bir-birining kontekstini, madaniy o‘zliklarini va tilni qanday qabul qilayotganlarini yaxshiroq anglashadi.

- axloqiy qarorlarni shakllantirish. Bu esa, kommunikatsiyaning etik normativlariga rioya qilinishi uchun hermenevtik talqin muloqot ishtirokchilarining niyatlari, kontekstual sharoitlari va madaniy qadriyatlarini hisobga oladi. Bu esa axloqiy qiyinchiliklarni hal qilishda adolatli va sezgir yondashuvni ta’minlaydi. Shu tariqa, til va tafakkur birligi jamiyatning ma’naviy, madaniy va estetik asoslarini yaratadi. [7]

Turli madaniyatlardan kelgan odamlar o‘rtasidagi muloqotda bildiruvlar va tushunchalar talqini har xil bo‘lishi mumkin. Hermenevtik tadqiqotlar madaniy tafovutlarni inobatga olib, konstruktiv va mulozim muloqotni rivojlantirishda yordam beradi. Bu esa global miqyosda madaniyatlararo hamkorlik va o‘zaro hurmat uchun asos yaratadi. Bugungi kunda axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlar muloqotni tezlashtirdi, ammo noto‘g‘ri tushunish va axloqiy nizolar ko‘paydi. Hermenevtik metodlar yordamida muloqotdagi ma’no tafovutlarini aniqlash va ularni hal qilish mumkin. Bu esa muloqot etikasi doirasidagi muammolarni bartaraf etishga, hamda insonlar o‘rtasida ishonch va hurmat muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Xulosa

Hermenevtik tadqiqotlar muloqot etikasi sohasida chuqur va perspektiv yondashuvni taklif etadi. U insonlarning turli madaniyat, til va kontekstlarda yuzaga keladigan talqin farqlarini yuzaga chiqaradi va ularga adolatli, hurmatga asoslangan yechimlarni izlashga yordam beradi. Natijada samarali, etik asosda qurilgan muloqot jamiyatning barqaror rivojlanishi va o‘zaro tushunishni oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

1. The Routledge Companion to Philosophy in Organization Studies, Routledge, 2015, p. 113.
2. White, R. E., & K. Cooper, Qualitative Research in the Post-Modern Era: Critical Approaches and Selected Methodologies (London: Springer Nature, 2022), p. 63.
3. Шермухамедова Н. Фалсафа ва фан методолошияси. -Тошкент: Университет, 2005. -Б. 313.
4. https://en.wikipedia.org/wiki/Hermeneutics#cite_note-16 [Murojaat qilingan sana: 17.12.2025]
5. Хусанов Б.Э. Шахс ва жамият муносабатларида гузалликнинг намоён булиш хусусиятлари: Фалс. фан. номз.... дис. -Тошкент: Университет, 2002. -Б. 54.
6. Sevara Mamurovna Botirova Germenevtik nazariyalarda muloqot madaniyatiga oid masalalarning o‘rganilishi. Sharq ijtimoiy fanlari jurnali. 1-son. 2026. 34-39 betlar.
7. Germenevtik tafakkurda nutq va muloqot odobi shakllanishining ijtimoiy-falsafiy asoslari / monografiya: – T.: 2026 yil, 27-bet .

LEGENDS AMONG UZBEK AND ENGLISH PEOPLES: SIMILARITIES AND DIFFERENCES

Isaqova Shaxnoza Baxtiyorovna

Namangan State Technical University

Teacher at the Department of English

Email: shahnozaisaqova53@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18704444>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz xalqlari afsonalarining o‘xshash va farqli jihatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda har ikki xalq afsonalarining tarixiy asoslari, diniy ta’siri, qahramon obrazlari, axloqiy-ma’rifiy mazmuni va og‘zaki ijod an’analari o‘rganiladi. Shuningdek, afsonalarning milliy o‘zlikni shakllantirishdagi roli hamda madaniy xotirani saqlashdagi ahamiyati yoritiladi. Tahlil natijasida o‘zbek va ingliz afsonalari diniy, ijtimoiy va tarixiy kontekstda farqlansa-da, ularni birlashtirib turuvchi umumiy qadriyatlar — qahramonlik, adolat va axloqiylik ekani asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: afsona, og‘zaki ijod, qiyosiy tahlil, milliy o‘zlik, qahramonlik, diniy ta’sir, o‘zbek afsonalari, ingliz afsonalari, madaniy xotira, folklor.

Аннотация: В данной статье проводится сравнительный анализ легенд узбекского и английского народов. Рассматриваются исторические основы, религиозное влияние, образы героев, нравственно-воспитательная направленность и традиции устного творчества в обеих культурах. Особое внимание уделяется роли легенд в формировании национальной идентичности и сохранении культурной памяти. В результате исследования установлено, что, несмотря на различия в религиозном и историческом контексте, узбекские и английские легенды объединяет общая система ценностей, основанная на героизме, справедливости и нравственности.

Ключевые слова: легенда, устное народное творчество, сравнительный анализ, национальная идентичность, героизм, религиозное влияние, узбекские легенды, английские легенды, культурная память, фольклор.

Abstract: This article presents a comparative analysis of Uzbek and English legends, highlighting their similarities and differences. The study examines their historical foundations, religious influences, heroic figures, moral functions, and oral storytelling traditions. Particular

attention is given to the role of legends in shaping national identity and preserving cultural memory. The research demonstrates that despite differences in religious and historical contexts, both traditions share common values rooted in heroism, justice, and moral principles.

Keywords: *legend, oral tradition, comparative analysis, national identity, heroism, religious influence, Uzbek legends, English legends, cultural memory, folklore.*

Introduction

Legends occupy a significant place in the cultural heritage of every nation. They reflect historical experiences, religious beliefs, moral values, and collective imagination. As a form of oral tradition, legends preserve the memory of heroes, rulers, saints, and extraordinary events, passing them from generation to generation. Through legends, societies not only entertain but also educate, inspire, and shape national consciousness.

Both Uzbek and English peoples possess rich legendary traditions that developed under different historical, religious, and social conditions. English legends are closely connected with medieval chivalry, Christian symbolism, and feudal society, while Uzbek legends are deeply rooted in Islamic culture, Sufi spirituality, and ancient Turkic heritage. Despite these differences, both traditions share universal elements such as heroism, moral instruction, and the struggle between good and evil.

This study aims to explore the similarities and differences between Uzbek and English legends through a comparative approach. By analyzing themes, characters, religious influences, and linguistic features, the article seeks to demonstrate how legends function as cultural mirrors reflecting both national identity and universal human values.

Similarities Between Uzbek and English Legends

Connection with History and Heroic Figures

Both traditions glorify heroic personalities who represent national ideals.

- English legends feature figures such as King Arthur, Robin Hood, and St. George.
- Uzbek legends celebrate heroes like Gorogly, Amir Temur, and Jaloliddin Manguberdi.

These characters embody bravery, justice, leadership, and resistance to injustice.

Moral and Didactic Purpose

Legends in both cultures function as moral guides.

- English legends often promote values such as loyalty, courage, honor, and fairness.
- Uzbek legends emphasize faith, patience, justice, respect, and moral responsibility.

Through storytelling, communities pass ethical lessons from one generation to another.

Presence of Supernatural Elements

Supernatural forces play an important role in both traditions.

- In English legends, witches, fairies, ghosts, and haunted castles are common.
- Uzbek legends include jinn, dev, pari, and sacred places believed to possess miraculous

powers.

These elements add mystery and symbolize the struggle between good and evil.

Geographical Connection

Legends are often tied to specific locations.

- English legends are associated with places such as Sherwood Forest, Tintagel Castle, and the Tower of London.

- Uzbek legends are connected with the Registan in Samarkand, the shrine of Bahauddin Naqshband in Bukhara, and sacred lakes and mountains.

Such locations strengthen the cultural and historical authenticity of legends.

Oral Tradition

In both cultures, legends were preserved orally before being written down. Storytellers adapted narratives over time, reshaping them for new audiences while preserving their core meanings.

Differences Between Uzbek and English Legends

Religious Influence

- English legends largely reflect Christian traditions, including saints, churches, and miracles.

- Uzbek legends are deeply influenced by Islam and Sufism, focusing on saints, shrines, prayers, and spiritual enlightenment.

Social Themes

- English legends often emphasize social justice and rebellion, as seen in the figure of Robin Hood, who defends the poor against oppression.

- Uzbek legends tend to focus more on spiritual guidance, moral discipline, and patience during life’s trials, often through the actions of saints and wise figures.

Language and Lexical Features

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

- English legends use vocabulary linked to medieval chivalry and feudal society, such as knight, squire, and castle.
- Uzbek legends rely heavily on religious and philosophical terms, including haqiqat, adolat, taqdir, and sabr.

Types of Heroes

- English heroes are typically knights or rebels who fight injustice through physical strength and weapons.
- Uzbek heroes may be warriors, but they are often saints, wise men, or rulers whose authority comes from spiritual power and moral wisdom.

Historical Development

- English legends mainly flourished during the Middle Ages.
- Uzbek legends span a wider historical range, from ancient Turkic traditions through the Islamic Golden Age to the medieval period.

Conclusion

Although Uzbek and English legends differ in religious influence, themes, and historical development, they share common foundations in heroism, morality, and cultural memory. Together, these traditions demonstrate how legends preserve national identity while expressing universal human values that remain relevant across time and cultures.

References:

1. Grimm, J. & Grimm, W. (1812). *Kinder- und Hausmärchen*.
2. Jacobs, J. (1890). *English Fairy Tales*. London.
3. Propp, V. (1968). *Morphology of the Folktale*. University of Texas Press.
4. Teylor, E. B. (1871). *Primitive Culture*.
5. Freyzer, J. (1890). *The Golden Bough*.
6. Yo‘ldoshev, M. (2010). *O‘zbek xalq og‘zaki ijodi*. Toshkent.
7. Karimov, H. (2011). *O‘zbek xalq ijodining tarixiy asoslari*. Toshkent.
8. Jung, C. G. (1954). *The Archetypes and the Collective Unconscious*. Princeton University Press.

“BOBURNOMA” – BEBAHO YODGORLIK

Xolmatov Adusattor Xayrullo o‘g‘li

Namangan davlat pedagogika instituti Tarix yo‘nalishi talabasi

E-mail: gmgmdnill@gmail.com

Ilmiy rahbar: Xaydarov Zaxriddin Bobur Umarovich

Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti, t.f.n.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18704477>

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk mutafakkir, shoir, sarkarda va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning hayot-faoliyati va jahon adabiyoti va tarixshunosligi uchun noyob yodgorlik bo‘lgan – “Boburnoma” asari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Bobur Mirzo, temuriylar, Andijon, Hindiston, Boburiylar imperiyasi, “Boburnoma”, turkiy til, tarixiy-geografik asar.

Аннотация: В данной статье представлена информация о жизни и деятельности великого мыслителя, поэта, полководца и государственного деятеля Захириддина Мухаммада Бабура, а также о его уникальном произведении «Бабур-наме», которое является ценным памятником мировой литературы и историографии.

Ключевые слова: Бабур Мирза, Тимуриды, Андижан, Индия, Империя Великих Моголов, «Бабур-наме», тюркский язык, историко-географическое произведение.

Abstract: This article provides information about the life and activity of the great thinker, poet, military leader, and statesman Zahiriddin Muhammad Babur, as well as his unique work Baburnama, which is considered a valuable monument of world literature and historiography.

Keywords: Babur Mirza, Timurids, Andijan, India, Mughal Empire, Baburnama, Turkic language, historical and geographical work.

Zahiriddin Muhammad Bobur* (1483 – 1530) – o‘zbek tarixi va mumtoz adabiyotining yirik vakili, buyuk shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste’dodli sarkarda, boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shahzoda. Bobur o‘z davrining buyuk shaxslaridan biridir. Uning she’rlari, ruboiylari o‘z

* Bobur taxallusi, to‘liq ismi Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo.

vaqtida va hozir ham sevib oqilmoqda. Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub asarlaridan eng mashhuri – “Boburnoma” dir.

Boburnoma“ o‘zida bayon qilingan voqealar jarayoniga ko‘ra 3 qismga: Boburning Movarounnahr (1494 – 1504), Afg‘oniston (1504 – 1524) va Hindiston (1524 – 1530)dagi hukmdorlik davriga bo‘linadi:

Birinchi qismda Boburning otasi – temuriylarning Farg‘ona ulusi hokimi Umarshayx Mirzo (1461 – 1494) xususida hamda Boburning Farg‘ona taxtiga o‘tirishi (1494-yil iyun), ammo Temuriylar davlatida avj olgan taxt uchun kurash oqibatida o‘z ulusidan mahrum bo‘lishi (XV asr 90-yillari), Samarqand uchun Shayboniyxonga qarshi olib borgan jang- u jadallari (1497–1501)ning behuda ketishi va nihoyat, toj-u taxtdan butunlay ajrab, Hisor tog‘lari orqali taxminan 250 navkar bilan Afg‘onistonga yuz tutishi (1504) haqidagi voqealar batafsil zikr qilingan.

Ikkinchi qismda Boburning Kobulni zabt etgani, so‘ng u yerda mustaqil davlat tuzgani (1508), Eron shohi Ismoil Safaviyning harbiy yordami bilan Samarqandni yana ishg‘ol qilgani (1511), lekin shayboniylar (Ubaydulla Sulton, Muhammad Temur Sulton va Jonibek Sulton)dan yengilib (1512), Kobulga qaytgani, keyin esa Hindistonni zabt etishga hozirlik ko‘ra boshlagani xususidagi voqealar bayon etilgan.

Uchinchi qism esa Boburning Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyini mag‘lub etib (qarang Panipat janglari), Shimoliy Hindistonni bosib olgani (1526) va Boburiylar davlatini barpo qilgani haqidagi ma’lumotlardan iborat [1. – B. 34].

“Boburnoma” – adabiy va tarixiy ahamiyatga molik asar. Unda o‘z davridagi ko‘plab kishilarning turli vaziyatlardagi kechinmalari, Osiyoning ko‘plab tog‘lari, daryolari, o‘rmon va cho‘llari, iqlimi, aholisi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ahvoli haqidagi ma’lumotlar jamlangan. “Boburnoma” – o‘zbek nasrining go‘zal namunasi. Ungacha Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari muqaddimasida, Rabg‘uziy ijodida nasr namunalari uchrar edi. Alisher Navoiy uni yuqori pog‘onaga olib chiqdi. Biroq “Boburnoma” bu borada o‘zbek nasrining o‘ziga xos kashfiyoti sifatida yuz ko‘rsatdi. Asarda tarixning Bobur yashab o‘tgan davri voqelari ifodalangan. Bu voqealar Andijon, Samarqand, Xo‘jand, Hirotdan boshlab Kobul va Agragacha bo‘lgan qamrovga ega [2. – B. 6-7.]. Ya’ni unda O‘rta Osiyodan boshlab Hindistongacha bo‘lgan masofadagi deyarli 50 yillik voqealar haqqoniy ifoda va bahosini topgan. “Boburnoma”dagi voqealar bayoni aniq, ixcham va lo‘nda, ta’sirchan, eng muhimi, hayotiy haqiqatga mos va muvofiqligi bilan e’tiborlidir. Bobur voqealar bayonida tabiat tasviriga, ayrim joylar tavsifiga, alohida kishilarning ta’riflariga jiddiy ahamiyat

beradi. Asarda o‘sha davr kishilarining haqqoniy, realistik tasviri berilgan. Bu narsa Boburning bergan ma’lumotlaridagi ishonchlilikni ta’minlagan.

Asar bilan yaxshi tanishish Bobur xarakterini, undagi fazilatlar manbalarni aniqlashga imkon beradi. Bobur o‘z otasi haqida shunday yozadi: “...hanafiy mazhabliq, pokiza e’tiqodliq kishi edi... Ravon savodi bor edi” [2. – B. 72.]. Bobur ko‘plab hukmdorlar, mamlakat boshliqlari haqidagi tarixiy faktlarni muhrlab qoldirgan. Amir Temur, Umarshayx, Mirzo Ulug‘bek, Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Badiuzzamon, Muzaffar Mirzo singari davlat boshliqlarining siyosiy-ijtimoiy faoliyatlariga baho berilgan. Boburning o‘zi har qanday holatda, hatto urush-taloshlar avj olib turganida ham adolat mezonini qattiq tutgan. Jumladan, (1503–1504) yillar voqealari bayonida shu holat kuzatiladi [4]. Qunduz shahri atrofida Xisravshohning askarlari ancha betartiblikka, zulm va zo‘ravonlikka o‘rgangan edilar. Ular Boburga qo‘shilganidan keyin ham bu odatlarini tashlamaydi. Bir navkar “...birovning bir ko‘za yog‘ini tortib olg‘on uchun eshikka kelturub tayoqlattim, tayoq ostida o‘q joni chiqdi. El bu siyosatdin tamom bosildilar”, – deb ta’kidlaydi Boburning o‘zi.

Asarda o‘simliklar va hayvonot olami haqidagi nodir ma’lumotlar ham jamlangan, adib Afg‘onistondagi Dashti Shayxda o‘ttiz uch xildagi bir-birini takrorlamaydigan lola turlari haqida gapiradi. “Boburnoma”da adabiyot va san’at ahli, ilm-ma’rifat kishilariga ham munosib o‘rin berilgan. Unda Abdurahmon Jomiy, Shayxim Suhayliy, Husayn Ali Tufayliy, Sayfiy Buxoriy, Mir Husayn Muammoiy, Mullo Muhammad Badaxshiy, Yusuf Badiiy, Ohiy, Muhammad Solih, Hiloliy, Ahliy, Alisher Navoiy, Binoiy va boshqa so‘z ustalari haqida maroqli hikoyalar mavjud.

Kotiblardan Sulton Ali Mashhadiy, musavvirlardan Kamoliddin Behzod, Shoh Muzaffar, musiqa ustalaridan Qul Muhammad Udiy, Shayxi Noyiy, Shohquli G‘ijjakiy va boshqalarni faxr va iftixor bilan tilga oladi. Bu o‘rinda adibning Alisher Navoiy haqidagi ma’lumotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Asarda Navoiy siyomosiga bir necha marotaba murojaat qilinganini kuzatish mumkin. Ular orasida Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari, Navoiyning shaxsiyati, uning ijodi, adibning badiiy ijod va ijodkorlarga bo‘lgan munosabati haqida ko‘plab qimmatli kuzatishlar mavjud.

“Boburnoma”da adibning shaxsi, uning tarjimayi holi, xarakteri, qiziqishlari, kishilarga munosabati borasidagi qarashlari tegishli tarzda o‘z aksini topgan. Biz asar sahifalaridan Bobur shaxsiyatidagi rostgo‘ylik, mardlik, adolatparvarlik, mehribonlik, qattiqqo‘llik, hassoslikning namoyon bo‘lish holatlari bilan tanishamiz. Asarda Boburning ajdodlari, oilasi, avlodlari haqida ham birlamchi ma’lumotlar berilgan.

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

Unda ayrim asarlarning yaratilish tarixi haqidagi ma’lumotlar ham keltirilgan, jumladan, (1500–1501) yillar voqealari bayonida bir hukmdorning Boburga yaxshi iltifot ko‘rsatmagani aytiladi va adib quyidagi misralarini eslatadi:

Kim ko‘rubtur, ey ko‘ngul, ahli jahondin yaxshiliq?

Kimki ondin yaxshi yo‘q, ko‘z tutma ondin yaxshiliq [5. – B. 93.].

Bobur 1501 – 1502-yillar voqealari bayonida esa Toshkentga borib xon qoshida bir ruboiy o‘qigani eslanadi:

Yod etmas emish kishini mehnatda kishi,

Shod etmas emish ko‘ngulni g‘urbatda kishi.

Ko‘nglum bu g‘aribliqta shod o‘lmadi hech,

G‘urbatda sevunmas emish, albatta, kishi.

Xuddi shu yil voqealari bayonida u:

Jonimdin o‘zga yori vafodor topmadim,

Ko‘nglumdin o‘zga mahrami asror topmadim, – degan 7 baytli g‘azalini tugatganligini ham aytadi [6].

Kobul atrofidagi Gulbahor degan bir joydagi lolalarni sanatganda, u yerdan 34 xil lolani keltiradilar. Mana shu asnoda shoirning quyidagi g‘azali yaratiladi:

Mening ko‘nglumki, gulning g‘unchasidek tah-batah qondur,

Agar yuz ming bahor o‘lsa, ochilmoqi ne imkondur.

Shuningdek Bobur asarda 1508–1520, 1525, 1530-yillardagi voqealarni aks etmay qolgan [5. – B. 93.].

Xulosa sifatida shuni qayd qilish mumkinki, “Boburnoma” o‘zining turli soxalarga oid haqqoniy ma’lumotlari hamda ayni bir sohaga oid emasligi bilan ajralib turadi. Negaki, unda bayon etilgan tabiiy geografik hududlar, hukmdorlar, hayvonot dunyosi o‘zgacha tasvirlanadi. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti Vatan sog‘inchi bilan o‘tgan bo‘lsada, undan kechmay vatanga talpinib yashadi. O‘zga elda hukmronlik qilgan bo‘lsa ham bunyodkorlik ishlaridan to‘xtamadi. Boburning vatanga bo‘lgan mehri va sog‘inchi o‘rnak bo‘lishga arzirlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boysunova C. “Boburnoma” – tarixiy-adabiy memuar asar. // Modern Science and Research, 2025. №4(2). – P. 33–41. Manba: <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/71007>

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. –Т.: Ўзбекистон, 1960.
3. Qayumov A. Bobur va boburiylar davri adabiyoti. – Toshkent: Fan, 2007.
4. Заҳириддин Муҳаммад Бобур (1483-1530) / <https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-mumtoz-sheriyati/bobur/>
5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Том 2. “Б” ҳарфи. – Т.: Давлат илмий нашриёти, 2001. – Б. 93.
6. Zahiriddin Muhammad Bobur. She’riyatidan namunalar / <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/zahiriddin-muhammad-bobur-14-02-1483-26-12-1530.html>
7. Nizomiddinov N. G‘. Buyuk Boburiylar tarixi (XVI – XIX asrlar). Monografiya. – Т.: Fan va texnologiya, 2012.

**SHARQ UYG‘ONISH DAVRI MADANIYATI (IX–XII ASRLAR): ILMIIY-NAZARIY
TAHLIL**

G‘afurjonov Lochinbek Hikmatjon o‘g‘li

Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

lochinbekgafurjonov@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18704511>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada IX–XII asrlarda Sharq mamlakatlari, xususan Markaziy Osiyo hududida yuz bergan madaniy yuksalish jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Sharq uyg‘onish davrining ijtimoiy-siyosiy omillari, ilmiy markazlar shakllanishi, tabiiy va aniq fanlar taraqqiyoti, falsafiy tafakkur, adabiyot hamda san‘at rivoji kompleks yondashuv asosida o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, mazkur davr nafaqat mintaqaviy, balki jahon sivilizatsiyasi rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan tarixiy bosqich hisoblanadi.*

***Kalit so‘zlar:** Ikkinchi muallim, sivilizatsiya, allomalar, almagest, Jundishapur akademiyasi, analitik-sintetik metodlar.*

***Аннотация.** В данной статье анализируются процессы культурного подъема, происходившие в IX–XII веках на территории стран Востока, в частности Центральной Азии. В исследовании изучались социально-политические факторы Восточного возрождения, формирование научных центров, развитие естественных и точных наук, философской мысли, литературы и искусства на основе комплексного подхода. Результаты показывают, что этот период является не только региональным, но и историческим этапом, который внес неоценимый вклад в развитие мировой цивилизации.*

***Ключевые слова:** второй учитель, цивилизация, Ученые, Альмагест, академия джундишапура, аналитико-синтетические методы*

***Annotation.** This article analyzes the processes of cultural upheaval that took place in the territory of the countries of the East, in particular Central Asia, in the 9th–12th centuries. The study was studied on the basis of a comprehensive approach to socio-political factors of the eastern Renaissance, the formation of scientific centers, the development of natural and Exact Sciences, philosophical thinking, literature and the development of art. The results show that this period is not*

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

only a regional, but also a historical stage that has made an invaluable contribution to the development of world civilization.

Keywords: *second teacher, civilization, allomas, almagest, Jundishapur Academy, analytical-synthetic methods.*

IX – XII asrlar Sharq tarixida ilm-fan va madaniyatning yuksalish davri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu davr ko‘pincha Sharq uyg‘onish davri yoki Islom renessansi deb ataladi. Mazkur bosqichda Bag‘dod, Buxoro, Samarqand, Xorazm, Marv kabi shaharlarda ilmiy markazlar shakllanib, fan va madaniyatning turli yo‘nalishlarida ulkan yutuqlarga erishildi.

Sharq uyg‘onish davri qadimgi yunon, hind va fors ilmiy merosining chuqur o‘rganilishi hamda qayta talqin qilinishi bilan xarakterlanadi. Tarjima maktablari faoliyati natijasida ilmiy bilimlar tizimlashtirildi va yangi nazariyalar yaratildi. Al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi mutafakkirlar jahon ilm-fani rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Sharq uyg‘onish davrida qadimgi yunon, hind va fors ilmiy merosining o‘rni. IX–XII asrlardagi Sharq uyg‘onish davri madaniyati bevosita qadimgi sivilizatsiyalar — yunon, hind va fors ilmiy merosining o‘zlashtirilishi va ijodiy rivojlantirilishi bilan bog‘liqdir. Ushbu davrning o‘ziga xosligi shundaki, Sharq olimlari faqat tarjima bilan cheklanib qolmagan, balki mavjud bilimlarni tanqidiy tahlil qilib, boyitib, yangi ilmiy yo‘nalishlar yaratganlar. Yunon falsafasi va tabiiy fanlari Sharq uyg‘onish davrida muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qildi. Ayniqsa, Aristotel, Platon, Evklid, Ptolemey va Galen asarlari keng o‘rganildi.

- **Falsafa va mantiq:** Aristotelning mantiqiy tizimi Forobiy va Ibn Sino tomonidan chuqur tahlil qilinib, takomillashtirildi. Forobiy “Ikkinchi muallim” (Aristoteldan keyin) degan nom bilan e’tirof etildi.

- **Matematika:** Evklidning “Elementlar” asari asosida geometriya rivojlandi.

- **Astronomiya:** Ptolemeyning “Almagest” asari Sharq astronomlari tomonidan qayta ishlanib, kuzatishlar bilan boyitildi.

- **Tibbiyot:** Galenning anatomiya va fiziologiyaga oid qarashlari Ibn Sino tomonidan tizimlashtirilib, yanada mukammallashtirildi.

Shu tariqa yunon ilmiy an‘analari Sharqda yangi bosqichga ko‘tarildi. Hind sivilizatsiyasi matematik va astronomik bilimlar bilan mashhur bo‘lgan. Sharq uyg‘onish davrida ayniqsa hind matematik tizimi katta ta’sir ko‘rsatdi.

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

- **Raqamlar tizimi:** O‘nlik sanoq tizimi va “nol” tushunchasi hindlardan o‘zlashtirildi. Al-Xorazmiy bu tizimni ilmiy asoslab, Yevropaga yetkazdi.
- **Astronomiya:** Hind astronomik jadvallari Sharq olimlari tomonidan qayta ishlanib, takomillashtirildi.
- **Matematika:** Algebraik hisoblash usullari rivojlanishiga hind matematik an‘analari turtki berdi.

Natijada matematika mustaqil fan sifatida shakllandi va algoritm tushunchasi paydo bo‘ldi. Fors davlatchilik an‘analari, adabiyot va tarixshunoslik Sharq uyg‘onish davrida muhim o‘rin tutdi.

Davlat boshqaruvi: Sosoniylar davrining boshqaruv tizimi va siyosiy tajribasi musulmon Sharqida davom ettirildi. **Adabiyot:** Firdavsiyning “Shohnoma” asari fors madaniy merosining yuksak namunasi bo‘lib, milliy o‘zlik va tarixiy xotirani mustahkamladi. **Ilmiy markazlar:** Jundishapur akademiyasi qadimgi yunon va hind ilmiy an‘analarini birlashtirgan markaz sifatida keyingi taraqqiyotga zamin yaratdi.

Fors madaniyati Sharq uyg‘onish davrida ilm-fan va san‘atning estetik hamda ma‘naviy asoslarini boyitdi. Sharq uyg‘onish davrining eng muhim jihati — turli sivilizatsiyalar ilmiy merosining **sintezidir**. Yunon mantiqi, hind matematikasi va fors madaniy an‘analari o‘zaro uyg‘unlashib, yangi ilmiy maktablar shakllandi.

Bu jarayon natijasida:

- Algebra mustaqil fan sifatida rivojlandi;
- Tibbiyotda kompleks nazariy tizim yaratildi;
- Astronomiyada aniq kuzatuvlarga asoslangan ilmiy metod shakllandi;
- Falsafada aql va vahiy uyg‘unligi konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Tadqiqotning maqsadi – IX–XII asrlardagi Sharq uyg‘onish davri madaniyatining asosiy xususiyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish va uning jahon tamaddunidagi o‘rnini aniqlashdir. Tadqiqot jarayonida tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil, manbashunoslik va analitik-sintetik metodlardan foydalanildi. Tarixiylik metodi orqali davrning ijtimoiy-siyosiy sharoitlari o‘rganildi. Qiyosiy tahlil Sharq va Yevropa uyg‘onish davrlari o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlash imkonini berdi. Ilm-fan va din o‘rtasidagi muvozanat (IX–XII asrlar Sharq uyg‘onish davri kontekstida)

Sharq uyg‘onish davrining muhim xususiyatlaridan biri — **ilm-fan va din o‘rtasidagi muvozanatli munosabatning shakllanganligidir**. IX–XII asrlarda ilmiy tafakkur diniy dunyoqarash bilan qarama-qarshi qo‘yilmagan, aksincha, ular o‘zaro uyg‘un holda rivojlangan.

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

Islom ta’limotida ilm olish farz ekani ta’kidlangan. Qur’on va hadis ilmdan foydalanishga, tafakkur qilishga, borliqni o‘rganishga da’vat etadi. Shu bois ilmiy izlanish diniy qadriyat sifatida qabul qilindi. Natijada:

- Madrasalar nafaqat diniy, balki dunyoviy fanlar markaziga aylandi;
- Astronomiya, matematika, tibbiyot kabi fanlar diniy ehtiyojlar (taqvim tuzish, qibla aniqlash, meros taqsimoti) bilan bog‘liq holda rivojlandi.

Forobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi mutafakkirlar diniy aqidalarni inkor etmagan holda, mantiqiy va falsafiy tahlil asosida ilmiy nazariyalar yaratdilar. Ular:

- Aqlni bilishning muhim vositasi deb bildilar;
- Vahiy va aql o‘rtasida ziddlik emas, balki uyg‘unlik mavjudligini ta’kidladilar. Masalan, Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida jamiyat boshqaruvida ham diniy-axloqiy, ham aqliy mezonlar muhimligini ko‘rsatadi.. Ilmiy erkinlik va cheklovlar. Sharq uyg‘onish davrida ilmiy tafakkur keng rivojlangan bo‘lsa-da, u to‘liq erkin bo‘lmagan. Ba’zi davrlarda diniy qarashlar bilan zid kelgan falsafiy fikrlar tanqid ostiga olingan. Shunga qaramay, umumiy tarixiy jarayonda ilm-fan diniy muhit doirasida rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Manbashunoslik tahlili asosida allomalar asarlari, tarixiy qo‘lyozmalar hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar o‘rganildi. Analitik-sintetik metod esa olingan ma’lumotlarni umumlashtirish va ilmiy xulosalar chiqarishda qo‘llanildi. IX–XII asrlardagi Sharq uyg‘onish davri madaniyati insoniyat tarixida muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda yaratilgan ilmiy va madaniy meros bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Sharq allomalari tomonidan yaratilgan asarlar jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismiga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Beruniy A.R. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent: Fan, 1968.
2. Ibn Sino. Tib qonunlari. – Toshkent: Fan, 1981.
3. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 1993.
4. Xorazmiy A. Algebra va al-muqobala. – Toshkent: Fan, 1994.
6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
7. Botirali ogli, X. A. (2025). Current Problems Of Inclusive Education: Challenges And Perspectives. European International Journal of Pedagogics, 5(06), 26-29.
8. Botirali ogli, X. A. (2023). 4. STEAM pedagogik texnologiyasi: integratsiya orqali o‘rganishni kuchaytirish. Innovative technologies in construction Scientific Journal, 1(1).

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

9. Goipova, N. B. Q., & Meliboyeva, Y. E. Q. (2025). Nutq rivojlanishining buzilishlari va ularning sabablari. Science and Education, 6(5), 374-381
10. Goipova, N. B. Q., & Tursunaliyeva, M. U. B. Q. (2025). Bolalar nutqida sintaktik mexanizmlarning shakllanishi. Science and Education, 6(5), 340-344.

MUSTAQILLIK YILLARIDA MADANIY JARAYONLARNING KAM SONLI

MILLATLAR IJTIMOY HAYOTIDA AKS ETISHI

Yusupova Sevara Nizomitdinovna

ADPI Tarix kafedrası mudiri, dotsent.

yusupovasevara1818@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18709988>

***Annotatsiya:** mazkur maqolada jamiyatning nisbatan oz salmoqli qismi bo‘lgan turli millatlarning jamiyatga xos bo‘lgan madaniy jarayonlarga moslashuvi va jarayon davomida uchraydigan integratsiya muammolari borasida mulohazalar bildirilgan. Mavzu millatlararo totuvlik, ijtimoiy adolatga erishishda muhim bo‘lgan jihatlarga e‘tibor qaratgani uchun ham muhim ahamiyatga ega.*

***Kalit so‘zlar:** millat, ijtimoiy adolat, integratsiyalashuv, madaniyat, milliy o‘zlik, mentalitet, millatlararo totuvlik, madaniy assimilyatsiya.*

***Abstract:** This article discusses the problems of integration of different nationalities, which are a relatively small part of society, into the cultural processes inherent in society and the problems of integration involved in the process. The topic is also important because it focuses on the importance of national unity and social justice.*

***Keywords:** nation, social justice, integration, culture, national identity, mentality, interethnic harmony, cultural assimilation.*

***Аннотация:** В данной статье рассматриваются проблемы интеграции различных национальностей, составляющих относительно небольшую часть общества, в культурные процессы, присущие обществу, а также проблемы интеграции, связанные с этим процессом. Тема важна также потому, что она акцентирует внимание на значимости национального единства и социальной справедливости.*

***Ключевые слова:** нация, социальная справедливость, интеграция, культура, национальная идентичность, менталитет, межэтническая гармония, культурная ассимиляция.*

Tarkiban 130 dan ortiq millat vakillarini mujassam etgan o‘zbek xalqi bugun kuchli ijtimoiy-madaniy siyosatlarni yo‘lga qo‘ygan mamlakat hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev bu borada o‘z munosabatlarini bildirib, shunday degan edilar: “Bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash davlatimiz siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.” [1]

Ko‘p millatli o‘zbek xalqi tarixiy rivojlanish mobaynida tarkiban boyib, bir makon va zamonda o‘zining umumiy vatan va jamiyat taqdiriga daxldorligi asosida birlashgan jamiyatga aylangan. Mustaqillik yillarida esa, xalqaro integratsiyalashuv va mafkuraviy qutlanish ortishi bilan turli millat vakillari o‘rtasida hamkorlikni oshirishda muammolarni aniqlash va yechimlarni ilgari surish zaruratga aylandi. Muammolardan biri kam sonli millatlar va ularning ijtimoiy hayotga, jumladan madaniy jarayonga moslashishi bilan bog‘liq edi. Yurtimizda bugungi kunda bu borada tizimli islohotlar amalga oshirib borilmoqda.

Konstitutsiyamizning 14-moddasida “Davlat o‘z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta‘minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi.” [2] deb belgilangani ham ushbu ijobiy xususiyatlarning amaliy tasdig‘idir. Bunda ijtimoiy barqarorlik masalalari xalqaro inson huquqlariga muvofiq bo‘lgan huquqiy tizimimizda mustahkamlangan. Barcha fuqarolarimiz, boshqacha aytganda millat vakillari qonun oldida teng majburiyatlar va huquqlarga rioya qilishi, inson huquqlariga rioya qilish masalalari oliy qadriyat bo‘lishi ko‘rsatilgan.

Munozarali masalalardan bir bu madaniy assismilyatsiya natijasida xalqlarning asliy qadriyatlari va o‘zligini anglash va uni yuzaga chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarga bog‘lanadi. Bunga axborotlashuv natijasida xalqlarning bir-biriga ta‘siri kuchayishi va insonlarning shaxsiy tanlovlarining miqyosi millat darajasiga chiqishi ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bugungi davrda barcha millatlar ham madaniy kurashda o‘zligiga intilishdan ko‘ra boshqa millat va elatlarning izidan ergashishlari natijasida milliylik chegaralarining yuvilib ketishi muammosiga muayyan darajada yuzlanmoqdalar. Ayrim xollarda butkul ta‘sirga uchrab, boshqa millatga aylanib borayotgani ham reallikka aylanmoqda. Q.Nazarovga ko‘ra, “Vaholanki, umuminsoniyat sivilizatsiyasining tadrijiy rivojlanishida muayyan ichki birlik mavjud bo‘lib, madaniyat tarixida har bir xalq, millat o‘z o‘rni va ahamiyatini namoyon qiladi.” [3]

Yurtimizda esa, mustaqillikning dastlabki davridanoq, barcha xalqlarning o‘z san‘ati, folklori, madaniyati, tilining saqlanishi uchun yetarlicha g‘amxo‘rlik ko‘rsatgani ijtimoiy barqarorlikni saqlash va jamiyat tarkibidagi oz sonli millatlar, umuman barcha axoli qatlamlari uchun ijtimoiy adolat o‘rnatish uchun mustahkam zamin bo‘ldi. Institutsional tarzda ushbu islohotlarni amalga oshirish

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

uchun hududlarda milliy-madaniy markazlar barpo etilgani ana shu ijobiy yondashuvning samarasi bo‘ldi deb hisoblanishi mumkin. Q.Usmonovga ko‘ra, “Milliy-madaniy markazlar o‘z millatdoshlarining tili, madaniyati, urf-odatlarini, rasm-rusumlarini tiklash, tarixiy Vatani bilan aloqani jonlantirish kabi masalalar bilan shug‘ullanib kelmoqda” [4]

Xalqimiz oldida turgan yana bir baxsli muammolardan biri kam sonli millatlarga nisbatan shovinizm, millatchilik unsurlari yuzaga kelmasligi uchun yetarlicha asoslarni shakllantirish edi. Sobiq Sovet Ittifoqi siyosatida rus, Yevropa xalqlarining manfaatlariga urg‘u berilishi, kam sonli millatlarning tarixi, tili, madaniyati inkor etilishi bilan kechgan jarayonlar jamiyatda murakkab muammolarni yuzaga chiqargan edi. Ko‘plab xalqlar qatori o‘zbek xalqi ham milliy til, bayramlar va qadriyatlari mustaqillikkacha bo‘lgan qisqa muddatdagina erkin yondashuvga asoslangani ham buning tasdig‘idir. Milliy-etnik nizolar hisoblanmish Farg‘onadagi mesheti turklar mojarosi (1989) yoki O‘sh voqealari (1990) kabi holatlarning mustaqillik yillarida ham avj olmasligi uchun choralar ko‘rish zarur edi.

Mustaqillik yillarida kam sonli millatlar va ularning manfaatlarini inobatga olingan holda tenghuquqlilikka asoslangan jamiyat barpo etilib, qonunchilik hujjatlari asosida mustahkamlangani ham ijtimoiy birlikni mustahkamladi. Madaniyat va san’atda millatchilik elementlariga qarshi kurashib borildi. O‘zbekiston Respublikasining 2021 - yildagi O‘RQ-668-son Qonunida “Madaniy-ommaviy tadbirlar o‘tkazilayotgan vaqtda milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atishga, shafqatsizlik va zo‘ravonlikni targ‘ib etishga, shuningdek o‘zga shaxslarning huquqlarini kamsitishga qaratilgan plakatlari, timsollar, transparantlardan va boshqa ashyolardan foydalanish taqiqlanadi.” [5] deb belgilangani misol keltirish mumkin.

Mafkuraviy xilma-xilik asosida ijtimoiy-madaniy hayot shakllanar ekan, kam sonli millatlar ham salmoqli axoli tarkibini tashkil etadigan ko‘p sonli millatlar bilan tafovutga ega va o‘xshash xususiyatlari bilan integratsiya bo‘lib boradi. Bunda mafkuraviy plyuralizmga yo‘l ochilgani, fuqarolik jamiyati qurish yo‘lidagi ezgu intilishlarning hayotga tatbiq etilgani oqibatida erishilgan ijobiy yutuqlarni e’tirof etish mumkin. Natijada, ushbu hamkorlikning muvozanatini saqlash mas’uliyati ortib boradi. Eng ijobiy yechim esa, barcha jamiyat a’zolarining maqsad va intilishlaridagi bunyodkor g‘oyalarni umumlashtirgan ezgu g‘oya va maqsadni asoslash hisoblanadi.

Yurtimizda bu vatan ravnaqi, yurt tinchligi, ijtimoiy barqarorlikni saqlash, umuminsoniy qadriyatlarni yuklatirish, milliylik tarzida namoyon bo‘luvchi xususiyatlarni saqlash kabi jihatlarga oid boladi. Zero, “.har qanday milliy g‘oyada umuminsoniy mohiyat mavjud bo‘ladi.” [6] Zamonaviy

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

davrda ijtimoiy adolat o‘rnatish masalasi jamiyatdagi barcha uchun teng imkoniyatlarni ta’minlash, kam sonli millatlarning huquq va erkinliklarini ta’minlash bilan chambarchas bog‘langan. Millatlararo totuvlik bo‘lmagan jamiyatda insonlar o‘zlarini erkin va farovon jamiyat a’zosi sifatida his qila olmaydilar.

Xulosa

Yurtimizda kam sonli millatlarning madaniy qadriyatlarini, milliy o‘zligini saqlash muammosi yurtimiz va xalqimiz manfaatlarining umumiy jihatlariga aloqadordir. Oz sonli millatlar jamiyatimiz madaniyati va ijtimoiy hayotiga kuchli ta’sir o‘tkazadi va va madaniy-ma’naviy boyligimizning bir qismidir. Ijobiy tarzda adolatli ijtimoiy siyosat yuritilishi jamiyatimiz barqarorligi, umuman olganda barcha xalqlarning muhim taraqqiyot jihatlarini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. - 279-bet.
2. <https://lex.uz/docs/-6445145> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [Murojaat qilingan sana: 16. 02. 2026.]
3. Falsafa asoslari [Matn]: o‘quv qollanma / Q.Nazarov [va boshq.]. - Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. - 125-bet
4. Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova; O‘zbekiston tarixi: Darslik. O‘R oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.- T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2006. 445-bet.
5. <https://lex.uz/uz/docs/-5230682> O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 20.01.2021 yildagi O‘RQ-668-son. [Murojaat qilingan sana: 16. 02. 2026.]
6. B.T.To‘ychiyev Milliy g‘oya: O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi/ I.Ergashev, O.M.Muxammadiyeva, M.I.Xo‘jayev/ o‘quv qo‘llanma. - Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2020, 20 - bet.

TASAVVUF ULAMOLARI NAZDIDA OILA MASALASI

Kamolov Shahzod Baxtiyor o‘g‘li

Namangan davlat pedagogika insitituti Tarix yo‘nalishi 2 – bosqich talabasi

E-mail. Shahzodkamolov024@gmail.com

Tel. +998 97 670 84 19

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18710144>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tasavvuf ulamolari va faylasuflarning olia masalasiga e‘tibori hamda ularning qarashlari keltrib o‘tilgan bo‘lib, unda Oilaning mohiyati, Er – xotin munosabatlari, ularning tengligi va bir – biriga bo‘gan hurmat ehtiromi hamda vazifalari yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: “Hidoya”, “Fozil Odamlar Shahri”, Fiqhi ilm, Shayx Abdurazzoq Sa‘diy, Ustoz Azimiy, Niso surasi, Mavlono Abdulmajid, So‘fijon xalifa.

Аннотация: В данной статье рассматривается внимание суфийских улемов и философов к проблеме семьи и анализируются их взгляды по этому вопросу. В работе раскрываются сущность семьи, отношения между мужем и женой, их равенство, взаимное уважение, а также обязанности супругов.

Ключевые слова: «Хидоя», «Город добродетельных людей», фикх, шейх Абдурраззак Са‘дий, устоз Азимий, сура «Ан-Ниса», Мавлоно Абдулмаджид, Суфиджон халифа.

Abstract: This article examines the attention given by Sufi scholars and philosophers to the issue of family and analyzes their views on this subject. It highlights the essence of the family, the relationship between husband and wife, their equality, mutual respect, and responsibilities.

Keywords: Hidoya, The Virtuous City, fiqh, Sheikh Abdurazzoq Sa‘diy, Ustoz Azimiy, Surah An-Nisa, Mawlono Abdulmajid, Sufijon Khalifa.

Bugun butun dunyo oila instituti inqiroziga, xususan, nikohlar beqarorligi, ajrashishlar soni ortishi, nikohsiz tug‘ilishlar ko‘payishi, oilaviy hayot va farzand tarbiyasiga toqatsizlik kabi muammolarga to‘qnash kelyapti. Olimlar bunday muammolar millatning ma‘naviy tanazzuliga sabab bo‘lishi mumkinligini ilmiy jihatdan asosladi.

Bu borada Abdurauf Fitrat: “Har bir millatning saodati va izzati shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik esa millat oilalarining intizomiga tayanadi, mamlakat va millat ham shuncha kuchli bo‘ladi. Agarda bir mamlakatning aholisi axloqsiz va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo‘l qo‘ysa shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi” [1:8] deb ta‘kidlagan.

Oila borasidagi diniy, ilmiy va falsafiy yondashuvlarni kuzatsak, oila barqarorligida er-xotin munosabatlari asosiy o‘rin tutishini ko‘ramiz. Masalan, Islomda nikoh orqali inson va oilani ulug‘lashga, erkak va ayolning huquqlariga, ularning sha‘niga va oilada tinchlikni saqlashga katta e‘tibor qaratilgan: “Ayollar (uchun belgilangan huquqlar) o‘z me‘yorida erkaklar (huquqi) bilan tengdir” [2:36].

Burhonuddin Marg‘oniyning “Hidoya” asarida yozilishicha, oila va nikoh masalasida ma‘rifiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega hukmlardan biri ayolning nikohda qanday haq-huquqlari borligi

haqidagi bilimga ega bo‘lishidir: «Nikohning asl mohiyati haqida ilm bo‘lishi shart. Chunki, qiz bola faqat ilm bo‘lgandagina tasarruf eta oladi. Bu dunyo ilm olish dunyosi, bunda johillik uzr bo‘lolmaydi» [3:675]. “Hidoya”da oila va nikohga oid hukmlarning ijtimoiy ahamiyatga ega tomoni erkak va ayolning ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy va aqliy jihatdan bir-biriga teng bo‘lishiga e’tibor qaratilganidir: «Nikohda tenglik e’tiborga olinadi. Payg‘ambarimiz (S.A.V.) aytganlarki: **“Ogoh bo‘lingki, ayollarni faqat o‘zlariga teng bo‘lgan kishigagina bersinlar”** [3:680].

Islomda er-xotin o‘rtasidagi munosabatning davomiyligini ta’minlash uchun o‘ziga xos qonun-qoidalar joriy qilingan. Bunda oilaviy hayotning asosiy tashkilotchilari va a’zolari bo‘lmish er va xotinning har biriga o‘ziga xos burch va vazifalar yuklangan, bir-biriga nisbatan haq-huquqlari ham belgilab berilgan. Bu haqda Qur’onning bir qator suralarida oyatlar keltiriladi: **“Erkaklar xotinlar ustidan** (oila boshlig‘i sifatida doimiy) **qoim turuvchilardir. Sababi – Alloh ularning ayrimlari** (erkaklar)**ni ayrimlari** (ayollar)**dan** (ba’zi xususiyatlarda) **ortiq qilgani va** (erkaklar o‘z oilasiga) **o‘z mol-mulklaridan sarf qilib turishlaridir”** (Niso surasi, 34-oyat) [4:390]; **“Va yaxshilik ila ularning burchlari muqobilida haqlari ham bordir”** (Baqara surasi, 228-oyat) [3:398]. Agar er va xotin bu qoidalarga amal qilsa, bir-biriga nisbatan zimmasidagi burch va mas’uliyatini his qilib sidqidildan ado etsa, bunday oila baxt va saodat qasriga aylanadi. Bunday oilada tug‘ilgan farzandlar ham go‘zal tarbiya topadi va ulardan jamiyatga foydasi tegadigan insonlar yetishib chiqadi. Islom dini har bir er va xotin uchun o‘ziga xos huquqlarni ishlab chiqish bilan birga, ularga muayyan majburiyatlarni ham yuklagan. Bularning ba’zilari er va xotin o‘rtasida mushtarak bo‘lsa, ba’zilari erga, ba’zilari xotinga tegishlidir.

2020 yil 6 - avgust kuni O‘zbekiston Xalqaro Islom akademiyasida “Musulmon jamiyatlarida oilaviy munosabatlardagi muammolar: Sabab va yechimlar” mavzusida xalqaro mutaxassislar va yurtimizdagi Islomshunos olimlar, imom-xatiblar, diniy bilim yurtlari mudirlari va talabalar ishtirokida video-seminar o‘tkazildi. Unda Islom ilmlari bo‘yicha yetuk olim, Tatariston Respublikasidagi Bulg‘or Islom akademiyasi (Rossiya Federatsiyasi) professori Shayx Abdurazzoq Sa’diy ishtirok etdi va ajrashishlarning yechimi sifatida quyidagi tavsiyalarni sanab o‘tdi:

- oila qurishdan avval kuyov yo kelinning mol-davlati, shon-shuhratiga emas, tarbiyasi va axloqiga, ma’naviy go‘zalligiga e’tibor qaratish lozim;
- o‘zaro kelishmovchiliklar kelib chiqqanda, darrov ajrashmasdan, o‘rtani isloh qilish va yarashtirish uchun ikki tomondan vakillar chaqirish;
- iqtisodiy kamchiliklar bo‘lganda, boriga qanoat qilish va sabrli bo‘lish;
- diniy idora oilaning muqaddasligi, farzand tarbiyasi, taloqning oqibatlarini kabi mavzularda juma tezislarini ishlab chiqishi va musulmon ommasiga yetkazishi;
- oilalarda vujudga kelayotgan nohaqlik, zulm va ajrashishlarning oldini olish maqsadida diniy idora tizimida fihiy ilmga ega 2-3 kishidan iborat yetuk mutaxassislar hay’atini tuzish va muammolarga o‘z vaqtida yechim topish.

Ustoz Azimiyning devonida silsilai oliyai naqshbandiyaga (naqshbandiylikning oliy silsilasi) atab bir necha qasida va qit’a she’rlar mavjud. Birinchi qasida 28 bayt, ikkinchisi 52 baytdan iborat. 35 baytni o‘z ichiga olgan uchinchi qasida shoirning ustozini naqshbandiya vakili xalifa Abdulmajid Maxdunga bag‘ishlangan. To‘rtinchisi 16 baytdan iborat bo‘lib, Mavlono Abdulmajid vafoti munosabati bilan yozilgan. Beshinchi qasida mashhur xalifa Objo‘shning o‘rinbosari darzoblik

marhum So‘fijon xalifa — Shimol mintaqasidagi naqshbandiya tariqatining yirik vakili va xalifasi vafoti munosabati bilan yozilgan. Shoir uni valilik xazinasining soqchisi va naqshbandiylar tariqasining rahbari deb madh etadi

Abu Nasr Forobiy (873 - 950) oila to‘g‘risida “Fozil Odamlar Shahri” asarida shunday yozadi. Forobiy keraksiz urf – odatlardan (hozir ham oilaviy hayotda er – xotin munosabatlarida uchraydi) voz kechishi, baxt soadatga erishish yo‘llari haqida gapiradi: Rahbarlar (er – yoki xotin) “yomon odatlarni o‘zida ifodalovchi o‘tmishni ham o‘zgartirmog‘i kerak. Aks holda o‘tmishni talablariga rioya etib, uning kayfiyati saqlansa, turmushda hech qanday yengillik, o‘zgarish va o‘sish ham bo‘lmaydi”. Yoki “Baxt soadatga erishish yo‘lida nimaiki (bilim, axloq, kasb - hunar) yordam bersa, uni saqlamoq, mustahkamlamoq nimaiki zararli bo‘lsa, uni foydali narsaga aylantirishga harakat qilmoq zarur”.

Abu Ali ibn Sino ham oilaviy munosabatlarini yoritir ekan , avvalo oila boshlig‘i erning oldidagi ma’sulyatli vazifalarga e’tiborini qaratadi. Uning fikricha, birinchi navbatda er oiladagi tarbiyaviy ishlarga doir ham nazariy ham amaliy ma’lumotlarga ega bo‘lishi shart. Shundagina, u haqiqiy oila boshlig‘i bo‘la oladi. Er – xotin munosabati tenglik hamjihatlik va o‘zaro hurmat asosida qurilishi haqida to‘xtalib, “Erkak kishi oila boshlig‘idir, u oilaning barcha ehtiyojlarini qondirmog‘i lozim, chunki bu uning birlamchi vasifasidir. Ayol esa erkakni yaxshi, munosib yo‘ldoshi va bola tarbiyasi borasida eng yaxshi voris va yordamchisidir” – deb yozadi Ibn Sino.[4. B - 226]

Oila masalasida hatto ajdodlarimizni muqaddas dini hisoblangan zardushtiylikda ham nikoh va oilaviy burch masalasi muhim axloqiy o‘rinda turgan. Zardushtiylikda ko‘p xotinlik qat’iy man etilgan. Ayni paytda hayotda bo‘ydoq o‘tkazish ham qoralangan. Balog‘atga yetgan qiz Ota – Ona va jamoaning ra’yini pisand qilmay, qasddan turmushga chiqmay yursa, u qopga solinib, 25 darra kaltaklanish bilan jazolangan. Agar erkak kishi shu yo‘lni tutsa, unga tamg‘a bosilib pandnom qilish maqsadida beliga zanjir bog‘lab yurishiga majbur etilgan. “Avesto”da qayd qilinishicha, erkak avvalo uylanish uchun moddiy va ma’naviy tomondan to‘q va baquvvat bo‘lmog‘i lozim edi. Bundan tashqari, mazkur muqaddas kitobda oila qurish, jufti halol tanlashda shoshma shosharlikka yo‘l qo‘ymaslik, Ota – Ona, keksalar maslahatiga quloq solish xususida ham diqqatga sazavor mulohazalar mavjud. Shuningdek, unda nikoh va taloq (ajralish)ning o‘ziga xos mezonlarini birma – bir keltrib o‘tilgan.[5. B – 38]

Hikmat

Bismillah deb bayon aylay hikmat aytib,
Toliblarg‘a durru gavhar sochtim ma‘no.
Riyozatni qottig‘ tortib, qonlar yutub,
Men daftari soniy so‘zin ochtim mano.

So‘zni aydim harkim bo‘lsa diydor talab,
Jonni jong‘a payvand qilib, ragni ulab,
G‘arib, yetim, faqirlarni ko‘nglin siylab,
Ko‘ngli butun xaloyiqdin qochtim mano.

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

Yassaviyning bu hikmatida faqirlarni ko‘ngilni olishlik va Ilm ulashishlik haqida keltrib o‘tilgan.

Xulosa: Yuqoridagi tadqiqot natijalaridan shuni xulosa qilish mumkinki;

- Oila masalasiga Burhoniddin Marg‘inoniy ham o‘z qarashlarini aytib o‘tadiki; “Nikohning asl mohiyati haqida ilm bo‘lishi shart. Chunki, qiz bola faqat ilm bo‘lgandagina tasarruf eta oladi. Bu dunyo ilm olish dunyosi, bunda johillik uzr bo‘lolmaydi” deya takidlagan;

- Oila va tenglik masalasida Payg‘ambarimiz (S.A.V.) aytganlarki: **“Ogoh bo‘lingki, ayollarni faqat o‘zlariga teng bo‘lgan kishigagina bersinlar”** ;

- – Oilalarda vujudga kelayotgan nohaqlik, zulm va ajrashishlarning oldini olish maqsadida diniy idora tizimida fiqhiy ilmga ega 2-3 kishidan iborat yetuk mutaxassislar hay‘atini tuzish va muammolarga o‘z vaqtida yechim topish zarur ekanligi ham keltrib o‘tilgan.

Umumiy xulosa qilib aytkanda, Ulamolarimiz ham Oilada teng bo‘lish, masulyatli bo‘lishlik va har narsaga e‘tibor qaratib turish lozim ekanligini aytib o‘tishgan, aks holda biri – biriga hurmat va ishonch uzilishi mumkin deya takidlashgan.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. –T.: Ma’naviyat, 2000.
2. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. –T.: Toshkent Islom universiteti, 2004.
3. Oybek Ne’matulloh, Ilhomjon Murod Ali. “Islomda oila” muammo va yechimlar. –T.: Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti, 2019.
4. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri.-T.:1993. 224 – 226 bet.
5. Sadduloyev D.S. “Avesto” – Zardushtiylik dini va uning muqaddas kitobi. Toshkent.: “Ma’naviyat” 2008. 34 – 38 bet.

TA’LIM OLISHDAGI MUVAFFAQIYAT VA UNING TALABALAR O‘QUV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI

Turaboyeva Madinaxon Raxmonjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Boshlang‘ich ta’lim kafedrasida dotsenti, PhD

madinaturaboyeva20@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18741460>

***Annotatsiya:** Maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida ta’lim sifati va samaradorligiga erishishning muhim jihatlari to‘g‘risida fikr yuritilgan. Zamonaviy ta’lim jarayonida talaba faoliyati va uning muvaffaqiyati eng muhim natija sifatida qaralib, ko‘zlangan maqsadga erishish uchun o‘quv jarayoni samarali tashkil etilishi lozim bo‘lib, bu esa pedagogdan katta mahoratni, intellektual zakovatni talab etadi. Shu ma’noda, mazkur maqolada talabani ta’lim olishdagi muvaffaqiyati va uning talabalar o‘quv faoliyatini rivojlantirishda tutgan o‘rni borasida taklif va tavsiyalar bayon etilgan.*

***Tayanch so‘z:** texnologiya, ta’lim tizimi, muvaffaqiyat, ta’limiy muvaffaqiyat, ijtimoiy hayot.*

***Abstract:** The article discusses the key aspects of achieving quality and efficiency in education under the conditions of the New Uzbekistan. In the modern educational process, student activity and success are considered the most important outcomes. In order to achieve the intended goals, the learning process must be effectively organized, which requires high professional skill and intellectual competence from the teacher. In this regard, the article presents proposals and recommendations concerning the student’s academic success and its role in the development of students’ learning activities.*

***Keywords:** technology, education system, success, academic achievement, social life.*

Bugun Yangi O‘zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta’lim tizimida ulkan o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. So‘nggi yillarda ta’lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga ko‘tarilmoqda⁸.

Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta’lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish jamiyatning asosiy maqsadlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Bugungi tezkor davrda chuqur tasavvurga, keng tafakkurga, g‘oyalarga, ilmga nisbatan xurmat va intilishga ega bo‘lmay turib, buyuk ajdodlarimiz ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi desak,

⁸ **Turg‘unov S.** Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi. <https://yuz.uz/uz/news/talim-tizimi-va-yangicha-yondashivlar>

adashmagan bo‘lamiz.

Darhaqiqat, ta‘lim – ko‘nikma va bilimlarni o‘rganishdir. Bu, shuningdek, insonlarga biror vazifani qanday qilishni o‘rganishga yordam berish va ularni o‘rganganlari haqida o‘ylashga yordam berishni anglatadi. Shuningdek, pedagoglar uchun axborotni topish va undan foydalanish usullarini o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Ta‘lim uni qanday yaxshilashni aniqlash uchun tadqiqotga muhtoj⁹.

Ta‘lim orqali jamiyat, mamlakat va dunyo haqidagi bilimlar avlodlardan avlodga o‘tadi. Ta‘lim – bilim berish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasidir. Ta‘lim jarayonida ma‘lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta‘lim tor ma‘noda o‘qitish tushunchasini anglatadi, lekin u faqat turli tipdagi o‘quv yurtlarida o‘qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda ma‘lumot berish jarayonini ham bildiradi¹⁰.

Akademik muvaffaqiyat - bu ta‘lim sohasida ijobiy natijalarga erishishdir. U akademik muhitda akademik ko‘rsatkichlar, yutuqlar va shaxsiy o‘sish kabi turli jihatlarni qamrab oladi. Akademik muvaffaqiyatning o‘ziga xos ma‘nosi ta‘lim darajasi yoki madaniy kutganlarga qarab farq qilishi mumkin.

Umuman olganda, ta‘limiy muvaffaqiyat ko‘pincha quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

- yutuqlar;
- o‘rganish va bilim olish;
- intellektual o‘sish;
- haxsiy rivojlanish;
- maqsadga erishish.

Shuni ta‘kidlash kerakki, ta‘limiy muvaffaqiyat faqat baholar yoki yutuqlar bilan belgilanmaydi. U shuningdek, yaxlit rivojlanish, intellektual qiziqish va o‘rganishga chinakam muhabbatni ham o‘z ichiga oladi.

Ta‘limning mazmuni va mohiyati jamiyatning moddiy va madaniy taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiy ma‘lumotga bo‘lgan ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, ta‘lim haqidagi pedagogik g‘oyalarga qarab kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida ta‘limning mohiyati, metodi, tashkiliy shakllari o‘zgarib borgan.

Ta‘limning maqsadi: “ta‘limda mukammallikni rivojlantirish va teng foydalanishni ta‘minlash orqali o‘quvchilarning yutuqlarini rag‘batlantirish va global raqobatbardoshlikka tayyorlash”¹¹ dan iborat.

Ta‘lim insonlarga jamiyatning muvaffaqiyatli a‘zosi bo‘lib, yaxshi va muvaffaqiyatli shaxs bo‘lib ulg‘ayishiga yordam beradigan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish imkonini beradi. Ushbu g‘oyani amalga oshirish uchun o‘rganuvchilar, o‘qituvchilar va ota-onalar o‘rtasida yaxshi munosabatlarni o‘rnatish kerak. Atrof-muhitning ta‘siri tufayli talabalar o‘zlarining to‘liq salohiyati, iste’dodlarini rivojlantirish va hayotiy maqsadlariga erishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

⁹ Anderson, Garry & Arsenault, Nancy 1998. Fundamentals of Educational Research. Routledge. [ISBN 978-0-203-97822-1](https://doi.org/10.1080/00131801.2013.782221)

¹⁰ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ta%CA%BClim>

¹¹ <https://www.allisonacademy.com/parents/child-development/what-is-the-purpose-of-education/>

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

Ta’lim yoshlarning jamiyatning to‘laqonli a’zosi bo‘lishiga yordam beradi. Bilim muvaffaqiyatli martaba, yuqori ijtimoiy mavqe, munosib hayot va o‘z ambitsiyalariga erishish uchun zamin yaratadi. Bunday yuksak darajaga erishish uchun birinchi to‘siqni yengib o‘tish uchun katta kuch va istak talab etiladi. Ma’lumotli shaxs o‘z hayoti davomida o‘rganishi va rivojlanishi kerak, shunda ular oldida turgan ko‘plab imkoniyatlarni tan olish va undan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

Ta’lim maqsadiga qanday qarashidan qat’i nazar, haqiqat shundaki, maxsus bilimsiz hayotda muvaffaqiyatga erishish mumkin emas. Bunday bilimlar maktabda o‘zlashtiriladi va oliy ta’lim orqali kengaytiriladi, shuningdek, muntazam ta’lim tizimidan tashqari shaxsiy rivojlanishni ham o‘z ichiga oladi.

Sifatli ta’lim – shaxsda turli zaruriy ko‘nikmalarni rivojlantirishga imkon beradi, bu esa yaxshiroq ish topish, martaba ko‘tarilishi va turli imtiyozlarga ega bo‘lish imkoniyatlarini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni / “Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi”, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020 y., 06/20/5987/0521-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi / <https://resident.uz/uz/lists/view/4057> [Murojaat qilingan sana: 08.02.2026]

3. Anderson, Garry & Arsenault, Nancy 1998. Fundamentals of Educational Research. Routledge. [ISBN 978-0-203-97822-1](https://doi.org/10.1080/00131801.2019.1644821)

4. **Turg'unov S.** Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi. <https://yuz.uz/uz/news/talim-tizimi-va-yangicha-yondashuvlar> [Murojaat qilingan sana: 08.02.2026]

5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ta%CA%BClim> [Murojaat qilingan sana: 08.02.2026]

6. <https://www.allisonacademy.com/parents/child-development/what-is-the-purpose-of-education/> [Murojaat qilingan sana: 08.02.2026]

BUYUK BRITANIYA MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMINING O’ZIGA XOSLIKLARI

Dadajonova Saidaxon Qo‘shoqboy qizi
Andijon davlat pedagogika insituti talabasi
Mirzayev Otabek Xusanovich
Andijon davlat pedagogika insituti dotsenti
deputatuzbotabek877777@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18741541>

***Annotatsiya:** Maqolada Buyuk Biritaniya maktabgacha ta’lim tizimidagi bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun qulay yondashuvlar ko‘rib chiqilgan. Bolalar maxsus jihozlangan bog‘chalar, nurseriy va reception sinflarida ta’lim oladilar. Buyuk Biritaniya maktabgacha ta’lim tizimi bolani maktabga puxta tayyorlash, mustaqil fikrlash va ijtimoiy ko‘nikmalarini shakillantirishga xizmat qiladi.*

***Kalit so‘zlar:** “Early Years Foundation Stage (EYFS)”, Communication and Language, Literacy, Nurseries, Preschools / Playgroups, Reception, Ifodali san’at va dizayn, Fenomenlarga asoslangan ta’lim.*

PECULIARITIES OF THE BRITISH PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM

Dadajonova Saidaxon Qo‘shoqboy qizi
Student of Andijan State Pedagogical Institute
Mirzayev Otabek Khusanovich
Associate Professor of Andijan State Pedagogical Institute
Email: deputatuzbotabek877777@gmail.com

***Abstract:** The article examines the approaches that are conducive to the comprehensive development of children in the UK preschool education system. Children are educated in specially equipped kindergartens, nurseries and reception classes. The UK preschool education system serves to thoroughly prepare a child for school, develop independent thinking and social skills.*

***Key words:** "Early Years Foundation Stage (EYFS)", Communication and Language, Literacy, Nurseries, Preschools / Playgroups, Reception, Expressive Art and Design, Phenomenon-based learning.*

ОСОБЕННОСТИ БРИТАНСКОЙ СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Дадажонова Саидахон Кушокбой кизи
Студентка Андижанского государственного педагогического института.
Мирзаев Отабек Хусанович
Доцент Андижанского государственного педагогического института.
Email: deputatuzbotabek877777@gmail.com

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

Аннотация: В статье рассматриваются подходы, способствующие всестороннему развитию детей в системе дошкольного образования Великобритании. Дети обучаются в специально оборудованных детских садах, яслях и подготовительных классах. Система дошкольного образования Великобритании служит для всесторонней подготовки ребенка к школе, развития самостоятельного мышления и социальных навыков.

Ключевые слова: «Этап раннего развития (EYFS)», коммуникация и язык, грамотность, детские сады, дошкольные учреждения/игровые группы, подготовительная группа, изобразительное искусство и дизайн, обучение на основе явлений.

Izlanishlarimiz davomida Angliyada maktabgacha ta’lim tizimi “Early Years Foundation Stage (EYFS)” deb nomlanadi. Bu davlat tomonidan belgilangan milliy dastur bo‘lib, 0 yoshdan 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarning ta’lim va tarbiyasini tartibga soladi. Tizim bolalarning sog‘lom, xavfsiz va har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Ushbu bosqich 5 yoshga to‘lgan bolalar rasmiy maktab (primary school)ga o‘tgunga qadar davom etadi. EYFS davlat, xususiy va nodavlat muassasalar uchun yagona standart hisoblanadi.

EYFS’ning asosiy sohalari:

1. Asosiy rivojlanish sohalari:

Shaxsiy, ijtimoiy va emotsional rivojlanish

Jismoniy rivojlanish

Aloqa va til (Communication and Language)

2. O‘rganish va rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi qo‘shimcha sohalari:

Savodxonlik (Literacy)

Matematika

Dunyo haqidagi tushunchalar (Understanding the World)

Ifodali san’at va dizayn (Expressive Arts and Design)

Angliyada o‘quv muhiti va metodlar:

O‘yin orqali o‘rganish: EYFSda o‘yin — o‘rganishning asosiy shaklidir. O‘yinlar bolalarga ijtimoiy aloqalarni o‘rnatish, muammolarni hal qilish, ijod qilish va hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish imkonini beradi.

Kuzatuv va baholash: pedagoglar har bir bolaning rivojlanishini muntazam kuzatib boradilar va individual o‘shish jarayonini baholaydilar.

Moslashtirilgan ta’lim: har bir bola o‘zining rivojlanish sur’ati va ehtiyojlariga ko‘ra rag‘batlantiriladi.

Bolalarning kunlik tartib va faoliyatlar:

Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish: jamoaviy o‘yinlar, suhbatlar, ertak aytish va teatr sahnalari orqali amalga oshiriladi. Jismoniy faoliyat: harakatli o‘yinlar, sport mashg‘ulotlari, maydonchada harakatlanish orqali bolalarning koordinatsiyasi va harakat malakalari shakllanadi.

Ijodiy mashg‘ulotlar: chizish, bo‘yash, qo‘l mehnati, raqs va musiqa orqali bolalarning hissiy ifodasi va fantaziyasi rivojlantiriladi.

Savodxonlik va matematika asoslari: harflar, tovushlar, hikoya tuzish, sonlarni sanash va oddiy amallar orqali tayyorgarlik beriladi.

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

Ta’lim muassasalari va ularning yosh tartibi:

Nurseries (0–5 yosh): to‘liq yoki yarim kunlik xizmat ko‘rsatadi.

Preschools / Playgroups (2–5 yosh): qisqa muddatli mashg‘ulotlarga yo‘naltirilgan.

Reception (4–5 yosh): boshlang‘ich maktabning birinchi bosqichi hisoblanadi, maktabgacha ta’limning yakuniy davri sifatida qaraladi.

Davlat yordami va subsidiyalar:

3 va 4 yoshli bolalar uchun haftasiga 15–30 soat bepul maktabgacha ta’lim olish huquqi mavjud.

Kam ta’minlangan oilalar uchun qo‘shimcha imtiyozlar va subsidiyalar beriladi. Maktabgacha ta’lim 0 yoshdan boshlanadi va 6 yoshdan boshlab bir yillik majburiy tayyorgarlik bosqichi (Pre-primary education) bilan yakunlanadi. 7 yoshdan esa bolalar rasmiy ravishda maktabga borishni boshlaydilar.

Angliyada maktabgacha ta’lim tiziminig asosiy yo‘nalishlari:

Bolalar markazida yondashuv: bolalar faoliyatining markazida bola turadi. Har bir bola o‘z qiziqishi, ehtiyoji va rivojlanishiga qarab o‘qitiladi.

O‘yin orqali o‘rganish: o‘yin — ta’limning asosiy vositasi sifatida qaraladi. O‘yinlar orqali bolalar tabiatni, atrof-muhitni, insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tushunishni o‘rganadilar.

Ijtimoiy va emotsional rivojlanish: bolalarning o‘zaro muloqoti, hissiy barqarorlik, murosaga kelish va o‘z fikrini bildirish qobiliyatlari ustida ishlanadi.

Mustaqillik va o‘zini boshqarish: bolalar kundalik faoliyatda o‘zlarini mustaqil tutishga, qaror qabul qilishga, mas’uliyatli bo‘lishga o‘rgatiladi.

Tarbiyalanuvchilarning kunlik faoliyatlar va tartib:

Tashkiliy va erkin faoliyatlar uyg‘unligi: kun davomida erkin o‘yinlar, kichik guruhdagi faoliyatlar, sayr, musiqa, badiiy san’at, raqs va hikoya o‘qish kabi mashg‘ulotlar muvozanatli tarzda tashkil etiladi.

Ochiqvviiy ta’lim muhiti: o‘quv xonalari, tashqi maydonlar, tabiat qo‘ynidagi faoliyatlar bolalarning o‘z qiziqishlariga ko‘ra erkin harakatlanishiga imkon yaratadi. Ovqatlanish, dam olish va gigiyena faoliyatlari ham bolalarning mustaqilligini oshirishga xizmat qiladi.

Metodik yondashuvlar va ota-onalar bilan hamkorlik:

Fenomenlarga asoslangan ta’lim (Phenomenon-based learning): bolalar muayyan mavzuni keng qamrovda o‘rganadilar (masalan: "tabiat", "suv", "mening oilam") va o‘zaro bog‘liq bilimlarni birlashtiradilar.

O‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuv: bolalar sinov, kuzatuv, savol-javoblar orqali bilimlarni o‘zlashtiradilar. Ota-onalar bilan hamkorlik: pedagoglar bolalar haqida ota-onalarga doimiy axborot berib boradilar, ota-onalar esa tarbiya jarayonida faol ishtirok etadilar.

Tenglik va inklyuzivlik yondashuvi:

Barcha bolalar uchun teng imkoniyat: Finlandiyada har bir bola, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, sifatli maktabgacha ta’lim olish huquqiga ega. Inklyuziv yondashuv: maxsus ehtiyojli bolalar ham umumiy muhitda o‘qitiladi, bu esa ijtimoiy integratsiyani kuchaytiradi.

Pre-primary education so‘ngi bosqich:(6 yosh):

6 yoshga to‘lgan bolalar uchun bir yillik majburiy tayyorlov bosqichi mavjud bo‘lib, u maktabga tayyorlashga qaratilgan. Unda savodxonlik, sonlar tushunchasi, ijtimoiy muomala va muammolarni hal qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Xulosa qilib aytganda Buyuk Britaniya maktabgacha ta’lim tizimlari bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan zamonaviy va samarali yondashuvlarga asoslanadi. Buyuk Britaniyada Early Years Foundation Stage (EYFS) dasturi orqali 0–5 yoshdagi bolalar o‘yin asosida, individual yondashuv bilan tarbiyalanadi va maktabga tayyorlanadi. Buyuk Britaniya davlat tajribasi shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’limda bola shaxsini hurmat qilish, o‘yin orqali o‘qitish va ijtimoiy-emotsional rivojlanishga e’tibor berish yuqori natija beradi. Demak, maktabgacha ta’limning asosiy maqsadi bolani nafaqat maktabga, balki jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishga tayyorlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xusanovich, M. O. (2024, November). МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАДБИРКОРЛИК МАДАНИЯТИГА О‘RGATISH. In INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 3, No. 25, pp. 16-18).

2. Mirzayev, O. (2023). ERTAK-TERAPIYASI VA TADBIRKOPLIK MADANIYATI ELEMENTLARINING INTEGRATSIYASINI TA’MINLASHNING METODIK TIZIMI. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2(25), 92-94.

3. Khusanovich, T. M. O. DEVELOPING STEAM COMPETENCIES IN OLDER PRESCHOOLERS. <https://orcid.org/0009-0004-8134-3925> ORCID

4. Mirzayev, O. K. (2024). HISTORICAL AND PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE FORMATION OF ELEMENTARY ENTREPRENEURIAL SKILLS OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATION. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 5(02), 167-171.

5. Мирзаев, О. Х. (2024, October). ПЕДАГОГ-ПЕРСПЕКТИВНАЯ ПРОФЕССИЯ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC E-CONFERENCE “PROBLEMS AND PROSPECTS OF DIGITAL TRANSFORMATION ECONOMIES IN THE CONDITIONS OF DEEPENING INTEGRATION PROCESSES OF DEVELOPING COUNTRIES”-Kraków, Poland (Vol. 3, pp. 93-95).

6. Husanovich, M. O. (2024). TECHNOLOGIES FOR THE USE OF ANIMATIONS IN EDUCATION OF YOUNG SCHOOL-AGE STUDENTS. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 11(04).

7. Xusanovich, M. O. (2021). Formation Of Elements Of Entrepreneurial Activity In Pupils Of The Preschool Educational Organization. JournalNX, 1, 265.

8. Мирзаев, О. Х. (2020). Воспитание профессионально-нравственных качеств у будущих молодых фермеров средствами отечественной литературы. Science and Education, 1(2), 508-513.

9. Mirzaev, O. (2022). The role of ethics and aesthetics in the formation of entrepreneurial relations between individuals. Science and innovation, 1(B6), 125-130.

MUNDARIJA – СОДЕРЖАНИЕ – CONTENTS		
1	Najmidinova Guzal Axlitdinovna Turkiy xalqlar madaniyatida transformatsiya jarayonlarida ayol omilining falsafiy tahlili	5-8
2	Ikromova Nigina Oybekovna Suggestive impact in literary translation: a psycholinguistic perspective	9-12
3	Rizaeva Nigora Mirvohid qizi, Tursunbayev Sarvar Anvarovich Alyuminiy quymakorlik qotishmalariga mikrolegirlovchi elementlar ta’siri tahlillari	13-15
4	Abdugopporova Odinaxon Hoshimjon qizi Nutq o‘stirish jarayonini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar mazmuni	16-19
5	Salaytdinova Umida Suyun qizi Ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik jihatlari	20-23
6	Otaxonova Sumbula Xudayor qizi Loyiha texnologiyalari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	24-26
7	Xakimova Dilorom Alimjanovna Ta’lim jarayonida emotsional intellekt nazariyasi va uning amaliy qo‘llanilishi	27-29
8	Ruziyeva Shaxnoza Komil qizi Adaptiv didaktika asosida ta’lim samaradorligini oshirish metodikasi	30-34
9	Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o‘g‘li Talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda fanlararo yondashuv: muammo va istiqbollari	35-39
10	Eraliyeva Dilnoza Oybek qizi Talabalar tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda metakognitiv yondashuv	40-43
11	Садькова Рената Шамильевна Роль исторических факторов в формировании внутренней и внешней политики Пакистана	44-48
12	Мамаджонова Зухра Бахромджановна Перевернутый класс (Flipped Classroom) как педагогический инструмент развития самостоятельной методической подготовки студентов	49-56
13	Matvapayeva Nasiba G‘ayratovna Migratsiya jarayonlarini o‘rganishda manbashunoslik va tarixshunoslik masalalari	57-61
14	Таирова Юлия Рафаэлевна Роль организаций культуры и искусства в достижении гендерного равенства	62-65
15	Umirbekova Nasiba Kenesbaevna Axborot globallashtirish jarayonida o‘smirlarning o‘z-o‘zini anglashi jarayonlarini shakllantiruvchi trening dasturi	66-68
16	Isoqova Gulhida Murodjon qizi, Ravshanov Sobir Abdimalik o‘g‘li O‘zbekiston xotin-qizlarining ma’naviy qiyofasi	69-73

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

17	Sobitova Muxlisa Ulug‘bek qizi Oliy ta‘lim tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish	74-77
18	Abdullayev Javohir Ismoil o‘g‘li Bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorlash jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zarurati.	78-80
19	Иномжонова Мадина Илхомжоновна Транспозиция знаменательных слов в английском и китайском языках	81-83
20	Jabborova Sayyoraxon Muxammadkobilovna Davlat boshqaruvida ayollar ishtirokining ijtimoiy-falsafiy asoslari	84-87
21	Рахимова Ирода Халимовна Первая женщина-дипломат Турции: Адиле Айда	88-91
22	Raximjonova Maftuna Abdumajod qizi Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv va ijtimoiy-hissiy rivojlanishiga o‘yin faoliyatining ta’siri	92-95
23	Yulchiyeva Zulfiya Baxodir qizi Innovatsion va interfaol ta‘lim texnologiyalarining pedagogik ta‘lim jarayonida o‘quvchilarda ilmiy va amaliy savodxonligi kompetensiyalarini takomillashtirishdagi ahamiyati	96-99
24	Ergasheva Ozoda Askarovna Yengil atletika bilan shug‘ullanuvchi xotin-qizlar o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil qilish va uning xususiyatlari	100-104
25	Ibrohimova Zamira Ismat qizi Ta‘lim muassasalarida ichki havoni muqobil energiya asosida iqlimlashtirish	105-107
26	Абдуллаева Икбола Махировна Аксиологический потенциал творчества А. П. Чехова в диалоге о роли женщины в мировой науке	108-111
27	Анварова Шодия Авазовна Образ женщины-исследователя в английской и русской художественной картине мира	112-115
28	Хамидова Зебо Бобир кизи Роль женского авторского сознания в формировании интеллектуального потенциала нового Узбекистана	116-119
29	Kurbonov Munis Umirbekovich Kasbiy identifikatsiyani shakllantirishda ta‘lim muhitidagi psixologik qo‘llab-quvvatlashning ro‘li	120-123
30	Jabborova Aziza Jobirovna Siyosiy diskursda evfemizmlar va nutq etikasi	124-128
31	Rahmonaliyeva Nozima Yigitali qizi Triz texnologiyalari vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish	129-133

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

32	Arabova Gulnur Integrative methodological approaches to teaching color concepts for the development of linguocultural competence	134-138
33	Тулкинова Дурдона Умиджон Қизи Культурная жизнь в Китае при империи Хань.	139-146
34	Boltabayeva Ma’rifatxon Baxromjon qizi, Gaipova Gulrux Mamurovna Inklyuziv ta’lim sharoitida 3 – 4 sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘qitishda Slime (Slaym) texnologiyasidan foydalanishning pedagogik ahamiyatini o‘rganish	147-151
35	Nurmatova Durdona Shuxrat qizi Baholovchanlik kategoriyasining lingvistik talqini va pragmatik mohiyati	152-156
36	Mamuraliyeva Gulsanam Ilhomjon qizi Zahiriddin Muhammad Bobur mohir sarkarda va harbiy-strateg	157-161
37	Ruziyeva Madina Ilhom qizi Til va madaniyat o‘zaro aloqasida bilingvizm fenomeni	162-164
38	Xolmonova Iqbola Alisher qizi O‘zbek–turk parallel korpusini tuzishda ikki tilning tipologik xususiyatlari	165-169
39	Mahkamova Nozima To‘ra qizi Boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarda uchraydigan raqamli autizm belgilari va uni oldini olish usullari	170-173
40	Maxkamova Gulbahor Xamzayevna Talabalarda axborot madaniyatini rivojlantirishning dasturiy ta’minotini takomillashtirish	174-177
41	Xudoberdiyeva Madinabonu Davlat boshqarishda faol ishtirok etgan malikalar.	178-182
42	Ubaydullayeva Shahlo Abdullayevna O‘zbekiston da o‘rta tibbiyot xodimlari va xotin-qizlar faoliyati: mustaqillik davrida aholi salomatligini muhofaza qilish tajribasi	183-187
43	Tojiyeva Muxabbatxon Mansurjon qizi Kichik biznes samaradorligini baholashda umumiy indeksdan foydalanish zarurati	188-191
44	Nasibboyeva Mukarrama Salimjon qizi Ingliz va o‘zbek tillarida “pul” komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari	192-195
45	Umaraliyeva Hilola Fazliddin qizi Talabalarda o‘zaro ijtimoiy-psixologik ta’sir kompetentlarining shakllantirilishiga doir nazariy yondashuvlar tahlili	196-201
46	Boltabayeva Ma’rifatxon Baxromjon qizi, Azimov Samandar Murodjon o‘g‘li Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘qitishda leksik qiyinchiliklar va bartaraf etish yo‘llari	202-206
47	G‘ulomova Ruxsora Buriyevna Suv resurslari va ularning ifloshlanish darajasi	207-209

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

48	Махмудбекова Гулнора Убайдуллаевна Компетентностный подход в обучении русскому языку	210-212
49	Nabiyeva Zarrina Isomiddinovna Ijtimoiy munosabat fe’llarning leksik-semantik tavsifi va tilda faollashuv jarayonlari	213-217
50	Isaqova Shaxnoza Baxtiyorovna In which regions are legends more common?	218-220
51	Ibrohimova Salima Shuhrat qizi O‘tror hokimi G‘oyirxonning Xorazmshoh Alouddin Muhammad va Chingizxon munosabatlarida tutgan o‘rni	221-226
52	Ismoilova Fotima Romanlarda tarixiy haqiqat masalasi (Isajon Sultonning “Abu Rayhon Beruniy” romani asosida)	227-230
53	Rahimova Sarvinoz Sadiq qizi Pedagog xotin-qizlarda boshqaruv kompetentligini takomillashtirish texnologiyasi	231-238
54	Umarjonova Sevinch Tolibjon qizi Ilm sohasida xotin-qizlarning faoliyati va yuksalish qadamlari	239-241
55	Isroilova Mashrabxon Orifjon qizi Xotin-qizlarning ilmiy faolligini oshirishda zamonaviy ta’lim va innovatsion yondashuvlarning ahamiyati	242-244
56	Mamatisoqova Oysanam Lochin qizi Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlari	245-248
57	Mirabdullayeva Omina Turdimamat qizi Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik tushunchalarni shakllantirish	249-252
58	Teshayeva Yulduz Hakim qizi BDTU fidokor olima ayollari	253-257
59	Pardayeva Nigora Kuysinbayevna Halima Xudoyberdiyeva balladalari haqida	258-260
60	Abdujabborova Saodat Bozorboyevna Sanoatlashtirish sharoitida o‘zbek ayollarining jamiyatdagi mavqeyining o‘zgarishi (1920–1930-yillar)	261-264
61	Samarova Aziza Muhiddin qizi Ikkinchi jahon urushidan keyingi 20 yillikda mehnat bandligi masalalari va o‘zgarishlari	265-269
62	Sodiqova Nargiza Nasriyevna, Malikova Ro‘zigul O‘rta Osiyo jadidchiligida Behbudiyning o‘rni	270-274
63	Abduganieva Mohlaroyim The role of digital media in increasing the efficiency of English learning among female students	275-277

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

64	Xo‘janberdiyeva Nargiza Utkir qizi Mobil ilovalar yordamida Xitoy tilini mustaqil o‘rganish strategiyalarini shakllantirish	278-280
65	Yo‘ldasheva Shohistaxon G‘ayratbek qizi Fuqarolarning huquq va majburiyatlarini bilishi – huquqiy madaniyatning asosiy belgisi	281-284
66	Sodiqova Nargiza Nasri qizi Ismoil Gaspirali asarlarida ayollar masalasi	285-288
67	G‘apporova Zilola Abduvannob qizi Olima ayol – jamiyat intellektual taraqqiyotining ramzi	289-291
68	Musoyeva Marjona Yoshlarda oilaviy munosabatlarni shakllantirishda jadid ma‘rifatparvarlarining qarashlari	292-294
69	Tursunova Muhabbat Ikromovna Bo‘lajak chet til o‘qituvchilarining individual strategiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	295-298
70	Atabayeva Guljahon Zufarovna Farida Afro‘z tasbehlarining mavzu mundarijasi	299-302
71	Abdumannobova Gulnoz Akmaljon qizi Mamlakatda yashil iqtisodiyotga o‘tishda soliqlarni tartibga solish orqali barqaror rivojlanishni ta‘minlash	303-307
72	Мирзакирова Зебохон Фархадовна Взаимосвязь эмоционального интеллекта и совладающего поведения у педагогов в контексте вклада женщин и девушек в науку	308-313
73	Ташпулатова Мавлуда Абдумажидовна Отношение ко лжи у младших школьников с разным уровнем нравственного развития: гендерный аспект в контексте международного дня женщин и девочек в науке	314-322
74	Ахмедова Дилдора Илхомовна Проактивное совладающее поведение и когнитивная гибкость у подростков	323-327
75	Исаханова Шахноза Авазовна Родительские установки и семейные взаимоотношения у родителей детей дошкольного возраста: особенности в узбекских семьях	328-332
76	Ражабалиева Наргизахон Равшанжон кизи Связь когнитивной и аффективной эмпатии с эмоциональным интеллектом у старшеклассников	333-338
77	Рустамова Мухлиса Мансуржон кизи Стресс и копинг у родителей в многодетных семьях	339-343

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

78	Убайдуллаева Камолахон Нумановна Ценностное отношение к детям в концепции С. В. Кондратьевой как психологический ресурс жизнестойкости родителей	344-350
79	Habibjonova Nodira Shavkat qizi Shaxs erkinligi va oila instituti o‘rtasidagi dialektik munosabatlar	351-354
80	Abdurahmanova Zuhra Ikromjon qizi O‘smir o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari	355-357
81	Safarov Suhrob Safarovich O‘zbekiston xalq ta’limi tizimida xotin-qizlarga berilayotgan e’tibor (2017–2021-yillarda)	358-361
82	Amonova Dilafruz O‘tkurovna Prospects for financing investment activities at the expense of the attracted funds	362-365
83	Hamzayeva Zebo Murodjon qizi Alisher Navoiy va Tomas Hardi asarlarida ayolning fojeaviy taqdiri masalasi	366-370
84	Вайсова Нодирабегим Авазовна Роль согдийцев в историко-культурных процессах на территории Узбекистана	371-373
85	Karimov Sherzod Abdurasulovich Lokus nazorat tushunchasining nazariy-psixologik asoslari	374-379
86	Ortiqova I. O., Ko‘palova B. O. 5E ta’lim modelini 7-sinf geografiya fanining “Materiklar va okeanlar” kursida murakkab mavzularni o‘qitishda qo‘llash	380-384
87	Туйчиева Мадина Гафаровна Эволюция управления рисками и современный риск-менеджмент	385-390
88	Murodullayeva Aziza Xasanboy qizi Abu Bakr Narshaxiyning “Tarixi Buxoro” asarida Somoniy hukmdorlari tarixi tavsifi	391-393
89	Abdug‘offorova Gulxayo Abdurashid qizi Boborahim Mashrab hayoti va ijodini o‘rgatishda innovatsion dars shakllaridan foydalanish	394-399
90	Bekmirzayev Mirjalol Xusanboy o‘g‘li Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari tafakkur tarzini rivojlantirishning ilmiy-nazariy jihatlarini	400-404
91	Abdullayeva Dilraxon Rustamovna Rus adabiyotining zamonaviy tendensiyalari	405-407
92	Botirova Sevara Mamurovna Germenevtik tadqiqotlarning muloqot etikasini o‘rganishdagi ahamiyati	408-412
93	Isaqova Shaxnoza Baxtiyorovna Legends among Uzbek and English peoples: similarities and differences	413-416

“Xotin-qizlar ilmda: tiklanish, yuksalish va taraqqiyot sari qadamlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materillari to‘plami. NamDPI – 2026-yil, 11-fevral

94	Xolmatov Adusattor Xayrullo o‘g‘li “Boburnoma” – bebaho yodgorlik	417-421
95	G‘afurjonov Lochinbek Hikmatjon o‘g‘li Sharq uyg‘onish davri madaniyati (IX–XII asrlar): ilmiy-nazariy tahlil	422-426
96	Yusupova Sevara Nizamitdinovna Mustaqillik yillarida madaniy jarayonlarning kam sonli millatlar ijtimoiy hayotida aks etishi	427-430
97	Kamolov Shahzod Baxtiyor o‘g‘li Tasavvuf ulamolari nazdida oila masalasi	431-434
98	Turaboyeva Madinaxon Raxmonjon qizi Ta‘lim olishdagi muvaffaqiyat va uning talabalar o‘quv faoliyatini rivojlantirishdagi roli	435-437
99	Dadajonova Saidaxon Qo‘shoqboy qizi, Mirzayev Otabek Xusanovich Buyuk Biritaniya maktabgacha ta‘lim tizimining o‘ziga xosliklari	438-441